

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

M. YO'LDOSHEV, Sh. MAMATQULOV, F. YO'LDOSHEV

---

---

# IQTISODIYOT NAZARIYASI

---

---

*Kasb-hunar kollejlari uchun darslik*

2-nashr

Toshkent — «ILM ZIYO» — 2016

UO'K 330.8 (075)  
KBK 65.01ya722  
Y73

*Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi ilmiy-metodik  
birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash  
tomonidan nashrga tavsiya etilgan.*

Hozirgi zamon iqtisodiyot ilmi ko'p qirrali bo'lib, uning tarkibiga 20 dan ortiq iqtisodiy fanlar kiradi. «Iqtisodiyot nazariyasi» darsligi ana shu fanlarning fundamental ilmiy-nazariy asoslaridan mamlakatimizning iqtisodiyot yo'nalishidagi kollejlarda ta'lim olayotgan o'quvchi yoshlarning yetuk mutaxassis sifatida tayyorlanishiga xizmat qiladi.

Darslik kasb-hunar kollejlari va akademik litsey o'quvchi yoshlariga mo'ljallangan. Shuning uchun darslikda iqtisodiyot nazariyasining asosiy tushunchalarini imkon boricha sodda tilda yoritishga harakat qilindi.

*Mas'ul muharrir:* **A. O'LMASOV** — O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, iqtisod fanlari doktori, professor.

*Taqrizchilar:* **A.Sh. BEKMURODOV** — iqtisod fanlari doktori, professor; **T.T. JO'RAYEV** — iqtisod fanlari doktori, professor; **M. SOLIYEV** — Andijon moliya-iqtisodiyot kollejining iqtisodiyot nazariyasi fani o'qituvchisi.

ISBN 978-9943-16-300-3

© M. Yo'ldoshev, Sh. Mamatqulov,  
F. Yo'ldoshev.  
© «ILM ZIYO» nashriyot uyi, 2016-y.

---

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillaridayoq, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikkinchi chaqiriq birinchi sessiyasida ta’kidlaganidek, «...mustaqil dunyoqarashga ega ajdodlarimizning bebaho me’rosi va zamonaviy tafakkurga tayanib ishlaydigan barkamol shaxs — komil insonni tarbiyalashdan iborat». Ana shunday ulug‘ maqsadlarni amalga oshirish uchun mamlakatimizda juda katta amaliy ishlar olib borilmoqda. «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunning qabul qilinishi va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ni joriy etish yo‘lidagi faol harakatlar buning isbotidir.

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» asosida ta’lim sohasini isloh qilishning birinchi bosqichida ushbu tizimning birinchi bo‘g‘ini bo‘lgan kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda olib borilgan o‘quv, o‘quv-uslubiy, ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy jarayonlar katta tajriba-sinov maydoni bo‘lib xizmat qildi. Islohotlarning keyingi bosqichlarida esa to‘plangan tajribalar asosida o‘quv dasturlari, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalarini hozirgi kun talabiga javob bera oladigan darajada yaratish zaruriyati tug‘ildi.

Shunga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 16-oktabrdagi «O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlari to‘g‘risida»gi 400-qaroriga ko‘ra hamda ta’limga oid yo‘riqnomalar talablari asosida barcha fanlar qatori «Iqtisodiyot asoslari» fani bo‘yicha ham o‘quv dasturi tayyorlandi. Ushbu dastur talablariga ko‘ra, o‘rta maxsus ta’lim tizimida «Iqtisodiyot asoslari» fanini chuqurroq o‘rganish alohida ahamiyatga egadir. Zero, o‘sib kelayotgan avlod barkamol va yetuk inson bo‘lishi uchun bozor iqtisodiyoti bo‘yicha har tomonlama nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lishini zamon taqozo etmoqda. Yangi o‘quv rejasida iqtisodiyot fani uchun ajratilgan o‘quv soatlari salmog‘i oshirilganligi va uni alohida «Iqtisodiyot nazariyasi» tarzida o‘qitilishi ta’lim islohotlarining yangi bosqichida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, hozirgi zamon iqtisodiy bilimlar zaminida butun jahonda yaratilgan tarixiy-iqtisodiy g'oyalar, qarashlar, ta'limotlar alohida ahamiyatga egadir. Lekin mamlakatimiz yoshlari, ayniqsa, mustaqil hayotga endigina kirib kelayotgan, kasb-hunar kollejlari da bilim olayotgan o'quvchi yoshlarni, eng avvalo, o'z milliy g'oya va milliy mafkuramiz, tarixiy-iqtisodiy qadriyatlar asosida tarbiyalash bebaho ahamiyatga ega. Shuning uchun ham darslikni ko'proq mamlakatimiz mustaqilligi yillarida iqtisodiy-ijtimoiy sohalar da erishilgan yutuqlarga asoslangan holda yozishga harakat qilindi.

Mamlakatimizning bugungi taraqqiyoti iqtisodiyotimizning umumjahon iqtisodiyoti bilan qanchalik darajada chuqur integratsiyalashuviga ham bog'liqdir. Shuning uchun milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiyoti bilan hamkorlik, integratsiyalashuv mohiyatini tushunish nazariy va amaliy ahamiyatga ega ekanligi nazarda tutilib, davlatimiz tomonidan mamlakatimizga ko'proq chet el investitsiyalarini olib kelishga, qo'shma korxonalar tashkil qilishga qaratilgan faoliyati ham kengroq yoritildi.

«Iqtisodiyot nazariyasi» darsligi 17 bobdan iborat bo'lib, iqtisodiyotning turli sohalariga oid eng asosiy mavzular, tushunchalar, tamoyillar qamrab olingan va ixcham hamda sodda bayon etilgan. Darslikda tayanch iboralar, takrorlash uchun savollar, topshiriqlar kabi ma'lumotlar berish maqsadga muvofiq deb hisoblangan holda har bir mavzuning oxirida uning asosiy mazmunini qamrab olgan savollar qo'yildi. O'quvchi yoshlarni ko'proq mustaqil ishlashga o'rgatish, iqtisodiy jarayonlarning, hodisalarning kelib chiqish sabablari, oqibatlarining asl mohiyati va mazmunini to'g'ri anglab yetishni ta'minlash asosiy maqsad bo'ldi. Ushbu ikkinchi nashr avvalgi nashrdagi kamchiliklari to'g'rilangan va ayrim ma'lumotlari yangilangan holda bosilmoqda.

Darslik ayrim kamchilik va xatolardan xoli bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun mualliflar kitob yuzasidan bildirilgan taklif, mulohaza va tanqidiy fikrlarni minnatdorlik bilan qabul qiladilar.

---

**1-bob. «IQTISODIYOT NAZARIYASI» FANINING  
PREDMETI VA O'RGANISH METODLARI**

**1.1. Jamiyat hayotida yuz beradigan iqtisodiy  
jarayonlar va iqtisodiy hodisalar**

Jamiyat hayotida yuz beradigan iqtisodiy jarayonlar va iqtisodiy hodisalar jamiyat taraqqiyoti va uning qonuniyatlari tahliliga bag'ishlangan tarixiy, iqtisodiy va boshqa ilmiy manbalarda keng yoritilgan. Odamlar hayot kechirish uchun dastlab tabiatdagi tayyor ne'matlarni iste'mol qilishib va o'zlashtirishib borishgan. Keyinchalik ular mehnat qilish orqali tabiat resurslari, yerlar, o'rmonlar, hayvonot dunyosi va boshqa moddiy boyliklarni o'zlashtirib, o'zlarining ehtiyojlarini qondirish uchun moddiy ne'matlar ishlab chiqara boshlashgan.

Shu tariqa keyinchalik mehnat jarayonlari rivojlanib, mehnat taqsimoti kengayib, chuqurlashib borishi, yangi-yangi mehnat turlarining paydo bo'lishi natijasida turli xil mahsulotlar ishlab chiqarila boshlandi. Bu holat, o'z navbatida, odamlarda ushbu mahsulotlarga ehtiyojlarni ham keltirib chiqargan. Bu esa o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo etuvchi jarayon sifatida rivojlana borishi jamiyatda tovarlar almashuvi jarayonining kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Natijada keyinchalik jamiyat natural xo'jalik yuritish orqali moddiy ne'matlar ishlab chiqarishdan tovar ishlab chiqarishga, ya'ni tovar xo'jaligiga o'tdi.

Bu iqtisodiy hodisa bizning davrimizda, ayniqsa, fan-texnika taraqqiyoti kabi iqtisodiy omillarning takomillashib borishida va odamlar o'rtasidagi aloqalarning keng ko'lamda rivojlanib borishida namoyon bo'lmoqda.

**1.2. Moddiy ne'matlar ishlab chiqarish —  
jamiyat hayotining asosi**

Inson tirik jon bo'lgani bois, birinchi navbatda, uning moddiy talab-ehtiyoji qondirilishi kerak. Shuning uchun insonlar moddiy ne'matlar ishlab chiqarish bilan uzluksiz shug'ullanadilar.

Bu iqtisodiy faoliyat deb yuritiladi. Iqtisodiyot inson faoliyatining asosiy jihati, jamiyat hayotining poydevori hisoblanadi. Demak, yuqorida keltirilgan fikrlardan ko‘rinib turibdiki, moddiy ne‘matlar ishlab chiqarish jamiyat hayotining asosini tashkil qiladi.

«Iqtisod» so‘zi tor ma‘noda inson yaratgan barcha ne‘matlarni, tabiatdagi barcha boyliklarni, insonning mehnatini tejab-tergab ishlatish ma‘nosini ifodalaydi. Keng ma‘noda iqtisodiyot deb atalgan holda, u, insonning tirikchiligini o‘tkazishga qaratilgan xo‘jalik faoliyati bo‘lib, bu faoliyat ishlab chiqarishdan boshlanib, yaratilgan mahsulotlar iste‘mol qilinishi bilan yakunlanadi.

Moddiy ne‘matlar ishlab chiqarish, ularni taqsimlash, sotish, almashtirish orqali o‘zlashtirish va iste‘mol qilinishi bilan bog‘liq kelib chiqadigan munosabatlar iqtisodiy munosabatlarni tashkil etadi. «Iqtisodiyot nazariyasi» fani ana shu iqtisodiy munosabatlarni o‘rganadi.

«Iqtisodiyot nazariyasi» umumiqtisodiy fanlar turkumiga kiruvchi fan hisoblanadi. Iqtisodiyot o‘zining rivojlanish qonun-qoidalariga va tamoyillariga ega. «Iqtisodiyot nazariyasi» ana shu qonun-qoidalarni ham o‘rganadi. Bu fan xorijda «Ekonomiks», «Ekonomika», «Politekonomiya» kabi nomlar bilan yuritiladi.

Iqtisodiyotni o‘rganadigan fanlar shartli ravishda uch guruhga: *umumiqtisodiy; xususiy iqtisodiy; funksional iqtisodiy* fanlarga ajratiladi.

- Umumiqtisodiy fanlar iqtisodiyotni bir butun yaxlitlikda o‘rganadi.
- Xususiy iqtisodiy fanlar iqtisodiyotning alohida sohasini o‘rganadi.
- Funksional iqtisodiy fanlar ayrim iqtisodiy faoliyat turlarini o‘rganadi.

Iqtisodiyot nazariyasi paydo bo‘lgandan buyon turli xil nomlar bilan atalib kelingan. Jumladan, XVII asrda uni «politekonomiya» deb atashgan va predmeti tovar ayirboshlash, ya‘ni savdo-sotiqni o‘rganadi, deb qarashgan. So‘ngra XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida «politekonomiya» boylikni o‘rganadi deyilgan. XIX asrning 2-yarmidan boshlab, marksizm ta‘limotida «politekonomiya» (siyosiy iqtisod)ni siyosiyashtirilib, sinfiy iqtisodiy munosabatlarni o‘rganadigan fan sifatida qaralgan. Shunga ko‘ra, proletar (ishchi sinfi) va burjuaziya (kapitalistlar sinfi) siyosiy iqtisodi deb qaralgan. Keyinchalik paydo bo‘lgan marjinalizm vakillari politekonomiya tovarlar nafliligi va uni odamlar qanday qabul qilishini o‘rgatuvchi fan deb baholashdi.

Mashhur iqtisodchi olim Alfred Marshallning yozishicha, «Politekonomiya yoki iqtisodiyot fani kishilik jamiyatining normal hayotiy faoliyatini tadqiq etadi. U individual va ijtimoiy xatti-harakatlarning shunday sohasini o'rganadiki, bu farovonlikning moddiy asosini yaratish bilan chambarchas bog'langan»<sup>1</sup>, ya'ni bu fan insonning iqtisodiy xatti-harakatlarini o'rganadi, deb ta'kidlaydi.

AQSHning taniqli iqtisodchi olimi, Nobel mukofoti sohibi P. Samuelson iqtisodiyot nazariyasi predmetiga juda keng ta'rif beradi:

1. Iqtisodiyot nazariyasi — ayirboshlash, pulli bitimlar bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat turlari haqidagi fan.

2. Iqtisodiyot nazariyasi — har xil tovarlarni (bug'doy, go'sht, yo'llar, kichik kemalar va h.k.) ishlab chiqarish maqsadida kishilar tomonidan noyob va cheklangan unumli resurslardan (yer, ishlab chiqarishga mo'ljallangan tovarlar, mehnat, mashinalar, texnika-viy bilimlar) foydalanilishi to'g'risidagi fan.

3. Iqtisodiyot nazariyasi — kishilarning kundalik ishbilarmonlik faoliyati, kishilarning tirikchilik uchun mablag' topishi va undan foydalanishi to'g'risidagi fan<sup>2</sup> deb qaraydi.

«Ekonomiks» kitobining mualliflari Kempbel R. Makkonell va Stenli L. Bryular iqtisodiyot nazariyasini cheklangan resurslar sharoitida kishilar tomonidan moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish, taqsimlash va iste'mol jarayonida o'zlarini qanday tutishlarini tadqiq qilishdan iborat<sup>3</sup> deb ko'rsatadilar.

So'nggi yillarda mamlakatimizda nashr etilgan adabiyotlarda aksariyat iqtisodchi olimlar iqtisodiyot nazariyasini cheklangan resurslar sharoitida iqtisodiy faoliyatning muqobil yo'llarini tanlab, faoliyat yuritishni o'rganadigan fan deb qaraydilar.

Jumladan, A. O'Imasov, A. Vahobov tomonidan nashr etilgan darslikda iqtisodiyot nazariyasining predmeti — bu kishilarning cheklangan iqtisodiy resurslar sharoitida muqobil xo'jalik yuritish asosida o'z ehtiyojini qondirishga qaratilgan xatti-harakatlari, bularni belgilovchi iqtisodiy shart-sharoitlar hisoblanadi<sup>4</sup> deyilgan.

---

<sup>1</sup> A. Marshall. Принципы экономической науки. М., 1993, стр. 5.

<sup>2</sup> П. Самуэльсон. Экономика. Том 1. М., 1992, стр. 7.

<sup>3</sup> К. Макконелл, С.Л. Брю. Экономикс. Том 1, 2. М., «Республика», 1992.

<sup>4</sup> А. О'Imasov, А. Vahobov. Iqtisodiyot nazariyasi. Т., 2006.

Sh. Shodmonov, R. Alimov, T. Jo'rayev tomonidan nashr etilgan o'quv qo'llanmada bu fanning predmetiga quyidagicha ta'rif berilgan: «Iqtisodiyot nazariyasi» fanining predmeti — iqtisodiy resurslar cheklangan sharoitda jamiyatning cheksiz ehtiyojlarini qondirish maqsadida moddiy ne'matlarni (va xizmatlarni) ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni, ijtimoiy xo'jalikni samarali yuritish qonun-qoidalarini o'rganishdan iborat<sup>1</sup>, deb aytish mumkin. So'ngra yanada to'laroq qilib, «Iqtisodiyot nazariyasi» fani iqtisodiy munosabatlarning turli shart-sharoitlarda, zamon va makonda shaklan va mazmunan o'zgaruvchanligini, ularni ifoda etuvchi ilmiy tushunchalar, qonun-qoidalarining ham o'zgarib turishini, ularning doimo harakatda, rivojlanishda bo'lishini o'rganadi. Bundan tashqari, iqtisodiyot nazariyasi turli iqtisodiy voqea-hodisalar va jarayonlarning mazmuni hamda mohiyatini o'rganibgina qolmay, ularning o'zaro aloqadorligini, bir-biriga ta'sirini ham tahlil qiladi deb, bu fanning predmeti ancha keng ekanligini ta'kidlashgan.

D. Tojiboyevaning ikki kitobdan iborat o'quv qo'llanmasida bu fanning predmetiga quyidagicha ta'rif berilgan: «Iqtisodiyot nazariyasi insonning moddiy ehtiyojlarini yuqori darajada qondirishga erishish maqsadida cheklangan ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish yoki ularni boshqarish muammolarini tadqiq etadi»<sup>2</sup>.

Bu fanning tadqiqot obyektini ayrim iqtisodchilar (A. O'lmasov) kishilarning xatti-harakatini yuzaga keltiruvchi omillar, kishilar o'zaro iqtisodiy munosabatlari, deb qaraydi. Iqtisodiy munosabat obyektini esa bu iqtisodiy munosabat nima xususida yuz bersa, mana shu bo'ladi, degan fikr bildiradi.

D. Tojiboyeva tadqiqot obyektini — bu iqtisodiy hodisalar, jarayonlar, ya'ni xo'jalik yuritish faoliyati, tadqiqot subyekti — bu inson, kishilar guruhi va davlatdir deb ko'rsatadi.

Albatta, har qanday ijtimoiy-iqtisodiy tizimda kishilar o'zaro iqtisodiy munosabatda bo'ladilar, bu ularning aloqalarida o'z ifodasini topadi. Iqtisodiy *munosabat subyekti* deganda, uning ishtirokchilari tushuniladi. Demak, iqtisodiy munosabatlarning

---

<sup>1</sup> Sh. Shodmonov, R. Alimov, T. Jo'rayev. Iqtisodiyot nazariyasi. T., «Moliya», 2002.

<sup>2</sup> D. Tojiboyeva. Iqtisodiyot nazariyasi. T., «O'qituvchi», 2002, 227-bet.



*asosiy subyektlari* — bu alohida kishilar, oila, ya'ni uy xo'jaligi, korxonalar, firmalar va boshqalar hamda davlat va uning sektoriga kiruvchi korxonatashkilotlar hisoblanadi.

Iqtisodiy munosabatlar ishlab chiqarish, ayirboshlash, yaratilgan ne'matlarni taqsimlash, ularni o'zlashtirish va iste'mol qilish bilan bog'liq kelib chiqadi. Demak, iqtisodiyot nazariyasi jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ishlab chiqarishning rivojlanish qonunlari, qonuniyatlari va cheklangan resurslar sharoitida turli muqobil usullardan foydalanib, samarali xo'jalik yuritish orqali ehtiyojlarni qondirish yo'llarini o'rganadigan fan hisoblanadi.

Iqtisodiy munosabatlarda har bir subyekt ishlab chiqaruvchi yoki iste'molchi hamda bir vaqtning o'zida ham ishlab chiqaruvchi, ham iste'molchi sifatida qatnashadi. Davlat ham iqtisodiy munosabatlarda teng huquqli subyekt sifatida ishtirok etadi, shu bilan bir qatorda jamiyatni boshqaruvchi apparat sifatida mamlakatda yaratilgan moddiy ne'matlarni taqsimlash, qayta taqsimlash, o'zlashtirish va iste'mol jarayonlarida boshqalar kabi faol ishtirok etadi. Davlat iqtisodiy munosabatlarni ma'lum bir tamoyillarga asoslangan holda tashkil etib, iqtisodiy mexanizm, iqtisodiy vositalar orqali munosabat ishtirokchilarini rag'batlantirish yoki ular faoliyatini cheklash yo'llari bilan iqtisodiyotni tartibga solib turadi.

### **1.3. Iqtisodiy qonunlar va qonuniyatlari**

Iqtisodiyot nazariyasida iqtisodiy jarayonlar, hodisalarning kelib chiqish sabab-oqibatlarini, ularning jamiyat hayotiga ta'siri o'rganilib, umumlashtirish jarayonida ayrim iqtisodiy hodisalar kishilar xohish-irodasidan tashqari ravishda sodir bo'lishi, mohiyatlari ochib beriladi. Bu holatni tadqiqotchi olimlar iqtisodiy qonunlar sifatida kashf qiladilar va ta'riflaydilar. Jumladan, A. O'lmasov *iqtisodiy qonunlar* — iqtisodiy jarayonlarning turli asosiy tomonlari o'rtasidagi muhim takrorlanib va yuzaga kelib turadigan uzviy, iqtisodiy zaruratni taqozo etuvchi sabab-oqibatni bildiruvchi o'zaro bog'lanishlardir deydi. D. Tojiboyeva esa qonunlar iqtisodiy hodisa va jarayonlar o'rtasidagi muhim, barqaror takrorlanuvchi, iqtisodiy zaruratni taqozo etuvchi sabab-oqibat, sifat va miqdor bog'lanishlari, aloqalaridir, deb ko'rsatadi.

Bizning nazarimizda «Iqtisodiyot nazariyasi» fani tomonidan o'rganiladigan iqtisodiy qonunlar — bu jamiyat iqtisodiy hayotida

sodir bo'lib, doimo takrorlanib turuvchi, ma'lum sabab va oqibat aloqalarining o'zaro bog'liqligini ifodalovchi obyektiv, ya'ni kishilar xohish-irodasiga bog'liq bo'lmagan, lekin insonlar tomonidan kashf etilgan ilmiy-nazariy tushunchalardir. Bu ta'rifdan ko'rinib turibdiki, ayrim iqtisodiy hodisalar muqarrar takrorlanib turuvchi birlari bilan o'zaro bog'liq aloqadorlikni bildiradi.

*Iqtisodiy qonunlar* — iqtisodiy munosabatlar in'ikosidir. Iqtisodiyot katta bir olam, ulkan makondir, unda bir-biriga bog'liq munosabatlar, bog'liqlik va aloqadorliklar mavjud. Ana shu jarayonlarning o'zi keng ko'lamlı va serqirradir. Bu murakkab iqtisodiy jarayonlar yoki voqealar ichida shundaylari borki, ular muhim o'zaro bog'lanishga va sabab-oqibat aloqalariga ega. Ular doimo takrorlanib, ana shunday iqtisodiy voqealar, hodisalar iqtisodiy qonunlarda o'z ifodasini topadilar. Iqtisodiy qonunlar chuqur mohiyatli va sabab-oqibatli bog'langan iqtisodiy hodisa hamda voqealarning ilmiy intiqosidir. Demak, juda chuqur mohiyatga, sabab va oqibatli bog'liqliklarga, doimo o'z borligini ko'rsatib turadigan iqtisodiy munosabatlarga iqtisodiy qonunlar deyiladi. Jamiyatdagi barcha ishlab chiqarish va taqsimotga, almashuv va iste'molga bog'liq bo'lgan munosabatlar iqtisodiy qonunlar orqali boshqariladi, yo'naltirilib turiladi.

Iqtisodiy qonunlarning tabiat qonunlari bilan o'xshashlik tomoni bor, ya'ni har ikki turdagi qonunlar ham obyektiv qonunlardir. Ularning kelib chiqishi, amal qilishi yoki barham topishi odamlarning, sinflar yoki siyosiy partiyalarning istaklari, xohish-irodasi, talab-ehtiyojlariga aslo bog'liq emas. Masalan, quyoshning ma'lum vaqtda chiqishi yoki uning botishini kechiktirib yoxud to'xtatib turish mumkin bo'lmaganidek, iqtisodiy qonunlarning ham amal qilishini to'xtatib qo'yish, bekor qilishning iloji yo'q.

Iqtisodiy qonunlarning obyektivligi (odamlar xohish-irodasiga bog'liq emasligi) «ularni bilib olish mumkin emas ekan, ularning «siri»ni ochish odamlarning qo'lidan kelmas ekan», degan tasavvurlar uchun asos bo'la olmaydi. Aksincha, odamlarning kuchi, ularning aql-zakovati, tafakkur olami o'zlarini o'rab turgan muhitni, shu jumladan, iqtisodiy qonunlarni ham bilib olish uchun yetarli. Odamlar o'z ilmiy tafakkurlari, bilimlari orqali iqtisodiy qonunlar mohiyatini, harakat va amal qilish mexanizmini bilib boradilar, ular oldiga qo'yadigan talablarni o'rganib oladilar.

Xulosa shuki, iqtisodiy qonunlar obyektiv bo'lsa-da, ularni bilib olish, xo'jalik faoliyatida ulardan samarali foydalanish

imkoniyati odamlar ixtiyoridadir. Jamiyat tomonidan iqtisodiy qonunlarni bilib olishga ko'proq e'tibor berilsa, ulardan foydalanishga yo'l ochilgan bo'lsa, unda iqtisodiy o'sish, barqarorlik va taraqqiyot ta'minlanadi. Iqtisodiy qonunlar talablari bilan hisoblashmaslik, iqtisodiyotni inqirozga olib kelishi ham mumkin.

Iqtisodiy qonunlar odamlar tomonidan yaratilmaydi, balki kashf etiladi, ochiladi. Iqtisodiy tafakkur, iqtisodiy qonunlarni kashf etadi, mohiyatini tushuntirib beradi va bu qonunlarning odamlar oldiga qo'yayotgan talablarni ko'rsatib beradi.

Iqtisodiy qonunlarni bilib olmay turib ham iqtisodiyotni tashkil etish, boshqarish, iqtisodiy hayotni qurish, moddiy va nomoddiy ne'matlar ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta'minlash mumkinmi? Bu savolga «ha, mumkin» deb javob bersa bo'ladi. Ammo, iqtisodiy qonunlarni bilib olmay iqtisodiyot yuritilganda, pirovard natijalari samarasiz yoki kam samarali bo'ladi, ishlab chiqarishda yuksak natijalarga, barqaror o'sish sur'atlariga erishib bo'lmaydi. Bunday ahvolda odamlarning o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirib borishning imkoni bo'lmaydi, ularning turmush darajasi, ijtimoiy ahvoli yomonlashadi. Natijada jamiyat iqtisodiy tanazzulga uchrashi mumkin.

Iqtisodiy qonunlar butun bir tizimdan iborat bo'lib, bu tizimda har bir qonunning o'z o'rni bor. «Iqtisodiyot nazariyasi» fani ana shu iqtisodiy qonunlarning harakat mexanizmini o'rganib, ularni umumiqtisodiy va maxsus, ya'ni ayrim iqtisodiy tizimlarga xos qonunlarga bo'ladi.

*Umumiqtisodiy qonunlar* — jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida amal qiluvchi qonunlar, ya'ni ijtimoiy mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, mehnat unumdorligining o'sib borishi, vaqtni tejash, ehtiyojlarning doimo o'sib borishi va jamg'arish kabi qonunlardir. Bu qonunlar jamiyat iqtisodiy-moddiy va ma'naviy boyliklarining ko'payib, yuksalib borishini ta'minlashga xizmat qiladigan asosiy qonunlar hisoblanadi. Umumiy iqtisodiy qonunlarning xususiyati shundaki, ular mazkur aniq sharoitda o'ziga xos harakat xususiyati bilan namoyon bo'ladi. Shu bilan birga mavjud iqtisodiy davr mohiyati barcha iqtisodiy qonunlar tizimidagina o'zining keng va batafsil ifodasini topadi.

*Ayrim iqtisodiy tizimlarga xos iqtisodiy qonunlar* — bular faqat muayyan ayrim ijtimoiy-iqtisodiy tizim doirasida amal qiluvchi, shu tizimning o'ziga xos xususiyatlarini ifoda etuvchi qonunlardir.

Masalan, talab qonuni, taklif qonuni, me'yoriy naflilik qonuni, raqobat qonuni bozor tizimiga xos qonunlar sifatida o'rganiladi.

Qonunlar o'rganilganda, dastlab ularning mazmuni ochib beriladi va bunga ularni ta'riflash orqali erishiladi. Iqtisodiyot rivojlanishi yoki iqtisodiy tizimlar o'zgarishi bilan ayrim iqtisodiy qonunlar o'rniga boshqa yangi qonunlar kirib kelishi mumkin.

Qonunlar o'rganilganda ularni ikki jihatda, *birinchidan*, sifat jihatdan, bunda qonunlar o'zi nimani taqozo etishi, ya'ni ular muntazam takrorlanib turuvchi qanday iqtisodiy hodisalar o'rtasida bog'liqlikni ifoda etishlari o'rganiladi. *Ikkinchidan*, miqdoriy jihatdan o'rganilganda, muayyan qonunning amal qilishini ifodalovchi miqdoriy ko'rsatkichlar tahlil etiladi, natijada qonunlar amal qilishining miqdoriy o'lchami aniqlanadi.

Qonunlarning sifat va miqdoriy jihatdan o'rganilishining amaliy ahamiyati shundaki, tadbirkorlar o'z xo'jalik faoliyatlarini ularga asoslanib tashkil etishganda, ya'ni ular iqtisodiyotda bo'layotgan o'zgarishlarga moslashtirib olib borishsa yuqori natijalarga erishish mumkin bo'ladi. Bu esa iqtisodiyot nazariyasining amaliy hayot bilan bog'lanishiga erishilishini ta'minlaydi. Demak, mazkur fan iqtisodiy qonun va qonuniyatlarni obyektiv, ya'ni kishilar xohishlariga bog'liq emasligi, ularni o'z bilganicha bekor qila olmasligini, lekin ularni anglab yetgan holda ularning talabiga moslashib, faoliyat ko'rsatishlari kerakligini o'rgatadi.

#### **1.4. Iqtisodiy kategoriyalar**

«Iqtisodiyot nazariyasi» fani jamiyatda sodir bo'ladigan iqtisodiy hodisalar, jarayonlar va ulardagi o'zgarishlarni iqtisodiy kategoriyalar yordamida tushuntirib beradi. *Iqtisodiy kategoriyalar* — bu real iqtisodiy voqelikning, iqtisodiy munosabatlarning muhim tomonlarini o'zida ifoda etgan ilmiy-nazariy tushunchalardir.

U yoki bu iqtisodiy munosabat, iqtisodiy qonun, iqtisodiy jarayon haqida iqtisodiy bilim hosil qilmoq uchun ularni ifodalovchi iqtisodiy tushunchalarga, ya'ni kategoriyalarga murojaat qilinadi. Boshqacha aytganda, iqtisodiy kategoriyalar orqali iqtisodiy munosabatlar mohiyati to'g'risida to'laqonli tasavvur hosil qilish mumkin. Shuning uchun iqtisodiyot ilmini o'rganish iqtisodiy kategoriyalarni bilib olishdan boshlanadi. Iqtisodiy kategoriyalarni iqtisodiyot ilmining «tili» deyish mumkin.

Har bir iqtisodiy kategoriya o'z mazmuniga, amal qilish xususiyati va o'ziga xos ifodasiga ega. Iqtisodiy kategoriyalar o'ziga xos tizimdan iborat bo'lib, bu tizimda har bir kategoriyaning o'z o'rnini, mohiyati, mavqeyi bor. Masalan, ma'lum iqtisodiy davr iqtisodiyoti holati bir necha iqtisodiy kategoriyalar orqali ifodalanadi: jami ijtimoiy mahsulot, yalpi ichki mahsulot, milliy daromad, yalpi daromad kabilar. Ko'rsatilgan iqtisodiy kategoriyalar tizimida ayrim kategoriyalar iqtisodiy holatni umuman aks ettirsa, ba'zilari nisbiy jihatdan tavsiflaydi. Agar sof mahsulot iqtisodiyot holatining buyum (mahsulot) tarzini, ijtimoiy sarfni ifodalasa, milliy daromad pul hisobidagi (taqqoslama yoki qat'iy baholardagi) holati haqida tushuncha beradi va h.k.

Iqtisodiy kategoriyalar ham obyektiv, ham tarixiydir. Iqtisodiy kategoriyalar iqtisodiy munosabatlarning ifodasi bo'lganligi uchun ham obyektivdir. Ularning mavjudligi ular ifodalaydigan iqtisodiy jarayonlarning mavjudligiga bog'liq. Iqtisodiy jarayon doimo o'zgarishda, rivojlanishda bo'lganligi uchun iqtisodiy kategoriyalar ham o'zgarishda, rivojlanishda, ular abadiy emas, balki iqtisodiy qonunlar kabi tarixiydir. Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalarning tarixiy xarakterda bo'lishi iqtisodiy adabiyotlarda asoslab berilgan. Iqtisodiy kategoriyalarning tarixiyli shundaki, ularni vujudga keltirgan iqtisodiy zamin, iqtisodiy sharoit o'zgarishi bilan, boshqa iqtisodiy asoslar, sharoitlar, iqtisodiy munosabatlar vujudga kelishi bilan iqtisodiy kategoriyalar ham o'zgaradi yoki barham topadi yoxud boshqacha shaklda namoyon bo'la boshlaydi.

Biz yashayotgan va faoliyat yuritayotgan hozirgi davr o'z xarakteri bilan bozor iqtisodiyotiga o'tish davri, iqtisodiy vositalar bilangina xo'jalik yuritish mumkin bo'lgan davrdir. Zero, bugun bu munosabatlarni ifodalaydigan iqtisodiy, taraqqiy etgan dunyoning axborot tizimini, radio va televideniye, matbuot materiallarini tushunish, idrok etish mumkin bo'lmay qoldi. Buning ma'nosi shuki, davr bilan hamnafas bo'lish uchun, samarali faoliyat ko'rsatish va shaxsiy hayotini o'z mo'ljalidek tashkil etish uchun iqtisodiy tafakkur «kaliti» bo'lmish iqtisodiy qonunlar va kategoriyalarni chuqur o'rganmoq zarurdir.

Iqtisodiy kategoriyalar ikki guruhga bo'linadi:

*Umumiqtisodiy kategoriyalar* — bular iqtisodiy taraqqiyotning hamma bosqichlarida mavjud bo'ladi, masalan, ehtiyoj, mehnat, ishchi kuchi, iqtisodiy resurs, ishlab chiqarish, mahsulot, iste'mol, jamg'arish kabi tushunchalar. Bu kategoriyalar iqtisodiyotning

umumiy jihatlarini izohlab, barcha iqtisodiy tizimlarda ham mavjud bo'ladi.

*Ayrim ijtimoiy-iqtisodiy tizimga xos kategoriyalar.* Masalan, tovar, qiymat, pul, talab, taklif, narx, foyda, kredit, emissiya, inflatsiya kabi tushunchalar bozor tizimiga xos bo'lib, bular shu tizim tahlilida qo'llaniladi. Iqtisodiyot rivojlanib, iqtisodiy munosabatlarning takomillashib borishida ularning roli juda kattadir. Iqtisodiyot rivojlanishi bilan ayrim iqtisodiy kategoriyalar eskirishi, boshqalari kirib kelishi mumkin. Iqtisodiy kategoriyalar iqtisodiy hodisalarning mohiyatini tushunib yetishda asosiy bazaviy tushuncha sifatida xizmat qiladi.

### **1.5. Asosiy iqtisodiy tushunchalar va iqtisodiy ko'rsatkichlar**

Biz oldingi paragraflarda ko'rsatib o'tganimizdan ma'lumki, iqtisodiyot nazariyasi iqtisodiy hodisalar, jarayonlar, ularning sabablari, oqibatlari, ularga xos bo'lgan qonun-qoidalarni o'rganadi. Iqtisodiy hodisalar, munosabatlar o'z holicha emas, balki kishilarning manfaatlariga tatbiqan tahlil etiladi va kishilarning iqtisodiy xatti-harakatlarining asl sabablari ochib beriladi. Iqtisodiyotni o'rganishda har xil ilmiy tushunchalar va bir qator iqtisodiy ko'rsatkichlar shakllangan. Ular yordamida iqtisodiy hodisalarning mazmun-mohiyati ochib beriladi.

Jumladan, mehnat, daromad, foyda, tovar, pul, talab, taklif, iqtisodiy resurs, tadbirkorlik, iqtisodiy tanlov, xarajat, zarar, naflik, raqobat, bankrotlik kabi bir qancha tushunchalar iqtisodiyotda keng qo'llaniladi. Bu tushunchalarning iqtisodiy mazmun-mohiyatini to'g'ri tushunib yetish, ulardan o'z iqtisodiy faoliyatimizda to'g'ri foydalanish ko'zlangan samaraga erishuvimizga yordam beradi. Ma'lumki, iqtisodiyot statik, to'xtab turib qolgan holatda emas, balki dinamik holatda, ya'ni rivojlanish jarayonida olib qaraladi, unga xos muammolarni hal etish usullari tahlil etiladi. Iqtisodiyot ilmida xulosalar chiqarish o'z-o'zidan va mavhum holda emas, balki jamlangan ma'lumotlarni umumlashtirish asosida qonun-qoidalar shaklida ifodalab beriladi. Shu bois iqtisodiyotga oid juda ko'p ko'rsatkichlarni batafsil o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

*Iqtisodiyotning umumlashma ko'rsatkichlari.* Ishlab chiqarish jarayonida juda ham xilma-xil mahsulotlar yaratiladi, turli-tuman xizmatlar ko'rsatiladi, ma'naviy ne'matlar vujudga keltiriladi. Ular ma'lum iqtisodiy ko'rsatkichlar yordamida hisoblab boriladi,

baholanadi. Bu ish iqtisodiyotning holatini aniqlash, ne'matlarni to'g'ri taqsimlash, ayirboshlash va maqsadli iste'mol qilish uchun bajariladi. Iqtisodiyotning holati, jamiyatning boyligi, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligi butun bir iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi orqali o'lchanadi, ularning ba'zilari umumiy xarakterga, ba'zilari xususiy xarakterga egadir.

Butun ijtimoiy ishlab chiqarishning bir yil ichidagi natijasi, yaratilgan ne'matlar yig'indisi jami ijtimoiy mahsulot deb ataladi. U moddiy ishlab chiqarish sohasida band bo'lgan barcha xodimlarning mehnat mahsulidir. U buyum shaklida ishlab chiqarish vositalaridan va iste'mol buyumlaridan iborat bo'ladi. Bozor munosabatlari hukm surgan sharoitda jami ijtimoiy mahsulot yana qiymat shaklida ham hisoblanadi. Jami ijtimoiy mahsulotning qiymat (pul) ko'rinishi orqali mamlakat iqtisodiyotida ro'y bergan miqdor o'zgarishlari (iqtisodiy o'sish yoki iqtisodiy inqiroz) bilib boriladi. Jami ijtimoiy mahsulotning pul ifodasi ma'lum muddatlarga qat'iy baholanadi, mamlakatning milliy valutasida ifodalanadi.

Iqtisodiyotning umumlashma ko'rsatkichlaridan yana biri *yalpi milliy mahsulotdir* (YMM). U mamlakatdagi va mamlakatdan tashqaridagi korxonalar iqtisodiy faoliyati to'liq natijasining ifodasi hisoblanadi. *Yalpi ichki mahsulot* (YIM) esa YMMdan shu bilan farq qiladiki, u faqat shu mamlakat ichkarisida moddiy ishlab chiqarishning va barcha noishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatishning ham ish natijasidir. YIM mamlakatdagi barcha korxonalar (ularning qaysi idoraga bo'ysunishidan, qanday mulk shakliga mansubligidan qat'i nazar), tashkilotlar, idoralar, kooperativlar, uyushmalar, firmalar, konsernlar, korporatsiya yoki kompaniyalarning yillik faoliyati natijasi ifodasidir.

YIM tarkibida xizmatlar ham muhim, salmoqli o'rin tutadi. Shuning uchun yalpi milliy mahsulotni ko'paytirishda mamlakat xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarini safarbar qilish, har bir kishi faoliyatini yaxshilash katta ahamiyat kasb etadi.

Yalpi milliy mahsulotning bir qismi sof mahsulotdir. *Sof mahsulot* — jamiyatda ma'lum bir davrda butunlay yangidan yaratilgan mahsulotdir, u sarf qilingan jonli mehnatning moddylashgan ifodasidir. U yangidan yaratilgan mahsulot deb ham ataladi. Sof mahsulot ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini ko'rsatuvchi muhim kategoriyadir.

Sof mahsulot iqtisodiy hayotda sof daromad ko'rinishida namoyon bo'ladi. Sof daromad korxonalar yoki firmalar daromad-

larining pul shaklidagi ifodasidir. Biroq ular miqdor jihatdan farq qiladi, sof mahsulot ma'lum miqdorga (agar milliy valuta barqarorligi ta'minlanib turilgan bo'lsa) sof daromaddan kamroqdir. Sof daromad kategoriyasi orqali korxonalar iqtisodiy faoliyatiga baho berilishi mumkin. Zero, bu faoliyat samaradorligi boshqa ko'rsatkichlarda ham ifodalanadi.

*Jamiyat boyligini qaysi ko'rsatkichlar to'laroq ifodalaydi?*

Jamiyatning boyligi, iqtisodiy taraqqiyot darajasi faqat yillik natijalar bilangina emas, balki ana shu natijalarning qanchasi saqlanib qolganligi, ishlab chiqarish va shaxsiy hayot uchun asqatayotganligi, joriy davr uchun qanday darajada xizmat qilishi bilan ham o'lchanadi. Milliy boylik ana shunday iqtisodiy ko'rsatkichdir. U mamlakat ma'lum bir paytda ega bo'lgan barcha narsalardir, uning butun tarixiy taraqqiyoti davrida jamg'arilgan vositalar, noz-ne'matlar, iste'mol buyumlaridir, ma'naviy boyliklaridir.

Milliy boylikka mamlakatdagi tarixiy obidalar, yodgorliklar, yozma manbalar, adabiyot va san'at asarlari va boshqalar ham kiradi. O'zbekiston milliy boyligini, yuqorida ko'rsatilganlar bilan birga, tabiiy resurslar, ishlab chiqarish fondlari, ijtimoiy sohaning barcha imkoniyatlari, to'plangan tajribalar, fan-texnika yutuqlari, milliy kadrlarimizning tafakkuri va boshqalar tashkil etadi. Bunday milliy boylikni milliy daromad hisobidan ko'paytirib borish, uni xalq manfaatlariga xizmat qildirish eng muhim vazifadir.

*Milliy daromad ko'rsatkichi.* Milliy daromad ham iqtisodiyotning g'oyat muhim ko'rsatkichi, samaradorlik mezon, jamiyat boyligini to'laroq tavsiflovchi iqtisodiy vositadir. Milliy daromad hosil qilingan sof mahsulotning qiymat ifodasi yoki pul ko'rinishidir. Milliy daromad baholarning o'zgarib turishidan «tozalangan», o'zgarmas baholarda hisoblangan taqdirdagina iqtisodiyotning haqiqiy «ko'zgusi» bo'la oladi. Milliy daromad mamlakat xalqining farovonligi va barqaror rivojlanishining moddiy manbayidir. Shuning uchun milliy daromadni ko'paytirishning barcha vositalari va yo'llari ishga solinadi.

Milliy daromadning ko'payishi, asosan, uch omilga bog'liq:

- 1) ishlab chiqarishda band bo'lgan kishilarning ma'lum miqdori;
- 2) band aholi mehnati unumdorligining ortishi;
- 3) tadbirkorlik va ishbilarmonlik, biznes faoliyati.

Jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida bu uch omil nisbati turlicha ahamiyat kasb etadi. Hozirgi fan-texnika taraqqiyoti



sharoitida ikkinchi omil kuchliroq rol o'ynamoqda. Aholining ishlab chiqaruvchilarga xizmat ko'rsatuvchi qatlamlarining ko'payishi ham ikkinchi omilda o'z ifodasini topadi. Biroq, hozirda rivojlangan mamlakatlarda milliy daromadni ko'paytirish tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, ishlab chiqarish sohaslarida bevosita band bo'ladigan mehnat resurslari sonini ko'paytirish yalpi milliy mahsulot miqdorining ko'payishiga har doim ham olib kelavermaydi, aksincha, ishlab chiqarishning rivojlanishi noishlab chiqarish sohaslarining rivojlanishiga, xizmat ko'rsatish tarmoqlarida bandlikni oshirish, iqtisodiy o'sishga olib keladi.

Boshqacha aytganda, ishlab chiqarish atrofida shakllanadigan iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishi milliy daromadni ko'paytiradi. Masalan, AQSH, Gollandiya, Germaniya kabi davlatlarda qishloq xo'jaligida 2—4 % aholi band bo'lishiga qaramay, ular o'zlarining qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan ichki ehtiyojlarini batamom ta'minlabgina qolmay, balki bu xil mahsulotlar asosiy qismini eksport qilishga ham erishmoqdalar. O'zbekistonda ham hisob-kitoblarga qaraganda kelajakda qishloq xo'jaligidagi ishlarni ko'pi bilan 1,5—2 mln kishi bajarishi mumkin. Vaholanki, hozirgi vaqtda bu tarmoqda talab qilinganidan ikki baravardan ziyodroq kishi ishlamoqda. Bu sohaning samaradorligini keskin ko'tarish uchun ortiqcha mehnat resurslarini qishloqlarda olib borilayotgan sanoat, maishiy xizmat va madaniy sohadagi qurilishlarga jalb etish lozim.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy agrar siyosat va islohotlarning asosiy yo'nalishi ham ana shundan iboratdir. Har bir mamlakatda uning boyligini ko'paytirish, yuksak iqtisodiy rivojiga erishishning o'z xususiyatlari, vositalari, yo'nalishlari mavjud. O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimovning bir qator asarlarida, ma'ruza va nutqlarida bu xususiyatlar yetarli darajada keng bayon qilib berilgan. Xo'sh, O'zbekiston boyligi qanday qilib ko'payadi, uning taraqqiyoti nimalar hisobiga ta'minlanishi mumkin:


1) yerosti va yerusti resurslaridan samarali foydalangan holda tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish, ular bilan o'zimizni ta'minlash bilan birga chetga eksport qilishga kirishish hisobiga;

2) ishlab chiqarish tarkibiy tuzilishini tubdan qayta qurish, iste'mol buyumlari ishlab chiqarish ustuvorligini ta'minlash hisobiga;

3) qishloq xo'jaligida yerga egalik qilishning yangicha shakllarini vujudga keltirish, qishloqlarda iqtisodiy islohotni amalga oshirish, sanoat va maishiy xizmatni rivojlantirish hisobiga;

- 4) bazaviy sohalarni (mashinasozlik, neft va gaz ishlab chiqarish, energetika) ustuvor rivojlantirish hisobiga;  
 5) mamlakatimizda sayyohlikni, ayniqsa, xalqaro sayyohlikni rivojlantirish va boshqalar hisobiga ko‘payishi mumkin.


#### Yalpi milliy mahsulot va uning tarkibi




#### 1.6. «Iqtisodiyot nazariyasi» fanining metodologik asoslari

«Metodologiya» atamasi ko‘p mazmunli bo‘lib, turli manbalarda turlicha talqin etiladi (usullar haqidagi nazariya, usullar majmuyi, falsafiy usul va h.k.). Metodologiya bilimning qaysi sohasida ishlab chiqilishidan qat’i nazar, barchasida u yagona boshlang‘ich prinsiplarga bo‘ysunadi, o‘z mohiyatiga ko‘ra, bir turdagi, ya’ni mazkur fan uchun yaroqli bo‘lgan usullarni qidirish va nazariy jihatdan asoslash, ular ustidan amallar bajarish tartibini

**Bilishning umumilmiy, maxsus va xususiy usullari,  
ularning o'zaro aloqadorligi**





ishlab chiqish, ularning bilish imkoniyatlarini va qo'llash sohalarini aniqlash muammolarini hal etadi.

Metodologiya qaysi muayyan fanga xizmat qilishi va qanday usullarni, ya'ni umumiy, umumilmiy yoki xususiy usullarni ishlab chiqishiga ko'ra, alohida tur va ko'rinishlarga bo'linadi. Har bir fan o'zining maxsus predmetiga ega ekan, u muqarrar ravishda o'zining tadqiqot usulini yaratadi. Bu usul talablari orqali uning predmet xususiyatlari o'z aksini topadi.

Metodologiya «Iqtisodiyot nazariyasi» fani uchun ham, boshqa fanlar uchun ham yagona bo'lgan boshlang'ich prinsiplarga bo'ysunadi, umumiy metodologik muammolarni hal etadi, biroq bularning barchasini mazkur fanga nisbatan, uning predmeti xususiyatlarini hisobga olgan holda bajaradi.

«Iqtisodiyot nazariyasi» fani jamiyat iqtisodiy munosabatlarini ma'lum ilmiy tamoyillarga asoslangan holda o'rganadi. Iqtisodiyot nazariyasi iqtisodiy jarayon va hodisalarni, eng avvalo, tizimiy yondashuv asosida o'rganadi. Bunda iqtisodiy munosabat qismlarga ajratilib, ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimot, o'zlashtirish va iste'mol bilan bog'liq kelib chiqadigan munosabatlar har biri alohida o'rganiladi, ulardan har biriga xos bo'lgan xususiyatlar aniqlanadi. Masalan, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi qonuniyatlari, taqsimotning ijtimoiy-iqtisodiy tizim xarakteri bilan bog'liqligi o'zlashtirish va iste'molning o'ziga xos jihatlarini alohida ajratib o'rganiladi.

Ajratilgan bloklar tahlil etilgach, ular faoliyatining shart-sharoiti va belgilari, ular qanday funksiyani bajarishi va ularning birbirlariga o'zaro ta'siri hamda oqibatlari aniqlanadi. Iqtisodiyotning

turli jihatlari tahlilidan so'ng, ular birgalikda qaraladi, turli bloklar majmuyidan iborat iqtisodiyot yaxlit bir tizim sifatida nima ekanligi, u qanday rivojlanish qonuniyatlarga ega ekanligi ko'rsatiladi. Iqtisodiy jarayonlarni o'rganishda kompleks yondashuv — tizimiylik tamoyilining namoyon bo'lishini ifodalaydi.

Iqtisodiyot nazariyasining iqtisodiy jarayonlarni o'rganishdagi yana bir muhim metodologik yondashuvi tamoyili — bu iqtisodiyot va tabiatni o'zaro bog'liqlikda qarashdir.

Iqtisodiyot nazariyasi ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishida tabiat resurslarining o'rni va ulardan samarali foydalanish jamiyat ehtiyojlarini qondirishning asosiy vositalaridan biri va undan noto'g'ri foydalanish iqtisodiyotni izdan chiqarishi, tabiatga putur yetkazishi, ekologik muvozanatni buzishi va bu bilan iqtisodiyotni inqirozga olib kelishi ham mumkin. Shuning uchun iqtisodiyot nazariyasi predmetida resurslarning cheklanganligi, undan foydalanish bilan bir qatorda uning qaytadan tiklanishi masalalari inson iqtisodiy faoliyatining eng muhim sharti ekanligini uqtirib borishni ham asosiy vazifa sifatida qaraydi.

Iqtisodiyot nazariyasining yana bir asosiy metodologik tamoyili — bu iqtisodiyotni statik holatda, ya'ni o'zgarmas qotib turib qolgan holatda emas, balki dinamikada — o'zgarishda, rivojlanishda olib o'rganishdir. Iqtisodiyot nazariyasi iqtisodiy hodisalarning kelib chiqishi, o'zgarishlari, rivojlanishi sabab va oqibatlarini obyektiv qonuniyat sifatida qaraydi. Iqtisodiyotning rivojlanishiga xos bo'lgan tendensiyalarni aniqlab, ularning yo'nalishlarini ko'rsatib beradi. Bu xo'jalik faoliyati subyektlariga kelajakda o'z faoliyatlarini qanday tashkil etish kerakligini aniqlashga yordam beradi.

Iqtisodiyot nazariyasining yana bir metodologik tamoyili — bu iqtisodiy jarayonlarni ishlab chiqarishdagi, umuman, jamiyat hayotidagi texnik, texnologik o'zgarishlarni hisobga olib o'rganishdir. Texnika va texnologiya ishlab chiqarishning asosiy qurol vositasi bo'lganligidan, undagi jiddiy o'zgarishlar iqtisodiy faoliyatni tubdan yangilab yuboradi. Mana shu narsani nazariya e'tibordan qochirmaydi va ishlab chiqarish kuchlarida sodir bo'lgan o'zgarishlar, iqtisodiy munosabatlarda o'z aksini topib borishini ko'rsatib beradi.

Iqtisodiyot nazariyasining yana bir metodologik tamoyili — bu iqtisodiyotni jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, milliy, demografik,

ruhiy-axloqiy va boshqa hayoti bilan bog'liq holda o'rganishidir. Chunki ular ham iqtisodiy rivojlanishga bevosita ta'sir qiluvchi omillar hisoblanadi. Bu sohalardagi o'zgarish iqtisodiyotda ham o'z aksini topib, uning rivojlanishiga ijobiy yoki salbiy ta'sir o'tkazadi.

«Iqtisodiyot nazariyasi» fanining predmetini o'rganish ikki bosqichni o'z ichiga oladi. Birinchi bosqichda kuzatish amalga oshiriladi, iqtisodiyotga oid ma'lumotlar to'planadi, ularga umumiy baho beriladi va xulosa chiqarilib, gipoteza olg'a suriladi. Ikkinchi bosqichda gipotezalar sinab ko'riladi, ular tasdiqlansa, qabul qilinadi va ular asosida ilmiy-nazariy xulosalar, qonun-qoidalar ishlab chiqiladi. Nazariy xulosa amaliyot sinovlaridan o'tsa, real iqtisodiy hayot nazariy qoidani doimo tasdiqlab tursa, iqtisodiyot nazariyasining qonun-qoidasiga aylanadi.

Iqtisodiyot nazariyasi iqtisodiy jarayonlar, hodisalarni o'rganishda turli usullardan foydalanadi. Shulardan biri ilmiy abstraksiyalash hisoblanadi. U iqtisodiy nazariyaning asosiy usuli hisoblanadi. Uning yordamida iqtisodiy hodisalar ularga ta'sir etuvchi boshqa omillardan xalos etilib, ularga ilmiy baho beriladi. Abstraksiyalash metodi o'zagida mantiqiy usul yotadi, ya'ni mantiq yordamida iqtisodiy hodisalarning o'zaro bog'lanishi, ularning umumiyliigi va farqlari, kelib chiqish sabablari va oqibatlari aniqlanib, bo'lg'usi iqtisodiy hodisa taxmin qilinadi.

Abstraksiyalash asosida iqtisodiyotning nazariy modeli yaratiladi. Lekin model har doim ham real iqtisodiy voqelikni aks ettiravermaydi, faqat aks ettirgandagina ilmiy hisoblanadi.

Iqtisodiyot nazariyasi predmetini tahlil qilishda pozitiv va normativ usullar qo'llaniladi. Pozitiv usulda iqtisodiy voqelik nazariy jihatdan tushuntirib beriladi, ya'ni u ilmiy talqin qilinadi. Normativ usulda iqtisodiy voqelikning amalda qanday bo'lishi kerakligi va buning uchun nima qilish zarurligi tavsiyalar sifatida beriladi.

Iqtisodiyot nazariyasida iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tahlil qilishda induktiv va deduktiv usullardan foydalaniladi. Induktiv usulda hodisalar kuzatiladi, ular umumlashtiriladi va umumiy xulosalar chiqariladi. Deduktiv usulda esa shakllangan nazariy xulosalar asosida iqtisodiyotdagi ayrim hodisalar tahlil etiladi va iqtisod qoidalarining naqadar to'g'ri ekanligi sinab ko'riladi.


### 1.7. Iqtisodiy jarayonlarni bilishda matematik va grafik usullardan foydalanish

Iqtisodiyot nazariyasida, eng avvalo, miqdoriy tahlil usulidan keng foydalaniladi va bu yo'l bilan olingan ma'lumotlar nazariy xulosalar chiqarishga hamda iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini aniqlashga xizmat qiladi. *Ekonomiks* — tadqiqotlarni yuzaki iqtisodiy jarayonlarga yo'naltirib, miqdoriy tahlil usullaridan keng foydalanadi. Miqdoriy tahlilning eng ko'p tarqalgan usullari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:


- iqtisodiy-statistik usullar;
- matematik usullar;
- grafik usullar.

Quyida grafik usuldan foydalanib, daromadlar va iste'molning mutanosiblik darajasini tahlil qilib ko'ramiz. Miqdoriy o'zgarishlar, masalan, mahsulot miqdoridagi yoki narxdagi o'zgarishlar chizmalar asosida matematik va grafik usullardan foydalangan holda amalga oshiriladi. Masalan, ikki o'zgaruvchan qiymatning o'zaro ta'sirini anglash uchun koordinatalarga asoslangan chizma hosil etiladi. Bunda absissa o'qiga bir ko'rsatkich qo'yilsa, ordinata o'qiga boshqasi qo'yiladi. Bir qiymat miqdorining o'zgarishi boshqasining qanchaga o'zgartirishiga qarab vertikal va gorizontaal chiziqlar hosil etiladi, ular kesishgan nuqtalar egri chiziq bilan birlashtirilganda iqtisodiy o'zgarishlar qandayligi aniqlanadi.

#### Iste'mol va daromadning mutanosibligi



### Grafik usuliga misol



*D ... D — oraliq optimalligini bildiradi.*

Nazariyada sifatli tahlil usuli birlamchi, u mantiqqa asoslangan abstraksiyalash usulidan iborat boʻlib, nazariy xulosalar chiqarishga va qonun-qoidalarni ilmiy taʼriflashga xizmat qiladi. Ammo u miqdoriy tahlilga tayanadi, chunki mazkur usul kuzatish maʼlumotlarini jamlash, ularni umumlashtirishga imkon beradi. Bundan tashqari, miqdoriy tahlil yordamida nazariy qonun-qoidalar iqtisodiyotda naqadar amal qilayotganligi bilib olinadi.

### 1.8. «Iqtisodiyot nazariyasi»ning fan sifatida funksiyalari

«Iqtisodiyot nazariyasi» fan sifatida turli funksiyalarni bajaradi.

*Birinchi* — bilish funksiyasidir. Bunda nazariyani oʻrganish orqali iqtisodiy hodisalar nima ekanligi, ularni nima yuzaga chiqarishi, ular nimaga olib kelishi anglab olinadi. Nazariya iqtisodiyotning sir-asrorlarini oʻrgatib, kishilarni ulardan xabardor qiladi, ularning bilim darajasini oshiradi. Boshqa iqtisodiy fanlar qatori u ham kishilarga iqtisodiy bilimlarni yetkazib beradi, ularni iqtisodiyotda maʼlum qonun-qoidalar borligidan ogoh etadi, ularga rioya etish zarurligini tushuntirib beradi.

*Ikkinchi funksiyasi* — bu boshqa iqtisodiy fanlar uchun nazariy-metodologik asos boʻlib xizmat qilishidir. Bu fan umumnazariy, yaʼni iqtisodiyotga xos boʻlgan umumiy qonun-qoidalarni oʻrganadi. Shu jihatdan u boshqa xususiy-funksional nazariyalardan,




masalan, moliya nazariyasi, pul nazariyasi, statistika nazariyasi, buxgalteriya nazariyasi kabi fanlardan farqlanadi. «Iqtisodiyot nazariyasi» umumnazariy-metodologik fan bo'lganidan, u asoslangan nazariy qonun-qoidalarga boshqa iqtisodiy fanlar tayanadi.

*Uchinchi funksiyasi* — bu uning amaliyot uchun ilmiy baza bo'lib xizmat qilishi, unga umumiy tarzda tavsiyalar berishidir.

Iqtisodiyot nazariyasi tavsiyalari mikrodarajadagi siyosatda ham qo'l keladi, bu firmalarga to'g'ri strategik (kelajakni ko'zlagan) yo'lni tanlash imkonini beradi. Masalan, nazariyadagi diversifikatsiya g'oyasi kapitalni bir vaqtning o'zida turli sohalarga joylashtirish zarurligini bildiradi. Kapitali katta firmalar shunga amal qilganlarida bir sohadan ko'rilgan zarar, boshqa sohaga qo'yilgan kapital keltirgan foyda hisobidan qoplanib turadi.

Nazariyaning yana bir amaliy ahamiyati shundaki, bu fan iqtisodiyotning sir-asrorlarini ochib berar ekan, undan xabardor har bir kishi iqtisodiyot qoidalariga amal qilsa, bundan faqat naf ko'radi.



### **1.9. «Iqtisodiyot nazariyasi» fanining tarkibi**

Iqtisodiyot nazariyasi fani jamiyat iqtisodiy faoliyatini, uning rivojlanish qonun-qoidalarini uch xil darajada o'rganadi va shu asosda uning tarkibi shakllanadi:

1) mikrodarajada — xonadonlar, firmalar, korxonalarining iqtisodiy faoliyatlari o'rganiladi;

2) makrodarajada — milliy iqtisodiyot, ya'ni butun bir mamlakat-davlat darajasidagi va milliy bozordagi jarayonlar o'rganiladi;

3) metadarajada — xalqaro miqyosdagi, ya'ni jahon xo'jaligidagi yuz beradigan jarayonlar, jahon bozori o'rganiladi.

Iqtisodiyotning har uch darajasi ham o'zaro bog'liqlikda o'rganiladi, chunki mikrodarajadagi iqtisodiy faoliyatlar yig'ilib yaxlitlikda makrodarajani, turli mamlakatlar, ya'ni milliy iqtisodiyotlar yig'indisi metadarajani — jahon iqtisodiyotini yuzaga keltiradi. Bu turli darajadagi iqtisodiyotlar o'rganilganda, ularning har biriga xos qonun-qoidalari alohida ko'rib chiqiladi va jahon bozoridagi ularning o'rni aniqlanadi.

#### **1.10. «Iqtisodiyot nazariyasi» fani va zamonaviy yangicha iqtisodiy ong, tafakkurning rivojlanishi**

Bozor iqtisodiyoti har bir inson oldiga oddiy, ammo qattiq talab qo'yadi: farovon yashash uchun samarali mehnat qilish zarur. Iqtisodiy faoliyat hammaga, uning sir-asrorlarini yaxshi bilishni zarur qilib qo'yadi. Hozir buni anglamaganlar keyin pushaymon bo'lishadi. Shuning uchun «Iqtisodiyot nazariyasi» fani oldida ikki vazifa turadi:

- *birinchisi*, kishilarga iqtisodiyotning sir-asrorlarini o'rgatib, ularning iqtisodiy savodini chiqarish, kishilarning bilim saviyasini, ya'ni ongini oshirish;

- *ikkinchisi*, iqtisodiyotga oid amaliy qoidalarni ayrim kishilar, oilalar, firmalar va davlat xizmatchilari e'tiboriga yetkazish. Bular vaziyatga qarab qanday iqtisodiy yo'l tutish, harakat qilish, iqtisodiy vositalardan qanday foydalanish, iqtisodiy manfaat yo'lida nimalar qilish kerakligi haqida tavsiyalar berishdir.

Insonning iqtisodiy sa'y-harakatlari negizida hamisha muayyan qonun-qoidalar yotadi. Shu bois ularni bilishga intilish qadimdan mavjud. Kishilar asrlar davomida iqtisodiy hodisalarni kuzatib, ularni umumlashtirgan holda turli fikr-mulohazalar, ilmiy qarashlarni olg'a surishgan. Bu qarashlar va fikrlar jamlana borib, iqtisodiyot ilmi yuzaga kelgan. Qur'oni karim, Hadisi sharifda, ajdodlarimiz bo'lmish buyuk allomalar asarlarida iqtisodiyot qonun-qoidalari, tartiblariga oid ilk va ajoyib fikrlar mavjud, G'arbiy Yevropada yashab o'tgan mutafakkirlar ham iqtisodiyot ilmiga ulkan hissa qo'shishgan.

Ayniqsa, XX asrga kelib iqtisodiyot ilmiga e'tibor g'oyatda kuchaydi. Jahonning buyuk tabiatshunos olimlari, madaniyat

arboblari qatorida bir necha taniqli iqtisodchi olimlarga iqtisodiyot sohasidagi ulkan kashfiyotlari uchun xalqaro Nobel mukofoti berilgani ham buning yaqqol dalilidir.

Iqtisodiy bilimlarning hayotda asqatishi turgan gap. XX asrning atoqli iqtisodchi olimi, Nobel mukofoti sovrindori Milton Fridmen (AQSH)ning yozishicha, iqtisodiyot ilmining qoidalarini bir bet qog'ozga yozib sig'dirish mumkin, ammo shunga qaramay, uni juda kam kishi tushunadi. Demak, iqtisodiyotni bilish uchun uni qunt bilan o'rganish kerak.

Hamma zamonlarda ham iqtisodiy bilimlar kishilarga zarur bo'lgan, chunki iqtisodiyot bilan har xil darajada bo'lsa-da, hamma shug'ullanadi. Kishilar faqat bugungi kun bilan emas, balki kelajak bilan ham yashaydilar. Iqtisodiyot ilmi esa shu kun hodisalarini tushuntirish bilan cheklanmaydi, balki kelajakni ham anglashga ko'mak beradi. Masalan, hozirgi O'zbekiston iqtisodiyoti jahon xo'jaligining bir qismi ekan, uning iqtisodiyotidagi o'zgarishlar mamlakatimizni ham chetlab o'tmaydi. Shu bois tashqi iqtisodiy muhitning mamlakatga ta'siri kuchayib borayotgan sharoitda qanday faoliyat lozimligini oldindan ko'ra bilish talab qilinadi, uni esa iqtisodiy bilimlar bilan qurollangan holda to'g'ri hal etish mumkin.

Iqtisodiy hayotning inson har qadamda duch keladigan g'oyat murakkab o'z tartibi, tamoyillari va qoidalari ko'p. Iqtisodiyot tartiblanib tursa-da, tasodiflardan xoli emas. Bu tasodiflarni ham hisobga olib ish yuritish ko'p hollarda muvaffaqiyatni ta'minlaydi. Masalan, iqtisodiy xatar hodisasini olaylik. Unga faqat tadbirkorlar emas, balki oddiy fuqaro, hatto mamlakatlar ham duch keladi. Ishchi va xizmatchining ishsiz, binobarin, daromadsiz qolish, bozorda aldanib qolish xatari bor, firma ishi yurishmay zarar ko'rishi va xonavayron bo'lishi, mamlakat esa daromad topa olmay qarzga botib qolishi mumkin. Iqtisodiyotning qonunlari, tamoyillari va qoidalari qanchalik chuqur egallansa, shunchalik xatarga kam yo'liqish, yo'liqqan taqdirda ham undan kam talafotlar bilan chiqish mumkin.

Jamiyatimiz hayotida iqtisodiy bilimlarning ahamiyati va o'rni tobora ortib bormoqda, shuni hisobga olib O'zbekistonda ham keng ommaning iqtisodiy ongini, iqtisodiy tafakkurini yanada yuksaltirish yuzasidan maxsus davlat dasturlari ishlab chiqilgan, ularning bajarilishi esa hukumat darajasida nazorat qilinadi. Bu dasturlarga ko'ra, maktablardan boshlab, litseylar, kollejlilar, oliy o'quv yurtlari va ulardan keyingi ta'lim tizimlarida ham iqtisodiy savodxonlikni oshirish chora-tadbirlari belgilangan.

### ASOSIY TAYANCH IBORALAR

- *Moddiy ne'matlar ishlab chiqarish jamiyat hayotining asosi;*
- *iqtisodiy munosabat subyekti;*
- *asosiy subyektlar;*
- *iqtisodiy qonunlar;*
- *iqtisodiy kategoriyalar;*
- *yalpi milliy mahsulot (YMM);*
- *yalpi ichki mahsulot (YIM);*
- *sof mahsulot;*
- *milliy daromad.*



### TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Nima uchun moddiy ne'matlar ishlab chiqarish jamiyat hayotining asosi hisoblanadi?
2. Iqtisodiy resurslar nima va ularning cheklanganligini qanday tushunasiz?
3. Iqtisodiy faoliyat, iqtisodiy hodisa nima?
4. Ishlab chiqarish omillari nimalardan iborat?
5. Mehnat unumdorligi nimaligini tushuntirib bering.
6. Iqtisodiy munosabatlar o'z ichiga qanday unsurlarni oladi?
7. «Iqtisodiyot nazariyasi» fanining predmeti nima?
8. Iqtisodiy munosabat obyekti nima?
9. Iqtisodiy munosabat subyekti kimlar?
10. Iqtisodiy tizimlarning asosiy belgilari nimalardan iborat?
11. Iqtisodiy qonunlar ta'rifini ayting va qanday iqtisodiy qonunlar bor?
12. Iqtisodiy kategoriyalar nima va ularning ta'rifini bayon eting.
13. Ilmiy bilish usullari deganda nimalarni tushunasiz?
14. Miqdoriy tahlilni tavsiflang.
15. Matematik tahlil usulini tushuntirib bering.
16. Iqtisodiy ko'rsatkichlarni grafik usulda ko'rsatib bering.
17. Iqtisodiyot nazariyasining funksiyalarini aytib bering.
18. Iqtisodiy ong, iqtisodiy tafakkur deganda nimalarni tushunasiz?
19. O'zbekistonda iqtisodiy bilimlarni o'rgatish xalqimizga qanday naf keltirishi mumkin?
20. Iqtisodiyotni rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun kimlar Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan?

---

## 2-bob. BOZOR TUSHUNCHASI, UNING MOHIYATI VA VAZIFALARI

### 2.1. Bozor tushunchasi

Bozor jamiyat taraqqiyotining mahsuli sifatida, ya'ni jamiyat a'zolari o'rtasida mehnat taqsimotining rivojlanishi, kengayib, chuqurlashib borishi natijasida ishlab chiqarilayotgan mahsulot turining ko'payishi hamda bu mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojlarning paydo bo'lishi va ularni almashtirish zaruriyati tufayli kelib chiqqan hodisadir. *Tovar ishlab chiqarish* — bozor iqtisodiyotining asosidir.

Bozor tushunchasi va uning talqin qilinishida turli yondashuvlar mavjud:

- *Klassik yondashuv* — bozor sotuvchi va xaridorning uchra-shadigan joyi. Xaridorlar bilan sotuvchilar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar, ularni bir-biriga bog'lovchi vosita, bu baho signallarining markazlashmagan mexanizmiga asoslangan bo'lib, ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarning birgalikdagi harakat qilish usulidir.

- *Neoklassiklar yondashuvi* — bozor talab va taklifini bir-biri bilan bog'lovchi vosita.

- *Institutsional yondashuv* — bozor iqtisodiyot subyektlarining faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish usuli, jumladan, F.Xayek fikricha, birdaniga yoki o'zini o'zi tartibga soladigan xo'jalik tartibidir, deb qaraladi.

Yuqorida keltirilgan yondashuvlardan kelib chiqqan holda bozorni — sotuvchi va oluvchiga o'z xohish-irodasini erkin namoyon etib, muvozanat bahoning shakllanishi, ikki tomon manfaatlarining mos kelishini ta'minlashga imkon, shart-sharoit yaratib beruvchi iqtisodiy tizim deb qarash mumkin.

Bozor tizimining muhim jihati shundan iboratki, u tabiat va jamiyatimizdagi mavjud, lekin cheklangan resurslar sharoitida aholining tez o'sib borayotgan ehtiyojlarini kam mehnat, kam xarajat sarflagan holda to'laroq qondirish imkonini beradi.

Bozor tizimi va undagi sodir bo'ladigan munosabatlar murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, uni tahlil qilishda quyidagi asosiy tamoyillarga tayanilgan holda yondashish kerak.

Bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyillari:

- mulk shakllarining turlichaligi, ayniqsa, xususiy mulkchilik jamiyatda asosiy o'rinda bo'lishi;
- tadbirkorlik erkinligining ta'minlanganligi, ya'ni iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda o'z manfaatini ustuvor qo'ya olishi;
- ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarning teng huquqliligini ta'minlash mexanizmining mavjudligi;
- shaxs va jamiyat manfaatlarining muvofiqligini ta'minlash;
- raqobat kurashi mexanizmiga asoslanish. Bozor munosabatlarining obyektiv iqtisodiy qonunlari harakatlarini hisobga olib ish yuritish;
- ijtimoiy tengsizlik, ya'ni bozor iqtisodiyotida ayrim faol subyektlar bilan faol bo'lmaganlar o'rtasida daromadlarning notekis taqsimlanishi;
- davlatning iqtisodiy funksiyasi ijtimoiy yo'naltirilganligi va boshqalar.

Endi bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyili bo'lgan xususiy mulkka tavsif beradigan bo'lsak, u bozor iqtisodiyoti munosabatlarining samarali ishlashini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Chunki bozor munosabatlari sharoitida faqat xususiy mulk egasi erkin fikrlay olishi, o'z mulkidan o'zi xohlaganicha foydalanishi, tadbirkorlik faoliyatining xohlagan turini tanlab shug'ullanishi mumkin bo'ladi. *Mulkchilik munosabatlari jamiyatdagi boyliklarni ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash, iste'mol, o'zlashtirish bo'yicha bo'ladigan iqtisodiy munosabatlardir.*

#### *Mulkchilikning iqtisodiy va huquqiy jihatlari*

Mulk ikki xil jihatga ega:

1. *Mulk* — *iqtisodiy kategoriya* sifatida iqtisodiy munosabatlarning obyektidir. Mulkiy munosabatlar jamiyatdagi mavjud bo'lgan juda ko'p munosabatlar ichida eng asosiysi va muhimi hisoblanadi. Bu munosabat kishilarning moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, taqsimlash va o'zlashtirish yuzasidan vujudga keladigan iqtisodiy xatti-harakatlari, aloqalaridan iborat bo'ladi.

2. *Mulk* — *huquqiy kategoriya* sifatida mulk egalari va boshqa kishilar o'rtasida vujudga keladigan huquqiy munosabat obyektidir.


Amerikalik professor R. Kouz «mulk huquqi nazariyasi»ni ishlab chiqdi va ushbu ilmiy ishi uchun Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi. Olimning fikriga ko'ra, mulk mustaqil harakat qilmay, mulk huquqining tarkibiy qismi hisoblanadi. Uning nazariyasiga

muvofig, mulk mutlaq tushuncha bo'lmay, bir qancha huquq tizimining yig'indisidan iborat bo'lib, shu huquq tizimlari tomonidan tartibga solinadi va o'zini namoyon qila oladi.

Mulk huquqi tizimiga quyidagilar kiradi:

1. Egalik huquqi.
2. Foydalanish huquqi.
3. Boshqarish huquqi.
4. Daromad olish huquqi.
5. Sotish, o'zgartirish, yo'q qilish huquqi.
6. Mulk xavfsizligi huquqi (musodaradan himoya qilish).
7. Vasiyat qilish va meros qoldirish huquqi.
8. Mol-mulkka muddatsiz egalik qilish huquqi.
9. Atrof-muhitga zarar keltirishdan foydalanishni man etish huquqi.
10. Umdirish huquqi (qarzlarni).
11. Mulkni qaytarish vakolati huquqi (foydalanish muddati tugagandan so'ng) kabilar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy qarorlar qabul qilishda mulk egasining erkinligi muhim rol o'ynaydi. Mulkdor o'z ixtiyoriga ko'ra, o'ziga tegishli mol-mulkka egalik qiladi, undan foydalanadi va tasarruf etadi.



Bozor iqtisodiyoti rivojlanishining muhim sharti erkin raqobat hisoblanadi. Buning uchun davlat bozor iqtisodiyotining asosiy qonunlaridan biri bo'lgan raqobat uchun ma'lum me'yoriy hujjatlar qabul qilish yo'li bilan shart-sharoit yaratib berishi kerak bo'ladi.

*Bozor iqtisodiyoti tizimi* shunday xo'jalik tizimiki, u individlarning erkin hamkorligiga, mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarning to'g'ridan to'g'ri erkin tovarlarning oldisotdisiga asoslangan. Bozor iqtisodiyoti tizimining ijobiy va salbiy jihatlari qisqacha tavsifini quyidagi jadval asosida ko'rish mumkin:

Bozor iqtisodiyoti tizimining qisqa umumlashtirilgan tavsifi		
Asosiy belgilari	Ijobiy tomonlari	Salbiy tomonlari
Bozor tizimida mulkchilik shaklining asosini xususiy mulk tashkil etadi	Tadbirkorlik va samaradorlik rag'batlantiriladi	Jamiyat a'zolari o'rtasida iqtisodiy jihatdan farqlar kelib chiqadi va kuchayib boradi
Xo'jalik subyektlarining erkinligi ta'minlangan bo'ladi	Samarasiz va kerak bo'lmagan ishlab chiqarish qisqaradi	Iqtisodiy rivojlanishda beqarorlik bo'lib turadi
Iqtisodiy hayotda tanlov erkinligining mavjudligi bilan xarakterlanadi	Daromadlar mehnat natijalariga ko'ra, adolatli taqsimlanadi	Jamiyat uchun zarur bo'lgan, lekin tadbirkor uchun foydasiz mahsulotlar ishlab chiqarilmaydi
Iqtisodiy aloqalar ishtirokchilarining shaxsiy manfaatdorligi ta'minlanadi	Iste'molchi ustuvor huquqqa ega, iste'molchi doimo haq degan tamoyil mavjud	Iqtisodiy faoliyatda inson va tabiatga keltirilayotgan zararlarga e'tiborsizlik bilan qaraladi

## 2.2. Bozorning iqtisodiyot uchun ahamiyati

Bozor iqtisodiyoti munosabatlari asosida o'z iqtisodiyotini tashkil etgan barcha mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, bu tizim iqtisodiyotning oldiga qo'ygan asosiy vazifalarini muvaffaqiyatli hal etish imkoniyatiga ega ekanligini tasdiqlamoqda. Ma'lumki, bozor iqtisodiyotining asosiy muammolari, bu, eng avvalo, nima ishlab chiqarish va qancha ishlab chiqarish zarurligini bilishdir. Qanday ishlab chiqarish zarur va kim uchun ishlab chiqarish zarur kabi savollarga javob topishdan iboratdir. Bozor iqtisodiyoti bu savollarga javob bera oladi. Bu javoblar bozor iqtisodiyotining mazmun va mohiyatini o'zida ifodalaydi.



Nima ishlab chiqarish zarurligini har qanday ishlab chiqaruvchi, eng avvalo, zarar ko'rmalik va foyda olish qoidasiga amal qilgan holda bozordagi talabni o'rganadi va faqat foyda keltirishi mumkin bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarishga harakat qiladi. Zarar keltiradigan tovarlar ishlab chiqarilmaydi. Foyda olish yoki olmaslikni ikki narsa o'rtasidagi nisbat aniqlaydi, ya'ni tovarini sotishdan olinadigan umumiy daromad va ishlab chiqarishga qilingan umumiy xarajat.

Mahsulotning foyda yoki zarar keltirishini taqozo qiluvchi talabni iste'molchi belgilaydi, bu esa korxonaning nima ishlab chiqarish masalasini erkin tanlash imkoniyatini cheklaydi. Bozorda faqat iste'molchi talabiga mos tovarlarni ishlab chiqaruvchilar foyda olib ishlashi mumkin bo'ladi.

«Qanday ishlab chiqarish zarur?» savoliga ham bozor iqtisodiyoti javob beradi. Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti o'zgaruvchan bo'ladi, u iste'molchilar, ishlab chiqarish texnologiyasi, resurslar tarkibi o'zgarishiga mos ravishda o'zgaradi. Iste'molchi didining o'zgarishi, ishlab chiqarishda yangi texnika va texnologiyaning qo'llanilishi va taklif qilingan resurslar tarkibining o'zgarishi oqibatida taklif qilinayotgan tovarlar eskirishi va samarasiz bo'lib qolishi mumkin. Bozor iqtisodiyoti bu o'zgarishlarga moslasha olish imkoniga egadir. Chunki bozor iqtisodiyoti texnik taraqqiyotga tayanib ish olib boradi. Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga olib keluvchi texnologiyalarni qo'llash, tadbirkor korxonaning o'z raqobatchilari oldidagi ustunligini ta'minlaydi. Natijada ishlab chiqarish xarajatlarining pasayishi foydaning ko'payishiga olib keladi. Shunday qilib, bozor iqtisodiyoti har bir tadbirkor korxonaning yuqori foyda olib ishlashini ta'minlaydi.

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, bozor iqtisodiyotining bir qator afzalliklari mavjuddir. Jumladan, bozor tizimi mavjud resurslarni samarali taqsimlash va undan maqsadga muvofiq foydalanishni ta'minlashga majbur qiladi. Chunki raqobatli bozor tizimi sharoitida ishlab chiqaruvchi resurslarni ma'lum xarajatlar bilan sotib oladi va bozordagi talabga asosanib jamiyat uchun zarur bo'lgan tovarlarni ishlab chiqaradi. Bozor tizimi shaxsiy manfaatni jamiyat manfaati bilan mutanosiblashtirish imkoniyatiga ega.

Bozor iqtisodiyotining yana bir muhim afzalliklari shundan iboratki, u ishlab chiqaruvchi bilan iste'molchilarning to'la erkinligini ta'minlaydi. Bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyili bo'lgan ixtiyoriy hamkorlik iqtisodiy faoliyatni majbur qilmasdan muvofiqlashtirishga erishish imkonini beradi. Bozor iqtisodiyoti

tadbirkorlik va tanlash erkinligi orqali samaraga erishishni ta'minlaydi.

Bozor iqtisodiyoti xo'jalik subyektlarini raqobat kurashi orqali mahsulot tannarxini uzluksiz kamaytirib borishga, tovarlar sifatini yanada yaxshilashga harakat qilishga majburlaydi. Bu yo'l bilan bozor tadbirkorlarni xo'jasizlik, sustkashlik, beg'amlik qilmasdan raqobatga bardosh berishga va doimiy ravishda foyda olishni ta'minlash uchun kurashga o'rgatadi. Natijada bozor iqtisodiyoti jamiyat a'zolarini o'z qo'llaridagi mavjud resurslardan samarali foydalanishga, tinimsiz izlanishlar orqali yangi-yangi tovarlar va xizmatlar turlarini bozorga taklif qilishlari bilan iqtisodiyotni rivojlantirishni ta'minlash, aholi turmush darajasini oshirishga erishiladi.

### **2.3. Bevosita va bilvosita bozor aloqalari. Bozor obyektlari va subyektlari**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi aloqalar bevosita erkin tovar-pul munosabatlariga asoslangan holda amalga oshadi. Chunki bu aloqalarning negizida tovar va pulning turli shakllardagi harakati yotadi, iqtisodiy monopoliizm bo'lmaydi. Oldi-sotdi jarayonidagi zarur bo'lgan xizmatlar bajariladi. Har bir shaxs yoki tadbirkor o'zi ishlab chiqargan tovar yoki xizmat turini sotadi va o'ziga kerakli bo'lgan tovarlarini sotib oladi. Bu oldi-sotdi jarayonida bozor subyektlari bir-birlarini ko'rmasliklari ham mumkin. Ular vositachilar orqali savdoni amalga oshirishi ham mumkin, bu holatda bilvosita bozor aloqalari sodir bo'ladi.

*Bozor obyektlari* juda keng qamrovli bo'lib, bozor subyektlari o'rtasidagi munosabatlar nimaga qaratilgan bo'lsa, ana shular bozor obyekti hisoblanadi. Masalan, iste'mol tovarlari, ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi, axborot, moliya, valuta va resurslar, xizmatlar bozori kabilar bozor obyektlarini tashkil etadi.

*Bozor subyektlari* iqtisodiy xatti-harakatlari erkin, mustaqil ravishda yuz beradi. Bu aloqalar tovar-pul mexanizmi orqali bir-biriga bog'lanib, butun tizimni, ya'ni ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimlash va iste'mol jarayonlarini qamrab oladi.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlarida asosan quyidagi uch subyekt ishtirok etadi:


1. Uy xo'jaliklari iqtisodiyotda qatnashuvchi subyekt sifatida, asosan, yaratilgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni iste'mol

qiluvchilar hamda ishchi kuchlarini yetishtirib beruvchilar bo'lib ko'rinadilar. Lekin bozor iqtisodiyoti sharoitida uy xo'jaliklari doirasida moddiy va ma'naviy ne'matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish sohalarida ham keng faoliyat olib boradilar. Ma'lumki, bozor sharoitida uy xo'jaliklari o'z ixtiyorida bo'lgan mulklari asosida turli tashkiliy-huquqiy shakllarda oilaviy tadbirkorlik tashkil qilishib, bozorga turli xil tovarlar hamda xizmatlar taklif etishmoqda. Bu holat uy xo'jaliklari bozorning eng faol va asosiy subyekti ekanligini ko'rsatadi.

2. *Tovar ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko'rsatuvchilar*, ya'ni turli korxonalar, firmalar va boshqa shakllarda xo'jalik yurituvchi subyektlardir. Ular, asosan, daromad (foyda) olish maqsadida ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchilardir. Ular iqtisodiyotning asosiy, birlamchi bo'g'ini hisoblanadilar. Ular o'z kapitallari yoki qarz olingan kapital asosida ish yuritadilar va undan olingan daromad evaziga faoliyatlarini kengaytirish orqali iqtisodiyotning rivojlanishiga katta hissa qo'shadilar.

3. *Davlat bozor munosabatlari subyekti sifatida* foyda olishni maqsad qilib qo'ymagan, lekin iqtisodiyotni tartibga solish vazifasini amalga oshiradigan ishtirokchi hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda davlat bozorda davlat mulki asosida faoliyat yurituvchi korxonalar tovarlari va boshqa har xil budjet tashkilotlari hamda muassasalari bilan ishtirok etadi. Bozor ishtirokchilari o'rtasida iqtisodiy munosabatlar quyidagi shaklda sodir bo'ladi.

**Iste'mol tovarlari va resurslar bozorida subyektlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar sodir bo'lish shakli**



Chizmadan ko‘rinib turibdiki, bozorning asosiy ishtirokchilari bo‘lgan tovar ishlab chiqaruvchilar, turli xizmat ko‘rsatuvchilar, uy xo‘jaligi va davlat, iste‘mol tovarlari va xizmatlar, ishlab chiqarish vositalari hamda resurslar bozoriga o‘z tovarlari va xizmatlarini sotishga olib chiqadilar, shuningdek, ular shu bozorlardan o‘zlari uchun tovarlar, xizmatlar ham sotib oladilar. Bu jarayonda alohida ko‘rsatib o‘tish kerakki, oila asosiy iste‘molchi bo‘lishi bilan birga resurs bozoriga ishchi kuchlarini, ya‘ni mehnat resurslarini yetkazib beradi. Davlat ham alohida o‘rin egallaydi, chunki tabiiy resurslar asosan uning qo‘lida, shuning uchun davlat ko‘proq resurs bozorida qatnashadi. Davlat bozor sirkulatsiyasida (aylanmasida) faol ishtirok etuvchi subyekt hamda bu munosabatlarning tashkiliy shart-sharoitlarini yaratuvchisidir.

#### **2.4. Tartibsiz va tartiblangan bozor belgilari**

Bozor iqtisodiyoti jamiyatda tovar-pul munosabatlarining uzoq yillar davomida rivojlanishi natijasida vujudga kelgan va nihoyat hozirgi holatdagi bozor iqtisodiyoti shakllangan. Hozirgi iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar ana shu uzoq davrlarni, rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tgan. Shuning uchun ham iqtisodiy adabiyotlarda bozor iqtisodiyoti tarixan ikki bosqichni bosib o‘tganligini ta’kidlashadi va uning birinchi bosqichini — asov yoki yovvoyi bozor iqtisodiyoti deb atashadi. Uning ba’zi bir belgilari hozir ham uchrab turishini ko‘rsatishadi. Uning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

- xususiy mulkning faqat alohida ozchilik shaxslar qo‘lida bo‘lishi;
- iqtisodiyotning tartibsiz rivojlanishi, mulk egalarining taqsimot munosabatlarida mutlaq hukmronligi;
- bozorda tovar ishlab chiqaruvchilar ko‘proq tavakkal qilib qatnashuvi, ya‘ni bozor talabini aniqlashning qiyinligi;
- bozorda raqobatning g‘ayriqonuniy usullari hukmronligining mavjud bo‘lishi;
- xo‘jalik subyektlarining sherikchilik aloqalari rivojlanmaganligi;
- iqtisodiyotni boshqarishda davlatning roli pastligi yoki umuman aralashmasligi;
- iqtisodiy tangliklar va bo‘hronlarning tez-tez takrorlanib turishi;
- jamiyatning o‘ta boy va o‘ta kambag‘allarga ajralib, tabaqlanib ketishi natijada sinfiy kurashning kelib chiqishi.

Yuqorida keltirilgan belgilarga asoslanib, bu iqtisodiyotni ko'pchilik olimlar tartibsiz yoki yovvoyi bozor deb ham ataydilar. Lekin bu yovvoyi deb atalmish bozor iqtisodiyoti jamiyat taraqqiyoti jarayoni davomida u bilan birgalikda tartibga solinadigan yoki madaniylashgan bozor iqtisodiyotiga aylanib bordi.

Tartibga solinadigan madaniylashgan bozor iqtisodiyotining ham o'ziga xos belgilari mavjud bo'lib, ular quyidagilardir:

- xususiy mulk bilan bir qatorda boshqa mulk shakllari ham mavjud bo'ladi;

- iqtisodiyot, eng avvalo, xo'jalik yurituvchilar tomonidan ma'lum rejalar asosida olib boriladi va bozor tartib-qoidalari asosida tashkil etiladi;

- bozordagi talabga ishlab chiqaruvchilar moslashadi, bozordagi noma'lumlik kamayadi;

- bozorda raqobat kurashi qoidalariga rioya qilinishi ta'minlanadi;

- bozor subyektlari o'rtasida o'zaro manfaatli sherikchilik aloqalari mavjud bo'ladi;

- iqtisodiyot davlat tomonidan ma'lum chora-tadbirlar, ayniqsa, moliyaviy mexanizmlar orqali tartibga solinadi;

- iqtisodiyotning tartiblanishi, o'z navbatida, iqtisodiy inqirozlar yuz berishining oldini oladi, inqirozlar yuz bergan hollarda esa uni tezroq bartaraf etish mumkin bo'ladi;

- iqtisodiy rivojlanish jamiyat a'zolarining turmush farovonligi oshib borishini ta'minlaydi;

- iqtisodiyotning ijtimoiyligi ko'proq namoyon bo'ladi, ommaviy farovonlik ta'minlanadi;

- jamiyat a'zolari o'rtasidagi iqtisodiy tabaqalanish chegaralanadi, iqtisodiy jihatdan o'rtahol aholi ko'payib, asosiy sotsial qatlamga aylanadi. Natijada jamiyatda sotsial muvozanat barqarorlashadi, sotsial ziddiyatlar kelib chiqmaydi.

## **2.5. Bozor orqali ishlab chiqarish va iste'molning bog'lanishi, qiymatning tovar shaklidan pul shakliga o'tishi**

Bozorning asosiy vazifalaridan biri, bu, eng avvalo, ishlab chiqaruvchilar bilan iste'molchilarni bir-birlari bilan bog'lashdan iboratdir. Ma'lumki, ishlab chiqaruvchilar tomonidan yaratilgan tovarlar va xizmatlarni iste'molchilarga yetkazib berish zarur. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bu vazifani bozor bajaradi. Bozor ishlab chiqarish bilan iste'molni bir-biriga bog'laydi, natijada ishlab chiqarilgan tovar yoki xizmat o'z iste'molchisiga yetkaziladi. Bu yerda

bozor vositachi rolini bajaradi. Bozorda ishlab chiqaruvchi tomonidan yaratilgan tovar qiymat shaklidan pul shakliga aylantiriladi. Natijada tovar ishlab chiqaruvchi alohida kishilar mehnatining bozor, ijtimoiy zaruriy mehnat sifatida namoyon bo'lishini ta'minlaydi va tovarning bozor qiymati kelib chiqadi. Bozor bu bilan jamiyatda ishlab chiqarishning uzluksiz takrorlanib turishiga yordam beradi.

Bozor iqtisodiy resurslarning erkin harakatini ta'minlashning eng maqbul vositachisi hisoblanadi. Ma'lumki, ishlab chiqarish yangidan boshlanishi uchun yaratilgan tovarlar sotilishi va ularning pulga aylanishi zarur. Bu pul esa ishlab chiqarishning yangidan takrorlanib turishi uchun zarur bo'lgan iqtisodiy resurslarni, ya'ni ishlab chiqarish qurollari, vositalari hamda xomashyo kabilarni sotib olish uchun kerak. Bozor bu yerda vositachi rolini o'ynab, ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarishni kengaytirish va bu jarayonning uzluksiz davom etishini ta'minlashga eng qulay sharoit yaratib beruvchi tizim bo'lib xizmat qiladi.

Bozor bu jarayonda iqtisodiy resurslarning va boshqa ne'matlar-ni erkin harakatini, ularning iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasida oqilona taqsimlanishini ta'minlaydi. Iste'molchilar ham bozorga o'zlarining u yoki bu tovarga bo'lgan talablarini qondirish uchun chiqadilar. Bozor bu talabni ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko'rsatuvchilar taklif etgan ne'matlarni ularga erkin tanlov va maqbul narxlarda sotib olish imkonini yaratib beradi. Bozor orqali ishlab chiqarish va iste'molning bog'lanishi, qiymatning tovar shaklidan pul shakliga o'tishi sodir bo'ladi.

Bozor iqtisodiyotni tartibga solib turish vazifasini ham mukammal bajarib bera oladi. Chunki bozor bu vazifani talab, taklif, raqobat va baho kabi iqtisodiy kategoriyalar orqali amalga oshiradi. Talab va taklif kategoriyasi esa bozorga nima, qancha miqdorda va qaysi vaqtda kerakligini aniqlab beradi. Bozor shu yo'l bilan, eng avvalo, baho vositasida iqtisodiy resurslarning turli tarmoqlar o'rtasida to'g'ri va oqilona taqsimlanishida ishtirok etadi.

## **2.6. Erkin, monopol raqobatli, oligopolistik va sof monopoliya bozorlari**

Bozor tizimiga va bozor munosabatlarining to'laqonli xarakterda namoyon bo'lishiga quyidagi mezonlar orqali baho beriladi: bozor subyektlarining huquqiy holati, bozor obyektlarining ko'lami, bozor munosabatlarining miqyosi, bozor aloqalarining qonuniyligi, bozor raqobatining mavjudligi kabilar.

*Bozor iqtisodiyoti tizimi* individlarining erkin hamkorligiga, mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilarning va iste'molchilarning to'g'ridan to'g'ri erkin kelishuvi asosida tovarlarning oldi-sotdisiga asoslangan tizimdir.

Iqtisodiy aloqalar xarakteriga ko'ra, bozorni ikki turga ajratish mumkin:

- erkin, mukammal raqobatli bozor;
- nomukammal raqobatli, monopollashgan bozor.

*Erkin bozorda* sotuvchilar va xaridorlar ko'pchilik bo'lib, ulardan hech biri hukmron mavqega ega bo'lmaydi va doimo raqobatda bo'lishadi. Bozor ishtirokchilarining aloqasi erkin oldi-sotdi munosabatiga asoslanadi. Bu bozorda raqobat hukmron bo'ladi, narxlar erkin savdolashuv asosida tashkil topadi. Xaridor va sotuvchi munosabati biron erkin iqtisodiy tanlov asosida vujudga keladi, ularning manfaatlari bir-biriga mos tushadi. Misol qilib mamlakatimizda tashkil qilingan bozorlarni ko'rsatish mumkin. Bu bozorlarda har qanday xaridor yoki sotuvchi kim nimani sotish, kimdan nimani olish, qanday narxda olishni o'zaro savdo qilish orqali ma'qul bahoga kelishilgan holda amalga oshiradi.

*Monopol bozor* deb ozchilik sotuvchilar va xaridorlar hukmron bo'lgan, tovar va xizmatlar bahosi sotuvchilar tomonidan o'rnatilgan, raqobat cheklangan yoki raqobat umuman bo'lmaydigan bozorga aytiladi.

Monopollashgan bozor, o'z navbatida, to'rt xil bo'ladi:

- *Monopol raqobatli bozor* — ko'p sonli monopollashgan korxonalar bozorni o'z qo'lida tutib o'zaro raqobatlashsa-da, bu yerda raqobat cheklangan bo'ladi, ya'ni ozchilik raqobati shaklida bo'ladi.


- *Sof monopoliya bozori* — bu yerda sotuvchi monopoliyasi bo'ladi, ya'ni xaridorlar ko'p bo'lgan holda sotuvchi bitta bo'ladi. Bunday bozorga tovarni bir tarmoqda hukmron bo'lgan ayrim firma yoki korxonalar yetkazib beradi. Masalan, O'zbekistonda yengil mashinalarni faqat bitta qo'shma korxonada bozorga chiqaradi. Ichki bozorda ularning raqobatchilari yo'q.

- *Oligopoliya bozori* — bu yerda bir emas, bir nechta, ammo ozchilikdan iborat sotuvchilar hukmron monopoliyasi bo'ladi. Bu yerda ozchilik firmalar hukmron bo'lgan bozor, raqobat faqat sotuvchilar orasida emas, balki xaridorlar o'rtasida ham bo'ladi. Bunga misol tariqasida O'zbekistondagi sement bozorini olish mumkin. Bozorga 5 korxonada mahsulot chiqaradi. Sement xarid qilish uchun raqobat esa xaridorlar o'rtasida boradi.

• *Monopsoniya bozori* — bu yerda sotuvchilar ko‘p bo‘lgan holda xaridor yagona bo‘ladi, ya’ni xaridor monopoliyasi bo‘ladi. Bu bozor, odatda, resurslar bozorida mavjud bo‘ladi. Bunga misol tariqasida qishloq xo‘jaligida fermerlar tomonidan yetishtirilgan paxta va g‘alla mahsulotlari davlat tomonidan xarid qilib olinishini keltirish mumkin.

## 2.7. Bozor segmenti va uning mezonlari

Bozorning bir qator o‘ziga xos segmentlari mavjud bo‘lib, har bir segmentning o‘z xaridori bo‘ladi. Bozor segmentlari, asosan, quyidagi belgilarga qarab ajratiladi, masalan, O‘zbekiston bozorining segmentlarini tavsiflash uchun aholining xarid qobiliyati; yashash sharoiti; yoshi va jinsi; qaysi tovarlarni afzal ko‘rishi; kishilarning mehnat faoliyati; turmush tarzi; inflatsiya darajasi; bozor infratuzilmasi kabilarni o‘rganib chiqib, uning holati ko‘rsatiladi. Har qanday bozor o‘zining ixtisoslashgan segmentlariga ega bo‘ladi. Jumladan, O‘zbekiston mehnat bozorining segmentlarini erkaklar, ayollar mehnat bozori, malakali ishchilar, malakasiz ishchilar, sanoat sohasi yoki qishloq xo‘jaligi, turli tarmoqlar uchun mutaxassislari bo‘yicha va hokazolarga bo‘lib o‘rganish ham mumkin.



## 2.8. Bozorning obykti jihatidan turlanishi

Bozor o‘z obykti jihatidan g‘oyat xilma-xildir. Bozorga tovar va xizmatlar, ishlab chiqarish resurslari, ko‘chmas mulk, ish kuchi,



moliya, intellektual tovarlar chiqariladi va ular bozor obyektini yoki aniqrog'i, u yerdagi oldi-sotdi obyektini tashkil etadi. Bozorni, obyektiga ko'ra, quyidaga turlarga bo'lish mumkin:

1. *Iste'mol tovarlari bozori*, ya'ni kishilarning kundalik hayoti uchun zarur bo'lgan, ya'ni iste'mol tovarlar va xizmatlar bozoridir. Bu bozorda keng iste'mol buyumlari, oziq-ovqat, madaniy, maishiy va kommunal xizmatlari oldi-sotdisi amalga oshiriladi. Bu bozorda deyarli barcha aholi ishtirok etadi. O'zbekistonda bu bozor turli ko'rinishda namoyon bo'ladi: magazinlar, savdo uylari, firmalar, supermarket, do'konlar, oshxona, dehqon bozorlari, kiyim-kechak, mashinalar bozorlari, novvoyxona va boshqalar.

Iste'mol bozorining o'ziga xos katta bir tarkibiy qismi — bu xizmatlar bozori hisoblanadi. Xizmatlar bozori ham mamlakatimizda juda tez rivojlanayotgan bozordir. Xizmatlar bozorining ishtirokchilari juda ham xilma-xildir, jumladan, transport xizmati, madaniy-maishiy xizmat, san'at, ta'lim, tibbiy xizmat va boshqalarni o'z ichiga oladi.

2. *Ishlab chiqarish vositalari va resurslar bozori* — ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan barcha qurol-vositalar, resurslar shu bozorda ulgurji savdo sifatida yuz beradi. Bu bozor, asosan, savdo firmalari, savdo uylari, birjalar faoliyati orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, bu bozorda yer va boshqa ko'chmas mulk savdosi ham o'tkaziladi. Bozor ishtirokchilari, asosan, ishlab chiqarish korxonalari, shu resursga talabgor tadbirkorlar, resurs sotuvchilari bilan shartnomalar tuzadilar va iqtisodiy aloqaga kirishadilar. Resurslar, asosan, tovar birjasida sotiladi. Tovar birjasi ulgurji savdo bilan shug'ullanuvchi tijorat korxonasi hisoblanadi.

Birja quyidagi savdo-sotiq operatsiyalarini amalga oshiradi: birjada tovarlarni yetkazib berish haqida bitim tuziladi, sotiladigan tovarlarning o'zi emas, ularning namunasi va uni tasdiqlovchi hujjat qo'yiladi. Tovar birjasida tuziladigan bitimlarda kelajakda yetishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ham hisobga olinishi mumkin. Bo'lg'usi hosil uchun savdo bitimi ilgariroq tuzilib, tovarni yetkazib berish hosil yig'ilganidan keyin yuz beradi. O'zbekistonda ham birja savdosi tez rivojlanayotgan soha sifatida namoyon bo'lmoqda. Birja uyushgan bozor hisoblanib, bu yerdagi savdo-sotiq operatsiyalari belgilangan tartibda o'tkaziladi. Taraqqiy etgan mamlakatlarda birjalar har xil mollar bilan savdo qilsa, ixtisoslashgan birjalar ayrim tovarlarning turlarini, ya'ni metall, don, paxta, yog'och va hokazo tovarlarni sotishlari mumkin.

3. *Ish kuchi yoki mehnat bozori* — turli adabiyotlarda ish kuchi yoki mehnat bozori deb ham nomlanadi. Bu bozorda, asosan, ishchi kuchlari bilan oldi-sotdi qilinadi. Ish kuchi maxsus tovar bo'lgani uchun uning bozori o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ish kuchi insonning mehnat qila olish qobiliyatidir. Ish kuchi sotilganda, aslida uning mehnat qilish qobiliyati sotiladi va olgan odam esa uning ana shu qobiliyatini sotib oladi. Lekin ish kuchi o'z egasi bilan birga qoladi, chunki uni inson jismidan ajratib bo'lmaydi. Mehnat bozori mehnat birjalarida yoki ishchi yollovchi vositachi firmalardan va, nihoyat, kishilarni bevosita ishga jalb etuvchi korxonalarining o'zidan iborat.

4. *Moliya bozori* ham hozirgi vaqtda keng tarqalgan bozorning maxsus turidir. Moliya bozorini boshqacha qilib, pul bozori deyish ham mumkin. Moliya bozorini keng ma'noda moliyaviy mablag'lar va ularga tenglashtirilgan qimmatli qog'ozlar bozori deb tushunish mumkin. Chunki moliya bozori qarz yoki kredit bozori, qimmatli qog'ozlar bozori va valuta bozorlaridan iborat. Valuta, kredit bozorlari, asosan, banklar, moliya kompaniyalari, fond birjalari tomonidan amalga oshiriladi.

5. *Qurol-aslaha bozori* — bu bozorning maxsus turi hisoblanib, asosan, qurol-yarog'lar sotiladi. Bu yerda ko'proq oldi-sotdi subyekt sifatida davlatlar qatnashadi. Chunki har bir davlat o'z xavfsizligini ta'minlash uchun eng zamonaviy harbiy texnika va qurollar sotib olishga majbur bo'ladi. Bu bozor, ayniqsa, so'nggi yillarda juda ham rivojlanib ketgan, chunki o'ta monopollashib, faqat ayrim, juda taraqqiy etgan mamlakatlar tomonidan egallab olingan. Bu bozorda asosiy o'rinni AQSH, Rossiya, Xitoy, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya kabi davlatlar monopol raqobat asosida egallab olishgan. Shuni aytish kerakki, ayrim mamlakatlarda qurol-yarog'larni ochiq sotishga ruxsat etilgani bois ularda mayda qurollar alohida sotilishi mumkin.

6. *Intellektual tovarlar bozori*, odatda, aqliy mehnat mahsuli bozori deb ham yuritiladi. Bu bozorda ilmiy-texnik ishlanmalar, g'oyalar, texnikaviy loyihalar va chizmalar, axborot, adabiyot va san'at asarlari, ijrochilik xizmati, teatr va boshqa turli tomosha xizmatlari sotiladi. Bu bozorning boshqa bozorlardan muhim farqi, bozorda qatnashuvchi subyektlar davlatdan patent va litsenziya, ya'ni ruxsatnoma olishlari zarur bo'ladi. Hozirgi vaqtda bu bozor O'zbekistonda juda tez va keng rivojlanib borish tendensiyasiga egadir, chunki mamlakatimiz aholisining daromadlari kundan kunga oshib, bu bozor taklifiga qiziqish ortib bormoqda.

*Bozor* o'zining qamrov doirasi jihatidan mahalliy, hududiy, milliy va jahon bozorlariga bo'linadi. Bozor iqtisodiyoti tizimida bozor ko'lami ham muhim ahamiyatga ega. *Bozor ko'lami* — bu bozorning katta-kichikligi bo'lib, uning mezonini bozordagi tovar aylanmasi bilan o'lchanadi. Bozorning ko'lami ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarning miqdoriga va ularning tovarlilik darajasiga to'g'ri mutanosiblikda bo'ladi.

*Mahalliy bozor* — bu kichik hududdagi bozor bo'lib, uning ishtirokchilari shu yerlik sotuvchilar va xaridorlar bo'ladi.

*Hududiy bozor* — bu bir necha chegaradosh hududlar doirasidagi bozor bo'lib, mahalliy bozorlar majmuyidan iborat. Uning subyekti — ishtirokchilari hududdagi tovar ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar hisoblanadi. Uning obyektini turli hududlarda yaratilgan mahsulot va xizmatlar hamda tashqaridan keltirilgan tovarlar hisoblanadi. Hududiy bozor ko'lami mahalliy bozor ko'lamidan katta bo'ladi, uning ishtirokchilari ham ko'p. Hududiy bozorga misol qilib O'zbekistondagi Sharqiy hudud (Farg'ona vodiysi) bozorini ko'rsatish mumkin.

*Milliy bozor* — bu muayyan mamlakatning milliy chegarasi doirasidagi, ya'ni mamlakatning ichki bozori. Bu bozor milliy iqtisodiyotning ajralmas qismi hisoblanadi. Uning ishtirokchilari muayyan mamlakatdagi barcha tovar ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar va ular o'rtasida turgan vositachilardan iborat. Milliy bozordagi tovarlarning asosiy qismi mamlakatning o'zida ishlab chiqariladi, qisman chet eldan keltiriladi, ammo iqtisodiy qoloq va qaram mamlakatlarda ular yaratgan mahsulotlar, asosan, xomashyo bo'lib, u mamlakat ichki tovar aylanmasida ishtirok etmaydi, balki chetga chiqariladi. Ular ichki bozorida chetdan keltirilgan tovarlar ustuvor bo'ladi. Bunday milliy bozorda qaramlik alomati bo'ladi.

Milliy bozor mamlakatdagi barcha bozorlarni birlashtiradi, bu yerda milliy pul xarid uchun yagona to'lov vositasi bo'lib xizmat qiladi. Milliy bozor davlat himoyasida bo'ladi. U ochiq bozor, unga kirib kelish, undan chiqib ketish erkindir.

*Davlatlararo bozor* — bu ikki va undan ko'p mamlakatlarning o'zaro bozori bo'lib, bunda turli mamlakatlar firmalari va davlat idoralari qatnashadi. Bu bozorda tovarni bevosita iste'mol qiluvchilar — xonadonlar qatnashmaydi. Bu bozor chegaradosh davlatlar bozori bo'lib, bu yerda shu mamlakatlarda yaratilgan tovarlar, chetdan keltirilgan tovarlar oldi-sotdi qilinadi. Aytilgan mamlakatlarda chegara oldi savdo-sotig'i keng tarqalgan bo'ladi.

*Jahon bozori* — bu dunyo mamlakatlari o'rtasidagi savdo-sotiq munosabatidir. Bu bozorda taraqqiyot darajasi, binobarin, tovar ishlab chiqarish salohiyati har xil bo'lgan mamlakatlar qatnashadi. Ulardan biri tayyor mahsulotlar yetkazib bersa, boshqasi xomashyo va yoqilg'i kabi resurslarni bozorga chiqaradi. Jahon bozori o'zining uch belgisi bilan ajralib turadi. *Birinchidan*, bu bozorda barcha tovarlar emas, balki saylangan, ya'ni ko'pchilik uchun zarur tovarlar (masalan, neft, gaz, ko'mir, yog'och, metall, paxta, don, jun va boshq.) oldi-sotdisi yuz beradi. *Ikkinchidan*, bu bozorda iste'molchilarning o'zi, ya'ni aholi xaridor sifatida qatnashmaydi. Bu vazifani savdo firmalari bajaradi. *Uchinchidan*, bu bozorda tovarlar ulgurjiga sotiladi. Jahon bozori xalqaro birjalar va savdo-sotiq tashkilotlari faoliyatida namoyon bo'ladi.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra bozor, rasmiy ochiq bozor va yashirin norasmiy bozorlar ham mavjud. Davlat tomonidan ruxsat berilgan, ro'yxatdan o'tkazilgan holda faoliyat ko'rsatayotgan bozorlar rasmiy bozorlar deb qaraladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yashayotgan juda ko'p mamlakatlarda yashirin, ya'ni davlat tomonidan ruxsat berilmagan holda noqonuniy oldi-sotdi ishlari bilan shug'ullanuvchi subyektlar ham mavjud. Ular ko'proq soliqlardan qochish, yashirin daromadlarga ega bo'lish maqsadida bu faoliyat bilan shug'ullanadi. Shuning uchun ular yashirin bozor ishtirokchilari deyiladi va davlat tomonidan bu holatga qarshi kurash olib boriladi.

## **2.9. Bozor infratuzilmasi**

Bozor aloqalarining faol bo'lishi, keng ko'lamda va tez rivojlanishi, uning uchun yaratilgan mukammal infratuzilmaga bevosita bog'liq. Bozor infratuzilmasi deganda bozor aloqalarining barqaror holda amalga oshishiga xizmat qiluvchi korxonalar, tashkilot va muassasalarning bir butun majmuyi tushuniladi. Bu infratuzilma: birjalar, savdo uylari, savdo kompaniyalari, maslahatchi firmalar, broker va auditorlik tashkilotlari, yarmarkalar, tender uyushtiruvchi tashkilotlar, bojxonalar, banklar, sug'urta kompaniyalari kabilardan iborat bo'ladi.

Bundan ko'rinib turibdiki, bozordagi iqtisodiy aloqalarda ko'pchilikdan iborat subyektlar qatnashadi. Bu aloqalar g'oyat xilma-xil bo'lib, murakkab kechadi, bular bevosita aloqalar va bilvosita aloqalar sifatida namoyon bo'ladi. *Bevosita* bozor munosabatida sotuvchi va xaridorlar bir-biri bilan to'g'ridan to'g'ri aloqaga kiradilar, ularga

hech kim vositachilik qilmaydi. *Bilvosita* bozor munosabati yuz berganda sotuvchi va xaridor o'rtasidagi aloqalar vositachilar orqali o'rnatiladi. Demak, infratuzilmaning asosiy vazifasi bozorda amalga oshiriladigan oldi-sotdi aloqalariga xizmat qilishdan iborat. Bozor infratuzilmasi ikki xil guruhdan tashkil topgan.

*Birinchisi*, bozordagi barcha aloqalarga xizmat qiluvchi infratuzilmalardir. Bu guruh tuzilmaga: sug'urta, savdo-sotiqni tashkil etuvchi, sherik topishga ko'maklashuvchi, pulni undirish kabi xizmat ko'rsatuvchi va h.k. ishlarni bajaruvchi muassasalar kiradi.

*Ikkinchisi*, maxsus tashkil qilingan bozorlarda xizmat ko'rsatuvchi muassasalardir. Bular savdo uylari, tovar birjalari, reklama kompaniyalari, mehnat birjalari, qimmatli qog'ozlar bozorini tashkil qiluvchi fond birjalari, broker kompaniyalari, auditorlik firmalaridan iboratdir.

## **2.10. O'zbekiston milliy bozorini shakllantirish yo'llari**

O'zbekistonda mustaqillikka erishilgandan so'ng mamlakat milliy bozorini, uning barcha zarur bo'lgan infratuzilmasini tashkil etish yuzasidan ulkan ishlar amalga oshirilgan. Hozirgi vaqtda infratuzilmaning barcha tashkilot va muassasalari barqaror faoliyat olib bormoqda.

Jumladan, mamlakatimizda jami 27 yirik banklar mavjud bo'lib (bundan 9 tasi xususiy), ularning 9 mingdan ziyod sho'balari, bo'limlari mavjud. Bular bilan bir qatorda mamlakatimizda xorijiy banklar: Koreya davlat banki «KDB», Turkiyaning «UT banki», Eronning «Sadirat», ya'ni savdo banki kabi banklar muvaffaqiyatli faoliyat olib borishmoqda.

Respublikamizning poytaxti va boshqa barcha viloyatlarda ham «Tovar-xomashyo birjalari» tashkil etilgan va barqaror faoliyat olib borishyapti. Bundan tashqari, Toshkent shahrida qimmatli qog'ozlar savdosi bilan shug'ullanuvchi fond birjasi hamda valuta birjalari ishlayapti. Bozor infratuzilmasining muhim tarkibi hisoblangan sug'urta tizimini rivojlantirishga katta ahamiyat berib kelinmoqda.

Natijada hozir respublikamizda jami 33 yirik sug'urta tashkiloti faoliyat yuritmoqda, shulardan 31 tasi umumiy sug'urta ishlariga, qolgan 2 tasi hayotni sug'urta qilishga ixtisoslashgan. Sug'urta tashkilotlaridan mamlakat aholisi keng foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishlarini ta'minlash uchun hamma viloyatlarda jami 1006 tashkilot ishlab turibdi va ularda 3,6 ming xodim faoliyat olib bormoqda.

#### ASOSIY TAYANCH IBORALAR

- *Bozor;*
- *bozor iqtisodiyoti;*
- *bozor mexanizmi;*
- *bozor obyekti;*
- *bozor subyekti;*
- *bozor infratuzilmasi.*



#### TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Bozor iqtisodiyotining asosiy belgilarini aytib bering.
2. Olimlarning bozor iqtisodiyoti to'g'risidagi qarashlarini bayon eting.
3. Bozor munosabatlari kelib chiqishining asosiy sabablarini ko'rsatib bering.
4. Bozorning klassik va hozirgi zamon tavsiflari, farqlarini tushuntirib bering.
5. Bozor iqtisodiyotining afzalliklarini bayon eting.
6. Bozor tizimining kamchiliklarini ko'rsating.
7. Bozor tushunchasining ta'rifini ayting.
8. Bozorning asosiy vazifalari nimadan iborat?
9. Bozor obyekti nima va uni turkumlab chiqing.
10. Bozorning qanday turlari bor?
11. Bozor ko'lami deganda nimani tushunasiz va ularni tavsiflab bering.
12. Bozor infratuzilmasi nima va ularni to'la tavsiflab bering.
13. Hududiy bozor deganda nimani tushunasiz?
14. Davlatlararo bozorga ta'rif bering.
15. Jahon bozorini bayon eting.

---

### 3-bob. BOZOR IQTISODIYOTIGA O'TISH DAVRI VA UNING O'ZBEKISTONDAGI XUSUSIYATI

#### 3.1. Bozor iqtisodiyotining umumiy va muhim belgilari

Mamlakatimiz Prezidenti I.A. Karimov o'zining «O'zbekiston — bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li» kitobida bunday deb yozadi: «Bizning bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurishdan boshqa yo'limiz yo'q. To'plangan tajriba, ilmiy tahlil (analiz) va aql-idrok shundan dalolat bermoqda»<sup>1</sup>. I. A. Karimov o'zining yana bir kitobida bundan ham qat'iyroq qilib shunday deydi: «Bozorga o'tish muqarrar. Bu — davr talabi, obyektiv reallikdir»<sup>2</sup>.

Darhaqiqat, to'la ma'noda, siyosiy va iqtisodiy mustaqillikka erishish vositasi — bu jahon xalqlari tajribasida sinalgan bozor iqtisodiyotiga o'tishdir. Hozirgi rivojlangan, butun dunyo xalqlari havas qilayotgan, farovon va demokratik hayot qurgan AQSH, Kanada, G'arbiy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari tarixan shu bozor yo'lidan borib adashmagan ekan. Yaqindagina qoloq bo'lgan, bugun esa o'zlarining yuksak iqtisodiy, madaniy-ijtimoiy yuksalishi bilan tanilgan Yaponiya, Singapur, Tayvan, Janubiy Koreya, Malayziya, Indoneziya, Turkiya kabi mamlakatlar ham o'z taqdir-larini bozor iqtisodiyoti bilan bog'lab shu darajaga erishdilar.

Demak, bizning bozor iqtisodiyoti yo'lidan borib, zamonaviy taraqqiyotga erishishimizga, farovon turmush tarzi qurishimizga hech qanday shak-shubha bo'lishi mumkin emas, ikkilanishga, kutib o'tirishimizga o'rin yo'q.

*Bozor iqtisodiyotiga o'tish shunchaki maqsadmi?* Yo'q, bu maqsad emas, bu «yangi qadriyatlarni shakllantirish, odamlar farovonligini sifat jihatdan tubdan o'zgartirish, uning yuqori darajasiga erishish uslubi va vositasidir»<sup>3</sup>.

---

<sup>1</sup> I.A. Karimov. O'zbekiston — bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. T., 1993, 7-bet.

<sup>2</sup> I.A. Karimov. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. T., 1992, 44-bet.

<sup>3</sup> O'sha asar, 26-bet.

Bozor va bozor iqtisodiyotining mazmuni sharq xalqlari uchun, ota-bobolarimiz uchun ham begona emas, ular hayoti bozor bilan bog'liq bo'lgan. Xalqimizda «shahar obodonchiligining belgisi mo'l-ko'pchilik bo'lgan bozordir», degan naql bejiz aytilmagan.

Bozor — tor ma'noda, xaridor bilan sotuvchi o'rtasida tovarni pulga almashtirish yoki aksincha, jarayoni yuz beradigan joy, alohida makondir. Keng ma'noda esa bozor, uning ishtirokchilari, ya'ni ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni anglatadi. Uning obyeksi — tovar, vositasi — puldir. Bozor o'z qonun-qoidalari bilan boshqariladi va doimo o'zgarib, kengayib borish xarakteriga ega. Mamlakat iqtisodiyoti rivojlangani sari, ichki va xalqaro mehnat taqsimoti kengayib borishi bilan bozor ham kengayadi, uning turi ko'payadi. Bozorning mahalliy bozor, hududiy bozor, xalqaro bozor kabi tuzilmalari bo'lib, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ham kuchayib boradi.

Bozor iqtisodiyoti tovar-pul munosabatlariga, ularning qonunlariga asoslangan alohida iqtisodiy tizimdir. Bozor iqtisodiyotining kelib chiqishi va rivojlanishi mehnat taqsimotining paydo bo'lishi va rivojlanib borishi hamda almashuv jarayonlarining rivojlanib borishi bilan bog'liq. Bozor munosabatlarining asosiy belgisi, bu uning xususiy mulkchilikka, ya'ni ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy (mulkiy) mustaqilligiga, munosabat ishtirokchilarining erkinliklariga, raqobat, o'ziga xos qonun-qoidalari va boshqa bir qator unsurlariga ega ekanligidir.

Bozor iqtisodiyotining xarakterli ijobiy belgilariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ishlab chiqaruvchilarning mulk egasi bo'lishi, ko'p mulklilik va ko'p faoliyatlilik, mulk shakllarining daxlsizligi va tengligi;
- ishlab chiqaruvchi va iste'molchi (sotuvchi va xaridor) o'rtasida qaror topgan nisbat o'zgaradi, ishlab chiqarish iste'molchining manfaatlariga bo'ysundiriladi;
- xo'jalik tejamkorlik bilan yuritiladi, xarajatlar kamroq bo'ladi, talon-taroj va mas'uliyatsizlik barham topadi;
- yangiliklarga sezgirlik bilan munosabatda bo'lish, fan-texnika-ning, texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlarini dadil joriy etish, kasb mahoratini oshirish kabi xislatlar qaror topadi;
- raqobat bozorning tarkibiy qismidir. Bu kurash qonuniy va adolatli asosga qurilganligi tufayli hech kim hech kimdan nolimaydi. Raqobat erkin bo'lib, u ma'lum tavakkalchilikni ham taqozo etadi.

O'zbekistonda qurilayotgan bozor iqtisodiyoti madaniylashgan bozor iqtisodiyotidir, ya'ni turli xil mulkchilik, har bir kishining



bir va bir necha mulk shakllariga bir vaqtning o'zida ega bo'la olish, bozor talabini yaxshi o'rganish (marketing faoliyati asosida ish yuritish), raqobatni ruxsat etilgan qonunlar yo'l qo'ygan chegaralarda olib borish, davlatning iqtisodiyotni tartibga solish bo'yicha tadbirlarida faol ishtirok etish va bunga yordam berish, faoliyat maqsadi faqat shaxsiy boylik orttirishgina emas, shu bilan birga o'zidan yaxshi nom qoldirish, ijtimoiy obro' va shuhratga ega bo'lish uchun kurashish, jamiyatda ijtimoiy tabaqalashuv borishini e'tirof etish va ijtimoiy piramidaning yuqoriroq pog'onasidan o'rin olishga intilish va boshqalardir.

Prezident I.A. Karimov uqtirganidek, bozor iqtisodiyotiga o'tish silliq va oson kechmaydi, uning shakllanish bosqichida (hozirgi davrda) «uzoq va chuqur iqtisodiy inqirozlar, ishsizlikning o'sishi, pulning qadrsizlanishi, ko'pgina korxonalarining sinishi va ishbilarmonlarning xonavayron bo'lishi, aholining moddiy ta'minot jihatdan keskin tabaqalanishi, huquqqa zid xatti-harakatlar va jinoyatlarning o'sishi xosdir»<sup>1</sup>.

Bozor iqtisodiyotining bizga ma'lum bo'lgan natural hamda rejali iqtisodiyotlardan tub farqi o'zini o'zi boshqarishidir. Bozor iqtisodiyotining obyektiv qonuni bo'lgan talab va taklif qonuni bozor munosabatlariga davlatning bevosita aralashuviga zaruratni ma'lum darajada kamaytiradi.

Bozor iqtisodiyotida o'zini o'zi tartibga soluvchi mexanizm mavjud deyilganda nimalar nazarda tutiladi?

*Birinchidan*, bozorga taklif qilingan tovar unga talab bo'lsagina sotiladi. Shuning uchun ishlab chiqaruvchi o'z tovarini sifatli va xaridor talabiga mutanosib narxlarda sota oladi, aks holda u o'z mehnatiga kuyadi va zarar ko'radi.

*Ikkinchidan*, ishlab chiqaruvchi iqtisodiy jihatdan mustaqil va erkindir: u nima ishlab chiqaradi, qayerda va kimga sotadi, qanday baholarda sotadi, kimlar bilan shartnomalar tuzib bog'lanadi, bularni faqat o'zi belgilaydi. Ishlab chiqaruvchining taqdiri uning o'z qo'lida, shuningdek, mas'uliyati ham o'zi bilandir. Iste'molchi esa erkin tanlov imkoniyatiga ega.

*Uchinchidan*, bozor iqtisodiyoti yakkahokimlikni (monopolizmni) inkor etadi. Har bir sohibkorga bozor munosabatlarida bemalol ishtirok etishi uchun shart-sharoit yaratib beradi.

---

<sup>1</sup> I.A. Karimov. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. T., 1992, 44-bet.

Bozor xaridorni himoya qiladi. Endi xaridor tanlab olish, kelishib olish, talab qo'yish huquqiga ega bo'ladi. Natijada bozordagi tovarlar harakati, muvozanati, baholar shakllanishi batamom bozorning o'z tartiblariga bo'ysunadiki, bundan butun jamiyat, barcha iste'molchilar manfaatdor bo'ladi.

Bozorni boshqaradigan asosiy vositalardan biri — baholardir. Bozor iqtisodiyoti hukmron bo'lgan sharoitda «baho — qiymatning puldagi ifodasidir» qoidasiga qo'shimcha ravishda bozorda baholarning belgilanishi tovarlarning iste'mol qiymatiga, uning sifati, turi, reklamasiga va boshqa jihatlariga bog'liqdir, qoidasi ham qo'shiladi. Bozor iqtisodiyotida baholar erkinlashadi, ya'ni talab va taklif nisbati bilan belgilanadi.

Talab (aholining tovarlar sotib olish qobiliyati, ehtiyojlarning qondirilishi darajasi) bilan taklif (bozorda sotish uchun kiritilgan tovarlar massasi) o'zgarib turuvchi iqtisodiy voqea-hodisalar bo'lganligi tufayli baholar ham doimo o'zgarib turadi. Davlat ma'lum tovarlar va xizmatlarga o'z buyurtmalarini berish orqali bozor baholarining shakllanishiga ta'sir etib turadi. Ammo davlat buyurtmasiga belgilangan baholar tovar ishlab chiqaruvchilarning manfaatlariga putur yetkazmasligi, tovar qiymatlaridan past bo'lmasligi lozim.

Bozor iqtisodiyoti to'laqonli shakllangan sharoitda baholar iqtisodiy va ijtimoiy adolatli asoslarga qurilganligi tufayli jamiyatda baholar darajasiga nisbatan norozilik tug'ilmaydi.

Bozor iqtisodiyotining o'ziga xos, maxsus qonunlari bor. Bozor iqtisodiy qonunlar talablari asosida tashkil etiladi va boshqariladi. Bozor iqtisodiyoti, eng avvalo, uning o'z maxsus qonunlari vositasida boshqariladi. Bu qonunlar jumlasiga: qiymat qonuni, talab va taklif qonuni, pul muomalasi qonuni, raqobat kurashi qonuni kiradi. Bu qonunlar obyektiv xarakterga ega, ya'ni ular odamlar xohish-irodasiga bog'liq emas. Faqat ularni tovar ishlab chiqaruvchilar, barcha bozor subyektlari e'tirof etishlari, ularning talablarini o'rganishlari, ana shu asosda o'z xo'jalik faoliyatlarini tashkil etishlari lozim. Bu iqtisodiy qonunlarni e'tiborga olmasdan turib xo'jalik yuritish, bozor munosabatlarida ularni qo'llamaslik og'ir iqtisodiy-ijtimoiy oqibatlariga olib keladi.

### **3.2. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrining jahon tajribasida sinalgan yo'llari**

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning xorijiy tajribalaridan foydalanish va O'zbekistonning o'z andozasi asosida rivojlanishi borasida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov «O‘zbekiston — bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li» kitobida bozor iqtisodiyotiga o‘tishning xorijiy mamlakatlarda ishlab chiqilgan va tatbiq etilgan tajribalarini chuqur tahlil qiladi.

Ma‘lumki, jahon taraqqiyoti o‘tgan asrning 80- va 90-yillar boshlarida tamomila yangi rivojlanish tartiblarini ilgari surdi. «Jahon sivilizatsiyasi, deydi yurtboshimiz, ijtimoiy taraqqiyotning sifat jihatdan yangi yo‘llarini ishlab chiqdi, tartibga solinadigan bozor iqtisodiyoti mana shu yo‘lga asos qilib olingan»<sup>1</sup>. O‘zbekiston Prezidenti o‘z asarida jahon mamlakatlarining bozorga o‘tish tajribalarini umumlashtirib, bozor iqtisodiyotini qurishning bir-biridan farq qiluvchi uch yo‘li borligini ko‘rsatgan. Bularning birinchisi — uzoq davom etadigan evolutsiyon taraqqiyot yo‘lidan borib, rivojlangan aralash iqtisodiyotni shakllantirish (hozirgi rivojlangan ilg‘or mamlakatlar tajribasi); ikkinchi yo‘li — eng oddiy, patriarxal-feodal munosabatlar ko‘rinishidagi an‘anaviy iqtisodiyotning madaniy bozor munosabatlariga aylantirilishi (rivojlanayotgan mamlakatlarning bozorga o‘tish andozasi); uchinchi — sobiq sotsialistik mamlakatlardagi yakkahokimlik, ma‘muriy buyruqbozlik boshqaruvi, markazlashgan rejalashtirish usulidan hozirgi bozor munosabatlariga, demokratik jamiyatga o‘tish. Yana sotsialistik taraqqiyotning xitoycha bozor iqtisodiyotini qurish andozasi ham bor.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning umumjahon tajribasidan ma‘lumki, bozor iqtisodiyoti bir qator muammolarni, xususan:

- a) ishlab chiqarishning uzluksiz rivojlanishini ta‘minlash;
- b) xo‘jalik yuritishda, barcha resurslardan oqilona, tejamli foydalanishni ta‘minlashga erishish;
- d) jamiyatga mo‘l-ko‘l, sifatli tovarlarni yetkazib berish orqali farovonlikni ta‘minlash;
- e) mehnatning va umuman, ishlab chiqarishning samaradorligiga erishish;
- f) ijtimoiy adolat tamoyillarini hayotga tatbiq etish va boshqalardan iborat.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning ikki jihati bor:

- *birinchisi* — bozor iqtisodiyotiga qanday iqtisoddan o‘tilayotganligi bilan bog‘liq;

---

<sup>1</sup> I.A. Karimov. O‘zbekiston — bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li. T., 1993, 22-bet.

• *ikkinchisi* — bozor iqtisodiyotiga qanday yo‘llar, usullar bilan o‘tsa bo‘ladi degan masala.

Shu nuqtayi nazardan qarasaq, bozor iqtisodiyotiga o‘tishning jahon tajribasida, asosan, uch yo‘li borligini ko‘rish mumkin:

1. *Klassik yo‘l*. Bu hozirgi rivojlangan mamlakatlarga xos, uzoq davom etgan yo‘l hisoblanadi. Bu yo‘l bilan o‘tilganda natural xo‘jalikdan hozirgi bozor iqtisodiyoti sari taraqqiyot bir necha asrlar davom etgan. Hozirgi yuksak darajada rivojlangan, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti tashkil etish, asosan, XX asrning o‘rtalaridan boshlandi va uning yakuniy davri XXI asrning so‘nggi yillariga to‘g‘ri kelmoqda.

2. *Mustamlakachilikdan ozod bo‘lgan mamlakatlarning bozor iqtisodiyotiga o‘tish yo‘li*. Bu yo‘l o‘zining ikki xususiyati bilan ajralib turadi:

a) bunda ayrim mamlakatlarda tez taraqqiyot yuz beradi, ya‘ni iqtisodiyotning boshqalar uchun muqarrar bo‘lgan bosqichlaridan sakrab o‘tgan holda bozor xo‘jaligining yuksak shakllari paydo bo‘ladi. Chunki bu mamlakatlar avval taraqqiy etgan mamlakatlar mustamlakasi bo‘lganligi uchun ularda shu ilg‘or davlatlar tomonidan tashkil etilgan bozor infratuzilmasi va bozor munosabatlari ta‘siri ostida rivojlanish yuz beradi;

b) bozor iqtisodiyotiga o‘tish ko‘p hollarda o‘z kuchiga emas, balki rivojlangan mamlakatlar yordamiga va tajribasiga tayanadi. Masalan, ayrim taraqqiy etgan davlatlar bu g‘oyat qoloq oilaviy dehqon xo‘jaligiga asoslangan mamlakatlarga investitsiyalar kiritish yo‘li bilan mashinalashgan industriyani olib kirishlari mumkin va shu yo‘l bilan ular rivojlanishga erishadilar. Aytilgan har ikki yo‘lning umumiyliigi shundaki, bozor iqtisodiyotiga o‘tish xususiy mulk va xo‘jalik yuritishning xususiy usullari zahirida yuz beradi.

3. *Sobiq sotsialistik mamlakatlarning bozor iqtisodiyotiga o‘tish yo‘li*. Bu yo‘l rejali iqtisodiyotdan erkin bozor iqtisodiyotiga o‘tishni bildirib, faqat davlat tomonidan tub islohotlar o‘tkazish orqaligina amalga oshiriladi. Chunki avval sotsializm sharoitida iqtisodiyot to‘la davlat qo‘lida bo‘lgan. Bu yo‘l bilan sobiq sotsialistik mamlakatlar bozor iqtisodiyotiga o‘tishmoqda.

Bozor tizimiga o‘tish modellari qanday bo‘lmasin, bozor iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishi tufayli yuzaga keladi. Bu islohotlar bozor islohotlari deb ataladi.

Bozor islohotlarini davlat tomonidan amalga oshiriladigan iqtisodiy chora-tadbirlar tashkil etadi. Bozor islohotlari iqtisodiyot

va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida o'tkaziladi. Chunki bozor munosabatlari o'z obyektiv qonunlari asosida yuzaga kelib, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tubdan yangicha tartib-qoidalar o'rnatadi.

Bozor islohotlarining asosiy yo'nalishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- mulkiy islohotlarni;
- agrar islohotlarni;
- moliya-kredit islohotlarini;
- tashqi iqtisodiy aloqalar islohotlarini;
- ijtimoiy sohadagi islohotlarni.

*Mulkiy islohotlar* — davlat mulki monopoliyasini tugatib, xususiy mulk va xilma-xil mulk shakllarini joriy qilish yo'li bilan boriladi, chunki bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyili bo'lgan erkinlik jamiyatda demokratik rivojlanishning asosiy omili hisoblanadi. Bunda mavjud mulk shaklini o'zgartirish chora-tadbirlari amalga oshiriladi. Buning uchun mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, ya'ni xususiylashtirish jarayoni o'tkaziladi. Mulkn xususiylashtirish, davlat mulkini boshqa mulk shakllariga — xususiy mulkka aylantirish demakdir.

Davlat mulkini xususiylashtirishning turli yo'llari mavjud:

1. Davlat mulkini qonun chiqarish orqali o'z fuqarolariga tarqatib, xususiy mulkka aylantirish.
2. Davlat mulkini fuqarolarga imtiyozli narxlarda sotish.
3. Ayrim davlat korxonalarini ularning o'z jamoa a'zolariga sotish.
4. Davlat mulkini ishbilarmon tadbirkorlarga shu korxonaning avvalgi ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish yo'nalishini saqlab, faoliyatini davom ettirish sharti bilan berish.
5. Davlat mulkini chet ellik sarmoyadorlarga ma'lum shartlar asosida ishlatishga berish.
6. Davlat mulkini aksionerlash orqali davlat aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirish.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan yo'llardan qaysi birini tanlash va unga ustuvorlik berish islohot o'tkazayotgan mamlakatning o'ziga va mavjud shart-sharoitiga bog'liq bo'ladi.

Xususiylashtirish davlat qo'lidagi barcha mulkini tugatish emas. Albatta, ayrim davlat korxonalari, ayniqsa, muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan korxonalar saqlab qolinadi. Lekin qolgan davlat korxonalari ham bozor qonun-qoidalari asosida faoliyat yuritadi. Hozirgi kunga kelib, davlat qo'lida 14,8 % mulk qolgan.

Mulkiy islohotlar tufayli kelib chiqqan turli mulklarning tengligi, daxlsizligi davlat tomonidan qabul qilingan qonunlar orqali ta'minlanadi.

Qishloq xo'jaligida o'tkaziladigan islohotlar agrar islohotlar deyiladi. Bu islohotlar orqali yerga bo'lgan mulkchilik shakli, xo'jalik yuritish shakli va usullari bozor talablariga moslashtiriladi, ularning bosh bo'g'inini yakka dehqon yoki fermer xo'jaligi tashkil etadi va ular ham bozor iqtisodining muhim qonuni bo'lgan raqobat kurashi asosida faoliyat yuritadi va rivojlanadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatda, albatta, moliya-kredit islohotlari ham o'tkaziladi. Chunki bozor talabiga javob beruvchi moliya-kredit tizimini yaratish islohotlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Islohot orqali yangicha soliq tizimi yaratiladi, o'z-o'zini moliyalashtirishga asoslangan moliya tizimi barpo qilinadi, moliya bozori yaratiladi, pul tizimi o'zgartiriladi, tijorat banklari, kredit tashkilotlari, sug'urta kompaniyalari ochiladi, xullas, bozorning moliya infratuzilmasi yaratiladi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni erkinlashtirishga qaratilgan islohotlar o'tkaziladi. Bu yo'l bilan eksport-importni, xorijiy kapitalning kirib kelishini rag'batlantiruvchi, chetdan qarz olish tartibini belgilovchi choralar amalga oshiriladi, milliy pulni konvertatsiyalash, ya'ni milliy pul birligini boshqa mamlakat valutasiga ayirboshlash tartib-qoidalari joriy etiladi.

Ijtimoiy sohada islohotlar o'tkazishning bosh maqsadi daromadlarning aholi o'rtasida taqsimlanishining adolatli tartibini o'rnatish, aholining muhtoj qatlamlariga ijtimoiy yordam ko'rsatish, ishsizlarga nafaqa to'lash, ularni ishga joylashtirish kabilarga oid choralarni nazarda tutadi. Xullas, islohotlar o'tkazishda u yoki bu yo'nalishning ustuvorligi, miqyosi, o'tkazish usullari, shart-sharoitlari har bir mamlakatning o'ziga xos bo'lgan jihatlariga bog'liq bo'ladi.

### **3.3. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish konsepsiyasi va islohotlar strategiyasi — «o'zbek modeli»**

Biz yuqorida bozor iqtisodiyotiga o'tishning jahon tajribasini o'rganib chiqdik. Xo'sh, ko'rsatib o'tilgan andozalardan qaysi biri biz uchun yaroqli, qaysi birini nusxa qilib olish mumkin? Bu murakkab savolga Prezidentimiz I.A. Karimov quyidagicha javob beradi: «Biz boshqa mamlakatlarda to'plangan tajribalarning respublikamiz sharoitiga tatbiq qilsa bo'ladigan imkoniyatlarni

inkor etmaymiz, albatta. Ayni vaqtda bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurishning o'z milliy andozasi ishlab chiqildi» va bu andozaning mazmunini shunday sharhlaydi: «O'zbekiston uchun o'zi tanlab olgan yo'l ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan, respublikaning manfaatlariga, shart-sharoitlari va xususiyatlariga eng ko'p darajada mos keladigan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgandir»<sup>1</sup>.

O'zbekiston — o'z tarixi, madaniyati, iqtisodiyoti, ijtimoiy tizimi, resurslari, zaxiralari va boshqa jihatlari bilan ajralib turuvchi mamlakat. Boshqacha aytganda, bizning o'zimizga xos xususiyatlarimiz borki, ularni bozor munosabatlari shakllantirilayotgan hozirgi davrda nazarda tutmoq g'oyat zarurdir. Bu xususiyatlarimiz qaysilar? Bu savolga ham Prezident I.A. Karimovning ilmiy tadqiqotlarida aniq-ravshan javob berilgan.

*Birinchi*dan, bizga «falaj» qilib davolash («shok terapiyasi») to'g'ri kelmaydi, ya'ni barcha mavjud tarkib topgan tizimlarni inkor etib, yo'qotib, tamomila yangi tizimlarni yaratish yo'lidan bormaymiz. Biz «yangi uy qurmay turib, eskisini buzmaslik» yo'lidan boramiz.

*Ikkinchi*dan, «bozor iqtisodiyoti sari sakrashlar, inqilobiy qayta o'zgarishlar yo'li bilan emas, balki sobitqadamlik va izchillik bilan bosqichma-bosqich harakat qilish» yo'lidan boramiz.

*Uchinchi*dan, xalqimiz bozor iqtisodiyotiga o'tishga tayyor emasligini nazarda tutib, bozorga o'tishda aholini, ayniqsa, uning nochor guruhlarini ijtimoiy himoyalash mexanizmi yaratiladi. Bunda «milliy daromadni qayta taqsimlash, davlat qo'lidagi eng asosiy manba va vosita» bo'ladi.

*To'rtinchi*dan, «odamlarning, korxonalarining, tarmoqlar, mintaqalarning, umuman, davlatning manfaatlarini monand ravishda uyg'unlashtirishni ta'minlash» yo'lidan borish.

*Beshinchi*dan, bizda bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlatning rolini oshirish nazarda tutilmoqda. Ammo davlat, uning boshqaruv tuzilmalarining to'g'ridan to'g'ri xo'jalik faoliyatiga aralashuviga yo'l qo'yilmaydi.

*Oltinchi*dan, fuqarolarga va yuridik shaxslarga tashabbus ko'rsatish, ishbilarmonlikni rivojlantirish uchun teng sharoitlar yaratib beriladi<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> I.A. Karimov. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. T., 1992, 46-bet.

<sup>2</sup> O'sha asar, 48, 50, 51-betlar.

Mamlakatimizda qurilayotgan bozor iqtisodiyoti bu boradagi umumbashariy qadriyatlarni e'tiborga olishga hamda ularni milliy xususiyatlarimiz bilan uyg'unlashtirishga asoslanadi, ya'ni ijtimoiy himoyalangan (ijtimoiy yo'naltirilgan) bozor iqtisodiyoti bo'ladi. Xo'sh, bunday bozor munosabatlarining o'ziga xos jihatlari yana qaysilar?

Bu milliy jihatlarga quyidagilar kiradi:

- madaniylashgan ilg'or bozor iqtisodiyoti mulkchilikning har xil shakllarda bo'lishi, erkin iqtisodiy faoliyat tanlovi, talab va taklifga qarab ish yuritish, raqobat asosida iqtisodiyotning rivojlanishi, daromadlarning manbalar va miqdor jihatdan cheklanmasligi kabi umumiqtisodiy xususiyatlar hisobga olinadi;

- inson farovonligini ta'minlashga, ijtimoiy hayot tarzining umumiy o'sishiga erishiladi; bunda har bir kishi o'z farovonligini boshqalar manfaatini qondirish orqali ta'minlay oladi;

- iqtisodiyot keng ma'noda demokratlashadi, ya'ni bozor subyektlarining hammasi mulk sohiblariga aylanadi, mulkiy munosabatlarning ishtirokchilari bo'ladi; mulkdorlarning o'rta toifasi vujudga keltiriladi va bular umumiy farovonlikka olib boradi;

- mamlakatda haddan tashqari, asossiz boy-badavlat yoki qashshoqlar toifasi bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi, ya'ni aholining kuchli ijtimoiy tabaqalashuviga olib borilmaydi;

- mamlakatimizda kuchli ijtimoiy himoya mexanizmi qaror topib, ommaviy, yalpi himoyalash emas, balki aniq, shaxsiy maqsadli ijtimoiy himoya tizimi yaratiladi.

Iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichida o'zimizga xos bozor iqtisodiyoti qurishning dastlabki tajribalari to'plandi, endi ular yanada chuqurlashtirilib borilmoqda.

Ma'lumki, O'zbekiston aholisi tez ko'payayotgan, zich joylashgan hamda mehnat resurslari ortiq bo'lgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Buning ustiga oilada kishilar soni yuqori (o'rtacha 6 kishi atrofida) bo'lganligi tufayli jamg'armalar yetarli emas, sarmoyalar kam. Bunday sharoitda jonli mehnatni ko'p talab qiladigan (qo'l mehnatini talab qiladigan) ishlab chiqarish tarmoqlarini, mayda va o'rta korxonalarini qurishga ustuvorlik berish maqsadga muvofiqdir. Qishloq xo'jaligida ham ko'proq meva-sabzavotchilik yo'nalishiga, chorvachilikning ish kuchi talab qiladigan sohalariga e'tiborni kuchaytirish ayni muddaodir. Mamlakat iqtisodiyotiga chet el sarmoyalarini jalb etish, ularga soliq va boshqa masalalarda imtiyozlar berish hozirgi davrning talabidir.



Bozor iqtisodiyoti mohiyatiga ko'ra, mo'l-ko'l iste'mol ne'matlarini vujudga keltiruvchi iqtisodiyotdir. Buning ma'nosi, milliy mahsulot hajmida shaxsiy iste'mol buyumlari va xizmatlarning salmog'i hozirgi darajadan ancha yuqori bo'lishiga erishishdir.

O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tishning asosiy yo'nalishlarida ijtimoiy ishlab chiqarish hajmida iste'mol buyumlari ishlab chiqarishning salmog'i o'rtacha 50—55 % ga o'stirilishi ko'zda tutilgan, keyinchalik bu ko'rsatkich yanada oshirib borilib, umumjahon me'yorlariga yetkazilishiga harakat qilinmoqda. Hozirgi vaqtda ilg'or mamlakatlar ijtimoiy ishlab chiqarishida xalq iste'mol buyumlari ishlab chiqarish salmog'i 65—75 % ni tashkil etadi. O'zbekiston hukumati ana shu zaruratni hal qilish maqsadida xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun milliy va xorijiy sarmoyadorlarga soliq hamda boj solish masalalarida, kreditlar va ish kuchi bilan ta'minlashda yengilliklar berish haqida qarorlar qabul qilgan. Bunday ilg'or ishlab chiqarish tuzilishi bozorni iste'mol buyumlari bilan serob qilishga, ular baholarining arzonlashuviga, xalq iste'molining ortishiga xizmat qilishi tabiiydir.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston o'z oldiga qo'ygan ikki strategik vazifani bajarmoqda, *birinchidan*, o'z mustaqilligining poydevori bo'lgan iqtisodiyotini modernizatsiyalash, *ikkinchisi*, chuqur ijtimoiy-siyosiy islohotlar o'tkazish orqali huquqiy-demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo etish.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, O'zbekistonning o'ziga xos yo'li Prezidentimiz I.A. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan besh tamoyilda ifodalangan bo'lib, ular hozirgi zamon iqtisodiyoti nazariyasiga qo'shilgan katta hissa bo'ldi. Ular quyidagilar:

- *birinchi tamoyil* — iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligini ta'minlash. Bu iqtisodiyotning o'z qonun-qoidalariga binoan rivojlanishini, avval iqtisodiyotni rivojlantirish, so'ngra esa boshqa ijtimoiy muammolar yechimi bilan shug'ullanish;

- *ikkinchi tamoyil* — davlat bosh islohotchi bo'lishi. Bu tamoyil bozor iqtisodiyotiga o'tishda davlat rahbarlik rolini ta'minlash. Barcha islohotlar davlat tomonidan puxta o'ylab chiqilgan reja orqali amalga oshirilishini bildiradi;

- *uchinchi tamoyil* — qonun ustuvorligini ta'minlash. Bu tamoyil bozor iqtisodiyotiga o'tishni davlat tomonidan qabul qilingan qonunlar asosida, tartibli ravishda, hammaning, ya'ni keng jamoatchilik ishtirokida amalga oshirilishini bildiradi;

- *to'rtinchi tamoyil* — faol ijtimoiy siyosat yuritish. Bu, eng avvalo, xalqning ijtimoiy himoyasini, uning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy faolligini ta'minlaydigan, adolatni yuzaga chiqaradigan siyosat olib borilishini bildiradi;

- *beshinchii tamoyil* — bozor iqtisodiyotiga sekin-asta, bosqichma-bosqich o'tish. Bu tamoyil chuqur iqtisodiy islohotlarni sobitqadamlik bilan amalga oshirishni nazarda tutadi.

O'zbekistonda bozor islohotlari ana shu tamoyillarga asoslangan va bosqichlariga rioya qilingan holda olib borilmoqda. Jumladan, birinchi bosqichda islohotlar orqali bozor iqtisodiyotining negizlari shakllantirildi. Eng avvalo, shu negizlarni yaratishni ta'minlovchi qonunlar qabul qilinib, ularning huquqiy asoslari yaratildi. Bunda iqtisodiyotning bosh masalasi bo'lgan mulkchilikning yangi shakliga o'tildi va ko'p bosqichli iqtisodiyot uchun zamin yaratildi. Mulk davlat tasarrufidan chiqarilib, jamoa mulki va xususiy mulkka aylantirildi. Birinchi bosqichdagi mulkiy o'zgarishlar ikki yo'nalishda bordi, birinchidan, kichik xususiylashtirish o'tkazilib, mahalliy sanoat, savdo-sotiq va maishiy xizmat sohasidagi davlat korxonalari jamoa va xususiy mulk qilib berildi, natijada iqtisodiyotning nodavlat sektori paydo bo'lib, u davlat ixtiyoridan chiqib ketgan korxonalar va xo'jaliklardan iborat bo'ldi. Bu sektor 1995-yilga kelib O'zbekiston milliy daromadining 67 % ini tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlab o'tganidek, «...agrar sektorni tubdan isloh qilish va jadal rivojlantirish muammolari islohotning dastlabki bosqichida hamda O'zbekistonning bozorga o'tish strategiyasida hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi». Agrar islohotlar ikki yo'nalishda o'tkazildi. Birinchidan, avval, odamlarga yer bepul berildi. Jumladan, shaxsiy xo'jalik yuritish uchun 550 ming gektar sug'oriladigan maydonlar ajratildi. Shaxsiy tomorqa xo'jaligidagi yer miqdori 700 ming gektarga yetkazildi. Natijada 9 million kishi tomorqa xo'jaligi yuritish uchun yerga ega bo'ldi. Ikkinchidan, qishloqda fermer xo'jaliklari tashkil etish ishlari amalga oshirildi.

Birinchi bosqichda avvalgi davlat belgilaydigan rejali narxlardan sekin-astalik bilan erkin bozor narxlariga o'tildi. Erkin narxlar sharoitida bozor iqtisodiyotiga xizmat qiluvchi soha — bozor infratuzilmasi ham shakllantirildi. Natijada tovarlar va xizmatlar bozori, resurslar bozori, mehnat bozori, valuta bozori, kredit resurslari bozorlari ishlay boshladi. Avvalgi ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqarish usuli o'rniga bozor boshqarish usuliga o'tila

boshladi. Bu bosqichdagi ijtimoiy islohotlarda dastlab aholining ayrim kambag'al qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishga ahamiyat berildi. Bu bosqichning muhim va asosiy yakuni mamlakatda ijtimoiy va siyosiy barqarorlik ta'minlandi.

Ikkinchi bosqichda islohotlar davom ettirilib, bozor munosabatlarini shakllantirish orqali mamlakatning yangi iqtisodiy tuzumini mustahkamlab, uning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashga qaratildi. Bu bosqichda ham, eng avvalo, mulkni xususiyashtirish ustuvor vazifa bo'lib, davlat mol-mulkini turli yo'llar bilan sotish orqali yangi mulklarni yaratishdan iborat bo'ldi. Bundan ikki xil natija kutilar edi. Birinchidan, mulk o'zining haqiqiy egasiga tegishi kerak va mamlakatda haqiqiy mulkdorlar sinfini vujudga keltirish zarur. Ikkinchidan, ko'pchilikning mulk sohibiga aylantirilishi mamlakatda demokratik islohotlarni amalga oshirish zaminini tayyorlab berar edi.

Mulkdorlar qanchalik ko'p bo'lsa, ular o'rtasida raqobat ham shu qadar kuchli bo'ladi. Raqobat esa iqtisodiyotni harakatlantiruvchi kuchdir. Bu bosqichda xususiyashtirish keng ko'lamda amalga oshirildi va ko'p sohalarni qamrab oldi. Bu jarayonga o'rta va yirik korxonalar ham tortildi. Xususiyashtirishda, hatto chet elliklar ham qatnashdi va ular uchun mulkni sotib olish imkoni yaratib berildi. Bunga davlat korxonalarini ochiq aksiyadorlar jamiyatiga aylantirish orqali erishildi.

**O'zbekistondagi turli mulkchilikka oid korxonalar**




Diagramma ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2014-yilga kelib iqtisodiyotimizning nodavlat sektoridagi korxonalar va tashkilotlar soni 85,2 % ni tashkil etmoqda.

Xususiylashtirishning eng muhim natijasi bu ko'p bosqichli iqtisodiyotning paydo bo'lishiga olib kelinishidir.

Islohotlarning ikkinchi bosqichida O'zbekistonning milliy valyutasi — so'm muomalaga kiritildi (1994-yil 1-iyul). So'm to'la qiymatli milliy valuta sifatida respublikaning barcha hududida yagona to'lov vositasi sifatida qabul qilinadigan bo'ldi.

Ikkinchi bosqichdagi islohotlarning ijtimoiy jihati shundan iborat bo'ldiki, jamiyatda iqtisodiy ahvolni hisobga oluvchi kuchli ijtimoiy kafolat mexanizmi yaratildi. Natijada bozor iqtisodiyotiga mos bo'lgan ijtimoiy adolat qoidalari yuzaga chiqarildi. Ikkinchi bosqichda iqtisodiyotning bozor mexanizmi yaratilib, ishga solindi. Bu mexanizm yordamida ikki muhim masala yechilishiga erishildi, birinchisi, iqtisodiyotda tamomila barqarorlikka erishilib, so'ngra iqtisodiy o'sish bosqichiga chiqish; ikkinchisi, O'zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashga qodir bo'lgan ishlab chiqarish tuzilmasini yaratib, mamlakatning boshqalarga qaramligiga barham berishdan iborat bo'ldi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Prezidentimiz I.A. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan mamlakatimizning bozor iqtisodiyotiga o'tish ilmiy konsepsiyasi, davlat dasturi asosida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar tobora chuqurlashtirilmoqda, milliy iqtisodiyotimiz erkinlashtirilmoqda, u umumjahon iqtisodiyoti bilan chuqur integratsiyalashtirilmoqda. Mamlakatimizda yangi demokratik jamiyat barpo etishning O'zbekiston yo'li xalqimizning tarixiy-milliy salohiyatiga, ma'naviyatiga, hozirgi avlodning kuch-qudratiga, uning kelajak uchun umidvor intilishlariga, eng muhimi, yoshlarimizga, ularning fidoyiligi va vatanparvarligiga asoslangan. Bunday jamiyatni qurish, unga munosib bo'lish zamonaviy bilimlarni, ayniqsa, ilg'or iqtisodiy tafakkurni, zamonaviy kasblarni, mahorat sirlarini qunt bilan egallashni taqozo etadi.

#### *ASOSIY TAYANCH IBORALAR*

- Bozor;
- bozor iqtisodiyoti;
- bozor iqtisodi belgilari;
- xususiylashtirish;
- mulk;
- mulk shakllari;
- bozor iqtisodiga o'tish tamoyillari;
- bozor iqtisodiyotiga o'tish konsepsiyasi;
- o'tish davri;
- bozor iqtisodiyoti o'zini o'zi boshqaradigan tizim.



### TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Bozor iqtisodiyotining asosiy belgilari nimalardan iborat?
2. Bozor iqtisodiyotining asosiy afzalligi nimada?
3. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning qanday yo'llari bor?
4. Bozor iqtisodiyotiga o'tishdagi O'zbekiston yo'li qaysi belgilari bilan ajralib turadi?
5. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning asosiy yo'llarini bayon eting.
6. O'zbekistonda islohotlarning birinchi bosqichining asosiy vazifasi nima edi?
7. O'zbekistondagi islohotlarning ikkinchi bosqichida qanday ishlar amalga oshirildi?
8. O'zbekistonda islohotlarning ikkinchi bosqichida mulkni qanday yo'llar bilan xususiylashtirish amalga oshirildi?
9. Bozor iqtisodiyotiga o'tish konsepsiyasi deganda nimani tushunasiz?
10. O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishining asosiy tamoyillari Prezidentimizning qaysi asarlarida yoritib berilgan?
11. O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishining o'ziga xos xususiyatlari nimalarda ifodalanadi?

---


#### 4-bob. TALAB VA TAKLIF, BOZOR MUVOZANATI

##### 4.1. Talab tushunchasi

*Talab* — bu kishilarning ma'lum bir ehtiyojlarini qondirish maqsadida tovarlar yoki xizmatlarni sotib olish uchun to'lovga qobilligi bo'lib, u ana shu kishining qo'lida mavjud bo'lgan pul mablag'lari miqdorida o'z ifodasini topadi. Odatda, bozorga borganlar xaridor sifatida o'zlariga kerak bo'lgan ma'lum miqdorda va turdagi tovarlarni o'zaro kelishilgan narxlarda sotib olish imkoniyatiga ega bo'lishadi va shu imkoniyatlari darajasida olishadi. Bu holat ularning talab darajasini belgilaydi.


Bozorda sotuvchilar tovar taklif qiladilar, xaridorlar esa u yoki bu tovarga talab bilan boradilar. Bozorning bir tomonida taklif, ikkinchi tomonida talab turadi. Kishilarning talabi ularning ma'lum bir hayotiy ehtiyojlari tufayli kelib chiqadi, bu ehtiyoj bozorda talab shakliga kiradi. Talabning miqyosi esa shu tovarning xaridorga qaysi darajada zarurligi, unga naf keltira olishi bilan ifodalanadi. Talab xaridorning tovarga yoki xizmatga pul to'lash qobiliyati bilan ta'minlangan ehtiyojidir. Agar xarid uchun pul bo'lmasa, ehtiyoj bo'lgani bilan u talabga aylanmasligi mumkin. Masalan, hozir juda ko'pchilik yengil avtomobil sotib olishni xohlaydi, bunga ehtiyojlari bor, lekin hammaning unga yetarli puli yo'q. Demak, ehtiyoj talabga aylanmadi va u qondirilmay qolaveradi. Chunki ehtiyoj pul va narx orqali talabga aylanadi.

##### Ehtiyojning talabga aylanishi



##### 4.2. Talabning turlari. Individual va bozor talabi

Talab bozorda g'oyat tabaqalashgan holda namoyon bo'ladi, chunki u, asosan, alohida kishilar talablaridan iboratdir. Alohida kishilar talablari yakka (individual) talab deb aytiladi. Chunki har



Chizmadagi egri chiziqning notekis o'zgarishini ko'ramiz.  $OY$  narx o'zgarishi bo'lsa,  $OX$  talab ortishini ifodalaydi.  $AH$  chizig'ida talabning ortib borish harakati ifoda etilgan.  $AB$  masofada talab so'nggi  $DH$  masofadagiga qaraganda ko'proq ortib borgan, chunki dastlab narxning talabga ta'siri ancha kuchli, so'ngra u so'na borgan. Bu ham tovar nafligining yuqori nuqtadan quyi nuqta tomon harakatda bo'lishini ko'rsatadi<sup>1</sup>.

### 4.3. Talabning o'zgaruvchanligi (elastikligi)

Talabning o'zgarib turishi tovarning nafliligi bilan bog'liq. Tovarning nafliligi deganda, uni iste'mol qilayotgan xaridor oladigan qoniqish tushuniladi. Qoniqish ham, o'z navbatida, ikki xil ko'rinishga ega. Xaridorning ayrim tovarlardan qoniqishi yakka qoniqishdir. Xaridorlar tomonidan umuman tovarlarni iste'mol etishda umumiy qoniqish ham yuz beradi va u bozor holatiga ta'sir ko'rsatadi. Umumiy naflilik ayrim tovarlar guruhiga daxldor bo'lib, u kishilar talabini tez o'zgartiradi. Tovarlar xilma-xil bo'lganda ularning naflilik darajasi pasayishga moyil bo'ladi. Bundan me'yoriy naflilik kelib chiqadi.

Odatda, me'yoriy naflilik chegaralangan bo'ladi. Talabning to'yinishiga qarab dastlab kuchli bo'lgan me'yoriy naflilik asta-sekin pasayib boradi. Buni oddiy misol orqali ko'rib chiqishimiz mumkin. Masalan, bitta ko'ylak sotib olinganda xaridor uchun uning nafi eng yuqori darajaga ega bo'ladi, chunki u ana shu ko'ylakni har kuni kiyadi, shunday qilishga majbur, chunki uning boshqa ko'ylagi yo'q. Keyinchalik u ikkinchi, uchinchi va nihoyat, to'rtinchi ko'ylakni sotib oldi. Endi uning to'rtta ko'ylagi bor bo'lgani uchun ularni navbatma-navbat kiyaveradi. Shuning uchun to'rtinchi ko'ylak olinganda uning nafi past bo'ladi, chunki xaridor endi

<sup>1</sup> A. O'lmasov. Iqtisodiyot asoslari. T., «Mehnat», 1997, 49-bet.

kundalik kiyadigan ko‘ylagi ko‘p bo‘lgani uchun keyingi olinganlarining naflilik darajasi pasayib boradi, ya’ni xaridor olgan birinchi ko‘ylakdan 4 birlikka teng qoniqish olgan bo‘lsa, ikkinchisidan 3 birlikka, uchinchisidan 2 birlikka, to‘rtinchisidan 1 birlikka teng qoniqish oladi. Jami iste’moldan (4 dona) ko‘rilgan naflilik 10 birlikka teng deb qaraladi ( $4+3+2+1=10$ ), ammo u 4 dan 1 gacha pasayib boradi. Demak, xaridor uchun endi qo‘shimcha naflilik oldingisidan past bo‘ladi va bu talabga ta’sir etmay qolmaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar nafliligining pasayib borishi qonuni bor. Bu qonunning mazmuni shundaki, iste’molchi uchun har bir xarid qilingan keyingi tovarlarni iste’mol qilishdan olingan qoniqish pasayishga moyil bo‘ladi, chunki iste’mol darajasi oshgan sari undan to‘yinish hosil bo‘ladi.

Bozor sharoitida har bir ishlab chiqaruvchi bozorda o‘z mavqeyini saqlab qolish va foyda olib ishlash uchun bozorning to‘yinishini hisobga olib, nafliligi yuqori bo‘lgan yangi tovarlarni chiqarib turishi kerak. Bu bozor iqtisodiyotining qonunlaridan biri bo‘lgan tovar nafliligining pasayib borishga moyilligi qonuni talabdan kelib chiqadi.

#### 4.4. Talab qonuni

Bozordagi talab o‘zgaruvchan (elastik) bo‘ladi. Bu hodisa talab qonuni bilan bog‘liq izohlanadi. Talab qonuni — bozordagi talabning tovarlar narxiga nisbatan teskari mutanosiblikda o‘zgarishini bildiradi. Talab qonuni narx darajasi bilan talab miqdorining teskari mutanosiblikda bog‘liqligini ko‘rsatadi. Uning formulasi quyidagicha ifodalanadi<sup>1</sup>:

$$T_B = \frac{1}{V} \cdot Q,$$

bu yerda,  $T_B$  — talab;  $V$  — tovar narxi;  $Q$  — tovar miqdori.

Odatda, hamma biladiki, bozorda narx oshsa, talab kamayadi, narx pasaysa, aksincha, talab ortadi, xuddi shu holat talab qonuni deb ifodalanadi. Narx arzonlashganda talab ortadi, chunki ilgari muayyan tovarni sotib olishga qurbi yetmaganlar uni sotib olish imkoniga ega bo‘lishadi.

Talabga narxdan boshqa bir qator omillar ham ta’sir ko‘rsatadi, lekin buni talab qonuni bilan izohlab bo‘lmaydi. Shu sababli

---

<sup>1</sup> A. O‘lmasov. Iqtisodiyot asoslari. T., «Mehnat», 1997, 51-bet.



narxning talabga ta'siri doimiy xarakterga ega emas, chunki ayni shu tovarni yuqori narxda oldin olganlar ham endi uni ko'proq xarid qila olishadi. Ma'lum bir tovarga narxning ortishi ikkinchi bir narxi arzon tovarga bo'lgan talabning ortishiga sabab bo'ladi. Bu holat talabni o'rinbosar tovarga ko'chiradi. Natijada narxi o'zgarmagan tovar arzonlashgan tovarga nisbatan qimmat bo'ladi, shu sababli xaridor arzon tovarni ma'qul ko'rib, uni ko'proq xarid qila boshlaydi. Bu jarayon, asosan, o'rinbosar tovarlarga taalluqli bo'ladi. Masalan, bu holat oziq-ovqat mahsulotlaridan — un, makaron kabilar qimmatlashsa, guruch mahsulotlari narxi o'zgarmay qolsa, albatta, xaridor guruchni ko'proq sotib ola boshlaydi. Ammo ayrim toifadagilar borki, ularning xarid imkoniyatlari yetarli bo'lganligi uchun avvalgidek o'zlari ma'qul ko'rgan mahsulotlarni xarid qilaverishadi, lekin un mahsulotlariga bo'lgan umumiy talab biroz qisqaradi, chunki uning bir qismi guruch mahsuloti tomonga o'tib ketadi.

Demak, ayrim tovarlarga narx oshganda ularga talab qisqaradi, xaridorlar muayyan tovarni kamroq olishadi yoki uni olmay qo'yadilar. Narxi oshgan tovarga bo'lgan avvalgi talab boshqa o'rinbosar, lekin narxi oshmagan tovarga tomon o'tadi. Buni oddiy misol bilan tushuntirishga harakat qilamiz. Bozorda, ayniqsa, bahor paytida kartoshkaning bahosi ko'tarilib, avvaliga 1500 so'mga, keyin asta-sekin o'saborib, 2000 so'mga yetadi. Shu vaqtda sholg'omning bahosi 500 so'mni tashkil etib, bir xilda turibdi. Demak, talab qonuniga ko'ra ko'pchilik iste'molchilar kartoshkaga o'rinbosar bo'lgan sholg'om olishni ma'qul ko'radilar, natijada talabning bir qismi sholg'om tomon o'tadi, kartoshka xaridi qisqarib boradi.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, talab bilan narx o'rtasida miqdoriy bog'liqlik talab qonuni borligidan dalolat beradi, lekin bu bog'lanish mutlaq bog'liqlik bo'ladi, degan xulosani bermaydi.


#### **4.5. Talabning tabaqalashuvi. Talabga ta'sir etuvchi omillar**

Talabga narxdan tashqari boshqa omillar ham ta'sir etadi. Agar narx talabni qisqartirsa, boshqa omillar uni oshirishi mumkin yoki aksincha. Bunday omillar juda ko'p, jumladan, xaridor ana shu muayyan tovarni topish uchun transport xarajati, uni iste'mol qilishga tayyorlash uchun ketgan xarajatlar va boshqalar. Misol uchun, bozorda kartoshka bahosi 1 kg uchun 1000 so'm, lekin xaridor uyining yonginasidagi do'konda 1200 so'm turadi deylik.

Bu holatda xaridor bozorga borish-kelish xarajatlari, ketgan vaqti kabilarni hisoblab, uy yaqinidagi kartoshkadan uning narxi bozordagidan qimmat bo'lsa ham sotib olishi mumkin.

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, talab qonuni o'zgaruvchan, ya'ni elastik xarakterga egadir. Ayrim hollarda tovarning xaridor uchun qancha turishi faqat uning bozor narxi bilan emas, balki tovarni topish va uni iste'mol qilish hamda boshqa xarajatlari bilan ham bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Keltirilgan misolda tovarning narxiga transport xarajati ham ta'sir ko'rsatgani hamda vaqt omilining ta'sirini yaqqol ko'rish mumkin.

Quyidagi chizmada talabning narxdan qat'i nazar, o'zgarishi mumkinligi aks ettirilgan:



Lekin bunday natija talab qonuniga zid hisoblanadi, chunki narx oshsa, talab qisqarishi kerak edi. Demak, narxdan tashqari talabga ta'sir etib, uni o'zgartiruvchi bir qator omillar, ya'ni xaridorning didi, daromadidagi o'zgarishlar, o'rinbosar tovarlarning borligi, reklama, tovarni qarzga sotish, kafolat berish, qo'shimcha xizmat ko'rsatish kabilar ham bo'lishi mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iste'molchi talabi ustuvor hisoblanadi. Nima xarid qilish, qancha miqdorda olish, qanday narxda olishni xaridorning o'zi erkin, sotuvchi bilan kelishgan holda hal qiladi. Iste'molchining bu erki va xohishi, avvalo, iqtisodiy erkinligi, bozor raqobati qonunlari bilan ta'minlanadi. Bu holat, o'z navbatida, ishlab chiqaruvchilar faoliyatining iste'molchiga kerakli tovarlar taklifini ta'minlashga qaratilishi zarurligini ko'rsatib turadi.

Bozorda talabning o'zgarishini, iste'molchining harakatini cheklaydigan asosiy omillardan biri — bu uning daromadi, ya'ni xarid qobiliyati. Iste'molchi, eng avvalo, cho'ntagidagi puliga qarab,

<sup>1</sup> A. O'Imasov. Iqtisodiyot asoslari. T., «Mehnat», 1997, 52-bet.

o'zining talab-ehlijahini qondiradigan tovarlarni xarid qilishga harakat qiladi. Xaridorning bozordagi harakatining asosiy qoidasi, bu — o'zining cheklangan daromadi sharoitidan kelib chiqish va tovarlar xaridida shu tovarning eng yuqori darajada naf keltirishiga qaratilgan bo'lishidir. Demak, iste'molchining nimani afzal ko'rib xarid qilishi, birinchi navbatda, uning daromadiga bog'liq bo'lar ekan.

Bozorda talab qonunining yuzaga chiqishiga ta'sir etuvchi omillardan biri iste'molchining didi hisoblanadi. Iste'molchi bozorda tovarni, ko'pincha, o'z didiga qarab uning narxi past bo'lsa ham xarid qilmasligi mumkin yoki narxi yuqori bo'lsa ham sotib olishi mumkin.

Bozorda talab qonunining yuzaga chiqishida daromad bilan narx o'rtasidagi bog'liqlik ham muhim hisoblanadi. Shunday tovarlar borki, bozorda narxlardagi o'zgarishlar ularga bo'lgan talabga katta ta'sir qilmaydi. Bunday tovarlarga talab iste'molchilarning daromadlari kamaygan taqdirda ham ortib borishi mumkin. Masalan, bu non, tuz, yog' kabi eng hayotiy zarur ehtiyojlarni qondirish uchun kerak bo'ladigan tovarlarga, iste'molchining daromadlari har qancha kamaygan taqdirda ham nonga, unlarga talab qisqarmaydi, aksincha, ortib boradi. Lekin talab o'zgaruvchanligi qonuniyatida shunday hodisa ham borki, aholi daromadlarining oshib borishi nonga talabning qisqarishiga olib kelishi mumkin. Bu hol, odatda, aholi daromadi oshsa, non o'rniga boshqa sifatli oziq-ovqatni, ya'ni go'sht, sariyog', baliq, sut, qatiq, qaymoq, sitrus mevalar va boshqa taniq mahsulotlarni iste'mol qilishga harakat qiladi. Daromad bilan talab qonunining bog'lanishi turmush darajasiga qarab yuzaga chiqar ekan, daromad ko'payishi bilan sifati past tovarlarga talab qisqarib, yuqori sifatli tovarlarga talab ortib boradi.

Bozorda shunday tovarlar borki, ularning narxi aholi daromadlarining o'sishiga monand ravishda tez o'sib boradi va ularga talab ham tez o'zgaruvchan bo'ladi. Bu tovarlar qimmat bo'lsa-da, aholi sotib olaveradi. Bular jumlasiga avtomashina, videotexnika, yangi rusumdagi kiyimlar, oltin, zeb-u ziynat buyumlari, sayohat xizmati kabilar kiradi.

Odatda, bozorda narxnining ortishi aholining daromadi samarasini pasaytiradi va aksincha, tovarning arzonlashuvi uning samarasini oshiradi. Bozorda narxlarning tez o'zgarib turishi sharoitida muayyan xaridor daromadining xarid qilish qobiliyati har xil bo'ladi. Aytaylik, bozorda go'shtning narxi 30000 so'm bo'lsa, 90000 so'mga undan 3 kg sotib olish mumkin. Agar u arzonlashib 20000 so'mga tushsa, 4,5 kg sotib olish mumkin, bu esa daromad-

ning xarid qobiliyati oshganligini ko'rsatadi. Agar go'sht narxi 35000 so'mga chiqsa, xaridor daromadi har bir kg go'shtdan 5000 so'mdanga kamaygan bo'ladi.

Bozorda talabga ta'sir ko'rsatadigan boshqa omillar ham borki, ulardan biri — bu o'rinbosar tovarlardir. Odatda, o'rinbosar tovarlarning borligi yoki yo'qligi, ularning arzon-qimmatroq bo'lishi bozor narxlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, unning narxi oshsa, non va boshqa un bilan bog'liq mahsulotlar narxi ham oshib, ularga talab qisqaradi. Shuningdek, bir-birini to'ldiruvchi tovarlarda, ulardan birining narxi pasaysa, boshqasiga talab oshadi, chunki ulardan birini iste'mol qilish boshqasini ko'paytirishni talab qiladi. Misol uchun, bizda avtomobillarning narxi arzonlashsa, benzin, moy va uning boshqa ehtiyot qismlariga talab ularning narxini oshiradi. O'z-o'zidan bozorda muayyan tovarga talab o'rinbosar tovarlar narxiga teskari mutanosiblikda o'zgaradi.

Ba'zi hollarda bozorda narxning oshishi kutilsa, talab oshadi yoki aksincha, chunki narxning oshishi ehtimoli kishilarda bu tovarlarga talabni oshiradi, bu psixologik effekt deyilishi mumkin. Demak, talab narxning o'zgarishi ehtimoliga ham bog'liq ravishda o'zgaradi.

Talabga ta'sir etuvchi omillardan biri — bu reklamadir. Amaliyot ko'rsatmoqdaki, qaysi tovarning reklamasi yaxshi bo'lsa, shu tovarga talab oshib boradi, chunki u xaridorlarda qiziqish uyg'otadi.

*Talab elastikligi* — bu bozor sharoitida narxning o'zgarishi bilan bog'liq kelib chiqadigan iqtisodiy hodisa hisoblanadi. Masalan, narxga nisbatan talab ko'p bo'lganda, talab elastik deyiladi, agar narxga nisbatan talab kamroq o'zgarsa, noelastik talab bo'ladi. Xulosa qilish mumkinki, elastiklik narx bilan talab o'rtasidagi bog'liqlikning miqdoriy ko'rinishidan iborat ekan. Talabning bu ikki holati elastiklik koeffitsiyentini aniqlamoqchi bo'lsak, uni topish uchun narx va talabning miqdoriy o'zgarishlarini taqqoslash zarur bo'ladi:

$$E_k = \frac{T_B(\text{foiz hisobida talabning o'zgarishi})}{V(\text{foiz hisobida narxning o'zgarishi})}$$


Keltirilgan formula orqali bu holatni taqqoslab ko'ramiz va talabning elastik bo'lishi uchun uning koeffitsiyenti birdan ortiq deb qabul qilamiz, ya'ni ( $E_k > 1$ ). Talabning birdan kichik ( $E_k < 1$ ) holati noelastik deyiladi. Misol uchun, bozorda ma'lum tovarlarga narx 10 % ga pasaydi. Natijada talab 20 % oshdi deylik. Bunda

talab elastik bo'ladi, chunki  $E_k = \frac{T_B}{V} = \frac{32}{20} = 1,6$ .

Demak,  $E_k=1,6$  yoki birdan ortiq, ya'ni  $E_k>1$ .

Talabning elastikligini telefon apparati misolida ko'ramiz. Telefon apparati bozori chaqqon bo'lib, uning narxi 1000 so'm edi, narx oshib, 1200 so'mga yetdi. Shunga yarasha fotoapparatlarga talab 100 donadan 60 donaga tushdi, ya'ni 40 donaga qisqardi. Oldin talabning jami hajmi 100 ming so'm bo'lsa ( $100 \cdot 1000=100000$ ), so'ngra u 72 ming ( $1200 \cdot 60=72000$ ) so'mga tushdi. Bu raqamlarni foizga aylantirsak, narx 20 % oshgani holda, talab 28 % qisqardi.

Demak, talab elastik ekan, chunki:  $E_k = \frac{T_B}{V} = \frac{28}{20} = 1,4$ ;  $E_k=1,4$  yoki  $E_k>1$ . Aytilgan o'zgarishlar chizmada ifodalangan.



Chizmada narxning  $A$  nuqtadan  $B$  nuqttagacha ortib borishi talabni  $D$  nuqtadan  $C$  nuqtasiga qadar qisqartirgandi. Talab narxning ortishiga nisbatan ko'proq qisqargan. Bunda  $AB < CD$  kelib chiqdi. Demak, narx 800 so'mdan 1200 so'mga qadar yoxud 50 % o'zgarganda talabning elastikligi kutildi.

Xo'sh, bu ishlab chiqaruvchiga nima berdi? Agar u oldin telefon apparatini sotishdan 100 ming so'm daromad olgan bo'lsa, endi talab qisqargani uchun 72 ming so'mga ega bo'ldi. Shunga yarasha uning foydasi ham qisqardi. Binobarin, talab qonuniga ko'ra, ishlab chiqaruvchi talabning narxga bog'liq bo'lishini doimo yodda tutishi, ya'ni narxni oshirish o'rniga bozorga arzon tovarlarni ko'proq chiqarishi kerak, shunda bu ish yaxshi foyda ko'rishning shartiga aylanadi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, talab qonuni ishlab chiqaruvchi bilan iste'molchining, ya'ni ishlab chiqaruvchiga foyda olishining, iste'molchining esa talabini qondirib manfaatlarini uyg'unlashtiradi.

Talabning o'zgarishi narxning o'zgarishiga nisbatan sust bo'lsa, noelastik talab yuzaga keladi. Masalan, telefon apparatining narxi 50 % o'zgargan holda unga talab 30 % ga o'zgarsa (oshsa yoki kamaysa, buning ahamiyati yo'q), noelastik talab vujudga keladi:

$$E_k = \frac{T_B}{V} = \frac{30}{50} = 0,6$$

Chunki noelastik talab bor joyda narxning oshishi shu hisobdan tushadigan pulni ko'paytiradi, ammo talab qisqarganidan sotiladigan tovarlar miqdori kamayadi. Bunda tovarlarni ko'paytirish emas, balki ularning narxini oshirish foyda olish vositasiga aylanadi. Shu sababdan noelastik talab erkin bozor tabiatiga mos kelmaydi, tovarlarni ko'plab va arzon ishlab chiqarishga undamaydi. Bozorda shunday vaziyatlar ham bo'ladiki, talab narxga javoban mutlaqo o'zgarmaydi. Bunda  $E_k=0$  bo'ladi. Masalan, asosiy oziq-ovqat mahsulotlari, non, suv, un kabi mahsulotlar iste'molining me'yori bor. Shu sababli narx qanchalik o'zgarmasin, non, un, suvga talab avvalgidek qoladi. Non yoki un, guruch asosiy oziqa bo'lgan sharoitda ularning narxi o'zgarishi ularga talabni o'zgartirmaydi, aksincha, boshqa o'rinbosar tovarlar narxini o'zgartiradi. Agar bir oila har kuni 4 ta non iste'mol qiladigan bo'lsa, bu uning kundalik talabi bo'lib, narxning o'zgarishi bu talabni kamaytirmaydi. Agarda bu talab o'zgarsa ham uning sababi non narxining o'zgarishi emas, balki oila daromadining o'zgarishi yoki boshqa oziq-ovqat tovarlari narxining o'zgarishi bo'ladi.

Odatda, talab cheklanmagan holda o'zgarishi ham mumkin. Bu holat muayyan tovarlar narxi o'zgarmagan sharoitda ham xaridorlar bu tovarni puli tamom bo'lguncha olishga tayyor bo'lishadi. Bunday talab ayrim adabiyotlarda vahima talab deb ataladi. Bu holat bozor iqtisodiyoti uchun normal hol hisoblanmaydi, chunki narx bilan talab o'rtasidagi aloqadorlik buziladi va bu holatda elastiklik cheksiz bo'ladi ( $E_k = 0^{\infty}$ ). Bir tovarga talabning elastik bo'lishi uning o'rnini bosa oladigan boshqa tovarlar narxiga ham bog'liq. Odamlar uchun eng zarur bo'lgan tovarlar ham borki, ularga talab noelastik bo'ladi, bular eng muhim oziq-ovqat, kiyim-kechak va turar joy kabilardir.

Bozorda talab narxdan tashqari odamlarning oladigan daromadlariga bog'liqdir. Talabning daromad ( $D$ ) ta'sirida o'zgarish koeffitsiyentini ( $E_k$ ) aniqlash uchun talab ( $T_B$ ) daromad bilan taqqoslanadi:

$$E_k = \frac{T_B(\text{foiz hisobida talabning o'zgarishi})}{D(\text{foiz hisobida daromadning o'zgarishi})}.$$

Agar daromadning o'zgarishi 15 % bo'lsa-yu, talabning o'zgarishi 10 % bo'lsa,

$$E_k = \frac{T_B}{V} = \frac{10}{15} = 0,66.$$

Demak,  $E_k=0,66$ . Bu koeffitsiyentning o'zgarishini uch holatda ko'rish mumkin: agar talab daromad bilan bir tarzda o'zgarsa  $E_k=1$ ; talab daromadga qaraganda tez o'zgarsa  $E_k>1$ ; talab daromaddan sekin o'zgarsa  $E_k<1$  bo'ladi.

Narx o'zgarmay qolsa, daromadning ortishi talabning ortishiga olib keladi, ammo bu jarayon g'oyat murakkab kechadi, chunki talabning ortishi uning qondirilish darajasi bilan bog'lanib ketadi. Daromadning ko'payishi pulning hammasi bozorga chiqib talabni oshiradi degani emas, chunki uning bir qismini odamlar jamg'arib boradilar, ya'ni hozir xarid uchun ishlatilmay, kelajakda ishlatiladi. Daromadning xarajatlar va jamg'arish uchun ishlatilishiga qarab talab shakllanadi. Agar oilaning daromadi 1000 so'mga oshsa, uning 200 so'mi jamg'ariladi, demak, talab amalda 800 so'mga ko'payadi. Ammo shu summaning qo'shimcha talabni hosil etishi umumiy talabni oshiradi. Agar bir tovarga talab qondirilgan bo'lsa, qo'shimcha daromad boshqa tovarga talabni keltirib chiqaradi. Masalan, yashash uchun yetarli shart-sharoitga ega bo'lgan uy-joyi bor odamning daromadi qanchalik o'smasin, endi u uy olishga emas, balki avtomashinaga, zeb-u ziynat buyumlari olishga yoki dunyo bo'ylab sayohatga chiqishga talab bildiradi. Daromadning talabga aylanishi xaridor nimani afzal ko'rishiga bog'liq. Shu sababdan talab umuman o'sgani holda uning turli tovarlarga e'tibori har xil bo'lishi mumkin. Ishlab chiqaruvchi ortiqcha talabni o'z tovariga qaratib, xaridor pulini qo'lga kiritish uchun afzal ko'riladigan yangi tovarlar yoki xizmatlar turini taklif qilishlari kerak bo'ladi. Bozorda talabni o'zgartirish uchun nafaqat narxga, balki daromadga ham ta'sir ko'rsatilishi kerak bo'ladi. Chunki odamlarning daromadi kam bo'lsa, talab qisqaradi, bozor torayib, ishlab chiqarish o'smay qoladi, natijada tovar ishlab chiqaruvchi tadbirkorlar foyda olisholmaydi.

Shuning uchun davlat tomonidan iqtisodiyot o'sishini ta'minlashning sharti bo'lgan aholi daromadlarini ko'paytirib borishga ham katta ahamiyat beriladi. Aholi daromadlarining oshib borishi tadbirkorlar tomonidan bozorlarga taklif etilayotgan tovarlarni xarid qilishning ko'payishi va bu, o'z navbatida, jamiyatda takror ishlab chiqarish jarayonining kengayishi, tezlashuvini, iqtisodiyotning rivojlanayotganligini bildiradi.

#### **4.6. Taklif tushunchasi. Taklif qonuni**

Taklif — bu muayyan vaqtda bozorga chiqarilgan va chiqarilishi mumkin bo'lgan hamda ma'lum bir narxlarda sotiladigan jami

tovarlardan iboratdir. Taklif barcha ishlab chiqarilgan mahsulotlar emas, balki uning sotishga mo'ljallangan qismi, ya'ni tovardir. Misol uchun, biror oilaviy tadbirkor tomonidan har kuni 50 kg qandolat mahsuloti tayyorlanadi, lekin shu mahsulotning 2 kg. ini o'z oila a'zolari iste'mol qilishadi. Qolgan 48 kg esa tovar sifatida bozorga taklif qilingan bo'ladi. Taklifning hajmi tovarlarning miqdoriga va har bir tovar narxiga bog'liq bo'ladi. Misolda tovar miqdori 48 kg, agar har bir kg qandolat narxi 5 ming so'm bo'lsa, taklif hajmi 240 ming so'm bo'ladi. Taklif ham ikki xil bo'ladi. Birinchisi, bu yakka ishlab chiqaruvchilarning ma'lum bir tovarni bozorga taklif etishlarida namoyon bo'ladi. Ikkinchisi, umumiy yoki jami taklif bo'lib, barcha ishlab chiqaruvchilarning muayyan turdagi yoki o'xshash tovarlarni taklif etishlari tushuniladi. Misol uchun, bir novvoy tomonidan bozorga non taklif qilinishi bu yakka taklif, nonning bozorga jami 100 ta novvoy tomonidan taklif etilishi esa umumiy yoki boshqacha aytganda jami taklif hisoblanadi.

Ishlab chiqaruvchilar tomonidan bozordagi talabga qarab taklif etiladigan tovarlar nihoyatda xilma-xil bo'ladi. Ularni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

1. Resurs tovarlar, bunga xomashyo, yoqilg'i, har xil yordamchi materiallar kiradi.

2. Ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan tovarlar — asbob-uskuna, mashina, stanoklar, binolar va boshqa yordamchi inshootlar, infratuzilmalar va h.k.

3. Ishchi kuchlari — aqliy va jismoniy mehnatdan iborat tovar.

4. Pul kapitalidan iborat tovar.

5. Boshqa iste'mol tovarlari va turli xizmatlar.

Iste'mol tovarlari tarkibi ham juda xilma-xil bo'ladi. Ular, odatda, uzoq muddatli iste'mol tovarlar (uy-joy, avtomobil, muzlatgich, televizor, mebel va h.k.), qisqa muddatli ishlatiluvchi tovarlar (oziq-ovqat, kiyim-kechak, ayrim uy xo'jaligi uchun kerakli buyumlar va boshq.), har xil turdagi xizmatlardan iborat bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida turli kerakli axborotlar, patentlar, ilmiy ishlanmalar, g'oyalar, san'at va madaniy-maishiy xizmatlar ham taklif etiladi. Bozor sharoitida taklif talabga qarab o'zgarib turadi. Taklifning o'zgarib turishi taklif qonuni bilan izohlanadi. Taklif qonuni, taklifning miqdori narxga nisbatan to'g'ri mutanosiblikda o'zgarishini ifodalaydi. Agar narx talabga teskari ta'sir etsa, taklifga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Taklif qonuni quyidagi formula bilan ifodalanadi:



$$Tf = Tm \cdot Tn,$$

bu yerda,  $Tf$ —taklif;  $Tm$ —tovarlar miqdori;  $Tn$ —tovarlar narxi.


Taklif qonuniga binoan narx qanchalik yuqori bo'lsa, taklif shunchalik ko'payadi va aksincha. Taklif qonuni faqat narxning taklifga ta'sirini izohlaydi, unga boshqa omillar ta'sirini nazarda tutmaydi. Narx ta'sirini quyidagi jadvalni tahlil qilish orqali tushunamiz:

**Narxning taklif o'zgarishlariga ta'siri**

Bir dona choynak narxi, so'm	Yakka taklif miqdori, dona	Umumiy taklif miqdori, dona	Umumiy taklif qiymati, dona
100	1	1000	100000
200	2	2000	400000
300	4	4000	1200000
400	6	6000	2400000
500	8	8000	4000000

Jadvalda taklifning narxga nisbatan o'zgarishi ko'rsatilgan. Lekin bozorda narx bilan bog'liq ravishda taklif o'zgarishlari doimo bir xil darajada boradi, degan xulosa chiqarish to'g'ri bo'lmaydi. Odatda, taklif narxdan oldinroq, tezroq yuradi. Keltirilgan misolda narx 5 marta oshgani holda taklif 8 marta oshdi. Bu holatni chizma bilan ifodalansa, quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi. Chizmada taklif egri chizig'i harakatini ko'rish mumkin:

**Taklifning narxga nisbatan o'zgarishi<sup>1</sup>**



<sup>1</sup> A. O'lmasov. Iqtisodiyot asoslari. T., «Mehnat», 1997, 60-bet.

Chizmada  $OY$  chizig'i narxni,  $OX$  chizig'i esa taklifni,  $AE$  chizig'i taklif o'zgarishini ifodalaydi. Narx 100 so'm bo'lganda, taklif  $A$  nuqtada bo'lsa, u 500 so'mga chiqqanda taklif  $E$  nuqtagacha ko'tariladi.

### Taklifning elastikligi

Taklif bozor munosabatlarining asosiy qonuni bo'lib, u narx bilan tovar taklifi o'rtasidagi aloqadorlikni ko'rsatadi, bu bog'lanish taklifning elastikligi (o'zgaruvchanligi)da o'z ifodasini topadi.


Narx o'zgarishiga nisbatan taklif o'zgarishi *taklif elastikligi* deyiladi.

Taklifning o'zgarishi bir qator omillarga bog'liq holda sodir bo'ladi. Taklif elastikligi koeffitsiyentini hisoblash uchun taklif va narx o'zgarishlari taqqoslanadi:

$$E_k = \frac{T_B(\text{foiz hisobida taklifning o'zgarishi})}{V(\text{foiz hisobida narxning o'zgarishi})}$$

Agar taklifning o'zgarish darajasi narxning o'zgarish darajasidan yuqori bo'lsa, taklif elastik bo'ladi. Bunda elastiklik koeffitsiyenti birdan yuqoridir, ya'ni  $E_k > 1$ . Tovar narxi 10 % oshgani holda taklif 15 % oshsa, elastik taklif paydo bo'ladi. Bunda taklifning elastikligi ma'lum narx doirasida yuz beradi. Buni tushunish uchun olma narxi bilan uning taklifini solishtiramiz. Olma narxi 10 so'm bo'lganda uning taklifi 80 kg bo'lgan. Uning narxi 12 so'm bo'lganda taklif 120 kg ga yetadi.

Olmaga taklif 40 kg yoki 40 % ga ko'paygan. Demak, narx diapazoni 10—20 so'm bo'lganda taklif elastik bo'lgan. Bunda  $40:20=2$ , ya'ni  $E_k=2$  yoki  $E_k > 1$ . Bunday elastiklikni elastik taklif chizmasida quyidagicha ifodalash mumkin:




<sup>1</sup> A. O'ltmasov. Iqtisodiyot asoslari. T., «Mehnat», 1997, 61-bet.

Chizmada  $AB > CD$ , shuning uchun taklif o'zgarishlari  $FS$  chizig'idan o'tadi.

Bozorda taklif har doim ham narxdan ustun darajada o'savermaydi. Agar taklifning o'zgarishi narxning o'zgarish darajasidan past bo'lsa, taklif noelastik bo'ladi. Misol uchun, bozorda futbol to'pining narxi 5000 so'm bo'lganda 10 ta to'p taklif etilib, jami taklif miqdori 50 ming so'mni tashkil etdi. To'pga talab oshib, uning narxi 7 ming so'mga, ya'ni 40 % ga oshdi. Bunda tadbirkor qo'shimcha yana 10 ta to'pni bozorga chiqardi, ya'ni jami taklif 100 % ga ko'paydi:

$$E_k = \frac{T_f}{V} = \frac{10}{40} = 0,25. E_k = 0,25 \text{ yoki } E_k < 1.$$

Demak, taklif noelastik. Noelastik taklif quyidagi chizmada berilgan:



Elastik va noelastik takliflar bilan bir qatorda mutlaq elastiklik ham bor. Agar narxning muayyan darajasida cheklanmagan miqdorda tovarlar taklif etilsa, mutlaq elastik taklif holati kelib chiqadi, unda  $E_k = 0^\circ$  bo'ladi. Ammo mutlaq elastiklik doimiy bo'lmaydi. Misol uchun, bozorda ma'lum bir tovar zaxiralari ko'p bo'lgani uchun u narxning oshib borishiga javoban yil davomida uzluksiz taklif etiladi, ammo bu taklif ana shu tovarning zaxirasi tugaguncha davom etadi, xolos. Mutlaq noelastik taklif holatni bozorda narx o'zgarishlari taklifga hech qanday ta'sir ko'rsatmagan hollarda ko'rish mumkin.

<sup>1</sup> A. O'limasov. Iqtisodiyot asoslari. T., «Mehnat», 1997, 61-bet.

Misol uchun, jahon bozorida paxtaning narxi 50 % ga oshdi, ammo shu yilda olingan paxta hosili holatiga ko'ra paxtani ko'paytirishning imkoniyati yo'q. Demak, paxtaning taklifi o'zgarmaydi.

Taklifning elastik bo'lishini bilgan sotuvchilar narx o'zgarishlariga javoban tovarlarni ko'paytirish yoki qisqartirishlari zarur. Ammo noelastik taklif bu ishga imkon bermaydi. Narx oshgan holda taklif o'zgarmay qolishi, hatto qisqarib ketishi ham mumkin. Chunki narx oshganida ishlab chiqarish sarf-xarajatlari ham ortib borishi mumkin. Tovar narxi bilan xarajatlar bir xil o'zgarsa, foyda miqdori o'zgarmay qoladi. Agar xarajatlar sekinroq o'ssa, foyda ortadi, bordi-yu, xarajatlar narxdan tezroq o'sib ketsa, foyda qisqaradi. Binobarin, narxga qarab taklifning o'zgarishi tovarni ishlab chiqarish naqadar foyda berishiga qarab yuz beradi. Taklif o'zgaruvchanligiga tovar narxidan tashqari, boshqa omillar ham ta'sir ko'rsatadi:

1. *Resurslar narxi.* Bozorda resurslar narxi oshib ketsa, tovar ishlab chiqarish xarajatini o'zgartirib, korxonaning foydasini kamaytiradi. Misol uchun, gazlamaning narxi oshib ketsa, tikuvchilik korxonalari oladigan foydasining pasayishiga olib kelishi mumkin yoki aksincha, gazlamaning narxi pasaysa, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartiradi, natijada tikuvchilik foydasi ko'payib, ularning taklifi ham ko'payadi.

2. *Ishlab chiqarish texnologiyasi.* Korxonalarda yangi texnologiyalardan foydalanish resurslar, ya'ni xomashyo, yoqilg'i va boshqa materiallar qimmatlashgan sharoitda ham resurslarni tejashni ta'minlab, xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi. Misol uchun, O'zbekistonga so'nggi yillarda mevalarni qayta ishlash yangi texnologiyalari kirib kelishi, ya'ni ulardan sharbat tayyorlash, quritish usullaridan foydalanish natijasida bu tovarlarning sifati yaxshilanishi, ulardan samarali foydalanish imkoniyatini oshirdi, bu tovarlarga qo'shilgan qiymat hissasining ko'payishiga olib keldi, natijada mamlakatimizda bog'dorchilik sohasining foydasi ortib, taklif ham ortadi.

3. *Boshqa, ya'ni o'rinbosar tovarlar narxi.* Bozorga xilma-xil tovarlar taklif qilinadi. Bular orasida bir-birining o'rnini bosadigan tovarlar ham mavjud bo'ladi. Shu sababli bir tovar narxining o'zgarishi, boshqa o'rinbosar tovar taklifini ham o'zgartirishga olib keladi.

4. *Narxning o'zgarish ehtimoli.* Bozor sharoitida, odatda, narxlar o'zgarib turadi. Agar narxning oshishi kutilsa, tovar taklifi qisqaradi, chunki tovar taklif qiluvchilar narx oshguniga qadar tovarini bozorga

chiqarmay turishadi. Narx oshishi bilan taklifni oshiradi. Narx pasayishi kutilayotgan bo'lsa, tovar bozorga chiqarilib, natijada taklif ko'payadi.

5. *Tovar ishlab chiqaruvchilar soni* qanchalik ko'p bo'lsa, bozorga shunchalik ko'p tovarlar taklif etiladi, ishlab chiqarishni kengaytirib, ko'proq foyda olishga intiladilar, bu, o'z navbatida, narxlarning o'zgarishiga olib keladi.

6. *Davlat moliya siyosati*. Bozordagi taklifga davlat moliya siyosati bevosita ta'sir ko'rsatadi, chunki soliqlar korxonalar xarajatiga kiradi, shu boisdan soliqlar ortsa, taklif qisqaradi, ular kamaysa, taklif ko'payadi. Davlat ayrim tovar ishlab chiqaruvchilarni budjetdan pul berish orqali qo'shimcha xarajatlarini qoplab, qo'llab-quvvatlab turadi. Shu yo'l bilan davlat taklifini ko'paytirishga ta'sir ko'rsatadi.

Taklifning elastikligi ayrim tovarlarda namoyon bo'lmaydi. Shunday noyob tovarlar borki, ularning narxi qanchalik oshmasin, baribir taklifi ko'paymaydi. Misol uchun, ayrim osori-atiqqa buyumlar va adabiyot-san'at asarlari, yer, yerosti boyliklari narxlari doimo oshib boradi, ammo ularning taklifi ko'paymaydi.

Taklif elastik bo'lishi uchun narx ortishiga javoban tovarlarni hozir yoki kelajakda ko'proq ishlab chiqarish imkoniyatlari bo'lishi zarur. Buning uchun esa korxonalarda to'la ishlatilmay turgan mashina-uskunalar, ishchilarni qo'shimcha ishga jalb etish, qo'shimcha xomashyo, yoqilg'i va energiya topish talab qilinadi. Misol uchun, anor sharbatining narxi oshganda, uni ko'proq taklif etish uchun qo'shimcha anorzorlar tashkil etilishi zarur va uni qayta ishlash uchun yangi korxonalar bo'lishi kerak. Shunday qilinmasa, taklif elastik bo'lmaydi.

Taklifning elastik bo'lishiga mavsumiy ishlab chiqarish ham ta'sir etadi. Misol uchun, yoz mavsumida dehqonchilik, bog'dor-chilik mahsulotlari taklifi ortishi bilan narxi pasayadi, lekin shunga qaramay taklif ortadi.

Bozorda taklifi mutlaqo o'zgarmay, noelastik qoladigan tovarlar ham mavjud bo'lib, ular ko'proq yakka nusxada yaratilgan noyob tovarlar hisoblanadi. Ular alohida kam uchraydigan ashyolardan tayyorlanadigan, alohida iste'dod sohibi bo'lgan hunarmandlar tomonidan yaratilgan tovarlardir.

#### **4.7. Bozor muvozanati va uning iqtisodiyotga ta'siri**

Bozor muvozanati deganda bozorda sotuvchi taklif etayotgan narx bilan xaridor bildirayotgan narxning bir-biriga mos kelishi


tushuniladi. Odatda, bozorda sotuvchi bilan xaridor o'rtasidagi savdolanish natijasida har ikki tomonga ma'qul narx paydo bo'ladi, bu narx muvozanat narx deb aytiladi. Demak, muvozanat narx talab va taklif tenglashib, bir-biriga mos tushgan sharoitda vujudga keladi. Muvozanat narxni quyidagi misol bilan tushuntirishga harakat qilamiz:

**Muvozanat narxning kelib chiqishi**

Bir dona piyola narxi, so'm	Piyolalar miqdori, dona	Taklif qilingan piyola qiymati, so'm	Sotiladigan piyolalar miqdori, dona	Xarid qilingan piyolalar (talab) qiymati, so'm	Talabning taklifdan ortiqqligi (+) yoki kamligi (-)
100	1000	100000	8000	800000	+700000+800000
200	2000	400000	6000	1200000	+T-J
300	4000	1200000	4000	1200000	
400	6000	2400000	2000	800000	-1600000 -3500000
500	8000	4000000	1000	2500000	

Jadvaldan ko'rinadiki, bitta piyola narxi 300 so'm bo'lganda talab va taklif tenglashdi. Undan oldin esa talab ustun edi. Endi narx 300 so'mdan oshib ketdi, bu esa ishlab chiqaruvchi uchun qulay vaziyatni keltirib chiqardi va u o'z tovari taklifini ko'paytirdi. Lekin piyola narxining bunday oshib ketishi xaridorga ma'qul bo'lmaydi, natijada talab pasayib, taklif ortib ketdi, piyola endi juda kam sotiladigan bo'lib qoldi. Piyola taklifi bu holatda kamayib boradi. Buni chizmada ifodalab, talab va taklif egri chizig'ini hosil qilamiz.

**Talab va taklif muvozanati egri chizig'ining kelib chiqishi**



Chizmadan ko‘rinib turibdiki, bozorda muvozanat buzilganda taqchillik yoki tovarning ortiqchaligi holati kelib chiqar ekan.

*SS* o‘zgarishlari talab chizig‘i bo‘lsa, *ZZ* taklif chizig‘idir. Ular kesishgan *A* nuqtada muvozanat bor, uni 300 so‘mga teng narx belgilaydi. Narx 200 so‘mga tushsa, *BC* oralig‘iga teng taqchillik, ya‘ni ortiqcha talab paydo bo‘ladi. Agar narx 400 so‘mga ortsa, *DE* oralig‘iga teng ortiqcha taklif vujudga keladi.

Bozorda talab va taklif muvozanati doimo barqaror holda turmaydi, u tez-tez o‘zgarib turadi. Bozorda ma‘lum tovarlarga narx arzonlashsa, keyinchalik shu tovarning taqchilligi kelib chiqadi, chunki bu tovarlarning taklifi juda kamayib ketadi, natijada chayqovchilik avj oladi.

Bozorda narxning oshib ketishi ham ma‘qul emas, chunki bu holatda tovarlar sotilmay qolishiga olib keladi va aholi o‘zlari uchun kerakli tovarlarni topa olmay qoladi va ularning talabi qondirilmaydi. Narx oshsa, tovarlarni sotish qiyinlashadi, savdo hajmi kamayadi, natijada kutilgan foyda ham kamayadi. Tovarlar sotilmay qolishi korxonalar uchun zarar keltiradi, ular bu tovarlarini ishlab chiqarish uchun qilgan sarf-xarajatini qaytara olmay sinishi va yopilib ketishlari ham mumkin.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, bozorda narxning har ikki tomon, ya‘ni sotuvchi va oluvchi uchun maqbul bo‘lgan, foyda ko‘rishni ta‘minlaydigan me‘yori, muvozanati bo‘lishi zarur ekan. Shunda tadbirkor o‘z ishlab chiqarishini rivojlantirish imkoniga ega bo‘lib, bozorga o‘z tovarlarini uzluksiz taklif qilib foyda oladi. Iste‘molchilar esa o‘zlari uchun zarur bo‘lgan tovarlarni sotib olib naf ko‘rish va talablarini to‘la qondirish imkoniga ega bo‘ladilar. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bozorda narxning muvozanatli bo‘lishi ishlab chiqaruvchi bilan iste‘molchi manfaatlarini uyg‘unlashtiradi. Bozorda muvozanatning bo‘lishi mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga olib keladi.

#### ASOSIY TAYANCH IBORALAR

- Talab;
- yakka talab;
- jami talab;
- talab o‘zgaruvchanligi (elastikligi);
- taklif;
- taklif elastikligi;
- bozor muvozanati;
- noelastik talab;
- noelastik taklif.



## TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Ehtiyoj va talab tushunchalari farqini ayting.
2. Talab qaysi hollarda qondirilmay qolishi mumkin?
3. Talabning qanday turlari bor?
4. Talab qonuni nima va u qanday namoyon bo'ladi?
5. Taklif deganda nimani tushunasiz?
6. Taklif qonuni nima va uning namoyon bo'lishini tushuntirib bering.
7. Taklifning o'zgarishiga nimalar ta'sir etadi?
8. Tovarining nafililigi nima?
9. Tovarining nafililigi nima uchun pasayishga moyil bo'ladi?
10. Qanday tovarlar o'rinbosar tovarlar deyiladi?
11. Talab elastikligi nima?
12. Noelastik talabni qanday tushundingiz?
14. Taklif elastikligi nima?
15. Noelastik taklifni qanday tushundingiz?
16. Bozor muvozanati qanday tashkil topadi?
17. Muvozanatli narx deganda nimani tushunasiz?
18. Muvozanatning buzilishi nima uchun sodir bo'ladi?



---

**5-bob. TADBIRKORLIK FAOLIYATI VA KICHIK BIZNES  
TUSHUNCHASI, ULARNING MOHIYATI**

**5.1. Tadbirkorlik faoliyati va kichik  
biznesning nazariy asoslari**

Tadbirkorlik «Iqtisodiyot nazariyasi» fanida iqtisodiy kategoriya sifatida o'rganiladi. Chunki bozor tizimida iqtisodiyot jamiyat a'zolarining faol tadbirkorlik bilan shug'ullanishlari asosida rivojlanadi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov «Tadbirkorlik — iqtisodiy tanglikdan olib chiqishning, iqtisodiy taraqqiyotga olib borishning asosiy iqtisodiy vositasi, taraqqiyot lokomotivi»<sup>1</sup>, deb ta'kidlagan edilar.

Tadbirkorlik — bu, eng avvalo, ayrim insonlarning o'ziga xos alohida xislati bo'lib, ular foyda yoki boshqa iqtisodiy manfaat ko'rish uchun o'z mulkidan yoki boshqalardan qarz olib bo'lsa ham, tavakkal qilib, xavf-xataridan qo'rqmay ma'lum bir faoliyat turi bilan shug'ullanish qobiliyatidir. Shunday qobiliyatga ega bo'lgan kishilarni xalqimiz tadbirkorlar deyishadi. Insonlarning o'z tadbirkorlik qobiliyatini ishga solish orqali ma'lum bir faoliyat turi (biznes) bilan shug'ullanuvchilarni g'arb mamlakatlarida biznesmenlar deb ataydilar. Barcha taraqqiy etgan mamlakatlarda tadbirkorlik, ya'ni biznesning YIMda hissasi 70—80 % ni tashkil etadi. Bu mamlakatlarda tadbirkorlikning uch xil tashkiliy-huquqiy shakli mavjud bo'lib, ular xususiy (individual) korxonalar, sherikchilik (hissadorlik) va korporatsiya deyiladi.

O'zbekistonda tadbirkorlik to'g'risida qabul qilingan qonunga ko'ra, tadbirkorlikni faqatgina insonning qobiliyati emas, balki ma'lum bir iqtisodiy faoliyat yuritishning tashkiliy-huquqiy shaklidir deb ko'rsatilgan. Natijada O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan tez rivojlanib bormoqda. Hozirgi vaqtda tadbirkorlikning yangi xilma-xil shakllari, ayniqsa, oilaviy tadbirkorlikning milliy yo'nalishdagi turlari bo'lgan hunarmandchilik, kulolchilik, tikuvchilik, to'quvchilik, qandolatchilik va

---

<sup>1</sup> I.A. Karimov. O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li. T., «O'zbekiston», 1992, 78-bet.

boshqalar tez rivojlanyapti. Shu bilan birga sherikchilik asosida tashkil etilayotgan jamoatchilik shaklidagi tadbirkorliklar ham rivojlanib boryapti. Tadbirkorlikning uchinchi korporativ ko'rinishdagi shakli ham mamlakatimizda ko'proq qo'shma korxonalar sifatida tashkil topmoqda.

Tadbirkorlik tushunchasini dastlab ingliz iqtisodchisi R. Kantilon XVIII asrda iqtisodiy adabiyotga olib kirgan. U tadbirkorlikni, asosan, savdogarlar faoliyatlari bilan bog'liq va bu faoliyatning bosh xususiyati tavakkalchilikdan iborat deb ko'rsatgan. Yana bir taniqli ingliz iqtisodchi olimi A. Smit ham tadbirkorni tavakkal qiluvchi mulk egasi, tijorat bilan shug'ullanib, foyda oluvchi deb ta'riflaydi.

Tadbirkorlikni keng ma'noda talqin etgan olim Jan Batist Seydir. Uning fikricha, tadbirkor — bu foyda olish uchun faol iqtisodiy odam. U ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanib, o'z tajribasi va bilimi asosida tavakkalchilik xataridan qo'rqmay ish olib boruvchi kishidir deb ta'riflaydi. Tadbirkorning daromadini esa uning tadbirkorlik faoliyati evaziga olingan foydasi deb ataydi.

Tadbirkorlik to'g'risida nemis olimi V. Zombert shunday deydi: «Tadbirkor — bu «zabt etuvchi», g'alaba uchun kurashuvchi, turli xatarga tayyor, ruhan erkin, g'oyalarga boy, irodali, tirishqoq, tashkilotchi, ya'ni u birgalikda ishlash uchun kishilarni birlashtira oladi. Uning maqsadi foydaning ko'payishiga erishish bo'lib, buning uchun u o'z ishining o'sishi, ravnaq topishiga harakat qiladi».

Avstriyalik iqtisodchi Y. Shumpeter tadbirkorni ta'riflab, uni novator deb ataydi. Tadbirkor, uning fikricha, ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanish yo'llarini izlovchi va shu orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi kishidir. Tadbirkor ishlab chiqarishni tashkil qilish uchun o'zi xususiy mulk egasi bo'lishi shart emas, balki u bank boshqaruvchisi yoki aksiyadorlik jamiyatining boshqaruvchisi bo'lishi ham mumkin deb qaraydi. Uning fikricha, tadbirkorlikni aksiyadorlik jamiyatlari tuzish orqali ham nisbatan osongina amalga oshirish mumkinligini asoslashga harakat qiladi.

Bunday tashkiliy tuzilmada tadbirkorlar o'z mehnatlari asosida, shu bilan birga, chetdan ishchi yollab ish yuritishlari ham mumkin bo'ladi. Bunda tadbirkorlik faoliyati bir guruh shaxslar tomonidan o'zaro shartnoma va iqtisodiy manfaatdorlik asosida bog'langan kishilar jamoasi tomonidan amalga oshiriladi. Jamoaviy tadbirkorlik subyektlari sifatida aksiyadorlik jamiyatlari, ijara jamoalari, kooperativ, shirkat va boshqalar alohida tadbirkorlik subyekti sifatida davlat, uning tashkilotlari ham o'z faoliyatlarini olib borishi mumkin.

## 5.2. Tadbirkorlikka xos xususiyatlar

Yuqorida keltirib o‘tilgan nazariy asoslarga ko‘ra tadbirkorlikning *birinchi asosiy xususiyati*, bu — uning xo‘jalik yurituvchi subyekt sifatida mustaqilligi va erkinligining davlat tomonidan huquqiy jihatdan kafolatlanganligidir. Bu esa unga, eng avvalo, tadbirkorlik faoliyat turini tanlash, uni moliyalashtirish manbalarini topish, resurslarni sotib olish, o‘z mahsulotiga narx belgilash, topgan daromadini mustaqil tasarruf qilish kabi erkinliklarni beradi. Bu erkinliklar esa tadbirkorga bozorning asosiy qoidasi bo‘lgan, ya‘ni nima ishlab chiqarish, qanday, qancha va kim uchun ishlab chiqarish kabi masalalarni o‘zi hal qilish imkonini beradi. Tadbirkor faoliyati faqat bozor, undagi talab va taklifga hamda o‘z tovariga to‘g‘ri narx belgilay olishi bilan bog‘liq bo‘lib qoladi.

Tadbirkorlikning *ikkinchi muhim xususiyati* faoliyati doimo tavakkalchilik xatari bilan bog‘liq ekanligi bilan belgilanadi. Chunki o‘z faoliyati natijasining hisob-kitobi nihoyatda aniq va to‘g‘ri bo‘lishiga qaramay, amalda mo‘ljallangan natijaga erisha olmasligi ham mumkin.

Tadbirkorlikning *uchinchi xususiyati* uning foydani ko‘proq olishga intilishidir. Shuning uchun tadbirkor o‘z faoliyatidagi turli muammo va masalalarni yechishda o‘ziga xos kutilmagan innovatsion yondashuvi, original yechimlar topishi, yangi-yangi yo‘llarni qidirishi, tinmay izlanishi bilan xarakterlanadi. Chunki bozor xo‘jaligining asosini iqtisodiy faol subyektlar — tadbirkorlar tashkil etar ekan, ular o‘zlarining tabiiy qobiliyatlarini namoyon etishga harakat qilishlari, imkon qidirishlari va o‘z maqsadiga erishishlari zarurdir.

Bozor iqtisodiyoti tizimida tadbirkorlar sinfi erkin bozor munosabatlarining tayanchi, demokratik davlat, fuqarolik jamiyatdagi o‘rta tabaqa, iqtisodiy faol, harakat qiluvchi qatlam hisoblanadi. Shuning uchun ular jamiyatdagi ikki qutb: boylar va kambag‘allar hisobidan ortib boradi.

Tadbirkorlik, bu faqatgina biron ish, iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanish emas, u insonning o‘ziga xos xususiyatlari, fikrlashi, dunyoqarashi, shaxsning tabiiy qobiliyati kabi xislatlarining namoyon bo‘lishidir. Tadbirkor bo‘lish, bu uzoqni ko‘ra bilish, tavakkal qilishni bilish, noaniqlikdan qo‘rqmaslik, g‘alabaga ishonch bilan intilishdir. Uning mana shu o‘ziga xos xususiyatlari, fidokorona mehnatlari va shu mehnatining iqtisodiy samarasi uning tadbirkor kishi ekanligini bildiradi. Shu bilan tadbirkorlik iqtisodiy va ijtimoiy xarakterga ega bo‘lgan faoliyat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik to‘g‘risida»gi Qonunida tadbirkorlikka shunday ta‘rif berilgan: «Tadbirkorlik mulkchilik subyektlarining foyda olish maqsadida, tavakkalchilik va mulkiy javobgarligi asosida amaldagi qonunlar doirasida tashabbus bilan iqtisodiy faoliyat ko‘rsatishdir». Ushbu Qonun mamlakatimizda tadbirkorlikning huquqiy asosini tashkil etadi.

Tadbirkorlik quyidagi tamoyillar asosida olib boriladi:

1. Mulk egasi bo‘ladi va o‘z mulki asosida yoki o‘zga mulkni ijaraga olib faoliyat yuritadi.

2. Foyda olish, ya‘ni manfaat ko‘rish va natijada boylik, farovonlikka erishish.

3. Iqtisodiy erkinlik, ya‘ni tadbirkor bozorning asosiy qoidasiga ko‘ra nimani, qancha, qanday ishlab chiqarishni, yaratilgan tovarni kimga, qachon va qanday bahoda sotishni, kimlar bilan aloqa qilishni, o‘ziga sherik topishni, qanday iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanishni o‘zi belgilaydi.

4. Iqtisodiy mas‘uliyat, ya‘ni javobgarlikni tadbirkor o‘z zimmasiga olib, ko‘rgan foyda-zarariga o‘zi javob beradi.

5. Iqtisodiy tavakkalchilik asosida ish yuritadi, har qanday iqtisodiy xavf-xatarni o‘z zimmasiga olib ishlaydi.

6. Bozor va davlat qonun-qoidalariga rioya qiladi.

7. Raqobat kurashida qatnashish, ya‘ni doimo raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko‘rsatish orqaligina foyda olishga erishadi.

8. Tadbirkorlik sirini saqlash qoidalariga rioya etadi. Bu o‘z ish sirini, yangi texnologiya, yangi tovar yaratish, xaridor topish, narx belgilash kabilardan iborat.

9. Halollik bilan ish yuritish, ya‘ni halol yo‘l bilan daromad topishga asoslanishi zarur. G‘irrom va aldamchilik bilan ish yuritishga yo‘l qo‘yilmaydi. Tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlar iste‘molchilarning tovar sifatiga bo‘lgan talabini qondirishi, tovar sifatini kafolatlashi shart. Iste‘molchi doimo haq degan tamoyilga rioya qilinishini davlat nazorat qiladi. «Davlat iste‘molchilarning tovar (ish, xizmat) sotib olishi-yu, undan foydalanish chog‘idagi huquqlari hamda qonuniy manfaatlari himoya qilinishini kafolatlaydi» (O‘zbekiston Respublikasining «Iste‘molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonunidan).

10. Tadbirkorning o‘z nufuziga ega bo‘lishi, ya‘ni xalq orasida obro‘-e‘tiborli bo‘lishga intilishi. Tadbirkor o‘z sha‘ni va korxonasi obro‘-e‘tiborini tushirmasdan, uni ko‘tarishga harakat qilishi kerak.

11. Xo'jalikning o'zini o'zi boshqarish tamoyili joriy etilishi.

O'zbekiston Respublikasi qonunlariga ko'ra, davlat tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlaydi, tadbirkorlar manfaatlarini himoya qiladi va ular mulkining daxlsizligini ta'minlaydi. Davlat tadbirkorlar ishiga aralashmaydi, balki ularga ko'maklashadi, qonunlar orqali tadbirkorlik uchun sharoit yaratadi.

### 5.3. Tadbirkorlik turlari

Tadbirkorlik turlari ko'p va ularni quyidagicha tasniflash mumkin. Tadbirkorlikning huquqiy maqomiga ko'ra, ikki xili mavjud:

a) *jismoniy shaxslar* — davlatdan patent, litsenziya, ya'ni ruxsatnoma olib faoliyat yuritadilar;

b) *yuridik shaxslar* — davlat tomonidan ro'yxatdan o'tkazilib, turli shakldagi firmalar, korxonalar va boshqalar tuzadi. Ular, asosan, o'z nizomlari asosida faoliyat yuritadilar.

Mulkchilik maqomiga ko'ra, tadbirkorlik faoliyati, asosan, individual, oilaviy-xususiy, korporativ-xususiy, jamoa, davlat tadbirkorligi shaklida tashkil qilinadi. Xo'jalik faoliyatining xarakteriga ko'ra, tadbirkorlikning quyidagi turlari bor: ishlab chiqarish, tijorat, moliyaviy, sug'urta, vositachilik va boshqalar. Respublikada amaldagi qonunlarga ko'ra, tadbirkorlik rasmiy ochiq hamda yashirin (jinoiy) — xufiyona tadbirkorlik ko'rsatilgan. Tadbirkorlikning ish ko'lami, ishlab chiqargan mahsuloti hajmiga qarab kichik, ya'ni mikrofirma, korxonalar, oilaviy korxonalar bo'linadi.

Respublikamizda qabul qilingan «Tadbirkorlik to'g'risida»gi Qonunga ko'ra, tadbirkorlikning quyidagi turlari e'tirof qilinadi:

- yakka tartibdagi mehnat faoliyati asosidagi tadbirkorlik;
- ayrim fuqaro tomonidan yollanma mehnatni jalb etish asosida amalga oshiriladigan xususiy tadbirkorlik;
- bir guruh fuqarolar tomonidan amalga oshiriladigan jamoa tadbirkorligi;
- oilaviy tadbirkorlik;
- yuridik shaxslar va fuqarolar, o'z mulklari va mulkiy huquqlarini birlashtirish asosida amalga oshiriladigan tadbirkorlik.

Tadbirkorlik faoliyatini boshlayotgan har qanday kishi bu ishni tashkil etish, rivojlantirish va nihoyat daromad olish darajasiga erishgunga qadar, bir qator tayyorgarlik bosqichlarini bosib o'tadi. Ular quyidagilar:

*Birinchi bosqichda* — dastlab uning ongida fikr paydo bo'ladi va bu qaysi yo'nalishda, qaysi sohada amalga oshirilishini o'ylab,

baholab ko‘riladi, so‘ngra o‘z mulki va boshqa imkoniyatlarini hamda olinishi mumkin bo‘lgan foydani aniqlab, chamalab, hisoblab chiqiladi.

*Ikkinchi bosqichda* — biznes-reja tuzadi, bozorni o‘rganadi, marketing rejasini tuzadi; ishlab chiqarish va moliyaviy ta‘minot rejasini tuzadi.

*Uchinchi bosqichda* — biznes ishtirokchilari bilan shartnomalar, bo‘lg‘usi xaridorlar bilan shartnomalar tuzadi.

*To‘rtinchi bosqichda* — boshlash uchun zarur resurslar ta‘mini, ya‘ni ularni yetkazib beruvchilar aniqlanadi va ular bilan ish boshlaydi.

*Beshinchi bosqichda* — korxonani boshqarish, rahbarlik, ya‘ni tashkiliy ishlarni aniqlab ish boshlaydi.

Tadbirkorlik faoliyati faqat daromad topish maqsadida emas, balki jamiyatning boshqa a‘zolari uchun ham zarur va foydali bo‘lishi, bu faoliyat, eng avvalo, mamlakatda qabul qilingan qonunlar bo‘yicha aniq belgilangan, tashkiliy-huquqiy shakl va boshqarish tarkibiga muvofiq bo‘lishi ta‘minlanishi kerak.

Har bir tadbirkorning asosiy maqsadi yuqori darajada foyda olish bo‘lgani sababli u o‘zining uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqadi. Bu strategik vazifa, asosan, ikki maqsadni ko‘zlaydi: birinchi navbatda, tadbirkor o‘z muhofazasini o‘ylasa, ikkinchidan, albatta, hujumkor, ya‘ni o‘ta faollikka asoslanib ish yuritish strategiyasini ko‘zlaydi.

O‘z muhofazasini ta‘minlashga asoslangan strategiya ham ikki yo‘nalishda olib boriladi: bulardan biri *imitatsion* strategiya bo‘lib, bunda tadbirkor o‘z faoliyatida yangiliklarni qo‘llashdan keladigan xatarning oldini olish yoki biroz kamaytirish uchun undan raqobatchilari fan-texnika yutuqlaridan foydalanib, erishgan yutug‘iga qarab, ehtiyotkorlik bilan ish yuritishi tushuniladi. Ikkinchisi, *kutish* pozitsiyasiga asoslangan strategiya deyiladi. Bunda tadbirkor bir necha turdagi mahsulot ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatishga ixtisoslashadi. Shulardan qaysi birida raqobatchilari katta foydaga erishsa yoki zarar ko‘rishgan bo‘lsa, shunga qarab ish yuritadi.

Ikkinchi *hujumkor*, ya‘ni o‘ta faollik strategiyasi quyidagi to‘rt yo‘nalishda olib boriladi:

1. *Oqilonalik (ratsionalizm) strategiyasi* — bunda tadbirkor ko‘proq yangiliklarni joriy qilishga, yangi texnika va texnologiyalarni sinab ko‘rish orqali foydalanishga harakat qiladi.

2. *Kvota strategiyasi* — bunda firma maksimal foyda olish maqsadida ishlab chiqarishni kengaytirib, tovar sotish bo‘yicha

bozorda o'z hissasini oshirishga harakat qiladi. Buning uchun tovar narxini tushirib, talabni ko'paytirishi mumkin.

3. *Innovatsion strategiya* — bunda tadbirkor tovar va xizmatlarni yangilash orqali maqsadga erishishga harakat qiladi, chunki mahsulot yangilanganda xarajatlarni pasaytiradi va shu orqali foyda olish ko'payadi.

4. *Bozorning bo'sh turgan segmentini to'ldirish strategiyasi* — bunda tadbirkor bozorni marketing qilib, ilmiy o'rganib, uning asosida ishlab chiqarishni yangilaydi, ayniqsa, boshqalar tomonidan ishlab chiqarila olmaydigan tovar bilan bozor segmentini to'ldiradi.

#### **5.4. Tadbirkorlik faoliyati shakllari**

Bozor sharoitida tadbirkorlik faoliyatining eng ko'p tarqalgan tipik shakli, bu — korxonadir. Korxonada qanday mulk shakliga asoslangan bo'lmasin, firma, zavod, fabrika nomlari bilan ataladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkchilikning barcha shakllariga mansub korxonalar barpo etilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar to'g'risida»gi Qonunida, ular faoliyatini tashkil etish va tugatishning huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy asoslari belgilab qo'yilgan. Shuning uchun korxonada xo'jalik yurituvchi subyekt sifatida mulkchilikning qanday shaklida bo'lmasin, u iqtisodiy jihatdan mustaqil alohidalashgan xo'jalik yurituvchi subyekt sifatida faoliyat ko'rsatadi. Korxonada mulkchilikning muayyan obyekti bo'lib, uning ixtiyorida ishlab chiqarish vositalari, resurslar va yaratilgan mahsulotlar mavjud.

Bozor iqtisodiyoti murakkab tizim sifatida o'zining ichki tarkibiga ko'ra, turli bo'g'inlarga ega. Bu bo'g'inlarning har biri ham ma'lum vazifani bajaradi. Korxonada ishlab chiqarishning, butun iqtisodiyotning birlamchi, asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Korxonada ishlab chiqarish resurslaridan rejali samarali asosda, ma'lum nisbatda qo'shilishini tashkil etib, mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish yo'li bilan xo'jalik yurituvchi subyekt sifatida faoliyat yuritadi.

Korxonada xo'jalik yurituvchi subyekt sifatida iqtisodiy mustaqillikka ega bo'lishi uchun, u, eng avvalo, o'z mulkiga o'zi egalik qilishi zarur. Shundagina nima ishlab chiqarish, qancha, qanday usullar bilan ishlab chiqarish, uni kimga qanchadan sotish, ko'rgan foydasini qanday ishlatish kabi masalalarni korxonaning o'zi mustaqil hal qiladigan bo'ladi. Lekin bu muammolarni korxonada faqat bozor bilan bog'liq holda hal qila oladi. Korxonada bozordan

resurslar sotib oladi, o'zining tovarlarini sotadi va qilgan barcha xarajatlarini oladigan foydasiga qarab rejalashtiradi.

Bozordagi narxlar uning xarajatlari miqdorini, oladigan foydasini va nihoyat uning faol ishlay olish va ishlay olmasligini belgilaydi. Shuning uchun korxonada doimo bozordagi raqobat sharoitiga tez moslashib borishi, ishlab chiqarayotgan tovarlarini yangilab, sifatini yaxshilab borishi, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishi, korxonani kengaytirish va modernizatsiyalash uchun sarmoyalar joriy qilib borishi lozim. Korxonada o'z faoliyatida innovatsiyaga katta e'tibor bilan qarashi kerak. Korxonada faoliyatida reklama ham juda muhim rol o'ynaydi.

Jahon mamlakatlari iqtisodiyotida ko'proq firma shakli uchraydi. Firma tarkibida bitta yoki bir necha korxonalar bo'lishi mumkin. Firmalar mulkchilik shakliga ko'ra, uch xil bo'ladi:

- a) yakka (individual) mulk egaligidagi xususiy firma;
- b) sherikchilik asosida tashkil qilingan firma;
- d) aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etilgan firma—korporatsiya.

Firmalar tashkiliy-huquqiy asoslari, xo'jalik yuritish uslublariga ko'ra ham turli shakllarga ega bo'ladi: xususiy firma, shirkat firmalari, mas'uliyati cheklangan firma, aralash firmalar, davlat korxonasi kabilari ham uchrashi mumkin.

*Xususiy firma* — ayrim yakka shaxslarga yoki oilalarga tegishli bo'lib, ular, asosan, kichik biznes sifatida faoliyat ko'rsatadi.

*Sherikchilik asosida tashkil qilingan shirkat firmalar* — bunda mulk egalari o'zaro kelishib, mulklarini birlashtirib, tadbirkorlik bilan shug'ullanadilar va olingan foydani qo'shgan hissalariga ko'ra bo'lib oladilar.

*Mas'uliyati cheklanmagan firma*. Firmaning bu shaklida ham mulkiy sherikchilik yotadi. Ular dastlabki nizom kapitali tashkil etib, to'la huquqli sheriklar sifatida birgalikda faoliyat olib borishib, birgalikda iqtisodiy javobgar bo'ladilar. Firma tomonidan olinadigan foydalar ham, mabodo, firma sinib qolsa yoki qarzlarni to'lash uchun aktivlari yetarli bo'lmasa, qolgan qarzni to'la huquqqa ega bo'lgan ta'sischi to'laydilar. Firma faoliyatiga taalluqli barcha qoidalar, ya'ni ustav kapitaliga badallar foydani taqsimlash, qarzlarni to'lash kabilari firma nizomida belgilanadi.

*Franchayzing (franchise — imtiyozli) firmalar*. Bular ham kichik xususiy firmalar hisoblanib, ular, odatda, yirik firmalar tarkibida ish yuritadilar. Bu kichik firmalar yirik kompaniyalarga xizmat qiluvchi yoki chakana savdo bilan shug'ullanuvchilar sifatida tashkil qilinadi.



*Venchur (venture — xatarli) firmalar.* Bu firmalar, odatda, katta konsernlar, kompaniyalar qoshida tashkil etilib, ilmiy izlanishlar olib boradilar va ularni ishlab chiqarishga joriy qilish bilan shug'ullanadilar. Shuning uchun ular xatarli deb yuritiladi, chunki ular yaratgan yangiliklari, ixtirolari bozor talabiga javob bermay qolishi, natijada ular foyda olmay qolishlari mumkin.

*Mas'uliyati cheklangan firma.* Bu firma sherikchilik asosida tashkil topadi. Mas'uliyati cheklanishi nizom kapitali doirasida bo'lib, agarda sinsa, undan faqat nizom kapitaliga teng bo'lgan miqdordagina pulni undirish mumkin. To'lov majburiyatidan ortiqcha bo'lgan qarzni ular to'lamaydilar. Bunday firmalar nomiga, odatda, inglizcha «*limited*», ya'ni «*cheklangan*» so'zi qo'shiladi.

Hozirgi vaqtda jahonda firmalarning keng tarqalgan shakli — bu aksiyadorlik jamiyatlari hisoblanadi. Bu aksiyadorlik (hissadorlik) jamiyatlari bir uyushma bo'lib, uning a'zolari tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun jamiyatga birlashadilar. Jamiyat ustav kapitaliga qarab, qimmatli qog'oz — aksiya chiqarib sotadilar va shu aksiyadan sotib olganlar jamiyatning hissadorlariga aylanadi, so'ngra jamiyat ko'rgan foydadan o'z hissasiga muvofiq ravishda dividend oladilar. Aksiyadorlik jamiyatlari yopiq yoki ochiq turda bo'ladi. Yopiq turdagi jamiyat aksiyalari, odatda, faqat ma'lum guruh kishilariga, ko'pincha, korxonalar ishchi-xizmatchilari o'rtasida tarqatiladi. Ochiq turdagi jamiyatda esa uning aksiyalari ochiq bozorda barcha xohlovchilarga sotilishi mumkin.

*Davlat korxonalari* — davlat mulki va to'la uning nazorati ostida ishlovchi korxonadir. Bozor iqtisodiyotida davlat ham iqtisodiy munosabatlarda xuddi bir tadbirkor sifatida qatnashadi. Bu korxonalar markaziy va mahalliy hokimiyatga qarashli bo'lib, ular birgalikda davlat sektorini tashkil etadilar. Iqtisodiy munosabatlarda ular ham bozor qoidalariga to'la rioya qilishadi. Ular ishlab chiqarishning eng muhim va mas'uliyatli tarmoqlarida, ya'ni mudofaa, aloqa, transport va boshqalarda tashkil etiladi.

*Aralash firmalar* — ular turli mulk shakliga asoslangan milliy korxonalar sifatida yoki milliy va xorijiy kapital asosida tashkil etilgan qo'shma korxonalar sifatida bo'lishi mumkin. Ular, odatda, hissadorlik jamiyatlari shaklida tashkil topadi. Bu korxonalar tomonidan olingan foydasi ham shunga qarab taqsimlanadi. Hozirgi kunda O'zbekistonda chet el kapitali ishtirokida tuzilgan qo'shma korxonalar jami korxonalarining 1,8 % ini tashkil etadi. Firmalar o'z filiallarini ham ochishlari mumkin va shu yirik firmalarning

tarkibiy qismi sifatida ish yuritadilar. Lekin ular mustaqil emas, bosh firmaning bir qismi hisoblanishadi. Ish ko'lamini hududiy jihatdan kengaygan sharoitda firma bo'limlari tashkil etiladi. Xalqaro korporatsiyalar turli mamlakatlarda o'z bo'limlarini ochadilar, shuning uchun ham ular xalqaro deb ataladi.

Jahon tajribasida korxonalarini ishlab chiqargan mahsuloti hajmi va ish ko'lamiga qarab: *kichik korxonalar* (biznes), *o'rta korxonalar* (biznes) va *yirik korporatsiya* (biznes)ga ajratiladi. Ko'pincha, asosiy mezon qilib, firmada ishlovchilar soni yoki firmaning ishlab chiqarish va savdo-sotiq hajmi qabul qilingan. Shundan kelib chiqib, O'zbekistonda qabul qilingan qonunchilikka ko'ra, ishlab chiqarish tarmoqlarida band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni 20 kishidan, xizmat ko'rsatish sohasi va boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'lmagan tarmoqlarda 10 kishidan, ulgurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 5 kishidan oshmagan yakka tartibdagi tadbirkorlarni — mikrofirmalar, yengil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochni qayta ishlash, mebel sanoati va qurilish materiallari sanoatida 100 kishidan; mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va qayta ishlash, qurilish hamda boshqa sanoat ishlab chiqarish sohalari 50 kishidan; fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohasi (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'lmagan sohalarda 25 kishidan oshmagan, kichik korxonalar deb huquqiy maqom berilgan.

Masalan, AQSHda ishlovchilar soni necha kishidan iboratligiga qarab, korxonalar 5 toifaga bo'linadi:

- 1) o'ta kichik korxonalar (10 kishi);
- 2) juda kichik korxonalar (20 kishi);
- 3) kichik korxonalar (99 kishigacha);
- 4) o'rta korxonalar (500 kishigacha);
- 5) yirik korxonalar (500 dan ziyod kishi) deb belgilangan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik korxonalar yirik korxonalariga nisbatan qator afzalliklarga ega. Ularni:

- a) tez muddatda tashkil etish mumkin;
- b) kapital aylanish tezligining yuqoriligi;
- d) bozorda talabning o'zgarishiga tez moslashadilar va ishlab chiqarilayotgan mahsulot turini tezda o'zgartirish imkoniga ega;
- e) korxonalar sinfi ham mulk egasi ko'p zarar ko'rmaydi, yirik korxonalar esa katta zarar ko'rishlari mumkin va boshqalar.

Bu afzalliklar bozor sharoitida juda muhim hisoblanadi. Shuning uchun ham respublikamizda ularning bu afzalligini hisobga olib, kichik korxonalar barpo etishga katta ahamiyat berilyapti.

Ma'lumki, o'zbek xalqi qadimdan mayda tovar ishlab chiqarish, hunarmandchilik an'analariga boy va bu an'analarni hozirgacha saqlab, rivojlantirib kelmoqda. Bu xususiyat respublikamizda xususiy mulkchilikka asoslangan individual, oilaviy ishlab chiqarishni, ya'ni kichik biznesni rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa, ayniqsa, keng xalq iste'mol mollari ishlab chiqarishda kichik korxonalar ochilishiga katta e'tibor berilishi zarurligini ko'rsatadi. Shu munosabat bilan respublikamizda 2009-yildan boshlab hozirgi kungacha davom etayotgan oilaviy tadbirkorlik munosabatlarini rivojlantirish, mazkur sohaning iqtisodiyotning alohida instituti sifatida ajralib chiqishiga 2010-yil 12-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi asos yaratib berdi. Prezidentimiz «...bugungi kunda kichik biznes va tadbirkorlikni kengaytirish uchun biznesning yangi tashkiliy-huquqiy shakli sifatida oilaviy biznesni qonuniy belgilab qo'yish vaqti keldi» deb ta'kidlab o'tdi. Natijada mamlakatimizda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, xususan, oilaviy tadbirkorlikning huquqiy asoslarini belgilash maqsadida 6 qonun, 25 dan ziyod Prezident Farmonlari va hukumat qarorlari qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 16-martda qabul qilingan «Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida»gi Qonuni hamda 2012-yil 2-maydagi «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunining yangi tahriri, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 13-sentabrdagi «Oilaviy korxonadan foydalanishga yo'l qo'yilmaydigan moddalar, materiallar va asbob-uskunalar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida»gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 29-iyuldagi 216-qarori bilan tasdiqlangan «Oilaviy tadbirkorlikni hamda hunarmandchilik faoliyatini amalga oshirish tartibi to'g'risida»gi nizomi va ushbu nizomga Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 19-iyuldagi 225-qarori bilan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mamlakatda oilaviy tadbirkorlik faoliyatini MDH davlatlari orasida birinchi bo'lib qonun doirasida mustahkamladi.

Oilaviy tadbirkorlik faoliyatining tashkiliy-huquqiy asosini belgilashda O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 16-martdagi «Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida»gi Qonuni qabul qilinishi sohani

rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tardi. Sababi, bugungi kungacha mamlakatda oilaviy tadbirkorlik, asosan, yakka tartibdagi tadbirkorlik yoki xususiy korxonalar va mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida yuritilgan edi. Tadbirkorlikning bunday shakllarida xususiy korxonalar egasi yoki mas'uliyati cheklangan jamiyat direktori sifatida ro'yxatga olingan yakka tartibdagi tadbirkorlik xohish-istagi va harakatlari yuridik ahamiyatga egadir. Garchi, bunday shakldagi tadbirkorlik faoliyati oilaning boshqa a'zolari faol ishtirokida amalga oshirilgan bo'lsa-da, ularning xohish-istagi, harakatlari va manfaatlari hisobga olinmaydi yoxud ish beruvchi hamda ishchi maqomi teng bo'lmagan mehnat shartnomalarida bunga e'tibor berilmaydi. Shu bois, oilaviy biznesda oilaning alohida iqtisodiy-ijtimoiy tuzilma sifatida mavjud bo'lish shakli ham o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Oilaviy tadbirkorlikda o'zaro munosabatlar tuzilmasi shakllanadi va unda bir butun holda oila a'zolari, oilaviy korxonalar rahbari hamda oilaning o'zi ishtirok etadi.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va o'rni tobora mustahkamlanib borayotganining o'zi iqtisodiyotimiz tarkibida bo'layotgan ijobiy o'zgarishlardan dalolat beradi. Faqatgina o'tgan 2013-yilning o'zida yurtimizda 26 mingdan ziyod kichik biznes subyekti ish boshladi va ushbu sektorda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining umumiy soni yil oxiriga kelib 190 mingtaga yetdi.

Bugungi kunda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining qariyb 55,8 % ayni shu sohada ishlab chiqarilmoqda. Vaholanki, 2000-yilda bu ko'rsatkich 31 % dan iborat edi. Ayni paytda ishlab chiqarilayotgan jami sanoat mahsulotlarining 23 %, ko'rsatilayotgan bozor xizmatlarining deyarli barchasi, mahsulot eksportining 18 %, iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan band bo'lgan aholining 75 % kichik biznes ulushiga to'g'ri kelmoqda. Ana shu raqamlardan ko'rinib turibdiki, kichik biznes shakllari kichik bo'lishiga qaramasdan, iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish, aholini ish bilan ta'minlash muammosini hal etish va xalqimiz farovonligini yuksaltirishda tobora katta rol o'ynamoqda.

Iqtisodiyotimiz tarkibidagi chuqur o'zgarishlar mamlakatimiz eksport salohiyatini mustahkamlash, eksport hajmini barqaror oshirish va uning tarkibida ijobiy o'zgarishlarga erishishda eng muhim omilga aylandi. Taqqoslash uchun misol keltirsak, hozirgi paytda AQSHda iste'mol tovarlari ishlab chiqaradigan (AQSHda 18 million atrofida kichik korxonalar mavjud) umumiy sanoat ishlab

chiqarishning 48 %, Yaponiyada 51 %, Fransiyada 45 %, Germaniyada 25 % i kichik korxonalar hissasiga to'g'ri keladi.

Endi kichik tadbirkorlik korxonalarining asosiy kamchiligi va afzalliklarini taqqoslab o'rganib chiqamiz.

**Kichik korxonalar (biznes)ning tashkiliy-huquqiy shakllari afzalligi va kamchiliklari**

Yakka tadbirkorlik (biznes) korxonasining tashkiliy shakli	Afzalligi	Kamchiligi
Yakka (individual) xususiy korxonalar	Tez tashkil etish mumkin, erkin faoliyat yuritadi, nazorat qilish oson	Tadbirkorlikda moliyaviy resurslari cheklangan, moliyaviy javobgarligi, boshqarishning qiyinligi, korxonaning rivojlanishida barqarorlikning yetishmasligi.
Sherikchilik asosidagi korxonalar	Tez tashkil etish mumkin, boshqarish nisbatan oson, chunki ixtisoslashuv bor, moliyaviy imkoniyati ko'proq (pul mablag'lari birlashtirilgan). Davlatning ta'sir ko'rsatishi cheklangan	Boshqarishda va foydani bo'lishda manfaatdor ajralishi kelib chiqish ehtimoli bor, faoliyat yuritishda kelishmovchiliklar kelib chiqishi mavjud, sheriklardan birontasining ketishi bilan firmaning tugatilishi yoki sinishi mumkinligi, moliyaviy resurslar cheklanganligi, to'la moliyaviy javobgarligi bor.
Korporatsiya shaklidagi korxonalar	Kapital, moliyaviy mablag'lar jalb qilishda keng imkoniyatlar mavjudligi, mas'uliyatning cheklanganligi (aksiya egalari javobgarligi aksiya summasi doirasida cheklangan), kapitallar birlashuvi imkoniyati, yuridik shaxs sifatida barqarorligi, maxsus boshqaruvchilarni yollash imkoniyati mavjudligi	Tashkil etishda tashkiliy-moliyaviy murakkablik tashkil etish va boshqarish xarajatlarining ko'pligi, ikki tomonlama soliqqa tortish subyekti ekanligi: korporativ daromad va dividenddan soliq to'lash, mulk va nazoratning ajralishi, rahbar hamda ijro etuvchi muammosining mavjudligi.

Yuqorida keltirilganlardan ko'rinadiki, bu shaklda xo'jalik yuritishning asosiy kamchiligi mulkiy mas'uliyat, ya'ni mulk egasining javobgarligi katta, korxonalar faoliyatiga o'zi to'la javob beradi. Korxonalar sinfi, uning qarzlarni o'zi to'laydi, natijada u

mablag' topa olmay qolishi mumkin. Ikkinchidan, xo'jalik yuritish uchun zarur bo'lgan pul mablag'larining kamligi, cheklanganligi tufayli korxonani barqaror rivojlantira olmaydi. Sherikchilik xo'jaliklarining yuqoridagi xususiy xo'jalik shakllaridan afzalligi shundaki, bir necha mulk egalarning qo'shilishi natijasida mablag'larni ko'paytirish mumkin. Bozorga tez moslasha oladi, lekin ishlab chiqarishni kengaytirish uchun mablag' yetishmaydi.

Korporativ mulkka asoslangan aksiyadorlik jamiyatlari shaklidagi korxonalarda bunday kamchiliklar bo'lmaydi. Bu yerda aksiyadorlar mulkidan umumiy maqsadda foydalaniladi va bu yagona boshqaruv orqali amalga oshiriladi. Har bir aksiyador (paychi) o'z mulkini boshqarishda qatnashadi. Korxonada xo'jalik faoliyatining topgan daromadiga qarab, har bir mulk egasi o'zi qo'shgan hissasiga ko'ra o'z ulushini oladi. Agar korxonada bankrot bo'lsa, u o'z aksiyasi miqdorida mulkini yo'qotadi. Aksiya egasi xohlagan paytda o'z aksiyasini sotib, mulk egalari safidan chiqadi yoki aksincha, sotib olib mulk egasi bo'ladi. Bunday afzalliklar xususiy va umumiy o'zlashtirishning asosiy tamoyillarini bir butun qilib birlashtiradi.

Korporativ korxonalarining kamchiliklari ham mavjud. Ular katta miqdorda pul sarflab, biron mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgach, bu mahsulotga talab kamaysa, yangi mahsulot ishlab chiqarishga tezda moslashishi qiyin bo'ladi va bu ma'lum vaqt hamda mablag' talab qiladi.

Korporativ shaklidagi biznesda suiiste'mol qilish imkoniyatlari ham mavjud bo'lib, bu holat, ko'pincha, ular hech qanday qiymatga ega bo'lmagan qimmatli qog'ozlarni, ya'ni aksiyalarni sotishi va sotib olishlari orqali sodir bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, ayrim aksiya egalari korxonada faoliyatiga ta'sir ko'rsata olmaydilar. Ayrim aksiyadorlar o'zlarining ovoz berish huquqidan foydalanishmaydi.

Yuqorida biz turli mulk va xo'jalik yuritish shakllariga ega bo'lgan korxonalarni taqqoslab ko'rar ekanmiz, hech qaysi shaklini har taraflama afzal deya olmaymiz. Ularning birida mavjud bo'lgan afzallik ikkinchisida yo'q ekanligini ko'rdik. Biridagi kamchilik ikkinchisida uchramaydi. Demak, biznesning har bir shakli o'z afzalliklari va kamchiliklariga ega. Shuning uchun milliy iqtisodiyotda tadbirkorlikning har bir shaklining o'z o'rnini, ahamiyati borki, undan kelib chiqib davlat har bir mulk va xo'jalik shaklining rivojlanishi uchun sharoit yaratishi muhim ahamiyatga egadir.

Tadbirkorlik yoki biznes qanday mulkchilikka asoslangan holda tashkil etilganidan qat'i nazar, unda, eng avvalo, xodimlarining

korporativ guruhiy manfaatlari ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi. Bu jamoa a'zolarini birlashtiruvchi manfaati bo'lib, faqat korxonada doirasidagina, korxonada normal ishlaganda yuzaga chiqadi. Korxonada jamoasi, asosan, uch toifa kishilardan tashkil topadi: korxonada egalari, korxonani boshqaruvchilar, ya'ni ma'muriyati, ularni hozirgi vaqtda menejerlar deb ham yuritadilar, yollanib ishlovchilar. Ular hissadorlik jamiyatlarida turlicha mulkiy mavqega ega bo'ladi. Korxonada egalari mulkdorlar, korxonadagi moddiy resurslar, yaratilgan tovarlar va pul mablag'larining katta qismi ularga tegishli bo'lishi mumkin. Shuning uchun korxonada maqomiga qarab, mulkdorlar tarkibi turlicha bo'ladi.

Korxonada egasi tadbirkorlar, so'ngra ularning sheriklari, boshqaruvchi menejerlar, oddiy ishchi-xizmatchilar deb yuritiladi. Ular korxonada o'z mablag'larini qo'shgan hamda o'z mehnatlari bilan ham qatnashadilar. Bu hol ularga korxonada, olgan foydani ulushiga va qilgan mehnatlariga qarab taqsimlanishi zarurligini ifodalaydi. Bu, o'z navbatida, har bir korxonada jamoasi a'zolarida mulkdorlik hissini uyg'otadi va bu «korxonada — meniki» deyishga asos bo'lib xizmat qiladi. Bu iqtisodiy omil, o'z navbatida, mehnat intizomini saqlash, samarali mehnat qilish, firma obro'sini doimo ko'tarishga harakat qilishga undaydi. Chunki har bir firma xodimi uning erishgan yutuq'idan olayotgan foydasidan bevosita manfaatdor bo'ladi. Shuning uchun firmani korporativ manfaatni yuzaga chiqaruvchi muhim omil deb hisoblashadi.

Firma ichki tuzilishiga ko'ra, turli bo'linmalardan iborat bo'lib, ular o'rtasidagi aloqa bir-biriga mos va, eng avvalo, korxonada faoliyatining bozordagi vaziyatga mos kelishi hisobga olingan holda tashkil etilgan bo'ladi. Firma faoliyatini bozor talabiga moslashtirib boshqarishni menejerlar amalga oshiradilar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida menejment o'ta murakkab va mas'uliyatli ish bo'lgani uchun, bu kasb juda ko'p yoshlarni o'ziga jalb etmoqda. Shuning uchun ham respublikamizda bu kasb bo'yicha maxsus bilim beruvchi oliy va maxsus o'quv yurtlari, kollejlarda tashkil etilishiga katta ahamiyat berilyapti. Bu kasb egalari *menejer* deyiladi va ular korxonalar, firmalar, tashkilotlarni o'z bilimlari, mahorati va tajribalariga tayanib boshqaradilar.

Menejment hozirgi vaqtga kelib jahonning taniqli, eng obro'li oliy o'quv yurtlarida va respublikamizda alohida fan sifatida o'rganiladi. Bu fanning asoschisi deb haqli ravishda amerikalik muhandis va tadqiqotchi F. Teylor tanilgan. Uning fikricha, korxonani boshqarish, nima qilishni aniq bilish, eng arzon, eng a'lo darajada bajarishni

bilish san'at hisoblanadi. Korxonaning samarali ishlashi yangi texnika-texnologiya va ish kuchi sifatidan tashqari, uning yaxshi boshqarilishiga ham bog'liq ekanligini ko'rsatib bergan. Iqtisodiyot ilmidan taniqli bo'lgan olimlardan A. Marshall korxonani boshqarish faoliyatini ishlab chiqarishning alohida omili deb hisoblaydi.

Ma'lumki, hozirgi vaqtda hatto kichik bir korxonada o'z mahsulotini jahon bozorlariga olib chiqayotganligi munosabati bilan iqtisodiy aloqalar murakkablashib bormoqda. Bu hol esa menejerlik kasbiga, ularning boshqarish xizmatiga bo'lgan talabni oshirib borayotir.

### **5.5. Tadbirkorlik kapitali va uning harakati**

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan kishiga, birinchi navbatda, ma'lum mablag' kerak bo'ladi. Bu mablag' pul shaklida yoki ma'lum bir vositalar shaklida bo'lishi ham mumkin. Bu holatni xalq ichida ayrim odamlar tadbirkorlik uchun kapital kerak deb ham qo'yishadi. Kapital so'zi aslida lotincha so'z bo'lib, u katta mablag', ya'ni boylik ma'nosini bildiradi. Iqtisodiy adabiyotlarda kapitalni ishlab chiqarishning asosiy omili deb qarashadi. Kapitalga bunday baho berishda klassik siyosiy iqtisodning buyuk namoyandasi bo'lgan ingliz iqtisodchisi A. Smit kapitalni jamg'arilgan mehnat mahsulati, ya'ni boylik deb qaraydi. D. Rikardo esa uni ishlab chiqarish vositalari deb hisoblaydi. Nemis klassik iqtisodchisi K. Marks kapital va uning mohiyatini ochishga bag'ishlangan «Kapital» asarida uni «boylik keltiruvchi boylik, ishlab chiqarish vositalariga sarflangan mablag'» deb ataydi.

Hozirgi davrda ham iqtisodiy adabiyotlarda kapitalni talqin etishda yagona fikr yo'q. Jumladan, I. Fisher kapitalni natural va qiymat shaklidan qat'i nazar, boylik zaxirasidan iborat, u o'z egasiga xizmat ko'rsatib daromad olib keladi, J. Xiks, A. Marshall, E. Bem-baverklar ishlab chiqarish uchun ajratilgan tovarlar yig'indisini kapital deb atashgan.

J. Robinson kapital — bu hali sarmoyaga aylanmagan ma'lum miqdordagi pul fikrini bildiradi. P. Xeyne kapital, bu — kelajakda ne'matlar ishlab chiqarish uchun foydalansa bo'ladigan ishlab chiqarish vositalaridan iboratdir, deb qaraydi. E'tibor berilsa, yuqorida keltirilgan barcha iqtisodchi olimlar kapitalni ishlab chiqarish vositalari yoki uni sotib olish uchun zarur bo'lgan mablag' degan fikrni bildirishgan.

Xulosa qilib aytilsa, kelgusida daromad topish maqsadida kerak bo'ladigan ishlab chiqarish resurslari yoki ularni sotib olishga sarflangan



pulni kapital desa bo'ladi. Shuning uchun hozirgi vaqtda biznes bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan har bir kishining asosiy maqsadi ham daromad topishdan iborat va buni iqtisodiy adabiyotlarda keng foydalaniladigan quyidagi formulada ifodalash mumkin:

$$P - T - P^1,$$

bu yerda,  $P$ —tadbirkorlik, ya'ni iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun dastlab sarflangan pul mablag'lari;  $T$ —sotib olingan tovar (ishlab chiqarish vositalari va boshqa resurslar);  $P^1$ —tovarning sotilgandan so'ng olingan, ya'ni avanslangan pulni ko'payib foyda shaklida qaytishi ko'rsatadi.

Tadbirkorlik faoliyati qanday shaklda bo'lmasin, daromad olish umumiy tarzda ana shunday ko'rinishda amalga oshadi. Tadbirkor dastlab o'zidagi yoki bankdan olgan pulini sarflab ishlab chiqarish vositalari sotib oladi hamda ishchi kuchi yollaydi. Agarda yakka tartibda ishlovchi yoki oilaviy tadbirkorlik bo'lsa, faqat ishlab chiqarish vositalari sotib oladi va ishlab chiqarish yoki ma'lum bir xizmat ko'rsatish jarayonini tashkil qiladi. Natijada yangi tovar yaratilib yoki xizmat turini ko'rsatib, bozorga taklif etiladi. Ularni sotib avanslangan pulini foydasi bilan qaytarib oladi. Tadbirkorlik formulasi, odatda, umumiy biznes formulasidan farq qiladi va u quyidagicha ifodalanadi:

$$P - T \begin{cases} \text{ishchi kuchi (mehnat omili)} \\ \dots U \dots T^1 - P^1 \\ \text{ishlab chiqarish vositalari} \\ \text{(real kapital)} \end{cases}$$

bu yerda,  $U$ —yangi tovar ishlab chiqarish jarayoni;  $T^1$ —ishlab chiqarilgan tovar belgisi muomala to'xtab ishlab chiqarish boshlanganini, resurslar unumli kapital (ishlab chiqarish omili)ga aylanganini ko'rsatadi.

Yangidan yaratilgan tovar qiymati avvalgisidan ko'p.  $U$  avvalgi avanslangan puldan ko'p, ya'ni tadbirkor olgan foyda miqdorida pul ko'p bo'ladi. Eski qiymat ustiga yangi qiymat qo'shiladi.  $U$ , odatda, qo'shilgan qiymat deyiladi.

Bu qo'shilgan qiymat, eng avvalo, tadbirkorning uchrashi mumkin bo'lgan har qanday xatarlardan qo'rqmay, tavakkal qilib, o'z maqsadi, yangi g'oyasi uchun harakati tufayli kelib chiqdi. Agar uning harakati muvaffaqiyatli yakunlansa, foydaning bir qismiga ega bo'la oladi, bordi-yu zarar ko'rsa, xonavayron bo'lishi mumkin. Shuning uchun tadbirkor kapitalini uzluksiz tarzda ishga solishga va undan samarali foydalanishga harakat qiladi. Kapital harakati, asosan, uch bosqichni bosib o'tadi. Dastlab u pul shaklidan zarur resurslar sotib olish orqali


tovar shakliga aylanadi, soʻngra ikkinchi bosqichda, resurslardan ishlab chiqarish jarayonida samarali ishlatiladi va yangi tovar yaratiladi. Shunday qilib, bu yangi tovarning qiymati eski qiymat hamda qoʻshilgan yangi qiymatdan iborat boʻladi. Uchinchi bosqichda bu ishlab chiqarilgan yangi tovar bozorga taklif etiladi va xaridorlarga sotilishi orqali yana qaytadan pul shaklini oladi.

Shunday qilib, bu harakat bozor bilan boshlanib, yana bozor bilan yakunlanadi. Bu kapital uch bosqichni bosib oʻtib qilgan harakati uning doiraviy aylanishi deyiladi. Kapital doiraviy aylanishdagi bu uch bosqichning birinchi bosqichi muomala, ikkinchi bosqichi ishlab chiqarish, uchinchi bosqich yana muomala bosqichi deb yuritiladi. Yanada boshqacha talqin qilinganda, kapital oʻz doiraviy harakati jarayonida uch shakl: pul, unumli kapital, tovar shaklini oladi deb adabiyotlarda koʻrsatiladi.

Ishlab chiqarish faoliyati bilan shugʻullanadigan tadbirkorlar firmasining kapitali doimo maʼlum nisbatda, har uch shaklda va uch bosqichni bosib oʻtgan holda harakat qiladi. Ishlab chiqarish kapitalning harakati bir doiraviy aylanish bilan toʻxtab qolmaydi va u doimiy ravishda takrorlanib turadi. Takrorlanish faqat firmaning bankrot boʻlishi tufayligina toʻxtashi mumkin. Kapital aylanishining toʻxtovsiz davom etishi kapitalning aylanishi deb ataladi.

Kapital harakati maʼlum bir vaqtda yuz beradi va bu ishlab chiqarish va muomala vaqti deb yuritiladi. Ishlab chiqarish vaqti turli tarmoqlarda turlicha boʻlishi mumkin. Ular shu tarmoqlarning obyektiv oʻziga xos xususiyatlari tufayli boʻladi. Ayrim tarmoqlarda, ayniqsa, qishloq xoʻjaligi va uning mahsulotlarini qayta ishlash sanoatlarida tabiiy uzilishlar sodir boʻlishi bilan ham bogʻliq boʻladi.

Muomala vaqti esa, asosan, tovarlarni bozorga yetkazish uchun transportda tashish vaqti, tovarlarni qadoqlash va omborxonalarda saqlash hamda bozorda sotilguncha ketgan vaqtlardan iborat boʻladi. Buni quyidagi chizmada koʻrish mumkin:



### *Asosiy va aylanma kapital*

Iqtisodiyot nazariyasi fani asoschilari A. Smit va J. S. Mill hamda boshqa iqtisodchilar kapitalning ishlab chiqarish jarayonida qatnashuviga qarab, moddiylashgan shaklining ikki ko'rinishda bo'lishini ko'rsatishgan, ya'ni *asosiy va aylanma kapital*.

*Asosiy kapitalga* korxonalar binolari, boshqa inshootlar, stanok, asbob-uskunalar sifatida moddiylashgan qismini kiritishgan. Asosiy kapital ishlab chiqarish jarayonining bir necha siklida qatnashadi va bir necha yillar davomida xizmat qiladigan qismini tashkil qiladi deb ko'rsatishgan.

Kapitalning ikkinchi qismi — *aylanma kapitalga* xomashyo, boshqa yordamchi materiallar, yoqilg'i va boshqa energiya resurslari hamda ishchi kuchlariga sarflanadigan ish haqi kiritiladi. Bular, odatda, bir ishlab chiqarish siklida qatnashib, to'la sarflanadi va o'z xossalarini o'zgartirib, qiymatlarini yangi tovarga o'tkazadilar.

Kapitalning bunday ikkiga bo'linishining asosiy sababi — uning moddiy asoslari bo'lgan mehnat qurol-vositalari bilan mehnat ashyolari o'rtasidagi farqdan kelib chiqadi. Chunki ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish qurol-vositalarining, ya'ni asosiy kapitalning faqat bir qismi ishtirok etadi va o'z xossasini o'zgartirmay, yangidan yaratilgan tovarlarga o'z qiymatidan biroz qismini asta-sekinlik bilan ma'lum uzoq muddat davomida o'tkazib boradi. Xomashyo, yoqilg'i, yordamchi materiallar, ishchi kuchlari, ya'ni aylanma kapital esa ishlab chiqarish jarayonining bir sikli davomida qatnashib, o'z xossalarini o'zgartirib, qiymatlarini to'laligicha yangi yaratilgan tovarlarga o'tkazib yuboradi. Tadbirkor tomonidan aylanma kapitalga sarflangan pul, ana shu yangi yaratilgan mahsulotni sotib bo'lingachgina, uning qo'lga to'la qaytib keladi. Asosiy kapitalga sarflangan xarajat esa uzoq vaqt davomida qaytadi.


Asosiy kapital, o'z navbatida, ikkiga bo'linadi. Uning bir qismi aktiv kapital bo'lib, unga ishlab chiqarish jarayonida faol qatnashadigan mehnat vositalari; mashina, stanok, asbob-uskuna kabilar kiradi. Ikkinchi qismi passiv kapital bo'lib, unga bino, yordamchi inshootlar, yo'llar, ko'priklar va shunga o'xshash ishlab chiqarish jarayonida passiv tarzda qatnashadigan infratuzilmalar kiradi. Ular iqtisodiy faoliyat uchun qo'shimcha shart-sharoit yaratib beruvchi infratuzilma hisoblanadi.

Aylanma kapital bir yil davomida bir necha marta aylanishi va u tarmoqlar xususiyatlariga ham bog'liq bo'lishi mumkin.

Asosiy kapital esa aksincha, tarmoqlar xususiyatlariga bogʻliq boʻlib, bir necha yil davomida bir marta aylanishi mumkin. Asosiy kapital ishlab chiqarish jarayonida eskirib, oʻzining texnik tafsilotlarini asta-sekinlik bilan yoʻqotadi. Mashina, asbob-uskuna va boshqa mexanizmlar yeyilib, eskirishiga amortizatsiya deyiladi. Asosiy kapitalning yangidan yaratilayotgan mahsulotga koʻchib oʻtgan qiymatini kelajakda tiklash, uni yangilash maqsadida amortizatsiya fondi tashkil etiladi. Amortizatsiya fondi mablagʻlarining maʼlum bir qismi eskirgan vositalarni qisman tiklash, yaʼni ularni taʼmirlash uchun ishlatiladi. Bunda uning yoʻqotgan qiymatini tiklash amalga oshadi. Asosiy kapitalni ishlatish muddati tugagach, hisobdan chiqariladi. Korxonada amortizatsiya fondi yangi vositalarni sotib olish uchun ham ishlatiladi. Asosiy kapitalning eskirishi ikki xil, yaʼni jismoniy eskirish va maʼnaviy eskirish boʻladi.

Asosiy kapitalning maʼlum vaqt davomida ishlatilishi natijasida yemirilib, yaroqsiz holga kelishiga *jismoniy eskirish* deb aytiladi. Asosiy kapitalning maʼlum vaqt oʻtishi yoki yangi, sifati jihatidan takomillashgan, ilgirigiga nisbatan samarali mehnat vositalari yaratilishi bilan bogʻliq eskirish holatini *maʼnaviy eskirish* deyiladi. Har ikki holatda ham asosiy kapital oʻz iqtisodiy qiymatini yoʻqotib boradi.

#### Tadbirkorlik kapitali (fondlari)ning tarkibi



Asosiy kapital ishlatilishi jarayonida jismoniy eskirmagan boʻlsa-da, hozirgi vaqtda dunyoda sodir boʻlayotgan fan-texnika taraqqiyoti natijasida juda yuqori samaradorlikni taʼminlay oladigan

mashina, asbob-uskunalar, texnika-texnologiyalar yaratilishi bilan uning ma'naviy eskirishi ko'p uchramoqda. Ma'naviy eskirishning ikki xil oqibatga, ya'ni bir tomondan, korxonalarining iqtisodiy jihatdan yutqazishiga, ikkinchi tomondan yutishiga ham olib kelyapti. Sababi, korxonalar eskirgan vositalar qiymatini yangilarini ishlatilishidan olingan foydasi bilan tezda qoplash imkoniyatiga ega bo'lishmoqda. Hatto bozorda amaliyotda yangi texnikaning narxi asossiz ravishda qimmat belgilansa, asosiy kapitalning ma'naviy eskirishi emas, balki aksincha, texnikaning qimmatlashuvi tarzida namoyon bo'ladi. Natijada, bu korxonalarining asosiy kapitali (fondlar)ni yangilash va umuman olganda, jahonda fan-texnika taraqqiyoti uchun to'siq bo'ladi. Bu muammo bozor iqtisodiyotining talab va taklif qonuni orqali yechiladi.

Asosiy kapital qiymatining ishlab chiqarilgan yangi mahsulotga qo'shilishi amortizatsiya me'yori orqali amalga oshadi. Amortizatsiya me'yori esa asosiy kapitalning qiymati va uning xizmat qilish muddati bilan bog'liq. Amortizatsiya me'yori qancha yuqori bo'lsa, asosiy kapital (fondlar) o'z qiymatini shunchalik tez muddatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotga o'tkazib bo'ladi. Aksi bo'lsa, uzoq muddat o'tkazadi. Amortizatsiya lotincha so'ndirish so'zidan olingan bo'lib, asosiy kapital qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga asta-sekinlik bilan xizmat muddati davomida ko'chirish ma'nosini bildiradi. Amortizatsiya fondi asosiy kapital (fondlar)ni to'la tiklash uchun amortizatsiya me'yoriga ko'ra belgilanadi. U asosiy kapitalning xizmat muddatiga nisbatan foizda va quyidagicha formula bilan ifodalanadi:

$$\text{Amortizatsiya me'yori} = \frac{100 \%}{(\text{xizmat muddati})}$$

Masalan, korxonada binosining xizmat muddati 100 yil. U holda amortizatsiya me'yori  $100:100=1$  % ga teng. Korxonada sexidagi bir stanokning xizmat muddati 10 yil bo'lsa, amortizatsiya me'yori  $100:10=10$  %. Ya'ni har yili stanok bahosining 10 % i korxonada ishlab chiqarilgan mahsulotga ko'chadi. Agar stanogimiz 10 mln so'm turadi desak, har yili 1 mln so'mlik eskirar ekan, shu miqdordagi pulni amortizatsiya fondiga o'tkazib borishimiz zarur bo'ladi. Shuning uchun korxonalar amortizatsiya me'yorini shunday belgilashi kerakki, u ham jismoniy, ham ma'naviy eskirishni hisobga olgan bo'lishi lozim.

Jahonning taraqqiy etgan mamlakatlari tajribasiga ko'ra, amortizatsiya me'yori yuqori belgilangan. Masalan, AQSHda qishloq

xo'jaligida foydalaniladigan texnik vositalarning xizmat muddati 10—12 yil, Yaponiyada 15—20 yil qilib belgilangan bo'lsa-da, ularning haqiqiy xizmat muddati 20—25 yilni tashkil etadi. Bunga ular texnikalarni asrab-avaylab ishlatish orqali erishadilar. Chunki xususiy biznes egalari bundan manfaatdordir.

O'zbekistonda ham xususiy mulk asosida tadbirkorlikni tashkil etishga ruxsat berilishi bilan 1991-yildan boshlab amortizatsiya me'yorini belgilash tartibi o'zgartirildi va ular quyidagilarda ifodalanadi:

1. Asosiy kapitalning amortizatsiya me'yori o'zgartirildi.
2. Ta'mirlash uchun amortizatsiya to'lovlari bekor qilindi. Natijada korxonalar barcha ta'mirlash turlarini mahsulot tannarxiga o'tkazadigan bo'lishdi. Zarur bo'lsa, ta'mirlash uchun alohida fond tashkil etishlari (tuzatish, ta'mirlash fondi) ham mumkin bo'ldi.
3. Mashinalar, asbob-uskunalar va transport vositalariga normativdagi xizmat muddati tugagach, amortizatsiya to'lovlari to'xtatiladi.
4. Korxonalarining asosiy kapitali (fondlar)ni yangilashni tezlashtirish maqsadida aktiv fondlarga tezlashtirilgan amortizatsiya me'yorlari belgilashga ruxsat etiladi. Bu amaliyot chet mamlakatlarda ko'pdan buyon qo'llaniladi va kichik korxonalariga xizmat muddati uch yildan oshadigan kapitalning 20 % gacha qiymatini ekspluatatsiya qilishning birinchi yildan ishlab chiqarish xarajatlari qo'shishga ruxsat beriladi. Bularning hammasi asosiy kapitaldan foydalanishni yaxshilashga qaratilgan muhim qoidalardir.

Ishlab chiqarishda aylanma kapital ham muhim o'rin tutadi. Aylanma kapital tarkibiga yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan xomashyolar, yoqilg'i va boshqa energetik resurslar, ishchi kuchlariga beriladigan ish haqi va boshqa yordamchi materiallar kiradi.

Korxonaning muvaffaqiyatli faoliyati ko'p jihatdan muomala kapitaliga ham bog'liq bo'lib, ular korxonaning tayyor mahsuloti va ma'lum miqdordagi pul mablag'laridan iborat bo'ladi.

Aylanma kapital bilan muomala kapitali harakati bir-biri bilan chambarchas bog'liq, chunki korxonada ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotni sotish jarayonini tashkil etishda ma'lum muomala xarajatlari bo'ladi. Ana shu xarajatlar muomala kapitali hisobidan amalga oshiriladi. Natijada muomala kapitali tovar bahosiga qo'shilib, u ham aylanma kapital tarkibiga kiradi. Tovarlar sotib bo'lingandan so'ng, korxonada yana muomala kapitali (fondi)ga mablag' ajratadi, qaytadan xomashyo va boshqa materiallar sotib olishi jarayonida ular doimo bir shakldan ikkinchisiga aylanib, har bir

doiraviy aylanishda qaytadan to'la yangilanib turiladi. Shuning uchun ular birgalikda aylanma mablag'lar deb ataladi.

Korxonaning asosiy kapitali samaradorligi u ishlab chiqarayotgan mahsulotining kapital sig'imi hamda kapital qaytimi kabi ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi.

Korxonaning aylanma mablag'laridan foydalanish samaradorligi uning aylanish tezligi bilan aniqlanadi. Korxonada ishlab chiqarish vaqti va muomala vaqti qancha qisqa bo'lsa, kapital shuncha tez aylanadi va ishlab chiqarish samaradorligi yuqori bo'ladi. Aylanish vaqti uzoq bo'lsa, aksincha, samaradorlik past darajada deb baholanadi. Shuning uchun har bir korxonada kapital aylanish vaqtini qisqartirishga harakat qilishi zarur. Aylanma mablag'laridan qanday foydalanilayotgani yil davomida uning aylanish soni bilan o'lchanadi. Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun korxonada tomonidan yil davomida sotilgan tovar hajmining o'rtacha yillik aylanma mablag'lari qoldig'iga nisbati topiladi. Masalan, yillik sotilgan tovarlar hajmi 100 mln so'm, o'rtacha aylanma mablag'lari qoldig'i 20 mln so'm bo'lsin, bunda,  $100 \text{ mln so'm} : 20 \text{ mln so'm} = 5$  (marta). Bu yil davomida to'la besh marta aylanganini bildiradi.

Korxonada aylanma kapitalidan foydalanish darajasini aniqlashda korxonada ishlab chiqargan mahsulotdagi material sig'imi, energiya sig'imi, mehnat sig'imi kabi ko'rsatkichlardan foydalanib baho beriladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tadbirkorlik kapitalining harakati tadbirkor tomonidan ishlab chiqarishni tashkil etish uchun resurslarga sarflagan kapitalini ishlab chiqarish jarayonida unumli kapitalga, ya'ni ishlab chiqarish omillariga aylanishi va ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning sotilishi orqali qaytadan pul kapitaliga aylanish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi.

## **5.6. O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirish**

O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishning zarurligi, uni xalqimizning turmush farovonligini oshirishdagi muhim omil ekanligini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi. Bozor iqtisodiyoti tizimida yashayotgan mamlakatlar tajribalari shuni ko'rsatmoqdaki, bozorning tovarlar bilan yetarli ta'minoti, asosan, kichik biznes, tadbirkorlikning qay darajada rivojlanganligiga bog'liq. Biz yuqorida kichik biznes va tadbirkorlikning bir qator afzalliklarini ko'rsatib o'tdik. Shuning uchun respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga davlat tomonidan katta ahamiyat beril-

moqda. Bu, avvalo, davlatimiz tomonidan kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan qonunchilik asoslarini yaratishga katta ahamiyat berilganligidan ham ko'rinib turibdi.

Jumladan, bu mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 21-yanvardagi «Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk muhofazasini ta'minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni bilan xususiy mulkchilik asosidagi tadbirkorlikning yuzaga kelishi iqtisodiy islohotlarning shu bosqichdagi eng asosiy vazifalaridan biri sifatida ko'rilayotganida o'z ifodasini topgan edi. Ushbu Farmondan so'ng respublikamizda tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida har bir viloyat, tumanda alohida dasturlar ishlab chiqildi va ularni amalga oshirish ishlari boshlandi.

Aholi orasida turli yo'nalishlarda kichik biznes bilan shug'ullanuvchilar ko'paya boshladi. Ular qishloq xo'jaligi, savdo, maishiy xizmat ko'rsatish, umumiy ovqatlanish kabi sohalarda tez rivojlana bordi. Davlat tomonidan ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida kichik biznes korxonalarini qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilindi. Shu bilan bir qatorda iste'mol buyumlari, qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi xususiy korxonalar ikki yilga daromad solig'idan ozod qilinib, keyingi ikki yil ichida esa kamaytirilgan stavkalarda soliq to'laydigan bo'lishdi. Xususiy korxonalar ishlab chiqarishni rivojlantirish, ijtimoiy ehtiyojlar uchun yo'naltirilgan mablag'lardan soliq imtiyoziga ega bo'ldilar.

Yangi ish boshlagan xususiy korxonalar dastlabki ikki yil mobaynida mulk solig'idan, 1995-yildan boshlab esa barcha korxonalar 20 % lik amortizatsiya ajratmalari to'lashdan ozod qilindi. Kichik biznesni rivojlantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashdagi yana bir muhim qadam, bu davlatimiz tomonidan qabul qilingan «Xususiy tadbirkorlikni tashabbuslantirish va rag'batlantirish to'g'risida»gi Qonun bo'ldi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda mamlatimizga xorijiy sarmoyalarni jalb etish va shu asosda iqtisodiyotni rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Buni hisobga olgan holda davlatimiz tomonidan «Chet el investitsiyalari va xorijiy investorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi Qonun qabul qilinib, unga ko'ra, O'zbekistonda ish olib borishni istovchi barcha ishbilarmonlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi. Natijada xorijiy investorlar uchun bir qator kafolatlar, jumladan, siyosiy xatardan sug'urtalash va boshqa kafolatlar berildi.



Har qanday yangi tashkil etilayotgan kichik biznes yoki boshqa shakldagi tadbirkorlik dastlabki davrda, ayniqsa, moliyaviy ko'makka muhtoj bo'ladi. Shu holatni hisobga olgan holda davlatimiz tomonidan tashkil etilgan kichik biznesni rivojlantirishga ko'maklashish jamg'armasi «BIZNES FOND» muhim moliyaviy vosita bo'lib xizmat qildi. Bu fond mablag'lari, davlat va munitsipal mulklarni xususiylashtirishdan topilgan daromadlar va yuridik hamda jismoniy shaxslarning ixtiyoriy bergan mablag'laridan, budjetdan ajratilgan va boshqa mablag'lardan tashkil topishi belgilab qo'yildi. Natijada bu fond shu mablag'lardan kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda rivojlantirish uchun qaratilgan dasturiy loyihalarni moliyalashtirish uchun imtiyozli kreditlar olishga yordamlashadigan bo'ldi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida respublikamizda yana bir yirik va muhim tashkilot «MADAD» sug'urta agentligi tuzildi. Davlat bu sug'urta tashkilotining hammuassisi bo'lib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini faoliyatini kreditlash bilan bog'liq xatarlarning moliyaviy ta'minotini o'z zimmasiga oladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, uni qo'llab-quvvatlash borasida qo'yilgan muhim qadamlardan yana biri, bu — Vazirlar Mahkamasi tomonidan «O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashning davlat dasturi» (1995-yil 28-avgust) qabul qilinishi bo'ldi. Bu O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida diqqat-e'tibor qaratilayotganining ifodasidir. Dasturda ko'zlangan maqsadlarning amalga oshirilishi respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish asosida bozor munosabatlarini shakllantirish, ish bilan bandlik, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish borasidagi qator muammolarni bartaraf etishga yordam berdi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tadbirlari quyidagi shakllarda amalga oshiriladi: qonuniy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish, qabul qilish, ya'ni huquqiy ta'minot, moddiy-texnikaviy sharoit yaratish, moliya-kredit, sug'urta ta'minoti, kadrlar tayyorlash, malaka oshirish, tashqi iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash, axborot-maslahat ta'minoti va boshqalardan iborat bo'lmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, ayniqsa, oilaviy biznesni rivojlantirishga alohida

ahamiyat berilmoqda. O‘zbekiston Prezidenti I.A. Karimov ta’kidlaganidek, «azal-azaldan xalqimiz uchun muqaddas bo‘lmish oilani hayotimiz tayanchi va suyanchi, jamiyatimizning hal qiluvchi asosiy bo‘g‘ini sifatida qabul qilishimiz zamirida, hech shubhasiz, juda katta ma’no mujassamlashgan. Chunki oila sog‘lom ekan — jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan — mamlakat barqaror<sup>1</sup>. Xuddi shu sababli ham, Prezidentimiz tashabbusi bilan 2011-yilning «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili», 2012-yilning «Mustahkam oila yili» hamda 2013-yilning «Obod turmush yili» deb e’lon qilinishi, mamlakatimizda keyingi yillarda oila va tadbirkorlik masalalariga e’tiborning yuqoriligidan dalolat beradi.

O‘tgan yillar davomida oilaning iqtisodiy, ma’naviy, axloqiy, huquqiy asoslarini mustahkamlash uchun muhim ishlar amalga oshirildi. Oilaning iqtisodiy tizim tarkibiy qismi sifatidagi o‘rni belgilab qo‘yildi. Oilaviy tadbirkorlik munosabatlarini rivojlantirish, mazkur sohaning iqtisodiyotning alohida instituti sifatida ajralib chiqishida 2010-yil 12-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning mamlakat Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruzasi poydevor bo‘lib hisoblanadi. Jumladan, Prezidentimiz ta’kidlaganidek: «...bugungi kunda kichik biznes va tadbirkorlikni kengaytirish uchun biznesning yangi tashkiliy-huquqiy shakli sifatida oilaviy biznesni qonuniy belgilab qo‘yish vaqti keldi»<sup>2</sup>. Konsepsiya talablariga ko‘ra, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, xususan, oilaviy tadbirkorlikning huquqiy asoslarini belgilash maqsadida 6 qonun, 25 dan ziyod Prezident Farmonlari va hukumat qarorlari qabul qilindi.

Oilaviy tadbirkorlik faoliyatining tashkiliy-huquqiy asosini belgilashda O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 16-martdagi «Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida»gi Qonuni qabul qilinishi sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tardi. Ushbu qonunda oilaviy korxonada umumiy mulk asosida tashkil qilinishi, oilaviy korxonada farzandlar, masalan, o‘z mulki yoki mablag‘i bo‘lmasa ham, shaxsiy mehnati bilan qatnashib ishtirokchi bo‘lishi, oilaviy korxonada

---

<sup>1</sup> I.A. Karimov. Bizning yo‘limiz — demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo‘lidir. «Xalq so‘zi» gazetasi, 2011-yil 8-dekabr.

<sup>2</sup> I.A. Karimov. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. «O‘zbekiston ovozi» gazetasi, 2010-yil 13-noyabr.

ishtirokchilari qonun hujjatlariga muvofiq oilaviy korxonaga majburiyatlarini bo'yicha korxonaga mol-mulki yetmasa, o'zlariga tegishli mol-mulk bilan subsidiar javobgar bo'lishi, oilaviy korxonaga boshlig'i faqat ishtirokchilardan biri bo'lishi, yollanma xodim bo'lishi mumkin emasligi, oilaviy korxonaga oila yashab turgan turar joyda faoliyat yuritishi va o'zi ishlab chiqargan mahsulotni o'zi sotishi mumkinligi haqida tegishli me'yorlar mustahkamlab qo'yilgan. Binobarin, oilaviy korxonaga dunyoda birinchi marta tadbirkorlik subyektlarining kichik biznes subyekti ko'rinishidagi yangi tashkiliy-huquqiy shakli sifatida belgilab qo'yildi.

**Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesning mamlakat yalpi mahsulotida tutgan o'rni, 2013-yil (ish va xizmatlar)**

Ko'rsatkichlar	Kichik tadbirkorlikning umumiy mahsuloti, mlrd so'm	Xususiy sektordagi kichik tadbirkorlikning yalpi mahsulotdagi hissasi, %
Sanoat	15181,8	30,0
Qishloq xo'jaligi	30275,3	100,0
Qurilish	10848,2	69,5
Chakana savdo	21987,8	68,4
Pulli xizmatlar	8544,5	87,9
Yuk tashish, mln t	574,9	74,3
Yo'lovchi tashish	5836,5	93,3
Eksport, mln AQSH doll.	2709,2	4,8
Import, mln AQSH doll.	5599,5	18,4

*Izoh:* Xususiy sektordagi kichik tadbirkorlikda band bo'lganlar soni 8775,6 ming, ya'ni shu sohadagi umumiy band bo'lganlar 92,2 %.

Umumiy xulosa qilib shuni aytish mumkinki, «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi Qonun, Prezident Farmonlari va hukumat qarorlarining qabul qilinishi kichik biznes, xususiy tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rag'batlantiradigan va uni kafolatlaydigan kuchli tizim yaratildi. Ular uchun xo'jalik faoliyatlari to'g'risida hisobot berish tartibi soddalashtirildi. Kichik biznes, xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi shaxslar uchun soliqlar bo'yicha katta yengilliklar berildi. Banklar tomonidan kreditlar berish tartib-qoidalari soddalashtirildi.

### ASOSIY TAYANCH IBORALAR

- Tadbirkor;
- tadbirkorlik;
- biznes;
- biznesmen;
- tadbirkorlik tamoyili;
- mulkchilik shakli;
- firma;
- korxonalar;
- tadbirkorlik kapitali;
- asosiy kapital;
- aylanma kapital;
- muomala fondi;
- muomala vaqti;
- kichik biznes;
- xususiy korxonalar;
- oilaviy tadbirkorlik.



### TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Tadbirkorlik tushunchasi bilan biznes tushunchalarini va ularning farqlarini ayting.
2. Tadbirkorlik xususiyatlarini bilasizmi?
3. Tadbirkorlikning nazariy asoslari va ularning tub mohiyati nimada?
4. Tadbirkorlik faoliyati qanday tamoyillarga asoslanadi?
5. Tadbirkorlik faoliyatida mulkchilikning roliga baho bering.
6. Nima uchun tadbirkor mulk sohibi bo'lishi va bo'lmasligi ham mumkin?
7. Mulklar shakllari va ularning mohiyatini aytib bering.
8. Tadbirkorlik turlarini tavsiflab bering.
9. Firmaning qanday shakllari bor? Ulardan qaysi biri keng tarqalgan va nima uchun?
10. Tadbirkorlik kapitali nima va qanday ko'rinishda bo'ladi?
11. Asosiy kapitalning tarkibi va mohiyati nima?
12. Aylanma kapital nima va uning tarkibi qanday?
13. Aylanma mablag'lar nima va uning tarkibini aytib bering.
14. Muomala fondi nima va u nima uchun kerak?
15. Tadbirkorlik kapitali harakati va uning bosqichlarini aytib bering.
16. Ishlab chiqarish jarayoni va vaqtini tushuntirib bering.
17. Muomala vaqti nima?
18. Tadbirkorlik foydasi qanday tashkil topadi?
19. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning qanday huquqiy asoslari mavjud?
20. Oilaviy tadbirkorlik nima va unga hozirgi vaqtda qanday ahamiyat berilmoqda?

### MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Bozor sharoitida mulklar shaklining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan shartnomaviy munosabatlarga misollar tuzib, undan kelib chiqadigan iqtisodiy-huquqiy oqibatlarni izohlab bering.

2. Tadbirkor mas'uliyati cheklangan hissadorlik jamiyatiga 100 ming so'm pul qo'ygan edi. Korxonalar ishi yurishmay bankrot bo'ldi va bankdan qarzdor bo'lib qoldi. Sizdan ham bu qarzlarni uzishda qatnashasiz, deb talab qilishsa, siz nima qilasiz? Bu holatning to'g'ri yechimi qaysi me'yoriy aktda ko'rsatilgan?


---

**6-bob. IQTISODIY FAOLIYAT VA UNING  
SAMARADORLIGI. SARF-XARAJATLAR  
VA FOYDA**

**6.1. Iqtisodiy faoliyat, uning mazmuni va turlari**

Inson hayotining asosiy qismini uning iqtisodiy faoliyati tashkil etadi. *Iqtisodiy faoliyat* deb insonning o'z hayotiy ehtiyojlarini ta'minlashi uchun turli vosita, usullardan foydalanib, ma'lum bir yaratuvchilik ishi yoki xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanishiga aytiladi.

Iqtisodiy faoliyat juda murakkab, keng qamrovli turli hodisa va jarayonlardan iborat bo'ladi. Inson yashar ekan, uning hayoti turli hodisa va jarayonlarning ma'lum tarkibiy qismini tashkil etadi. Iqtisodiy faoliyat shu jarayonlardan biri bo'lib, ular orqali insonlar o'zlarining ehtiyojlarini qondirishi va yashashi uchun turli-tuman noz-ne'matlar, ya'ni moddiy, ma'naviy, ijtimoiy shart-sharoitlar yaratadilar. Insonlar turli xil mehnat faoliyati bilan ishlab chiqarish jarayonida qatnashadilar va uning natijasi sifatida jamiyatda ijtimoiy mahsulot yaratiladi. Bu jarayon uzluksiz takrorlanib davom etadi va harakati davomida to'rt bosqichni bosib o'tadi. Uning birinchi bosqichi ishlab chiqarish, ikkinchisi ayirboshlash, uchinchisi taqsimot va to'rtinchisi iste'molni tashkil etadi.



**6.2. Ishlab chiqarish jarayonining mazmuni va uning o'ziga xosligi. Ishlab chiqarish sohalari**

Ishlab chiqarish iqtisodiy faoliyatning boshlanish nuqtasi hisoblanadi. Ishlab chiqarish shunday jarayonki, unda ishlab chiqarish omillari o'zaro qo'shilib, insonlarning turli-tuman ehtiyoj-

larini qondirish uchun xilma-xil moddiy va nomoddiy ne'matlar yaratiladi. Shundan kelib chiqib, iqtisodiy adabiyotlarda ishlab chiqarishning ikki sohasi bor deyiladi.

Moddiy ne'matlar ishlab chiqarish deganda, ma'lum bir moddiy shaklga ega bo'lgan mahsulotlar: iste'mol buyumlari, oziq-ovqat, kiyim-kechak kabi buyumlar, xullas, inson tomonidan iste'mol qilinadigan ne'matlar va ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladigan qurol-aslahalar, mashina va mexanizmlar, xomashyo, yoqilg'i tushuniladi. Moddiy ishlab chiqarish sohasiga, odatda, qishloq va o'rmon xo'jaligi, baliqchilik, sanoat, qurilish tarmog'i kabilar kiradi.

Nomoddiy ishlab chiqarish deganda, ma'lum moddiy shaklga ega bo'lmagan, ammo insonlar va ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan xizmatlarni ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan tuzilmalar faoliyati tushuniladi. Nomoddiy ishlab chiqarish sohasi, bu — insonlarning ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-madaniy, san'at, ilmiy, ijtimoiy-siyosiy kabi jabhalardagi xizmat ko'rsatish bilan bog'liq faoliyatlarini qamrab oladi. Xizmat ko'rsatish sohasi ham inson iqtisodiy faoliyatida alohida o'rin tutadi. Xizmat ko'rsatish ham ikki turga — moddiy va nomoddiy xizmat ko'rsatish sohasiga bo'linadi. Moddiy sohaga xizmat ko'rsatish deganda, ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi yuk transporti, aloqa, savdo, uy-joy, kommunal xizmati, maishiy xizmat ko'rsatish kabilar kiritiladi. Nomoddiy sohalarga xizmat qiluvchilar, bu — maorif, sog'liqni saqlash, san'at, axborot, ijtimoiy ta'minot, moliyaviy hamda yuridik xizmat ko'rsatish va boshqalar.

Jamiyat hayotida moddiy ne'matlar ishlab chiqarish eng muhim, birlamchi ahamiyatga ega hisoblanadi. «Iqtisodiyot nazariyasi» fanida jamiyatda ishlab chiqarishning rivojlanishi uch yirik inqilobiy bosqich orqali yuz bergan degan fikrlar asoslangan. Uning birinchi bosqichi toindustrial, ikkinchisi industrial, uchinchisi postindustrial bosqichlar deyiladi. Iqtisodiy taraqqiyotda bularning har biri alohida yangi davrni boshlab bergan deb e'tirof etiladi.

*Ishlab chiqarishning toindustrial bosqichi* quyidagi xususiyatlarga ega bo'lgan:

- a) iqtisodiyotda dastlab qishloq xo'jaligi, dehqonchilik va chorvachilik yetakchi mavqega ega bo'lgan;
- b) asosan, qo'l mehnati bilan ishlab chiqarilgan;
- d) ijtimoiy mehnat taqsimoti keng rivojlanmagan, asosan, natural xo'jalik yuritilgan;
- e) aholi ehtiyojlari va uning qondirilish darajasi past bo'lgan.

Industrial bosqich (Angliyada XVIII asrning 60-yillarida boshlanib, AQSHda XIX asrning 50—60-yillarigacha davom etgan) quyidagi xususiyatlarga ega:

- a) iqtisodiyotda sanoat ishlab chiqarishi yetakchi o‘rinni egallaydi;
- b) sanoat va boshqa muhim tarmoqlar: qishloq xo‘jaligi, qurilish, transport tez rivojlanib boradi;
- d) mehnat, asosan, texnika, mashinalar tomonidan bajariladi, aholi sanoat tarmog‘ida band bo‘ladi;
- e) ijtimoiy mehnat taqsimotining chuqurlashuvi sodir bo‘ladi, yangi-yangi tarmoqlar vujudga keladi. Natural xo‘jalik yuritish miqyosi juda qisqarib, o‘rniga tovar ishlab chiqarish rivojlanadi;
- f) aholi turmush tarzida tub o‘zgarishlar, urbanizatsiya (*urbanis* — shahar) jarayonlari ro‘y beradi, ya‘ni sanoat rivojlanishi bilan shaharlar ko‘payib boradi va aholining asosiy qismi shaharlarda yashay boshlaydi;
- g) industrial ishlab chiqarish imkoniyatlarining kengayishi turli-tuman tovarlarning vujudga kelishi, o‘z navbatida, aholining ushbu tovarlarga bo‘lgan ehtiyojlarini tobora to‘laroq qondirishni ta‘minlaydi.

*Postindustrial bosqich* quyidagi xususiyatlarga ega:

- a) iqtisodiyotda xizmat ko‘rsatish sohasi tez rivojlanadi. Bu sohada ishlovchilar soni mehnatga yaroqli aholining 50—70 % ini tashkil etadi;
- b) ishlab chiqarishda fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan beqiyos darajada keng foydalaniladi — fan bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylanadi;
- d) xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarida va aholining madaniy-maishiy turmushida axborot, informatika va boshqa texnika hamda texnologiya yutuqlaridan keng foydalaniladi. Jismoniy va aqliy mehnat orasidagi farq yo‘qolib boradi;
- e) korxonalar va tashkilotlarda yuqori malakali mutaxassislar va ilmiy xodimlarning roli ortib boradi;
- f) resurs tejamkorligi yuqori bo‘lgan, sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni ta‘minlaydigan yangi texnologiyalardan foydalaniladi;
- g) jamiyat a‘zolarining tez o‘sib boradigan ehtiyojlarini to‘la qondirishni ta‘minlash imkoniyatlariga ega bo‘linadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, iqtisodiy faoliyatning asosiy boshlang‘ich nuqtasi bo‘lgan ishlab chiqarish uzoq davom etgan tarixiy-iqtisodiy taraqqiyot natijasida shakllanib, rivojlanib kelmoqda.

Ayirboshlash iqtisodiy faoliyatning ikkinchi fazasi hisoblanib, bu jarayonda mahsulotlar ma‘lum miqdoriy nisbatda bir-biriga

ayirboshlanadi. Ayirboshlash ishlab chiqarilgan moddiy ne'matlar va xizmatlarning bir subyektdan ikkinchisiga o'tish jarayonini bildiradi. Ayirboshlash ikki xil: mahsulot va tovar ayirboshlash shaklida amalga oshiriladi. Bir mahsulotni bevosita boshqa mahsulotga ma'lum miqdoriy nisbatda ayirboshlash *barter* deyiladi. Bunday ayirboshlashdan jamiyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida foydalanilgan. So'ngra jamiyatda ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan tovar ayirboshlash vujudga keldi.

Tovar ayirboshlash deb, bir mahsulotni ikkinchisiga pul vositasida, ma'lum narx asosida oldi-sotdi orqali ayirboshlashga aytiladi. Bunda tovar pulga ayirboshlanadi, keyin esa bu pulga xohlagan boshqa tovar sotib olinadi. Bunday ayirboshlash ayirboshlashning eng qulay va keng tarqalgan shakli sifatida tan olingan.

Hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasining neoklassik yo'nalish vakillari ayirboshlashni jamiyat boyligining ko'payishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omil deb qaraydilar. Bu to'g'risida A. Marshall shunday fikrni ilgari suradi: «Ayirboshlash ham, ishlab chiqarishga o'xshab ne'matlarning ma'lum makonda ko'chib yurishini ta'minlab, inson ehtiyojlarini to'laroq qondirishga xizmat qiladi. Bu jihatdan agar boylikni faqat moddiy, qo'l bilan ushlab, ko'z bilan ko'radigan narsa sifatida emas, balki inson ehtiyojlarini to'laroq qondirish nuqtayi nazaridan qarasa, ayirboshlash ham boylikning ko'payishiga xizmat qiladi». Agar fiziokratlar kabi boylik faqat moddiy ishlab chiqarishda yaratiladi, deb ta'kidlash, xizmatlar ko'rsatishning muhim ahamiyatini e'tiborga olmaslik, oxir-oqibat, bu sohaning yaxshi rivojlanishi ta'minlanmay qolishiga, pirovard natijada esa ijtimoiy takror ishlab chiqarishning uzluksiz, barqaror davom etmay, jamiyat boyligining ko'paymasligiga olib keladi.

Taqsimot iqtisodiy faoliyatning uchinchi bosqichi bo'lib, bunda yaratilgan mahsulotlar va shu bilan bir qatorda resurslarning taqsimlanishi amalga oshiriladi. Taqsimot munosabatlari jarayonida xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan yaratilgan mahsulotning jami ijtimoiy mahsulotdagi hissasi aniqlanadi. Bu hissa, eng avvalo, yaratilgan mahsulot miqdori va sifatiga hamda uning bozorda sotilishi, ya'ni iste'molchiga yetib borishiga bog'liq. Taqsimot va ayirboshlash ishlab chiqarish bilan iste'molni bog'lab, iqtisodiy faoliyatning samarali bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Taqsimot munosabatlari iqtisodchi olimlar tomonidan chuqur o'rganib kelinmoqda. Iqtisodiyot nazariyasining klassik namoyandasi A. Smitdan boshlab, hozirgi taniqli iqtisodchilargacha ayir-



boshlash va taqsimlash jarayoni tadqiq qilinib, bu jarayon ayrim kishilarning xohishiga qarab emas, balki obyektiv tarzda bozordan olinadigan signallar asosida amalga oshganda erkin iqtisodiyot tarkib topadi deb ta'kidlaydilar. Zamonamizning taniqli iqtisodchilaridan bo'lgan Fon Xayek mahsulotlarning mo'l-ko'lligi uchun taqsimlash uslublaridan, ya'ni narxlar shakllanishini bozor mexanizmidan minnatdor bo'lishimiz kerak deb ta'kidlaydi.

Ma'lumki, bozor sharoitida iqtisodiy resurslar taqsimoti narx mexanizmi orqali amalga oshadi. Demak, bozor iqtisodiyoti sharoitida taqsimot mulkchilikka bog'liq bo'lib, yaratilgan mahsulotdagi ulush har bir omilning mulk egasining hissasi sifatida qaralib aniqlanadi. Taqsimot ishlab chiqarishning qay darajada yangilani-shiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Iste'mol iqtisodiy faoliyatning so'nggi, to'rtinchi bosqichi bo'lib, u ishlab chiqarish natijalarining jamiyat ehtiyojlarini qondirish jarayonini ifodalaydi. Iste'mol ikki xil — shaxsiy va ishlab chiqarish iste'moli shaklida namoyon bo'ladi: *birinchidan*, shaxsiy iste'molda odamlar o'z ehtiyojlarini qondirish uchun iste'mol qiladilar, *ikkinchidan*, ishlab chiqarishning takrorlanishini ta'minlash uchun uni davom ettiradilar.


Iste'mol yakka, guruh, umummilliy tarzda yuz beradi. Iste'mol ehtiyojining cheksiz o'sib borishini qondirish uchun iqtisodiy faoliyat uzluksiz davom etishini talab qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, iqtisodiy faoliyat jamiyat a'zolarining ma'lum bir maqsad yo'lidagi xatti-harakatini bildiradi. Uning ishtirokchilari ayrim kishilar, korxonalar, firma, xo'jalik va davlatlar bo'lib, ular umumiy tarzda iqtisodiy faoliyat subyektlari deb ataladi. Ular doimo bir-birlari bilan muntazam ravishda iqtisodiy munosabatlarga kirishadilar, davlat esa bu munosabatlarning huquqiy asoslarini yaratib beradi.

### **6.3. Ishlab chiqarish omillari va uning tarkibi**

Biz yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, iqtisodiy faoliyatning asosiy boshlang'ich nuqtasi bo'lgan ishlab chiqarish uning uchun zarur bo'lgan omillar iste'mol qilinishidan iborat bo'ladi. Demak, ishlab chiqarish omillari ishlab chiqarishni uzluksiz takrorlanib davom ettirish uchun kerak bo'lar ekan, jamiyat shu omillarning o'zini ham, ishlab chiqarishning doimiy takrorlanib turishini ham ta'minlab turishi zarur.

«Iqtisodiyot nazariyasi» fani ishlab chiqarish omillariga *yer, kapital, mehnat, tadbirkorlik va ekologik* omillarni kiritadi. Albatta, jamiyat iqtisodiy faoliyatida har biri o'z o'rniga egadir.



*Yer omili* — tabiiy omil hisoblanib, inson mehnati bilan yaratilmagan. Yer jamiyat uchun bebaho boylik hisoblanadi. Yer omili deganda, biz uning ostki va ustki boyliklarini tushunamiz.

Yerosti boyliklari turli-tuman bo'lib, ular, odatda, tabiiy boyliklar, ya'ni ishlab chiqarishning asosiy xomashyo bazasi deb ta'riflanadi. Prezidentimiz I. A. Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobida mamlakatimiz tabiiy boyliklari haqida yozilishicha, hozirgacha 900 dan ortiq kon topilgan bo'lib, ularning tasdiqlangan zaxiralari 970 mlrd AQSH dollarini tashkil etadi, har yili respublika konlaridan 5—6 mlrd dollarlik foydali qazilmalar olinmoqda. Vatanimiz yer qa'ridagi 30 dan ortiq konlardan asl metallar qazib olinayotir.

Yerusti boyliklari ham xilma-xildir. Ularni tavsiflaganda, eng avvalo, qishloq xo'jaligi uchun yaroqli yerlar, ya'ni haydaladigan, sug'oriladigan yer maydonlari, o'rmonlar, o'tloqlar va tog'lardan iborat deyiladi. O'zbekiston umumiy yer maydonining 62,5 % ini, ya'ni 28,5 mln gektarga yaqini qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun yaroqli yerlarni va uning 4,5 mln gektari haydaladigan yerlarni, 96 ming km<sup>2</sup> tog'larni, ya'ni hududimizning 21,3 % ini tashkil etadi.

*Kapital omili* iqtisodchilar tilida iqtisodiy omil, moddiy-ashyoviy omil deb ham yuritiladi. Bu omil ishlab chiqarishning moddiy zaminini tashkil etadi va ular ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruhi bino va inshootlar, mashinalar, turli dastgohlar, asbob-uskunalar, transport hamda boshqa texnika va texnologik vositalardan iboratdir. Ishlab chiqarish moddiy omillarining ikkinchi

guruhiga xomashyolar, yoqilg'i va elektrenergiya, yordamchi materiallar kiradi. Kapital omilining birinchi guruhiga kiruvchi qismiga asosiy kapital deyiladi, ular ishlab chiqarish jarayonida uzoq vaqt davomida qatnashadi va kapital aylanishining bir necha bosqichlarida o'z qiymatini yangidan yaratilayotgan mahsulotlarga sekin-astalik bilan o'tkazib boradi. Kapitalning ishlab chiqarish jarayonida o'z qiymatini yangidan yaratilgan mahsulotga bir bosqichning o'zidayoq o'tkazib yuboradigan qismiga (xomashyo, yoqilg'i, elektrenergiya, yordamchi materiallar va shu kabilar) aylanma kapital deyiladi. Asosiy va aylanma kapitallar bir-biridan yemirilish (eskirishi) jihatidan farqlanadi. Agar asosiy kapital uzoq davr mobaynida yemirilsa (bir necha yil xizmat qilgandan so'ng), aylanma kapital ishlab chiqarishda o'z shaklini to'laligicha o'zgartirib, boshqa shaklda yangi mahsulotda mujassamlashadi. Misol uchun, ip yigiruv fabrikasida ishlab chiqarish jarayonida paxta tolasi ip shakliga kelib qoladi deylik, yoqilg'i va sarflangan mehnat ham o'z qiymatini yangi yaratilgan mahsulotga birdaniga to'laligicha o'tkazadi.

*Mehnat omili*, ayrim iqtisodiy adabiyotlarda shaxsiy-insoniy omil deb ham yuritiladi. Bu, eng avvalo, ishchi kuchi, uning mehnat qilish qobiliyatidir, ya'ni mehnatga layoqati, uning jismoniy, aqliy qobiliyatlari, bilim va saviyasi, mehnat malakasidir.

Shaxsiy omil, odatda, mamlakat aholisining mehnatga layoqatli, ya'ni uning 17—60 yoshgacha erkaklar va 17—55 yoshgacha ayollar bo'lgan qismini tashkil etadi. O'zbekistonda 2014-yil yanvar holatiga ko'ra mehnatga layoqatlilar soni 18 mln 517 ming 600 kishini tashkil qilgan, shundan 12 mln 850 ming kishi iqtisodiy faol aholi hisoblangan, shulardan 7 mln 20 ming erkaklar va 5 mln 829 ming kishi ayollardan iborat bo'lgan.

Ma'lumki, insonning mehnat qilish qobiliyatini uning shaxsidan ajratib bo'lmaydi. Shuning uchun ishlab chiqarish jarayonida inson o'z mehnati bilan qatnashar ekan, u shaxsiy-insoniy omil deb aytiladi.

Ish kuchi ham miqdor va sifat tavsiflariga egadir. Miqdor tavsifi jihatidan, ish kuchi ishga yaroqli mehnat resurslarida, sifat jihatidan esa ishlovchilarning bilimi, tajribasi, malaka-mahorati, madaniyati, ma'naviy qiyofasi kabi ko'rsatkichlarda namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham ishlab chiqarishning natijasi ko'p jihatdan ishlovchining sifat ko'rsatkichlariga bog'liq.

*Tadbirkorlik omili* — iqtisodiy adabiyotlarda alohida, o'ziga xos omil deb hisoblanadi. Bu omilning alohida o'ziga xosligi

shundaki, biz yuqorida ko‘rib o‘tgan ana shu mehnat omili deb qaralgan inson ishchi xodim o‘zining tashabbuskorligi, izlanuvchanligi, yangiliklar yaratishi, fidoyi bo‘lishi, kezi kelganda, tavakkalchilik qilib o‘z mehnatining yuqori darajadagi unumdorligiga va umuman, ishlab chiqarishning samaradorligiga erishishiga olib kela oladigan qobiliyatlarida ifodalanadi. Aslida, ishlab chiqarishning yuqorida bayon qilingan barcha omillari tadbirkorlik orqali harakatga keladi, yuqori samara beradi. Shuning uchun tadbirkorlik qobiliyatiga ega insonlarning qo‘llab-quvvatlanishi, e‘zozlanishi, rag‘batlantirilishi ishlab chiqarishning tez rivojlanishini va pirovard natijada iqtisodiy farovonlikni ta‘minlashga xizmat qiladi.

*Ekologik omil.* Bu omil to‘g‘risida iqtisodiy adabiyotlarda so‘nggi paytlarda ko‘proq yoziladigan va e‘tibor beriladigan bo‘ldi. Chunki har qanday ishlab chiqarish, eng avvalo, tabiat in‘om etgan ne‘matlardan, xomashyo va boshqa materiallardan iboratdir. Shuning uchun ishlab chiqarish har doim tabiatga tayanadi. Yer, suv, yerosti, yerusti boyliklari, o‘rmon va boshqalar ishlab chiqarishga tabiiy materiallar yetkazib beradi. Tabiat in‘omi bo‘lgan ne‘matlar ishlab chiqarish jarayonida qayta ishlanib, ulardan kerakli mahsulotlar olinadi. Tabiatda uchraydigan ashyolar yaratiladigan bo‘lgusi mahsulot uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Qishloq xo‘jaligida yersiz dehqonchilikni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ayniqsa, bizning mamlakatimizda yerdan suvsiz hech narsani undirib bo‘lmaydi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, tabiat ishlab chiqarishning umumiy shart-sharoitidir. Undagi har qanday o‘zgarishlar ishlab chiqarishga jiddiy ta‘sir etadi. Misol uchun, ekologiyaning buzilishi natijasida havo haroratining ko‘tarilishi yoki yog‘ingarchilikning ko‘p bo‘lishi, yerlarning sho‘rlanishi, magnit bo‘ronlari kabilar ishlab chiqarish sharoitiga va inson omilining ishlash qobiliyatiga ta‘sir ko‘rsatadi, bularning hammasi ekologik omil deb qaraladi.

Demak, yuqoridagilardan xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, biron turdagi mahsulot ishlab chiqarish uchun ishlab chiqarish omillarining hammasi kerak bo‘lar ekan. Shu bilan birga, bu omillardan qaysi biri — mehnatmi, kapitalmi, yermi, tadbirkorlikmi yoki ekologiyami asosiy o‘rin tutadi, mahsulot aynan shu omil bo‘lgani tufayli ishlab chiqariladi, deb ayta olmaymiz. Ishlab chiqarish jarayonida bu omillar bir-biri bilan bog‘liq holda biri ikkinchisini to‘ldirib, gohida bir-birining o‘rnini qoplaydi va ularning uzluksizligini ta‘minlagandagina ijobiy natija beradi. Biron aniq ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish omillarining belgilangan

ma'lum bir miqdori nisbati talab qilinadi. Bunda tadbirkorni ishlab chiqariladigan mahsulot miqdori qiziqtiradi. Texnika-texnologiya-ning ma'lum taraqqiyot darajasi, unga muvofiq mehnat unumdorligi ishlab chiqarish omillarining ma'lum kombinatsiyasi sharoitida shu omillar miqdori uchun mahsulotning optimal miqdoriga erishish mumkin.

#### **6.4. Ishlab chiqarishning umumiy va pirovard natijasi**

Ishlab chiqarish omillarining qo'shilishi tufayli sodir bo'lgan ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan mahsulot va ko'rsatilgan xizmatlar ishlab chiqarishning umumiy natijasi hisoblanadi. Ishlab chiqarishning maqsadidan kelib chiqib qaralsa, uning pirovard natijasi yaratilgan tovarlar va xizmatlar hajmi hamda ularning tarkibi va sifatida namoyon bo'ladi. Bu pirovard natija qanday darajada, miqdorda bo'lishi esa omillarning qanday shart-sharoit asosida qo'shilishiga ham bog'liq bo'ladi.

Agarda ishlab chiqarishda yaratilgan mahsulotni egasi o'zi iste'mol qiladigan bo'lsa, u natural mahsulot deyiladi. Mabodo, u mahsulotni ayirboshlash uchun bozorga chiqarib sotadigan bo'lsa, u tovar deb yuritiladi. Misol uchun, dehqon xo'jaligida yetishtirilgan pomidor, kartoshka va boshqa mevalarni o'z oilasi ehtiyoji uchun ishlatsa, bu holda u natural xo'jalik yuritgan bo'ladi. Agarda dehqon xo'jaligida yetishtirgan mahsulotlarni bozorda sotish uchun olib chiqsa, bunda u tovar ishlab chiqarayotgan, ya'ni tovar xo'jaligini yuritayotgan bo'ladi.

Ishlab chiqarishning umumiy natijasi moddiy shakli jihatidan, mahsulot va xizmatlardan, ya'ni ishlab chiqarish vositalari va iste'mol buyumlaridan iborat bo'ladi. Ishlab chiqarish, odatda, biror korxonada doirasida, shuningdek, butun mamlakat miqyosida olib boriladi. Ayrim ishlab chiqaruvchi yoki korxonada faoliyati natijasida yaratilgan mahsulot individual mahsulot, barcha jamiyat a'zolari iqtisodiy faoliyati natijasida yaratilgan mahsulot yalpi milliy mahsulot (YMM)ni tashkil etadi.

Ishlab chiqarishning samaradorligi har qanday ishlab chiqarish bilan shug'ullanayotgan tadbirkorning, korxonaning, qolaversa, jamiyatning asosiy maqsadi hisoblanadi. Samaradorlik esa ishlab chiqarish omillaridan naqadar to'g'ri va maqsadga muvofiq, tejab-tergab foydalanilayotganligiga bog'liq.

## **6.5. Mehnat unumdorligi va unga ta'sir etuvchi omillar**

Inson har doim farovon yashashga intilib kelgan. Buning uchun esa mahsulot-xizmatlarni ko'plab va sifatli ishlab chiqarish zarur. Resurslar kamyob bo'lganidan ularni tejab-tergab ishlatish kerak. Bu esa, o'z navbatida, mehnat unumdorligini oshirishni talab qiladi.

Ishlab chiqarishda mehnat omilidan foydalanish darajasi ishchining mehnat unumdorligi ko'rsatkichi orqali baholanadi. Ishlab chiqarish jarayonida sarflanadigan ish kuchini hisoblash uchun ish kuni yoki ish vaqti toifalaridan foydalaniladi. Ish kuni deb ma'lum bir ishchining o'z ish joyida, ishlab chiqarish jarayonida band bo'lgan vaqtiga aytiladi. Mehnat unumdorligi mahsulot va xizmatlar hajmini, ularni ishlab chiqarish uchun sarflagan vaqtiga nisbatan aniqlanadi. Mehnat unumdorligini oshirish ishlab chiqarish samaradorligining muhim omili hisoblanadi. Mehnat unumdorligini oshirish orqali jamiyatda mo'l-ko'llik, farovonlik, ijtimoiy barqarorlikka erishish mumkin. Mehnat unumdorligi alohida muhim iqtisodiy ko'rsatkich bo'lgani uchun uning o'sishiga ta'sir qiluvchi bir qancha omillar mavjud. Ana shu omillarning eng muhimi, bozor sharoitida uning taqdirlanishi, rag'batlantirilishi, ishlash uchun yaxshi qulay sharoitlar yaratib berilishidir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat tomonidan mamlakatimizda har bir ishlovchiga, tadbirkorga iqtisodiy-ijtimoiy, huquqiy muhitni yaratishga harakat qilinmoqda.

Mehnat unumdorligi insonning muayyan vaqt birligida ma'lum miqdorda mahsulot va xizmatlarni yarata olishidir. Masalan, bir ishchi bir soatda yoki bir ish kunida yoki bir yilda qancha sifatli mahsulot yaratgani yoki mahsulot birligini (masalan, 1 ta choynak, 1 ta eshik, 1 ta etik) ishlab chiqarish uchun qancha vaqt sarflagani bilan o'lchanadi. Mehnat turlari ham ko'p va uning natijasida har xil mahsulotlar yaratilgani uchun unga sarflangan vaqtni o'lchash ham qiyin. Shuning uchun mahsulotlar turlicha bo'lganidan ularni ishlab chiqarish uchun ketgan vaqtni taqqoslab bo'lmaydi. Shu sababdan mehnat unumdorligi yaratilgan mahsulotning qiymati asosida hisoblab aniqlanadi. Misolga qaytsak, 1 ta choynak 5000 ming so'm, 1 ta eshik 50000 so'm, 1 ta etik 100000 so'm turadi, demak, yaratilgan mahsulotning bahosi pulda ifodalanadi. Pulda hisoblangan mahsulotni ishlovchilar soniga bo'lsak, mehnat unumdorligi kelib chiqadi. Agar choynak ishlab chiqaruvchilar

10 kishi bo'lib, ular bir yilda 2000 ta choynak chiqarishgan bo'lsa, jami choynak 100000 so'mlik bo'ladi. Bunda har bir ishchi yiliga 10000 so'm ishlab olgan bo'ladi. Mehnat unumdorligi ( $U$ ) quyidagi formula orqali aniqlanadi. Bunda yaratilgan mahsulot ( $M$ ) ishlovchilar soniga ( $Q$ ) bo'linadi:

$$U = \frac{M}{Q} .$$

Agar har bir soat unumdorligini aniqlamoqchi bo'lsak, yaratilgan mahsulotni ( $U$ ) ishlangan soatlarga ( $T$ ) bo'lamiz:


$$U = \frac{M}{T} .$$

Masalan, 1 million soat ichida ish bajarilib, 50 million so'mlik mahsulot yaratilgan bo'lsa, bir soat mehnat unumdorligi 50 so'mga teng bo'ladi:

$$U = \frac{M}{Q} = \frac{50 \text{ mln so'm}}{1 \text{ mln soat}} = 50 \text{ so'm} .$$

Mehnat unumdorligiga quyidagi omillar ta'sir etishi mumkin:

1. Ishlab chiqarishning texnik-texnologik jihozlanganlik darajasi. Foydalanilayotgan texnika va texnologiyalar qanchalik yangi, mukammal bo'lsa, mehnat unumdorligi ham shunchalik yuqori bo'ladi.
2. Inson omilining sifati, ya'ni ishlovchilarning bilim darajasi, ish malakasi qanchalik yuqori bo'lsa, ularning mehnat unumdorliklari ham shunchalik yuqori bo'ladi.
3. Ishlab chiqarishning tabiiy sharoiti qanchalik yaxshi bo'lsa, mehnat unumdorligi ham shunchalik yuqori bo'ladi. Tabiiy sharoitni inson o'zgartira olmaydi, ammo texnika va texnologiyalarni takomillashtirish orqali noqulay tabiiy sharoitda ham mehnat unumdorligini oshirish mumkin. Iqtisodiyotda mehnat unumdorligining muttasil o'sib borishi degan obyektiv xarakterga ega bo'lgan qonun bor, shunga ko'ra, resurslarning cheklangan bo'lishiga qaramay, ishlab chiqarilgan mahsulot ko'payib boradi. Mehnat unumdorligi va unga ta'sir etuvchi omillar quyidagi chizmada keltirilgan:



## 6.6. Iqtisodiy xarajatlar tushunchasi

Iqtisodiy xarajatlar deb tadbirkorlar tomonidan moddiy resurslar sotib olish, ish haqi, sug'urta va boshqa har xil ijtimoiy ajratmalar uchun qilingan sarflarga aytiladi. Har qanday ishlab chiqarish korxonasi yoki xizmat ko'rsatuvchi firma foyda olish maqsadida pul sarflaydi. Bu pul shu korxonaning o'z mablag'i yoki bankdan olgan kreditidan iborat bo'lib, ular asosiy va aylanma kapitalni tashkil etadi, ya'ni asosiy va aylanma fondlari deb yuritiladi. Asosiy kapital — bino-inshoot, mashina-uskunalarga sarflanadi va ular, odatda, uzoq muddat xizmat qiladi.

Xizmat qilish davri davomida ular o'z qiymatini har yili qisman yangidan yaratilgan mahsulotlarga o'tkazib boradi. So'ngra bu mahsulotlar bozorda sotilgach, shu qism pul shaklida yana korxonaga, firmaga qaytib keladi va u amortizatsiya deyiladi. Misol uchun, tikuvchilik fabrikasining asosiy kapitali hisoblangan tikuv mashinasi 500 ming so'm turadi va 5 yil xizmat qiladi. Har yili uning yordamida 50 mingta ko'ylak tikiladi, bu ko'ylakning narxi 2,5 million so'm, shundan 100 ming so'm tikuv mashinasining amortizatsiyasi hisoblanadi va u tikuv mashinasi narxiga nisbatan


20 % ni tashkil etadi  $\left(\frac{100}{500} \cdot 100\right)$ .

Ma'lumki, ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan resurslar (xomashyo, yoqilg'i, elektr energiya va boshqa har xil materiallar)



### 6.7. Xarajatlarning tarkibi, qisqa davrdagi ishlab chiqarish xarajatlari

Xarajatlar ikki guruhga bo'linadi, birinchisini ishlab chiqarish xarajatlari va ikkinchisini muomala xarajatlari deyiladi. Ishlab chiqarish xarajatlari tovar ishlab chiqarish uchun kerakli bo'lgan barcha resurslarni olish uchun ketgan mablag'lardan iboratdir. Muomala xarajatlari esa har xil xizmatlardan, ya'ni tovarlarni sotish, ishchilarni o'qitish, moliyaviy ishni yuritish, maslahat berish kabi xizmatlarni ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlardan iborat bo'ladi.



Chizmadan ko'rinib turibdiki, korxonalar o'z faoliyatini yuritish uchun har xil xarajatlar qilgan ekan. Bu xarajatlarni tashqi va ichki xarajatlarga bo'lib ham o'rganiladi. Tashqi xarajatlarga ish kuchi, xomashyo, yoqilg'i, energiya sotib olish, transport, aloqa va boshqa xizmatlar uchun, shuningdek, soliqlarga to'langan pul kiradi. Ichki xarajatlarga korxonalar binolari, asbob-uskunalar, ijara haqi va boshqalar uchun qilingan sarflarning hammasi kiradi. Bundan tashqari, korxonalar ijara haqi, banklardan olgan kreditlari uchun foiz ham to'laydi. Korxonaning xarajatlari o'zining kelib chiqish manbalariga qarab har xil sarflardan iborat bo'lib, tarkibiy tuzilishiga ko'ra, ular ishlab chiqarishning omillari bilan bog'liq. Ishlab chiqarish jarayonida esa doimiy va o'zgarib turadigan ikki asosiy omil ishtirok etadi. Doimiy omilga bino, inshootlar, mashina va boshqa asbob-uskunalar kiradi. O'zgaruvchan omillarga ishlab chiqarish jarayonida o'z shaklini o'zgartirib, o'z qiymatini birdaniga yangi yaratilgan tovarlarga to'laligicha o'tkazadigan ish kuchi, xomashyo,

yoqilg'i, elektr energiya va boshqa har xil materiallar kiradi, natijada ishlab chiqarish hajmi, mahsulot shakli ham o'zgarishi mumkin, shuning uchun u o'zgaruvchan omil deyiladi. Shundan kelib chiqib, omillarning har xil bo'lishiga qarab doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar deb aytiladi. Ishlab chiqarishda qatnashib, o'z miqdorini o'zgartirmaydigan xarajatlar doimiy xarajatlar deyiladi.

Bulardan tashqari, yana shunday xarajatlar ham borki, ularning miqdori korxonaning faoliyatiga bog'liq bo'lmaydi va korxonaning ishlash-ishlamaganligidan qat'i nazar mavjud bo'ladi, korxonalar ularni qoplashga majbur. Bu xarajatlarga renta to'lovlari, ko'chmas mulk solig'i, ijara uchun to'lov, bank krediti foizi, reklama haqi, garov puli, amortizatsiya ajratmasi, sug'urta to'lovi kabilar kiradi.

Ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi bilan bevosita bog'liq ravishda miqdori o'zgarib turuvchi xarajatlar o'zgaruvchan xarajatlar deb yuritiladi. Bu xarajatlarga ish haqi, xomashyo, yoqilg'i, transport va boshqa har xil materiallar xarajatlari kiradi, shuning uchun bu xarajatlar ishlab chiqarish hajmi ortsa, o'zgaruvchan xarajatlar ham ortadi, qisqarsa, kamayadi. Masalan, tikuvchilik korxonasi 10 million so'mlik ko'ylak ishlab chiqarish uchun 7 million so'm sarf qildi. Shundan 3 million so'm gazlama, 1 million so'm ip va tugma, 1 million so'm elektr energiyasi uchun sarf qilindi. Qolgan 2 million so'm tikuv mashinalari va boshqa uskunalar amortizatsiyasi, ijara haqi va soliqlardan iborat bo'ldi. Korxonalar ko'ylak tikib chiqarishni 20 % oshirib, mahsulot hajmini 12 million so'mga yetkazdi. Buning uchun qo'shimcha ravishda gazlama uchun 600 ming so'm, ip va tugma uchun 200 ming so'm, elektr energiyasi uchun 200 ming so'm sarfladi. Ammo bu ish uchun ijara haqi, mashina-uskunalar xarajati oshirilishi zarur bo'lmaydi.

Korxonalarining doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarining yig'indisi uning umumiy xarajatlarini tashkil qiladi. Korxonaning umumiy xarajatlardagi o'zgarishlar, birinchi navbatda, o'zgaruvchi xarajatlar bilan bog'liq kelib chiqadi.

Har bir iqtisodiy faoliyatda xarajatlarning samarasi muhim ahamiyatga ega. Agar xarajatlarga nisbatan yaratilgan mahsulotlar tezroq o'ssa, ish samarali hisoblanadi. Shu sababli, korxonalar uchun o'rtacha xarajatlarning ahamiyati katta. O'rtacha xarajat deb har bir mahsulot birligiga sarflangan xarajatga aytiladi. O'rtacha xarajatlarni ( $W_o$ ) topish uchun umumiy xarajatlarni ( $W_u$ ) mahsulot

miqdori ( $Q$ )ga bo'lamiz  $\left( W_o = \frac{W_u}{Q} \right)$ . Misol uchun, tikuvchilik

fabrikasi 5 million so‘m sarflab, 1000 ta ko‘ylak tikib chiqardi. Bunda 1 ta ko‘ylak o‘rtacha 5 ming so‘mga tushdi:

$$W_0 = \frac{5000000}{1000} = 5 \text{ ming so‘m.}$$

Demak, 1 ta ko‘ylak tikish xarajati 5 ming so‘mni tashkil etgan va bu ko‘rsatkich o‘rtacha xarajat hisoblanadi.

### 6.8. Me‘yoriy xarajatlar

Har bir korxonada xarajatlarni minimallashtirish, foydani maksimalashtirishga harakat qiladi. Buning uchun korxonada hisob-kitob qilib chiqadi va qanday qilib xarajatlarni kamaytirib, ko‘p miqdorda mahsulot ishlab chiqarish mumkinligini izlaydi hamda qancha mahsulot ishlab chiqarilsa, maksimal darajada foyda olish mumkinligini aniqlaydi. Bu me‘yoriy xarajatlar yordamida aniqlanadi. Me‘yoriy xarajat deganda qo‘shimcha ravishda mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun ketgan qo‘shimcha xarajatga aytiladi.

Me‘yoriy xarajatni ( $W_m$ ) bilan belgilaymiz va uni aniqlash uchun xarajatni ( $\Delta W$ ) deb olib, uni mahsulot o‘shishi ( $\Delta M$ )ga bo‘lamiz, natijada quyidagi formula kelib chiqadi:

$$W_m = \frac{\Delta W}{\Delta M},$$

bu yerda,  $\Delta W$ —xarajat o‘shishi;  $\Delta M$ — mahsulot o‘shishi.

Misol keltirsak, korxonada 100 dona ko‘ylak ishlab chiqarish uchun 500000 so‘m xarajat qilgan edi. Bunga qo‘shimcha yana bitta ko‘ylak, ya‘ni 101-ko‘ylak chiqarilganda xarajati 1012 so‘mga yetdi. Buni quyidagi formulada aniqlaymiz:

$$W_m = \frac{1012 - 1000}{101 - 100} = \frac{12}{1} = 12 \text{ so‘m.}$$

Demak, qo‘shimcha 1 dona mahsulot uchun korxonada 12 so‘m xarajat qilgan. Shu summa me‘yoriy xarajat hisoblanadi. Me‘yoriy xarajatlar korxonada unumdorlik o‘shishiga qarab, dastlab pasayib boradi, lekin unumdorlikni o‘stirish imkoni ma‘lum chegaraga ega. U o‘z chegarasiga yetgach, xarajatlarning o‘shishi boshlanadi. Misol uchun, 5 dona ko‘ylak uchun me‘yoriy xarajatlar 349—320=29 ming so‘mni tashkil etsa, 9-mahsulot uchun 73 ming so‘m (553—480), 10-mahsulot uchun 103 ming so‘m (656—553) ga yetgan. Ko‘rinib turibdiki, me‘yoriy xarajatlar ortib boryapti,

o'z navbatida, bu o'rtacha xarajatlarning ham ortishiga olib keladi. Bu yerda korxonalar tikayotgan ko'ylak miqdorini nechtaga yetkazganda maksimal foyda olishni aniqlash kerak bo'ladi. Korxonalar iqtisodchilari buni hisoblab chiqib, shunday xulosaga kelishgan. Qo'shimcha jalb etilgan omil olib kelgan daromad, uni olish uchun qilingan xarajatlardan oshib ketmasligi kerak ekan.

Yuqoridagi misollardan xulosa qilib aytish mumkinki, har bir qo'shimcha omil keltirgan daromad ularning bozor narxiga teng bo'lishi, ya'ni qo'shimcha jalb etilgan ishchilarning keltirgan daromadi ularga to'langan ish haqiga, qo'shimcha jalb etilgan kapitalni ishlatish evaziga olingan daromadning shu kapital sotib olish narxiga teng bo'lishi kerak.

Bunday tenglik holatdan ma'lum qonuniyat kelib chiqadi: ishlab chiqaruvchi maksimal foyda olish uchun me'yoriy xarajatlarni qiladi va evaziga olingan qo'shimcha daromad, me'yoriy daromadni tashkil qiladi va u shu omilning bozor narxiga teng bo'lishi kerak. Korxonalar ko'proq mahsulot ishlab chiqarish uchun qo'shimcha omillarni: yer, mehnat, texnika, asbob-uskuna, xomashyo va boshqalarni jalb qilib xarajatlarni ko'paytirish evaziga olingan qo'shimcha daromad, shu omillarni sotib olishga qilgan xarajatiga teng bo'lishi kerak.

Iqtisodiyot nazariyasi tomonidan aniqlangan bu qoidaga amal qilish ishlab chiqarishning samarali tashkil etilishini, ishlab chiqarish omillaridan tejib-tergab foydalanish zarurligini asoslaydi.

### **6.9. Foyda mazmuni, foyda me'yori va massasi**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida hech bir korxonalar yoki tadbirkorlar foyda bermaydigan ishga sarf-xarajat qilmaydi. Har qanday tadbirkorlik, albatta, ma'lum xarajatlarni qilishni taqozo etadi va u foyda ko'rishning asosiy vositasi hisoblanadi. Foyda iqtisodiy toifa sifatida iqtisodiy munosabatlarga kirishayotgan kishilarning asosiy maqsadi bo'lib, unga erishish uchun ishbilarmonlik qobiliyati va ma'lum moddiy mablag'larini sarflab, xatarli ishga qo'l urgani uchun tadbirkorlarga tegadigan mukofot hisoblanadi.

*Foyda* — moddiy jihatdan yaratilgan qo'shimcha mahsulotning korxonalar o'zlashtirgan qismi. Chunki qo'shimcha mahsulotning hammasi ham foyda shaklini olavermaydi, u boshqa ijtimoiy ko'rinishlarga ham kiradi. Odatda, bozor iqtisodiyoti sharoitida foyda faqat pul shaklida bo'ladi, u iqtisodiyotda ishlovchi subyektlarning umumlashgan iqtisodiy natijasi, iqtisodiy faoliyat mezonini va pirovard maqsadidir.

Foyda shunday murakkab iqtisodiy ko'rsatkichki, uning vujudga kelishi, taqsimlanishi va iste'mol qilinishi iqtisodiyotda bir qancha omillar bilan bog'liq. Ular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin: mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlarini, ya'ni ishlatilgan xomashyo, yoqilg'i, texnika-texnologik liniyalar qiymati, ishchi mutaxassislar uchun to'langan ish haqi kabilar. Foyda massasiga yana tejamli va chiqindsiz texnologiyalar qo'llash, tadbirkorlik salohiyati, ilg'or ish va boshqaruv usullarini qo'llash kabilar ham ta'sir etadi. Xulosa qilib aytganda, foyda korxonalar faoliyatining haqiqiy iqtisodiy samarasidir.

Foyda bozor iqtisodiyotining toifasi, tovar ishlab chiqaruvchilarning oliy maqsadi. Ayni chog'da, u juda keng ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tushunchasi hamdir. Firma fondlarini kengaytirish, sifat jihatdan yangilash, xodimlarning rag'batlantirilishi, dam olishi, davolanishi, tabiiy va sog'lomlashtirish markazlarining mavjudligi va ishlashi, bolalar bog'chalari va tarbiya muassasalarining ta'minoti foyda bilan bog'liq. Shuningdek, foyda davlat budjetiga tushumlar, to'lovlar, xayriya fondlari, kredit foizlari, xarajatlarni qoplash kabi maqsadlarga yo'naltiriladi.

Foyda g'oyat boy mazmun va tuzilishga ega bo'lgan iqtisodiy toifaki, davlat va jamiyat hayotining barcha jihatlarida u bilan bog'liq munosabatlar vujudga keladi. Shuning uchun uning shakllanish manbalari yoki uning turlari haqida tasavvurga ega bo'lish maqsadga muvofiqdir. Foydaning turlari quyidagilardir:

1) mahsulot sotish (xizmat ko'rsatish)dan olingan yalpi foyda. Uning miqdori mahsulot bahosi bilan ishlab chiqarish xarajatlari o'rtasidagi farq bilan belgilanadi;

2) asosiy faoliyatdan olingan foyda (qarzdordan undirib olingan jarimalar, penyalari, joriy yilda aniqlangan o'tgan yillar foydasi, yordamchi xo'jaliklardan tushgan daromadlar, korxonalar mulkini sotishdan tushgan daromad kabilar);

3) moliyaviy faoliyatdan olingan foyda (sho'ba korxonalar va uyushmadagi korxonalardan olingan dividendlar, ularga berilgan qarzlarni yuzasidan olingan foizlar, sarmoya qilingan mablag'larni qayta baholashdan olingan foyda kabilar);

4) favqulodda olingan foyda (ko'zda tutilmagan, odatdagi xarakterda bo'lmagan korxonalar faoliyatidan chetga chiqadigan harakat natijasida tushgan daromadlar).

Bozor iqtisodiyoti sharoitida foyda olmaydigan korxonaning istiqboli yo'q. U xonavayron bo'ladi. Bozor iqtisodiy tizimida iqtisodiyot sohasining har bir subyekti o'rtacha (normal) foyda olib

ishlashi lozim. Bunday foyda firmaning saqlanib qolishiga ma'lum dastak bo'lishi mumkin. Agar firma arzon xomashyo, ish kuchi, zamonaviy texnologiya, qulay sotish bozori, foiz stavkasi pastroq kredit va boshqa qulay tabiiy, iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo'lsa, foydani ko'p olishi ham mumkin. Agar firma monopol, ya'ni faqat unga tegishli qulay imkoniyat egasi bo'lsa, u monopol foyda ham o'zlashtiradi. Bunday korxonalar ham oddiy foyda, o'rtacha foyda, ortiqcha foyda, ham monopol foydani o'zlashtiradi. Masalan, biron mahsulotni faqat bir o'zi chiqarsa yoki tabiiy cheklangan imkoniyatga ega bo'lsa, faqat shunday firma monopol foyda egasi bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida firma tovarlarni shunchaki ishlab chiqaruvchi emas, balki tijorat faoliyati bilan ham shug'ullanishi mumkin. Albatta, tijorat ishi har qanday iqtisodiy faoliyat kabi ma'lum chiqimlar bilan bog'liqdir. U tovarlarni tashish, saqlash, sug'urtalash, bezash, reklama qilish, bozorlarni ko'rish yoki idoraga xarajatlar qilish maqsadlariga ham pul sarflaydi. Bu xarajatlar tijorat xarajatlari deb ataladi. Bu xarajatlar ham tovar baholari orqali qoplanishi va tijorat foydasi keltirishi kerak. Hozirgi sharoitda tijorat daromadi ham bozor subyektlarining daromad shakli bo'lib, uning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Bozor iqtisodiyotida faqat o'z mablag'i, sarmoyasi bilan tiklanish yoki rivojlanish juda qiyin masala. Firmaning normal faoliyati, o'z o'rnini saqlab qolishi va rivoj topishi kuch jihatdan kredit (qarz) mablag' bilan ham kafolatlanadi. Albatta, kredit tovar bo'lgani uchun ham u tekinga berilmaydi, u ma'lum haq evaziga, ma'lum foiz to'lash sharti bilan beriladi. Biroq kredit olishdan maqsad korxonalar faoliyatini yaxshilash, qo'shimcha mahsulotni ko'paytirish vositasidir. Kredit olgan korxonalar foydani bir qismini bank foizi uchun to'lasa, qolgan qismi uning sohibkorlik, tadbirkorlik daromadi bo'ladi. Foiz qarzga olingan sarmoya uchun to'langan haq bo'lsa, kredit berilgan korxonalar uchun daromadning bir manbayidir.

Shuni aytish kerakki, bozor iqtisodiyoti firmalar uchun ham iqtisodiy faoliyat turlarini kengaytiradi, cheklamaydi. Uning faoliyatini diversifikatsiyalash (ko'p tarmoqli qilish) imkoniyatini yaratadi. Zero, bozor iqtisodiyotining kuchli unsuri bo'lgan raqobat kurashi diversifikatsiyalashni taqozo etadi. Buning ma'nosi shundaki, diversifikatsiya sharoitida korxonalar daromad olish yoki o'zini raqobatdan himoya qilish qudratini yaratadi. Natijada daromad, foyda olishning shakllari ham ko'payadi.

Foyda ham jamiyat miqyosida (makroiqtisodiyot darajasida) ham, korxonalar (mikroiqtisodiyot darajasida) ham jamg'arish fondini

tashkil etishda manba bo'lib xizmat qiladi. Jamg'arish esa iqtisodiy o'sish, ravnaq topish manbayi bo'lishi bilan birga bozor raqobat-chiligi sharoitida korxonani himoyalashning asosiy omilidir. Foyda tushunchasi ayrim olingan yakka subyekt uchun ham taalluqli ekanligini unutmash kerak.

*Foydani maksimallashtirish va zararni minimallashtirish shart-sharoitlari.* Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonada faoliyatining samarali bo'lishi shartlaridan biri — bu uning shunchaki foyda olishini ta'minlashgina emas, shu bilan birga olinayotgan foyda masalasini maksimallashtirish (ko'paytirish)dir. Umumiy tarzda qaraganda foydani maksimallashtirish ko'riladigan zararni minimallashtirish (eng kam zarar ko'rish) bilan bog'liq.

Foyda korxonaning raqobatbardoshligini oshirib borishning moliyaviy manbalaridan eng muhimidir. Shunday ekan, bu masala korxonada jamoasining diqqat markazida turishi lozim. Foydani maksimallashtirishi shart-sharoitiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- korxonada o'z mahsulotining tannarxini uzluksiz pasaytirib borishiga harakat qilishi, ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini kamaytirishi hamda boshqa omillarni safarbar qilishi demakdir. Buning uchun xomashyo materiallari va boshqa mehnat ashyolarining arzon turlaridan foydalanish, ularni tejaydigan va chiqindi qilmaydigan texnologiyalarni jalb etish;

- imtiyozli kreditlar olishga erishish va kreditni o'z vaqtida belgilangan foiz bilan qaytarish;

- sifatsiz, qoloq, jahon standartlari, xalqaro bozor talabiga mos bo'lmagan tovarlar ishlab chiqarishga yo'l qo'ymaslik;

- eksportbop tovarlar ishlab chiqarishga to'la moslashish, ichki va tashqi bozor talablarini to'la hisobga olish asosida ish ko'rish;

- korxonada mahsulotlariga oldindan buyurtma olish asosida ishlashni ta'minlash;

- o'zaro tovar yetkazib berish shartnoma va bitimlarini to'la va o'z muddatida bajarishga erishish;

- mutaxassis va xodimlarni rag'batlantirib borish asosida ularning manfaatdorligi hamda mas'uliyatlarini oshirish kabilar.

Amaliy xo'jalik hayotida shunday ham bo'ladiki, korxonada faoliyatida foyda bilan chiqish mumkin, biroq uni to'g'ri tasarruf eta bilmaslik, xo'jalik yuritishda katta xatolarga yo'l qo'yish oqibatida korxonada ixtiyorida sof foyda qolmasligi mumkin. Masalan, korxonada yil yakuniga ko'ra 10 mln so'm foyda oldi deylik, biroq korxonada olingan buyurtmani bir oy kechiktirib

bajargani uchun 5 mln so‘m buyurtmachi zararini qoplash talab etildi. Shuningdek, bankdan olingan kreditni qaytarish muddatini 2 oyga cho‘zib yuborish hisobiga 3 mln so‘m miqdorida tovon to‘lash talab etildi. Demak, olingan foydaning 8 mln so‘mi samarasiz ketdi. Bunday holat korxonaga jamoasining bir yillik ijobiy ish faoliyati samarasiz bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Korxonaga diqqat markazida turadigan ikkinchi muhim masala ko‘riladigan zararni eng kam darajaga tushirish yoki zarar ko‘rishga yo‘l qo‘ymaslikdir. Zarar ko‘rishni minimallashtirish uchun eng muhim omil rahbar va xodimlarning iqtisodiy savodxonligiga erishishdir. Zero, har bir ishlovchi moliyaviy zarar ko‘rishining salbiy oqibatlarini chuqur idrok eta olishi lozim.

Foydaning, asosan, ikki turi bor: *me‘yoriy foyda* va *iqtisodiy foyda*. Me‘yoriy foyda tabiatan tadbirkorlik faoliyati uchun olinadigan haq hisoblanadi va xarajatlar tarkibiga kiradi. Chunki tovarlar eng past narxda, ya‘ni xarajatga teng narxda sotilganda ham tadbirkor me‘yoriy foydani oladi. Iqtisodiy yoki sof foyda deb miqdoran tovar va xizmatlarni sotishdan tushgan pul, ya‘ni daromad bilan xarajatlar o‘rtasidagi farq tushuniladi. Iqtisodiy foydani tadbirkor va uning sheriklari oladi.

$$\boxed{\begin{array}{c} \text{Iqtisodiy (sof)} \\ \text{foyda} \end{array}} = \boxed{\begin{array}{c} \text{Pul, tushum} \end{array}} - \boxed{\begin{array}{c} \text{Xarajatlar} \end{array}}$$

Sof foyda korxonaga faoliyatining umumlashgan ko‘rsatkichi hisoblanadi. Demak, korxonaga olgan sof foydasiga qarab, uning ishiga baho beriladi.

Foydaning iqtisodiy faoliyat turlariga ko‘ra, ishlab chiqarish, tijorat turlarini ko‘rsatish mumkin. Savdo-sotiq ishlarida tijorat foydasi bilan birga omad foydasi ham bor bo‘lib, u, odatda, bozordagi narxlarning o‘zgarishi tufayli olinadi. Misol uchun, bozordan bir firma yanvar oyida 10 dona muzlatgichning har bir donasini 1 million so‘mdan sotib oldi. May oyiga kelib muzlatgichning narxi 1 mln 500 ming so‘mga ko‘tarildi. Demak, firma 5 mln so‘m foyda ko‘rdi, chunki muzlatgichning narxi kutilmaganda ortib ketishi omad foydasini berdi. Lekin omad foydasi doim ham kelavermaydi. Korxonalar, avvalo, o‘z faoliyatidan daromad topish va foyda olish uchun harakat qilishi zarur.

Hamma tadbirkorlar ham foydani ko‘paytirishga harakat qilishadi va ishlab chiqarishni kengaytirib, ko‘proq tovarlar ishlab



chiqaradilar, ko'rsatilayotgan xizmatlarni ham yanada rivojlantiradilar. Natijada, me'yoriy daromad ortib boradi deb o'ylaydilar. Lekin bu bilan daromad va foyda har doim ham ortib boravermaydi. Chunki iqtisodiyotda shunday qoida borki, foyda miqdori narxga nisbatan to'g'ri mutanosiblikda, xarajatlarga nisbatan teskari mutanosiblikda o'zgaradi. Bu qoidaga binoan tadbirkor foydani ko'paytirish uchun tovarlarni yuqori narxda sotishi kerak. Buning uchun esa innovatsiyalar asosida yangi bozorbop, xaridorlar talabiga mos tovarlarni ishlab chiqarishi va albatta xarajatlarni kamaytirishga erishmog'i kerak.

Xarajatlarni kamaytirishning asosiy yo'li — bu mehnat unumdorligini o'stirishdir. Mehnat unumdorligi xarajatlarni kamaytiradi va foydani oshiradi, shuning uchun u foydani oshirishning asosiy omili deyiladi.

Iqtisodiyotda moliyaviy natija degan tushuncha mavjud bo'lib, u tadbirkorlik faoliyatida qilingan xarajat, qancha foyda keltirganini bildiradi. Shu boisdan iqtisodiyotda foydalilik yoki rentabellik deb ataladigan ko'rsatkichlar ham mavjud. Korxonaning rentabelligini aniqlash uchun olingan foyda qilingan xarajatlar bilan taqqoslanadi va xarajatlar birligiga qancha foyda to'g'ri kelishi ma'lum bo'ladi.

Tadbirkorlar uchun foydaning mutlaq miqdori eng muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Foydaning mutlaq miqdori, odatda, korxonaning rentabellik darajasiga, qo'yilgan kapital miqdoriga va uning aylanish tezligiga bog'liq. Demak, rentabellik qanchalik yuqori bo'lsa va qo'yilgan kapital qanchalik ko'p bo'lsa, foydaning mutlaq miqdori ham shunchalik ko'p bo'ladi. Rentabellik tadbirkor korxonasi kapitalining naqadar samarali ishlatilishini ko'rsatsa, foyda miqdori esa uning iqtisodiy salohiyatini ko'rsatadi.

#### **6.10. Foydaning taqsimlanishi va ishlatilishi**

Foyda, avvalo, uni topishda kim qancha hissa qo'shganiga qarab taqsimlanadi. Foydaning taqsimlanish jarayoni korxonaning ishlab chiqarish, muomala jarayonlari bilan parallel ravishda amalga oshirib boriladi. Bunda ishchilar o'z mehnatlariga yarasha ish haqiga qo'shimcha va mukofotlar tarzida, korxonaga egalari o'z kapitali, agar korxonaga hissadorlik jamiyati shaklida bo'lsa, hissadorlik dividendi shaklida, tadbirkorlar esa ishbilarmonligi bilan foydaning ko'payishiga qo'shgan hissasiga muvofiq ravishda taqsimlab oladilar.

Tadbirkorlik korxonasining muvaffaqiyatli ishlashi foydaning bir qismini sarmoya qilib borishni talab qiladi. Sarmoya bilan

korxonalar o'z ishlab chiqarishini kengaytiradi. Asosiy kapitalini yangilash, modernizatsiya qilish ishlab chiqarayotgan tovarlar sifatini yaxshilashga, xaridorlarning o'sib borayotgan didi, talabini qondirishga, natijada bozorda raqobatbardosh bo'lishga olib keladi. Demak, sarmoya qilishdan maqsad foyda ko'rish va uni yanada ko'paytirib borishdan iborat.

Tadbirkor foyda miqdorini kamaytirmaslik uchun foyda me'yori pasaygan chog'da olingan foydani qaytadan pul topish uchun qo'yishi kerak, bu reinvestitsiya deyiladi. Reinvestitsiya qo'yilgan kapital summasini oshirish orqali foyda miqdorini kamaytirishga yo'l qo'ymaydi.

#### **6.11. Zarar ko'ruvchi korxonalar, zarar ko'rishning me'yori, korxonalarning bankrot bo'lishi**

Bozor raqobati sharoitida o'z faoliyatida zarar ko'radigan korxonalar ham uchrab turadi. Zarar ko'rishning ikki asosiy sababi bor:

1. *Ichki sabablar* — bu korxonaning o'ziga bog'liq bo'lib, u xarajatlarini oshirib yuborishi, bozor talabiga javob bera olmaydigan sifatsiz tovarlar ishlab chiqarilishi, narxning nisbatan yuqori bo'lishi, tovarlarini o'z vaqtida bozorga yetkazib bera olmasligi kabilardan iboratdir. Natijada korxonalar tovarlariga bozorda talab kamayib boradi, tovarlarning narxi tushib ketadi, bu, o'z navbatida, uning daromadini qisqartiradi. Daromadning qisqarishi natijasida korxonalar o'z xarajatlarini qoplay olmay qoladi. Demak, birinchi sababga ko'ra, korxonalar tovarlari narxining pasayishi hisoblanadi, chunki, odatda, korxonalar o'z xarajatlarini nazorat qila olishlari va ularni biroz kamaytira olish imkoniyatiga egadirlar. Lekin ular bozordagi narxlarga ta'sir ko'rsata olmaydilar, narx bozorning o'z qoidalari, talab-taklif kabi qonunlari ta'siri ostida shakllanadi.

2. *Tashqi sabablar* — bu, avvalo, korxonalar ixtiyorida bo'lmay, bir qator omillardan iboratdir:

a) bozordagi holatning tez-tez o'zgarib turishi, ya'ni resurslarning narxi bozorda oshib ketishi korxonalar xarajatlarini oshiradi;

b) korxonalar to'laydigan soliqlarning oshib ketishi, ya'ni davlat tomonidan soliqlar oshirilsa, korxonalar xarajatlari ham oshadi;

d) korxonalar beriladigan tashqi yordamning to'xtab qolishi, ya'ni korxonalar birorta homiy yordam bermoqda edi va u to'xtatildi.

Bu kabi sabablar korxonalar tomonidan ishlab chiqilgan tovarlarga bozordagi narx oshmasa, u o'z xarajatlarini qoplay olmay qoladi.

Natijada korxonada qoplanmaydigan xarajatlar paydo bo'ladi va bu zarar hisoblanadi.

Bizga ma'lumki, korxonada xarajatlari doimiy va o'zgaruvchan xarajatlardan iborat bo'ladi va ularning qoplanishi ham bir xil bo'lmaydi. Doimiy xarajatlar, hatto korxonada ishlamay turganda ham ketaveradi. O'zgaruvchan xarajat esa to'xtaydi. Korxonada doimiy xarajatini qarz olish orqali ham qoplab yuborishi mumkin bo'lsa, u ishlab chiqarishni davom ettirib, o'zgaruvchan xarajatlarni qoplay olsa, korxonada bankrot bo'lishdan saqlanib qolishi mumkin. Lekin korxonada zarari me'yordan oshib ketsa, u aniq bankrot bo'lib tugatiladi.

O'zbekiston Respublikasining «Bankrotlik to'g'risida»gi Qonuniga ko'ra, «Bankrotlik— firmaning ixtiyoridagi o'zining moddiy va pul mablag'lari uning boshqalar oldidagi to'lov majburiyatlarini berishga yetmay qolishi natijasida yopilib ketishidir» deb ta'riflangan.

#### ASOSIY TAYANCH IBORALAR

- Iqtisodiy faoliyat;
- ishlab chiqarish;
- moddiy ne'matlar ishlab chiqarish;
- nomoddiy ishlab chiqarish;
- ishlab chiqarishning to'ndustrial bosqichi;
- industrial bosqich;
- postindustrial bosqich;
- iqtisodiy faoliyat fazalari;
- ishlab chiqarish;
- ayirboshlash;
- taqsimot;
- iste'mol;
- ishlab chiqarish omillari;
- yer;
- kapital;
- mehnat;
- tadbirkorlik;
- ekologiya;
- ishlab chiqarishning umumiy va pirovard natijasi;
- mehnat unumdorligi;
- iqtisodiy xarajatlar;
- asosiy va aylanma kapital;
- asosiy va aylanma fondlar;
- foyda, foyda me'yori va massasi;
- foydani maksimallashtirish;
- foydaning taqsimlanishi;
- zarar;
- zarar me'yori;
- bankrotlik.



#### TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Iqtisodiy faoliyat nima?
2. Ishlab chiqarishni qanday tushunasiz?
3. Moddiy ne'matlar ishlab chiqarish jarayonini aytib bering.
4. Nomoddiy ishlab chiqarishni qanday tushunasiz?
5. Ishlab chiqarishning to'ndustrial bosqichini tushuntirib bering.
6. Industrial bosqichni ta'riflang.
7. Postindustrial bosqichni tushuntiring.

8. Iqtisodiy faoliyat fazalari deganda nimani tushunasiz?
9. Ishlab chiqarish fazasining vazifasi nima?
10. Ayirboshlash fazasining vazifasi nima?
11. Taqsimot fazasining vazifasi nimadan iborat?
12. Iste'mol fazasining vazifasini bayon eting.
13. Ishlab chiqarish omillariga nimalar kiradi?
14. Kapital omilini tushuntirib bering.
15. Mehnat omili nima?
16. Tadbirkorlik omilini tushuntiring.
17. Ekologiya omilini ta'riflang.
18. Ishlab chiqarishning umumiy va pirovard natijasini aytib bering.
19. Mehnat unumdorligini tushuntirib bering.
20. Ishlab chiqarish xarajatlari nima?
21. Ishlab chiqarish xarajatini nazariy va buxgalteriya nuqtayi nazaridan tavsiflang.
22. Doimiy, o'zgaruvchan va yalpi xarajatlar bir-biridan qanday farqlanadi?
23. Muomala xarajatlar qilish zarurati nima bilan belgilanadi?
24. Tannarx nima va uni tarkiban aniqlashning zarurati nimada?
25. Ishlab chiqarish fondlari nima? Ularning asosiy va aylanma fondlarga bo'linishining sababini tushuntiring.
26. Korxonalarining doiraviy aylanishi va aylanishi nima?
27. Ishlab chiqarish fondlarining aylanish samaradorligi qanday ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi?
28. Ishlab chiqarish samaradorligi nima va u qanday iqtisodiy ko'rsatkichlar orqali tavsiflanadi?
29. Iqtisodiy samaradorlik mezonini nima belgilaydi?
30. Foyda me'yori va massasi nima?
31. Foydani maksimallashtirishni qanday tushunasiz?
32. Foydaning taqsimlanishi qanday amalga oshiriladi?
33. Zarar nima va uning me'yorini ayting.
34. Bankrotlik va uning kelib chiqish sabablarini bayon eting.

---

## **7-bob. ISH HAQI. AHOLI DAROMADLARI VA TURMUSH DARAJASI**

### **7.1. Ish haqi — taqsimotning natijasi**

Har qanday jamiyatda bo'lgani kabi bozor iqtisodiyoti sharoitida ham jamiyat a'zolarining turli xil ehtiyojlarini qondirish vositasi ularning o'zlashtiradigan daromadlaridir. Aholi daromadlarining ko'p yoki oz bo'lishi jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy tuzumi, taraqqiyoti darajasi va uning obyektiv hamda davlat tomonidan qabul qilingan qonunlariga bog'liq bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida «har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli» ekanligi, har bir inson ma'lum bir daromad egasi bo'la olishi qonun bilan kafolatlangan.

Ko'pincha, aholi daromadlari to'g'risida gap ketganda ko'pchilik uni ish haqi deb tushunadi. Aslida esa bozor iqtisodiyoti sharoitida ko'pchilikning xususiy mulk egasi bo'lishi aholining mulkka bog'liq holda boshqa daromad manbalari ham ko'payib boradi. Chunki mulk egalari o'z mulkiga asoslangan holda turli-tuman tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni beqiyos darajada rivojlantiradilar, natijada mamlakatda milliy mahsulot yaratiladi. Aholi daromadlari ana shu mahsulotning taqsimlanish tamoyillari asosida tashkil topadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi daromadlarining shakllanishiga doir adabiyotlarda «uch omil» nazariyasi mavjud bo'lib, uning asoschilaridan biri fransuz iqtisodchi olimi J.B. Seyning fikricha, tovarlarni ishlab chiqarishda «ishlab chiqarishning uch omili», ya'ni mehnat, yer va kapital omillari teng qatnashadi va ular hamma daromadlar manbayidir, demak, jamiyatda daromadlar ham shu omillar o'rtasida taqsimlanadi deydi.

Amerikalik iqtisodchi olim J.B. Klark J.B. Sey fikriga qo'shilib, o'zining «Boylklarning taqsimlanishi» asarida yaratilgan boylik ana shu uch omil o'rtasida ularning har biri yaratgan mahsulot miqdoriga, ya'ni «unumdorligiga» qarab taqsimlanadi deb ko'rsatgan. Bu olimlarning fikrlarini oddiy qilib tushunsak, kapital, yer va ishchi kuchi qo'shilishi natijasida ishlab chiqarish jarayoni sodir bo'ladi va ma'lum bir naflik, ya'ni tovar yoki xizmatlar yaratiladi, yaratilgan naflik miqdori bilan bu uch omilning miqdori

va unumdorligi o'rtasida bog'liqlik mavjud bo'lib, bu uch omil bir-biriga mutanosib ravishda miqdor va sifat jihatidan oshsa, tovarlar va xizmatlar hajmi ham shunga mos ravishda ko'payadi. Agar biz jamiyatda yaratilgan daromadni bu fikrga asoslanib, aholi daromadlari shakllantirilishida tamoyil sifatida foydalanadigan bo'lsak, uning hozirgi davrga mos kelmaydigan kamchiligi mavjud ekanligini ko'ramiz. Bu kamchiliklar shundan iboratki, Sey va Klark kapital va yer, tovar nafililigini yaratishda qatnashsa-da, ular mustaqil ravishda qiymat yarata olmasliklarini ayta olmagan, bu omillar ishlab chiqarish jarayonida eskirishiga teng, ya'ni amortizatsiya ajratmalariga teng qiymatni yangi tovarga o'tkazadi, xolos. Yangi qiymatni esa faqat jonli mehnat tomonidan yaratilishini e'tiborga olishmagan. Klark tomonidan ko'rsatib o'tilgan qo'shilgan mehnat unumdorligining kamayib borish qonuni ham ishlab chiqarish jarayonida qatnashadigan turli omillarning bir-biriga mos kelishining zarurligini hisobga olmagan holda bayon qilingan. Bu holat hisobga olinmay xarajatlar oshirib borilganda, qo'shimcha omillar keltirgan daromad ularning bozor narxiga teng bo'lishi kerak, ya'ni qo'shimcha jalb etilgan ishchilar tomonidan yaratilgan daromad ularga to'langan ish haqiga, qo'shimcha jalb etilgan kapital uni ishlatish evaziga olingan daromadning shu kapitalni sotib olish narxiga teng bo'lishi kerakligini unutkan.

Yuqorida keltirilgan Sey va Klark yo'l qo'ygan kamchiliklarni hisobga olib aytadigan bo'lsak, hozirgi davrda yaratilgan milliy mahsulotning hammasi bu uch omilning miqdori va unumdorligiga qarab taqsimlanmaydi. Balki hozir amaliyotda kapital va yer omillari uchun amortizatsiya ajratmalari, ya'ni fondlar tashkil qilinadi, so'ngra qolgan qismi bu omillarga qarab, uning egalari o'rtasida taqsimlanadi.

Biz yuqorida faqat jamiyatda daromadlarning taqsimlanishi to'g'risidagi ayrim iqtisodchilar nazariy fikrlariga to'xtaldik, xolos. Aslida iqtisodiy adabiyotlarda bu mavzuda turli xil fikrlar ko'p. Shundan kelib chiqqan holda jamiyatdagi mavjud amaliy tajribalarni hisobga olib yaratilgan daromadni taqsimlashning ayrim asosiy yo'nalishlari to'g'risida to'xtalib o'tamiz.

Eng avvalo, shuni ta'kidlash kerakki, daromadlarni taqsimlash mulkchilik munosabatlariga bog'liq bo'ladi. Chunki har qanday iqtisodiy faoliyatning moddiy asosini mulkchilik, uning turli xil shakllari tashkil etadi. Shu sababli mamlakatimizda yer davlat mulki, kapital esa turli shaklda ish kuchining egasi alohida shaxs bo'lib turgan sharoitda yaratilgan milliy mahsulot mulk egalari, ya'ni davlat,

jamo'a, xususiy shaxslar o'rtasida taqsimlanadi. Quyida milliy mahsulotni taqsimlashning o'ziga xos jihatlariga to'xtalib o'tamiz.

Taqsimot munosabatlari, eng avvalo, umumjamiyat manfaatlaridan kelib chiqishi zarurligidan daromadlarning bir qismi davlat ixtiyoriga kelib tushadi va ular turli xil tabiiy ofat va boshqa turli xil tasodifiy hodisalarning ta'sirini bartaraf qilish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun *zaxira* hamda *ijtimoiy himoya* fondlarini tashkil qilish, davlatni boshqarish, mamlakat mudofaasini mustahkamlash, aholining tinch hayotini va mehnatini qo'riqlash, mamlakat miqyosida fan-madaniyatni, ta'lim tizimini, sog'liqni saqlashni rivojlantirish uchun ajratiladi.

Ular, odatda, soliqlar va boshqa xil yig'imlar shaklida bo'ladi. So'ngra shu mahsulotni yaratishda qatnashgan ishlab chiqarish vositalarining qiymati, ya'ni amortizatsiya summasi ajratiladi, chunki bu summa asosiy kapitalni qayta tiklash uchun kerak bo'ladi. Nihoyat, qolgan qismi bozor iqtisodiyoti sharoitida kapital, yer va ishchi kuchi egalari o'rtasida taqsimlanadi, ya'ni jamiyat a'zolarining ixtiyoriga kelib tushadi. Bu jarayonda ishlab chiqarishda qatnashgan har bir omil egalarning milliy mahsulotdagi ulushi aniqlanadi hamda ularning omilli daromadlari hisoblanadi va ular ish haqi, foiz, renta, foyda, dividend shaklidagi daromad turlari ko'rinishini oladi.

## **7.2. Ish haqini tashkil etish shakllari**

Bozor iqtisodiyoti barcha ishlab chiqarish munosabatlari qatorida ish haqiga ham yangicha mazmun baxsh etadi. Bu yangicha mazmun quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

1) ish haqi aholining barcha toifalari uchun bir xil ahamiyat kasb etmay qoladi. Aholi daromadlarida ish haqining hissasi aholining turli ijtimoiy toifalarida turlicha bo'lib, ular o'rtasidagi farqlar ham ortib boradi;

2) korxonalar, firmalar, tashkilot va muassasalar ish haqining darajasi va miqdorini o'zlari belgilaydi. Ish haqining minimum darajasi esa davlat tomonidan belgilangan bo'ladi;

3) budjetdagi korxonalar va tashkilotlar xodimlari ish haqining umumiy miqdori va darajasini davlat belgilaydi;

4) bozor iqtisodiyoti sharoitida odamlarni mehnatga jalb qilish, ularni qiziqitirish, manfaatdorligini oshirish zaruriyati kuchayadi. Shu maqsadda ish haqini, uning darajasini mehnatga, jamoa mehnatining natijalariga bog'lab qo'yish muhim ahamiyatga ega bo'ladi;

5) bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqi darajasiga ish kuchiga nisbatan ham talab va taklif doimiy ta'sir ko'rsatadi. Ish haqi shunga bog'liq holda o'zgarib turadi.

Yuqorida keltirilgan holatlardan ko'rinib turibdiki, bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqi doimo va barcha mamlakatlarda iqtisodiy munosabatlarni tashkil etishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham «Iqtisodiyot nazariyasi» fanida ish haqining ilmiy asoslari yaratilishida iqtisodchi olimlar qarashlari maxsus o'ringa ega. Iqtisodiyot nazariyasida ish haqining mazmunini ochib berishda turli iqtisodchilarning turlicha yondashuvlari mavjud. Biz ularning ayrimlariga to'xtalib o'tamiz.

Ingliz klassik iqtisodchisi D. Rikardo «Yashash uchun vosita minimumi» konsepsiyasini ilgari suradi va uning fikricha, ish haqi inson yashashi uchun zarur ne'matlarning fiziologik minimumi bilan teng bo'lishi kerak deb hisoblaydi. Bu minimumga esa ishchi kuchi shakllanishining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy shart-sharoitlar bilan bog'liq kelib chiqadigan inson ehtiyojlarini ham kiritadi.

Klassik siyosiy iqtisod maktabining namoyandalaridan biri K.Marks o'zining «Qiymatning mehnat nazariyasi»da ishchi kuchini alohida, o'ziga xos tovar deb hisoblaydi va ish haqiga tovar bo'lgan ishchi kuchi qiymatining o'zgargan shakli, ya'ni puldagi ifodasi sifatida qaraydi va uni ishchi kuchini takror ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan tirikchilik vositalari qiymatidan iborat bo'lishini ko'rsatib beradi<sup>1</sup>. Hozirgi zamon iqtisodchi olimlari tomonidan nashr ettirilayotgan «Iqtisodiyot nazariyasi» darsliklarida, jumladan, A.F. Shishkin, Y.F. Borisovlar ham ishchi kuchini tovar sifatida ko'rib, ish haqini uning qiymati yoki puldagi ifodasi deb ta'riflaydilar. Bu mualliflar fikrlariga ko'ra, mehnat ham xuddi boshqa tovarlar kabi bozorda sotiladi.

Hozirgi vaqtda respublikamiz oliy o'quv yurtlarida o'qitilayotgan «Iqtisodiyot nazariyasi» (A. O'lmasov va A. Vahobov) darsligi «Iqtisodiyot asoslari» o'quv qo'llanmasi va boshqa tadqiqotlarda ham ish haqi mehnat bahosi sifatida talqin qilinadi. «Mehnat bozorida ish kuchini sotuvchi bilan uni oluvchi o'rtasida kelishilgan narx — bu ish haqidir. Ish haqi mehnatning pul shaklidagi narxi bo'lib, uni ishga yollaganlar mehnat qiluvchilarga ma'lum vaqt

---

<sup>1</sup> E.Ф. Борисов. Экономическая теория. Учебник. М., «Юрист», 1997, стр. 268; Ф. Шижкин. Экономическая теория. Учебник. Книга 2, М., «Владос», 1996, стр. 154.



mobaynida, ma'lum miqdordagi va muayyan sifatli ishni bajar-ganliklari uchun to'laydilar» deb yozadi.

Respublikamizning yana bir iqtisodchi olimasi D. Tojiboyeva tomonidan nashr etilgan «Iqtisodiyot nazariyasi» o'quv qo'llan-masida yozilishicha, «Ish haqi — bu mehnat bozoridagi ish kuchiga talab va taklifning muvozanat bahosidir». Mehnat bozoridagi raqobat ish haqini tenglashtirishga ta'sir qiladi. Milliy miqyosda malaka, bilim jihatidan teng bo'lgan ma'lum kasbga deyarli bir xil mehnat haqi belgilanadi. Oddiy qilib aytganda, mehnat bozorida unga xos bo'lgan raqobat kurashi tufayli teng mehnatga teng ish haqi prinsipi amalga oshadi<sup>1</sup>, degan fikr bildiriladi.

Mamlakatimiz oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan Sh. Shodmonov, R. Alimov, T. Jo'rayev-ning «Iqtisodiyot nazariyasi» kitobida boshqa mualliflardan farqli o'laroq, «ish haqi — ishchi va xizmatchilar mehnatining miqdori, sifati va unumdorligiga qarab, milliy mahsulotdan oladigan ulu-shining puldagi ifodasidir»<sup>2</sup>, deb ta'rif beriladi.

Yuqorida keltirilgan ish haqi to'g'risidagi turli mualliflarning nazariy qarashlarini o'rgangan holda ularni umumlashtirib, shunday xulosa qilish mumkin: biz oldingi boblarda ta'kidlab o'tganimizdek, bozor iqtisodiyoti sharoitida hamma moddiy va nomoddiy shaklga ega bo'lgan, insonlarning ma'lum bir ehtiyojini qondirish xusu-siyatiga ega bo'lib, bozorga taklif etilgan ne'matlar olish-sotish obyekti bo'ladi. Shu munosabat bilan ishchi kuchi tomonidan bozorga mehnati taklif etiladi va u shu mehnati bilan ma'lum bir ishni bajarib, uni yollab olgan iste'molchiga ma'lum bir qiymat yaratib beradi. Ish haqi — bu mehnat bozoridagi ishchi kuchi mehnatiga bo'lgan talab va taklifning namoyon bo'lishi, ishchining, uning mehnati sotib oluvchi bilan o'zaro kelishilgan narxidir.

Ish haqi mehnatning pul shaklidagi narxi bo'lib, uni ishga yollaganlar mehnat qiluvchilarga ma'lum vaqt mobaynida, muayyan ishni bajaraganliklari uchun to'laydilar. Ish haqi bajarilgan ishning natijasiga qarab beriladi. Ish haqini to'lash tartibi, uning shakllari, odatda, davlat tomonidan qabul qilingan mehnat va ish haqi to'g'risidagi qonunlar bilan tartibga solinadi. Jahon mamlakatlari qonunchiligi tajribasiga ko'ra, ish haqi asosiy ish haqi, mukofotlar

---

<sup>1</sup> D. Tojiboyeva. Iqtisodiyot nazariyasi. T., «O'qituvchi», 2002, 227-bet.

<sup>2</sup> Sh. Shodmonov, R. Alimov, T. Jo'rayev. Iqtisodiyot nazariyasi. T., «Moliya», 2002, 220-bet.

va ishdan keyin, dam olish va bayram kunlarida bajarilgan ish uchun beriladigan ustama haq sifatida to'lovlardan iborat bo'ladi. Shular birgalikda jami, ya'ni to'liq ish haqini tashkil etadi.

### 7.3. Ish haqi tizimlari

Iqtisodiy munosabatlar ichida ish haqining shakllari va turlari alohida bir tizim sifatida o'rganiladi. Ishlab chiqarishning texnik, texnologik jihatdan o'zgarib turishi, o'z navbatida, ishchilar mehnatining mazmunidagi o'zgarishlar, ularning zamonaviy bilimlarga ega bo'lib borishi va turli kasb-hunarlarining kelib chiqishi munosabati bilan ish haqi shakli va tizimlari ham tez o'zgarib bormoqda. Shu munosabat bilan ish haqini tashkil etish tizimini ham o'zgartirib, takomillashtirib borish talab qilinyapti. Hozirgi vaqtda ish haqi to'lashning ikki asosiy shakli: vaqtbay va ishbay shakllari mavjud.

*Vaqtbay ish haqi, bu — ishchining malakasi, mehnatning sifati va ishlagan vaqtiga qarab to'lanadigan ish haqidir.* Ish haqining bu shaklidan, ko'pincha, mehnat natijalarini aniq hisoblab bo'lmaydigan, balki aniq vazifalar bajarish bilan shug'ullanadigan nomoddiy sohalar bo'lgan maorif, sog'liqni saqlash, savdo va boshqa ayrim xizmat ko'rsatish, davlat tashkilot-idoralarida va shu kabilarda haq to'lashda qo'llaniladi.

*Ishbay ish haqi deganda ishchilarga ishlab chiqargan mahsulot miqdori yoki bajargan ishining hajmiga qarab beriladigan ish haqi tushuniladi.* Ish haqi to'lashning bunday shaklidan ko'proq moddiy ishlab chiqarish sohasida, ayniqsa, ishlab chiqarilgan mahsulotning hajmi yoki donasining aniq o'lchami bor bo'lgan sharoitda qo'llaniladi. Bunda mahsulot birligi uchun ish haqi miqdori, tarif stavkasidagi haqni ishlab chiqarish me'yoriga taqsimlash yo'li bilan aniqlanadi. Haq to'lash shakllarining aniq mehnat sharoitlarini hisobga oladigan turlari ish haqining tizimini tashkil qiladi. Bunda ishlab chiqarish me'yori qay darajada bajarilishidan qat'i nazar, ish haqi yagona mahsulot birligi uchun belgilangan baho bo'yicha to'lanadi.

Ishbay ish haqi to'lash o'z navbatida ishbay-mukofotli, ishbay-progressiv tizimlarga bo'linadi. Ishbay mukofotli ish haqi, odatda, bir qancha ko'rsatkichlar uchun mukofot berishni nazarda tutadi. Haq to'lashda ishchining belgilab qo'yilgan me'yori doirasida ishlab chiqargan mahsulotiga uning birligi uchun belgilangan baho bo'yicha ish haqi beriladi, me'yordan yuqorisiga esa oshirilgan ustama haq to'lanadi. Ishbay ish haqi tizimida yakka tartibdagi, jamoa va ijara pudratida qo'llaniladigan mehnatga haq to'lashlar

ham bor. Bunda tayyor mahsulot uchun uning sifati va ishlab chiqarish uchun ketgan xarajatlarni hisobga olib haq to'lanadi. Jamoa shaklida ish haqi to'lashni ma'lum bir bo'linma mehnatining pirovard natijalariga bog'liq qilib qo'yiladi. Bunda har bir xodim faqat o'ziga berilgan shaxsiy topshiriqlaridagina emas, balki bo'linmaning butun ish hajmi bajarilishidan manfaatdor bo'ladi.

Ish haqi, eng avvalo, davlat tomonidan o'rnatilgan tarif tizimi yordamida tabaqalashtirilgan holda amalga oshiriladi. Tarif tizimi tarif-malaka ma'lumotnomalari va ish haqiga tenglashtirilgan har xil koeffitsiyentlarni o'z ichiga oladi. Tarif tizimi yordamida iqtisodiyotning turli tarmoqlari, mamlakat mintaqalari, ishlab chiqarish turlari, turli toifadagi xodimlar malakasi va mehnat sharoitlariga qarab ishchi-xizmatchilarning ish haqi darajasi belgilanib, tartibga solib turiladi.

Tarif-malaka ma'lumotnomalari ayrim kasblar va mehnat turlarining batafsil ta'rifi, u yoki bu aniq ishni bajaruvchining bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablardan iborat bo'ladi. Tarif tizimida ishni tariflash uchun qo'yiladigan razryadlar ham ko'rsatiladi. Tarif setkasida razryadlardan tashqari tarif koeffitsiyentlari ham ko'rsatilgan bo'ladi. Koeffitsiyentlar birinchi razryaddan boshlanadi va u hamma vaqt birga teng bo'lib, birinchi razryadli ishchiga haq to'lash bilan keyingi razryadli ishchilar mehnatiga haq to'lashning o'zaro nisbatini ko'rsatadi.

Tarif stavkalari tegishli razryadga ega bo'lgan ishchining mehnatiga to'lanadigan haq miqdorini belgilab beradi. Mehnat sharoiti og'ir va zararli bo'lgan ishlarda ishlovchilar tarif stavkasiga qo'shimcha haqlar belgilanadi. Tarif stavkalariga ustama haqlar razryadlar bo'yicha farqlantirilib, ishchining malakaviy mahorati uchun belgilanadi.

Xalq xo'jaligi ayrim tarmoqlarida ish haqi va mansab maoshlarining boshqa tarmoqlarga nisbatan farqlari mavjud bo'lib, ular bu tarmoqlarning mamlakat iqtisodi yoki davlat strategik ahamiyati muhimligi uchun belgilanadi. Bundan maqsad — mamlakat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan yetakchi tarmoqlarga tajribali, malakali kadrlarni jalb etish, bu tarmoqlarda ishchi va xizmatchilar tarkibi barqaror bo'lishini ta'minlashdan iboratdir.

O'zbekistonda qabul qilingan tarif tizimi ish haqini tabaqalashtirib, turli kasblar va ish turlari uchun ish haqi to'lashning yagona razryadlari belgilab berilganligi aholining bozorda narxlar o'sishi bilan minimal ish haqi darajasi o'rtasidagi nisbatni saqlash imkonini beradi.

#### **7.4. Nominal va real ish haqi**

Jamiyatda mehnat me'vori bilan iste'mol me'vori o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlab borish muhim ahamiyatga ega. Bu bog'liqlik, odatda, davlat tomonidan ish haqini tartibga solish orqali nazorat qilib va tartibga solib boriladi. Tartibga solishning asosiy vositasi bo'lib ish haqi xizmat qiladi. Shuning uchun ham davlat ish haqining asosiy vazifasi ishchi va xizmatchilarning hayot va mehnat sharoitini yaxshilashdan iborat deb qaraydi.

Ma'lumki, har bir ishchi mehnat qilish jarayonida kuch-quvvatini sarflaydi. Shuning uchun ishchi ana shu sarflagan kuchini takror hosil qilishi zarur. Buning uchun u ish haqidan foydalanib, o'ziga kerakli oziq-ovqat va boshqa mahsulotlarni sotib olib, iste'mol qilishi kerak. Xuddi shu jarayonda ish haqi uning iste'moli uchun kerakli narsalar sotib olishga yetish-yetmasligi, ish haqining asl mazmun-mohiyatini belgilaydi. Bu esa ish haqi nazariyasida nominal va real ish haqi tushunchalarini tahlil qilish orqali bilinadi.

Nominal ish haqi deb ishchining ma'lum vaqt davomida muayyan ish faoliyatini amalga oshirgani uchun olgan pul shaklidagi pul summasi aytiladi. Odatda, ishchi uchun, eng avvalo, qanday shaklda va qancha miqdorda ish haqi olishi emas, balki unga qancha miqdorda tovarlar va xizmatlar sotib olishi mumkinligi ahamiyatga ega. Nominal ish haqi ishlab topilgan pul daromadi darajasi aniq tasavvur bera olmaydi. Shu sababli, nominal va real ish haqi farqlanadi.

Real ish haqi — bu ishchining nominal ish haqiga sotib olishi mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlar miqdorida ifodalanadi. Real ish haqi — bu nominal ish haqining, ya'ni ishchi qo'liga olgan pul summasiga qancha tovar va boshqa xizmatlar sotib olish imkoniyati. Real ish haqi nominal ish haqi summasiga ishchi tomonidan xarid qilinadigan tovarlar va xizmatlar bahosiga bog'liq. Bundan ko'rinib turibdiki, real ish haqi bir xil sharoitda, nominal ish haqiga to'g'ri mutanosiblikda va iste'mol buyumlari hamda xizmatlar narxining darajasiga esa teskari mutanosiblikda bo'ladi.

#### **7.5. Ish haqi darajasining tabaqalashuvi**

Mehnat turlari uning mazmun-mohiyati, miqdori va sifati turlicha, ya'ni jismoniy, ongli, oddiy, murakkab, malakali va malaka talab etilmaydigan mehnatlar bo'lgani uchun ularning natijalari ham bir xil bo'lmaydi. Shuning uchun ularga to'lanadigan ish haqi ham *tabaqalashgan* bo'ladi. Masalan, yuqori bilim

darajasiga ega bo'lgan ongli mehnat sohiblariga, kasbiy malaka va katta ish tajribasiga ega bo'lgan, yaxshi natijalar beradigan mehnat uchun katta haq to'lanadi. Aksincha, oddiy va katta malaka talab etilmaydigan mehnat uchun past ish haqi to'lanadi.

Shuning uchun ham davlatimiz tomonidan mamlakatimiz yoshlarini yuqori darajadagi bilimlarga ega bo'lgan malakali ishchi-xodimlar bo'lib, katta ish haqi olib yashashlariga zamin yaratish maqsadida kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari tashkil etilib, ularga shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Masalan, mehnat va ish haqi to'g'risidagi qonunga ko'ra, mehnat turlari ma'lum razryadlarga ajratilib, ularga to'lanadigan ish haqlari koeffitsiyentlari ham aniq belgilab qo'yilgan va shu asosda barcha ish beruvchilar o'z ishchilariga ish haqini tabaqalashgan holda to'laydilar. Bu, o'z navbatida, mamlakatimizda ish haqi to'lashda adolat tamoyillariga rioya etilishini ta'minlaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqi darajasi bozorga bog'liq ravishda o'zgarib turishi mumkin, chunki ishchi ishlayotgan korxonaga mahsulotlariga bozorda talab katta bo'lsa, ular yaxshi sotilsa, ishchilarning ish haqi oshadi yoki aksincha bo'lsa, kamayadi. Demak, ish haqi mehnat keltirgan nafga bevosita bog'liq bo'lar ekan. Mehnat yaratgan tovar sifati yaxshi bo'lib, u tez sotilsa, mehnatga bo'lgan talab ham oshadi.

#### **7.6. Ish kuchi (mehnat) bozoridagi raqobat va ish haqi**

Oldingi boblarda ishchi kuchi ishlab chiqarishning asosiy omili ekanligi aytib o'tilgan. Chunki ishchi bo'lmasa, u qurol-vositalardan foydalanib mehnat qilmasa, ishlab chiqarish bo'lmaydi, moddiy, ma'naviy ne'matlar yaratilmaydi. Shuning uchun iqtisodiy adabiyotlarda ishchi kuchi, uning iqtisodiy mohiyati, bozorda u tovar sifatida sotiladimi yoki uning mehnati sotiladimi kabi masalalar yuzasidan har xil fikrlar bor. Biz bozorda ishchining mehnat qilish qobiliyati olish-sotish obyekti bo'ladi degan fikrlarga qo'shilamiz. Buning sababi shundaki, mehnat qilish insonning o'z ish kuchini foydali bir maqsad yo'lida sarflashi, ya'ni biror tovarlar yoki xizmatlar yaratishidir.

Mehnat ishchi kuchining funksiyasi, ish kuchi esa insonning qobiliyati bo'lib, uning jismidan ajralgan, alohida bo'lmaydi. Demak, mehnat bozorida ish kuchini olish-sotish yuz beradi. Bu yerda ishchilar o'z ishchi kuchlarini, ya'ni mehnatini taklif etadilar, oluvchilar esa ularning mehnatiga o'z talablarini bildiradilar. Natijada ular o'rtasidagi mehnat shartnomasi tuzilib, ishchilar

ishga jalb qilinadi va ish kuchini olish-sotish savdosi yuz beradi. Xuddi tovarlar bozorlarining davlat tomonidan tashkil etilgani kabi mehnat bozori ham davlat tomonidan tashkil etiladi. Mehnat bozoridagi savdolarda mehnat birjalari vositachilik qiladilar. Ishlashni xohlagan ishchi erkin shaxs sifatida, o'zi xohlagan kasbi, mehnat malakasi asosida istagan yerda ishlashi mumkin. Mehnat bozorida ishchi o'z mehnatini o'ziga ma'qul bo'lgan kelishilgan narxga sotadi, demak, ishga oluvchi ishchining mehnatidan foydalanish uchun uni sotib oladi.

Mehnat bozorida ishchi bilan ishga oluvchi o'rtasida kelishilgan narxi ish haqi sifatida namoyon bo'ladi. Mehnat bozorida ham talab va taklif qonuni amal qiladi. Lekin mehnat bozoriga davlat faol ta'sir ko'rsatishi sababli uning stixiyali rivojlanishiga, ishsizlarning ko'payib ketishiga yo'l qo'yilmaydi.

#### **7.7. Kasaba uyushmalarining tadbirkorlar va davlat bilan o'zaro aloqasi. Mehnat shartnomalari tizimi**

Mehnat bozorida ish beruvchi tadbirkorlar, firma va boshqa korxonalar bilan ishga yollanuvchi ishchilar o'rtasidagi tuziladigan shartnoma O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida belgilangan talablarga binoan tuziladi va bu shartnoma ular o'rtasidagi mehnat munosabatini tartibga soluvchi asosiy hujjat hisoblanadi. Bunday mehnat shartnomalari uch turga bo'linadi:

1) mehnat shartnomasi (kontrakti) — ishga kiruvchilar va ishga oluvchilar o'rtasida yakka tartibda tuziladi va unda ishning mazmuni, ish sharoiti, ish haqi miqdori, ish haqi to'lash tartibi, xullas, ishlovchining va ish beruvchining huquq-majburiyatlari aniq belgilanadi;

2) jamoa shartnomasi (bitimi) — bu korxonalar, tashkilotlar, firmalar va boshqalar bilan ishchi-xizmatchilar jamoasi o'rtasida tuzilgan shartnoma bo'lib, unda har ikki tomonning huquq-majburiyatlari: ish vaqti, dam olish kunlari, ta'tilga chiqish tartibi, ish haqi miqdori, ish haqini indeksatsiyalash, mehnat xavfsizligini ta'minlash, malakani oshirish kabi masalalar ko'rsatilgan bo'ladi;

3) bosh bitim (shartnoma) — bu ishchi-xizmatchilarning kasaba uyushmasi bilan davlat, hukumat o'rtasidagi tuzilgan bitimdir. Unga ko'ra, mehnat munosabatlarining asosiy jihatlari umummamlakat doirasida belgilanadi.

Mehnat munosabatlarining asosiy jihatlari davlat tomonidan belgilanishi va tartibga solinishining sababi shundaki, bu muno-

sabatlar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-siyosiy, tashkiliy-huquqiy masalalarni ham o'z ichiga oladi. Davlat ish beruvchilar va ishchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga mehnat qonunchiligi orqali ta'sir ko'rsatadi.

Jahonning deyarli barcha mamlakatlarida bosh masala ishsizlik, undan aholini ijtimoiy muhofaza qilish, ishchilarning mehnat sharoitlarini yaxshilash va ish haqini oshirish bilan bog'liq muammolari hisoblanadi. Bu muammolarni hal qilishda ishchilar, asosan, o'z kasaba uyushmalari orqali harakat qilishadi. Kasaba uyushmalari ishchilar nomidan ish beruvchilar va hukumat idoralari bilan muzokaralar olib borib, shartnomalar tuzish yo'llari orqali ish haqlarini oshirish hamda ish sharoitlarini yaxshilashga erishadilar.

Kasaba uyushmalari ish haqini oshirishning eng qulay usuli sifatida mehnatga bo'lgan talabni kengaytirish deb qaraydilar. Chunki ish kuchiga talabning ortishi natijasida ish beruvchilar ish haqi stavkasini oshirishga majbur bo'ladilar. Ish kuchiga talab esa ish o'rinlarining ko'payishi bilan bog'liq. Shuning uchun kasaba uyushmalari davlat miqyosida yangi ish o'rinlarini tashkil etish va ishchilarni ish bilan ta'minlashni yaxshilash talabini qo'yadilar. Ularning bu talablari esa bir necha omillarni o'zgartirish yo'li bilan amalga oshishi mumkin. Jumladan, eng avvalo, ishlab chiqariladigan mahsulot va ko'rsatiladigan xizmatlar turini ko'paytirish, mehnat unumdorligini oshirishdan iboratdir.

Kasaba uyushmalari ish haqi stavkasini oshirishning asosiy yo'li sifatida ishchi kuchi taklifini kamaytirishdir, deb hisoblaydilar va buning uchun immigratsiyani cheklash, bolalar mehnatidan foydalanishni cheklash, pensiya yoshini va ish haftasini qisqartirish kerak deb biladilar. Bundan tashqari, kasaba uyushmalari ishchi kuchi taklifi ustidan to'liq nazorat o'rnatish siyosati orqali, jumladan, ishchilarni o'qitish orqali ularning malakalarini oshirish bilan ishchi kuchi taklifini qisqartirish, oxir-oqibatda bu ish haqi stavkasining ortishiga olib keladi, deb hisoblashadi.

Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozoriga davlatning ijtimoiy dasturlar orqali ta'siri ham muhim ahamiyatga ega, chunki aholining kam ta'minlangan qismiga yordam, ishsizlik bo'yicha nafaqa va boshqa har xil ijtimoiy to'lovlar, pensiya ta'minoti kabilar ham katta ta'sir ko'rsatadi. Davlatning ish kuchi bozorida mehnat birjalari va boshqa turli yo'llar orqali vositachilik roli ham mehnat munosabatlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, yangi ish o'rinlarini yaratish, mehnat birjalari orqali ishga joylashtirish

bo'yicha umummilliy dastur ishlab chiqilishi va uning amalga oshirilishi kabilardan iborat. Bundan tashqari, mamlakat yoshlarini kasb-hunar kollejlari va boshqa oliy o'quv yurtlarida o'qitish, ishchilarni qayta tayyorlash kabi davlat tomonidan olib borilayotgan ishlar hozirgi mehnat bozorining o'zgaruvchan shafqatsiz talablarini biroz yumshatish imkonini bermogda.

Yuqorida keltirilganlardan ko'rinib turibdiki, mehnat munosabatlari davlatning faol ta'sirisiz rivojlanishi va takomillashuvi murakkab hisoblanadi. Mehnat munosabatlarining davlat tomonidan qabul qilingan qonunlar orqali tartibga solinishi bu munosabatlarda qatnashayotgan har ikki taraflar: ishchilar hamda ish beruvchilar manfaatlariga mos kelishini ta'minlaydi, umuman olganda, milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

#### **7.8. Ish haqi va mehnat unumdorligining aloqadorligi. Mehnat natijasiga qarab daromadlarning tabaqalashuvi**

Turli mamlakatlarda ish haqi miqdori turlicha bo'ladi, lekin hamma vaqt u mehnat unumdorligiga bog'liq holda o'sib boradi. Muayyan mamlakatda, muayyan sharoitda ish haqining miqdori xodim qilgan mehnatning miqdori, sifati, unumdorligi, ishlab chiqarish samaradorligiga bog'liq.

Mehnat bozorida talab mehnatdan keladigan foydaga bog'liq bo'lib, u o'zgaruvchan bo'ladi. Agar ish haqi yuqori bo'lsa, mehnatga talab qisqaradi, chunki bu holatda ish beruvchi mehnatdan kam foyda oladi. Agar ish haqi past bo'lsa, aksincha, talab ortadi, chunki bunda ish beruvchining foydasi ortadi. Shuning uchun ish beruvchilar ish haqini kamaytirishga, ishchilar esa uni oshirishga intiladilar. Lekin ayrim hollarda ish haqi ortgan sharoitda ham mehnatga talab ko'payishi mumkin, chunki ish haqiga nisbatan mehnat unumdorligi tezroq ortib borishi mumkin. Bu holatda ish haqiga ketgan qo'shimcha xarajat mehnat unumdorligining ortishi hisobiga qoplanadi. Demak, ish haqi xarajatlari vositasida foydaga ta'sir etish orqali bozorda mehnatga talabni o'zgartiradi.


Ish haqi bilan mehnatga talabning o'zgarishi o'rtasidagi bog'liqlikni bir misol orqali ko'rib chiqaylik. Misol uchun, ishchi soatbay ish haqi olib ishlaydi, uning ish haqi soatiga 100 so'm bo'lganda ishlash uchun 40 kishi talab qilingan, mehnat arzonlashib, soatbay haq 80 so'mga tushganda mehnatga talab ortib, jami 60 kishiga ish haqi 60 so'mga tushganda 80 kishiga 40 so'm



bo'lsa, 100 kishiga talab bo'ladi. Demak, ish haqining qisqarishi mehnatga talabni oshirgan. Bu holat bozordagi talab qonunining harakati deyiladi.

Mehnat bozorida talab bilan bir qatorda taklif ham narxga nisbatan o'zgaruvchan bo'ladi, natijada ish haqi oshsa, mehnat taklifi ko'payadi, kamaysa, taklif qisqaradi. Lekin bozorda ular tenglashgan muvozanat holati ham hosil bo'ladi. Bu muvozanat ma'lum ish haqi miqdori darajasida paydo bo'ladi.

Talab va taklif muvozanatiga ish haqidan tashqari boshqa har xil omillar ham ta'sir qilishi mumkin. Jumladan, texnik va texnologik taraqqiyot natijasida mehnat unumdorligi oshib, ish kuchiga talab qisqarishi mumkin. Iqtisodiy turg'unlik yoki tanglik davrida, odatda, ish o'rinlari qisqaradi va mehnatga talab ham kamayadi. Bunday holat ishlab chiqarishning tarkibi o'zgarsa ham sodir bo'lishi mumkin, bunda ayrim kasblarga ega bo'lgan ish kuchiga talab nisbatlarining o'zgarish holati yuz beradi. Misol uchun, sanoat ishlab chiqarishida modernizatsiya natijasida ayrim kasb egalariga talab qisqaradi, xizmat ko'rsatish sohasidagi yangi ishchilarga talab oshadi.



### **7.9. Daromadlar, uning mohiyati va turlari. Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlar tengsizligining vujudga kelish sabablari**

*Daromad* so'zi o'zbek tiliga fors tilidan kirib kelgan bo'lib, u kirim, ya'ni insonning biror iqtisodiy faoliyati tufayli ko'rgan manfaati, olgan puli, o'zlashtirgan mablag'i kabi ma'noni anglatadi. Iqtisodiyot nazariyasida aholining daromadi mamlakatda yaratilgan yalpi milliy mahsulot (YMM)ning taqsimlanishi va qaytadan taqsimlanishi tufayli shakllanadi, deb asoslab berilgan.

O'zbekistonda bozor munosabatlarining rivojlanib borishi natijasida iqtisodiy erkinlik, turli mulkchilik sharoitida fuqarolar turli-tuman faoliyat bilan shug'ullanib, tadbirkorlik sirlarini o'rganib daromad topishga erishmoqdalar. Natijada mamlakatimiz rivojining hozirgi davriga kelib Prezidentimiz aytib o'tganidek,

«Barcha daromadlarning chorak qismi tadbirkorlik faoliyatidan tushmoqda»<sup>1</sup>. Buning asosiy sababi mulkka egalik qilish hamda ularni ishlatish samarasiga bog'liq ravishda jamiyat a'zolari o'z mavqeyiga bog'liq holda turli ko'rinishda daromad olayotganligidir.

Masalan, xususiy firma, ishlab chiqarish korxonasi yoki pul egasi foyda, ish kuchi sohibi ish haqi, aksiya egasi dividend, sohibkor bozor foydasi, tijoratchi tijorat yoki savdo foydasi shaklida daromad oladilar va h.k. Shu bilan bir qatorda bozor sharoitida aholining ma'lum tabaqalari uchun dehqon, fermer, uy yoki ijara xo'jaliklaridan, dala-hovli va ijtimoiy himoya fondlaridan (nafaqa, bepul davolanish, xayriya jamg'armalaridan manfaatdor bo'lish va h.k.) foydalanishlar ham daromad manbai bo'lib xizmat qiladi.

Demak, bozor iqtisodiyoti sharoitida jamiyat a'zolari bir vaqtning o'zida turlicha daromad olishlari ham mumkin. Masalan, bir shaxsning o'zi ish kuchi sohibi sifatida ish haqi bilan birga aksiya egasi sifatida — dividend, yakka faoliyat daromadi, nafaqa, tijorat foydasi kabilarga ega bo'ladi. Ijtimoiy adolatga asoslangan bozor iqtisodiyoti tamoyillari daromad shakli va miqdorini cheklamaydi — daromadlar faoliyat turlari va harakatiga qarab o'sib boraveradi.

Milliy qadriyatlar, insonparvarlik tamoyillariga asoslanib, jamiyatda daromadning nobozor manbalari ham amal qiladi. Jumladan, nogironlar, yolg'iz onalar, boquvchisini yo'qotganlar aholining boshqa nochor tabaqalariga davlat, jamiyat va xayriya tashkilotlari tomonidan ham ijtimoiy yordam tashkil etiladi.

Aholi daromadlari manbalari jihatdan farqlanadi. O'zbekistonda hozir aholi daromadlari bozor islohotlarining ta'siri va iqtisodiyotning umumiy ahvoriga qarab shakllanmoqda. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida *bozor daromadlari* degan daromad turi paydo bo'ldi. U tadbirkorlik daromadidan, dehqon xo'jaligi daromadidan, mulkdan kelgan daromaddan, yollanib ishlashdan olingan ish haqidan iborat bo'ladi. Bozor daromadi, ish kuchi, yer yoki boshqa mulklarning o'z egasi tomonidan naqadar samarali ishlatilishiga qarab topiladigan daromaddir. Qayerda tadbirkorlik, ishbilarmonlik, kichik biznes rivojlangan bo'lsa, shu yerda bozor daromadlari tez o'sadi. Misol uchun, agar 1994—1999-yillar mobaynida bozor daromadlarining aholi umumiy daromadidagi salmog'i 1,8 baravar oshgan bo'lsa, 2001—2014-yillarda 3,5 baravar

---

<sup>1</sup> I.A. Karimov. Barqaror taraqqiyotga erishish — ustuvor vazifa. «Xalq so'zi» gazetasi, 1998-yil 26-fevral.

oshgan. Bu holat mamlakatimizda bozor munosabatlarining jadal rivojlanayotganligidan dalolat beradi.

Tadbirkorlik bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiyotning asosiy tayanchi bo'lganligi uchun mamlakatimiz o'z mustaqilligiga erishgan davrdan boshlaboq, uni rivojlantirishga katta e'tibor berib kelmoqda. Shu sababdan davlat tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlab, unga keng yo'l ochib beryapti. Bu masalaga davlatimiz tomonidan berilayotgan e'tibor O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 9-apreldagi «Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni yanada rag'batlantirish choralari to'g'risida»gi Farmonidan boshlangan bo'lib, hozirgi vaqtga qadar davlatimiz tomonidan 15 Qonun, Farmon, Qarorlar qabul qilingan bo'lib, ular xususiy tadbirkorlik, kichik biznesni jadal rivojlantirish, tegishli institutsional tuzilmalarni barpo etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati sohasiga kredit resurslari hamda chet el sarmoyalarini keng jalb etish asosida tadbirkorlar sinfini shakllantirish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilib kelinmoqda.

Hozirga kelib tadbirkorlik harakati aholining turli qatlamlarini qamrab olgan va undan kelayotgan daromad aholi daromadida salmoqli o'rin tutadi. Hozir respublikada 130 mingdan ziyod xususiy va kichik korxonalar, 26 mingga yaqin dehqon va fermer xo'jaliklari mavjud. Iqtisodiyotning nodavlat sektorida band bo'lganlar (tadbirkorlar, yollanib ishlovchilar) salmog'i ortib bormoqda va ular 1998-yil iqtisodiyotda band bo'lganlarning 71,3 % ini tashkil etgan bo'lsa, 2014-yilda 9519,6 ming kishini, ya'ni umumiy bandlarning 76 % ini tashkil etdi.

Bu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda tadbirkorlik daromadi o'tgan davrda muttasil ortib borishi bilan birga, u tadbirkorlik turlariga qarab ham farqlanadi. Bunday daromadlar joylarda bu sohaga beriladigan e'tiborga ham bog'liq bo'ladi. Tadbirkorlikni rivojlantirish aholi daromadini oshirishdek ijtimoiy muammoni yechishga ulkan hissa qo'shadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ham aholining daromadlari ichida ish haqining daromad sifatida hissasi salmoqli darajada saqlanib qolmoqda. Buning asosiy sababi, davlat tasarrufida hozircha ayrim yirik sanoat korxonalarini saqlanib qolayotganligi hamda davlat muassasalarida ham aholining ma'lum qismining ishlayotganliklari bilan izohlanadi. Masalan, tog'-kon sanoati, ko'plab og'ir sanoat korxonalarini, mudofaa korxonalarini, davlat tashkilotlari va maorif, sog'liqni saqlash kabi ijtimoiy sohalar va boshqalarda ishchilar

ish haqi sifatida daromad olayotirlar. Bunday davlatga qarashli korxonalarda aholining mulksiz qismi yollanib ishlaydi, ularning ish kuchi qiymati ekvivalenti esa ish haqida gavdalandi. Bozor iqtisodiyotiga qadam-baqadam o'tib borayotgan O'zbekistonda islohotlarning izchillik bilan o'tkazilishi tufayli asta-sekin nodavlat sektori mustahkamlanib bormoqda. Bu esa umumiy ishlovchilar sonida yollanib ishlovchilar hissasining kamayib borishida (ko'pchilik tadbirkorlikning turli shakllariga, fermer va dehqon xo'jaliklariga o'tishi) o'z ifodasini topmoqda, binobarin, ish haqi ulushi shunga muvofiq kamayib boradi. Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda, nodavlat sektorida yalpi ichki mahsulotning 82,8 % yaratilmoqda, korxonalarining 82,6 % ini ana shunday xo'jalik subyektlar tashkil etib, ularda iqtisodiyotda band bo'lganlarning 76 % ishlamoqda<sup>1</sup>.

Sohibkorlik (dehqon xo'jaligi) daromadi sohibkorlik bilan shug'ullangan aholi uchun daromad manbayiga aylanib bormoqda. Qishloq xo'jaligida olib borilayotgan islohotlar natijasida qishloqda yangi xo'jalik shakllari — dehqon va fermer xo'jaliklari vujudga keldi. Dehqon va fermer xo'jaliklari O'zbekistonda tadbirkorlik shakllaridan biriga aylanib boryapti. Mamlakatimizda qabul qilingan «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi Qonunda «Dehqon xo'jaligining o'ziga tegishli mulkka egalik huquqi davlat tomonidan himoya qilinadi» deyilgan. Bu, o'z navbatida, respublikamizda fermerlik harakati keng rivojlanishiga, qishloq aholisi daromadlarini ko'paytirishning, aholini ish bilan band etishning, qishloqni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirishning tayanch xo'jaligi bo'lib qolishiga asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Bozor iqtisodiyoti ta'sirida odamlar iste'molchilik, boqimandalik kayfiyatidan xalos bo'lishib, yaratuvchanlik, sohibkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga kirishishmoqda. Sohibkorlik faoliyatining kuchayishi bilan odamlar bozorning faol ishtirokchisiga, ya'ni tovar va xizmatlar taklif etuvchisiga aylanishdi. Natijada aholi daromadlarida dehqon xo'jaliklari daromadi alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, qishloq aholisi turmushida u salmoqli ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda 59 % aholining qishloqlarda yashashi va dehqonchilik bilan shug'ullanishlari e'tiborga olinsa, uning ahamiyati nechog'liq ulkan bo'lishi ayon bo'ladi.

Dehqon xo'jaligi daromad manbayi sifatida yaqin orada o'z ahamiyatini yo'qotmaydi, chunki u o'z mohiyatiga ko'ra bozor

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi statistik axborotnomasi. T., 2014, 8-bet.

unsuridir. Uning jamiyat hayotidagi ijtimoiy vazifasi ham bebaho. Hozirda dehqon xo'jaligi mahalliy bozorni yangi mahsulotlar bilan to'ldirishda, oilani natural mahsulot bilan ta'minlashda, pul daromadi olishda, ish bilan bandlikka erishishda, bolalarga mehnat tarbiyasi berishda, nafaqaxo'rlarning ham ma'lum darajada ijtimoiy foydali mehnat bilan band bo'lishida muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

*Mulk daromadi.* Aholi daromadlarining bu shakli biz uchun yangi daromad manbayidir. Zero, mulkka egalik hissi uni ishlatishdan manfaatdor qiladi. Mulk ishlab chiqarish omillari tarzida aksiya, pay va pul shaklida bo'lishi mumkin. Natijada mulkni iste'mol qilishdan ijara haqi, renta, foiz, foyda, zayom yoki lotereya yutuq tarzida bo'lishi mumkin. Aytish mumkinki, bunday daromadlar mulk egasining bevosita sohibkorlik faoliyati bilan bog'liq emas, ammo bunday daromadlar bozor rivojlana borgani sari ko'paya boradi.

Aholi daromadlarida dividend yangi daromad manbaya sanaladi. Aksiya dividend shaklida daromad keltiruvchi alohida mulk bo'lib, u egasiga aksiyadorlik korxonasi foydasidan ulush keltiradi. Dividend shunday daromad shakli, u korxonada faoliyati yaxshilangan sari o'sib boradi.

Aksiya va dividend munosabatlarida xususiyashtirish investitsiya fondlari (XIF) alohida o'rin tutadi. Shuning uchun hukumatimiz tomonidan o'z vaqtida yirik va o'rta korxonalarni xususiyashtirish uchun maxsus XIFlar orqali xususiyashtirish dasturini ishlab chiqdi. Dastur asosida O'zbekistonning eng yaxshi o'rta va yirik korxonalari XIFlarda davlat ulushining krediti sifatida sotish va berish amalga oshirildi. XIFlar yuzlab korxonada aksiyalarini butunlay va boshqa korxonada aksiyalari paketlarini qisman sotib oldilar.

*Yakka faoliyat daromadi.* Aholining yakka faoliyat bilan shug'ullanishi ham daromad manbaya bo'lib xizmat qiladi. Yakka faoliyat — shaxsiy tashabbus, o'z mulkiga tayanib, tavakkalchilik asosida, shaxsiy daromad olish maqsadida harakatdagi qonunchilik doirasida jismoniy shaxs tomonidan bajariladigan xo'jalik faoliyatidir. Yakka faoliyat bilan aholining keng qatlami: duradgor ustalar, kosiblar, chevarlar, zargarlar, gilam to'quvchilar, pichoqchilar, temirchilar va h.k., umuman olganda, turli hunar egalari shug'ullanishlari mumkin. Ular qonunchiligimizga ko'ra, yakka tartibdagi faoliyat bilan shug'ullanib, shaxsiy daromad oluvchilar deyiladi. Bu faoliyatning aholi ish bilan ta'minlanishida hamda daromad topishlarida ahamiyati katta bo'lganligi uchun davlat tomonidan rag'batlantirilmoqda.

*Intellektual mulk daromadi* — bu intellektual mulk egalariga; barcha yoʻnalishdagi ijodkorlarga, ixtirochilarga, olimlarga tegishlidir. Bozor iqtisodiyoti ular uchun ham qulay sharoit yaratib beradi. Ular oʻz asarlarini, ixtirolarini, ilmiy kashfiyotlarini, texnologik yangiliklarini, ilmiy-uslubiy qoʻllanmalarini tovar sifatida erkin sotish imkoniga ega boʻladilar. Bu bir tomondan intellektual mulk egalariga daromad keltirsa, ikkinchi tomondan maʼnaviyat, maʼrifat, ilm-fan, texnika va texnologiyaning toʻxtovsiz oʻsishiga sabab boʻladi.

*Ijtimoiy himoya jamgʻarmalaridan keladigan daromadlar.* Aholining daromadlari tarkibida ijtimoiy himoya jamgʻarmalarining ham alohida oʻrni bor. Prezidentimiz I. A. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan bozor munosabatlariga oʻtishning besh tamoyilidan biri ham aholini ijtimoiy himoyalash deb belgilangan edi. Oʻzbekistonda islohotlar boshlangan dastlabki paytdayoq, uning asl maqsadi insonga munosib turmush va faoliyat sharoitlarini vujudga keltirishdan iborat deyilgan. Shuning uchun aholini ijtimoiy himoyalash yuzasidan zarur chora-tadbirlar koʻrib borilishiga alohida eʼtibor bilan qaralib, ijtimoiy himoya jamgʻarmalari tashkil qilinmoqda va ularning mazmuni-shakli oʻzgarib bormoqda.

Ijtimoiy himoya jamgʻarmalarining faoliyati doirasiga inson keksayganda, mehnat qobiliyatini yoʻqotganda, boquvchisidan ajralganda, yosh bolali ayollarga nafaqa, bepul davolanish va oʻqish, kommunal xizmatlar uchun imtiyozlar, xayriya jamgʻarmalaridan manfaatdor boʻlish kabilar kiradi. Xayr-sahovat jamgʻarmalari, diniy xayr-ehsonlar, otaliq yordamlari va boshqalar ham shular jumlasidandir. Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat, aniq yoʻnaltirilgan ijtimoiy yordam aholining tabaqalarga boʻlinishi chuqurlashuvining oldini olishga yordam bermoqda. Masalan, agar 1999-yilda davlat budjeti xarajatlarining 40 % ijtimoiy sohalarga sarflanganligi, aholini ijtimoiy himoya etishga xarajatlarning 13,4 % ajratilgan boʻlsa, 2014-yilda bu maqsadlar uchun budjetning 60 % dan ortiqroq qismi ajratilmoqda. Ijtimoiy himoya uchun MDH mamlakatlarining birortasida bunday miqdorda mablagʻ ajratish amaliyoti hali-hanuzgacha kuzatilgani yoʻq. Iqtisodiyotimizning barqarorlashganligi va oʻsayotganligi bunday kuchli ijtimoiy himoya tizimining yoʻlga qoʻyilishiga sabab boʻlmoqda. Iqtisodiyotimiz yuksalgani sari, bu tizim yanada yaxshilanib boradi va bu, oʻz navbatida, aholi daromadlarining oʻsishiga xizmat qiladi.

### **7.10. Aholi daromadlarining tabaqalashuvi**

Bozor iqtisodiyotining muhim belgisi, bu – aholi daromadlarining tabaqalanib borishi hisoblanadi. Buning asosiy sabablari, biz yuqorida ko‘rib chiqqan turli yuridik va jismoniy shaxslarning turli darajadagi daromadga ega bo‘lishidir. Ma‘lumki, sotsializm davrida barchani daromadlar bo‘yicha tenglashtirish asosiy maqsad qilinib, bu siyosat «sotsial tenglashtirish» deb nomlangan edi. Bu aslida tubdan noto‘g‘ri, jamiyat rivojlanishining obyektiv qonunlariga zid bo‘lganligi uchun ham ularning maqsadlari amalga oshmadi. Chunki aholi tomonidan yaratilgan barcha daromadlar davlat qo‘lida yig‘ilib, astoydil unumli ishlaganga ham, unumsiz ishlaganlarga ham bir xilda o‘rnatilgan tartibda ish haqi berilgan. Bunday taqsimot kishilarda mehnatiga yarasha daromad olmaganliklari uchun manfaatdorlik hissini so‘ndirgan va bu, o‘z navbatida, iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirmagan.

Bozor iqtisodiyoti o‘z mohiyatiga ko‘ra, har bir insonni o‘z mehnatidan, eng avvalo, o‘zi manfaatdor bo‘lishini ta‘minlaydigan ijtimoiy-iqtisodiy tizim hisoblanadi. Shu sababli kishilar o‘z qobiliyatlari va imkoniyatlarini ishga solib, mehnat qilib to‘q va farovon yashashga intiladilar, natijada har bir kishi turli darajada daromadlarga erishib, ularning farovonlik darajasi har xil bo‘ladi. Lekin bu daromadlar va turmush darajalaridagi tengsizlik ularning tabiiy farqlaridan kelib chiqqanligi uchun adolatli tengsizlik sifatida qaraladi, chunki topish-tutish bir xil bo‘lmagani sababli, daromad ham teng bo‘lmasligi tabiiydir.

Masalan, tadbirkor insonlar, noyob iste‘dod egasi, harakatchanligi tufayli boshqalardan ko‘proq daromad oladilar, lekin tadbirkorlik hammaning ham qo‘lidan kelavermaydi, hamma ham buyuk olim, usta dehqon, mohir aktyor bo‘lavermaydi. Shuning uchun eng katta daromadni tadbirkorlar olsa, eng past daromad egasi oddiy va kam mehnati uchun ish haqi oluvchilar hisoblanadi.

Hozirgi ma‘lumotlarga qaraganda, respublikamizda eng kam pul daromad oluvchilar aholining 6–8 % ini tashkil etgan holda eng yuqori daromad oluvchilar salmog‘i 22–24 % ni tashkil etayotir. Boshqacha aytganda, aholi tarkibida ko‘p daromad oluvchilar hissasi ortib bormoqda.

### **7.11. Aholining turmush darajasi va uning ko‘rsatkichlari**

Ishlab chiqarishning ijtimoiy samarasi insonlar farovonligida, ya‘ni turmush darajasi va sifatida namoyon bo‘ladi. Kishilar hayotiy

ehtiyolarning qondirilish me'vori turmush darajasi deyiladi. Turmush darajasi ishlab chiqarish taraqqiyotiga, tovarlar va xizmatlar mo'l-ko'chiligiga bog'liq bo'ladi. Chunki yaratilgan tovarlar va xizmatlarning iste'mol qilinishi ko'rsatkichlariga qarab, aholining turmush darajasini belgilash mumkin. Ishlab chiqarish darajasi yuqori bo'lgani holda unga nisbatan iste'mol miqdori kam bo'lishi mumkin. Ma'lumki, turmush farovonligi milliy daromadning hajmi va uning taqsimlanishiga bog'liq. Milliy daromad sezilarli ko'payib borsa, jam'arish miqdori o'sgani holda iste'mol hajmi ham ortadi.

Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga xos qoidalaridan biri — milliy daromadning tobora ko'proq qismi farovonlikka qaratilishidir. Chunki milliy daromadning asosiy qismi iste'molga mo'ljallanmasa, barqaror iqtisodiy o'sish yuz bermaydi. Yana bir qiziq qonuniyat bor: iqtisodiyot yuksalgani sari aholining, demakki, iste'molchilarning soni ko'payishi sekinlashib boradi. Masalan, BMTning ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning 30 ga yaqinida aholi soni tug'ilishning kamayishi tufayli, kamayib bormoqda. G'arbiy Yevropa bo'yicha esa har 1000 kishiga tabiiy o'sish 2 ta bo'lyapti, xolos. Bu hol o'z-o'zidan aholi jon boshiga yaratilgan mahsulotni ko'paytirish omillaridan biriga aylanadi. Eng muhimi, bozor iqtisodiyoti *aralash iqtisodiyot* shaklini olgan sharoitda aholining talab-ehtiyojini qondirib, uning farovonligini oshirishdan iborat insonparvarlik tamoyili kuchayib boradi, bu esa iste'molning kengaytirilishini taqozo etadi.

Aytilgan sabablarga ko'ra, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda, so'nggi 30 yil ichida iste'mol hissasi ortib, endilikda milliy daromadning 80—85 % ini tashkil etadi. Bu hol turmush darajasi o'sganligini bildiradi. Ammo turmush darajasi uchun iste'mol o'z-o'zidan emas, balki ehtiyojni qondira olishi jihatidan muhim. Bu o'rinda *iste'molning sifati* degan tushuncha ham bor. Iste'mol sifati iste'molning miqdori va tarkibi o'rtasida ma'lum me'yorda nisbat bo'lishini taqozo etadi. Masalan, oziq-ovqat iste'moli shunday miqdor va tarkibda bo'lishi kerakki, u kishi organizmini kerakli oqsil va vitaminlar bilan ta'minlashi kerak.

Aholining turmush darajasini aniqlashda aholining real daromadi asosiy ko'rsatkichdir. Narx-navo qat'iy bo'lib, pul daromadi ko'paysa, real daromad ham ortadi. Turmush darajasining moddiy-natural ko'rsatkichlari ham mavjud. Bular jumlasiga aholi jon boshiga to'g'ri keladigan uy-joy sathi, avtomashina, sovitgichlar miqdori, aholi jon boshiga oziq-ovqat mahsulotlari iste'mol qilish kabilar kiradi.



Daromadlar kabi aholining turmush darajasi ham tabaqlashadi. Iqtisodiy rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining turmush darajasi bir-biridan keskin farq qiladi. Turmush darajasi ortgan sari aholi pul xarajatlarining ko'proq qismi nooziq-ovqat mahsulotlarini xarid etishga sarflanadi. Mamlakat qancha boy bo'lsa, xalqi farovonlikda yashasa, aholining oziq-ovqat uchun sarfi hissasi shuncha kam bo'ladi. Masalan, AQSH aholisi daromadining 12 % i, Hindistonda esa 44,4 % i, Efiopiya va Afg'onistonda 70—80 % i oziq-ovqatga sarflanadi.

*Aholi daromadlarining taqsimlanishi.* Har qanday inson o'zining hayotiy ehtiyojlari uchun zarur mahsulotlar va xizmatlarni xarid qilishi kerak. Demak, u topgan daromadlaridan ma'lum miqdorda xarajat qilishi zarur. Bu narsa, bir tomondan insonlarning ehtiyojiga, ikkinchi tomondan uning daromadiga bog'liq bo'ladi. Daromad qancha yuqori bo'lsa, kishilarning xarid quvvati shuncha yuqori bo'ladi, o'z-o'zidan sarf-xarajatlar ham ko'payadi. Xarajat miqdori hamma uchun bir xil bo'lmaydi, ammo baribir xarajatlarning umumiy jihatlari bor — umuminsoniy ehtiyojlar mavjud. Masalan, ovqatlanish, kiyinish, bilim olish, bolalarni tarbiyalash, dam olish xarajatlari hamma uchun birdek zarur. Xarajatlardagi miqdoriy farq kishilarning daromadiga bog'liq bo'ladi. O'ziga to'q va boy oilada sarf-xarajat ko'p bo'lsa, nochor oilalarda ular oz bo'ladi.

O'zbekiston aholisi xarajatlari tarkibini tahlil etish shuni ko'rsatdiki, oila sarf-xarajatlarining 82—85 % i mahsulotlar sotib olish va xizmatlarga haq to'lash uchun yo'naltirilmoqda. Bunday yuqori ulushning aholi pul xarajatlariga nisbatan yuqori bo'lishi bozor iqtisodiyotiga o'tish qiyinchiliklari bilan bog'lanyapti. Aholi daromadlarining ko'payishi, mahsulotlar va xizmatlar narxlarining keyinchalik pasayishi (iqtisodiyot va infratuzilmaning rivojlanishi tufayli) bunday sarflar salmog'ining pasayishiga olib kelishi mumkin. Ayni chog'da aholi xarajatlarida xususiylashtirilayotgan korxonalar aksiyalarini, xorijiy valutalarni sotib olish, tomoshaxonalar xizmatiga haq to'lash kabi chiqimlar past darajada bo'layotganligi kuzatilmoqda.

Aholi xarajatlari tarkibi doimiy, statik narsa emas, u iqtisodiy-ijtimoiy vaziyat o'zgarishi, islohotlar chuqurlashuvi, modernizatsiyalashuvi va iqtisodiyot erkinlashuvi natijasida o'zgarishga moyildir. Bu o'zgarishlar maishiy xizmatlar, ma'rifiy xizmatlar, turizm xizmati, aksiyalar sotib olish kabilarda ulushining o'sib borishini ta'minlaydi. Natijada mamlakatimizda jahon mamlakatlaridagi kabi

umumiy tendensiya, ya'ni aholining turmush darajasi o'sgan sari uning nooziq-ovqat mahsulotlariga va xizmatlarga sarf-xarajatlari ko'payib boradi. Shu sababli, AQSH, Yaponiya, Shveysariya, Germaniya singari boy mamlakatlarda oziq-ovqat mahsulotlarining oila budjetidagi hissasi past darajada bo'ladi (10—12 %). Bu holni O'zbekistonda har xil daromad oluvchi aholi qatlamlari xarajati ham tasdiqlaydi, shirkat a'zolari va nafaqaxo'rlar oziq-ovqat uchun daromadning ko'p qismini sarflasa, tadbirkorlar esa o'z daromadining kamroq qismini oziq-ovqatga sarflaydi.

Aholi xarajatlari oilaning tarkibiga va madaniy saviyasiga ham bog'liq bo'ladi. Oiladagi ko'p noo'rin sarflar iste'mol madaniyatining pastligi bilan ham izohlanadi. Masalan, turli dabdabali rasm-rusumlar, to'y-hashamlar uchun behuda sarf-xarajatlar qilinadi.

Aholining pul daromadi, binobarin, xarid qobiliyati cheklangan sharoitda xarajatlar ehtiyojlarini to'laroq qondiruvchi mahsulot va xizmatlarni sotib olishga qaratilishi kerak bo'ladi. Bunda mablag' mahsulotlarining eng arzon va zaruriga sarflanadiki, fuqarolar o'z imkoniyatidan kelib chiqib, ehtiyojlarini to'laroq qondirishga intilishadi. Shu tariqa iqtisodiy tanlov qoidasiga amal qilinadi. Aholi pul sarflash yo'llaridan bir nechtasini taqqoslab, o'zi uchun eng maqbulini tanlab oladi.

Masalan, avtomashina, mebellar to'plami yoxud uy-joy qurish kerak bo'lsa-da, ulardan eng zaruri, oilaning qurbi yetadigani tanlab olinib pul sarflanadi. Aholi daromadlari o'zgarib borishi bilan tanlov ham o'zgaradi. Oila imkoniyatlariga bog'liq holda tanlanadigan mahsulotlar doirasi har xil bo'lishi aniq. Hayotda daromad va xarajat o'rtasida muvozanat bo'lishi talab qilinadi. Chunki bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida uchraydigan qiyinchiliklar natijasida ko'zda tutilmagan xarajatlar duch kelishi mumkin. Masalan, bozor narxi ortsa, xarajatlar ortadi, ish yurishmay qolsa, daromad kamayadi va h.k.

Shuning uchun har bir oila uchun ma'lum miqdorda pul zaxirasi bo'lgani ma'qul. Zaruriy xarajatlar talab qilinsa, daromad miqdori kamayganda jamg'arilgan pul ishlatilishi mumkin. Xarajatlar aniqlanganda, eng avvalo, ulardan eng zaruriga pul ajratish ko'zda tutiladi. Bu xarajatlar muhimligiga qarab ikki guruhdan iborat bo'ladi:

- 1) ovqatlanish, davolanish, uy-joy kommunal xizmati, bog'cha va bilim olish sarflari;
- 2) kiyinish, dam olish, uyni jihozlash, to'y-ma'raka, sayr-sayohat sarflari va boshqalar.

Bunda birinchi guruh sarf-xarajatlariga ustuvorlik beriladi va undan ortib qolgan mablag' hisobidan ikkinchi guruh xarajatlari qoplanadi. Turmush bir maromda borishi, kutilmagan qiyinchiliklarga duch kelib qolmaslik uchun oilaning daromad va xarajatlari rejalashtirib borilishi zarur. Bu bozor iqtisodiyotining qat'iy talabi hisoblanadi.

O'zbek xalqida «hisobli do'st ayrilmas» degan maqol bor. Hisob-kitob bor joyda oila yaxshi yashaydi, kutilmagan holatlar kam bo'ladi. Har bir oila o'z budjetini rejalashtirib borishi qonun-qoidalariga oson moslashish imkonini beradi. Bu narsa, ayniqsa, talaba va o'quvchilar uchun taalluqlidir, zero, ular oila budjeti xarajatlarida salmoqli o'rin tutadi. Shuning uchun har bir talaba o'z oila iqtisodiy sharoitlaridan kelib chiqib shaxsiy hayoti ehtiyojlarini qondirib borishga mas'ullik sezishi kerak.

#### **7.12. O'zbekistonda ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlari**

Dunyoning barcha mamlakatlaridagi kabi O'zbekistonda ham davlat ijtimoiy siyosatining mohiyatini, jamiyatning hayotini tartibga solishdan iboratdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bu siyosatning o'zagi jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlar o'rtasida tabaqalashuvning o'ta kuchayib ketishiga yo'l qo'ymaslikdan iborat. Buning uchun davlat aholi daromadlarini shakllantirishning adolatli tamoyillarini ishlab chiqib, shu asosda ish olib bormoqda.

Jamiyat a'zolarining daromad darajasi aholi farovonligining muhim ko'rsatkichidir. Unga qarab har bir kishining moddiy-ma'naviy ehtiyojlari, oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, sog'liqni saqlash, ilm olish kabilarning qondirilishi amalga oshiriladi. Iste'moldagi farqlar faqat mehnat orqali topilgan daromadlaridagina emas, balki oila a'zolari soni, oiladagi ishlovchilar bilan ishlaymaydiganlar nisbati, hududiy joylashuvi va milliy xususiyatlari bilan ham bevosita bog'liq bo'ladi. Shuning uchun davlatning o'z ijtimoiy siyosati bilan uni tartibga solib borishi muhim vazifa hisoblanadi. Davlat ijtimoiy siyosati, asosan, ikki yo'nalishda olib boriladi:

1. *Aholining mehnat qilish huquqini kafolatlash.* Bunda davlat mamlakat fuqarolarining konstitutsiyaviy huquqi bo'lgan mehnat qilish huquqlarini amalga oshirishlari uchun imkoniyatlar yaratib berish vazifasini bajaradi. Ularning mehnat qilish, kasb-hunar tanlash va egallashdagi erkinliklari ta'minlanadi. Fuqarolarning bu huquqlarini ro'yobga chiqarish uchun umumiy, o'rta maxsus, oliy ta'lim tizimi tashkil etildi. Aholining bandligini ta'minlash maqsadida ish joylarini yaratish, ish joylarida mehnat qilish

sharoitlarini yaxshilab borish, ular mehnati uchun to'lanadigan ish haqlari minimum darajasini belgilash, ish vaqti, ish haftasi, mehnat ta'tili, ishga yollanish, ishdan bo'shatish kabi mehnat bilan bog'liq bo'lgan barcha munosabatlarni tartibga solish to'g'risidagi tartib-qoidalarni belgilovchi qonun hujjatlarini qabul qiladi, ularning ijro etilishini nazorat qilib boradi. Bu qonun hujjati O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi hisoblanadi.

2. *Aholining eng kam ta'minlangan, o'zlari topgan daromadlari ularning minimal darajadagi ehtiyojlarini qondirishga yetmaydigan qismini qo'llab-quvvatlash.* Bunda davlat tomonidan qabul qilingan ijtimoiy himoya dasturlari asosida davlat budjeti va maxsus nobudjet fondlar hisobidan turli nafaqalar berish, bepul xizmatlar ko'rsatish, oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa imtiyozlar berish chora-tadbirlari amalga oshiriladi. Bu tadbirlarni amalga oshirishda mahalla qo'mitalarining roli katta bo'lib, bu yordamlar aniq va manzilli bo'lishini ta'minlashga ahamiyat beriladi.

Aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlash uchun mablag'lar milliy daromadning qayta taqsimlanishi orqali tashkil etiladi. Bu jarayonda davlat markazlashgan budjeti hosil qilinib, undan asosiy qismi aholi ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish uchun ajratiladi. O'zbekiston Respublikasi budjetidan 2014-yilda 60 % i ijtimoiy sohalar ehtiyoji uchun ajratildi.

Ijtimoiy siyosatni amalga oshirish uchun mablag'larning yana bir asosiy qismi korxonalar foydasi hisobidan tashkil etilgan fondlardan iborat bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholini ijtimoiy himoyalash siyosatini amalga oshirishda uning eng kam iste'mol, ya'ni yashash minimumini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Uning darajasini aniqlashda, odatda, oilaning ish haqi, turli nafaqalar, stipendiyalar va boshqa daromadlari hisoblanib chiqiladi va uning eng kam miqdori aniqlanadi. Aniqlashda quyidagi usullardan foydalaniladi:

- 1) iste'mol savati asosida;
- 2) ekspert baholash;
- 3) sotsiologik;
- 4) regressiv model uslubi kabilar.

Jumladan, iste'mol savati uslubini ko'radigan bo'lsak, insonning muayyan ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan tovarlar va xizmatlarning miqdori bo'lib, u bozordagi joriy narxlar bilan belgilanadi. Iste'mol savati ikki xil bo'ladi:

1) jamiyat rivojlanishi ma'lum bosqichida eng kam darajada zarur bo'lgan miqdori, eng kam «iste'mol savati»;

2) jamiyat a'zolarining oqilona xarajatlari asosida har tomonlama kamol topishini ta'minlay olishini hisobga olgan «iste'mol savatidan» iborat.

Iste'mol savatini hisoblashning hozirgi vaqtda uch asosiy usuli bor. Ular normativ, statistik, kombinatsiyalashgan usullar deyiladi va shu asosda muayyan mamlakat uchun iste'mol savatining narxi aniqlanadi. Bu narx unga kiritilgan eng zarur tovar va xizmatlarning shu mamlakatdagi baholaridan kelib chiqadi. Iste'mol savatining 70 % idan ortiqrog'i, asosan, oziq-ovqat, kiyim-kechaklar va xizmatlar qiymatidan iborat bo'ladi. Iste'mol savati narxi shu mamlakatda yashash minimumi chizig'ini belgilaydi. Chiziqdan past daromad oluvchilar kambag'allar qatlamini tashkil etadi.

Yuqorida bayon etilganlardan ko'rinib turibdiki, jamiyatdagi tabaqalashuv aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad va uning yashashi uchun zarur bo'lgan tovar va xizmatlar baholari bilan bevosita bog'liq bo'lar ekan.

Ana shu bog'lanish prussiyalik iqtisodchi olim Ernest Engel tomonidan o'rganib chiqilgan va shunday xulosaga kelingan: «Olingan daromad qancha past bo'lsa, oziq-ovqat, kiyim-kechak sarfi daromadda shuncha yuqori, uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar olish uchun qilingan xarajatlar shuncha kam bo'ladi, aksincha, daromad ko'p olinsa, unda kundalik ehtiyojga sarflandigan xarajatlar shuncha kam, uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar uchun xarajatlar hissi shuncha ko'p bo'ladi». Bu bog'liqlik, ya'ni daromadlarning xarajatlar tarkibi bilan bog'liqligi iqtisodiyot nazariyasida Engel qonuni deb ataladi. Lekin Engel qonunini mutlaq xarakterga ega deb tushunib bo'lmaydi. Chunki aholining turmush darajasi o'sib borish tendensiyasiga ega. Shuning uchun ham daromadlar o'sishi bilan ehtiyojlar va iste'mol tizimi ham parallel ravishda o'zgarib boradi. Natijada, birinchidan, qisqa muddat foydalaniladigan tovarlar iste'moliga nisbatan uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar iste'molining o'sib borishi kuzatiladi. Ikkichidan esa iste'molda moddiy buyumlar ulushi kamayib, ma'naviy ehtiyojlarning qondirilishiga e'tibor berish o'sadi. Jumladan, bilim olishga, sport, dam olish, sayohatlarga borish kabilarga ko'proq vaqt va mablag' ajratiladi. Bu esa aholining turmush darajasining o'sib borayotganligini ko'rsatadi.

Aholining turmush darajasi «Turmush sifati indeksi» ko'rsatkichida o'z ifodasini topadi. Har bir mamlakatdagi turmush sifati indeksi quyidagi ko'rsatkichlar asosida hisoblanadi:

- 1) sog'liqni saqlashga e'tibor;
- 2) ta'lim darajasi;
- 3) o'rtacha yashash yoshi;
- 4) aholining ish bilan bandligi;
- 5) aholining siyosiy hayotda keng qatnashuviga imkon yaratilganligida. Jahon mamlakatlari ichida hozirgi vaqtda turmush darajasi indeksi eng yuqori mamlakatlar qatoriga AQSH, Yaponiya, Kanada, Norvegiya, Shveysariya, Germaniya kiradi.

#### ASOSIY TAYANCH IBORALAR

- Ish haqi;
- nominal ish haqi;
- vaqtbay ish haqi;
- real ish haqi.
- ishbay ish haqi;



#### TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Yalpi ichki milliy mahsulotning taqsimlanishini aytib bering.
2. Ish haqi to'g'risidagi nazariyalar va ularning mualliflari to'g'risida so'zlab bering.
3. Real ish haqi va unga ta'sir qiluvchi omillarni aytib bering.
4. Ish haqining darajasi deganda nimalarni tushunasiz?
5. Mehnat muhofazasi, ishchilarga ish haqi, ish sharoitlarini yaxshilash masalalari bilan qaysi tashkilot shug'ullanadi?
6. Aholi daromadlari va uning manbalarini bilasizmi?
7. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi daromadlari manbalarining o'zgarishi va daromad turlari tarkibining o'zgarish sabablari nimada?
8. Aholi daromadlari tarkibida ish haqi ulushining qisqarib borish sabablarini aytib bering.
9. O'zbekistonda aholi daromadlari tarkibining o'zgarib borish sabablarini aytib bering.
10. Aholi daromadi taqsimlanishining o'ziga xos xususiyatlarini bayon eting.
11. Tadbirkorlik daromadlari qanday shakllanadi?
12. Kichik biznes faoliyati va undan olinadigan daromadlar tarkibini tushuntirib bering.
13. Oila daromadlari va xarajatlari balansini tuzib, uni tahlil qilib bering.
14. Dividend nima va uning daromad manbasi sifatida ahamiyatini aytib bering.
15. Mulkiy daromadlarni qanday qilib ko'paytirish mumkin?
16. O'zbekistonda ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlarini aytib bering.
17. Iste'mol savati nima va uning hisoblanish tartibi qanday?
18. Engel qonuni deb nimaga aytiladi?
19. Aholi turmush darajasi ko'rsatkichlarini aniqlash qanday amalga oshiriladi?
20. Turmush sifati indeksi deganda nimani tushunasiz?

---

## 8-bob. RAQOBAT NAZARIYASI

### 8.1. Raqobatning mohiyati. Raqobatning iqtisodiy asoslari va maqsadi

Bozor iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy omillaridan biri — bu raqobatdir. Iqtisodiy adabiyotlarda raqobat kurashi bozor munosabatlari ishtirokchilarini harakatga keltiruvchi kuch deb yuritiladi. Bozorda raqobat qanchalik kuchli bo'lsa, tovarlar va xizmatlar sifati yaxshi, narxlari esa shunchalik arzonlashib boradi. Shuning uchun ham respublikamiz Prezidenti I.A. Karimov «Raqobat bo'lmasa, bozor iqtisodiyotini barpo etib bo'lmaydi. Raqobat — bozorning asosiy sharti, aytish mumkinki, uning qonunidir»<sup>1</sup> deb ko'rsatib o'tgan. Demak, raqobat o'z mohiyatiga ko'ra, bozor iqtisodiyotining asosiy obyektiv qonunlaridan biri, bozor munosabatlari takomillashib borishining muhim sharti hisoblanadi.

Raqobat har bir tovar ishlab chiqaruvchilar, turli xizmat ko'rsatuvchilar hamda iste'molchilar o'rtasidagi yaxshi foyda olish, bozorda, umuman, iqtisodiyotda o'z mavqeyini mustahkamlash uchun kurashdan iboratdir. Bu raqobat kurashining pirovard natijasi iste'molchilar uchun kurash va unda ishtirok etuvchilar o'z manfaatlariga erishishlaridir.

Bozorda qatnashayotgan har bir subyekt, ya'ni resurslar sotuvchi — resurslarini, xizmat ko'rsatuvchilar — xizmatini, tovar ishlab chiqaruvchilar — tovarlarini imkon boricha yuqori baholarda sotish uchun kurashadilar. Firmalar, korxonalar, sotuvchilar, iste'molchilar — barchalari o'zaro raqobat qiladilar. Bozor iqtisodiyoti taraqqiy etgan mamlakatlarda bu raqobat kurashi erkin va to'liq namoyon bo'ladi.

Raqobat kurashi, hatto iste'molchilar o'rtasida ham yuz beradi, ular eng sifatli tovarlarni arzon baholarda sotib olishga harakat qiladilar. Raqobat ko'p qirrali iqtisodiy hodisa bo'lib, u bozorning barcha subyektlari o'rtasidagi murakkab munosabatlardan iborat.

---

<sup>1</sup> I.A. Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., «O'zbekiston», 1999, 34-bet.

Raqobat to'g'risida mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan nashr etilgan adabiyotlarda turlicha ta'rif berilgan. Jumladan, A. O'Imasovning «Iqtisodiyot asoslari» o'quv qo'llanmasida raqobatga shunday ta'rif berilgan: «Raqobat iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining o'z manfaatlarini to'laroq yuzaga chiqarish, ya'ni yaxshiroq daromad topish, o'z mavqeyini mustahkamlash, o'z qobiliyatini namoyon etish va imij (ovoza-obro')ga ega bo'lish uchun boshqalar bilan kurashishdir»<sup>1</sup> deb yozadi.

Sh. Shodmonov, R. Alimov, T. Jo'rayev esa «Raqobat — bozor subyektlari iqtisodiy manfaatlarining to'qnashishidan iborat bo'lib, ular o'rtasidagi yuqori foyda va ko'proq nafilikka ega bo'lish uchun kurashni anglatadi» deb yozadi. So'ngra o'z fikrlarini davom ettirgan holda, «Bunda ishlab chiqaruvchilar o'rtasida sarflangan xarajatlarining har bir birligi evaziga ko'proq foyda olish uchun kurash boradi. Mana shu foyda orqasidan quvish natijasida tovarlarni sotish doiralari, ya'ni qulay bozorlar uchun, arzon xomashyo, energiya va arzon ishchi kuchi manbalari uchun ular orasida kurash boradi.

O'z navbatida, xaridorlar, ya'ni iste'molchilar sarflagan har bir so'm xarajati evaziga ko'proq nafilikka ega bo'lish uchun kurashadilar, ularning har biri arzon va sifatli tovar va xizmatlarga ega bo'lishga harakat qiladi. Ishlab chiqaruvchilarning faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkor va mulk egasi sifatida erkin va mustaqil bo'lishi raqobatning iqtisodiy asosini tashkil etadi»<sup>2</sup> degan aniq va to'liq fikrni bayon qiladilar.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir xususiy mulk egasining o'z manfaati bo'lib, u tovar ishlab chiqarishmi, xizmat ko'rsatishmi yoki boshqa qaysi sohalarda faoliyat olib bormasin, o'z manfaati uchun kurashadilar. Bu, avvalo, bozor iqtisodiyotining tabiatidan kelib chiqadi. Bozor har bir iqtisodiy faoliyat yurituvchi subyektlar uchun erkin raqobat muhitini yaratib beradi. Raqobat kurashi bo'lishining asosiy sharti — tovar ishlab chiqaruvchilar hamda iste'molchilar uchun ham tanlov erkinligining mavjud bo'lishidir.

## 8.2. Raqobat strategiyasi

*Raqobat strategiyasi* — bu ma'lum bir firmaning bozorda olib boradigan raqobat kurashining uzoq davrga mo'ljallangan asosiy rejasi, yo'l-yo'riqlaridir. Strategiya firmaning bosh asosiy maqsad-

<sup>1</sup> A. O'Imasov. Iqtisodiyot asoslari. T., «Mehnat», 1997, 92-bet.

<sup>2</sup> Sh. Shodmonov, R. Alimov, T. Jo'rayev. Iqtisodiyot nazariyasi. T., «Moliya», 2002, 158-bet.



larini o'zida mujassamlashtirgan bo'lib, unda qanday qilib foydani eng yuqori darajaga ko'tarish, kam xarajat qilgan holda o'z bozorini kengaytirish yoki boshqa raqobatchilarni bozordan siqib chiqarish, yangi bozorlarga sekin-asta kirib borishning yo'llarini belgilab olishdan iborat bo'ladi. Strategik rejaga qarab, firma o'zining kurash taktikasi va usullarini qo'llagan holda bozorda raqobat olib boradi. Bozordagi holat va shart-sharoitdan kelib chiqqan holda firma o'z usullarini o'zgartirib turishi ham mumkin. Misol uchun, ayrim firmalar narxlar orqali raqobat qilsa, ayrimlari mahsulot sifati orqali raqobat qiladilar. Jumladan, AQSH va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari firmalari o'zlari uchun narxi yuqori bo'lgan sifatli tovarlarni taklif etishadi, chunki bu mamlakatlarda aholining daromadlari yuqori bo'lganligi sababli, xarid qobiliyatlari ham ancha yuqori. Endigina rivojlanib kelayotgan mamlakatlarda esa aholining daromadlari past bo'lganligi uchun ularga sifati pastroq bo'lsa-da, narxlari arzonroq mahsulotlar taklif etadilar.

### **8.3. Raqobat kurashi shakllari**

Raqobat kurashi quyidagi asosiy shakllarda namoyon bo'ladi:

1. *Tarmoq ichidagi raqobat* — bunda bir tarmoq korxonalari o'zaro raqobatlashadilar. Bu raqobat, eng avvalo, ishlab chiqarishni rivojlantirish orqali olib boriladi. Korxonalar ishlab chiqarishda yuqori unumli texnika-texnologiyalar qo'llash yo'li bilan mehnat unumdorligini oshirish, mahsulotlar sifatini yaxshilash, uning tannaxsini kamaytirish orqali o'z tovarlari sotilishining qulayroq sharoitiga ega bo'lish va qo'shimcha foyda olish uchun kurash olib boradilar.

Tarmoq ichidagi raqobat orqali tovarlarning bozor qiymati aniqlanadi va bu qiymat, odatda, muayyan tarmoqda ishlab chiqarilgan tovarlarining o'rtacha qiymatiga mos keladi. Shuning uchun tarmoqlar ichidagi raqobat natijasida yangi texnika va texnologiyalardan foydalanayotgan, mehnat unumdorligi yuqori bo'lgan korxonalar qo'shimcha foyda oladilar. Yangi texnika va texnologiyalardan foydalanmay, mehnat unumdorligini oshirmay, mahsulot sifatini yaxshilamagan korxonalar esa zarar ko'rishib, raqobatda sinadilar.

*Tarmoqlararo raqobat* — ishlab chiqarishning turli tarmoqlariga tegishli bo'lgan korxonalar o'rtasida yuqori foyda olish uchun olib boriladi. Bunday raqobat natijasida ayrim korxonalar foyda me'yori kam bo'lgan muayyan bir tarmoqdan foyda me'yori yuqori bo'lgan boshqa bir tarmoqqa o'tib ketadi. Iqtisodiyot nazariyasida bu holat kapitallarning tarmoqlararo oqib yurishi deyiladi.

Kapitalarning bir tarmoqdan ikkinchi, ko'proq foyda oluvchi tarmoqqa o'tib, ishlab chiqarishni tashkil qilishi natijasida bu tarmoq kengayadi va ularning tovar taklifi ortadi. Bu esa, o'z navbatida, bozorda mazkur tarmoqning tovarlari narxlarining pasayishiga olib keladi va tarmoqning foyda me'yori pasayadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida foyda me'yori past bo'lgan tarmoqlardan kapitalning boshqa tarmoqqa o'tib ketishi uzluksiz sodir bo'lib turuvchi obyektiv jarayon hisoblanadi. Bu jarayon bozorning talab va taklif qonunining ta'siri ostida sodir bo'ladi. Natijada foyda me'yori past bo'lgan tarmoqlarda ishlab chiqarish hajmi qisqaradi va bozorda ularning tovarlariga bo'lgan talab oshib ketadi, buning oqibatida narxlar ko'tarilib, bu tarmoqda foyda me'yori oshadi. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, tarmoqlararo raqobat obyektiv jarayon sifatida bozorda dinamik muvozanatni keltirib chiqaradi. Bu muvozanat sarflangan kapitalning qaysi tarmoqqa qo'yilganligidan qat'i nazar, teng kapital uchun teng foyda olinishini ta'minlab beradi. Tarmoqlararo raqobat bozorda tarmoqlararo o'rtacha foyda me'yorini keltirib chiqaruvchi omil deb qaraladi.

#### **8.4. Raqobat usullari: nohalol va halol raqobat**

Raqobat kurash usullari jihatidan nohalol va halol raqobat bo'lishi mumkin. Nohalol raqobat davlat tomonidan taqiqlangan g'ayriinsoniy usullardan foydalanib, bozordagi raqobatchilarga qarshi kurash olib borishdir. Nohalol raqobatda uning ayrim ishtirokchilari tomonidan josuslik, qo'poruvchilik, reket, tuhmat, tovar belgisini o'g'irlash, hatto qotillik kabi usullardan foydalanib o'z raqibini bozordan chiqarib yuborishga harakat qilishdir. Nohalol raqobatdan foydalanadigan ayrim firmalar o'z tovarlariga mashhur firmalarning belgisini qo'yib, xaridorlarni aldash bilan ham shug'ullanadilar.

*Halol raqobat* — bu bozor ishtirokchilarining davlat tomonidan qabul qilingan qonunlar doirasida yo'l berilgan usullardan foydalanib, o'z faoliyatlaridan yuqori darajada foyda olishlari uchun o'zaro kurashuvdir. Halol raqobatda, odatda, uning ishtirokchilari xalq tomonidan tan olingan, madaniy usullar qo'llaniladi. Bu usullarning keng tarqalgani tovar va xizmatlarning narxi vositasida raqobatlashuvdir. Narx bilan raqobatlashuvda raqobatchilar o'z tovarlariga boshqalardan arzonroq narx yoki qimmatroq narx qo'yadilar. Natijada bozorda ularning tovarlariga xaridor ko'payadi. Lekin tovar narxini tushirishning ma'lum chegarasi mavjud bo'lib, u xarajatlardan pasayib ketishi mumkin emas, aks holda, zarar ko'riladi. Har qanday firma o'z tovari narxini arzonlashtirish uchun

qilingan xarajatlarini pasaytirishi zarur bo'ladi. Xarajatlarni kamaytirishga esa hamma vaqt ham erishib bo'lmaydi.

Bozorda raqobatlashuvning yana bir keng tarqalgan usuli — bu tovar va xizmatlar sifatini oshirish orqali kurashishdir. Tovarning sifati deganda, odatda, uning uzoq vaqt ishonchli xizmat qilishi, uning chiroyli bo'lishi, iste'mol uchun qulayligi, ekologik toza bo'lishi kabilar tushuniladi. Hozirgi vaqtda texnikaviy tovarlar uchun esa uning energiya va yonilg'i sarfi kamligi, uzoq va ishonchli xizmat qilishi, ixchamlik, ko'p joy egallamaslik kabi tomonlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan ko'rinib turibdiki, tovarlar sifati bilan raqobatlashishda doimiy ravishda ularning tarkibini yangilab turish orqali ham afzalligini ta'minlash muhim hisoblanadi.

Halol raqobatlashuvning yana bir yo'li servis xizmatlari ko'rsatish orqali amalga oshiriladi. Servis xizmat ko'rsatish, ayniqsa, texnikaviy tovarlar sotilishida yaxshi qo'l kelmoqda va bu usuldan raqobatchilar so'nggi paytlarda juda keng foydalanishmoqda. Tovarni iste'molchi uyiga yetkazib berish, ularni ishga tushirish, bepul ta'mirlab turish kabi juda ko'p xizmat turlari ko'rsatilmoqda va bu raqobatda yutib chiqishni ta'minlayapti. Raqobatning bunday turli usullaridan foydalanishdan asosiy maqsad raqobatda yutib chiqishdan iborat. Raqobatlashuv usuli qanchalik samarali bo'lsa, g'olib chiqish imkoni ham shunchalik ko'p bo'ladi.

Halol raqobat kurashining hozirgi davrda keng qo'llanilayotgan shakli tovar va xizmatlar reklamasidan iborat bo'lmoqda. Turli firmalar, korxonalar o'z tovarlarining sifati, xilma-xilligi, nafliligi, kafolatlanishi, narxlari kabi ko'p ma'lumotlarni xolisona taqdim etish yo'li bilan xaridorlarni qiziqtirish orqali raqobatda yaxshi natijalarga erishmoqdalar. Reklama to'g'risida barcha davlatlarda, jumladan, O'zbekistonda ham qonunlar qabul qilingan bo'lib, unga bir qator talablar qo'yiladi. Qonunga ko'ra reklama beruvchilarga, eng avvalo, tovar va xizmatlar xususiyatlari haqida xolis va halollik bilan to'g'ri axborot berish, boshqa raqobatchilarining tovarlarini rad etmaslik kabi majburiyatlar yuklatiladi. Talablarga rioya qilish ustidan ham davlat nazorati olib boriladi.

### **8.5. Mukammal raqobat va uning afzalliklari**

Bozor tizimida raqobatning, asosan, ikki turi mavjud bo'lib, ular mukammal va nomukammal raqobat deyiladi. *Mukammal raqobat* iqtisodiy adabiyotlarda sof raqobat ham deb aytiladi. Mukammal raqobat sharoitida bozorda barcha qatnashadi. Chunki

bozor erkin munosabat bo'lishini talab qiladi. Bozorda sotuvchilar va xaridorlar ko'pchilik bo'lib, ulardan hech biri monopoliya mavqega ega bo'lmaydi, zo'ravonlik va majburlash yo'li bilan o'z izmini yurgiza olmaydi, shuning uchun ham bunday bozor mukammal yoki sof raqobatli bozor deb aytiladi. Ko'p sonli tovar ishlab chiqaruvchi korxonalar sof, erkin raqobat sharoitida, asosan, o'z mahsulotlari narxi, sifati orqali bozorda raqobat qiladilar. Erkin raqobat sharoitida har qanday yangi korxonalar tarmoq bozoriga erkin kirishi va tarmoqdan erkin chiqib ketishi ham mumkin.

*Nomukammal raqobat* deganda, odatda, bozorda raqobat cheklangan holda namoyon bo'lishi tushuniladi, chunki unda ayrim monopoliyalar erkin, sof raqobat bo'lishiga yo'l qo'ymaydi. Bunda bozorga tovarlarning katta qismini ko'pchilik bo'lmagan, ayrim monopollashgan firmalar taklif etadi, xaridorlar esa shu cheklangan sharoitda ularning tovarlarini olishga majbur bo'ladilar. Nomukammal raqobatning quyidagi ko'rinishlari bor. Biz ularning ayrimlariga to'xtalib o'tamiz:

a) *monopolistik raqobat* — bu muayyan bir tarmoqda bitta firma yoki yirik korxonalar bo'lib, u bozorni to'la egallagan holda hukmronlik qiladi. Shu sababli, mahsulot (xizmat) narxini firmaning taklif hajmidan kelib chiqqan holda belgilaydi. Bu monopoliya korxonalar boshqa korxonalarning tarmoqqa kirishi uchun turli to'siqlar qo'yishga harakat qiladi va bu to'siqlar yangi raqobatчилarning tarmoqqa kirishiga yo'l qo'ymaydi. To'siqlar har xil ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Ular quyidagicha:

1) moliyaviy to'siqlar — hozirgi zamonaviy korxonalar yirik ishlab chiqaruvchilar bo'lib, yangi texnika-texnologiyaga asoslangan, ishlab chiqarish miqyosi juda katta kapital talab qiladigan bo'lgani uchun bu tarmoqqa kirishga boshqalarning qurbi yetmasligi mumkin;

2) qonuniy to'siqlar — hozirgi vaqtda dunyoning barcha mamlakatlarida monopoliyaga qarshi qonunlar qabul qilinganligiga qaramay, ayrim monopoliyalar davlat tomonidan litsenziya berishning cheklanishiga harakat qiladilar. Bu tarmoqqa kirish uchun qonuniy to'siqlar yaratish hisoblanadi;

3) bozor iqtisodiyoti sharoitida xususiy mulkchilik monopoliyalar uchun boshqalarning ular tarmog'iga kira olmasliklariga samarali to'siq yaratish imkonini beradi, chunki ayrim xomashyo turlariga xususiy mulk sifatida egalik qilishadi.

Yuqorida aytib o'tilgan nohalol raqobat yo'li bilan ayrim firmalar o'z raqiblarining tarmoqqa kirib kelishiga yo'l qo'ymaslikka shafqatsiz harakat qiladilar;

b) *oligopolistik raqobatning* eng muhim belgisi — bu bir tarmoqda ozchilikni tashkil etuvchi bir guruh firmalarning hukmronlik qilishidir. Tovarlar va xizmatlar bozorida bir guruh kam sonli firma yoki korxonalar hukmronlik qilsa, ular oligopoliya deb aytiladi.

Oligopoliya korxonalarini bir xil yoki tabaqalashgan har xil mahsulotlar ishlab chiqarishlari ham mumkin. Hozirgi vaqtda jahonda oligopolistik korxonalar ko'proq tabiiy boyliklarni qazib olish va og'ir sanoatda uchraydi. Ularning mahsulotlari: neft, gaz, oltin, temir, po'lat, alumin, qo'rg'oshin kabilarni qazib olish, gazni, neftni qayta ishlash, metallurgiya sanoatlari va shu kabilardan iborat.

Oligopolistik korxonalar hukmronligi sharoitida raqobat o'ziga xos ravishda, ya'ni o'zaro kelishuvchanlik asosida olib boriladi. Ayniqsa, baho siyosati bo'yicha hech qaysi korxonaga mustaqil bo'lmaydi. Ular o'zaro yashirincha kelishuv asosida ish olib boradilar, jumladan, bozorni bo'lish yoki taqsimlash va boshqacha yo'llar bilan o'zlari o'rtasidagi raqobatni cheklashdan iborat. Yashirincha kelishish ham bir qator shakllarda bo'lishi mumkin. Ulardan biri kartel bitimidir. Kartel bitimiga kirgan korxonalar, firmalar ishlab chiqarish hajmi, mahsulotlarning narxlari va boshqa muhim masalalarda kelishib oladilar. Bunga misol qilib OPEK va shunga o'xshash bir qator tashkilotlarni keltirish mumkin. Ular kelishilgan narxni ushlab turish uchun, hatto, ishlab chiqarish hajmini ham kengaytirib yoki kamaytirib, tartibga solib turishadi. Narxlarni belgilashdagi o'zaro yashirincha kelishuv norasmiy vosita hisoblanib, bunga jahon hamjamiyati tanqidiy qaraydi. Bunday tarmoqqa kiruvchi barcha firmalar uchun narxni o'zgartirish majburiy hisoblanadi.

#### **8.6. O'zbekistonda monopoliyaga qarshi qonunchilik va sog'lom raqobat uchun shart-sharoitning yaratilishi**

Ma'lumki, bozor iqtisodiyotining asosiy belgisi uni harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan raqobat, bozor munosabatlarining rivojlanishi bilan ajralmas bog'liqlikda rivojlanib boradi. Bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida yashayotgan mamlakatlarda raqobat munosabatlarini rivojlantirish, tartibga solish ancha murakkab jarayon sifatida uzoq davrlardan buyon davom etib kelmoqda. Natijada hozirgi vaqtga kelib jahonning taraqqiy etgan mamlakatlarida raqobat bozor tizimining ajralmas qismi sifatida takomillashib bormoqda. Shu munosabat bilan respublikamizda bozor iqtisodiyotining asosiy belgisi, harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan raqobat munosabatlarini rivojlanti-

rishga katta ahamiyat berilmoqda. Chunki bozor iqtisodiyotining obyektiv qonunlarini — talab va taklif, tovar nafiligi, raqobat qonunining talabini hisobga olmasdan, bozor munosabatlarini takomillash-tirib borishni ta'minlab bo'lmaydi. Bozor iqtisodiyotining raqobatsiz samarali rivojlanishini tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuning uchun davlat tomonidan raqobatni rivojlantirish va tartibga solish to'g'risida bir qator qonun hujjatlari qabul qilinib, ularning bajarilishi nazorat qilib borilmoqda. Bu esa bozorda raqobatning amal qilishi uchun shart-sharoitlar yaratilayotganligidan darak beradi.

Biz yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, bozorda raqobatlashuvning kuchayib borishi bilan iqtisodiyotda monopollashuv jarayonlari ham kuchayib borishi kuzatiladi va raqobatning cheklanishiga olib keladi. Bu holat davlat tomonidan mamlakatda raqobat uchun shart-sharoitlar yaratib berishni taqozo qiladi. Raqobatni erkin ravishda amalga oshirishning samarali yo'li esa davlatning monopoliyaga qarshi kurashi siyosatida o'z aksini topadi.

Qonunga rioya etmaslik, raqibga zarar yetkazish kabi harakatlar uchun jazo choralari belgilangan. Qonun buzuvchilar jarima to'lashlari, keltirgan zararlarni qoplashlari, olgan foydasidan mahrum etilishlari mumkin. Monopoliyaga qarshi choralarni amalga oshirish uchun Moliya vazirligi tizimida Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish bosh boshqarmasi tashkil etildi. Boshqarmaga respublikamizdagi monopol mavqega ega bo'lgan korxonalarni ro'yxatga olish, ularning mahsulotlari bo'yicha narxlarni tartibga solib turish bo'yicha huquqiy vakolat berildi.

Keyinchalik bu boshqarma Respublika Monopoliyaga qarshi kurash va raqobatni rivojlantirishi davlat qo'mitasiga aylantirildi va hozirgi vaqtda bu qo'mita respublikamizdagi monopol korxonalarni davlat ro'yxatiga kiritish uchun mezonlar belgilashda jahon tajribasi hamda o'tish davrining o'ziga xos jihatlarni hisobga olgan holda faoliyat olib bormoqda.

Ushbu davlat qo'mitasi o'z vakolatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan monopoliyalarning bozordagi mavqeyini tartibga solishda bir qator usullardan foydalanmoqda. Jumladan, birinchi usulda — monopol mavqeyidagi korxonalar mahsulotlariga narxlarning eng yuqori darajasini yoki rentabellikning chegarasini belgilab qo'yish. Masalan, qo'mita tomonidan belgilangan mezonga ko'ra, korxonalar ishlab chiqargan mahsulotlarning muayyan bir turi bozordagi shu turdagi mahsulotning 35 % idan ortiq bo'lsa, bu korxonalar monopol korxonalar sifatida davlat ro'yxatiga kiritiladi va ularga qarshi choralalar ko'riladi. Agar ular oziq-ovqat tovarlari guruhida

bo'lsa, bunday tovarlar uchun mezon 20 % darajasidan oshmasligi kerak deb belgilangan.

Ikkinchi usulga — monopol mavqeyini suiiste'mol qilgan monopolistik birlashmalarni bo'lib tashlash yoki maydalashtirish kiradi. Bu ish Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 18-iyuldagi 366-qarori bilan tasdiqlangan «Obyektlarning xo'jalik yurituvchi jamiyatlar va shirkatlar tarkibidan chiqish tartibi to'g'risida»gi nizom asosida amalga oshiriladi. Respublikada faqat 1994—1996-yillar davomida monopol mavqeyidagi aksiyadorlar jamiyatlari, ijara va boshqa jamoa korxonalar tarkibidan 14972 obyekt chiqarilib, mustaqil korxonalarga aylantirildi. 2000-yilda xususiy-lashtirilgan obyektlar bazasida 154 ta ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlari tashkil qilindi. Hozirgi vaqtda ham bu faoliyat davom ettirilmoqda.

Monopoliyaga qarshi kurash bo'yicha amalga oshirilgan muhim ish — bu O'zbekiston Respublikasining «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonuni qabul qilinishidir. Bu Qonunga ko'ra, bozorlarga belgilangan talablarga javob bermaydigan tovarlarni chiqarishga yo'l qo'ymaydigan mexanizm yaratildi. Natijada mamlakatimizdagi tabiiy monopoliyalar faoliyatlarini tartibga solish, ya'ni ular mahsulot va xizmatlariga narxlar hamda tariflar darajasi, shuningdek, taklif etiladigan tovarlar va xizmatlar turiga doir asosiy ko'rsatkichlari belgilanadigan bo'ldi.

#### ASOSIY TAYANCH IBORALAR

- Raqobat;
- raqobat strategiyasi;
- raqobat usullari;
- tarmoq ichidagi raqobat;
- tarmoqlararo raqobat;
- raqobat shakllari;
- raqobat ko'rinishlari.



#### TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Raqobat nima va uning bozor sharoitidagi rolini tushuntirib bering.
2. Raqobat qonuni nima?
3. Raqobat shakllari to'g'risida nimalar bilasiz?
4. Tarmoq ichidagi raqobatni tushuntirib bering.
5. Tarmoqlararo raqobatni qanday izohlaysiz?
6. Erkin raqobat sharoitida narxning tashkil topishi qanday sodir bo'ladi?
7. O'zbekistonda narxlarni erkinlashtirish qanday amalga oshirildi?

---

## 9-bob. NARX VA UNING SHAKLLANISH MEXANIZMI

### 9.1. Narxning iqtisodiy mazmuni

«Narx nima?», «Uning iqtisodiy mazmuni nimani anglatadi?» kabi savollar nafaqat iqtisodchi olimlarni, balki har qanday tovar va xizmatlarni sotuvchi hamda shu tovar va xizmatlarni sotib oluvchilarni qiziqtiradi. Iqtisodchi olimlar narx tushunchasiga va uning iqtisodiy mazmunini ochib berishga ikki xil yondashadilar: ularning bir guruhi *klassiklar* va ikkinchi guruhi *neoklassiklar* deb ataladi.


Klassiklar narx tushunchasi, uning mazmun-mohiyatini ishlab chiqarish nuqtayi nazaridan yondashib tushuntirishga harakat qiladilar. Ularning fikricha, narx ishlab chiqarish omillari, eng avvalo, mehnat omili bilan bog'liqdir, «Narx — tovar qiymatining puldagi ifodasidir» deyishadi. Bundan ko'rinib turibdiki, ular narx asosini qiymat tashkil qiladi deb qaraydilar. Har qanday qiymat mehnat orqali yaratiladi, deb o'z fikrlarini asoslashadi. Shuning uchun ularga «mehnat va qiymat nazariyasi» asoschilari deb qaraydilar. Bunday qarashga A. Smit va D. Rikardo tomonidan asos solinib, keyinchalik Jon Styuart Mill tomonidan rivojlantirilgan. Ular tovarning qiymati unga sarflangan mehnat sarflari bilan o'lchanadi deyishgan.

Bir jihatdan yuzaki qaralganda, bu to'g'ridek ko'rinadi. Chunki amalda tovar ishlab chiqarish uchun mehnat sarflanadi. Lekin uni aniq o'lchab bo'lmasligi tufayli amalda qiymat bilan narx o'rtasidagi bog'lanish xarajatlar orqali namoyon bo'ladi. Narx miqdori tovar birligini ishlab chiqarish uchun barcha qilingan xarajatlar bilan o'lchanadi. Shu bilan bir qatorda xarajatlarga ma'lum miqdorda olinadigan foyda ham qo'shiladi, natijada mahsulotning narxi kelib chiqadi. Lekin narxning bunday ta'riflanishi ham uning iqtisodiy mazmunini to'liq ochib bera olmaydi, chunki bu holatda tovar va xizmatlarning narxi faqat mehnat mahsuli bo'lgan tovarlarga taalluqli bo'lib, cheklanib qoladi. Vaholanki, mehnatdan boshqa ma'lum omillar ham o'z narxlariga ega bo'ladi. Bundan tashqari, narxni bunday ta'riflaydigan bo'lsak, xarajatlar ko'paygan sari, narx ham uzluksiz ravishda oshib boradi qoidasini mutlaq o'rinli deb tan olishga to'g'ri keladi.



*Neoklassik guruh* vakillari (bu guruhning eng atoqli namoyandasi Alfred Marshall) nuqtayi nazariga ko'ra, «Narx tovarlar va xizmatlarning nafliligini baholash vositasi bo'lib, unga to'lanadigan pul miqdorini ifodalaydi». A. Marshall qiymatni butunlay inkor qilib, faqat almashuv qiymat bor va narxning asosini tashkil qiladi, deb ko'rsatadi. Uning fikriga ko'ra, narx shakllanishining asosida, eng avvalo, me'yoriy naflilik, so'ngra ishlab chiqarish xarajatlari hamda talab va taklif turadi.

#### Narxning shakllanishi



Oldingi boblardan sizga ma'lumki, bozorda talab va taklifning qisqa muddatli, uzoq muddatli muvozanat hollari bo'lib turadi. Shundan kelib chiqqan holda A. Marshall bozorda qisqa muddatli muvozanat davrida narxga naflilik ko'proq ta'sir ko'rsatadi, agar muvozanat uzoq muddatli bo'lsa, narxlarning shakllanishiga ishlab chiqarish xarajatlari ko'proq ta'sir ko'rsatadi, degan fikrni asoslaydi.

Yuqoridagi nazariy asoslardan kelib chiqqan holda xulosa qilib aytish mumkinki, hozirgi zamon iqtisodchilari ko'proq neoklassik nazariya tarafdorlarining fikriga qo'shiladilar. Ular narx tushunchasining iqtisodiy mazmunini ochib berishga bozor mexanizmi nuqtayi nazaridan yondashadilar va narx bozor hamda undagi mavjud holat ta'siri ostida kelib chiqadi deyishadi.

Iqtisodiyot nazariyasi narxni iqtisodiy toifa sifatida o'rganadi. Chunki bozor munosabatlari tovar va xizmatlar taklif qiluvchilari bilan uning xaridorlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlardan iborat bo'lganligi uchun narx bu munosabatlarning eng muhim asosini tashkil qiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida narxga muayyan mamlakatdagi iqtisodiy o'sish va ijtimoiy farovonlik darajasining muhim ko'rsatkichi sifatida ham qaraladi. Narxning iqtisodiy mazmunini aniq tushunib olish uchun uning funksiyalari va vazifalarini o'rganib chiqish kerak bo'ladi.

## 9.2. Narxning funksiya va vazifalari

### *Narxning hisob-kitob va o'lov funksiyasi*

Agar e'tibor bergan bo'lsangiz, yuqorida narx tushunchasida klassiklar «Narx — tovar qiymatining puldagi ifodasidir», neoklassiklar esa «Narx tovarlar va xizmatlarning nafiligini baholash vositasi bo'lib, unga to'lanadigan pul miqdorini ifodalaydi» deb ta'rif beradilar. Bundan ko'rinib turibdiki, har ikki ta'rifda ham narxning pul bilan ifodalanishi ko'rsatiladi. Narx tovar yoki xizmat uchun to'lash lozim bo'lgan pul miqdorini bildiradi. Bu bilan narx orqali tovar va xizmatlar yaratish uchun qilingan xarajatlar va olingan natijani, ya'ni jamiyatda ishlab chiqarish va iste'mol hajmini o'lchash yuz beradi.

Xarajatlar va olingan foyda miqdori narxga bog'liq ekanligi ham ko'rinadi. Albatta, hamma narsaning moddiy aniq o'lchami bo'lavermaydi va uning narxi shartli ravishda belgilanadi. Masalan, o'qituvchining, shifokorning, boshqaruvchining va shu kabi xizmatlarning aniq moddiy o'lchami yo'q, uni faqat shu xizmatning shartli ravishda belgilangan narxiga qarab pulda o'lchash mumkin. Moddiy o'lchamga ega bo'lgan hamda bo'lmagan hamma mahsulotlar, xizmatlarni faqat narx orqaligina umumiy ko'rsatkichda ifodalash mumkin. Umuman olganda, har bir odam, oila, firma, korxonadan boshlab, to butun mamlakat miqyosigacha faoliyat natijalari narxlar yordamida o'lchanadi. Hamma alohida mamlakatlar YIM hamda jahon YM miqdori ham bozor narxi asosida hisoblanadi.


### *Narxning iqtisodiyotni tartibga solish funksiyasi*

Narx iqtisodiy toifa sifatida bozor iqtisodiyotini boshqarishning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti tovar ishlab chiqarishga asoslangan iqtisodiyotdir. Bozor ishlab chiqaruvchi bilan iste'molchini bir-biri bilan narx orqali bog'laydi. Unda narxlar doimo o'zgarib turadi. Chunki bozorda narx talab va taklif bilan bog'liq holda kelib chiqadi. Bozor ishtirokchilari ana shu o'zgarishlarni hisobga olgan holda qanday tovarlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish zarurligini aniqlab faoliyat yuritadilar.

Bozorda qaysi tovarlarga talab yuqori bo'lsa, uning narxi baland bo'ladi yoki aksincha, talab kam bo'lsa, narxi past bo'ladi. Talabning ko'pligi ishlab chiqarishni kengaytirish va tovar hajmini ko'paytirish, aksincha, taklifning ko'pligi ishlab chiqarishni qisqartirish

eng oxirgi darajasiga qadar, hatto vaqtincha zarar keltiruvchi, ya'ni xarajattan past darajadagi narxlar belgilanishi ham mumkin. Narx orqali raqobat ishlab chiqaruvchilar hamda iste'molchilar o'rtasida ham olib boriladi.

Ishlab chiqaruvchilar resurslarni arzon narxlarda olish uchun kurash olib boradilar va o'z tovarlarini shunga mutanosib ravishda arzonroq sotish yo'li bilan o'z raqiblarini bozordan siqib chiqarishga harakat qiladilar. Iste'molchilar arzon narxlarda tovarlarni sotib olishga harakat qilishadi. Xullas, bozor sharoitida narxning raqobat funksiyasi iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy omili sifatida o'zini namoyon qiladi.



### *Narxning ijtimoiy himoya vazifasi*

Narxning funksiyalari bilan bir qatorda ijtimoiy himoyalash vazifasi ham mavjud bo'lib, uning bajarilishini davlat amalga oshiradi. Bozorda narxlarning talab va taklif ta'siri ostida o'zgarib turishi aholining turli oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa iste'mol ne'matlari uchun xarajatlari hajmiga bevosita ta'sir qiladi. Narxlar o'zgarishiga bog'liq ravishda aholining iste'mol budjeti, yashash minimumi, turmush darajasi ham o'zgarib turadi.

Shu munosabat bilan davlat tomonidan bozordagi narxlarga bevosita va bilvosita ravishda ta'sir ko'rsatish orqali aholining turmush darajasini o'stirib borish chora-tadbirlari amalga oshiriladi. Masalan, O'zbekistonda aholining nochor va kambag'al qatlamlariga arzonlashtirilgan narxda tovarlar sotilishi tashkil qilinadi va u ijtimoiy dotatsiyalashgan narxlar deyiladi. Bu dotatsiyalar davlat budjeti yoki turli xayriya mablag'lari orqali moliyalashtiriladi. Davlat tomonidan narx orqali bunday ijtimoiy himoya tadbirlarining amalga oshirilishi iqtisodiy adabiyotlarda narxning ijtimoiy himoyalash vazifasi deb qaraladi. Lekin bozor iqtisodiyoti sharoitida bunday ijtimoiy himoyalash vaqtinchalik xarakterga ega bo'lib, ma'lum vaqtdan so'ng bozorda erkin narxlar to'la amal qiladi.

### **9.3. Erkin bozorda narxning shakllanishi**

Iqtisodiyot nazariyasi fani narxni iqtisodiy toifa sifatida o'rganib, uni bozor qonun-qoidalari, turli omillar va g'oyat murakkab iqtisodiy munosabatlar ta'sirida kelib chiqishini ko'rsatadi. Bozor qonun-qoidalari talab va taklif qonunining hamda raqobat kurashining ta'siri ostida kelib chiqsa, turli omillar esa bu, eng avvalo, tovarning qiymati, uning nafliligi kabilardan iborat deb asoslab beradi.

Ma'lumki, tovarning bir-biriga bog'liq ikki xususiyatga, birinchidan, qiymatga, ya'ni ma'lum mehnat natijasiga, ikkinchidan, iste'mol qiymati ma'lum bir naflilik xususiyatiga egadir. Tovarning mana shu ikki xil xususiyati va narx mazmunini aniqlashda turli iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha yondashuvlar bor. Jumladan, klassik iqtisod maktabi vakillari narxning asosini qiymat tashkil qiladi deyishsa, hozirgi davrda oliy o'quv yurtlarida o'qitilayotgan

«Ekonomiks» darsligining mualliflari P. Samuelson, Makkonell va S. Bryularning fikriga ko'ra, tovar narxining asosini uning nafliligi tashkil etadi, deb ko'rsatadilar. Yana bir guruh olimlar esa narx talab va taklif asosida tashkil topadi deyishadi. Ularning har biri o'zlaricha turli dalillar bilan o'z fikrlarini asoslashga harakat qilishadi.

Narxning shakllanishidagi dastlabki asos — bu qiymatdir. Qiymatni mehnat yaratadi. Ammo har qanday mehnat qiymat yaratavermaydi. Kishilarning ma'lum talabini qondiradigan kerakli tovarlarni yaratish uchun zarur bo'lgan, bir me'yorda sarflangan mehnatgina qiymat yaratadi. Insonning ehtiyojini qondira olmaydigan, foydali bo'lmagan mehnatni kishilar tan olishmaydi va u mehnat qiymatni yaratmagan holda narxga asos bo'la olmaydi. Ma'lum bir tovarlar birligiga qilingan mehnat sarflari turlicha bo'lib, ulardan ayrimlari ijtimoiy mehnat sarfi sifatida to'la tan olinsa, boshqasi qisman tan olinadi, uchinchisi esa umuman tan olinmasligi ham mumkin.

Ijtimoiy zaruriy mehnat deganda ma'lum bir xil sharoitda ishlab chiqarish omillari bilan o'rtacha darajada ta'minlangan, o'rtacha mehnat unumdorligi va jadalligi darajasida sarflangan mehnat tushuniladi. Xuddi shunday mehnat tovarning qiymatini yaratadi. Tovar qiymatining esa o'z mezoni yoki miqdori bo'lib, bu miqdor tovarlar almashinuvining asosini tashkil etadi. Biroq, tovar qiymatining miqdori ilmiy-texnika taraqqiyoti, odamlar bilimi va mahorati-ning ortib borishi, o'zaro hamkorlik, faoliyatlar integratsiyasi natijasida o'zgarib boradi.

Har qanday tovarda ikki xil mehnat gavdalanadi: birinchisi, avvalgi qilingan mehnat, ayrim iqtisodchilar uni «o'lik mehnat», «buyumlashgan mehnat» deb ham atashadilar va u ishlab chiqarish qurol-vositalari; binolar, inshootlar, mashina va mexanizmlar, texnologiya, xomashyo, yoqilg'i, yordamchi materiallar va shu kabilar sarfidan iborat bo'ladi. Ishlab chiqarish vositalari qiymati qancha past bo'lsa, tovarning qiymati ham shunga mutanosib ravishda pastroq bo'ladi va aksincha, ikkinchisi, jonli mehnat, ish kuchi sarfi, ishchi va xodimlarning mehnat sarfi bo'lib, u ish kunlari, ish soatlari yoki ishchi tomonidan yaratilgan mahsulot miqdori hisobi kabi ko'rsatkichlarda ifodalanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har ikki shakldagi mehnatning pul ko'rinishida narxi bo'ladi. Boshqacha aytganda, tovarda gavdalanagan ijtimoiy zaruriy mehnat tovar qiymatini yaratadi va u pulda o'z ifodasini topadi. Tovar qiymatining puldagi ifodasiga tovarning narxi deyiladi. Biroq tovar narxi shunchaki iqtisodiy toifa emas,

ayni chog'da u ijtimoiy toifa hamdir. Buning ma'nosi shuki, tovar qiymati bozorda, bir tovar ikkinchisi bilan taqqoslanganda bilinadi, ya'ni tovar taklifi va tovar talabi bilan bog'liq aniqlanadi. Tovar bahosining shakllanishiga uning qiymati bilan birga tovarga bo'lgan talab va taklif ta'sir etadi. Tovarining iste'mol qiymati, ya'ni naflilik darajasi yuqori bo'lganida tovar narxi yuqori bo'ladi. Bozordagi mavjud narxlarga undagi qiymat to'la asos bo'ladi deb qarash ham to'g'ri bo'lmaydi. Chunki unga mehnat, ya'ni qiymatdan tashqari boshqa omillar ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, o'zgarib turuvchi talab va taklif ta'siri ostida biror tovarning bozor narxi tebranib, uning qiymatidan ancha yuqori yoki past bo'lishi mumkin. Bunday holat, ko'pincha, raqobat kurashi ta'siri ostida kelib chiqadi. Bundan tashqari, xaridor u yoki bu tovarni sotib olishda nafaqat uning qancha turishini, balki shu tovarning iste'mol xususiyatlari o'z ehtiyoji va didiga qanchalik mos kelishini, uning nafliligini ham hisobga oladi. Bu holatda ma'lum tovar uning qiymatidan past yoki yuqori bo'lgan narxda sotilishi mumkin. Tovarlar qiymati ularning nafliligi bilan bog'liq holda bozor narxida o'z ifodasini topadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda tovarlar «iste'mol qiymatlari» deyiladi. Bu bilan tovarning iste'molga yaroqli ne'mat ekanligi, uning naflilik xususiyati nazarda tutiladi. Tovarining iqtisodiy nafliligi tushunchasi tovarlarning bozordagi talabni qondirish darajasi bilan bog'liq kelib chiqadi va u ishlab chiqarishning ko'payishi to'g'ri nisbatda bo'lmaydi, zero ne'matlarning miqdoran ko'payishi ularning qadr-qimmatini pasayishiga, «iqtisodiy qadrsizlanish»iga, ya'ni kamroq nafliroq bo'lishiga olib keladi. Tovarining naflilik darajasi uning miqdoran qanchalik darajada bo'lishi bilan belgilanadi. Umuman olganda, tovarning nafliligi bilan unga ketgan xarajatlar o'rtasida ma'lum bog'liqlik mavjud bo'lib, ayrim tovarlarning ko'p ishlab chiqarilishi uning iqtisodiy nafliligini pasaytiradi va xarajatlar o'sishiga olib keladi.

Yuqorida keltirilganlardan ko'rinib turibdiki, narx shakllanishining muhim omili — bu bozordagi talab va taklifning nisbatidir. Agar talab taklifdan ko'p bo'lsa, narx oshadi, agar taklif talabdan ko'p bo'lsa, narx pasayishi sodir bo'ladi. Xuddi shu jarayon tufayli talab narxni oshirgan vaqtda unga javoban taklif ko'payadi, chunki yuqori narx sharoitida foydani ko'p olish uchun ayrim ishlab chiqaruvchilar tovar ishlab chiqarishni ko'paytiradilar. Shu bilan bir qatorda taklif me'yoridan ortib ketrsa, narx qaytadan pasayib, tovarni ishlab chiqarish kam foydali yoki zararli bo'lib qoladi.


#### 9.4. Narxning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar

Bozorda talab xaridorning sotib olish imkoni va didiga bog'liq bo'lib, o'zgarib turadi. Xaridorning imkoniyatlari ham cheklangan bo'ladi. Hatto xaridorning didi, qanday tovarni tanlashi, shu tovarni olish yoki olmasligi ham uning puli, imkoniyatiga bog'liq. Agar uning puli yetarli bo'lsa, u o'z didiga mos tovarni yuqori narxda bo'lsa ham sotib oladi. Lekin puli kam xaridor shu tovarning narxi past bo'lsa ham ololmaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, hamma xarid qobiliyati doirasida o'zi uchun eng nafli tovarlarni tanlab oladi. Tovarning naflilik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, narxi ham shunchalik yuqori bo'ladi. Ammo naflilikning me'yoriy cheklanganlik xususiyati bor.

Har qanday tovar yoki xizmatning naflligi eng yuqori darajasiga chiqquncha uning narxi oshib boradi, so'ngra pastlay boshlaydi.

Chizmada  $OY$  chizig'i naflik bo'lsa,  $OX$  chizig'i tovar narxidir.  $OY$  chizig'i bo'ylab naflik  $0$  dan  $5$  ga yetguncha ortib borgan va eng yuqori cho'qqisiga chiqqan. Shunga binoan,  $OX$  chizig'i bo'yicha narx o'zgarib  $0$  dan  $30$  gacha yetgan. Shundan so'ng naflik pasayishiga moyil bo'lib  $5$  dan  $2$  gacha tushgan. Bunga javoban narx  $30$  dan  $15$  gacha



pasaygan. Narx oldin  $A$  nuqtagacha oshib borgan, so'ngra  $B$  nuqtagacha pasaygan.

Tovar naflligi darajasini oshirish orqali uning narxiga ta'sir ko'rsatish mumkin bo'lib, shulardan biri uni iste'mol qilish uchun ketadigan vaqtni tejashga erishishdan iborat. Lekin iste'mol uchun qulaylik yaratib, iste'molchining vaqtini tejash uchun ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchining xarajatlari ortib boradi va ular tovar narxining oshib borishiga olib keladi. Masalan, hozirgi vaqtda iste'molchi uchun qulaylik yaratish maqsadida oziq-ovqatlar savdosida yarim tayyor mahsulotlar ko'payib bormoqda. Bu, albatta, ishlab chiqaruvchi tomonidan qo'shimcha xarajatlar qilish va shunga

mutanosib ravishda ular taklif qilayotgan tovarlarining narxi ortib borishiga olib kelmoqda.

Shunga qaramasdan, vaqtning qadri yuqori bo'lgan iste'molchilar ushbu tovarlarni narxining baland bo'lishiga qaramay sotib olmoqda. Ayrim iste'molchilar uchun narx ortishi tufayli yo'qotgan puli ularning shu vaqtda topadigan puliga nisbatan kamroq ekan. Bu iqtisodiyot nazariyasining muhim qoidasi bo'lgan vaqtni tejash qonunidan kelib chiqadi va vaqt birligida topiladigan pul bilan o'lchanadi.

Biz yuqorida narxning raqobat funksiyasini o'rganib, raqobat narx yordamida olib borilishini bildik. Bozorda raqobatchilar taklifni ko'paytirish orqali narxga ta'sir ko'rsatadi. Raqobatchilar tovar taklifini ko'paytirishsa, narx pasayadi, agar taklif kam bo'lsa va ular o'zaro kelishib olishsa, narx baland bo'ladi. Masalan, bozorda 10 ta sotuvchi bo'lib, ular qo'lida jami 2 tonna shakar bor, agar shu shakar 10 ta sotuvchi qo'lida bo'lsa, bir kilogramm shakarning narxi 2000 so'm, agar ikki kishi qo'lida bo'lsa, uning narxi 4000 so'm bo'lishi mumkin. Oddiy tahlil qilinsa ma'lum bo'ladi, birinchi holda raqobat kuchli, chunki shakarni 10 kishi taklif qilmoqda, ular ko'pchilik va kelishib olishlari qiyin, ikkinchi holda raqobat yo'q, chunki taklif etuvchilar kam va ular o'zaro kelishib olishlari mumkin.

Biz ushbu bobning boshlanishida narxlarning shakllanishi anchagina murakkab jarayon va u juda ko'p omillar ta'siri ostida sodir bo'ladi, deb aytib o'tgan edik. Omillardan biri qiymat hisoblanadi. Qiymatning pasayishi narxni arzonlashtirsa, talabning ortishi uni qimmatlashtiradi. Agar tovarning nafiligi yuqori bo'lib, raqobat kuchli bo'lsa, narx pasayishi mumkin yoki aksincha, naflilik darajasi pasayganda raqobat bo'lmasa, narx oshishi mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, narx turli omillarning ta'siri ostida shakllanadi va o'zgarib turadi. Raqobat sharoitida narxga ta'sir etuvchi omillar erkin harakatda bo'ladi va bozor narxining kelib chiqishiga asosiy sabab bo'ladi. Raqobatli bozorda sotuvchilar va xaridorlar ko'pchilik bo'lganidan narxlar savdolashuv asosida kelib chiqadi va bu muvozanat narxi deb yuritiladi.

Agar bozorda raqobat bo'lmasa, bunday bozor monopollashgan hisoblanadi. Monopollashgan bozorda tovarlar taklifi ozchilik qo'lida bo'lganligi uchun sotuvchilar tovarlarga o'zlariga ma'qul bo'lgan narxlarni o'rnatib, kelishilgan holda belgilashib sotadilar. Bu narxlar xaridorlar uchun ma'qul bo'lmasa-da, ularni sotib olishga majbur bo'lishadi. Natijada monopol bozor sharoitida tovarlar taklifi ozchilik qo'lida bo'lganligi uchun sotuvchining




mo'ljallagan narxi bozor narxiga aylanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida, odatda, talab monopoliyasi ham bo'lishi mumkin. Bu iqtisodiy adabiyotlarda monopsoniya, ya'ni iste'molchilar monopoliyasi deyiladi. Bu holat tovarga talab ozchilik xaridorlar ixtiyorida bo'lsa, xaridor mo'ljallagan narx bozor narxiga aylanadi.

Tovarning xarid narxi alohida olingan bir kishi uchun emas, balki jamiyat uchun nafliligining tan olinishi muhim hisoblanadi. Shu sababli iqtisodiyotda «ijtimoiy iste'mol qiymat» tushunchasi mavjud bo'lib, u biror tovar yoki xizmatning jamiyat uchun nafliligini ko'rsatuvchi tushuncha sifatida ishlatiladi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, narx yaratilgan qiymatga qilingan xarajatlar va uning nafliligini o'zida mujassamlashtirgan pul ko'rinishidagi iqtisodiy tushunchani ifoda etadi.


Bu holatni yaxshiroq tasavvur qilish uchun quyidagi chizmaga e'tiborni jalb etamiz:

**Tovar narxining shakllanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar**



Chizmada tovarning narxi shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar ko'rsatilgan bo'lib, undan ko'rinib turibdiki, narx ishlab chiqaruvchilarning har bir tovar birligiga individual xarajatlari yoki alohida olingan shaxslarning o'z didi va talabi asosida uning naflilik darajasiga bergan bahosi ham emas, balki jamiyat tomonidan tan olingan ijtimoiy xarajatlar va jamiyat uchun zarur bo'lgan miqdorda va sifatda yaratilgan hamda tan olingan ijtimoiy naflilik (ijtimoiy iste'mol qiymat)da o'z ifodasini topar ekan. Narx darajasiga bir qator boshqa omillar ham ta'sir qiladi. Bu omillar quyidagi chizmada ifodalangan:

### Narxga ta'sir qiluvchi omillar



Bundan xulosa shuki, tovarlar va xizmatlar uchun qilingan ijtimoiy xarajatlarning o'sishi yoki tovar va xizmatlar sifatining yaxshilanishi ushbu tovar va xizmatlar narxining o'sishiga olib keladi.

### 9.5. O'zbekistonda amaldagi narx tizimi va turlari

Hozirgi vaqtda respublikamiz iqtisodiyotida amal qilib turgan barcha narx turlari narx tizimini tashkil qiladi. Narx tizimi va ularning ayrim turlarining iqtisodiy mazmunini qisqacha tavsiflab chiqamiz.

*Ulgurji (ko'tara) narxlar.* Bu narxlardan, asosan, ishlab chiqaruvchilar foydalanadi. Bunda katta miqdorda tovarlar xaridorlarga taklif etilib, o'zaro kelishilgan holda sotiladi. Ulgurji narxlar ishlab chiqaruvchilar va ta'minot-savdo tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro kelishuv orqali kelib chiqadi. Ulgurji narxlar, eng avvalo, ishlab chiqaruvchilar hamda ulgurji savdo-ta'minot korxonalarining umumiy xarajatlarini qoplashi bilan bir qatorda ularning ma'lum miqdorda foyda olishlarining ham ta'minlanishini o'z ichiga oladi. Ulgurji narxlar asosida savdo ko'proq tovar birjalari va savdo uylarida amalga oshiriladi.

*Shartnomaviy narxlar.* Shartnomaviy narxlar sotuvchi va xaridor o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida shakllanadi va u ma'lum muddatga tuzilgan holda amal qiladi. Faqat taraflarning roziligi bilangina o'zgartirilishi mumkin. Bunday narxlar milliy va xalqaro bozorlarda qo'llaniladi. Xalqaro bozorda shartnomaviy narxlar

tovar va xizmatlarning jahon bozorlaridagi narxlariga asoslangan holda kelib chiqadi. Shartnomaviy narxlar deb sotuvchi va xaridorning o'zaro kelishuvi bilan belgilanadigan va tuzilgan shartnomada qayd qilingan narxlarga aytiladi.

*Chakana narxlar.* Bu narxlardan keng xalq ommasi foydalanadi. Bozorlarda tovar va xizmatlar shu narxlar asosida bevosita iste'molchilarga sotiladi. Chakana narxning shakllanishi bozorda sotuvchi bilan xaridorning o'zaro kelishuvi asosida tashkil topadi-yu, lekin uning tarkibiga ulgurji narx, chakana savdo tashkilotlarining xarajatlari hamda ularning oladigan foydasi kiradi. Chakana narx tovarlarga bo'lgan talab va taklifga bevosita ta'sir ko'rsatib turadi.

*Chegaralangan narx.* Bunday narxlarning yuqori va quyi chegarasi belgilangan bo'lib, u davlat tomonidan amalga oshiriladi. Ularni ba'zilar limitlangan yoki imtiyozli narxlar deb yuritadilar.

*Dotatsiyalangan narx.* Bular davlat budjeti hisobidan maxsus arzonlashtirilgan narxlardir. Bu davlatning narxlarni tartibga solish bo'yicha faoliyatini amalga oshirishi natijasi sifatida vujudga keladi. Bunday narxlar yordamida davlat inflatsiyani jilovlash, kam daromadli oilalar, ishsiz va nogironlarga iqtisodiy yordam berish kabi tadbirlarni amalga oshirib, ularni nazorat qiladi.

*Demping narx.* Bu narxlardan, ko'pincha, xalqaro savdolarda foydalanish taqiqlab qo'yilishiga qaramasdan, amalda uchray turadi. Bozorda ayrim firmalar o'z mavqeyini mustahkamlash va raqiblarini yengish uchun shu narxdan foydalanadilar. Demping narxni ayrim iqtisodchilar bozorga kirib olish narxi deb ham atashadi, chunki monopollashgan bozorlarga shu narxda, ya'ni rasmiy narxdan anchagina arzonlashtirilgan, hatto olinadigan foydaning bir qismidan kechib yuborish orqali kirib boriladi.

*Nufuzli narx.* Bu narxdan aholining yuqori daromad oluvchi qatlami xarid qiladigan nufuzli tovarlarni sotishda foydalaniladi. Shu bilan bir qatorda bozorda ayrim firmalar sotilayotgan tovarlarining hajmini o'zgartirmasdan yuqori foyda olishga erishish uchun foydalanishadi. Bu narxdan raqobat cheklangan monopol bozorlarda ko'proq foydalanadilar. Monopoliya sharoitida talab narxga bog'liq bo'lmaydi, shu sababli narxning ko'tarilishi tovar sotilishini keskin kamaytirmaydi. Bunday narxlar rivojlangan mamlakatlarda yuqori daromad oluvchi aholi qatlami uchun mashhur kurortlarda dam olish, yangi modeldagi avtomashinalar

sotib olish kabi tovar va xizmatlarni sotishda ko'proq uchraydi. Nufuzli narxlar odatdagi narxlardan ancha yuqori bo'ladi.

*Erkin bozor narxlari.* Bu narxlar talab va taklif asosida vujudga keladigan bozor narxlaridir. Bu narxlar hozirgi zamonaviy, madaniylashgan bozor sharoitlarini vujudga keltirishda, bozor munosabatlarining barcha ishtirokchilari manfaatlarini eng maqbul tarzda uyg'unlashtirishga imkon beradigan narxlar hisoblanadi.

*Hududiy, milliy va xalqaro narxlar.* Hududiy narx deb faqat ma'lum bir hududiy bozorga xos bo'lgan bozor ko'lamini hisobga olgan holda shu hudud doirasidagi omillar ta'siri ostida shakllandigan narxlarga aytiladi.

*Milliy bozor narxi.* Bu ma'lum bir mamlakat xususiyatlarini hisobga olgan holda shakllangan va faqat shu mamlakat doirasida amal qiluvchi narxlarga aytiladi. Milliy narxlar shu mamlakat doirasidagi ijtimoiy xarajatlarni, milliy bozordagi talab va taklifni, tovar nafiligini, uning qanchalik qadrlanishini hisobga olgan holda shakllanadi.

*Jahon narxi.* Bu muayyan tovarga ketgan baynalmilal xarajatlarni, tovarning jahon andozasi talabiga mos kelish darajasini hamda xalqaro bozordagi talab va taklifni hisobga olgan holda shakllanadi.

*Narx diapazoni.* Bu narxlar oralig'ining puldagi ifodasi bo'lib, uning quyi, o'rta va yuqori chegaralari mavjud bo'ladi. Narx diapazoni qanchalik katta bo'lsa, tovar muomalasi shunchalik tez yuz beradi, chunki talab bilan narx o'zaro bog'lanadi.

*Narx pariteti.* Bu tushuncha iqtisodiyot nazariyasida narxlar nisbati deb ham yuritiladi. Iqtisodiy jarayonlar xilma-xil bo'lsada, ular bir-birlari bilan chambarchas bog'liq holda sodir bo'ladi va rivojlanadi. Bu jarayonlar va ularning oxir-oqibat natijalari narxlar orqali yuzaga chiqadi. Masalan, ma'lum bir mahsulot ishlab chiqarish uchun ketgan boshqa mahsulotlarning xarajatlari eng so'nggi mahsulot xarajatlarini shakllantiradi. Shuning uchun barcha ketgan mahsulotlar narxining o'zgarishi butun narxlar nisbatini o'zgartirishi mumkin va buni aniqlashda narx pariteti tushunchasidan foydalaniladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, narx turlari xilma-xil bo'lsada, ular bir-biri bilan o'zaro bog'langan, chunki ularda jamiyatdagi iqtisodiy resurslarning ishlatilish samarasi o'z ifodasini topadi. Shuning uchun «Iqtisodiyot nazariyasi» fani narxni iqtisodiy toifa sifatida o'rganadi.

### Narx tizimi va turlari

Muvozanatli narx	Turli tovarlar o'rtasidagi iqtisodiy jihatdan asoslangan nisbatlar
Demping narx	Bozordan raqiblarni surib chiqarib, o'z mavqeyini mustahkamlash uchun qo'llaniladigan maxsus narx
Nufuzli narx	Firma narx qo'yganda tovar sotilishini qisqartirmagan holda yuqori narx hisobiga foyda olish
Milliy narx	Mamlakat doirasidagi ijtimoiy xarajatlarni, milliy bozordagi talab va taklifni, tovar nafiligini va naqadar qadriligini hisobga olgan narx
Dotatsiyalangan narx	Davlat budjeti hisobidan maxsus arzonlashtirilgan narx
Jahon narxi	Tovarga ketgan baynalmilal sarf-xarajatlarni, tovarning jahon standarti talabiga mos kelishi darajasini, talab va taklifni hisobga olgan narx
Standart narx	Xaridor imkoniyatini hisobga olib, ma'lum davrgacha o'zgarmaydigan narx
Shartnomaviy narx	Har ikki tomonning roziligi bilan belgilangan va ularning shartnomasida qayd etilgan narx
O'zgaruvchan narx	Xarajatlar va bozordagi talabning o'zgarishini hisobga oladigan narxlar
Chakana narx	Iste'mol tovarlarini bevosita aholiga sotish narxi
Erkin narx	Savdolashuv asosida vujudga keladigan narx
Limit narxi	Yuqori va quyi chegarasi belgilangan narx
Preyskurant narxi	Sotuvchi uchun mo'ljallangan narx, xaridor uchun bildirish yoki ma'lumotnoma narxi

### 9.6. Narx belgilashda foydani maksimallashtirish

Bozor munosabatlari sharoitida har bir korxonalar, firma, tadbirkorlar imkon boricha, o'z foydalarini maksimallashtirishga harakat qilishadi. Foydani maksimallashtirish imkoniyati ko'proq mukammal raqobatli bozor sharoitida monopolistning narx ustidan to'la nazorat qilishi natijasida talabning elastikligi bilan bog'liq paydo bo'ladi. Agar bozorda xaridorlar talabining elastiklik darajasi qanchalik qat'iy bo'lsa, monopolist firmaning yuqori narxlar belgilash uchun imkoniyati shunchalik yuqori bo'ladi. Natijada shunday vaziyat vujudga kelishi mumkinki, monopol firma o'z xaridorlarini turli guruhlarga ajratib, bir xil tovarni har xil narxlarda sotishi mumkin. Ammo bu tovar narxlaridagi farqlar aynan shu tovarni ishlab chiqarish xarajatlariga bog'liq bo'lmaydi.

Xarajatlar bir xil bo'lgan holda turli xaridorlarga turli narxlar bilan tovar yoki xizmatlarning sotilish amaliyoti iqtisodiy adabiyotlarda narx diskriminatsiyasi deyiladi. Narx diskriminatsiyasi bu biror kishi huquqini cheklashni emas, balki xaridorlarning sotib olish imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tabaqalashtirib, ularning ayrimlariga narxni tushirib, ayrimlariga esa narxni ko'tarib tovarni sotishdir. Bunday yo'l bilan firmalar o'z tovar va xizmatlariga qo'shimcha xaridorlarni jalb qilishni ko'zda tutishadi. Lekin firmalar boshqalar uchun tushirilgan narxning evaziga, qolgan yuqori narx bo'yicha sotib olish imkoniyatiga ega xaridorlardan shu farqni qoplab oladilar. Yuqori narxda sotish orqali diskriminatsiyani doimiy ravishda amalga oshirib bo'lmaydi. Chunki xaridorlar ma'lum vaqt ichida nisbatan past narxli bozorga o'tib ketishlari mumkin. Narx diskriminatsiyasi yo'lidan foydalangan firma bozor muvozanat narxidan yuqori narxlarda o'z tovarlarini sotish orqali ko'proq foyda olishga erishadi.

«Iqtisodiyot nazariyasi» fanida narx diskriminatsiyasi mavzusi iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, J. Robinson ilmiy ishlarida yagona bozorning tabaqalashtirilishi foydali ekanligini ko'rsatib o'tadi. Uning fikricha, monopolist bir necha bozorda yagona narx belgilasa, uning qo'shimcha tovar sotishdan olgan me'yoriy daromadi tabaqalashtirilgan bozorda sotganiga nisbatan kamroq bo'ladi. Chunki u turli bozorda shu tovarga talabning elastikligi darajasidan kelib chiqadi. Firma-monopolist tabaqalashtirilgan bozorlar uchun mo'ljallangan joyda sotmasa, narxni ko'tarsa, shu miqdordagi tovarni sotib olishmasligi mumkin. Bu holatda

boshqa bozorda elastiklik yuqori, xaridorlar narx tushishiga qarab oladigan tovarlar miqdori ko'payadi.

Narx diskriminatsiyasidan foydalanib, foyda miqdorini maksimallashtirish anchagina murakkab masala hisoblanadi. Bu yerda firma arzon bozorni qimmat bozordan ajrata olmasa, foydani maksimallashtirish g'oyasi amalga oshmay qoladi. Xaridorlar xuddi shu tovarni arzon bozordan sotib olib, qimmat bozorda sotishni tashkil qilishlari mumkin.

Yuqorida keltirilgan holatlardan ko'rinib turibdiki, monopol firma o'z bozorini bozorning elastiklik darajasiga qarab tanlay bilishi va uni tabaqalashtira olishi kerak ekan. Shuning uchun hozirgi vaqtda bozor sharoitida har bir tadbirkor bu masalaga alohida e'tibor bergan holda ish olib boradi. Misol uchun, zamonaviy bozorlarda keng rivojlanib borayotgan supermarket do'konlarida alohida tabaqalashgan tarzda xizmat ko'rsatiladi. Bu supermarketlarga imkoniyati katta bo'lgan xaridorlar tovarlar qimmatroq bo'lsa ham nufuzi baland bo'lgani uchun tashrif buyurib, «arzon bozor» xizmatidan foydalanishga or qilib, shu joylardan savdo qiladilar, shuning uchun ayrim firmalarning foydalari maksimumlashib boradi.

#### ASOSIY TAYANCH IBORALAR

- Narx;
- ulgurji narxlar;
- chakana narxlar;
- dotatsiyalashgan narx;
- demping narx;
- nufuzli narx;
- narx diapazoni;
- erkin narxlar.



#### TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Narxning iqtisodiy mazmunini uning vazifalari orqali tushuntirib bering.
2. Narxning asosiy turlarini qisqacha tavsiflang.
3. Sof raqobat sharoitida narxning tashkil topish mexanizmini tushuntirib bering.
4. Narxning shakllanishiga qanday omillar ta'sir etadi?
5. Arzonchilik yoki qimmatchilik mezonlari nima?
6. Narxning qanday darajalari bor va ularni nima belgilaydi?
7. Narx funksiyasini tushuntirib bering.
8. Narx diskriminatsiyasi deganda nimani tushunasiz?
9. Narx tashkil topishining, xarajatlar va bozor mexanizmining farqini tushuntiring.
10. Narx qanday funksiyalarni bajaradi?

---

## 10-bob. BOZOR IQTISODIYOTINING TARTIBLANISHI

### 10.1. Iqtisodiyotni tartiblashning bozor mexanizmi

Iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodiyotni boshqarish, tartibga solish, tartiblashtirish kabi tushunchalar ko'pincha bir xil ma'noni anglatuvchi tushunchalar sifatida qo'llaniladi. Jumladan, boshqarish nazariyasining asoschisi fransiyalik Anri Feyil boshqarishga shunday ta'rif beradi: «Boshqarish barcha imkoniyatlardan iloji boricha foyda olgan holda mehnat ahlini korxonaga maqsadlari sari yetaklashdir... Boshqarish, avvalo, hamma narsani oldindan ko'ra bilish, keyin rejalashtirish, tashkilotchilik, muqobillashtirish va nazoratdan iborat». Agar biz uning bu ta'rifini iqtisodiyotni boshqarish, ya'ni tartibga solish amaliyotiga tatbiqan qarajak, boshqarish iqtisodiy faoliyatga muayyan yo'nalish berib, ko'zlangan natijaga erishish maqsadida shu jarayonlarga hamda faoliyat ko'rsatayotgan kishilarga ish yurituvchilarning ongli ta'sir ko'rsatishidir ma'nosi kelib chiqadi.

Ma'lumki, «Iqtisodiyot nazariyasi» fani iqtisodiyotni ikki darajada: makro va mikrodarajada o'rganadi. Shuning uchun iqtisodiyotni tartiblash ham shu ikki darajada olib boriladi. Mikrodarajada tartiblash deganda ma'lum bir korxonaga yoki firma faoliyatini boshqarib, tartibga solib borish tushuniladi. Makrodarajada tartiblash deganda ma'lum bir mamlakatning iqtisodiyotini tartibga solib boshqarib turish tushuniladi.

Mamlakat iqtisodiyoti bir qator iqtisodiy nisbatlarning o'zaro bir-biri bilan chambarchas bog'liqligidan iborat bo'ladi. Bu makroiqtisodiy nisbatlarni, undagi turli bo'g'inlar faoliyatini bir-biriga bog'liq va bir-biriga mos holda rivojlantirib borish, aniq muvozanatlashuviga erishishni ta'minlash makroiqtisodiy tartiblash deyiladi.

Har bir mamlakat iqtisodiyoti milliy iqtisodiyot deb yuritiladi va bozor sharoitida unda, eng avvalo, yalpi talab bilan yalpi taklifning bir-biriga mos bo'lishi zarur bo'ladi. Bu vazifani bajarishda iqtisodiyotni tartibga solishning ikki usulidan foydalaniladi:

1. Iqtisodiyotning o'zini o'zi tartiblashi — bozor mexanizmi usuli.
2. Davlat tomonidan tartibga solish usuli.



Iqtisodiyotni o'zini o'zi tartiblashning bozor mexanizmi usulida narx asosiy rol o'ynaydi. Bozorda narx o'zgarishiga qarab tovar ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko'rsatuvchilar o'z faoliyatlarini o'zgartirishga majbur bo'lib, bozorga moslashib harakat qilishadi. Bozor mexanizmi — bu bozordagi talab va taklifga mos ravishda, narx orqali bozor munosabatlari ishtirokchilarining iqtisodiy xatti-harakatlarni o'zaro moslashtirishlaridir. Shu yo'l bilan makroiqtisodiy nisbatlarning bir-biriga muvofiqlashuvi, ya'ni makroiqtisodiy darajada yalpi talab va taklifning muvozanati kelib chiqadi. Bu iqtisodiy adabiyotlarda erkin raqobat sharoitida to'la amal qiladigan bozor qonuni deb aytiladi.

Birinchi marta ingliz klassik iqtisod namoyandasi bo'lgan A. Smit o'zining mashhur «Odamlar boyligining tabiati va sabablari xususida tadqiqot» kitobida iqtisodiyotni tartibga solishning bozor mexanizmi to'g'risida nazariy fikrlarini asoslab, uning uch fundamental qoidasi borligini ta'kidlaydi va ularni yoritib beradi.

*Birinchi qoida* sifatida bozor mexanizmini tartibga solishga davlat aralashmasligi kerakligini aytadi. Bu «Olam o'z-o'zidan harakatlanadi», «Hammasi o'z navbati bilan bo'lgani ma'qul» deganidir. Uning fikricha, davlat tinchlikni saqlasa, me'yorida soliqlar belgilasa, adolatli sud qilishni ta'minlansa bo'lgani, qolganini bozorning o'zi bajaradi fikrini A. Smit davlat xarajatlarini aniq belgilab berish bilan asoslaydi va shunday deydi: «Mamlakat mudofaasi, huquqni himoya qilish, ijtimoiy ishlar va ijtimoiy muassasalar (savdoni rivojlantirishga, maorifga ta'sir ko'rsatish uchun) xarajatlari iqtisodiyotni boshqarish xarajatlari deb ko'rsatilmagan, demak, davlat iqtisodiyotni tartibga solishda qatnashmaydi. U holda kim yoki nima boshqaradi? Bu «ko'rinmas qo'l»dir.

*Ikkinchi qoida* — «ko'rinmas qo'l» haqida bo'lib, u butun xususiy tovar ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko'rsatuvchilarni jamiyat manfaatiga xizmat qilishga undaydi. A. Smitning fikricha, o'z manfaati uchun qayg'uruvchi tadbirkorni «ko'rinmas qo'l», umuman, uning niyatiga kirmagan maqsadga yo'naltirishi mumkin. «Ko'zga ko'rinmas qo'l» — bu bozor, undagi talab va taklif, raqobat. Ular asosida narx tashkil topadi. Har bir tovar ishlab chiqaruvchi aniq to'lovga qodir talabni qondirishga intilar ekan, bu bilan jamiyatning yalpi ehtiyojini qondirishdan manfaatdor bo'ladi. U ishlab chiqargan tovarni sotishi kerak. Shuning uchun foyda olish maqsadida xohlaydimi-xohlamaydimi iste'molchi talabiga moslashishga majbur. Bunga davlat aralashuvining keragi yo'q deb aytadi.

*Uchinchi qoida* — bozorning o'zini o'zi boshqarishi to'g'risidagi qoida hisoblanadi. Bu mexanizm tovar taklifi bilan bozor talabi o'rtasidagi to'g'ri va qarama-qarshi iqtisodiy aloqalarni mujassamlashtiradi, deb yozadi.

Ma'lumki, 8-bobda bozor iqtisodiyotini harakatlantiruvchi kuch — bu raqobat ekanligini va uni bozorni o'zini o'zi tartiblashning eng asosiy vositasi deb ko'rsatib o'tgan edik. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir korxonaga o'z tovarining sotilishi yoki sotilmasligini oldindan bilmay ishlashi mumkin emas. Hozir korxonaga bozor talabini o'rganib, aniq maqsadni ko'zlab, xarajatlarni hisob-kitob qilib, ishlab chiqarmaydigan bo'lsa, u o'z tovarini sota olmay zarar ko'rib qoladi. Korxonaning bozor talabiga rioya qilishining o'zi iqtisodiyotning mikroiqtisodiy darajada tartibga solinishini bildiradi.

Bozor mexanizmining asosiy unsuri bo'lgan ayirboshlash, ishlab chiqarishni iste'mol bilan bog'laydigan hamda uyg'unlashtiradigan vosita hisoblanadi. Shuning uchun har bir korxonaga raqobatda qatnashar ekan, xarajatlarni pasaytirish yo'llarini qidiradi. Ishlab chiqarayotgan tovarlarini, ko'rsatayotgan xizmatlarini doimo takomillashtirib borishga, innovatsion yondashuv asosida tovar va xizmatlarning yangi-yangi turlarini bozorga taklif qilishga harakat qiladi. Ishlab chiqarilgan tovarlar, ko'rsatilayotgan xizmatlar bozor talabini qondirmayotgan bo'lsa, mutlaqo yangilarini yaratishga o'tadilar. Ishlab chiqaruvchi korxonalar, xizmat ko'rsatuvchi firmalarning faoliyati bozordagi o'zgarayotgan talab tomonga moslashib borishi orqali iqtisodiyotni tartibga solish bozor mexanizmining namoyon bo'lishini ifodalaydi.

Korxonalar, firmalarning tovar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatishning bozor talabiga qarab moslashib borishi jarayonida mamlakatdagi mavjud resurslardan samarali foydalanilishi ta'minlanadi. Natijada bozor mexanizmining qiymatlar yaratishda qilinadigan xarajatlarni kamaytirib borish bilan ishlab chiqarish zarurligini belgilashi bozorning o'zini o'zi tartiblashining bir usuli sifatida ko'rinadi.

Bozor uchun ishlayotgan har bir tadbirkor o'z iste'molchilari-ning talabiga muvofiq nima ishlab chiqarish, qanday, qancha va kim uchun ishlab chiqarish kerakligini o'zi hal qiladi. Narxni esa bozor stixiyali tarzda talab va taklif qonuniga asosan belgilaydi. Bu bozordan ishlab chiqarishga doimiy yuboriladigan narx — signal sifatida xizmat qiladi. Bu signalga asosan, bozordagi narxlar, talab va taklif nisbatiga qarab, tadbirkorlar o'z ishlab chiqarish faoliyatlariga o'zgarishlar kiritishadi, xaridorgir tovarlar ishlab

chiqarishga harakat qiladilar. Xuddi shu holatni o'rganib chiqqan J.B. Sey bozor qonunini ta'riflab, tovarni tovarga ayirboshlash bozorda talab bilan taklif muvozanatini o'rnatadi deydi. Uning fikricha, taklif o'z talabini vujudga keltiradi.

Ko'rsatib o'tilgan jarayonlar iqtisodiyotning birlamchi bo'g'ini bo'lgan korxonalar va firmalar faoliyatining bir-biri bilan bozor orqali chambarchas bog'langanligini va bozor talabi orqali moslashib, tartiblashtirilib borilishini bildiradi. Iqtisodiy faoliyat bozor mexanizmi orqali tartiblanishi, asosan, mikroiqtisodiy miqyosda yuz beradi.

Ma'lumki, bozorda turli-tuman mulkchilikka asoslangan xo'jalik subyektlari bir-biri bilan bog'liq, shu bilan birga ularning har biri o'z manfaatidan kelib chiqib, o'zaro raqobatlashadilar. Bozordagi raqobat korxonalar va firmalar oldiga sifatli mahsulotlarini iste'molchilarga o'z vaqtida yetkazib berish uchun qattiq talab qo'yadi. Tovarni iste'molchiga yetkazishda xizmat ko'rsatuvchi boshqa firmalarni jalb etadilar. Bu esa, unda qatnashuvchilar faoliyati bir-biriga uyg'unlashtirilishini talab etadi. Bunda individual talab-ehtiyojlar o'zaro uyg'unlashib, yalpi talabni hosil etsa, individual ishlab chiqarishlar ham birgalikda ijtimoiy ishlab chiqarish — yalpi taklifni vujudga keltiradi.

Bu, o'z navbatida, mikroiqtisodiy tartiblash uyg'unlashib, makroiqtisodiy darajaga ko'tarilganligini bildiradi. Lekin yuqorida ko'rsatilganlarga umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, bozor mexanizmi iqtisodiyotni makroiqtisodiy darajada to'la tartibga solmaydi, chunki butun mamlakat miqyosida turli korxonalar, firmalar faoliyatini to'la muvofiqlashtira olmaydi. Natijada vaqt-vaqti bilan iqtisodiy inqirozlar bo'lib turadi. Bozor mexanizmi iqtisodiyotni to'la tartiblashni ta'minlay olmaganligi sababli, bu jarayonga davlat aralashuvi zaruriyati kelib chiqadi. Natijada iqtisodiyotni davlat mexanizmi orqali tartiblash amalga oshiriladi.

## **10.2. Iqtisodiyotni tartiblashning davlat mexanizmi**

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish deganda, davlat o'z iqtisodiy tadbirlari orqali iqtisodiy faoliyatga ta'sir etishi tushuniladi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning ikki asosiy yo'li mavjud:

1. Monopol, markazlashgan ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan holda rejali tartibga solish.

2. Erkin tadbirkorlikka asoslangan, iqtisodiyotni cheklangan tarzda tartibga solishdan iborat.

Monopol rejali tartibga solishda davlat markazdan turib yakka-hokimlik bilan iqtisodiy jarayonni boshqaradi. Rejali iqtisodiyotda nima ishlab chiqarish, qancha ishlab chiqarish, qanday ishlab chiqarish va kim uchun ishlab chiqarish kabi masalalar barchasi davlat rejasida belgilanadi. Bu reja har bir korxonaga, muassasaga, tashkilotga, soha, tarmoq uchun majburiy bo'lib, undan chetga chiqib bo'lmaydi va har bir xo'jalik yurituvchi subyekt uning bajarilishini ta'minlashi shart bo'ladi. Agar korxonaga o'z xo'jalik rejasini oshirib bajarsa, mukofotlanadi, bajara olmasa, unga nisbatan choralar ko'riladi. Tarixiy taraqqiyot jarayoni shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy xo'jalik jarayonini boshqarishda davlat yakka-hokimligi kutilgan natijani bermas ekan. Bu sobiq Sovet imperiyasi davrida boshqarishning markazlashtirilgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimi misolida tasdiqlandi. Sobiq Ittifoq iqtisodiyoti asosini ishlab chiqarish vositalarining davlat mulki va markazlashtirilgan iqtisodiy rejalashtirish tashkil etgan edi. Ishlab chiqarishning shaxsiy-insoniy omili faqat mehnat qilish, ishlab chiqarish vositalariga egalik qilishdan mahrum qilingan edi. Natijada ularning ishlab chiqarishda qatnashuvidan moddiy manfaatdorligi faqatgina ish haqi va ayrim hollardagina mukofotlar bilan chegaralanib qo'yilgan edi. Bu esa ularning o'z mehnati va tashabbuskorligidan olishi mumkin bo'lgan manfaatdorligini butunlay yo'q qilib qo'ygan edi.

Mehnatga jalb qilishning iqtisodiy zo'ravonlik usuli keng qo'llanilgan. Mamlakatdagi boy tabiiy va iqtisodiy resurslardan foydalanishda isrofgarchiliklar, xo'jasizliklar, talon-tarojliklar keng avj oldi. Iqtisodiyotda ba'zan erishilgan yutuqlar juda katta resurslar xarajati hisobiga bo'ldi. Oxir-oqibatda, boshqarishning markazlashtirilgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimi hukmronligida iqtisodiy faoliyat olib borgan sobiq sho'ro va umuman, sotsialistik jamiyat o'zini o'zi iqtisodiy eplay olmay, yo'q bo'lib ketdi. Binobarin, jamiyatning iqtisodiy rivojlanish yo'lini tanlashda boshqarishning qaysi tizimini tanlab olishning ahamiyati juda katta ekan.

Bozor tizimi sharoitida iqtisodiyotni tartiblashning bu ikki tizimidan ham bir-birlariga muvofiqlashtirilgan holda foydalanish o'zining ijobiy natijasiga ega ekanligini O'zbekiston misolida ham ko'rish mumkin bo'ladi. Xususiyl mulk, baholarning erkin shakllanishi, foyda olishga intilish va raqobatga asoslangan boshqarishning

iqtisodiy tizimida resurslar taqsimoti bozorda, talab va taklif qonunlari harakatiga muvofiq amalga oshiriladi. Shu usuldagi ko'p mamlakatlar iqtisodiyotini tartibga solish tajribasi ularning tez sur'atlar bilan rivojlanishini ta'minlaganligini keyingi o'n yilliklar tajribasi tasdiqlab turibdi. Bu yerda davlatning ayrim iqtisodiy vazifalari bozor iqtisodiyoti tizimini qo'llab-quvvatlash va uning amal qilishini yengillashtirish maqsadini ko'zlaydi. Bu sohada davlatning quyidagi ikki muhim faoliyat turini ko'rsatsak bo'ladi:

1. *Bozor tizimining samarali amal qilishiga yordam beruvchi huquqiy baza va ijtimoiy muhitni yaratib berish.* O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida qayd etilgan «Jamiyatning iqtisodiy negizlari» to'g'risidagi qoidalar, O'zbekiston Respublikasining mulkchilik to'g'risidagi, yer to'g'risidagi, tadbirkorlik to'g'risidagi, banklar va bank faoliyati to'g'risidagi, soliq to'g'risidagi, iste'molchilar huquqini himoya qiluvchi va boshqa ko'pdan ko'p qonunlari bozor iqtisodiyotining samarali amal qilishini ta'minlovchi huquqiy baza bo'lib xizmat qiladi.

2. *Raqobatni himoya qilish.* Raqobat bozor iqtisodiyotida asosiy tartibga keltiruvchi mexanizm hisoblanadi. Raqobat ishlab chiqaruvchilarni va resurslar yetkazib beruvchilarni xaridor hukmiga yoki iste'molchi daxlsizligiga bo'ysundirib beradi. Raqobatdan ishlab chiqaruvchilar ham, iste'molchilar ham, davlat ham, jamiyat ham manfaatdor. Shuni hisobga olgan holda davlat qonunlar orqali raqobatni himoya qiladi, raqobat muhitini saqlashga harakat qiladi. Raqobatni himoya qilish, raqobat muhitini yaratish vazifalarini amalga oshira borib, davlat bozor tizimi amal qilishini kuchaytiradi, unga o'zgartirishlar kiritadi.

Yuqorida aytilganlardan ko'rinib turibdiki, umuman olganda, iqtisodiyotni tartibga solishning bozor va davlat mexanizmi bir-biridan farq qiladi hamda bir-birini to'ldiradi. Iqtisodiyotni tartibga solishning bozor mexanizmi ma'lum me'yorda bo'lgandagina iqtisodiyot barqaror rivojlanib, ijtimoiy e'tirozlarga o'rin qolmaydi. Lekin hozirgacha biror adabiyotda davlatning iqtisodiyotni tartibga solishi me'yorlari ko'rsatilmagan va aniq o'lchamlari yo'q. Ayrim bir mamlakatda davlat iqtisodiyotni faol tartibga solish bilan shug'ullansa, boshqasida esa bozor mexanizmi yetakchi bo'ladi.

Iqtisodiyotni tartibga solishning ikki mexanizmi va uning xususiyatlari quyidagi chizmada ko'rsatiladi:

Bozor mexanizmi — o'zini o'zi tartibga soladi	Davlat mexanizmi — davlat tomonidan ma'lum qonunlar va rejalar asosida tartibga solinadi
<ul style="list-style-type: none"> <li>• Bozorda tovar-xizmatlarning kerak yoki kerak emasligini talab va taklif belgilaydi.</li> <li>• Bozorda har bir alohida subyekt o'z manfaatlaridan kelib chiqqan holda o'z sohasini tanlaydi va o'zgarishlarini ham o'zi amalga oshiradi.</li> <li>• Bozor subyektlari o'z kapitalarini foyda keltirmaydigan, samarasiz sohalarga qo'ymaydilar.</li> <li>• Bozor o'zgaruvchan xaridor talabiga tezda moslashadi.</li> <li>• Nima, qanday, qancha, kim uchun ishlab chiqarish kerakligini firma, korxonalar, tadbirkorlar o'zlari mustaqil hal qiladi.</li> <li>• Korxonalarni, firmalarni boshqarish gorizontalar va sheriklar o'rtasidagi aloqalar asosida tashkil etiladi.</li> <li>• Xo'jalik subyektlari o'rtasidagi aloqalarni tartibga solish faqat shartnomaviy asosga qo'yilgan bo'ladi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Davlat ishlab chiqarishni reja asosida belgilaydi va bozorga taklif etadi.</li> <li>• Davlat makroiqtisod darajadagi yirik masshtabdagi tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishni o'z zimmasiga oladi.</li> <li>• Davlat budget yordamida iqtisodiyotning samarasiz sektorlariga ham jamiyat uchun zarur bo'lgan sohalarni qo'llab-quvvatlash uchun kapital qo'yadi.</li> <li>• Davlat bozor talabining o'zgarishini tez va aniq bila olmaydi, natijada talab o'z vaqtida va sifatli qondirilmaligi mumkin.</li> <li>• Qarorlar umummilliy manfaatlarni ko'zlagan holda qabul qilinadi.</li> <li>• Milliy xo'jalikni boshqarish vertikal asosida, ya'ni yuqoridan pastga qarab tashkil etiladi.</li> <li>• Aloqalar ko'pincha rejalashtirilgan, lekin iqtisodiy manfaatga asoslanmaydi.</li> </ul>

### 10.3. Davlatning iqtisodiy roli va vazifalari

Kishilik jamiyati taraqqiy etib borgan sari tabiiy va iqtisodiy jarayonlarni tartiblash, boshqarish zaruriyati tobora kuchayib boryapti. Jamiyat hayoti ham murakkablashib borib, iqtisodiy faoliyatda band bo'lganlar soni mislsiz ko'paymoqda. Bunga sabab shuki, davrlar o'tib borgani sari, mamlakatlar va dunyo aholisi ko'payib, har bir kishining va umuman, dunyo aholisining ehtiyojlari uzluksiz o'sib boryapti. Aholi ehtiyojlarining cheksiz o'sib borishi va ularni qondirish uchun tobora ko'proq moddiy-ma'naviy ne'matlarni ishlab chiqarish talab qilinadi.

Bunday talabni qondirish maqsadida kishilik jamiyati tabiiy-iqtisodiy jarayonlarga o'z ta'sirini kuchaytirib kelmoqda. Yangi-yangi yerlarning o'zlashtirilishi, yirik suv inshootlarining barpo etilishi, sanoat ishlab chiqarishining vujudga kelishi va rivojlanishi, transport va aloqa sohalarning, savdo-sotiqning va xo'jalikning boshqa sohalari kengayib, murakkablashib borishi, shahar va

qishloqlarning vujudga kelishi va obod bo'lishi — bu jarayonlarni tartiblash, boshqarib borishni talab qiladi.

XXI asr insoniyat tarixiga fan-texnika inqilobi asri, sanoat asri, ishlab chiqarishni modernizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish, robotlashtirish, kompyuterlashtirish va axborot asri kabi nomlar bilan kirib keldi. Xuddi shu asrda boshqa asrlarda yuz bermagan, o'ziga xos voqelik yuz berdi, dunyo aholisining soni so'nggi yuz yillik davomida to'rt barobarga yaqin ko'paydi. Insonning cheksiz ehtiyojlarini cheklangan resurslar asosida qondirish muammosi — olamshumul muammolardan biriga aylandi.

Insonning cheksiz ehtiyojlarini qondirishning birdan bir vositasi insonlarning ongli faoliyati asosida amalga oshiriladigan ishlab chiqarish va turli xizmatlar ko'rsatishdir. Ishlab chiqarish xodimlarning moddiy manfaatdorligi asosida amalga oshiriladi. Ishlab chiqarishning har bir qatnashchisi o'z mehnat faoliyati natijasidan ko'proq naf ko'rishga intiladi. Ko'proq naf ko'rishga intilish va bu maqsadga erishuv haqqoniy ravishda odamlarning tabaqalashuviga olib keladi. Jamiyat a'zolari orasidan ko'plab ishbilarmonlar, tadbirkorlar, mohir boshqaruvchilar yetishib chiqib, mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirishga, xalqlar farovonligini oshirishga katta hissa qo'shdilar, o'zlari esa yirik mulkdorlarga aylandilar.

Bu jarayon, ayniqsa, XX asrning 20—30-yillarida jadal kechdi. Bu davrga kelib, dunyoning qator mamlakatlarida ulkan iqtisodiy ishlab chiqarish, ilmiy-texnika, texnologiya imkoniyatlariga, butun bir davlatning kuch-qudratiga teng keladigan kuch-qudratga ega bo'lgan ulkan korporatsiyalar vujudga keldi. Bunday ulkan korxonalar, birlashmalar, banklar millatlarning kuch-qudratiga aylandi. Davlat siyosatining taqdiri, xalq taqdiri ko'p jihatdan xuddi shu korxonalarining faoliyati natijasiga bog'liq bo'lib qoldi. Qolaversa, bunday ulkan korporatsiyalar dunyo mamlakatlariaro o'zlarining ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash, servis va axborot turini to'qib, transmilliy xarakterga ega bo'lib qoldilar. Binobarin, dunyodagi ko'p mamlakatlar va xalqlar taqdiri ham u yoki bu darajada transmilliy korporatsiyalar faoliyatiga aloqador.

XX asr ishlab chiqarishidagi yana bir xususiyat shuki, muayyan mamlakat korxonalarining eng katta qismini tashkil etgan kichik va o'rta korxonalar aksariyat ko'pchiligining faoliyati ulkan korporatsiyalar faoliyati bilan integrallashib ketgan. Ular ulkan korpo-

ratsiyalar uchun ma'lum qismlar, detallar yetkazib beruvchi korxonachalarga aylanib ketgan.

Qayd etib o'tilganlardan kelib chiquvchi xulosa shuki, hozirgi davrga kelib, dunyo miqyosida, ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda xalq xo'jaligi nihoyatda kengayib, murakkablashib ketdi. Mamlakatlar ichidagi va tashqarisidagi necha o'nlab, necha yuzlab korxonalarining iqtisodiy faoliyatlari bir-birlari bilan kirishib, chirmashib, bir mexanizmga aylangan. Ishlab chiqarish jarayonida bir necha millionlab, milliardlab qiymatga ega bo'lgan asosiy ishlab chiqarish fondlari qatnashadi. Korxonalar ko'rishi mumkin bo'lgan foyda ham, zarar ham juda katta raqamlarda ifodalanadi.

Mabodo, qaysidir korxonadan tanazzulga yuz tutadigan bo'lsa, u keltirishi mumkin bo'lgan zarar mamlakat iqtisodiyotining katta qismini o'pirib ketadi. Binobarin, hozirgi davrga kelib, iqtisodiyotni tartibga solish, boshqarishning ahamiyati nihoyatda oshdi, uning faoliyat doirasi o'ta kengayib boryapti. Shuning uchun iqtisodiyotning muhim tarmoqlari bir-biriga mutanosib ravishda rivojlanishini, aholining kundan kunga uzluksiz o'sib borayotgan ehtiyojlarini ta'minlash kabi vazifalarni, davlat tomonidan iqtisodiyotni tartiblashdagi rolini o'ta dolzarb va obyektiv zarurat qilib qo'ygan.

Davlatning quyidagi uch vazifani bajarishdagi faoliyati bozor tizimi mustahkamlanishi va kengayishini ta'minlaydi:

1. Daromad va boyliklarni qayta taqsimlash.
2. Milliy mahsulot tarkibini o'zgartirish maqsadida resurslar taqsimotini tartibga keltirish.
3. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish, ya'ni iqtisodiyotdagi tebranishlar va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish natijasida kelib chiqadigan ishda bandlik hamda inflatsiya darajasini nazorat qilish.

Tovarlar dunyosida individual iste'molga mo'ljallangan tovarlar bor. Oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechaklar, uy-joy anjomlari, transport vositalari, zeb-ziynat buyumlari kabilar individual iste'mol tovarlaridir. Bu tovarlarni har kim, xohlagan paytda, xohlagan miqdorda sotib olib, iste'mol qilishi mumkin. Tadbirkorlar har doim individual iste'mol tovarlari ishlab chiqarib foyda olishga intiladi. Lekin shunday tovarlar borki, ularni har kim xohlagan paytda, xohlagan maqsadda sotib olib iste'mol qila olmaydi. Ammo bu tovarlar insonlarning yashashlari va faoliyat ko'rsatishlari uchun juda zarurdir.

Temiryo'l va avtomobil yo'llari, havo va suv yo'llari, milliy bog'lar, ko'chalar va ularni bezab turgan gulzorlar, elektr liniyalari,



umumta'lim maktablari, kollejlari, suv inshootlari ijtimoiy tovarlardir. Ularni hech kim sotmaydi va hech kim sotib olmaydi. Ammo hamma ulardan bepul foydalanadi. Tezroq foyda ko'rish ilinjida yurgan tadbirkorlar bunday tovarlarni ishlab chiqarishdan manfaatdor emaslar. Bunday tovarlarni ishlab chiqarishga qo'yilgan mablag' tadbirkor uchun foyda keltirmaydi, keltirgan chog'da ham vaqtni talab qiladi. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, jamiyat uchun juda zarur bo'lgan ijtimoiy tovarlarni ishlab chiqarish vazifasi davlat gardaniga yuklanadi.


Iqtisodiyot jabhasida davlat iste'molchi sifatida ham bozorga chiqadi. Davlat buyurtma berib, kerakli tovarlarni qat'iy bahoda sotib oladi, bu bilan tovar va xizmatlar bozori hajmiga ta'sir etadi. Davlat buyurtmasini bajarish firmalar uchun qulay ishga aylanadi, chunki tovarlar sotilishi, binobarin, kafolatlangan, tadbirkorlik xatari kam bo'ladi. Davlatning bu tadbiri bozorni kengaytiradi, chunki qo'shimcha pul xarid vositasi sifatida bozorga tashlanadi.

Davlat ma'lum iqtisodiy vositalar: moliya, kredit, soliq, valuta siyosati, narx-navoni nazorat qilish va bevosita ta'sir o'tkazish choralari orqali iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni tartibga soladi. Davlat iqtisodiyotga o'zining ijtimoiy siyosati bilan ta'sir ko'rsatadi. Bu, asosan, ikki yo'l bilan amalga oshiriladi. Birinchidan, davlat o'z mablag'lari bilan malakali ishchi kuchini tayyorlashda qatnashadi. Davlat hisobidan hamma uchun bepul ta'lim beriladi, ma'lum toifa bepul oliy ta'lim oladi, bepul tibbiy xizmatlardan foydalanadi, imtiyozli uy-joyga ega bo'ladi. Davlat hisobidan aholini yangi kasblarga o'rgatish joriy etiladi.

Ikkinchidan, davlat o'z budjeti doirasida shaxsiy daromadlarni qayta taqsimlab, boy toifa hisobidan kambag'allarni ta'minlab turadi. Bu bilan sinfiy kurash bartaraf etiladi, ijtimoiy totuvlik — murosa qaror topadi. Bu esa iqtisodiy o'sishga qulay sharoit yaratadi.

Iste'molchilar manfaatlarini himoyalash, tovarlar va xizmatlar sifatini nazorat qilib borish, tabiiy resurslardan foydalanishni tartiblash va atrof-muhitni muhofaza qilish, tashqi savdo operatsiyalarini nazorat qilish hamda xalqaro munosabatlarda mamlakat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish davlatning iqtisodiy vazifalari hisoblanadi. Qayd etib o'tilgan barcha iqtisodiy vazifalar to'raligicha mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab hozirgi kunga qadar O'zbekistonda amalga oshirilib kelinmoqda. Shu bilan birga O'zbekiston o'zi tanlab olgan yo'lining talablaridan kelib chiquvchi boshqa iqtisodiy vazifalarni ham amalga oshirib kelayotir.

### Davlatning iqtisodiy vazifalari



Ma'lumki, O'zbekiston mustaqillikning iqtisodiy asosini bozor iqtisodiyotiga o'tishning «o'zbek modeli»ni amalga oshirish orqali barpo etmoqda. Respublikamizning bozor iqtisodiyotiga o'tish tamoyillaridan biri — «Davlat bosh islohotchi». Shu tamoyil talablaridan kelib chiqib, O'zbekistonda davlat islohotlarining boshida

turib kelmoqda. Uning rahbarligida mamlakatimiz hayotining barcha jabhalari bo'yicha islohotlarning asosiy yo'nalishlari ishlab chiqildi va amalga oshirilyapti. Bular: xalq xo'jaligidagi tarkibiy o'zgarishlar, pul islohoti, agrar islohotlar, moliyaviy islohotlar, ta'lim sohasidagi, sog'liqni saqlash sohasidagi islohotlar, tashqi iqtisodiy aloqalar sohasidagi islohotlar va boshqalar.

Mamlakat iqtisodiy kuch-qudratining yuksalishida, xalq hayotining yaxshilanib borishida davlat sa'y-harakatlarining ahamiyati juda kattadir. To'g'ri tanlangan iqtisodiy siyosat va uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mamlakat iqtisodining uzluksiz, barqaror rivojlanib borishini ta'minlaydi, xalqqa farovon hayot baxsh etadi, davlatning xalqaro obro'si ortib boradi.


Yuqoridagi ko'rsatilganlarni umumlashtirgan holda fikr yuritadigan bo'lsak, hozirgi davrda davlatning iqtisodiyotni tartibga solishidan asosiy maqsad mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlash orqali xalq turmush darajasini oshirishdan iborat. Shuning uchun davlat bozor tizimi bajara olmaydigan quyidagi iqtisodiy vazifalarni bajarishni o'z zimmasiga oladi:

1. Bozor mexanizmi orqali qoplanmaydigan, umumjamiyat uchun zarur bo'lgan xarajatlar, ya'ni ijtimoiy sohalar, mudofaa sohasi, ilm-fandagi fundamental tadqiqotlar kabilarni;

2. Davlat funksiyalarini va boshqa o'z oldiga qo'ygan maqsadiga ko'ra vazifalarni, ya'ni:

- talab va taklif muvozanatini ta'minlash;
- muomalaga chiqariladigan pul massasi hajmini nazorat qilish;
- iqtisodiyot va ijtimoiy infratuzilmalarga kapital qo'yilmalarni rag'batlantirish, jamg'arma bilan sarmoyalar o'rtasida muvozanatni o'rnatish;
- aholining ish bilan to'la bandligini ta'minlash;
- eksport va importni rag'batlantirish;
- bozorda narxlarni barqarorlashtirish;
- iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash;
- daromadlarning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishini nazorat qilish va boshqalar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, davlat iqtisodiyotni bevosita va bilvosita chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali tartibga solar ekan. Uni quyidagi chizma orqali tasvirlaymiz:



#### 10.4. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning monetar va yangi klassik modellari

Bozor tizimi sharoitida davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning eng asosiy va samarali yo'li — bu bozor obyektiv qonunlaridan foydalanib, maxsus pul-kredit, ya'ni monetar siyosat yuritishidir. Bu siyosatni ishlab chiqish Markaziy bankning asosiy funksiyasi hisoblanib, shu muassasa tomonidan amalga oshiriladi.

*Monetar siyosat* — bu davlatning pul-kredit siyosati bo'lib, pul muomalasini tartibga solish, tovar va pul massasi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, iqtisodiyotdagi pul aylanmalarini boshqarib turish siyosatidir. Bu siyosatning maqsadi bozordagi narxlarni va shunga ko'ra milliy pul birligi — so'mning xarid qurbini, uning valuta kursini barqarorlashtirish, oxir-oqibatda pulga talab bilan uning taklifini muvozanatlashtirishdan iborat. Monetar siyosat o'z ichiga quyidagilarni oladi:

1. *Qayta moliyalashtirish yoki hisob siyosati*. Bunda davlat nomidan Markaziy bank uchoq stavkasini o'zgartiradi. Stavka oshganda pul qimmatlashib, unga talab qisqaradi. U pasaytirilganda pul arzonlashib, unga talab oshadi. Bu ayni paytda kreditning arzon yoki qimmat bo'lishini bildiradi. Bu esa iqtisodiyotga kredit hisobidan yuboriladigan sarmoyalarni o'zgartirib, uning o'sishiga ta'sir etadi. Masalan, O'zbekiston Markaziy banki 2014-yildan uchoq stavkasini 12 % dan 10 % ga tushirdi. Demak, tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlar arzonlashdi. O'z navbatida,

tadbirkorlar uchun banklardan kredit olish imkoniyatlari yaxshilandi.

2. *Majburiy rezerv siyosati.* Bunda Markaziy bank tijorat banklar uchun kredit resursining majburiy zaxirasini tashkil qiladi. Bu tartibga ko'ra, banklar kreditga beriladigan pulning bir qismini Markaziy bank ixtiyoriga beradi. Bu zaxira oshsa, kredit puli qisqaradi, agar u kamaysa, bu pul ko'payadi. Bundan maqsad muomaladagi pullarning ko'payib ketmasligini ta'minlash va banklar tomonidan kreditga pullarning ko'p chiqib ketmasligiga erishishdan iborat.

3. *Ochiq bozorda operatsiyalar o'tkazish siyosati.* Bu siyosat aholi qo'lida naqd pul ko'payib ketganda amalga oshiriladi. Bunda davlat tomonidan obligatsiyalar ma'lum bir muddatga chiqarilib, banklar va aholiga sotiladi, muddati kelganda ular qaytadan sotib olinadi. Bu obligatsiyalar yutuqli va foizli bo'lganligi uchun aholi tomonidan sotib olish qulay bo'ladi, chunki ularga qat'iy belgilangan foizni davlat to'laydi. Bu bilan ularning daromadlilikini kafolatlanadi. Davlat obligatsiyalari sotilganda pul ularga bog'lanib qoladi, natijada uning muomaladagi miqdori qisqaradi. Aksincha, ular qaytadan sotib olinganda pul ulardan bo'shab muomalaga keladi, natijada muomaladagi pul miqdori ko'payadi. Bu usul bilan pul miqdori davlat tomonidan tartibga solinadi.

Mamlakatdagi iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqqan holda davlat ikki monetar siyosat olib boradi:

1. *Qattiq monetar siyosat.* Bu siyosat aholi qo'lida (muomalada) pul ko'payib ketganda qo'llaniladi. Bunda pul massasi qisqartiriladi, pul emissiyasi qat'iy chegaralanadi. Natijada pul massasi qisqarib, bozordagi tovar massasiga tenglashadi. Pul massasining qisqarishi talabni kamaytiradi, narxlar esa o'smaydi, pul birligining xarid qurbi barqarorlashadi. Aholi tomonidan pul topishga intilish iqtisodiyotning jonlanishiga olib keladi. Bu siyosat natijasida iqtisodiyot inqirozdan chiqadi, inflatsiya jilovlanadi.

2. *Yumshoq monetar siyosat.* Bunda davlat pul massasining ortishiga to'sqinlik qilmaydi, pul emissiyasi talabga qarab amalga oshiriladi, natijada pul ko'payib, u arzonlashadi. Yumshoq monetar siyosat iqtisodiyotning o'sishi davrida bo'lganda ko'proq qo'llaniladi, chunki pul massasining o'sishiga qarab tovarlar massasi ham o'sadi. Bunda tovar-pul muvozanati pulni qisqartirish hisobidan emas, balki tovarlarning ko'payishi tufayli ta'minlanib turadi.

Yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, pul bozorida pulga bo'lgan talab va taklif tez-tez o'zgarib turadi. Pulga talabni iste'molchilar,

ya'ni aholi, korxonalar, firma, tashkilot, muassasalar shakllantiradi. Taklifni esa faqat davlat emissiya qilish orqali amalga oshiradi. Mamlakatdagi pul muomalasini tashkil etish va tartibga solish davlat funksiyasiga kiradi. Agar bozorda biror sababga ko'ra pul taklifi ortib ketsa, davlat ortiqcha pul emissiya qilgan bo'ladi va bu inflatsiyaga olib keladi. Inflatsiyadan esa barcha bozor ishtirokchilari zarar ko'radi.

### **10.5. Iqtisodiyotni tartibga solishda fiskal siyosat**

Iqtisodiyotni tartibga solishning bozor mexanizmi mamlakatdagi moliyaviy resurslarning davlat va jamiyat o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarni amalga oshirishi uchun yetarli darajada taqsimlanishini hamda qayta taqsimlanishini ta'minlab bera olmaydi. Shuning uchun davlatning iqtisodiyotni tartibga solishi obyektiv zarur bo'lib qoladi. Bu davlatning *fiskal siyosati* orqali amalga oshiriladi. Fiskal siyosat davlatning budjet siyosatida o'z ifodasini topadi. Bu siyosatni davlat soliq, budjet, sarmoya, amortizatsiya siyosati kabilar orqali turli davlat organlari yordamida amalga oshiradi.

Fiskal siyosatning eng asosiy vazifasi — davlat pul fondlarini markazlashgan tarzda tashkil etish va ishlatish orqali iqtisodiy-ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdan iborat bo'ladi. Fiskal siyosat ikki xil bo'ladi — avtomatik va diskretion.

*Avtomatik fiskal siyosat* deganda, hukumat tomonidan ilgari kiritilgan va hozir amalda bo'lgan iqtisodiy barqarorlashtiruvchi vositalar (stabilizatorlarni) qo'llashni davom ettirish tushuniladi, ya'ni davlat qonun yo'li bilan shunday tartibni o'rnatadiki, unga binoan, moliyaviy me'yorlar joriy etiladi va ular sharoit o'zgarishiga qarab avtomatik ravishda amal qilaveradi. Bular jumlasiga soliq stavkalarini, ishsizlik nafaqasi miqdori, daromadlarning inflatsiyaga qarab indeksatsiya qilinishi, ijtimoiy yordam ko'rsatish kabi me'yorlarni kiritish mumkin. Bu mexanizmning asosini soliq tashkil etadi. Misol uchun, soliqlar summasi daromadlar miqdoriga bog'liq ravishda avtomatik tarzda kamayishi yoki ko'payishi mumkin. Soliqqa tortishning progressiv stavkalari asosida YIM o'sishi bilan avtomatik tarzda soliq tushumlari ko'payadi. Aksincha, inqirozlar davrida soliq tushumlari avtomatik tarzda qisqaradi.

*Diskretion fiskal siyosat* deganda, sharoitga qarab yangi normativlarni kiritish yo'lidan borishga aytiladi. Bu siyosat shaklida davlat yangi soliq stavkalari joriy qilinadi, budjet mablag'larini sarflash normativlari o'zgartiriladi. Diskretion siyosat o'zgargan sharoitga

moslashish siyosati hisoblanadi. Odatda, iqtisodiyot barqaror o'sib borayotganda avtomatik inqirozlar davrida undan chiqish uchun diskretion siyosat ustuvor bo'ladi.

Fiskal siyosat yuritilganda iqtisodiyotga budjet hisobidan davlat ishlab chiqarish infratuzilmasini o'zgartirish uchun katta sarmoyalar qiladi. Iqtisodiyotning ayrim ahamiyatli soha va tarmoqlariga subsidiyalar beriladi. Subsidiya moliyaviy yordam sifatida qaytarib olinmaydi, uning hisobidan xarajatlar qoplanib korxonalar foydasi ko'payadi.

Budjet siyosati, eng avvalo, ijtimoiy ne'matlarning yaratilishini kerakli miqdorda pul bilan ta'minlab turishga qaratilgan bo'lishi zarur.

Investitsiya siyosati — bu iqtisodiyotning kerakli sohalarga investitsiya resurslari yuborilishini ta'minlashga qaratilgan siyosatdir. Davlat bu siyosat orqali mamlakatda investitsion faollikni oshirishga yoki kamaytirishga harakat qiladi. Natijada milliy iqtisodiyotning tarkibini o'zgartirish orqali ishlab chiqarishni, eksportga mo'ljallangan sohalarini rivojlantiradi. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda fiskal siyosatning har ikki shaklidan ham foydalanilmoqda.

Davlatning iqtisodiyotni tartibga solishni budjet xarajatlari orqali amalga oshirishi quyidagilarga:

- xarajatlarning miqdoriga, ya'ni ularning YMMga nisbatan ulushiga;
- xarajatlar tarkibiga;
- xarajat qilingan mablag'larning samaradorligiga bog'liq bo'lar ekan.

Hozirgi zamon jahon mamlakatlarining barchasida davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishda har ikki siyosatdan birgalikda foydalaniladi. Bu amaliyotni ta'riflab taniqli iqtisodchi Pol Xeynening yozishicha, so'nggi yillarda davlatning pul-kredit siyosati bilan fiskal siyosati teng ahamiyatga ega bo'lib borayotganligini ko'rsatadi. Chunki so'nggi yillarda sodir bo'layotgan iqtisodiy inqirozlar unchalik og'ir kechmayapti, lekin inflatsiya doimiy xarakterga ega bo'lib qolmoqda. Inflatsiyani pul muomalasiga ta'sir etish orqali samaraliroq davolash mumkin deydi.

Davlatning iqtisodiyotni tartibga solish yo'llaridan yana biri — boj olish va eksport uchun litsenziyalar berish orqali amalga oshiriladi.

Hozirgi davrda davlatning iqtisodiyotni tartibga solish amaliyotida muhim rolning uning valuta siyosati o'ynaydi. Davlat bu siyosatni valuta munosabatlarining qonun-qoidalarini ishlab chiqish orqali

amalga oshiradi. Bu qonunlarda valutilarni sotib olish yoki sotish, valuta kursini belgilash yo'llari bilan olib boradi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytsak, davlat o'zining iqtisodiy siyosati orqali bozor subyektlarining faoliyatiga faol ta'sir ko'rsatish yo'li bilan iqtisodiyotni tartibga solishni amalga oshiradi.

#### **10.6. Iqtisodiyotni tartibga solishning Keynscha modeli**

Biz yuqorida bozor iqtisodiyotining o'zini o'zi tartibga solish to'g'risida to'xtalib, J.B. Seyning tovar taklifi o'z-o'zidan tovarga talab yaratadi qoidasiga amal qilishini ko'rsatib o'tgan edik. Keyns esa Sey qonuniga tanqidiy yondashib, bozorni tartibga soluvchi «asosiy psixologik qonun» mavjud degan fikrni olg'a surgan. Uning fikricha, bozor rivojlanib borgan sari, aholi daromadlari ham o'sib boradi. Natijada odamlar daromadlarining bir qismini jamg'arishga ajrata boshlaydilar. Jamiyatda topilgan daromadidan ishlatilmay qolgan kattagina qismini jamg'arishga moyillik hissi paydo bo'ladi.

Shunga ko'ra, bozorda jami talab jami taklifga mos kelmay qoladi. Bu, o'z navbatida, ishlab chiqaruvchilarning resurslarga talabining kamayishiga olib keladi. Chunki tovar ishlab chiqaruvchilar foydasi pasaygani uchun ularda kelajakda oladigan foydalariga ishonchlari yo'qoladi. Bunday holatda ular o'z mablag'larini endi ishlab chiqarishga emas, banklarga qo'yib yoki qarzga berib, barqaror, yuqori foiz olish evaziga ham yashayverishlari mumkin bo'ladi.

Bunday holatda J.M. Keynsning fikricha, davlatning markaziy vazifasi aholi daromadlarining o'sishiga olib keluvchi «samarali talab»ni ta'minlash zarur bo'ladi. Agar davlat shunday qilsa, buning oqibatida aholining ish bilan bandligi va, o'z navbatida, daromadlari oshadi, bu ishlab chiqaruvchilarning foydasi oshishiga olib keladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Keyns bozor iqtisodiyoti yalpi taklif bilan yalpi talab o'rtasida mustahkam muvozanatni ta'minlashga qodir emasligini asoslab beradi. Shuning uchun bunday muvozanatni davlat iqtisodiyotda samarali talabni ta'minlash vazifasini o'z zimmasiga olishi kerak, degan nazariy modelni yaratadi. Bu makroiqtisodiyotni tartibga solishning tamomila yangi modeli hisoblanib, iqtisodiyot nazariyasida u neoklassik yo'nalishida yangi inqilobiy burilish deb aytiladi.

Jon Maynard Keynsning bu nazariyasi uning 1936-yil bosmadan chiqqan «Ish bilan bandlik, protsent va pulning umumiy nazariyasi» nomli mashhur asarida o'z ifodasini topgan. Bu asarning



asosiy masalasini *Iste'mol xarajatlari + Investitsiya + Davlat xaridlari = Yalpi talab* tashkil etadi.

J.M. Keynes iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda eng muhim masala, bu aholini ish bilan ta'minlash, ishsizlikni bartaraf etish iqtisodiy o'sishning asosiy omilidir deb qaraydi. Uning fikricha, ish bilan band bo'lish samarali taklif bilan, taklifning o'zi esa aholining va tadbirkorlarning ishlab chiqarish xarajatlari bilan belgilanadi. Bandlik, iste'mol va investitsiya bir-biri bilan bog'liq. Bandlik iste'molni kuchaytiradi, iste'mol va investitsiya o'zgarsa bandlik ham o'zgaradi, deydi. Keynes fikricha, iste'mol funksiyasi nisbatan barqaror, shuning uchun davlat investitsiyani rag'batlantirib turishi kerak.

J.M. Keynes davlat xarajatlari masalasida mamlakatdagi ayrim samarasiz tarmoqlarni, kommunal xo'jalik korxonalarini budjetdan moliyalashtirish, ayniqsa, aholining ma'lum qatlamiga yordam berish kabilarni tavsiya etadi. Budjet orqali talabni kengaytirish ishsizlikni, oqibatda esa, ijtimoiy qarama-qarshiliklar keskinligini kamaytiradi. Davlat xarajatlarining zarurligi va samaradorligini ularni ishlab chiqarish hajmi, daromadlar, bandlikka ta'siri nuqtayi nazaridan asoslab berish uchun J. M. Keynes «multiplikator» nazariyasini ishlab chiqadi.

Uning fikricha, investitsiyaning o'sishi ishlab chiqarishga qo'shimcha ish kuchini jalb qiladi, u, o'z navbatida, qo'shimcha daromad va iste'molni yuzaga keltiradi. Natijada sarflangan investitsiyaga qaraganda ishlab chiqarish hajmi va daromad bir necha barobar ko'p o'sadi. Bu natija esa multiplikator effekti deb ataladi. Chunki investitsiyalar iqtisodiyotda o'zgarish sodir qiladi va u xuddi zanjir-simon reaksiya bo'lib, har bir keyingi bosqichda so'nib borayotgan tarzda bo'lsa ham YIMning bir necha marta o'zgarishiga olib keladi.

Iqtisodiyotda iste'mol bilan jamg'arishning mutanosibligi saqlanishiga davlat tomonidan muhim e'tibor qaratiladi, chunki birining ortishi ikkinchisining kamayishiga olib keladi. Agar mamlakatda ko'proq jamg'arilsa, iste'mol kamaytiriladi, bu, o'z navbatida, daromadning ham qisqarishiga olib keladi. Chunki iqtisodiyotda bir subyektning xarajati ikkinchisining daromadi bo'ladi. Daromadning pasayishi, o'z navbatida, jamg'arishning pasayishiga olib keladi, kapitallashgan tovarlarga bo'lgan talab qisqaradi. Bu esa investitsiyaning qisqarishiga olib keladi. Demak, multiplikator ikki tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Investitsiyaning o'sishi milliy daromadning multiplikativ ko'payishiga olib keladi.

Ikkinchi tomondan, investitsiyaning uncha ko'p bo'lmagan qisqarishi keskin ravishda milliy daromadning kamayishiga olib keladi. Shu bilan bir qatorda investitsiya kam bo'lsa, ishsizlikning ko'payishiga, jamg'arishdan ortishi esa inflatsiyaning o'sishiga olib keladi. Investitsiya beradigan daromad bank foizidan kam bo'lsa, pulni investitsiya qilgandan ko'ra, jamg'arish qulay bo'ladi. Agar investitsiyadan olinadigan daromad pasaysa, investitsion faollik ham susayadi. Aksincha bo'lsa, faollik ham kuchayadi. Demak, davlat ana shu faollikni ta'minlash uchun doimo sharoit yaratib turishi kerak bo'ladi.

J.M. Keynsning bu nazariy modeli davlatning iqtisodiyotni uzoq muddatga asoslangan tartibga solishiga qaratilgan. Uning parametrlari va yo'nalishlari har bir mamlakatning xususiyatidan kelib chiqib, milliy iqtisodga moslashtirilishi kerak bo'ladi. Hozirgi vaqtda bozor tizimida yashayotgan davlatlar o'zining fiskal siyosatini Keyns nazariyasiga asoslanib olib borishmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, iqtisodiyotni tartibga solishning Keyns modelining asosiy xususiyatlari quyidagilarda ifodalanadi:

- davlat budjeti orqali milliy daromadning qayta taqsimlangan ulushi yuqori bo'ladi;
- davlat va aralash korxonalar tashkil qilinishi, davlat tadbirkorligini keng rivojlantirishga olib keladi;
- iqtisodiyotning moliya-budjet va pul-kredit mexanizmlaridan foydalanib vaziyatni barqarorlashtirish, siklli tebranishlarni tartibga solish, bandlik darajasini ko'tarish, iqtisodiy o'sish sur'atini qo'llash uchun keng foydalaniladi.

J.M. Keyns tomonidan taklif etilgan iqtisodiyotni tartibga solish modeli hozirgi vaqtda ko'p mamlakatlarda, ayniqsa, AQSH, Angliya va boshqa g'arb mamlakatlarida keng qo'llaniladi va iqtisodiyotni tanglikdan olib chiqishga yordam bermoqda.

### **10.7. Iqtisodiyotni tartibga solishning monetar modeli**

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish to'g'risidagi hozirgi zamon nazariyalari ichida alohida o'rin tutgan, keng tarqalgan mashhur va nufuzli model — bu monetarizmdir. Bu nazariyaning asoschisi AQSH iqtisodchisi Milton Fridmendir. U 1976-yilda Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan.

Monetarizm moneta, ya'ni tanga so'zidan kelib chiqqan. Bu nazariya pul muomalasi to'g'risidagi nazariya deb yuritiladi. Nazariyaning bosh g'oyasi iqtisodiyotning o'sishini, bozorning barqaror rivojlanishini ta'minlashning asosiy mexanizmi, vositasini

pul deb tushuntirishdan iborat. Fridmenning fikricha, davlat iqtisodiyotga aralashuvi faqat pul muomalasi doirasida bo'lishi kerak. Davlat yalpi talabga muomaladagi pul miqdorini tartibga solish bilangina ta'sir etishi kerak deydi. Muomaladagi pul miqdorining esa quyidagi formula orqali aniqlanishini ko'rsatadi:

$$Pm = \frac{YMM}{O} .$$

$Pm$  = YMM qiymati /  $Pb$  pul birligi va uning aylanish soni, ya'ni  $O$  ga bo'linadi, deb olinadi.

Monetaristlar pul birligi aylanish soni, odatda, kam o'zgaradi, shuning uchun YMM qiymatiga muomaladagi pul miqdorini tartibga solish bilan ta'sir qilish mumkin. Pul birligi aylanish soniga ko'paytirilgan, emissiya qilingan pul miqdori ishlab chiqarilgan ne'matlarni sotib olish uchun aholida mavjud pul miqdorini ifodalaydi. Ya'ni yalpi talabni ifodalaydi. Demak, YMM qiymati yalpi talabga bog'liq bo'ladi deyishadi. Fridmen erkin bozorni, talab va taklifni iqtisodiyotni rivojlantirishning eng qudratli iqtisodiy vositasi deb hisoblaydi.

Davlat iqtisodiyotni tartibga solishining eng yaxshi vositasi — bu bozorga o'z vazifasini bajarish uchun sharoit yaratib berishdir, ya'ni narxga aralashmaslikdir deydi. Shunda «Narx tizimi mexanizmi» shunday aniq va samarali ishlaydiki, biz ko'pincha ahamiyat ham bermaymiz. Narx mexanizmi iqtisodiyotni markaz boshqaruvisiz, odamlarga buyruq qilmay muvozanatlashtiradi deb ta'kidlaydi. Fridmen narxning uch vazifani bajarishini ko'rsatib beradi.

*Axborot berish* — bozordagi talab va taklif nisbati o'zgarishi haqida ishlab chiqaruvchilarga signal-axborot yuboradi.

*Rag'batlantirish* — xo'jalik yurituvchilarni iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish yo'llarini qidirishga undaydi.

*Taqsimlash* — daromadlarni talab va taklifga nisbatiga qarab sotuvchilar va xaridorlar o'rtasida taqsimlaydi. Har uch vazifa bir-biri bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Ular yordamida bozor mexanizmi makroiqtisodiy miqyosda samarali tartibga solishni o'z-o'zidan uddalaydi. Bu borada normal bozor mexanizmidan qoniqarli darajadagi muqobil mexanizm yo'q. Davlat faqat muomaladagi pulga aralashsa bo'ldi, deb ko'rsatadi.

M. Fridmen A. Shvars bilan birgalikda yozgan «1867—1960-yillarda Qo'shma Shtatlarning monetar tarixi» kitobida xo'ja-

lik faoliyatidagi yirik o'zgarishlar pul massasi va uning harakatiga bog'liq ekanini ko'rsatadi.

Uning nazariyasi asosida:

1. Pul barcha ishlab chiqarishning rivojlanishi va harakatining aniqlovchisi.

2. Pulga bo'lgan talab doimiy ravishda o'sib boradi. Chunki individning jamg'arishga bo'lgan moyilligi uni doimiy ravishda pulini ko'paytirishga intilishiga olib keladi.

3. Pul taklifi va barqarorligi esa kredit-pul institutlarining siyosatiga bog'liqligi bilan xarakterlanadi.

Fridmen Keyns maktabi ilgari surgan fiskal siyosat iqtisodiyotning ahvoli, ayniqsa, pul muomalasining yomonlashuviga, ishlab chiqarishning pasayishiga olib keladi deydi.

Monetaristlar inflatsiyani davolashning o'z retseptlarini ishlab chiqib, g'arb mamlakatlariga quyidagilarni tavsiya etishadi:

- pul taklifi va kredit berishni qattiq cheklash;
- pul emissiyasini qisqartirish (ishlab chiqarishni o'sishga muvofiq ravishdagina ko'paytirish);
- ijtimoiy dasturlarni qisqartirish (davlatning aholiga turli to'lovlarini kamaytirish).

Monetaristlarning fikricha, hukumat va Markaziy bank haddan tashqari faol pul-kredit siyosatini yuritmasligi kerak. MB qat'iy ravishda pul massasining doimiy o'sishini qo'llash qoidasiga amal qilishi lozim. Bu qoida pul hajmining ko'payib borish sur'atini qo'llash, lekin inflatsiyaning oshib ketmasligi uchun bu yetarli darajada past bo'lishi kerak — 2,5 % dan 8 % gacha deb ko'rsatadi. Lekin bu chegaradan past ham bo'lmasligi kerak, u holda ishlab chiqarishning qisqarishi yuz beradi deb tavsiya etadilar.

Monetaristlarning nazariyalarini tahlil qilish orqali unda pul-kredit vositalarining iqtisodiyotni tartibga solishdagi rolining haddan ziyod bo'rttirib yuborilganining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Pul siyosati pulga bo'lgan talab va taklifning o'rtasida muvozanatning yaratilishiga qaratilishi kerak. Iqtisodiyotni pul-kredit orqali tartibga solish hozirgi davr pul-kredit nazariyasiga asoslangan holda amalga oshiriladi. Bu nazariyalardagi u yoki bu asosiy qoidalar va xulosalar pul-kredit siyosatini ishlab chiqishga asos bo'ladi.

Monetaristlar fikrlaridan ko'rinib turibdiki, ular uchun bosh masala antiinflatsion siyosatni asoslashdan iborat ekan. Pul-kredit institutlari pul miqdorining bir me'yorda o'sishini saqlash orqali iqtisodiyotda yuz beruvchi keskin tebranishlarning oldini olishi

mumkin. Bundan Fridmen bir vaqtning o'zida iqtisodiy o'sishga erishishni ta'minlash ham milliy valutaning xarid qobiliyati yuqori darajada bo'lishiga erishish mumkin deb hisoblaydi.

#### Keyns va monetarizm maktablarning farqi

Quyidagi masalalar	Keynschilik	Monetarizm
Iqtisodiy siyosatning maqsadi	Barqaror narxlar va ish haqi, to'la bandlikni ta'minlash.	Iqtisodiyotdagi salbiy holatlar sababchisi inflatsiya bilan kurashish.
Qo'yilgan maqsadga erishish vositalari	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Pul muomalasini, bandlikni ishlab chiqarish o'sishiga moslash.</li> <li>2. Moslashuvchan pul siyosati (inqirozsiz rivojlanishni ta'minlash) yuritish.</li> <li>3. Taqchil budjet, talab va ijtimoiy kafolatning o'sishini moliyalashtirish.</li> <li>4. Davlat ijtimoiy dasturlarini kengaytirish.</li> <li>5. Soliqlarni ko'paytirish, davlat talabini oshirish.</li> </ol>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Pul muomalasini qattiq nazorat qilish.</li> <li>2. Qattiq pul va barqaror fiskal siyosat yuritish.</li> <li>3. Budjet muvozanatini (budjet taqchilligi bozor mexanizmiga davlat aralashuvining o'sishiga olib keladi) ta'minlash.</li> <li>4. Davlat ijtimoiy dasturlarini qisqartirish.</li> <li>5. Budjet taqchilligini kamaytirish, pul muomalasini tartibga solish. Davlatning rolini baholash. Qo'llashdan ijobiy natija kutish.</li> </ol>
	Rag'batlantirish. Iqtisodiy tanglik, bo'hronlar yuz berganda.	Cheklash. Tushkunlik sayoz, inflatsiya kuchli bo'lsa.

Fridmen va umuman, monetaristlar nazariyasiga binoan, ish yuritgan g'arb mamlakatlarida inflatsiya sur'atlarini so'ndirishga erishildi, iqtisodiy faollikni oshirishga yordam berdi. Lekin bu mamlakatlarda ishsizlik ortib borib, o'tkir ijtimoiy muammoga aylandi, ishchi kuchlaridan foydalanish samarasi pasaydi.

Umuman, bu ikki modelga xulosa chiqarib shuni aytish mumkin, har ikki nazariy model tavsiyalari bir vaziyatda ma'lum bir mamlakat uchun qo'l kelsa, boshqa vaziyatda, boshqa mamlakatda foyda bermasligi mumkin. Agar keynschilar nazariyasi iqtisodiy tushkunlikdan chiqib ketishda qo'l kelsa, monetaristlarning qarashlari iqtisodiyoti tiklanayotgan mamlakat sharoitida uning iqtisodiyotini o'stirishga yordam berishi mumkin. Har ikki model iqtisodiyotni tartibga solish zaruriyatidan kelib chiqadi.

Keynschilar asosiy e'tiborni davlatning tartiblash kuchiga qaratgan bo'lishsa, monetaristlar esa iqtisodiyotni o'zini o'zi tartiblash uchun bozor mexanizmi bor, davlat esa ularga yo'l berib, iqtisodiyotga kam aralashgani ma'qul deydilar. Shuning uchun iqtisodiyot nazariyasida Keyns nazariyasi fiskal siyosat nazariyasi deyilsa, Fridmen nazariyasi monetar, ya'ni pul-kredit nazariyasi deb ataladi.

Har ikkala nazariya modeli hozirgi zamonning eng mashhur va keng tarqalgan nazariyalari hisoblanadi. Shuning uchun hozirgi kunda turli mamlakatlarda yuritilayotgan iqtisodiy siyosatning asosini keynschilar va monetaristlar nazariy qoidalari tashkil etadi.

#### *ASOSIY TAYANCH IBORALAR*

- Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish;
- iqtisodiyotni tartibga solishning bozor mexanizmi;
- «ko'rinmas qo'l»;
- «Sey qonuni».



#### **TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR**

1. Iqtisodiyotni tartiblashning davlat mexanizmini tushuntirib bering.
2. Iqtisodiyotga bevosita ta'sir ko'rsatish qanday amalga oshiriladi?
3. Iqtisodiyotga bilvosita ta'sir ko'rsatish qanday bo'ladi?
4. Iqtisodiyotni tartibga solishning huquqiy asoslari nima va uni kim yaratadi?
5. Ma'muriy tartibga solish deganda nimani tushunasiz?
6. Bozorni qisqa muddatli tartibga solish qanday bo'ladi?
7. Bozorni uzoq muddatli tartibga solish qanday bo'ladi?
8. Fridmen formulasini eslab yozib bering.
9. Iqtisodiyotni tartibga solishning «Keynscha model»i mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.
10. Iqtisodiyotni tartibga solishning «Monetar model»i mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.
11. Monetar siyosat deganda nimani tushunasiz?
12. Iqtisodiyotda «Psixologik qonun» qanday rol o'ynaydi?

---


## 11-bob. AGRAR MUNOSABATLAR

### 11.1. Agrar munosabatlar va ularning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi xususiyatlari

Ma'lumki, iqtisodiyotning boshqa sohalar kabi qishloq xo'jaligi bilan bog'liq ishlab chiqarish jarayonida kishilar o'rtasida muayyan iqtisodiy munosabatlar kelib chiqadi va yer bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy munosabatlar agrar munosabatlar deyiladi. Iqtisodiyot nazariyasi fani yerga egalik qilish, uni tasarruf etish, undan unumli foydalanish va natijalarini o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy munosabatlarni agrar munosabatlar deb o'rganadi.

Insonning iqtisodiy faoliyati dastlabki davrdanoq, bevosita yerni ishlashdan boshlanganligi bois agrar munosabatlar ham iqtisodiy munosabatlarning eng qadimgi shakli hisoblanadi. Bozor munosabatlarining iqtisodiyotning barcha jabhalariga qanchalik darajada o'z ta'sirini ko'rsatishidan qat'i nazar, agrar munosabatlar bu tizimda o'zining muhim o'rniga va salmoqli salohiyatiga ega bo'lib qolmoqda.

Agrar munosabatlarning obyekti va subyektlari mavjud bo'lib, ular o'ziga xos xususiyatga egadir. Agrar munosabatlarning obyekti yer, subyektlari esa yer egalari, yerda xo'jalik yurituvchilar yoki yerda iqtisodiy faoliyat ko'rsatuvchilar hisoblanadi.



Bozor iqtisodiyoti sharoitida agrar munosabatlar yerga bo'lgan turli mulkchilikning shakllanishi, yerning tadbirkorlik obyekti bo'lganidan garovga qo'yilishi, yer uchun pul shaklida rentaning turli ko'rinishlarda undirilishi hamda uning agrobiznesning maxsus faoliyat turiga aylanishi kabi shart-sharoitlar bozor iqtisodiyotida agrar munosabatlarning o'ziga xos mazmun-mohiyatga ega ekanligini bildiradi.

### **11.2. Yerning resurs sifatida alohida xususiyatlari**

Qishloq xo'jaligi uchun yer asosiy va hal qiluvchi ishlab chiqarish vositasi bo'lganligi sababli, birinchidan, insonni iqtisodiy faoliyat ko'rsatishiga va ikkinchidan esa, tabiat rivojlanishi qonun va qonuniyatlariga, tabiiy-biologik shart-sharoitlar, ya'ni iqlim sharoiti, ob-havo holatiga, tuproqning tabiiy xossalari, shuningdek, o'simliklarda yuz beradigan biologik o'zgarishlarga bog'liq bo'ladi. Yer mamlakatning asosiy resursi bo'lib, uni hech bir narsa bilan tenglashtirish yoki almashtirish mumkin emas, u tengsiz, tanho, yagona va o'ziga xos xususiyatga ega. Yerning cheklangan resurs ekanligi, ko'paytirish mumkin emasligi, hali o'rnini bosadigan o'rinbosar resurs yo'qligi, uning o'ziga xos bo'lgan resurs ekanligini ko'rsatuvchi xususiyatidir. Yerning resurs sifatida alohida xususiyati shundaki, u cheklangan va uning hajmi o'zgarmas hisoblanadi. Masalan, butun yer kurrasining hajmi 510 mln km<sup>2</sup> bo'lsa, uning 13 % igina ishlov berishga yaroqli yerlar hisoblanadi.

Yer o'ta noyob, qimmatli asosiy resurs, uning o'rnini bosa oladigan boshqa resurs hali paydo bo'lmagan. Lekin yerning foydalanadigan qismi juda ozligi, unga qo'shimcha mablag' sarflab ko'paytirish zarurligini ko'rsatadi. Qo'riq yerlarni sug'orish, zax yerlarni quritish orqali yaroqsiz bo'lib yotgan yerlarni dehqonchilik uchun yaroqli yerga aylantirish zarur. Yer insonlarga dehqonchilik qilish, undirma sanoatni yurgizish, qurilish qilish, qo'yingki, undan jamiyat manfaati yo'lida foydalanish uchun katta imkoniyatlar ochib beradi.

Yerga kishilar tomonidan mehnat sarflanib, unga organik va kimyoviy o'g'itlar solinib, sug'orish, irrigatsiya va melioratsiya kabi ishlarni amalga oshirish yo'llari bilan uning hosildorligi oshirilib hosil olinsa, bu iqtisodiy unumdorlik deyiladi. Yerdan olinadigan hosil ko'proq mana shu yerning tuproq unumdorligi, insonning faol mehnati va boshqa xarajatlari bilan bog'liq bo'lar ekan.



Har qanday ishlab chiqarishda bo'lgani kabi qishloq xo'jaligida ham ishlab chiqarish uning omillarining bevosita birikishi asosida sodir bo'ladi. Ishlab chiqarish omillari esa davlat, xususiy, shaxsiy, jamoa mulki shaklida bo'lib, turli mulkchilikka asoslanadi. Shundan kelib chiqqan holda O'zbekistonda hozirgi davrda qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish korxonalarini shakli, asosan, fermer, dehqon xo'jaligi kabi shakllarida tashkil qilingan. Ularning asosiy kapitali turli bino, inshootlar, traktor va boshqa agregatlar, transport vositalari, ko'p yillik daraxtlar, mahsuldor chorva mollari, shuningdek, xizmat muddati bir yildan ortiq bo'lmagan turli xil asbob-uskunalaridan iborat bo'ladi.

Qishloq xo'jaligi korxonasi eng asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lgan yer qiymati, kapital qiymati tarkibida hisobga olinmaydi. Qishloq xo'jaligi korxonalarini asosiy kapitalining ayrim turlari sanoat tarmoqlaridan farq qiladi. Ishlab chiqarish qurol va vositalari hisoblangan binolar, sug'orish inshootlari va boshqalar ishlab chiqarish jarayonida faol qatnashadi va uning pirovard natijasiga sezilarli ta'sir o'tkazadi. Shunga binoan qishloq xo'jaligi korxonalarini kapitalning tarkibida turli inshootlar, binolar, mexanizmlar va boshqalarning hissasi ko'proq bo'ladi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarining aylanma kapitali quyidagilardan iborat bo'ladi: urug'lik fondlari, kimyoviy o'g'itlar, xizmat muddati bir yildan kam bo'lgan turli xil ishlab chiqarish vositalari — asbob-uskunalar, yoqilg'i va moylash materiallari, boquvga qo'yilgan hayvonlar, yem-xashak kabilar. Ishlab chiqarish jarayoni mavsumiy xarakterda bo'lib, mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularni sotish davrida kapital boshqa tarmoqlardagidek doiraviy aylanib turadi, ya'ni pul shaklidan ishlab chiqarish vositalari va mehnat predmetlari shakliga, undan tovar shakliga o'tib, yana pul shakliga qaytib keladi.


Shuni ham ta'kidlash kerakki, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning miqdori, uning sifati ham yerning hosildorligiga bevosita bog'liq bo'ladi. Yerning tabiiy-biologik, iqtisodiy sharoitlarini yaxshilash ham qishloq xo'jaligida mavjud bo'lgan kapitalning doiraviy aylanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bu omillardan to'laroq foydalanish har bir agrar xo'jalikning muhim vazifasi hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish jarayoni mavsumiyligi korxonalar xo'jaligida mavjud bo'lgan qurol-vositalaridan, ya'ni turli ekish agregatlari, hosilni yig'ib-terib olish kombaynlari kabilardan foydalanish ham mavsumiy bo'ladi, qolgan vaqtda esa ular bekor turadi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida mehnat jarayonlarining mavsumiyligi sababli, yil davomida aylanma mablag'larning sarfi bir me'yorda bo'lmaydi. Qish va yoz mavsumlarida xarajat qilinadigan aylanma mablag'lar tarkibida birmuncha tafovutlar bo'ladi. Masalan, qishda aylanma mablag'larning ko'pgina qismi (urug'lik, yem-xashak, turli oziqalar) ishlab chiqarish ehtiyot qismi shaklida turadi, yoz faslida esa tugallanmagan ishlab chiqarish, texnikaning butlash qismlari, neft mahsulotlari va shu kabilarning hissasi ortib boradi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil qilishda yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlarni hisobga olib, ishni tashkil qilish uning samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga egadir. O'zbekiston aholisining turli hududlar bo'yicha turlicha joylashganligi, qishloq xo'jaligida foydalanish uchun yaroqli yerlarning cheklanganligini hisobga olib, yerga xususiy mulkchilik joriy qilinmadi. Lekin bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib, oqilona agrar islohotlar amalga oshirilmoqda va bu jarayon chuqurlashtirilmoqda. Buning natijasida hozirgi vaqtda respublikamizda dehqon, fermer xo'jaliklari vujudga keldi. 2014-yilning boshida fermer xo'jaliklarining umumiy soni 55400 taga yetdi.

**Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi jami hajmga nisbatan, % da**

*Yanvar—dekabr*



Manba: O'zbekiston Respublikasi statistik axborotnomasi.

### 11.3. Yer — mulk va xo‘jalik yuritish obykti sifatida

Yerga egalik yuridik va jismoniy shaxslarning ma‘lum yer uchastkalari tarixan tarkib topgan asoslardagi yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibdagi egalik huquqini tan olishini bildiradi. Yerga egalik deganda, avvalo, yerga bo‘lgan mulkchilik huquqi ko‘zda tutiladi. Yerga egalikni yeri bo‘lgan mulkdor amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksida ko‘rsatilganidek, «Yer uchastkalari yuridik va jismoniy shaxslarga doimiy va muddatli egalik qilish hamda ulardan foydalanish uchun berilishi mumkin».

Yerdan foydalanish huquqi — bu tarixan shakllangan urfodatlar yoki o‘rnatilgan qonuniy tartibda undan foydalanishni bildiradi. Yerdan foydalanuvchi yer egasi bo‘lishi shart emas. Real xo‘jalik hayotida yerdan foydalanishni, ko‘pincha, har xil jismoniy va yuridik shaxslar, xususan, hozir bizda dehqon, fermer va shirkat xo‘jaliklari amalga oshiradi.

O‘zbekistonda amal qilayotgan Yer kodeksida yer bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy munosabatlar, mulkchilik munosabatlarining istiqboli aniq belgilab berilgan. Yer kodeksining 3-bob 16-moddasida ko‘rsatib o‘tiladiki, yer davlat mulki — umummilliy boylikdir, undan oqilona foydalanish zarur, u davlat tomonidan muhofaza etiladi hamda oldi-sotdi qilinmaydi, O‘zbekiston Respublikasining qonunlarida belgilangan hollar bundan mustasno deyilgan. Qonunda yer fondi va uning toifalari, yer uchastkasi va uni ijaraga berish kabi ko‘plab muammolar o‘zining qonuniy yechimini topgan.

Yer to‘g‘risidagi qonunning asosiy vazifasi hozirgi va kelajak avlodlarning manfaatlarini ko‘zlab yerdan ilmiy asoslangan tarzda oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishdan, tuproq unumdorligini tiklash va oshirishdan, tabiiy muhitni asrash va yaxshilashdan, xo‘jalik yuritishning barcha shakllarini teng huquqlilik asosida rivojlantirish uchun sharoit yaratishdan, yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarini himoya qilishni ta‘minlash maqsadida yer munosabatlarini tartibga solishdan va bu sohada qonun talablarini mustahkamlashdan iborat. Shuningdek, kodeksda yer uchastkasining ijarasi yer uchastkasiga ijara shartnomasi shartlarida muddatli, haq evaziga egalik qilish va foydalanishdan iborat bo‘lishi ham belgilab berilgan.

*Yerga bo‘lgan iqtisodiy munosabatlar.* Yerning, birinchidan, mulk obykti va ikkinchidan esa xo‘jalik yuritish obykti bo‘lishi yerga bo‘lgan iqtisodiy munosabatlarning ikki tomonini bildiradi. Yerning

mulk ekanligi, uning hech qachon egasiz bo'lmashligi, yer egasining o'z mulkidan naf ko'rishini ko'zlab mablag' sarflashga majbur etadi. Egasiz yer bo'lmagani sababli, har qanday yer ham tekinga berilmaydi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, yer egasiga yerdan kimdir foydalangani uchun haq to'lashni shart qilib qo'yadi.

O'zbekiston Prezidenti I. A. Karimov aytganidek, «Hozirgi paytda qishloqda xo'jalik yuritishning asosiy uch shakli qaror topmoqda. Bular — qishloq xo'jaligi mahsulotlarining yirik ishlab chiqaruvchilari bo'lgan qishloq xo'jaligi kooperativlari, fermer va dehqon xo'jaliklaridir. Xo'jalik yuritishning mana shu shakllarini amaliyotga yanada kengroq joriy etishdan asosiy maqsad — qishloqda, avvalo, chinakam mulkdorlarni yerga, mulkka hamda ishlab chiqarilgan mahsulotga nisbatan haqiqiy egalik tuyg'usini shakllantirishdan iborat».

Mahsulot ishlab chiqaruvchilar — shirkatmi, fermer yoki dehqon xo'jaligi egasi bo'ladimi, pudratchimi o'zining qancha mehnat qilgani, qancha mablag' sarflaganini, ijaraga olingan maydondagi haqiqiy hosildorlik darajasi qancha bo'lganini, shunga yarasha daromad yoki sof foyda olganini, o'z mehnatini qanchalik to'g'ri hisob-kitob qilganini bilmasa, qishloqda o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlar yaxshi samara bermaydi. Xo'jalik yuritish obyekti sifatida yer jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan egallab olinib, ularning roziligisiz yerni ishlatish, undan foydalanish mumkin emas. Bunday sharoitda yer o'z egasining mulki bo'lib qolganidan vaqtincha foydalangani uchun haq to'lash sharti bilan boshqa tadbirkor tomonidan ishlatilishi mumkin.

#### **11.4. Ijara munosabatlari**

O'zaro kelishilgan muddatga yerdan foydalanganlik uchun haq to'lash bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy aloqalar ijara munosabatlari deyiladi. Bir tomonda yerning egasi, ikkinchi tomonda oluvchi turadi va ular o'rtasidagi munosabatlar ijara shartnomasi orqali qonunlashtiriladi. Yerni ma'lum muddatga ijaraga olish orqali ijarachi mustaqil xo'jalik yuritish va yerdan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lsa-da, lekin mulk egasi bo'la olmaydi, ya'ni bunda mulk egasi o'zgarmaydi.

Yerdan qanday foydalanish, nima va qancha yetishtirish, kimga sotish, kimdan qarz olish, qayerdan resurslar olish kabi ishlarni ijarachi yerning egasiga bog'liq bo'lmay, mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt tariqasida o'zi hal qiladi. Yer egasi bilan ijarachi o'rtasidagi munosabat faqat ijara haqini o'z vaqtida to'lab turish

bilan yakunlanadi. Ijarachi ham erkin xo'jalik yurituvchi bo'lib, quyidagi imkoniyatlarga ega bo'ladi:

- yerga mablag' sarflaydi, tushgan daromadni mustaqil taqsimlaydi va ishlatadi;
- xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan iqtisodiy aloqada bo'ladi;
- amaldagi tartib-qoidalarga rioya qiladi;
- tadbirkorlik faoliyatini yurgizib foyda oladi va undan o'z manfaati uchun foydalanadi.

O'z navbatida, yer egasi ham o'z mulki — yeri uchun ijara haqi olib, undan o'z manfaati yo'lida foydalanadi.

### **11.5. Yer rentasi tushunchasi**

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 20-moddasida yer rentasi to'g'risida shunday deyilgan: «Yer rentasi yer egaligini iqtisodiy jihatdan amalga oshirishning shaklidir». Shu tushunchadan kelib chiqqan holda aytadigan bo'lsak, yerning egasiga yerdan foydalanganlik uchun ijarachi tomonidan to'langan haq renta deyiladi. Bundan renta — yer uchun to'langan haq, agarda yer uchun haq to'lanmasa, ya'ni yer egasi yerni ijaraga bermay, o'zi xo'jalik yuritsa, renta to'lanmaydi, degan xulosa chiqadi. Shu munosabat bilan iqtisodiy adabiyotlarda, renta yer egasi va ijarachi o'rtasidagi iqtisodiy munosabatdir. Renta agrar munosabatlarning moddiy asosidir degan fikr yuradi.

Hozirgi davrda turli mamlakatlarda renta o'zining kelib chiqish sabablari va shart-sharoitlariga asoslanib quyidagi turlarga ajratiladi: differensial (tabaqalashgan) renta I va II, monopol renta, mutlaq yer rentasi, qazilma boyliklar, qurilishlar joylashgan yerlardan olinadigan renta.

Yerlarning tabiiy unumdorligi va joylashgan joyi tufayli vujudga keladigan qo'shimcha daromaddagi farqlarning bir qismi renta shaklini oladi va u differensial renta deb ataladi. Chunki biz yuqorida aytib o'tganimizdek, qishloq xo'jaligida eng muhim ishlab chiqarish vositasi — yerning miqdori va sifatini tabiatning o'zi cheklab qo'ygan, uni inson ko'paytirishga qodir emas. Shuning uchun qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi faqat yaxshi unumdor yerlardagina tashkil qilinmay, balki unumdorligi past bo'lgan joylarda ham tashkil qilinishiga majbur bo'linadi.

Shuning uchun yerning mahsuldorligi yoki joylashuvi jihatidan yomon sharoitda yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlariga narx shakllanishi ijtimoiy normal sharoit sifatida qabul qilinadi. Natijada

oʻrtacha yoki yaxshi yerlarda xoʻjalik yurituvchi ishlab chiqaruvchilar hosildorligi past, yaʼni yomon yerlardagi ishlab chiqaruvchilarga nisbatan qoʻshimcha mahsulot va undan foyda oladilar. Mamlakatda barcha yerlar egallab boʻlingan va bu yerlarda alohida egalari mustaqil xoʻjalik yuritadilar. Bu hol differensial renta vujudga kelishining asosiy sababi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytsek, differensial renta hosil boʻlishining tabiiy sharti xoʻjalik yuritilayotgan yerlar unumdorligidagi farqlardan iborat ekan. Uning ijtimoiy-iqtisodiy sababi esa foydalaniladigan yerlarda iqtisodiy jihatdan mustaqil boʻlgan yer egalari xoʻjalik yuritishidan iborat.

Differensial renta (daromad) kelib chiqish sharoitlarga qarab ikkiga: differensial renta I va differensial renta II ga boʻlinadi.

Differensial renta I yerning tabiiy unumdorligi bilan bogʻliq holda kelib chiqadi. Quyida uning kelib chiqish sharoitini misol bilan tushuntiramiz.

#### Differensial renta I ning kelib chiqishi

Yer (1 ga)	Ijtimoiy ishlab chiqarish xarajatlari (soʻm)	Oʻrta- cha foyda (soʻm)	Yalpi mahsulot (tonna)	Ijtimoiy qiymat, bozor bahosi	Yalpi sotilgan mahsulot (soʻm)	Diffe- rensial I renta (1 tonna- dan)
A. Unumdorligi past	100000	1000	10	1000	1000000	—
B. Unumdorligi oʻrtacha	100000	1000	15	1000	1500000	1500
D. Unumdorligi yuqori	100000	1000	20	1000	2000000	2000

Misolimizda unumdorligi uch xil boʻlgan, miqdori bir gektardan iborat yerlarda uch dehqon kartoshka ekdi deylik. Bu yerlarga uch dehqon bir xil 100000 soʻmdan xarajat qildi, bu iqtisodiyotda ijtimoiy xarajat deyiladi. Olingan yalpi hosildorlik esa unumdorligi past *A* uchastkasida 10 tonna, unumdorligi oʻrtacha *B* uchastkada 15 tonna va unumdorligi yuqori boʻlgan *D* uchastkada 20 tonna hosil olindi. Demak, har bir uchastkadan turlicha hosil olinganligi

tufayli ularda yetkazilgan mahsulotlarning individual qiymati ham turlicha bo'lib chiqadi. Ya'ni *A* uchastkasidan olingan mahsulot birligining qiymati 1000 so'm bo'lsa, *B* uchastkasida 1500 so'm, *D* uchastkasida esa 2000 so'mni tashkil qiladi. Bozorda esa kartoshkaning bahosi o'rtacha 1000 so'm, ya'ni unumdorligi pastmi, o'rtachami, yuqorimi, qaysi uchastkada yetishtirilgandan qat'i nazar, bozor bahosi bilan sotiladi. Natijada unumdorligi past bo'lgan yer uchastkasi egasi dehqon ham o'zining yakka ishlab chiqarish xarajatini qoplash va foyda olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu olingan qo'shimcha daromad yerning unumdorligi bilan bog'liq bo'lgan differensial renta I ni tashkil qiladi.

Bundan tashqari, differensial renta I, ya'ni qo'shimcha daromadni bozorlarga va yo'llarga yaqin joylashgan ayrim yer egalari ham oladilar. Chunki bunday yerlardan olingan hosilni bozorlarga olib borish bilan bog'liq xarajatlar kamroq bo'ladi.

Differensial renta II ni, odatda, xo'jaliklar o'z yerlari unumdorligini oshirish uchun qo'shimcha xarajatlar qilish, ya'ni yerlarga mineral o'g'itlar solish, har xil zararkunandalarga qarshi kurashish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, ishlab chiqarish jarayonida turli texnikalardan va boshqa texnologiyalardan foydalanish orqali oladilar. Qaysi dehqon yoki fermer xo'jaliklari o'z ishlab chiqarishida bu ko'rsatilgan omillardan yaxshi foydalansa va xo'jaligidagi mavjud imkoniyatlardan samarali foydalana olsa, u differensial renta II ni olishga muvaffaq bo'ladi. Chunki bu bilan mahsulot birligiga sarf qilingan xarajatlarni kamaytirishga erishadi.

Masalan, avvalgi keltirgan misolimizdagi har uch dehqon endi kelgusi yilda o'z yerlariga qo'shimcha ravishda mehnat qilishdi. Mahalliy hamda mineral o'g'itlar solishib, o'rtacha yana 100000 so'mdan sarf-xarajatlar qilishdi. Natijada bu xo'jaliklarda o'tgan yilga nisbatan kartoshka hosildorligi ortib, har biri yana qo'shimcha ravishda 2 tonnadan mahsulot olishdi, shu qo'shimcha olingan daromad differensial renta II deyiladi.

Hozirgi zamon qishloq xo'jaligida bu yo'l jadal rivojlanish yo'li deyiladi. Agarda hamma mamlakatlarda qishloq xo'jaligi jadal rivojlantirilmaydigan bo'lsa, aholining kundan kunga tez o'sib borayotgan talablarini qondirib bo'lmaydi. Shuning uchun har bir davlatda qishloq xo'jaligini jadal rivojlantirish uchun alohida e'tibor beriladi. Qishloq xo'jaligini jadallashtirishning bosh yo'li esa uni sanoatlashgan asosga qo'yishdan iboratdir. Shuning uchun O'zbekistonda keyingi yillarda qishloq xo'jaligini zamonaviy

texnika va texnologiyalar bilan ta'minlashga katta e'tibor berilmoqda. Qishloq xo'jaligiga katta miqdorda kapital mablag'lar ajratilyapti.

*Absolut renta* qishloq xo'jaligida yerga bo'lgan xususiy mulkchilik monopoliyasi yer egasi tomonidan yer uchastkalarining yaxshi yoki yomon bo'lishidan qat'i nazar, uni ijaraga berish orqali alohidalashgan, ya'ni absolut (mutlaq) renta olish imkonini beradi. Shuning uchun absolut renta deb ataladi. Absolut yer rentasi o'z mohiyatiga ko'ra, yer egalarining o'z yerini ijarachilarga foydalanish uchun ijaraga berib, ulardan yerdan foydalanganlik uchun to'lovlar olishidan iboratdir.

Agar ijaraga berilgan yerda turli xil inshootlar, binolar qurilgan bo'lsa, ular uchun alohida ijara haqi hisoblanadi. Yer egalarining bunday absolut, ya'ni mutlaq ravishda renta (daromad) olishlarining sababi shundaki, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidagi kapitalning uzviy tuzilishi sanoatdagidan ancha past bo'ladi. Natijada qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan tovarlarning bozor qiymati boshqa sohalardagi ishlab chiqarishning ijtimoiy qiymatidan, ya'ni boshqa sohalardagi qo'shimcha qiymat miqdoridan, jamiyatda shakllangan o'rtacha foyda miqdoridan ortiq bo'ladi. Qishloq xo'jaligi tovarlarining bozor bahosi bilan ijtimoiy ishlab chiqarish bahosi o'rtasidagi bu tafovut absolut rentaning manbayi bo'lib xizmat qiladi.

*Monopol renta.* Qishloq xo'jaligida rentaning yana bir turi — bu monopol rentadir. Bu renta alohida tabiiy sharoitda yetishtiriladigan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, masalan, sitrus mevalari alohida navli boshqa mevalar kabi bozorda monopol narxlar bilan sotilishi tufayli kelib chiqadi. Bu narxlarning yuqori bo'lishiga yana bir sabab bozorda ko'pincha alohida to'lovga qodir toifa kishilarning talab darajasi hisoblanadi. Natijada shunday mahsulotlar o'zlarining individual qiymatidan ancha yuqori bo'lgan monopol narxlarda sotilishi mumkin. Bu esa shunday yer egalariga monopol renta olish imkonini beradi.

Faqat qishloq xo'jaligida emas, balki undirma sanoatda ham qo'shimcha daromad olinadi. Ma'lumki, foydali qazilma konlari joylashuvi (ishlash uchun qulayligi) jihatidan ham, konning boyligi jihatidan ham bir-biridan farq qiladi. Xuddi qishloq xo'jaligidagi singari, o'rta va yaxshi konlardagi korxonalar qo'shimcha foyda oladilar, u ham differensial rentaga aylanadi.

*Ijara haqi.* Bozor iqtisodiyoti sharoitida yerga xususiy mulkchilikning mavjudligi, yerni ijaraga berish va undan ijara haqi olish



imkonini beradi. Ijara haqi esa o'z ichiga quyidagilarni oladi: yerdan foydalanganlik uchun to'lanadigan renta ( $R$ ), yerga ilgari sarflangan kapital uchun foiz ( $F$ ); yer uchastkasini ijaraga bergunga qadar unga qurilgan inshootlar amortizatsiyasi ( $A$ ). Buni formulada quyidagicha ifodalash mumkin:

$$IH = R + F + A.$$

Ijaraga beriladigan yerda har xil bino va boshqa qurilishlar qilinmagan bo'lsa, ya'ni kapital sarflanmagan bo'lsa, ijara haqi va renta miqdori bir-biriga to'g'ri keladi. Agarda shu yerga avval kapital sarflanib, ma'lum qurilishlar qilingan bo'lsa, ijara haqi yer rentasidan farq qiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida yer oldi-sotdi obyektidir. Yerda qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirish bilan bir qatorda, agar unda tabiiy qazilma boyliklar bo'lsa, uni qazib olish uchun, har xil ishlab chiqarish va turar joy binolari, yo'llar va boshqa inshootlar qurish uchun ham sotib olinishi mumkin. Shuning uchun yerning bahosini aniqlash kerak bo'ladi.

Ma'lumki, yer inson mehnatining mahsuli emas, demak, u almashuv qiymatga ega emas. Shu sababli yer va boshqa tabiat in'omlari narxini iqtisodiyot nazariyasida irratsional narxlar deb ataydilar. Irratsional narxni misol orqali tushuntiramiz. Bir gektar yer egasi yerni sotib olingan summani bankka qo'yganda, bankdan foiz tarzida daromad oladi deylik, shu daromad summasi agar u shu yerdan olinadigan rentadan kam bo'lmagan taqdirdagina, yerni sotadi. Boshqacha aytganda, bozorda barcha sharoitlar teng bo'lganda, xuddi shu renta miqdori yerning narxini belgilaydi. U renta miqdoriga to'g'ri mutanosib va ssuda foizi me'yoriga teskari mutanosiblikda bo'ladi. Yerning narxini iqtisodchilar kapitallashtirilgan renta deb ham ataydilar. Bundan ko'rinib turibdiki, yerning narxi ikkita miqdorga bog'liq ekan:

1) yer uchastkasi egasi olishi mumkin bo'lgan yer rentasi miqdoriga;

2) ssuda foizi me'yoriga.

Yerning narxi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Y_n = \frac{R}{S_f} \cdot 100 \%,$$

bu yerda,  $R$ —renta;  $S_f$ —ssuda foizi me'yori;  $Y_n$ —yer narxi.

Faraz qilaylik,  $R$ —10 ming dollar,  $S_f$ —6 %. Bunda  $Y_n$ —60000 AQSH dollariga teng bo'ladi. Yer egasi faqat shu narxdagina yerini sotishi mumkin, chunki muayyan miqdordagi kapitaldan olinadigan foiz unga bankdan shunday yillik daromad olishga imkon beradiki, u rentaga teng bo'ladi.

### **11.6. Yer narxi va uni belgilovchi omillar**

Agar renta miqdori o'sib, ssuda foizi me'yor pasayib borgan taqdirda, yerning narxi ham o'sib boradi. Yer narxini aniqlashning bu usuli nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Amalda yer narxi, yer uchastkasiga talab va taklifga ta'sir ko'rsatuvchi ko'plab omillarga bog'liq.

Jumladan, yerga narxning o'sishini, unga noqishloq xo'jaligi maqsadlari uchun foydalanishga talabning o'sishi bilan tushuntirilishi mumkin. Inflatsiya va asosan giperinflatsiya sharoitida yerga talab keskin o'sadi, bu tegishli ravishda yer narxining o'sishiga olib keladi.


Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda so'nggi 50 yil davomida yer narxi barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib bormoqda. Bunga sabab yerga bo'lgan talab oshsa, uning taklifi o'zgar-maydi, chunki yerning miqdori ko'paymaydi.

### **11.7. Agrofirmalar va agrosanoat birlashmalari, fermerlar uyushmasi**

Hozirgi zamon bozorining muhim va katta qismini qishloq xo'jaligi mahsulotlari tashkil etadi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning asosiy xo'jalik subyektlarining bir qancha tashkiliy-huquqiy shakllari mavjud bo'lib, ular dehqon xo'jaligi, fermer xo'jaligi, oila, shirkat, jamoa xo'jaligi, agrofirma, fermerlar uyushmasi va boshqa ittifoqlar kabilardan iborat bo'ladi. Ular har bir muayyan mamlakatning sharoiti bilan bog'liq ravishda tashkil etiladi va har xil rivojlanadi. O'zbekiston sharoitida, asosan, dehqon xo'jaligi, fermer xo'jaligi kabi shakllarda bo'lib, ular dehqon-fermer uyushmalarini tashkil etgan holda faoliyat olib bormoqda.

Dehqon, fermer xo'jaligining muhim xususiyati shundaki, ular mulk egalari va mahsulot ishlab chiqaruvchi hisoblanishadi. Bunda boshqaruvchi, mehnat qiluvchi bir shaxs bo'lishi mumkin. Ularga

### Agrar tarmoqdagi xo'jaliklar



o'z oila a'zolarining mehnatidan tashqari yollanma mehnatdan foydalanishi qonun bilan kafolatlangan.

Bozor islohotlari davrida O'zbekiston qishloq xo'jaligini fermerlashtirishga katta e'tibor berilib, davlat mulki bo'lib kelgan yerlarda fermer xo'jaliklari tashkil etildi. Davlat siyosati agrar xo'jalikning bu shaklini istiqbolli deb qaraydi, ularning muttasil ko'payishi va rivojlanishiga katta e'tibor berilmoqda.

Dehqon xo'jaligi, fermer xo'jaligi xo'jalik yurituvchi mustaqil huquqiy subyekt bo'lib, boshqa korxonalar bilan huquqiy maqomi tenglashtirildi. Mulk, garchi xususiy bo'lsa-da, davlat himoyasiga olingan. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda fermer xo'jaliklarining ulushi tobora ko'payib borishi tabiiy jarayondir.

#### 11.8. Fermer xo'jaligini qo'llab-quvvatlashning davlat dasturlari

Mamlakatimizda fermer va dehqon xo'jaliklari faoliyatlarining huquqiy bazasini yaratish maqsadida maxsus qonunlar qabul qilingan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi Qonunida (1998-yil 30-aprel) fermer xo'jaligini tashkil etish shartlari, tartibi, yer berish, unga egalik qilish, yer va suvdan foydalanish, fermer xo'jaligi a'zolarining huquq va majburiyatlari, mol-mulki, ular faoliyatining asoslari har tomonlama to'la ravishda o'z ifodasini topgan.

Shuningdek, Qonunda (1-bob, 1-modda) «Fermer xo'jaligi o'ziga uzoq muddatli ijaraga berilgan yer uchastkalaridan

foydalangan holda tovar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaligi a'zolarining birgalikdagi faoliyatiga asoslangan, yuridik huquq va majburiyatlarga ega mustaqil xo'jalik yurituvchi subyektdir» deb ko'rsatilgan.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, fermer xo'jaliklari agrobiznesning boshqa shakllariga nisbatan ancha samarali bo'lib, sharoitga tez moslashuvchanlik kabi bir qancha afzalliklarga ega. Chunonchi:

- fermer xo'jaligi, eng avvalo, mustaqil bo'lib, u bozor qonunlari bilan boshqariladi;

- fermer xo'jaligi o'zining mehnati bilan mulkini harakatga keltirib, zarur bo'lganda yollanma mehnatdan ham foydalanib o'zi uchun ishlaydi;

- fermerlik faoliyatida tadbirkorlik, mehnat qilish va ularning natijasi bo'lgan iqtisodiy manfaat mujassamlashgan bo'ladi;

- fermer xo'jaligini yurgizishda doimo davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanib turgani uchun ba'zan ozgina daromad olib ham normal yashashi mumkin;

- fermer xo'jaligi u katta yoki kichik bo'lishidan qat'i nazar, uning oilasi yashash joyi bo'lgani uchun bu joyga mehr qo'yadi, tayanadi va u joyning madaniy-maishiy sharoitini yaxshilaydi;

- fermer va uning oila a'zolarining mehnati yollanma mehnatga qaraganda ancha samarali bo'ladi va shu jihatdan u ko'p daromad olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Dunyodagi qishloq xo'jaligi rivojlangan mamlakatlarda fermer xo'jaligini yuritish ustuvorlikka ega ekanligi allaqachonlar isbotlanganligini ko'ramiz. AQSHda 1987-yilda fermer xo'jaliklarida hammasi bo'lib 2 mln 636 ming kishi ishlagan, shundan faqat 888 ming kishi yoki 33,5 % yollanma ishchilar, qolgan 66,5 % ini fermerlarning oila a'zolari tashkil etadi.

Qishloq xo'jaligi sohasida bozor tizimining xo'jalik yurituvchi subyektlarining muhim tarkibiy qismi tashkiliy-huquqiy shaklini agrofimlar tashkil etadi. Agrofimlar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va iste'molchilarga sifatli mahsulot yetkazib beruvchi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasini o'z ichiga oladi. Agrofimlarning asosiy maqsadi foyda olishdir.

Agrofimlar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va sotish bilan shug'ullanuvchilar bo'lib, ular bozor munosabatlarining faol ishtirokchilaridir. Agrofimlar bozor ishtirokchilari sifatida aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan, sanoatni

esa xomashyo bilan ta'minlaydi. Agrofimlar qishloq xo'jaligi sohasida mukammal texnologiyalarni qo'llash hisobiga rivojlanadi va buning uchun yetarli investitsiyalarni jalb etadi.

Agrobiznes shakllaridan qaysi birining rivojlanishi har bir mamlakatning sharoitidan kelib chiqadi. Agar mamlakatda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlar yaratilgan bo'lsa, mehnat unumdorligini oshirish hisobiga kam sonli fermerlar bilan ko'p mahsulot yetishtirish mumkin bo'ladi. AQSHda 1910-yilda jami ishlovchilarning 35 % qishloq xo'jaligida band bo'lgan edi, 1997-yilga kelib faqat 2 % bo'ldi, 2 % ishlovchilar mamlakatni mahsulot bilan to'la ta'minlagani holda uni eksportga ham yetkazib berishadi. Ma'lumotlarga ko'ra, 1920-yilda AQSHning qishloq xo'jaligida band bo'lgan bitta ishlovchi 4 kishini boqa olgan, 1997-yilga kelib, esa u 96 kishini boqa oladigan mahsulot yaratgan.

#### ASOSIY TAYANCH IBORALAR

- Agrar munosabatlar;
- agrar munosabatlarning obyekti;
- ijara munosabatlari;
- yer rentasi;
- renta munosabatlari;
- differensial renta;
- differensial renta I;
- differensial renta II;
- absolut renta;
- monopol renta;
- undirma sanoatda renta;
- agrosanoat majmuasi;
- agrosanoat infratuzilmasi;
- qishloq ijtimoiy infratuzilmasi;
- agrobiznes.



#### TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Agrar munosabatlarning mazmuni, iqtisodiy munosabatlarda tutgan o'rni va xususiyatlarini ko'rsatib bering.
2. Yer rentasining asl mazmunini tushuntiring.
3. Differensial I va II, absolut rentaning hosil bo'lish shart-sharoitlari, manbalari va taqsimlanishini bayon eting. Monopol renta nima?
4. Absolut rentaning hosil bo'lish shart-sharoitlari, manbalari va taqsimlanishini so'zlab bering.
5. «Ijara haqi» va «yer rentasi»ning farqlarini aytib bering.
6. Agrobiznesning iqtisodiy mohiyatini va uning asosiy turlarini bayon eting.
7. Yerning alohida resurs ekanligini nimalarda ko'rish mumkin?
8. Yerga bo'lgan iqtisodiy munosabatlar nimani ifodalaydi?
9. Monopol rentaning boshqa turlardan farq qilishini aytib bering.
10. Yer bahosi va uning o'sib borishi deganda nimani tushunasiz?
11. Fermer xo'jaliklarining afzalliklarini aytib bering.

---

## 12-bob. YALPI MILLIY MAHSULOT

### 12.1. Milliy iqtisodiyot va uning tarkibiy tuzilishi

*Milliy iqtisodiyot* — bu ma'lum bir davlat aholisining moddiy va nomoddiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, milliy xo'jalik majmuasidir. Milliy iqtisodiyotning yer yuzida bir necha yuz xil turi mavjud bo'lib, ularning ichida yapon, nemis, shved, turk, xitoy kabi modellari butun dunyoga mashhur. Odatda, har bir mustaqil davlatning iqtisodiyoti milliy iqtisodiyot deyiladi. Hozirgi vaqtda dunyoda 215 dan ortiq mustaqil davlatlar bo'lsa, shuncha milliy iqtisodiyot mavjud. Shu davlatlar qatorida o'zining munosib o'rniga ega bo'lgan holda O'zbekiston ham o'ziga xos bo'lgan, «O'zbek modeli» deb nom olgan model asosida milliy iqtisodiyotini rivojlantirib bormoqda.

Milliy iqtisodiyot muayyan mamlakatdagi firmalar, xonadonlar va davlat ishtirokida yuz beradigan iqtisodiy faoliyatni o'zida mujassamlashtiradi. Milliy iqtisodiyot mamlakat mustaqilligining asosiy tayanchi hisoblanadi. Milliy iqtisodiyot deyilishi uning boshqalar uchun yopiqligini bildirmaydi, aksincha, u ochiq bo'ladi, tashqi dunyo bilan o'zaro manfaatli aloqaga tayanadi. Biroq milliy iqtisodiyot, asosan, o'zining resurslariga tayanadi, milliy an'analar, odatlar va ko'nikmalarni o'zida mujassamlashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotini tavsiflaydigan bo'lsak, u boy xomashyo bazasiga ega bo'lib, ularni qayta ishlash va tayyor sanoat mahsulotlari darajasida o'z aholimizning ehtiyojlarini to'la qondirishga va import mahsulotlarga o'rinbosar bo'lgan tovarlar ishlab chiqara olish qudratiga ega bo'lgan milliy iqtisodiyotlar qatoriga kirib bormoqda. O'zbekiston milliy iqtisodiyoti hozirgi vaqtda o'z iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash orqali mamlakatimiz aholisi ehtiyojlarini to'la darajada qondirishi uchun barcha zarur chora-tadbirlarni amalga oshiryapti. Bu borada qilinishi kerak bo'lgan ishlarni respublika Prezidenti I. A. Karimov «O'zbekiston

iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» asarida tamomila yangi xalq xo'jaligi kompleksini yaratish bilan bog'liq vazifalar deb quyidagilarni ko'rsatib bergan edi:

- boshqa mamlakatlardan xomashyolar va oziq-ovqat mahsulotlari keltirishni qisqartirish, ana shunday mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi korxonalarini rivojlantirish;
- xalq iste'moli mollarining hayotiy muhim turlariga, aholining va xo'jalikning ehtiyojlarini o'zimizda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali qondirish;
- iqtisodiyotning mutanosib va barqaror ishlashini ta'minlash;
- iqtisodiyotning xomashyo yetishtirishga qaratilgan bir tomonlama yo'nalishini bartaraf etish, pirovard, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga erishish;
- respublikaning eksport imkoniyatlarini kengaytirish, valuta zaxiralarini mustahkamlash;
- tarmoqlar ichidagi va hududiy nomutanosiblikni bartaraf etish, respublika hududida ishlab chiqarish kuchlarini jadal rivojlantirish va oqilona foydalanish;
- mehnat resurslarining oqilona band bo'lishini ta'minlash, milliy xususiyatlarimizga mos keladigan ishlab chiqarish sohalarini barpo etish.

Yurtboshimiz belgilab bergan iqtisodiy islohotlar — milliy iqtisodiyotning vujudga kelishi, uning tarkibiy o'zgartirilishi va rivojlanish vositasidir. Milliy iqtisodiyotni isloh qilish iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishning muhim vositasi bo'lib, uning asosiy maqsadi makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiy o'sishni ta'minlash hisoblanadi. Iqtisodiy islohotlar aniq yo'nalishda o'tkaziladi va vaqt nuqtayi nazaridan belgilab qo'yilgan bo'ladi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlar ham milliy iqtisodiyot asoslari poydevorini yaratish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdan tashqari, bozor infrazuzilmasini takomillashtirish, iqtisodiyotni modernizatsiya qilishga qaratilgandir.

Iqtisodiy islohotlarni o'tkazishda asosiy e'tibor pul-kredit siyosatiga qaratiladi. Chunki kapital mablag'larning taqsimlanish yo'nalishlari moddiy resurslardan foydalanishning vazifalarini oydinlashtiradi. Ushbu masalaga O'zbekiston Respublikasi misolida yondashsak, mamlakatimiz valuta fondining 70 % kapital qurilish-

larga, 15 % iste'mol bozorini o'ta taqchil tovarlar bilan to'ldirishga sarflanmoqda. Qolgan 15 % esa zaxira sifatida ajratilyapti. Respublika iqtisodiyotini davomiylik asosida isloh qilishda asosiy tarkibiy o'zgarishlar uning moliyaviy va ishlab chiqarish sektorlarida o'tkazilayotir. Davlat organlarining kredit siyosati respublika iqtisodiyotining bazaviy va ustuvor sohalarini rivojlantirishga yo'naltirildi. Bular — yoqilg'i-energetika kompleksi, oltin qazib olish, xomashyoni qayta ishlash, uy-joy qurilishi, eksportga yo'naltirilgan tarmoqlar va suv xo'jaligidir. Bu siyosat islohotlarning birinchi bosqichida O'zbekiston iqtisodiyoti uchun o'ta muhim tarmoqlarni tarkibiy qayta qurish zarurati bilan bog'liq edi.

Shunday qilib, davlatning kredit siyosati nafaqat inflatsiyani ushlab turish va moliya munosabatlarini bozor tamoyillariga emas, O'zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlaydigan, milliy iqtisodiyotimiz uchun birinchi darajali obyektlarni yaratish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan edi. O'zbekiston hukumatining kredit siyosatida investitsiyalarning ahamiyati katta bo'lib, budget mablag'lari, bank kreditlaridan tashqari xorijiy investitsiyalar hisobiga ham ko'paytirilmoqda. Xorijiy investitsiyalar yordamida chetdan texnologiya, texnika, asbob-uskunalar sotib olinishi iqtisodiyot tarkibida tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirishga, ishlab chiqarishni esa sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qilayotir.

Shuni ta'kidlash lozimki, iqtisodiy islohotlarni o'tkazishda davlatning yetakchilik roli juda beqiyos bo'lib, u islohotlar uchun zarur siyosiy-huquqiy asosni yaratish, tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishning vazifalari va bosqichlarini aniqlashda faol ishtirokini ko'zda tutadi. O'zbekistonda o'tkazilgan iqtisodiy islohotlarning natijasi sifatida davlat ahamiyatiga ega bo'lgan «Kimyoviy tola» ishlab chiqarish birlashmasi, «GM—O'zbekiston» qo'shma korxonasi, Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, Qo'qon, Andijon, Yangiyo'l biokimyo korxonalari, «Qizilqum fosfor», Xazorasp shakar zavodi kabi ko'plab korxonalarni keltirish mumkin.

*Milliy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi* uning tarkibidagi tarmoqlar xilma-xilligini anglatib, u mamlakatning texnologik taraqqiyot darajasiga, iqlimi va hududidagi tabiiy boyliklar turiga bog'liq bo'ladi. Texnologik taraqqiyot milliy iqtisodiyot tarmoqlarini ko'paytirib, xalqaro mehnat taqsimotiga bog'lanishiga, uning to'laqonli a'zosiga aylanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Odatda,



texnologik taraqqiyotga erishgan mamlakatlarda milliy iqtisodiyot tarkibi xilma-xil bo'ladi va u sanoat ishlab chiqarishning ko'plab sohalarini qamrab oladi. Mamlakat iqlimining milliy iqtisodiyot tarkibiy tuzilishiga ta'siri shunda namoyon bo'ladiki, aynan iqlim sharoiti ayrim turdagi mehnat va ishlab chiqarish faoliyati uchun eng qulay imkoniyatlarni yaratib beradi.

Masalan, Hindiston va Shri Lanka o'z choyi, Hindi-Xitoy yarimoroli davlatlari — guruch yetishtirish, Braziliya qahvasi, Turkiya turizm, O'zbekiston esa o'zining paxtasi, poliz ekinlari, mevalari bilan olamga mashhur. Tabiiy boyliklar milliy iqtisodiyot tarkibining biron-bir ishlab chiqarish usuliga ixtisoslashuvida katta ahamiyatga ega. Agarda tabiiy boylik mamlakat hududida juda katta miqdorda bo'lsa, u mamlakatning asosiy ishlab chiqarish tarmoqlariga va milliy daromadiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, Fors ko'rfazidagi arab mamlakatlari neft zaxirasi ushbu mintaqa iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri va milliy daromad manbayi hisoblanadi.


Yuqorida ko'rsatib o'tilganlar bilan bir qatorda, milliy iqtisodiyot o'zining tarkibiy tuzilishiga ko'ra industrial, agrar va agrar-industrial deb ham tavsiflanadi. Bunday tavsiflanishi shu milliy iqtisodiyotda sanoat va qishloq xo'jaligining o'rni bilan bog'liq bo'ladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda milliy iqtisodiyotlarning darajasi farqlanadi. Shu jihatdan milliy iqtisodiyotlar yuksak rivojlangan, o'rtacha, o'rtachadan pastroq darajadagi, kam rivojlangan va o'ta qoloq iqtisodiyotlarga ajratiladi.

Milliy iqtisodiyotning miqdoriy va sifat jihatlari mavjud bo'lib, ular yalpi ijtimoiy mahsulot, yalpi milliy mahsulot, sof milliy mahsulot, milliy daromad kabi ko'rsatkichlarda ifodalanadi.

## **12.2. Milliy mahsulotning iqtisodiy mazmuni**

Biz yuqorida milliy iqtisodiyotning miqdoriy, sifat jihatlari uning ko'rsatkichlarida o'z ifodasini topishi va bu yalpi milliy mahsulot ekanligini aytib o'tdik. Yalpi milliy mahsulotning mazmunini to'liq anglab yetish uchun uning tushunchasini va qanday tarkibiy qismlardan iborat ekanligini o'rganib chiqishimiz zarur bo'ladi. Iqtisodiy adabiyotlarda uning tushunchasiga shunday ta'rif berilib, uning tarkibiy qismlari quyidagicha ifodalanadi:



Shuni aytib o'tish kerakki, iqtisodiy adabiyotlarda milliy mahsulotning tarkibiy qismlarini har xil talqin qiladilar, jumladan, butun ishlab chiqarishning bir yil ichidagi natijasi, ya'ni yaratilgan mahsulotlar yig'indisi *yalpi ijtimoiy mahsulot* deb ataladi. U moddiy ishlab chiqarish sohasida band bo'lgan barcha xodimlarning mehnat mahsulidir. Shakliga ko'ra, u iste'mol tovarlari va ishlab chiqarish vositalaridan iborat bo'ladi.

Milliy iqtisodiyotning yana bir miqdoriy ko'rsatkichi *yalpi milliy mahsulotdir*. U milliy iqtisodiyotning bir yil mobaynidagi ishlab chiqarish faoliyatini to'laligicha ifodalaydi. Yalpi milliy mahsulot nafaqat moddiy ishlab chiqarish sohasining, balki noishlab chiqarish sohasi, maishiy xizmatlarning ham ish natijasidan iborat bo'ladi.

*Sof mahsulot* ko'rsatkichi yalpi milliy mahsulotning bir qismi bo'lib, u milliy iqtisodiyotda ma'lum bir vaqt mobaynida butunlay, yangitdan yaratilgan mahsulotdir. U sarf qilingan jonli mahsulotning moddiylashgan ifodasi yoki yangitdan yaratilgan mahsulot hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri sifatida milliy daromad ko'rsatkichi e'tiborga loyiqdir. Milliy daromad milliy iqtisodiyotni batafsil tavsiflovchi iqtisodiy ko'rsatkichdir. Milliy daromadni yaratilgan sof mahsulotlarning pul yoki qiymat ko'rinishidagi ifodasi deb aytish mumkin. Milliy daromad ko'rsatkichini yanada kengaytirib sharhlasak, uning mamlakatlardagi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdori juda muhimdir. Dunyo mamlakatlarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan milliy daromad turlicha bo'lib, rivojlangan mamlakatlarda eng yuqori, ya'ni u 20 ming AQSH dollaridan 40 ming AQSH dollarigacha to'g'ri keladi. Rivojlanayotgan davlatlarda bu ko'rsatkich taraqqiy etgan davlatlarga nisbatan ancha pastroq.

Milliy iqtisodiyotning sifat ko'rsatkichlari ancha murakkab tushuncha bo'lib, ular mehnat unumdorligi, eksport va mamlakat tashqi savdo almashuvining valuta samaradorligi, tarmoq va korxonalar mahsulotining raqobatbardoshligini ifodalaydi. Asosiy o'lchov bo'lib esa, mamlakatda ishlab chiqarilgan eksport mahsulotlari evaziga qancha miqdordagi importni sotib olish imkoniyati hisoblanadi. Eksportning valuta samaradorligi eksportdan tushadigan sof valuta tushumini, uni ishlab chiqarish va tashish uchun ketgan transport xarajatlarini ifodalaydi.

Mamlakat tashqi savdo almashuvining valuta samaradorligi bir mahsulotni ishlab chiqarish va uni tashish xarajatlarini hamda uni chetdan sotib olish va tashib keltirish xarajatlari o'rtasidagi nisbatni ifodalaydi. Tarmoq va korxonalar mahsulotining raqobatbardoshligi uni ishlab chiqarish sarf-xarajatlari, o'xshash tovarlarga nisbatan iste'mol afzalliklari farqini ko'rsatib beradi.

### **12.3. Yalpi ijtimoiy mahsulotning tarkibiy qismlari va harakat shakllari**

YIM milliy iqtisodiyotda yil davomida ishlab chiqarilgan barcha pirovard mahsulot-xizmatlarning bozor baholaridagi summasi ekan, uning harakatini kuzatadigan bo'lsak, u, avvalo, shu joriy yilda sotilib ketishi kerak deb faraz qilamiz. Lekin bu barcha mahsulotlar sotilmasligi ham mumkin, ularning bir qismi zaxiralarni to'ldiradi. Ya'ni YIM hajmini hisoblab topishda zaxiralarning har qanday o'sishi hisobga olinishi zarur, chunki YIM yordamida joriy yildagi barcha mahsulotlar, sotilgan va sotilmaganidan qat'i nazar, hisobga olinadi.

Milliy ishlab chiqarishning yalpi hajmini to'g'ri hisoblab chiqish uchun shu yilda ishlab chiqarilgan barcha mahsulot va xizmatlar bir marta hisobga olinishi zarur. YIM hajmini topishda sotilgan va qayta sotilgan mahsulotlarni ko'p marta hisobga olishlarni bartaraf qilish uchun, xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida yaratilgan, qo'shilgan qiymatlar yig'indisi olinadi.

*Qo'shilgan qiymat* — bu korxonadan ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatidan sotib olingan xomashyo va boshqa materiallar qiymatini chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismining bozor qiymatidan iborat bo'ladi.

YIM nominal va real milliy mahsulot deb o'rganiladi. Joriy bozor baholarida hisoblangan milliy mahsulot *nominal milliy mahsulot* deyiladi.

O'zgarmas baholarda hisoblangan milliy mahsulot esa *real milliy mahsulot* deb yuritiladi. Har xil yillarda ishlab chiqarilgan YIM qiymatini faqat narx o'zgarmagan taqdirda, o'zaro taqqoslash mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, narx darajasi bizga iqtisodiyotda inflatsiya yoki deflatsiya sharoitida uning miqyosi qandayligini bilish imkonini beradi.

Narx darajasi indeks shaklida ifodalanadi. Narx indeksi joriy yildagi ma'lum guruh tovarlar va xizmatlar to'plami narxlari summasini, xuddi shunday tovarlar va xizmatlarning miqdorini bazis davrdagi narxlar summasiga taqqoslash orqali hisoblanadi. Taqqoslashning boshlang'ich davri «bazis yil» deyiladi.

Iqtisodiyotda YIM deflatori degan ko'rsatkich ham ishlatiladi. Deflator hozirgi narxning oldingi, ya'ni bazis narxiga nisbatan qanchalik o'zgarganligini bildiradi. Deflator (*Df*) nominal YIM (*Mn*) real YIMga (*Mr*) nisbati bilan o'lchanadi. Bunda:

$$Df = \frac{Mn}{Mr} \cdot 100 \% \text{ bo'ladi.}$$

Milliy iqtisodiyotning pirovard natijaviy ko'rsatkichi YIM bo'lar ekan, bu iqtisodiyotning yaxlitligini bildiradi va u iqtisodiy adabiyotlarda makroiqtisodiy ko'rsatkich deb o'rganiladi. Bu ko'rsatkich barcha korxonalar, xonadon xo'jaliklari va barcha bozorlar faoliyatining pirovard natijasini o'zida ifodalaydi. Shuning uchun YIM iqtisodiyotning asosiy ishtirokchilari, korxonalar, xonadon xo'jaliklari va davlat o'rtasida taqsimlanadi. Buni YIMning harakati sifatida ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumki, milliy iqtisodiyot ikki sektordan iborat bo'ladi. Iqtisodiyotning bevosita moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq, ya'ni sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, aloqa va boshqa xizmat ko'rsatish sohalari real sektor deyiladi. Iqtisodiyotning turli subyektlari o'rtasidagi tovar va xizmatlar harakatiga qarama-qarshi ravishda yuz beradigan pul oqimining harakatini tashkil etuvchi va boshqarib turuvchi tizim moliya sektori deyiladi.

«Iqtisodiyot nazariyasi» darsligida YIMni hisoblashning ikki usuli mavjudligi ko'rsatiladi:

1. *Daromad usuli.* Bunda iqtisodiyotning barcha subyektlarining ma'lum davrdagi daromadi jamlanadi. Bundan olingan hosila YIMga teng bo'ladi. Bu daromadlarga xonadonlar, firmalar va davlatning daromadlari kiradi.

2. *Xarajat usuli.* Bunda hamma iqtisodiyot subyektlarining xarajatlari jamlanadi. Bular iste'mol, investitsiya, davlat xaridi va sof eksportdan iborat bo'ladi deydi.

YIMning biz uchun eng muhim qismi bo'lgan milliy daromad (*MD*) o'z harakati iste'mol va jamg'arish fondiga ajratilishidan boshlanadi.


*Iste'mol fondi* — bu milliy daromadning jamiyat a'zolarining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga ketadigan qismidir.

*Jamg'arish fondi* — bu milliy daromadning ishlab chiqarishni rivojlantirishni ta'minlaydigan qismi hisoblanadi.

Iste'mol fondi xonadonlarning tovar va xizmatlar xaridi uchun qilgan xarajatidan iborat bo'ladi. Bunda tadbirkorlar, mashina, asbob-uskunalar, bino, inshootlarni, xonadonlar esa uy qurish, tayyor uy yoki kvartiralarini sotib olish uchun xarajatlar qiladilar.

Davlat xaridi esa davlat idora va tashkilotlarining tovar va xizmatlarni sotib olishga ketgan xarajatidan iborat bo'ladi. Bunda davlat shifoxonalar, maktablar, kollejlari, universitetlar, Mudofaa vazirligi kabilarning ehtiyojlari uchun tovar va xizmatlarni xarid qilishi tushuniladi.

Milliy iqtisodiyotni barqaror va mutanosib rivojlantirish uning samarali tarkibiy tuzilmasiga ega bo'lish va shu orqali barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishish xalq farovonligini ta'minlashning muhim shartlaridan hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun esa, eng avvalo, iqtisodiyotning real sektorini jadal rivojlantirish va tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirib borish zarur bo'ladi. Bu holat YIMning taqsimlanish harakatida ko'rinadi.



#### 12.4. Milliy iqtisodiyot va iqtisodiy mustaqillik

Milliy iqtisodiyotning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi sharoitida eng dolzarb muammolardan biri bo'lib, uning yechimi mamlakat milliy boyligidan samarali foydalanish evaziga ichki ehtiyojlarni to'liq qondirishga erishishni anglatadi. Iqtisodiy mustaqillik, iqtisodiy xavfsizlik nuqtayi nazaridan turib qaraganda katta ahamiyat kasb etib, energetika, transport, metallurgiya, oziq-ovqat, tibbiyot, mashinasozlik majmualari birinchi darajali ahamiyatga ega hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi uchun iqtisodiy mustaqillikni ta'minlashga o'zining xalqaro miqyosdagi manfaatlarini himoyasidan tashqari ayrim holatlarda transport izolatsiyasi (qurshovi)ga tushib qolish xavfi ham ta'sir etmoqda.

*Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish sohasidagi ustuvor vazifalar.* O'zbekiston Respublikasining yigirma uch yillik tajribasi shuni ko'rsatadiki, milliy iqtisodiyotimizni isloh qilishda ayrim yangi o'zgarishlar kiritish, ya'ni tarkibiy qayta

qurishni tezlashtirish bilan birga unga yangicha ma'no berishni talab qiladi. Iqtisodiyotni bozorning uch muhim segmenti erkinlashtiradi: tovarlar va xizmatlarda erkinlashtirishni ichki islohotlarga nisbatan olsak, unda tadbirkorlarga qulay imkoniyatlar yaratib berish, kichik biznesning hissasini ko'paytirish, korxonalarining eksport faoliyatini rag'batlantirish tushuniladi.

Islohotlarning bugungi kundagi bosqichida O'zbekiston iqtisodiyotini erkinlashtirishda mulkni xususiyashtirish, modernizatsiyalashtirish, yalpi milliy mahsulot tarkibida kichik biznes hissasini yanada ko'paytirish, eksportni rag'batlantirish, soliq yukini kamaytirish va korxonalarining chetga mahsulot sotishini rag'batlantirish, shu jumladan, kichik korxonalarining mahsulotlarini, xorijiy to'g'ri investitsiyalarni jalb etishni kuchaytirish orqali eksportbop, raqobatbardosh tovarlar darajasiga ko'tarish kabi asosiy vazifalar sifatida aniqlab olingan. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda mavjud qonunchilikni zamon talabiga mos keladigan qilib takomillashtirish juda muhimdir.

#### ASOSIY TAYANCH IBORALAR

- Milliy iqtisodiyot;
- milliy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi;
- milliy iqtisodiyotning miqdoriy va sifat jihatlari;
- milliy iqtisodiyotlarning darajasi;
- yalpi ijtimoiy mahsulot;
- makroiqtisodiyot;
- yalpi milliy mahsulot (YMM);
- qo'shilgan qiymat;
- yalpi ichki mahsulot (YIM);
- sof mahsulot;
- milliy daromad;
- real milliy mahsulot;
- nominal YMM.



#### TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Milliy iqtisodiyot deganda nimani tushunasiz?
2. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar nimalar va ular milliy iqtisodiyotda qanday rol o'ynaydi?
3. YMM va SMM bir-biridan nima bilan farqlanadi? SMM va milliy daromad-chi?
4. YMM harakat shakllari tavsifini bering.
5. YMM qanday usullarda hisoblanadi? Ularning farqi nimadan iborat?
6. Nominal va real YMM tushunchalarini izohlang. Ularning farqini ko'rsating.

---

## 13-bob. ISTE'MOL, JAMG'ARISH VA INVESTITSIIYALAR

### 13.1. Iste'mol va jamg'arishning iqtisodiy mazmuni

Milliy iqtisodiyotda yaratilgan YIM sarflanganda, asosan, ikki qismga ajratiladi. Birinchidan, mamlakat aholisining iste'molini qondirishga ajratiladi va u iste'mol fondi deyiladi. Ikkinchidan, shu milliy iqtisodiyotni kelajakda rivojlantirish uchun sarflanishga mo'ljallangan qismiga, u jamg'arish fondi deyiladi.

1. *Iste'mol fondi* — bu jamiyat iqtisodiy-ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish jarayonida tovar va xizmatlardan foydalanish uchun sarflanadigan mablag'lardan iborat bo'ladi va mamlakat aholisining yillik iste'molini qondirishga ishlatiladi. Bu, asosan, ikki yo'nalishda, birinchidan, xususiy, ikkinchidan, davlat iste'moli uchun sarflanadi.

Xususiy iste'mol fondiga ajratilgan qismini xonadonlar, korxonalar va firmalar kabi xo'jaliklar iste'mol qiladi. Hozirgi vaqtda dunyo mamlakatlarida xususiy iste'mol YIMning 2/3 qismini tashkil qilmoqda. Xonadonlardagi iste'mol, asosan, ularning kundalik joriy ehtiyojlarini qondirishdan iborat bo'ladi. Bunda xonadon a'zosi bo'lgan ishchilar turli moddiy va nomoddiy mahsulotlar hamda xizmatlarni iste'mol qilishlari orqali o'z ish qobiliyatlarini tiklaydilar, farzandlarni boqib, katta qilib, mamlakatga yangi ishchi kuchlarini yetishtirib beradilar. Bu jarayon, o'z navbatida, shu iste'mol fondi hisobidan xonadonda inson kapitalini investitsiyalashni ta'minlaydi.

Korxonalar, firmalar va boshqa xo'jaliklarda iste'mol deganda ularning ishlab chiqarish jarayonidagi resurslar iste'moli tushuniladi, ya'ni ular ishchi kuchlari, mashina, asbob-uskuna, xomashyo, yoqilg'i va turli materiallar ishlatadilar. Natijada yangi mahsulotlar va xizmatlar yaratiladi. Shuning uchun unumli iste'mol deb yuritiladi.

Davlat iste'moli deganda, odatda, davlat idora va tashkilotlari tomonidan turli ijtimoiy xizmatlarni bajarishlari jarayonida qilinadigan sarf-xarajatlar tushuniladi. Bu amalda ijtimoiy sohaning iste'moli hisoblanadi, chunki bu soha davlat tasarrufida bo'ladi. Bu fondan boshqarish va mudofaa ehtiyojlarini qondirish uchun foydalaniladi.



Iste'mol individual yoki jamoaviy bo'ladi. Alohida kishilar, oila yoki jamiyat a'zolarining ixtiyorida bo'lgan moddiy ne'matlarni iste'mol qilish individual tarzda iste'molga kiradi. Jamiyat a'zolarining guruhlari tomonidan moddiy ne'mat va xizmatlardan foydalanish jamoaviy tarzda iste'mol qilish deyiladi.

2. *Jamg'arish fondi* mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, o'stirishga sarflanadi.

*Jamg'arish* — hayotiy zarurat. Oldingi boblarda ta'kidlandiki, odamlarning ehtiyojlari va ularning qondirilish darajasi bo'lgan iste'mol miqdor va sifat jihatdan o'zgarib turadi, ya'ni to'xtovsiz ravishda ortib, o'sib turadi. Aslida kishilik jamiyatining taraqqiyoti iste'molning qondirilishiga ham bog'liq. Ehtiyojlarning, shundan kelib chiqqan holda odamlar iste'molining o'sishi zamirida ikki sabab yotadi:

*birinchi sabab* — Yer kurrasi aholisining yildan yilga son jihatdan ko'payib borishidir;

*ikkinchi sabab* — iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish tufayli, borgan sari odamlarning ne'matlar iste'mol qilishi tuzilishida o'zgarishlar yuz berishi, uning rang-baranglashib, son va sifat jihatdan o'sib borishidir.

Demak, o'sib borayotgan ehtiyojlarni qondirish uchun iste'mol ne'matlarini tobora ko'paytirish lozim. Xo'sh, odamlarning o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun jamiyatning imkoniyatlari yetarli? Bu savolning amaliy va nazariy yechimlari mavjud. Amaliy jihatdan yechimi shuki, ishlab chiqarishning moddiy-texnikaviy bazasini o'stirish, moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirish, moddiy ishlab chiqarishda va xizmatlarda band bo'lgan xodimlar sonini oldingi darajasidan oshirish, ishlab chiqarishga qo'shimcha ravishda mehnat vositalari, xomashyolarni jalb qilishdir; nazariy jihatdan esa odamlarning o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirib borish uchun jamg'arishni amalga oshirmoq lozim.

Jamg'arish deyilganda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish miqyoslarini kengaytirib borish jarayoni tushuniladi. Har qanday jamiyatda ishlab chiqarish miqyoslarini kengaytirib borishning ma'lum manbalari bo'ladi. Barcha sharoitlarda ishlab chiqarishni ko'paytirib borishning umumiy va asosiy manbasi — olinadigan foydadir. Ana shu foyda dastlabki oddiy takror ishlab chiqarish hukm surgan davrda ko'pincha mulk egalari tomonidan shaxsiy iste'mol uchun sarflangan. Ishlab chiqarishni kengaytirish zarurati paydo bo'lgach, foyda ikki yo'nalishda taqsimlana boshlandi:

1) ishlab chiqarishning moddiy-texnikaviy hamda shaxsiy omillarini ko'paytirish;

2) ehtiyot (rezerv) va sug'urta (ro'y berishi mumkin bo'lgan tabiiy ofatlarning oqibatlarini bartaraf qilish, ekologik ahvolni yaxshilash maqsadlari uchun) hamda ijtimoiy iste'mol (jamiyatning mehnatga yaroqsiz a'zolari, madaniy ehtiyojlar, sog'liqni saqlash, sog'lomlashtirish, xalq ta'limi, mudofaa kabilar) fondlarini tashkil etish kabilar.

Ko'rinib turibdiki, jamg'arish nafaqat iqtisodiy jarayon (ne'matlarni ko'paytirish), shu bilan birga ijtimoiy jarayon hamdir. Mamlakatda qancha ko'p foyda olinsa va u to'g'ri, maqsadga muvofiq taqsimlansa, bu jarayon jamiyat uchun shunchalik foydali bo'ladi.

Jamg'arish bevosita foydaning hajmi va me'yoriga bog'liq bo'lsa-da, ijtimoiy jarayon bo'lgani uchun unga jamiyatda kechadigan boshqa jarayonlar ham ta'sir etadi. Jamg'arishga ta'sir etadigan omillardan biri fan-texnika va texnologiyalar taraqqiyotidir. Bu jarayon o'tgan asrning 50-yillaridan boshlanib, ishlab chiqarish qurol vositalariga, ish kuchiga shunday ta'sir o'tkazdiki, bugungi hayotimizdagi jiddiy o'zgarishlar ana shu taraqqiyot natijasidir.

Ma'lumki, hozirgi zamonaviy ishlab chiqarish sharoitida texnika vositalarining ulardan jadal foydalanish natijasida yemirilishi, ma'naviy eskirishi tezlashadi. Demak, asosiy fondlarning amortizatsiyasi ortadi, tezlashadi. Natijada ularni yangilash, takomillashtirish, kapital ta'mirlash uchun amortizatsiya fondidan foydalanish zarurati tug'iladi.

Sanoati rivojlangan ilg'or mamlakatlarda jamg'arishning bu manbayi katta ahamiyat kasb etmoqda. Jamg'arishda amortizatsiya ajratmalarining hissasi ortib boryapti. Boshqacha aytganda, ishlab chiqarishning kengayishi o'z moddiy omiliga ko'proq asoslanmoqda. Bunday imkoniyatlarning borligi foydani ijtimoiy maqsadlar uchun, odamlarning moddiy va ma'naviy farovonligini oshirish uchun sarflashga sharoit yaratadi. Demak, industrial mamlakatlarda jamg'arishning manbalari ko'proq va kengroqdir.

### **13.2. Iste'mol va jamg'arish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, ularni belgilovchi omillar**

Jamg'arish fondi uchun ajratmalar YIMning bir qismini tashkil etib, u, odatda, mamlakat iqtisodiy qudratiga bog'liq bo'ladi. Mamlakatda YIM qanchalik ko'p yaratilsa, iste'mol uchun ham, jamg'arish uchun ham ko'proq ajratiladi. Jamg'arishni aholi, korxonalar va firmalar, umuman, xo'jalik yurituvchilar amalga oshiradilar. Aholi jamg'armalarining ma'lum bir qismiga ko'chmas mulk va boshqa uzoq muddat foydalanadigan buyumlar sotib oladilar yoki naqd pul sifa-

tida qo'lida saqlaydilar. Bir qismi esa banklar va moliya bozori orqali investitsiya qilinishi mumkin. Korxonalar, firmalar jamg'armalari o'zlarining asosiy va aylanma kapitalini ko'paytirishga sarflanadi. Bu ishlab chiqarishni kengaytirishga investitsiyalash deyiladi. Davlat jamg'arish fondi, odatda, uning iste'molidan ortib qolgan mablag' hisobidan tashkil topadi va hukumatning turli rezervlari deyiladi.

### **13.3. Jamg'arishning mohiyati va omillari**

Mamlakatimizda yaratilgan yalpi ichki mahsulotning jamg'arilgan qismining, ya'ni asosiy va aylanma kapitallarni, shuningdek, zaxiralarini ko'paytirish uchun sarflanishiga aytiladi. Yanada boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, jamg'arish — takror ishlab chiqarishning oddiy shakldan kengaygan shaklga aylanishi demakdir. Oddiy takror ishlab chiqarish — ne'matlar va xizmatlarning avvalgi hajmda, o'zgarmas miqdorda takrorlanishidir. Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish — ishlab chiqarish hajmining ortishi, ne'matlar miqdori-ning ko'payishi, tarkibi va sifatining yaxshilanib borilishidir.

Kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning moddiy zamini — jamg'arishdir. Takror ishlab chiqarishning bu shaklida jamg'arish imkoniyatlari o'z-o'zidan ko'payib boradi. Chunki bunda iqtisodiy taraqqiyot tezlashadi, ishlab chiqarish samaradorligi ortadi, iqtisodiyotda o'sish yuz beradi.

Kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning yana bir ijobiy tomoni texnik va texnologik taraqqiyotni tezlashtirish, rag'batlantirib borishdir. Buning oqibatida mehnat unumdorligi o'sadi, resurslarni tejaydigan texnologiyalar yaratiladi, mehnat va material sig'imi kamayadi, fondlar samaradorligi ortadi va h.k. Rivojlangan mamlakatlar sharoitida takror ishlab chiqarishni boshqarib turish zarurati ham kelib chiqadi, ya'ni boshqarishning iqtisodiy mexanizmiga talab kuchayadi.

Amalda jamg'arish kapital sarflar yoki investitsion sarflar deb yuritiladi va u yangi asosiy kapitalni hosil qilish, ishlab turganlarini kengaytirish, rekonstruksiyalash va yangilashga qilinadigan xarajatlarni bildiradi. Odatda, kapital sarflar yoki investitsiyalar jamg'arish fondiga nisbatan kengroq, chunki ishlab chiqarishdagi eskirgan obyektlarni almashtirish yoki tiklashga sarflanadigan amortizatsiya fondining bir qismi jamg'arish manbaya bo'lib xizmat qiladi. Jamg'arilgan mablag'larning moddiy ishlab chiqarish sohasining asosiy kapitallarini va aylanma mablag'larini kengaytirishga sarflangan qismi real sektor sohasidagi jamg'arish fondini tashkil qiladi. Real sektor sohasidagi jamg'arish iqtisodiy o'sishning muhim omili hisoblanadi.

Ijtimoiy sohani kengaytirish, yangilashga sarflanadigan qismi nomoddiy sektordagi jamg'arish fondini tashkil qiladi. Bu fond, o'z navbatida, iqtisodiyotni rivojlantirishning zarur sharti hisoblanadi.

Jamg'arish jarayoni juda chuqur ijtimoiy o'zgarishlarga olib keladi: birinchi navbatda, ishlab chiqarishda ish kuchi (inson)ning roli tubdan o'zgaradi. Agar ilgari inson ishlab chiqarishning shunchaki bir shaxsiy omili bo'lgan bo'lsa, jamg'arish uni boshqaruvchiga, nazoratchiga aylantiradi. Bunday sharoitda ishlab chiqarishning pirovard natijaliligi, samaradorligi, unumdorligi, ishchi kuchi sifatiga, tuzilishiga, bilimi, tajribasi va madaniyatiga bevosita bog'liq bo'lib qoladi. Ya'ni inson ishlab chiqarishning tom ma'nodagi, haqiqiy egasiga aylanadi. Boshqacha aytganda, ishlab chiqarishning taqdiri mulk egasigagina bog'liq bo'lmay, ishlab chiqaruvchiga ham bog'liq bo'lib qoladi. Bu jamg'arishning g'oyat kuchli ijtimoiy oqibatidir.

Inson rolining, ishlab chiqarishdagi mas'uliyatining ortishi, tabiiyki, fan-texnika, texnologiya ilgari surgan yangi kasblarni egalashni, o'quvchi yoshlardan puxta bilim olishni, texnika sirlarini bilishni, jahon ilm-fani yutuqlarini chuqur o'zlashtirishni, yuksak ma'naviyatli bo'lishni talab qiladi. O'zbekistonning iqtisodiy mustaqillikka erishishi yoshlar oldiga xuddi shu talablarni qo'yadi.

Ishlab chiqarish insonga bog'liq bo'lib qolar ekan, o'z navbatida, bu ishlab chiqarishning inson tomonidan uning o'z ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilishiga olib keladi. Hozirgi zamon ta'бири bilan aytganda, ishlab chiqarishning insoniylashuvi yuz beradi, bu taraqqiyot talabiga aylanadi. Buning ma'nosi shuki, ishlab chiqarish tuzilishi (ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun ishlash va inson ehtiyojlari uchun ishlab chiqarish o'rtasidagi nisbat) odamlar ehtiyojlarini qondirish uchun ishlash foydasiga o'zgaradi, iste'mol buyumlarini ko'paytirish ustuvorlik kasb etadi.

Jamg'arish aholi, mehnatga yaroqli kishilar (mehnat resurslari) bandligi masalasining boshqacha hal qilinishini taqozo etadi. Jamg'arish jarayonida ishlab chiqarishda band bo'lgan jonli mehnat (ishchi kuchi) o'rnini texnika, texnologiya (buyumlashgan mehnat) ko'proq egallaydi, ishchi kuchiga bo'lgan talab mehnat resurslarining tabiiy o'sishiga nisbatan kamayib boradi. Ayniqsa, demografik faollik (tug'ilish darajasining yuqoriligi) sharoitida aholi o'rtasida ishsizlik muammosi kelib chiqadi. Xuddi shu holat O'rta Osiyo davlatlariga, jumladan, O'zbekistonga ham taalluqlidir. To'g'ri, fan-texnika taraqqiyoti yangi-yangi tarmoqlar (informatsion texnologiyalar, kosmonavtika, elektrotexnika, radiotexnika, sun'iy

tolalar ishlab chiqarish va h.k.)ni shakllantirib, yangi ishchi kasblarini, muhandis-texnik ixtisosliklarini, shu bilan birga yangi ish joylarini vujudga keltiradi. Bu ijobiy holdir.

Biroq jamg'arish tufayli mehnat resurslarining bir qismi ishlab chiqarish ehtiyojlaridan ortiqcha bo'lib qoldi. Bu narsa jamiyat oldiga, davlat idoralari oldiga bandlik masalasini ijobiy hal qilish muammosini ko'ndalang qilib qo'yadi. Bu muammo rivojlanayotgan mamlakatlar uchun (jumladan, O'zbekiston uchun ham) dolzarb bo'lib turibdi. Ana shu zaruratdan kelib chiqib, respublikamiz Prezidentining alohida ko'rsatmasi bilan aholini ijtimoiy himoya qilishning (shu jumladan, aholi bandligini ta'minlashning) maxsus dasturi ishlab chiqilgan. O'zbekistonda davlat boshqaruv tizimida aholini ish bilan ta'minlash, ijtimoiy himoya qilish bilan shug'ullanuvchi maxsus idoralar tashkil etilgan. Tumanlarda faoliyat ko'rsatayotgan mehnat birjalari joylarda bandlik muammosini hal etish bilan shug'ullanmoqda.

#### **13.4. Jamg'arish bilan iste'mol o'rtasidagi optimal nisbat**

Jahon tajribasiga ko'ra, YIM turli mamlakatlarda turlicha ishlatiladi. Bir mamlakatda iste'mol fondiga ko'proq ajratilsa, boshqa yerda jamg'arishga ko'proq ajratiladi. Agar bir mamlakatda davlat iste'moli ko'proq bo'lsa, boshqasida kamroq bo'lishi mumkin. Agar bir mamlakatda iste'mol sarflari ulushi qanchalik yuqori bo'lsa, jamg'arish fondi hajmi shunchalik kam bo'ladi. Agar jamg'arish fondiga ajratma ko'p bo'lsa, bu mablag'lar investitsiyalarga yo'naltiriladi. Natijada iste'mol bilan jamg'arish o'rtasidagi nisbatning o'zgarishi sodir bo'lib, bu holat bir qator, ba'zan qarama-qarshi oqibatlarga olib kelishi ham mumkin.

Masalan, daromadlarning kattaroq qismini jamg'arishga ajratish oqibatida bozorlarda iste'mol tovarlariga bo'lgan talab kamayadi, natijada iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchilar bundan zarar ko'rishlari mumkin. Shuning uchun davlat tomonidan jamg'arish va iste'mol o'rtasidagi nisbatning mutanosib ravishda bo'lishini ta'minlashga e'tibor beriladi.

#### **13.5. Iste'mol qilish va jamg'arma qilishga bo'lgan o'rtacha va maksimal moyillik**

Odatda, aholi daromadlarining ortib borishi ularning jamg'arishga ko'proq sarf qilishiga moyilligini o'stiradi. Iqtisodiy

adabiyotlarda aholining iste'molga o'rtacha moyillik (IO'M) darajasini aniqlash formulasi yaratilgan va u quyidagicha:

$$IO'M = \frac{\text{iste'mol}}{\text{daromad}} \cdot 100 \text{ va } JO'M = \frac{\text{jamg'arma}}{\text{daromad}} \cdot 100.$$

Bu yerda iste'molga o'rtacha moyillik (IO'M), aholi daromadining jamg'armaga ketadigan ulushi jamg'armaga o'rtacha moyillik (JO'M)ni bildiradi.

Formulada keltirilgan daromad darajasi bo'yicha IO'M va JO'Mni hisoblab ko'rsak, daromad ko'payib borishi bilan IO'M tushadi, JO'Mning esa o'sishini ko'rish mumkin. Haqiqatda soliq-lar to'langandan keyin qolgan daromad yoxud iste'mol qilinadi yoki jamg'armaga ketadi. Shu sababli, daromadning iste'mol qilinadigan va jamg'armaga ketadigan qismlari daromadning har qanday darajasining butun miqdorini qamrab oladi, ya'ni  $IO'M+JO'M=1,0$  yoki 100 % bo'ladi.

Daromad o'sishining iste'mol qilinadigan qismi yoki hissasi iste'molga qo'shilgan moyillik deyiladi (IQM), ya'ni:

$$IQM = \frac{\text{iste'moldagi o'zgarish}}{\text{daromaddagi o'zgarish}}.$$

Daromad har qanday o'sishning jamg'armaga ketadigan his-sasi, jamg'armaga qo'shilgan moyillik deyiladi (JQM), ya'ni JQM jamg'armadagi o'zgarish daromaddagi o'zgarishni bildiradi.

Iste'mol va jamg'arish o'rtasidagi o'zaro nisbiy bog'liqlikka boshqa bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi va ular quyidagilar:

- soliq stavkalarining o'zgarishi;
- bozorda talab va taklifning o'zgarishi;
- narxlar darajasi;
- uy xo'jaliklari jamg'argan boylik darajasi va boshqalar.

### **13.6. Investitsiyaning iqtisodiy mazmuni va uning darajasini belgilovchi omillar**

Investitsiyaning iqtisodiy mazmuni to'g'risida iqtisodiy adabiyot-larda har xil fikrlarni uchratish mumkin. Jumladan, Sh. Shod-monov va boshqalar «Investitsiyalar — asosiy va aylanma kapitalni qayta tiklash va ko'paytirishga, ishlab chiqarish quvvatlarini kengay-tirishga qilingan sarflarning pul shaklidagi ko'rinishidir. U pul mablag'lari, bank kreditlari, aksiya va boshqa qimmatli qog'ozlar ko'rinishida amalga oshiriladi» deb tushuncha beradilar.

Professor D.G'. G'ozibekov investitsiyalarning iqtisodiy mazmun-mohiyatini moliyaviy kategoriya sifatida talqin qilib, quyidagicha ta'rif beradi: «Investitsiyalar nazarda tutilgan va tutilmagan, ammo ehtimoli bor risklar hamda ko'zlanayotgan samaralarni baholash asosida, o'z va o'zga mablag'lar qiymatining kapitallashuvi va jamg'arilishini ta'minlash maqsadida moliyaviy va real aktivlarga bog'lanishidan dalolat beradi»<sup>1</sup>.

Professor N.H. Haydarov: «Investitsiya — bu mulk shaklidan qat'i nazar, tadbirkorlik asosida faoliyat ko'rsatayotgan jismoniy va yuridik shaxslar yoki davlatning iqtisodiy va ijtimoiy samara olish maqsadida o'z ixtiyoridagi moliyaviy, moddiy va intellektual boyliklarini qonun doirasida bo'lgan har qanday tadbirkorlik obyektiga sarflashidir»<sup>2</sup> deb e'tirof etadi.

O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 24-dekabrda «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi Qonunida investitsiyalarning mazmuni «iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar» sifatida ta'riflanadi.

Yuqorida keltirilgan ta'riflarni tahlil qilish orqali shunday xulosaga kelish mumkinki, «investitsiyalar» tushunchasi va uning iqtisodiy mazmuni iqtisodchilar tomonidan keng o'rganilgan va har xil yondashilgan.

Bizning fikrimizcha, investitsiya — bu iqtisodiyotning moddiy va nomoddiy sohalariga, ularni tiklash, kelajakda kengaytirish, o'zgartirish yoxud rivojlantirish uchun moddiy yoki moliyaviy resurslar sarflashdan iboratdir. Shundan kelib chiqib, ishlab chiqarish investitsiyasi deganda ishlab chiqarishni kengaytirish yoxud rivojlantirish uchun sarflangan moddiy va moliyaviy mablag'larga aytiladi. Investitsiya kapitalning jamg'arilishini bildiradi va bu YIMning muayyan qismini qaytadan ishlab chiqarishga joylashtirilishini anglatadi. Investitsiyaning YIMdagi hissasi investitsiya me'yori deb ataladi.

Investitsiyalarga sarflar darajasini ikki asosiy omil belgilab beradi:

1) investitsiyalarga sarflardan olinadigan sof foyda me'yori. U degani investorlar ishlab chiqarish vositalarini, ular foyda keltirsagina, sotib oladi;

---

<sup>1</sup> D.G'. G'ozibekov. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. T., «Moliya», 2003, 14—15-bet.

<sup>2</sup> N.H. Haydarov. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari (Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya). T., 2003, 29-bet.

2) foiz stavkasi bu asosiy kapitalni sotib olish uchun zarur bo'lgan pul miqdori korxonada kelajakda olishi mumkin bo'lgan pul miqdori, ya'ni kutilayotgan sof foyda me'yorining foizdagi ifodasidir. Masalan, investitsiyani amalga oshirish qachon maqsadga muvofiq bo'ladi, agarda foiz stavkasi (aytaylik, 10 %) kutilayotgan sof foyda normasidan (20 %) kam bo'lsa, investitsiyalash samarali hisoblanadi.

Investitsiyaning darajasiga kutilayotgan sof foyda me'yor va foiz stavkasidan tashqari, boshqa omillar ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, sotib olinadigan texnika va asbob-uskunalarini ishlatish va ularga xizmat ko'rsatish xarajatlari miqdori, olinadigan soliq miqdorlari va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi Qonunida investitsiyalar tayinlangan obyekti bo'yicha tabaqalash-tirilgan. Unga muvofiq investitsiyalar quyidagi turlarga ajratilgan:

- kapital investitsiyalar (asosiy fondlarni vujudga keltirish va takror ishlab chiqarishga, shuningdek, moddiy ishlab chiqarishning boshqa shakllarini rivojlantirishga qo'yiladigan investitsiyalar);

- innovatsion investitsiyalar (texnika va texnologiyalarning yangi avlodini ishlab chiqarish va o'zlashtirishga qo'yiladigan investitsiyalar);

- ijtimoiy investitsiyalar (inson salohiyatini, malakasi va ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, shuningdek, nomoddiy ne'matlar-ning boshqa shakllarini rivojlantirishga qo'yiladigan investitsiyalar).

Investitsiyalash kim tomonidan amalga oshirilganligi nuqtayi nazaridan ikki turga, ya'ni ichki va tashqi investitsiyalarga bo'linadi:

- ichki investitsiyalar — bu mazkur davlat hududida ichki investorlar tomonidan yo'naltiriladigan investitsiyalardir;

- tashqi investitsiyalar — bu xorijiy investorlar tomonidan yo'naltiriladigan investitsiyalar bo'lib, chet el mulkdorlari tomoni-dan iqtisodiyotning turli tarmoqlariga (sanoat, qishloq xo'jaligi, transport va h.k.) uzoq muddatga qo'yilgan kapital mablag'laridir<sup>1</sup>.

Rivojlangan mamlakatlarda investitsiyalarning uch turi mavjud:

- moliyaviy investitsiyalar — mahalliy va xorijiy mamlakatlar-ning pul birliklari, banklarga qo'yilgan omonatlar, depozit serti-fikatlari, aksiyalar, veksellar, zayomlar va boshqa turdagi qimmatli qog'ozlar va ularga tenglashtiriladigan boyliklar;

- moddiy investitsiyalar — asosiy fondlar, ya'ni binolar, asbob-uskunalar, inshootlar, kommunikatsiyalar va boshqa turdagi asosiy

---

<sup>1</sup> Финансово-кредитный словарь. Том 1. М., «Финансы и статистика», 1984, стр. 470.




ishlab chiqarish fondlarining asosiy va aylanma kapital ko‘rinishidagi turlari;

- aqliy (intellektual) investitsiyalar — insonning turli aqliy mulklaridan, ya’ni mulkiy huquqlar shaklidagi investitsiyalar va tabiiy resurslardan foydalanish huquqi shaklidagi investitsiyalar (nou-xau, kashfiyotlar, tovar belgilariga beriladigan litsenziyalar va boshqa xil egalik huquqlari).

Iqtisodiy adabiyotlarda investitsiyalar turlari, ularning shakl, mohiyat va mazmuni juda keng tavsiflanadi hamda tasniflanadi. Quyidagi chizmada uning tasnifini keltiramiz:

#### Investitsiyalar tasnifi



### 13.7. Investitsiyaning o‘zgaruvchanligi, investitsion faollik, investitsion muhit, investitsiyaning xavf-xatarini hisobga olish

Investitsiya uchun mablag‘lar ajratish mamlakatning iqtisodiy salohiyatiga qarab amalga oshiriladi. O‘z navbatida, iqtisodiyot rivojlanishi investitsiyaning hissasiga bog‘liq bo‘ladi. Investitsiya birligining iqtisodiy rivojlanishga qo‘shgan hissasi ortib borishi uchun u iqtisodiyotning ilg‘or sohalariga, yangi texnologiyalarga,

novatsiyalarga, ya'ni yangilikni joriy etishga yuborilishi kerak. Shundagina multiplikatsiya samarasi ortib boradi, ya'ni investitsiya birligiga hisoblangan iqtisodiy o'sish sodir bo'ladi.

Investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq harakatlarni — investitsiyaviy faoliyat, investitsiyalarni amalga oshiruvchi shaxsni — investor deyiladi.

Investitsiya manbalari quyidagilar bo'lishi mumkin:

- investorlarning o'z shaxsiy mablag'lari;
- qarz olingan moliyaviy mablag'lar;
- jalb qilingan moliyaviy mablag'lar;
- budget mablag'lari;
- chet el mablag'lari.

*Investitsiya faoliyati obyektlari* — bu moddiy va nomoddiy boyliklarni ishlab chiqarish vositalaridir.

*Investitsiya faoliyati subyektlari* — bu:

• jismoniy va yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasi subyektlari;

• respublika va joylardagi davlat boshqaruvi organlari;

• xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar va chet el jismoniy va yuridik shaxslari hamda fuqaroligi yo'q va chet elda doimiy istiqomat qiladigan shaxslardir.

Investorlar investitsiyalarni moliyalashtirishni quyidagi yo'llar bilan amalga oshirishlari mumkin:

• yuridik shaxslar tuzish yoki ularning ustav jamg'armalari (kapitallari)da ulushli ishtirok etish, shu jumladan, mol-mulkni yoki aksiyalarni olish;

• qimmatli qog'ozlarni, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan emissiya qilingan majburiyatlarini olish;

• konsessiyalarni, shu jumladan, tabiiy resurslarni qidirish, ishlab chiqish, qazib olish yoki ulardan foydalanishga bo'lgan konsessiyalarni olish;

• mulk huquqini, shu jumladan, ular joylashgan yer uchastkalari bilan birgalikda savdo va xizmat ko'rsatish sohalari obyektlariga, turar joylarga mulk huquqini, shuningdek, yerga hamda boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish (shu jumladan, ijara asosida foydalanish) huquqini qonun hujjatlariga muvofiq olish;

• investitsiyalarni moliyalashtirish qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa shakllarida ham amalga oshirilishi mumkin.

Iqtisodiyotga investitsiyalar mamlakatdagi investitsion muhitga bevosita bog'liq bo'ladi va u quyidagilar bilan belgilanadi:

1. *Siyosiy barqarorlik.* Davlat tomonidan barcha ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda olib borilayotgan tizimli islohotlar.

2. *Milliy iqtisodiyotning barqaror sur'atlarda rivojlanib borayotganligi.* So'nggi besh yil davomida O'zbekiston YIM o'sishi o'rtacha 7—8 % ni tashkil qilmoqda.

3. *Geografik va geosiyosiy joylashuv.* O'zbekiston Markaziy Osiyoning chorrahasida joylashgan bo'lib, samarali mintaqaviy hamkorlik aloqalarini o'rnatish, mintaqaviy va transmilliy loyihalarda ishtirok etish uchun qulay transport koridorlariga ega mamlakatdir.

4. *Rivojlangan infratuzilmaning mavjudligi.* Respublikada transport infratuzilmasi bo'lmish temiryo'llar, avtomobil yo'llari hamda havo yo'llari yaxshi yo'lga qo'yilgan. Temiryo'llar uzunligi 6,5 ming km, avtomobil yo'llar uzunligi 43,5 ming km.ga teng. Milliy aviakompaniyada muntazam ravishda 40 dan ortiq chet el shaharlariga to'g'ridan to'g'ri reyslar amalga oshiriladi, shuningdek, jahonning 24 ta davlatida 43 dan ortiq vakolatxonasiga ega. Respublikamizda yiliga 48 mlrd kVt s elektr energiyasi va 10 mln Gkal issiqlik energiyasi ishlab chiqariladi. Bu nafaqat ichki ehtiyojimiz, balki xorijga eksport qilishga ham imkon yaratadi<sup>1</sup>.

5. *Qulay soliq va bojxona siyosati.* O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar uchun sarmoyadorlarga qator imtiyoz va preferensiyalar yaratilib, ularning kafolati qonun bilan mustahkamlab qo'yilgan. Xususan, ular mulk solig'idan, tadbirkorlik faoliyatidan olinayotgan daromad solig'idan hamda bir qator bojlarni to'lashdan ozod etilgan.

6. *Yuksak salohiyatga ega ishchi kuchining mavjudligi.* O'zbekiston yuqori salohiyatga ega bo'lgan mutaxassis kadrlarga ega bo'lib, aholi savodxonligi darajasi 100 % ni tashkil etadi. Mamlakatda har to'rtinchi kishi oliy yoki o'rta maxsus ma'lumotga ega hisoblanadi. Birgina ta'lim sohasini oladigan bo'lsak, mamlakatimizda o'z mazmun va mohiyatiga ko'ra, noyob bo'lgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Ushbu dastur o'n ikki yillik yaxlit majburiy uzluksiz ta'lim tizimiga o'tish hamda ta'lim jarayonlarining sifatini tubdan va tizimli oshirishga, kadrlarning yuksak darajadagi umumiy va kasbiy madaniyatga ega bo'lgan yangi avlodini tarbiyalashga qaratilgan maxsus chora-tadbirlarni ko'rish imkonini berdi.

<sup>1</sup> Статистическое обозрение Республики Узбекистан за 2013 год. Т., 2014.

yoqilg'i-energetika majmuyi, xususan, neft-gaz tarmog'ida amalga oshiriladigan loyihalar misol bo'la oladi.

Shuningdek, loyihalar o'z muddatlariga ko'ra, *qisqa muddatli* (2 yilgacha), *o'rta* (5 yilgacha) va *uzoq muddatli* (5 yildan ortiq) bo'ladi<sup>1</sup>.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirish va moliyalashtirishdan avval ularning xavf-xatarlilik (risklilik) darajalari chuqur tahlil qilib chiqiladi.

### **13.8. Loyiha risklari va ularning tasnifi**

*Loyihaviy risklar* — bu investitsion loyihalarni amalga oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi va uning samaradorlik darajasini pasaytiruvchi risklar (xavf-xatar) majmuyiga aytiladi.

Loyihaviy risklarning asosiy turlari quyidagilar hisoblanadi:

- loyihaviy faoliyatning bosqich va jarayonlariga ko'ra;
- investitsion loyihalarni tuzish jarayonidagi risklar;
- investitsiya (qurilish) jarayonidagi risklar;
- ishlatishga tayyorgarlik jarayonidagi risklar;
- ishlab chiqarish jarayonidagi risklar.

Loyihada qatnashish imkoniyatidan kelib chiqqan holda:

- ichki;
- tashqi risklarga bo'linadi.

Tashqi risklar darajasiga juda ko'p omillar ta'sir ko'rsatadi. Ular orasida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va tabiiy-iqlim risklarni alohida ajratib ko'rsatish zarur. Tashqi risklar investitsion loyiha-ning barcha jarayonlarida ishtirok etishini ko'rish mumkin.

O'z navbatida, tashqi sabablarning namoyon bo'lish shakllariga quyidagilar kiradi:


- moddiy-texnika ta'minoti;
- atrof-muhitni qo'riqlash tadbirlari;
- loyihaviy normativlarning o'zgarishi;
- ishlab chiqarish me'yorlarining o'zgarishi;
- eksport-import tartibining o'zgarishi;
- baholarni shakllantirish mexanizmining o'zgarishi;
- soliqqa tortish tizimidagi o'zgarishlar;
- loyiha bo'yicha pudratchilarning bankrot bo'lishi;

---

<sup>1</sup> *И.И. Мазур, В.Д. Шапиро, Н.Г. Ольдерогге. Управление проектами. Учебное пособие (Под общей редакцией И.И. Мазура). 3-е изд. М., «Омега-Л», 2004.*

- banklarning inqirozi;
- xomashyo va energiya bahosining oshishi;
- iste'molchilar talablarining o'zgarishi;
- raqobatning kuchayishi;
- valutar almashuv kursining o'zgarishi;
- inflatsiyaning kuchayishi.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirishdagi risklarni chizma shaklida keltiramiz:



Investitsion loyihalarni moliyalashtirishda asosiy risklar bu bevosita iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bog'liq bo'lgan risklardir. Shu jumladan, moliyaviy risklar.

Moliyaviy risklarning eng ko'p tarqalgani quyidagilar:

- *Kredit risklari* — bu qarz oluvchi (loyiha egasi) tomonidan kredit shartnomasi shartlarining bajarilmasligi, ya'ni kredit summasining (qisman yoki to'liq) va u bo'yicha foizlarning shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda to'lanmasligi tushuniladi.

- *Valuta riski* — agar kredit berilgan valuta, loyiha mahsuloti realizatsiyasi valutarlari bilan mos kelmaganda paydo bo'ladi.

Masalan, loyiha mahsuloti realizatsiyasi milliy valutada bo'lib, uni moliyalashtirish uchun olingan kredit summasi chet el valutasida bo'lsa, bunda valutar o'rtasidagi tafovut valuta risklarini keltirib chiqarishi mumkin.

- *Foiz stavkalarining o'zgarish risklari* — investitsion loyihalarni o'zgaruvchan kredit stavkalari bilan moliyalashtirilganda paydo bo'ladi. Bunda kreditlar bilan moliyalashtirilganda investitsion loyihalar uchun ajratilgan kapital summasining o'sib kelish ehtimoli katta bo'ladi va loyihaning rentabellik darajasi pasayib ketishiga asosiy sabab bo'lishi mumkin.

- *Mamlakat risklari* — tashqi risklar turiga kiruvchi loyihaviy risklar hisoblanadi. Uning ma'nosi shundaki, mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy ahvol va davlat siyosati, shu mamlakatda loyihalashtirilayotgan investitsion loyihaga zarar yetkazishi va uning bekor qilinishigacha olib boriladigan risklar tushunilishi mumkin.

Mamlakat risklarini shartli ravishda ikkiga ajratish mumkin, ular mamlakatning siyosiy va iqtisodiy risklaridir:

- Siyosiy risklar tarkibiga hukumatning siyosiy tomonlari bilan bog'liq bo'lgan risklar kiradi;

- Iqtisodiy risklar esa, mamlakatning soliq, valuta, boj va boshqa shunga o'xshash iqtisodiy ko'rsatkichlarining o'zgarishi bilan bog'liqdir.

Ma'muriy risklar — tashqi risklar turkumiga kiradi. Bular loyihaviy faoliyat olib borish uchun olinadigan litsenziya, ruxsatnomalar va hukumat bilan kelishuv hujjatlari hisoblanadi.

Investitsion loyihalar risklarini pasaytirish uchun ularni boshqarish zarur bo'ladi. Nazariya va amaliyotda risklarni boshqarishning to'rt uslubi bor:

- *Risklarni o'lchash*. Bunda, asosan, risklarni tahlil qilish, ularni tartiblash masalalari ko'rib chiqiladi.

- *Riskni bartaraf qilish va nazoratlash* — bunda shunday boshqaruv olib borish lozimki, ishtirok etuvchilar riskning paydo bo'lishiga maksimal darajada ta'sir etmog'i kerak yoki riskni pasaytirishga harakat qilishi lozim. Riskni nazorat qilish o'z ichiga yo'qotishlarni chegaralash bo'yicha chora-tadbirlarni oladi.

- *Risklarni sug'urtalash*. Bu uslub, moliyaviy sug'urta qoplamlari yordamida yo'qotishlarni kamaytirishga yordam beradi.

- *Risklarni ko'tarish*. Bu uslubda risklilik darajasi kichik bo'lgan taqdirda, ularni ishtirokchilar tomonidan qoplanishini tushunish mumkin.

### 13.9. O'zbekistonda investitsiya faolligini ta'minlash

O'zbekiston Respublikasida «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, investitsiya faolligini oshirish uchun davlat tomonidan quyidagi chora-tadbirlar belgilanib, ularning amalga oshirilishiga alohida e'tibor berilmoqda. Ular quyidagilar:

- investitsiya faoliyatining qonunchilik negizi doimiy ravishda yangilab, zamon talabi asosida takomillashtirilmoqda;
- soliq to'lovchilar va soliq solish obyektlariga soliq stavkalari va ularga doir imtiyozlarni tabaqalashtiruvchi soliq tizimi qo'llanilmoqda;
- korxonalar va boshqa xo'jalik subyektlari asosiy fondlarini amortizatsiya qilish qulay tartibi belgilangan;
- investitsiyalarni jalb qilish va ularni moliyalashtirishga doir me'yorlar, qoidalar va standartlar jahon andozalari asosida belgilab qo'yilgan;
- tijorat banklarining uzoq muddatli kredit siyosati va narx belgilash siyosatini o'tkazishga alohida e'tibor beriladi;
- yerga va boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish shartlarining sarmoyadorlar uchun qulay bo'lishi ta'minlangan;
- O'zbekiston Respublikasining davlat investitsiya siyosati doirasida davlat va budjetdan tashqari fondlar mablag'i hisobidan to'g'ridan to'g'ri moliyalash yo'li bilan amalga oshiriladigan investitsiya dasturiga kiritilgan investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi monitoringini olib borish yo'lga qo'yilgan;
- xorij investitsiyalari va markazlashtirilgan investitsiyalarning davlat kafolatini ta'minlashga alohida e'tibor bilan qaralmoqda;
- umumdavlat maqsadlari uchun obyektlarni investitsiyalash shart-sharoitlarini belgilash va ular bilan bog'liq boshqa masalalarni hal etishda ko'maklashishdan iborat bo'lmoqda.

Yuqorida ko'rsatilgan shart-sharoitlar sababli, O'zbekistonda 2013-yilda jami investitsiyalar 27557,3 milliard so'mni tashkil qilgan. Investitsiyalarning 53,1 % ini korxonalar va aholining o'z moliyaviy mablag'lari, 5,5 % budjet mablag'lari, 11,0 % bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari, 9,7 % budjetdan tashqari va rekonstruksiya va rivojlanish fondi, 0,4 % yerlarning meliorativ holatini yaxshilash hamda 20,3 % xorijiy investitsiya va kreditlari hisobiga amalga oshirilgan.

**O‘zbekistonda investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo‘yicha tuzilishi (foiz hisobida)<sup>1</sup>**

Ko‘rsatkichlar	Jami investitsiyalar, mlrd so‘m	Moliyalashtirish manbalari					
		Davlat budjeti	Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash fondi	Korxonalar va aholi	Xorijiy investitsiyalar va kreditlar	Bank krediti va boshqa qarz mablag‘lari	Budjetdan tashqari fondlar, rekons-truksiya va rivojlantirish fondi
Jami	27557,3	5,5	0,4	53,1	20,3	11,0	9,7
Shu jumladan, korxonalar							
Davlat mulki	6033,3	24,2	2,0	24,4	15,9	2,9	30,6
Nodavlat mulk	21524	0,2	—	61,2	21,5	13,3	3,8

Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda investitsiya faolligini ta‘minlash va uni rivojlantirishdagi eng asosiy masala — bu investitsiya loyihalarini moliyaviy mablag‘ bilan ta‘minlashdan iborat bo‘lib qolmoqda. Hozirgi zamon ilmiy qarashlarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmi o‘z mohiyatiga ko‘ra, ikki muhim jihati bilan ajralib turadi. *Birinchidan*, mikrodarajada moliyalashning bozor mexanizmi amal qiladi; *ikkinchidan*, makroiqtisodiy darajada davlatning iqtisodiy mexanizmi ham mavjud bo‘ladi.

Shu sababli, investitsiya loyihalarini moliyalash faqat olinadigan foyda motivlari (sabablari)dan tashqari milliy iqtisodiy rivojlanish maqsadiga muvofiq keladigan mezonlar bo‘yicha ham baholanadi, lekin bularning iqtisodiyotdagi rolga har xil qaraladi. Biroq, baribir, bozor mexanizmi eng muhim umuminsoniy iqtisodiy qadriyat tarzida e‘tirof etiladi. O‘zbekistonda yuz berayotgan investitsiya jarayonlarini asosli holda baholash uchun aytilgan har ikki mexanizmni inobatga olish kerak bo‘ladi. Investitsiya jarayonlarining moliyaviy ta‘minoti investitsiya faoliyatining moliyalashtirish manbalari hamda investitsiyalash usullarining birligidan iborat.

Xulosa qilib aytganda, respublikamiz iqtisodiyotida o‘shish sur‘atlarini oshirishning ham ichki (milliy), ham xalqaro (tashqi)

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi statistik axborotnomasi. T., 2013, 22-bet.



imkoniyatlaridan foydalanishga harakat qilinmoqda. Iqtisodiyotda o'sishga qanday erishish mumkin? O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. A. Karimov bu savolga juda ham asosli, ilmiy javob bergan: *birinchidan*, mamlakatda siyosiy barqarorlikka erishish; *ikkinchidan*, iqtisodiyotda mo'tadillikni ta'minlash; *uchinchidan*, mamlakat ega bo'lgan barcha moddiy, mehnat, moliyaviy, ilmiy quvvatlarni to'la safarbar qilish; *to'rtinchidan*, xalqaro kredit va xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotni jonlantirishga jalb etish, barcha fuqarolarni o'z yurti obodligi va istiqboli yo'lida unumli ishlashga undash, milliy g'ururni o'stirishdir.

#### ASOSIY TAYANCH IBORALAR

- Iste'mol fondi;
- xususiy iste'mol fondi;
- shaxsiy iste'mol;
- unumli iste'mol;
- davlat iste'moli;
- jamg'arish fondi;
- jamg'arish;
- iste'mol xarajatlari;
- jamg'arma;
- iste'molga o'rtacha moyillik;
- jamg'armaga o'rtacha moyillik;
- iste'molga qo'shilgan moyillik;
- jamg'armaga qo'shilgan moyillik;
- jamg'arish normasi;
- investitsiya;
- investitsiyaviy faoliyat;
- investor.



#### TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Iste'mol va jamg'arishning iqtisodiy mazmunini tushuntirib bering.
2. Iste'mol va jamg'arishning miqdorini aniqlovchi asosiy omillar nimalar?
3. Jamg'arish me'yori qanday aniqlanadi?
4. Iste'molga va jamg'arishga o'rtacha moyillik deganda nimani tushunasiz?
5. Iste'mol va jamg'armaga qo'shilgan moyillik deganda nimani tushunasiz?
6. Investitsiyalar darajasiga qanday omillar ta'sir etadi?
7. Jamg'arish qanday manbalar hisobiga amalga oshiriladi?
8. Jamg'arish inson omilining iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatiga qanday o'zgarishlar kiritadi?
9. Jamg'arish jarayonida ish o'rinlari va bandlik masalasida qanday sifat o'zgarishlar yuz beradi?
10. Investitsiyalashdagi risklarni tasniflang.
11. Loyihaviy risklar nima va ularni tasniflab bering.
12. Investitsiya muhiti deganda nimani tushunasiz?
13. Investitsiyalarni moliyalashtirish va uning manbalarini aytib bering.
14. O'zbekistonda investitsiya faolligini ta'minlash qanday yechim topmoqda?

---

## 14-bob. ISHCHI KUCHI VA UNING BANDLIGI

### 14.1. Ishchi kuchining takror yaratilishi

Avvalgi boblardan bilamizki, ishlab chiqarishning asosiy omillaridan biri — bu mehnat omili, ya'ni inson omilidir. Mehnat omili deyilganda insonning o'zi emas, uning ishlay olish qobiliyati nazarda tutiladi. Bunday qobiliyat ishchi kuchi deb yuritiladi. Ishchi kuchi ishlab chiqarishning boshqa omillari kabi takror ishlab chiqarib turiladi. Takror ishlab chiqarish jarayonida jamiyatda ishchi kuchi miqdor va sifat jihatdan rivojlantirilgan, takomillashtirilgan, mukammallashtirilgan holda takroran yaratib boriladi.

Ishchi kuchining takror ishlab chiqarilishi jarayoni, odatda, uch asosiy, bir-biri bilan chambarchas bog'liq va bir-birini taqozo etuvchi jarayon sifatida namoyon bo'ladi. U iqtisodiy adabiyotlarda ishchi kuchini takror ishlab chiqarishning uch fazasi deb yuritiladi.

*Birinchi*dan, ishchi kuchi moddiy va nomoddiy ne'matlar ishlab chiqarilishi jarayonida qatnashib, mehnat qilish vaqtida o'zining jismoniy va aqliy qobiliyatlarini sarflab, qisman yo'qotib boradi va uning uzluksiz qayta tiklanishi hamda takomillashib borishini ta'minlab turish uchun o'zi yaratgan ne'matlarni iste'mol qilib, o'z kuchini takroran hosil qilib boradi. Shu bilan bir qatorda mehnat qilish jarayonida uning kasbiy mehnat malakasi ham ortib boradi.

*Ikkinchi*dan, u o'z oilasida yangi ishchi avlodini yetishtirishi, tarbiyalab tayyorlashi, ya'ni ularni sog'lom o'stirish, bilim berish, kasbga o'rgatish, mehnat malakasini muttasil oshirib, yangilab borishini ta'minlashidan iborat bo'ladi.

*Uchinchi*dan, ishchi kuchini takror ishlab chiqarish jarayoni mamlakatdagi mehnat resurslarini taqsimlash, qayta taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonidan iborat bo'lib, bunda mavjud ishchi kuchlarini ishlab chiqarishning turli sohalari, tarmoqlari,

korxonalar, hududlardagi ish joylariga joylashtirilishi orqali ularning xodimlarga bo'lgan ehtiyojlari qondirilishi tushuniladi. Bu bilan ishchi kuchlarining ish bilan to'la va samarali band bo'lishi ta'minlanadi.

#### **14.2. Ishchi kuchining miqdori va sifat jihatlari**

Ishchi kuchini takror ishlab chiqarishning eng muhim asosini aholining tabiiy ko'payishi, miqdoriy va sifat jihatlari tashkil etadi. Ishchi kuchining miqdor jihati ko'proq demografik jarayon bilan bog'liq bo'ladi. Bu jarayon ham iqtisodiy, ham ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida muhim o'rin tutadi. Aholining tabiiy o'sishi, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti darajasi, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi, urbanizatsiya darajasi, tarixiy, madaniy-ma'naviy urf-odat, turmush an'analari va boshqa shart-sharoitlar hamda boshqa bir qator omillar bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Bu yerda, ayniqsa, demografik omil, ya'ni aholining tabiiy o'sishi, ularning uy-joy hamda bolalar muassasalari bilan ta'minlanganlik darajasi, homiladorlik, bola tug'ilgandan keyingi ta'tillar va bolalarga nafaqalar berish kabi bir qator masalalarning yechilganligiga bog'liqdir.

Ishchi kuchining miqdor va sifat ko'rsatkichlari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, u mamlakat aholisining soni bilangina emas, balki jinsi va yoshi, turli kasbga, zamonaviy bilimlarga egaligi kabi tarkibiy jihatidan ham muhimdir. Bu ko'rsatkichlar, o'z navbatida, aholining tabiiy o'sishi bilan bir qatorda mehnat resurslari tarkibida iqtisodiy faol yoki nafaol, malakali va malakasiz, ayollar va erkak ishchi kuchlari kabi miqdor va sifat jihatdan ma'lumotlar bilan ifodalanadi. Shuning uchun O'zbekistonda yosh avlodni kelajakka tayyorlashga muhim ahamiyat berilmoqda. Quyida O'zbekiston aholisining o'sishi to'g'risida ma'lumotlarni keltiramiz.

O'zbekiston aholisi 2014-yil 1-yanvar holatiga 30488,6 ming kishini tashkil qilib, 2013-yilga nisbatan 495,1 ming kishiga, ya'ni 1,7 % ga o'sgan. Shundan 51 % i, ya'ni 15552,8 ming kishi shahar aholisi, 49 %, ya'ni 14935,8 ming kishi qishloq aholisidan iborat bo'lgan. Respublika ishchi kuchi resurslaridan 12523,3 ming kishi iqtisodiyotda band bo'lgan. O'zbekiston Respublikasi aholisining bunday sur'atlar bilan o'sishi, tug'ilishning ko'payishi va umrning uzayishi bilan o'limning kamayishiga, nikohdan o'tib, yosh oila qurayotganlarga bog'liqdir.

**O'zbekiston aholisining o'sish sur'atlari**  
(har 1000 kishiga nisbatan, % hisobida)

Ko'rsatkichlar	2012-yil	2013-yil
Tug'ilish	21,0	22,3
Vafot etganlar	4,9	4,8
Shundan, bir yoshgacha bo'lgan bolalar	10,2	10,5
Nikoh	10,0	10,0
Ajralish	0,6	0,8

M a n b a : O'zbekiston Respublikasi statistik axborotnomasi.

Ishchi kuchi miqdor jihatidan ishga yaroqli mehnat resurslaridan, sifat jihatdan esa ishlovchilarning zamonaviy kasblarga ega bo'lishi, bilimi, ish tajribasi, kasbiy mahorati, madaniyati, ma'naviy qiyofasi kabi bir qator ko'rsatkichlardan iboratdir.

Ishchi kuchining sifat ko'rsatkichlari, odatda, ishlab chiqarishning natijasi, ya'ni mahsulot miqdori va sifatida namoyon bo'ladi. Umuman, ishchi kuchining sifat darajasi undan foydalanish jarayonida uning mehnat unumdorligi kategoriyasi orqali bilib olinadi. Mehnat unumdorligi mahsulot va xizmatlar hajmining ularni ishlab chiqarish uchun sarflagan vaqtiga nisbatan aniqlanadi.

Mehnat unumdorligini oshirish jamiyat uchun juda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki mehnat unumdorligini o'stirish orqali iqtisodiy mo'l-ko'llik, farovonlik, ijtimoiy barqarorlikka erishish mumkin. Mehnat unumdorligi alohida iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Mehnat unumdorligini o'sishiga bir qator omillar ta'sir qiladi. Ana shu omillarning eng muhimi, bizningcha, jamiyatda unumli mehnatni taqdirlash, rag'batlantirish, ishlash uchun yaxshi qulay sharoitlar yaratib berishdir. Bozor iqtisodiyoti xuddi ana shunday muhitni yaratadi, har bir ishlovchi iqtisodiy-ijtimoiy hayoti uning unumdorligiga bog'liq qilib qo'yiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishchi kuchining sifat ko'rsatkichlaridan biri, bu uning tadbirkorlik qobiliyati hisoblanadi. Bu alohida, o'ziga xos sifat jihati ishchining ishlab chiqarishdagi tashabbuskorligi, izlanuvchanligi, innovatsion fikrlashi, yangilik yaratishi, o'z ishiga fidoyi bo'lishi, kezi kelganda tavakkalchilik qilishi kabilarda ifodalanadi. Ishchi kuchining bu sifatleri ishlab chiqarishning boshqa barcha omillaridan samarali foydalanish imkonini beradi.

Shuning uchun tadbirkorlik qobiliyatiga ega ishchi kuchlarini yetishtirishning davlat va boshqa barcha iqtisodiy subyektlar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, e'zozlanishi, rag'batlantirilishi muhim hisoblanadi.

### **14.3. Aholi o'sishining ishchi kuchi taklifiga ta'siri**

Yuqorida keltirgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston aholisi bir yilning o'zida 1,7 % ga o'sgan. Aholining bunday o'sishi ishchi kuchining mehnat bozoridagi taklifining ham tez o'sib borayotganligini bildiradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishchi kuchini taqsimlash, qayta taqsimlash va ulardan foydalanish mehnat bozori orqali amalga oshiriladi.

Ishchi kuchlaridan foydalanish, eng avvalo, ularning ish bilan to'la hamda samarali band bo'lishiga bog'liq. Odatda, hech qaysi mamlakatda ishchi kuchlarining mutlaq to'liq va samarali band bo'lishini ta'minlab bo'lmaydi. Chunki mamlakatdagi mehnatga layoqatli barcha kishilar, davlat va jamoat korxonalarida ishlab chiqarishga jalb etilgan bo'lishi shart emas. Ish bilan to'la bandlik umumlashgan ma'noda aytiladi. Ularning bir qismi, ko'pincha, o'z oilasida bolalar tarbiyasi, shuningdek, xususiy korxonalar va shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida mehnat qilishi, yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin. Shuning uchun ular ish bilan band deb hisoblanadilar.

Har bir mamlakat iqtisodiyoti uchun ishsizlikning ma'lum darajasi me'yordagi hol hisoblanadi. Chunki ayrim mehnatga layoqatli odamlar o'z ixtiyorlari bilan ham ishlamasliklari mumkin, ular mulkiy yoki boshqa daromadlar hisobiga yashaydilar.

Iqtisodiy adabiyotlarda ish bilan to'la bandlik, mehnat resurslaridan oqilona, samarali foydalanish kabi tushunchalar qo'llaniladi. Mehnat resurslaridan samarali foydalanishning birinchi va muhim ko'rsatkichi to'la bandlikni ta'minlashni nazarda tutadi. Bunga erishish esa, eng avvalo, ish joylari bilan mavjud mehnat resurslarining miqdor va sifat jihatdan muvozanatlashgan bo'lishini ta'minlash zarur bo'ladi. Bu, o'z navbatida, ishlab chiqarish hajmini o'stirish, yangi ish joylarini yaratishni, ish bilan bandlikning oqilona darajada bo'lishini hisobga olgan holda shart-sharoitlar bilan ta'minlashni talab etadi.

Hozirgi zamon iqtisodiyoti texnik, texnologik o'zgarishlar, globallashtirish jarayonlarining jadallashtirish va ishlab chiqarishning intensivlashuvi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun ishchi kuchlarining o'rniga dasturlashtirilgan boshqaruv asosiga qo'yilgan texnik vositalar qo'llanilishi natijasida ishda band bo'lgan ishchi-

lar bo'shatilib, ishsizlar sonining ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Shu munosabat bilan ishchi kuchlarini qayta taqsimlash, qayta o'qitish va kasb tanlash tizimini yanada takomillashtirib borishni va shu orqali ishchi kuchlarini ishga joylashtirishni samarali amalga oshirish talab etilmoqda. Bozor iqtisodiyoti mehnat resurslaridan samarali foydalanishga sharoit yaratadi, ularni kam samarali sohalardan bo'shatib, yuqori samarali tarmoqlar va korxonalariga qayta taqsimlash mexanizmini doimo takomillashtirib borishni taqozo etadi.

#### **14.4. Ishchi kuchiga talab va taklif. Ishsizlikning mazmuni, kelib chiqish sabablari**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida, xuddi tovar va xizmatlar bozorida bo'lgani kabi, mehnat bozorida ham ishchi kuchiga talab bilan taklif o'rtasida mutanosiblik bo'lmasa, ishsizlik kelib chiqadi. Ishsizlik deganda aholining mehnatga layoqatli bo'lgan, ishlashni xohlasa ham ish topa olmagan qismi tushuniladi. Odatda, barcha mamlakatlarda mehnat yoshidagi, ya'ni 16—59 yoshdagi erkaklar va 16—55 yoshdagi ayollar ma'lum bir qismining ishlashga bo'lgan talabi qondirilmaydi va ular o'z mamlakatlarida ishga joylasha olmaydilar, natijada ishsiz qoladilar. Aholining mehnatga layoqatli bo'lmagan yoshlar, keksalar, nogironlar ishsiz deyilmaydi. Shuningdek, mehnatga layoqatli bo'la turib o'z xohishi bilan ishlamayotgan kishilar ham ishsizlar qatoriga qo'shilmaydi. Deyarli barcha mamlakatlar mehnat qonunchiligida ishsiz deb, mehnatga layoqatli bo'lib ish topa olmay, mehnat birjalarida ro'yxatda turgan kishilarga aytiladi.

Ishsizlikning asosiy sababi, bozorda ishchi kuchiga talabning o'zgarib turishi hisoblanadi. Talabning o'zgarishi esa hozirgi vaqtda fan va texnika hamda texnologiyalarning taraqqiyoti bilan bog'liq. Ishlab chiqarishda ulardan foydalanish, mehnat unumdorligini hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, ko'proq va sifatli mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlamoqda. Bu esa, o'z navbatida, ishchi kuchiga bo'lgan talabni qisqartiryapti.

Ishsizlikning sabablaridan yana biri ishchi kuchiga talabning mavsumiy o'zgarishi bo'lib, bu holat ko'proq qishloq xo'jaligida, ayniqsa, qurg'oqchilik fasllarida sodir bo'ladi.

Bozor tizimida normal darajadagi ishsizlik iqtisodiyot uchun tabiiy hol hisoblanadi. Chunki iqtisodiyot holati tez-tez o'zgarib turadi. Iqtisodiyot rivojlanganda ishchi kuchiga talab ortadi va bu talab ishsizlar hisobidan qondiriladi. Iqtisodiyotda rivojlanish pasayganda ishsizlar soni ko'payadi.

#### 14.5. Ishsizlik turlari va ularning farqlari

Ishsizlikning asosiy turlari quyidagilar: friksion ishsizlik, ayrimlar uni *tarkibiy ishsizlik* deb ham aytadilar. Chunki ma'lum vaqt o'tishi bilan bozorda iste'mol talabi va texnologiya tarkibida o'zgarishlar sodir bo'lib turadi, ishlab chiqarishning yangi tarmoqlari rivojlanib, eski sohalar qisqaradi, bu esa, o'z navbatida, ishchi kuchiga va uning tarkibiga bo'lgan talabning o'zgarishiga ham olib keladi. Bunday o'zgarish natijasida kasblarning ayrim turlariga talab kamayadi yoki ayrim boshqa yangi kasblarga talab ortadi.

Ishchilar bunga mos ravishda o'z kasblarini tez o'zgartira olmasliklari yoki moslasha olmasliklari tufayli ish joylarining yangi tarkibiga to'liq javob bermasligi sababli tarkibiy ishsizlik kelib chiqadi. Bu ishsizlik vaqtinchalik ishsizlik deb yuritilib, u ishchilarning ish joyini almashtirish paytida yuz beradi, eski ishdan ketib, yangi ishga joylashgunlaricha davom etadi. Shunday qilib, friksion va tarkibiy ishsizlik bozor iqtisodiyoti sharoitida ishsizlikning obyektiv muqarrar ravishda bo'lishini bildiradi.

*Mavsumiy ishsizlik.* Ishsizlikning bu turi ko'proq qishloq xo'jaligi, qurilish va turizm, dam olish, kurort sohalarida xizmat qiluvchilarda bo'ladi. Bu ishlarda band bo'lganlarning mavsum tugagach ishsiz qolishiga aytiladi.

*Yashirin ishsizlik.* Bunda ishchilar rasman ish bilan band bo'ladilar, lekin ular qisman ishlashi, ya'ni to'liq ishlamay, qisqartirilgan ish kuni yoki qisqa ish haftasida ishlaydilar xolos, shuning uchun ularni yashirin ishsizlar deyiladi.

*Siklik ishsizlik.* Bu ishsizlik iqtisodiyotda sodir bo'lib turadigan siklning inqiroz fazasi bilan bog'liq kelib chiqadi. Ishsizlikning bu turi majburiy ishsizlik hisoblanadi va siklning yuksalish fazasida iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida ish bilan bandlik ortadi va u yo'qolib ketadi.

*Ixtiyoriy ishsizlik.* Bunda ayrim mehnatga layoqatli kishilar o'z ixtiyorlari bilan ishlamaydilar. Ularning mulkiy yoki boshqa daromadlari bo'lib, shuning hisobiga yashashlari mumkin.

*Texnologik ishsizlik.* Ishlab chiqarishda yangi texnologiyalar ishlatilishi natijasida kelib chiqadi.

*Hududiy ishsizlik.* Bu ishsizlik ko'proq hududlarning demografik, tarixiy, milliy-madaniy va ijtimoiy-psixologik kabi xususiyatlaridagi farqlar bilan bog'liq kelib chiqadi.

*Turg'un ishsizlik.* Aholining o'z ish joyini yo'qotgan, mehnatga layoqatlilarning bir qismini tashkil qilib, ishsizlik bo'yicha nafaqa

olish huquqidan mahrum bo'lgan va faol mehnat qilishga hech qanday qiziqishi bo'lmaganlardan iborat.

*Umumiy ishsizlik.* Bu holat, odatda, iqtisodiy tanglik sharoitida yuz beradi. Bozorlarda tovarlar va xizmatlarga talab juda kamayib ketadi, natijada ularni ishlab chiqaruvchilar mehnatiga talab qisqaradi, bu umumiy ishsizlikka olib keladi.

Iqtisodiyot nazariyasi ishsizlik darajasini o'rganishga alohida e'tibor bilan qaraydi, chunki ishsizlik darajasining o'ta yuqori bo'lishi mamlakatning ijtimoiy barqarorligiga salbiy ta'sir etadi. Mamlakatda ishga layoqatli kishilarning ishsizlik darajasi quyidagi formula bilan aniqlanadi — ishsizlik darajasi ishsizlar sonining ishchi kuchi umumiy soniga nisbatining foizidagi ifodasidir:

$$Id = \frac{Is}{Ml} \cdot 100,$$

bu yerda,  $Id$ —ishsizlik darajasi;  $Is$ —ishsizlar soni;  $Ml$ —mehnatga layoqatli aholi soni.

Ishsizlikning muddat ko'rsatkichi ham mavjud bo'lib, u ishsizlikning davomiyligini bildiradi. Bu jihatdan qisqa muddatli va uzoq muddatli ishsizlik bor. Ularning nisbati har bir mamlakatning iqtisodiy holatiga bog'liq bo'ladi. Iqtisodiyot rivojlangan davrlarda ish bilan to'la bandlikka erishiladi. Lekin bu mamlakatdagi barcha ishchi kuchlari yuz foiz ish bilan band bo'lganini bildirmaydi. Odatda, ko'p mamlakatlarda hozirgi vaqtda mehnatga layoqatli aholining 95 % i ish bilan band bo'lsa, u to'liq bandlik deb hisoblanmoqda.

#### **14.6. Ishsizlikning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari. Ouken qonuni**

Ishsizlikning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari mavjud bo'lib, uning ham ijobiy va salbiy oqibatlarini ko'rib chiqamiz. Uning ijobiy oqibati shundaki, ishsiz bo'lib qolish xavfi kishilarni yaxshi ishlashga, mehnat intizomini buzmaslikka, mehnat unumdorligini oshirishga, ish sifatini yaxshilashga, o'z ish joyini qadrlashga undaydi. Ishsiz yurganlarni o'z ustida ishlashga, bilim va malakasini oshirishga, yangi zamonaviy kasblarni egallashga majbur qiladi. Ishsizlik ishchi kuchining harakatchanligini oshiradi. Uni erkin, mamlakat ichida va hatto mamlakatlararo ko'chib yurish orqali bo'lsa ham o'ziga ish topishga majbur qiladi. Buning natijasida ishchi kuchiga muhtoj bo'lgan korxonalar ishchi kuchiga ega



bo'ladilar. Mehnat resurslari ko'p bo'lgan ayrim hududlardan mehnat resurslari kam bo'lgan hududlarga ko'chib boradilar. Bu jarayon orqali mehnat resurslarining samarali taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi sodir bo'ladi. Bozordagi talab va taklif qonuniga binoan taqsimlanish sodir bo'ladi, bu, o'z navbatida, mamlakatning iqtisodiy o'sishiga olib keladi.

Ishsizlikning salbiy oqibatlari shundaki, mamlakatdagi mehnatga faol aholining bir qismi ishlamay, mahsulot va xizmatlarni yaratishda qatnashmaydi. Agar ishsizlik uzoq vaqt davom etadigan bo'lsa, ishsiz yurgan kishi o'z kasbiy malaka va tajribasini yo'qotadi. Ishsizlarga davlat tomonidan ishsizlik nafaqasi to'lanadi, bu, o'z navbatida, ishlayotganlar zimmasiga soliq yuki sifatida tushadi. Ishsizlarning oilaviy daromadlarining pasayib ketishi bozordagi tovar va xizmatlarga bo'lgan talabning pasayishiga olib keladi. Bu, o'z navbatida, iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ishsizlar daromadlarining pasayishi ularning noroziliklariga sabab bo'ladi. Shuning uchun davlatimiz tomonidan har yili bir millionga yaqin yangi ish joylari tashkil etish rejalashtirilgan. Ayniqsa, mamlakatimiz yoshlarini ish bilan ta'minlash bo'yicha maxsus dastur qabul qilingan bo'lib, uning bajarilishiga hukumatning ustuvor vazifalaridan biri sifatida qaralmoqda. Jumladan, kollejlarda bitiruvchilarini ish bilan ta'minlashga alohida e'tibor berilmoqda.

«Iqtisodiyot nazariyasi» fani har qanday mamlakatda ishsizlikning «tabiiy darajasi» mavjud bo'lishini va u ishchi kuchi bozorida talab va taklifning, ya'ni ish izlovchilar soni bilan bo'sh ish o'rinlari soniga teng kelganda vujudga kelishini ko'rsatib beradi. Ishsizlikning «tabiiy darajasi»ni aniqlash hozirgi vaqtda anchagina murakkab hisoblanadi. Chunki, ko'pincha, ishsizlik darajasi «tabiiy daraja»dan ortiq, ayrim hollarda undan past ham bo'lishi mumkin. Buning sababi ishchilarning belgilangan ish vaqtidan ortiqcha ishlashi va o'rindoshlik ishlarida band bo'lishi kabi holatlar bilan bog'liqdir.

Ishsizlikning tabiiy darajasining miqdoran aniq hisoblanishi shart emas, u mamlakatlarda sodir bo'ladigan tartibiy o'zgarishlar, ya'ni qonunlar qabul qilinishi oqibatida o'zgarib turishi mumkin. Agar o'tgan asrning 80—90-yillarida friksion va tarkibiy ishsizlarning muqarrar darajasi ishchi kuchining 4—5 % ini tashkil qilsa, bu normal holat deb hisoblangan. Biror mamlakatda ishchi kuchining 95—96 % i band bo'lganda, to'liq bandlilikka erishildi deyilgan. Hozirgi davrda jahon iqtisodchilari ishsizlikning «tabiiy darajasi»

8—10 % ga teng bo'lishini ham muqarrar hol deb hisoblaydilar va uni ijtimoiy xavfli emas deydilar.

Hozirgi vaqtda g'arb iqtisodiy adabiyotida ishsizlarga ish bilan band bo'lmagan va faol ish izlayotgan hamda bu haqda mehnat birjalarida ro'yxatdan o'tgan kishilar kiradi deb ko'rsatiladi. Lekin biz ishsizlar sonini hisoblashning shu usulidan foydalangan holda amalga oshiradigan bo'lsak, O'zbekistonda, ayniqsa, qishloq joylarda yashovchi aholining doimiy ish joyiga ega bo'lmagan qismi ishlashni xohlasa-da, «ishsizlar» sifatida bandlik xizmati muassasalaridan ro'yxatdan o'tmaganligini bilamiz, natijada ishsizlikning haqiqiy darajasini to'g'ri aniqlay olmaymiz. Bu pirovard natijada qo'shimcha ish joylarini tashkil qilish va ishsizlikni bartaraf etishning boshqa chora-tadbirlarini ishlab chiqishga xalaqit beradi.

O'zbekistonda ishsizlik darajasi quyidagi ma'lumotlar bilan tavsiflanadi: bandlik xizmati muassasalariga ishga joylashtirish bo'yicha 2014-yilda 5,4 ming kishi murojaat qilgan. Xuddi shu yilga mamlakatda qabul qilingan «Bandlik» dasturini bajarish doirasida 970 mingdan ortiq kishi yangi ish o'rinlariga ega bo'lishlari rejalashtirilgan.

Ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari mamlakat bo'yicha ishlab chiqarilmagan mahsulot bilan taqqoslanib baholanadi. Iqtisodiyot ishlashni xohlagan va ishlay oladigan barcha uchun yetarli miqdorda ish joylarini yaratish holatiga ega bo'lmasa, tovar ishlab chiqarish mavjud imkoniyatining bir qismi yo'qotiladi. Iqtisodiy adabiyotlarda bu yo'qotish yalpi milliy mahsulot (YMM) hajmining orqada qolishi sifatida aniqlanadi hamda u haqiqiy YMMning potensial YMMdan kam bo'lgan hajmi sifatida ko'rinadi. Ishsizlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, YMM hajmining orqada qolishi shunchalik katta bo'ladi.


Ushbu makroiqtisodiyot muammolari bilan shug'ullangan amerikalik olim Artur Ouken ishsizlik darajasi va YMM hajmining orqada qolishi o'rtasidagi nisbatini matematik tadqiq qilishi natijasida o'zining *Ouken qonuni* deb atalmish qonunini yaratgan. Ushbu qonunga ko'ra, agar ishsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan 1 % ortiq bo'lsa, YMM hajmining orqada qolishi 2,5 % ni tashkil qilishini ko'rsatadi, ya'ni 1:2,5 yoki 2:5 bo'lgan bu nisbat, ishsizlikning har qanday darajasi bilan bog'liq ravishda mahsulotning mutlaq yo'qotilish hajmini hisoblash imkonini beradi. Masalan, 2013-yil ishsizlik darajasi 5 % ga yetgan yoki ko'zda tutilgan 4 % li tabiiy darajadan 1 % yuqori bo'lgan. Bu 1 % ni

Ouken koeffitsiyenti 2,5 ga ko'paytirib, shu yili YMM hajmining orqada qolishi 8,75 % ni tashkil qilishini aniqlaymiz.

Iqtisodiyotda bundan boshqacha hollar bo'lishi mumkin. Masalan, mamlakatda ishlab chiqarishni jadallashtirish, smenali ish tashkil qilish, texnik, texnologik, innovatsion yangiliklardan foydalanish yo'li bilan milliy mahsulotning haqiqiy hajmi umumiy imkoniyati hajmidan ortib ketishi mumkin.

#### 14.7. Inflatsiya va ishsizlikning o'zaro bog'liqligi. Fillips egri chizig'i

Ishsizlik muammolari jahon iqtisodchi olimlari tomonidan doimo o'rganib boriladi. Jumladan, klassik iqtisodchilar ta'limotiga ko'ra, mamlakatda ish haqi qanchalik yuqori bo'lsa, ishchi kuchiga talab shuncha kam bo'ladi, bandlik ham shunga muvofiq ravishda past bo'ladi. Agar ish haqi past bo'lsa, ish kuchiga talab ko'p bo'lib, bandlik yuqori darajada bo'ladi deyishgan. Lekin ishsizlikning kelib chiqishi va uning sabablari to'g'risida ingliz iqtisodchi olimi Olban Fillips Buyuk Britaniya iqtisodiyotining o'tgan asr, ya'ni 1960-yiliga qadar bo'lgan yuz yillik ma'lumotlarini tahlil qilar ekan, ish haqi bilan ishchi kuchlari bandligi o'rtasida bog'lanish borligini va u teskari proporsional xarakterga ega ekanligini aniqlab beradi. Fillips egri chizig'i degan nom olgan grafik orqali u buni asoslashga harakat qilgan.



Grafikka ko'ra, nominal ish haqining o'sish sur'ati past bo'lganda ishsizlik yuqori, so'ngra ish haqining o'sishiga qarab ishsizlik pasayadi. Demak, bundan xulosa qilib aytadiki, inflatsiya sur'atini tezlashtirish evaziga ishsizlikni pasaytirish mumkin ekan. Bu bilan Fillips Angliyada ishsizlikning 2,5–3 % dan ortishi narxlar va ish haqi o'sishining keskin sekinlashuviga olib

kelishini aniqlaydi. Lekin Fillips bu egri chiziq qonuniyati doimo to'g'ri chiqmasligini ham aytib ogohlantirgan.

Keyinchalik bu yerda inflatsion jarayonda mehnat unumdorligining o'sishining notekisligi hisobga olinmaganligini aniqlashgan AQSH iqtisodchilari P. Samuelson va R. Soloular Fillips egri chizig'ini

yanada takomillashtirib, ish haqining miqdorini tovar narxlarining o'sish sur'atiga almashtirib, ishsizlik darajasi bilan narx o'sishi sur'ati o'rtasidagi bog'lanishni teskari proporsional bog'lanish tarzida ifodalab berishdi. Shundan boshlab ish haqi o'rniga tovar narxlarining o'sish sur'atini qo'yib, Fillips egri chizig'ini iqtisodiy siyosatda tatbiq etish uchun takliflar tayyorlashda qo'llaniladigan bo'ldi.

#### **14.8. Ishchi kuchini qayta taqsimlashning bozor mexanizmi. Ish bilan bandlikni ta'minlashda davlatning roli**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishchi kuchining oldi-sotdi jarayoni mehnat bozorida amalga oshiriladi. Mehnat bozoriga ishchilar ishga yollanish uchun taklif bilan, ishga oluvchilar esa ularga talab bildirib chiqadilar. Bozorda ular o'rtasida mehnat shartnomasi tuzilib, ishchi kuchining oldi-sotdi jarayoni yuz beradi. Savdolar mehnat birjalari vositachiliklari orqali amalga oshiriladi.

Ishga yollovchi va ishga yollanib ishlovchilar o'rtasidagi shartnomalarning tuzilishi va unga qo'yiladigan talablar, odatda, davlat tomonidan qabul qilingan mehnat qonunlari bilan belgilanadi. Mehnat shartnomalari, asosan, uch turga bo'linadi:

1. *Mehnat kontraktlari* — ishga yollanuvchilar va ishga yollovchilar o'rtasida yakka tartibda tuzilgan shartnoma deyiladi. Bu shartnomada ishchi tomonidan bajariladigan ishning mazmuni, ish sharoiti, ish haqi miqdori, ish haqining to'lanish tartibi, ishlovchining va ish beruvchining huquq va majburiyatlari aniq belgilangan bo'lishi shart.

2. *Jamoa bitimi* — bu korxonalar, tashkilot, firmalar, tadbirkorlar bilan ishchi-xizmatchilar jamoasi o'rtasida tuzilgan shartnoma deyiladi. Bu shartnomaga binoan har ikki tomonning huquq va majburiyatlari, ya'ni ish vaqti, mehnat intizomi, mehnat xavfsizligini ta'minlash, ishchilarning malakalarini oshirish tartiblari, ish haqi miqdori, ish haqini indeksatsiyalash, ya'ni mamlakatda narx ko'tarilib borganini hisobga olgan holda ish haqini oshirib borish kabi masalalar qayd etiladi.

3. *Bosh bitim* — ish beruvchilar va ishchi-xizmatchilarning kasaba uyushmasi bilan hukumat o'rtasidagi bitim deyiladi. Bu bitim bosh bitim deyilib, unga ko'ra, umummamlakat doirasida mehnat munosabatlarining asosiy jihatlari belgilanadi.

Mehnat bozorida ish kuchini sotuvchi bilan oluvchi o'rtasida tuziladigan shartnomaning asosida kelishilgan narx turadi va u ish haqidir.

Ish haqi darajasi bozorga bog'liq. Agar korxonalar va firmalarda ishlab chiqarilgan tovarlar bozorda yaxshi sotilsa, ish haqi oshadi yoki aksincha. Ish haqining oshishi bozorda ishchi kuchining taklifini oshiradi. Ishchi kuchi tomonidan yaratilgan tovar yaxshi sotilsa, ishchi kuchiga bo'lgan talab ham oshadi. Chunki ishchi kuchiga talab u keltirgan foydaga bog'liq va doimo o'zgarib turadi.

Yuqorida aytganimizdek, ishchi kuchiga talab boshqa shart-sharoit o'zgarishiga, talab qonuniga ko'ra, ish haqiga bog'liq. Ish haqi yuqori bo'lsa, ishchi kuchiga talab qisqaradi, agar u past bo'lsa, aksincha, talab ortadi. Lekin mehnat bozoridagi taklif ham narxga nisbatan elastik bo'ladi, ish haqi oshsa, ishchi kuchi taklifi ko'payadi, kamaysa, taklif qisqaradi. Ammo ishchi kuchining taklifi shu odamning nimani afzal ko'rishiga ham bog'liq. Turmush darajasi past bo'lib, moddiy muhtojlik sharoitida ko'p ishlab, ko'p pul topishga intilish ustunlik qiladi.

Moddiy to'kinchilik va yuqori turmush darajasi muhayyo sharoitlarda oz ishlab yaxshi yashash mumkin bo'lganidan, qo'shimcha pul topishga nisbatan dam olish afzal ko'riladi. Natijada ish vaqti qisqarib, bo'sh vaqt ko'payishi mumkin. Demak, odamning nimani afzal ko'rishiga qarab mehnat bozorida taklifi o'zgaradi. Bu mehnat bozorida talab-taklif o'yini deb aytiladi. Bozorda talab va taklif tenglashganda muvozanat hosil bo'ladi. Bu muvozanat ma'lum ish haqi miqdori darajasida paydo bo'ladi.

Talab va taklif muvozanatiga ish haqidagi tashqari boshqa omillar ta'sir etadi. Texnik-texnologik taraqqiyot mehnat unumdorligini oshirib, ish kuchiga talabni qisqartiradi. Iqtisodiy turg'unlik yoki tanglik yuz berganda ish o'rinlari qisqaradi, mehnatga talab kamayadi. Yangi texnologiyaning joriy etilishi malakali ish kuchiga talabni oshirib yuboradi. Ishlab chiqarish tarkibi o'zgarsa, kasblarga bo'lgan talab nisbatlari ham o'zgaradi. Masalan, qishloq xo'jaligi ishchilariga talab qisqargan holda, sanoatda, qurilish va xizmat ko'rsatish sohasidagi yangi kasblarga talab oshadi.

#### *Ishchi kuchlarining to'la va samarali bandlik muammolari*

Ishchi kuchlarini takror ishlab chiqarish va ulardan samarali foydalanish to'g'risidagi nazariyalarda «to'liq bandlik» tushunchasi iqtisodiyotda ishsizlikning mutlaq mavjud bo'lmashini bildirmaydi deb aytiladi — bu to'g'ri, albatta. Chunki biz yuqorida friksion va tarkibiy ishsizlikning sabablarini ko'rib chiqqanimizda, uning ishlab chiqarishdagi tarkibiy o'zgarishlar bilan bog'liq holda kelib chiqishini va uning obyektiv muqarrar hol ekanligini aytib o'tganmiz.

Shuning uchun «to'liq bandlik» deganda ishchi kuchining friksion va tarkibiy ishsizlarni hisobga olmagan holda band bo'lganlarga nisbatangina aytilishi mumkin. «To'liq bandlik» sharoitidagi ishsizlik darajasi ishsizlikning shu davr uchun «tabiiy darajasi» deb yuritiladi va u milliy iqtisodiyotning real hajmi, ya'ni salohiyatini bildiradi.

#### **14.9. O'zbekistonda demografik vaziyatning bandlikka ta'siri. Ishsizlarni ijtimoiy himoyalash**

O'zbekiston aholisining yuqori sur'atlar bilan o'sishi va o'ziga xos tarkibiga egaligi mamlakatimizning muhim demografik xususiyati hisoblanadi. Bu holat esa, o'z navbatida, respublikamizda mavjud ishchi kuchlaridan samarali foydalanish, ularning ish bilan bandligini ta'minlash kabi juda muhim muammolardan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar ushbu masalani hal etishga qaratilgan bir qator tadbirlarni o'z ichiga oladi. Bu o'rinda O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimovning Vazirlar Mahkamasida 2013-yil yakunlari va 2014-yilda mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirilishi to'g'risidagi ma'ruzasida aytilgan so'zlarini keltiramiz: «Yangi ish o'rinlari tashkil etish, bandlikni ta'minlash va aholi daromadlarini oshirish masalalari doimo e'tiborimiz markazida bo'lib qolmoqda. Ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha dasturlarning amalga oshirilishi natijasida 2013-yilda qariyb 970 ming kishi ish bilan ta'minlandi. Bu ish o'rinlarining 60,3 % dan ortig'i qishloq joylarida yaratildi. Bu borada kichik korxonalar, mikrofirmalar va yakka tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirish evaziga 480 mingdan ortiq, kasanchilikni kengaytirish hisobidan esa 210 mingdan ziyod ish o'ri tashkil etildi. O'tgan yili biz uchun eng ustuvor vazifa bo'lmish kasb-hunar kollejlarining 500 ming nafardan ortiq bitiruvchisi ish bilan ta'minlandi va aytish joizki, buning ahamiyatini baholashning o'zi qiyin. O'z xususiy ishini ochib, biznes bilan shug'ullanishga qaror qilgan kollej bitiruvchilariga 140 milliard so'mdan ziyod imtiyozli mikrokreditlar ajratildi».

Respublikamiz Prezidentining aytdanlaridan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda ishchi kuchlari bandligini ta'minlashning asosiy yo'llaridan biri kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yo'lga qo'yish bilan bog'liq. Chunki kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning

rivojlanishi, uning ommaviy tus olishi eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni, avvalo, ishchi kuchlarining ish bilan bandlik masalalarini hamda pirovard natijada esa aholi farovonligini ta'minlash imkoniyatini yaratadi. Shu bois, ushbu sohani yanada rivojlantirish respublika hukumatining doimo diqqat-e'tiborida bo'lib kelmoqda.

Bu yo'lda mamlakatimiz Prezidentining 2010-yil 12-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida qonunchilik tashabbusi doirasida taqdim etgan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi»<sup>1</sup>ning VI bobida tadbirkorlikning yangi tashkiliy-huquqiy shakli sifatida oilaviy biznesni tashkil qilish zarurligiga alohida urg'u berib o'tgan. Shu bois, O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (KBXT) subyektlariga, shu jumladan, oilaviy tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun munosib iqtisodiy, tashkiliy, huquqiy sharoitlarni yaratish, ular faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish orqali mamlakatimizda tadbirkorlikni yanada rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bunda «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi, «Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida»gi va «Raqobat to'g'risida»gi Qonunlar va boshqa huquqiy hujjatlar muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2013-yil 12-dekabrda qarori bilan tasdiqlangan «2014-yilda ish o'rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash» Dasturiga binoan, yanvar—iyun oylarida 776,2 mingta ishchi o'rinlari yaratilganligi, shundan 314,2 mingtasi kichik korxonalarda va 90,6 mingtasi yakka tartibdagi tadbirkorlik sohasidagi korxonalar bilan mehnat shartnomalari bo'yicha kooperatsiya asosida, shuningdek, hunarmandchilik va oilaviy tadbirkorlik sohasining rivojlantirilishi 181,8 ming kishi, shu jumladan, kasanachilar bilan mehnat shartnomalari asosida kooperatsiyada 45 ming kishining bandligi ta'minlanganligi ko'rsatilgan.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda mehnat resurslarining tarkibi 2012—2013-yillarda quyidagi ko'rinishga ega bo'lgan:

---

<sup>1</sup> *I.A. Karimov*. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. «O'zbekiston ovozi» gazetasi, 2010-yil 13-noyabr.

**O'zbekistonda mehnat resurslarining tarkibi**  
(ming kishi)

Ko'rsatkichlar	2012-yil	2013-yil
Iqtisodiy faol aholi	12850,1	13163,0
Bandlar, jami	12223,8	12523,3
Shu jumladan, rasmiy sektorda	7899,4	7945,8
Ulardan: iqtisodiyot tarmoqlarida (katta biznesda)	2523,1	2555,9
Kichik mikrofirmalar hamda fermer xo'jaliklarida	2401,1	2301,5
Yuridik shaxs tashkil etmagan holda yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar	735,3	804,1
Dehqon xo'jaligida	1792,1	1836,5
Shu jumladan, yirik shoxli qoramol yetishtiruvchi sifatida mehnat organlari tomonidan ro'yxatga olinganlar	1431,7	1460,4
Boshqa muassasa va tashkilotlarda	447,8	447,8
Norasmiy sektorda	3994,4	4239,2
Ulardan: bir martalik va mavsumiy ishlar bilan shug'ullanuvchilar	1553,3	1656,5
Bir martalik ishlar bilan shug'ullanuvchilar	751,1	807,6
Mavsumiy ishlar bilan shug'ullanuvchilar	802,2	848,9
Mehnat munosabatlarini rasmiylashtirmagan holda tadbirkorlarga yordamlashuvchilar	1151,1	1171,9
Belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar	1290,0	1410,8
Bozorlar va bozor hududidan tashqarida noqonuniy faoliyat ko'rsatuvchilar	582,6	656,0




Boshqa turdagi noqonuniy tadbirkorlik turlari (yo'lovchi tashish, hunarmandlik, maishiy xizmat)	707,4	754,8
Respublika hududidan tashqariga ishlagani chiqqanlar	330,1	338,3
Ishga joylashtirishga muhtoj aholi soni	626,3	639,7
Ulardan:		
ishsiz sifatida davlat ro'yxatida turganlar	6,0	5,4
Ishsiz sifatida davlat ro'yxatida turmaydigan, lekin ishlashni xohlaydiganlar	620,3	634,3
Iqtisodiy nafaol aholi	4813,0	4736,1
Shu jumladan,		
ishlab chiqarishdan ajragan holda ta'lim oluvchilar	1903,0	1858,2
Bola parvarishi bilan bandlar	1463,1	1506,7
Ixtiyoriy ravishda ishlamaydigan shaxslar	1446,9	1371,2
Jami mehnat resurslari	17663,1	17899,1
Shu jumladan,		
mehnat yoshidagi aholi soni	17550,2	17785,8
Iqtisodiyotda band bo'lgan pensiya yoshidagi va mehnat layoqati yoshidan past aholi	113,0	113,3

M a n b a : O'zbekiston Respublikasi statistik axborotnomasi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, xususiy tadbirkorlik mamlakatimizda ishchi kuchlarini ish bilan ta'minlashning asosiy yo'nalishi sifatida rivojlanib bormoqda va aholini ijtimoiy muhofaza qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

**Davlat ro'yxatidan o'tgan obyektlar soni (ming)**



Davlat statistika qo‘mitasining hisobotlariga muvofiq, 2009—2013-yillarda davlat ro‘yxatidan o‘tgan yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi subyektlar soni diagrammada keltirilgan. Shundan kelib chiqqan holda aytish kerakki, yakka tartibdagi tadbirkorlikni kengaytirish uchun mamlakatimizda keng sharoit yaratishga katta e‘tibor berilmoqda. Ayniqsa, so‘nggi yillarda qishloq joylarda xomashyoni qayta ishlash, xalq iste‘mol mollarini ishlab chiqarishni rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda.

Aholining ish bilan bandligini ta‘minlashning yana bir yo‘nalishi xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Bu sohada, ayniqsa, qishloq joylarda keng tarmoqli iqtisodiy-ijtimoiy infratuzilmani yaratish zarurligini hisobga olgan holda ishlar olib borilmoqda.

Umumiy xulosa sifatida aytish kerakki, aholining ish bilan bandligini ta‘minlash, ularni ijtimoiy muhofaza qilish masalasi ko‘p qirrali iqtisodiy-ijtimoiy va huquqiy jihatlarga egadir. Bu masalalarni hal qilishda davlat aholiga o‘z qobiliyatlarini ishga solish orqali o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun teng imkoniyatlarni yaratib berishida bozor mexanizmining barcha imkoniyatlaridan foydalanishi zarur bo‘ladi.

#### ASOSIY TAYANCH IBORALAR

- Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish;
- ishchi kuchi bandligi;
- ishsizlik;
- friksion ishsizlik;
- tarkibiy ishsizlik;
- siklik ishsizlik;
- ishsizlik darajasi;
- Ouken qonuni.



#### TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish deganda nimani tushunasiz?
2. Ishchi kuchini takror ishlab chiqarishning o‘ziga xos xususiyatlari nimada?
3. Ishchi kuchining sifati nima? U qanday omillarga bog‘liq?
4. Ish bilan to‘la bandlik nima uchun nisbiy ma‘noda tushuniladi?
5. Ishsizlik darajasi qanday hisoblanadi?
6. Mehnat bozorining qanday xususiyatlari bor?
7. Mehnat shartnomalarining qanday turlari bor?
8. Ishchi kuchiga talab va taklifga qanday omillar ta‘sir ko‘rsatadi?
9. Ishsizlik sabablari nima?
10. Qonunchilikka ko‘ra ishsiz deb kimlarga aytiladi?
11. Fillips egri chizig‘ini tushuntirib bering.
12. O‘zbekistonda demografik holatning o‘ziga xos jihatlari aytib bering.

---

## 15-bob. MOLIYA TIZIMI

### 15.1. Moliya munosabatlarining mohiyati va vazifalari

Moliya o'z mohiyatiga ko'ra, iqtisodiy kategoriya bo'lib, boshqa iqtisodiy kategoriyalar (pul, foyda, narx, tannarx, qiymat, kredit va h.k.) kabi jamiyatdagi muayyan iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar, ya'ni mehnat mezoni, iste'mol me'yori, ishlab chiqarishni rag'batlantirish, milliy daromadni taqsimlash va qaytadan taqsimlash kabi munosabatlarining mohiyatini ifodalaydi. Bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida moliya kategoriyasining ahamiyati kuchaya borib, ijtimoiy ishlab chiqarishni boshqarishning asosiy mexanizmiga aylanadi.

Moliyaning mavjudligi, eng avvalo, jamiyatda tovar va pul munosabatlarining amal qilishi bilan bog'liq. Moliya munosabatlarining rivojlanishi jamiyatdagi mehnat taqsimoti, mulkchilik shakllari, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining iqtisodiy jihatdan alohidaligi, tashkiliy-huquqiy jihatdan mustaqilligi kabi masalalar bilan bog'liq. Lekin moliya iqtisodiy kategoriya sifatida pul-moliya munosabatlarining barcha tomonlarini o'z ichiga to'la qamrab ololmaydi.

Moliya jamiyatda pul resurslari (fondlari)ni hosil qilish, taqsimlash va foydalanish-ishlatish yuzasidan vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni o'zida ifodalaydi. Chunki har qanday iqtisodiy faoliyat mablag', pul talab qiladi. Ishlab chiqarish mahsuloti va xizmatlar, odatda, taqsimlanganda yoki sotilganda qiymat shaklida namoyon bo'ladi. Natijada dastlab turli maqsadlarga mo'ljallangan pul resurslari hosil bo'ladi, ular tovarlarga ayirboshlanib, shundan so'ng iste'mol qilinadi.

«Moliya» so'zi lotincha «*finis*» so'zidan olingan bo'lib, «tugadi», «oxirgi», «finish», «yakunlash» kabi ma'nolarni bildiradi. Tarixan bu so'z xalq bilan davlat o'rtasidagi pul to'lovlarining tugallanganligini, hisob-kitoblarning oxiriga yetkazilganini bildiruvchi tushuncha sifatida kelib chiqqan. Davlatga o'z badallarini, o'z daromadlaridan davlat hissasini bergan shaxslar «finis» degan hujjat olishgan. Keyinchalik bu so'z Yevropa mamlakatlarida «*financia*» — davlat daromadlari hamda xarajatlarining umumiy ma'nosini anglatadigan

tushunchaga aylandi. Shunday qilib, moliya munosabatlari vujudga kelib chiqdi.

Ayrimlar moliya munosabatlari deganda pul munosabatlarini tushunadi, bu to'la ma'noda to'g'ri emas. Pul munosabatlari moliya munosabatlariga nisbatan ancha keng ma'noni anglatadi. Bino-barin, moliyaviy munosabatlar pul munosabatlarining bir qisminigina tashkil etadi. Ya'ni bunga shunday izoh berish mumkinki, biz pulni kundalik ehtiyoj tovarlari sotib olganimizda yoki transportga tushganimizda ularga pul to'laymiz yoki pul munosabatlariga kirishamiz, ammo buni moliyaviy munosabatlar deya olmaymiz. Chunki moliyaviy munosabatlar deganda pulning davlat budjeti, sug'urta fondlari, davlatning valuta zaxiralari, korxonalar va firmalar pul fondlarining tashkil etilishi va ishlatilishi kabilar bilan bog'liq bo'lgan pul munosabatlari tushuniladi.

Har qanday munosabat kabi moliya o'z subyektini va obyektiga ega. Moliyaviy resurslarni shakllantirish va foydalanishda ishtirok etuvchilar moliya munosabatlarining subyektini tashkil etadi. Ularga korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, fuqarolar, tadbirkorlar, davlatning o'zi, boshqa jismoniy va yuridik shaxslar kiradi. Moliya munosabatlarining obyektini pul fondlari va boshqa moliyaviy resurslardir.

Iqtisodiyot nazariyasi moliyaning ikki turda bo'lishini ko'rsatadi.

*Mikromoliya.* Bu — iqtisodiyotning asosini, boshlang'ich zveno-sini tashkil qiluvchi, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi korxonalar, firmalar, tashkilotlar, xonadon xo'jaligi kabilarning moliyasidir. Bu moliyaviy resurslar ularning topgan daromadlari va boshqalardan olgan qarzlardan tashkil topadi.

*Makromoliya.* Bu ma'lum bir mamlakatning umummilliy, umumxalq manfaatlarini o'zida mujassamlashtirgan davlat moliyaviy mablag'i instituti hisoblanadi va u davlat budjeti sifatida namoyon bo'ladi.

## **15.2. Moliya, uning funktsiya va vazifalari**

Moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati uning funksiyalari va vazifalari orqali namoyon bo'ladi. Moliya qiymatni taqsimlash orqali pul fondlarini hosil qilish va ularni ishlatishni bildirar ekan, shunga ko'ra, u taqsimlash va nazorat qilish kabi funksiyalariga ega hamda rag'batlantirish, ijtimoiy himoya va iqtisodiy axborot berish vazifalarini bajaradi.

*A) Taqsimlash funksiyasi.* Bu funktsiya bilan moliya ijtimoiy ishlab chiqarishning samarali va mutanosib rivojlanishi, jamiyat

ehtiyojlarini to'liq qondirish maqsadida turli tarmoqlarning jamiyat talablariga mos ravishda rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Moliya orqali milliy daromadning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi, pul jamg'armalarining tashkil bo'lishi va uning ijtimoiy rivojlanishi, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, tabiatni muhofaza qilish, aholining sog'lig'ini saqlash, ma'rifat va madaniyatni rivojlantirish, mehnatga yaroqsiz va ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni ta'minlash, mamlakat mudofaasini zarur darajada saqlab turish kabi muhim ishlar amalga oshiriladi.

Taqsimlash ikki darajada amalga oshiriladi:

- birlamchi taqsimlash mikroiqtisodiy darajada, ya'ni firma, korxonalar, tashkilot, muassasalar ichida yuz beradi;
- ikkilamchi taqsimlash firma, tashkilot, korxonalar, muassasalar bilan davlat o'rtasida yuz beradi.

Birlamchi taqsimlashda birlamchi daromadlar foyda, amortizatsiya fondi, ish haqi fondi, ijtimoiy sug'urta ajratmalari vujudga keladi. Masalan, ishlab chiqarishda 100 mlrd so'mlik mahsulot yaratilsa, uning 60 mlrd so'mi amortizatsiya fondiga, 20 mlrd so'mi ish haqi fondiga, 15 mlrd so'mi foydaga va 5 mlrd so'mi ijtimoiy sug'urtaga ajratiladi. Amortizatsiya fondi ishlab chiqarishni qayta tiklashga ketadi. Hech qachon u ish haqi sifatida berilmaydi yoki sug'urta uchun sarflanmaydi. Shuningdek, amortizatsiya vazifasini ish haqi fondi bajara olmaydi.

Ikkilamchi taqsimlashda davlat soliqlar va soliqdan tashqari majburiy to'lovlar orqali korxonalar mablag'ining bir qismini o'z ixtiyoriga olib, uni umumjamiyat va davlat ehtiyojlarini qondirish uchun qayta taqsimlaydi. Bunda moliyaning o'zagi bo'lmish budjet asosiy rol o'ynaydi. Avvalgi misolimizga qaytsak, birlamchi taqsimlash tufayli hosil bo'lgan 20 mlrd so'mlik ish haqi fondining 5 mlrd so'mi daromad solig'i shaklida, 15 mlrd so'mdan iborat qolgan 4 mlrd so'mi turli to'lovlar shaklida davlatga tegadi. Davlat o'ziga tekkan 11 mlrd so'mni budjet orqali qayta taqsimlab, uning 5 mlrd so'mini ijtimoiy himoyaga, 5 mlrd so'mini mudofaaga va 1 mlrd so'mini boshqaruv xarajatlariga ajratadi.

*B) Nazorat funksiyasi.* Moliyaning ushbu funksiyasi bozor iqtisodiyoti amal qilishining muhim iqtisodiy ta'sir usuli sanaladi. Bu orqali mamlakatdagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyatlari hamda ular tomonidan soliqlar, yig'imlar va boshqa to'lovlarning amaldagi qonunlar asosida to'g'ri to'lanishi, tashkil

etilgan fondlar mablag'larining belgilangan aniq maqsad bo'yicha ishlatilishining nazorati ta'minlanishiga xizmat qiladi.

Moliya quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

1. *Rag'batlantirish vazifasi.* Bunda moliyaviy vositalar bo'lgan soliq, subsidiya, subvensiya kabilar bilan iqtisodiy faoliyat qo'llab-quvvatlanadi. Soliqlar kamaytirilsa, firmaning xarajati qisqarib, uning foydasi ortadi. Natijada korxonada foydani ishlab chiqarishni rivojlantirishga sarflash imkoniyati paydo bo'ladi. Boj pulini kamaytirish orqali eksport rag'batlantiriladi. Kerak bo'lganda zararni qoplash uchun subsidiya berish korxonani moliyaviy sog'lomlashtirish vositasi bo'ladi. Davlat tomonidan korxonaga va tashkilotlarga moliyaviy ko'mak berish orqali ularning ishi rag'batlantiriladi.

2. *Ijtimoiy himoyalash vazifasi.* Ushbu vazifani bajarish ikki yo'nalishda amalga oshiriladi:


- aholiga bepul va imtiyozli xizmat ko'rsatuvchi sohalar bo'lgan xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport kabi sohalarni moliyalashga sarflaydi. Chunki bu sohalar g'oyat serxarajat sohalar bo'lib, bevosita yuqori foyda olish imkonini bermaydi. Shuning uchun shu sohalarni boshqarishni davlat o'z zimmasiga oladi va ularning faoliyatini moliyalash uchun mablag'larni budjetdan yoki budjetdan tashqari maqsadli fondlardan ajratadi;

- aholining nochor va yordamga muhtoj qatlamlariga pul bilan ko'mak berishga ishlatiladi. Jamiyatda shunday nochor ijtimoiy qatamlar borki, ular o'z daromadlari bilan o'zlarini to'la ta'minlay olmaydi. Shuning uchun ularning tirikchiligi maxsus tashkil etilgan pul mablag'lari hisobidan qoplanadi. Masalan, ishsizlar uchun ishsizlik nafaqasi, ko'p bolali oilalar uchun bolalar nafaqasi, nogironlar uchun esa nogironlik nafaqasi davlat budjeti yoki budjetdan tashqari maqsadli fondlar tomonidan to'lanadi.

3. *Iqtisodiy axborot berish vazifasi.* Moliyada iqtisodiy faoliyatning yakuni jamlanadi va bu moliyaviy ko'rsatkichlar shaklini oladi, ularga foyda, rentabellik, korxonaga likvidligi, uning pul mablag'lari va qarzining miqdori kabilar kiradi. Shularga qarab firmaning moliyaviy ahvoriga baho beriladi. Moliyaviy ahvol haqida axborotning ikki manbayi mavjud:

a) korxonaga va firmaning o'zi e'lon qiladigan moliyaviy ko'rsatkichlar;

b) auditorlik xizmati korxonaga va firmaning moliyaviy ahvoli to'g'risida bergan xolisona axboroti. Moliya va uning vazifalarini chizma tarzida ifodalaymiz:



### 15.3. Moliya tizimi va uning bo'g'inlari tavsifi

Moliya bozorlari va ularga xizmat ko'rsatadigan moliya muassasalari mamlakatning moliya tizimini tashkil etadi. Moliya tizimi quyidagilardan tashkil topadi:

1. *Umumdavlat moliyasi* — moliya tizimida asosiy o'rinni egallab, davlat budjeti deyiladi va u, o'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat budjeti, viloyatlar va mahalliy budjetlar (mahalliy moliya deb yuritiladi) hamda budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar, ma'muriy-hududiy bo'linmalarning pul jamg'armalari hamda umumdavlat markazlashtirilgan pul jamg'armalaridan iborat bo'ladi. Bu jamg'armalar umumdavlat, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy reja va dasturlarni amalga oshirish, davlat harbiy mudofaasini ta'minlash kabi ehtiyojlarni qondirishga sarflanadi, shu bilan birga joylarda o'zini o'zi boshqarish ishlarini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Budjet tizimining mablag'lari, asosan, yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar hisobiga to'planadi. Budjet tizimi mablag'larining shakllantirilishida davlat hamda bank krediti va boshqa manbalardan foydalaniladi.

Ma'lumki, umumjamiyat ehtiyojlari davlatning moliyaviy faoliyatini keltirib chiqaradi. Davlat moliyasining asosini davlat budjeti tashkil qiladi va u orqali ekologiyani asrash, ijtimoiy tartibni saqlash, mudofaa, ijtimoiy himoya kabilarning ehtiyojlari qondiriladi. Ayni chog'da O'zbekiston moliya tizimining hozirgi bosqichdagi faoliyati va rivojlanishi ko'proq chet el tajribasi asosida olib borilmoqda.

Hozirgi paytda ko'plab budjetdan tashqari turli maqsadli jamg'armalar tashkil etilmoqda. Avval davlat monopoliyasi sanalib kelingan bank, sug'urta, qimmatli qog'ozlar muomalasiga oid sohalarda nodavlat, tijoratchi xo'jalik subyektlari keng ishtirok eta boshlaganligi bois, moliya bozori shakllanib, rivojlanib bormoqda.

Moliya tizimining har bir bo'g'ini moliya munosabatlarining muayyan tamoyillarini ifodalab, ular yordamida jamiyatning ma'lum ehtiyojlarini qondirish uchun pul jamg'armalarini tashkil etadi. Bu jamg'armalar markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan turlarda bo'ladi.

*Markazlashtirilgan jamg'armalar* — respublika, viloyatlar, tumanlar jamg'armalaridan iborat bo'lib, ular faqat shu hududlarning ehtiyojlari uchun foydalaniladi.

*Markazlashtirilmagan jamg'armalar* — korxonalar va tashkilotlar pul jamg'armalari bo'lib, ular ishlab chiqarish va boshqa ijtimoiy maqsadlarda ishlatiladi.

*Budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar* — bu jamg'armalar O'zbekiston moliya tizimida nisbatan yangi tizim hisoblanib, u markazlashtirilgan, hududiy va boshqa darajadagi moliyaviy bo'g'in bo'lib, asosan, 1991-yildan boshlab shakllana boshladi. Bu jamg'armalar: Pensiya jamg'armasi, Bandlik jamg'armalari va shunga o'xshash jamg'armalardan iborat. Bu jamg'armalar asosan jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan beriladigan majburiy to'lovlardan hamda turli badallardan tashkil topadi. Umuman, budjetdan tashqari jamg'armalar davlatning moliyaviy zaxiralarini ko'paytirish va ulardan samarali hamda maqsadga muvofiq foydalanishga xizmat qilishi kerak. Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasi moliya tizimi mamlakatning hozirgi davrdagi iqtisodiy-siyosiy shart-sharoitlariga mos keladigan bozor iqtisodiyoti munosabatlari asosida shakllanmoqda va rivojlanmoqda.

*2. Korxonalar moliyasi.* Bu korxonalar, firmalar, kompaniya, tadbirkorlar, tashkilotlar, birlashmalar, muassasalar va xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlari moliyasi ma'nosida ishlatiladi. Moliya



tizimining asosi, boshlang'ich bo'g'ini hisoblanadi. Chunki u moddiy ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'lib, ishlab chiqarish jarayonida milliy daromad vujudga keladi, so'ngra moliya tizimi orqali taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi. Korxonalar moliyasining moddiy ifodasi deganda, har bir korxonadan o'zining iqtisodiy rivojlanishi, xodimlarining ijtimoiy ehtiyojlari va boshqa turli zaruratlar uchun maxsus pul jamg'armalari tushuniladi.

3. *Xonadon moliyasi*. Ayrim adabiyotlarda uy xo'jaligi moliyasi deb ham aytiladi. Xonadon moliyasi oila a'zolarining daromadlaridan tashkil topadi. Bu daromadlar: ish haqi, pensiya, stipendiya, dividend, foiz, turli nafaqalar, mulkdan kelgan daromadlar, tadbirkorlik daromadlari, qarz olingan pul, tomorqadan olingan daromad, individual mehnat faoliyatidan olingan daromadlardan iborat bo'ladi. Xonadon moliyasi, asosan, oilaning iste'moli uchun sarflanadi. Qolgan qismi esa oilaning jamg'armasini tashkil etadi. Iqtisodchilarning fikricha, hozirgi vaqtda dunyoning taraqqiy etgan mamlakatlarida jami daromadlarning 70 % miqyosidagi moliyaviy resurslar oilalar qo'lidan o'tib aylanadi.

4. *Mulkiy va shaxsiy sug'urta* — odatda, sug'urta jamg'armalari jismoniy hamda yuridik shaxslarning turli tabiiy ofatlardan ko'rgan va boshqa noxush sabablar tufayli kelib chiqqan zararlarini qoplash maqsadida tashkil etiladi. Bu jamg'armalarning asosiy manbalari yuridik va jismoniy shaxslardan tushgan badallar hamda ayrim nazarda tutilgan hollarda davlat budjeti mablag'lari hisoblanadi.

Iqtisodiy islohotlar tufayli hozirda O'zbekiston Respublikasida davlat sug'urta bosh boshqarmasi «O'zagrosug'urta» davlat hissdorlik kompaniyasi tugatildi. Endilikda sug'urta tadbirkorlik shaklidagi faoliyat bo'lib qolmoqda. Bu bilan sug'urta bo'yicha davlat monopoliyasiga barham berildi va mamlakatimizda o'nlab xususiy sug'urta kompaniyalari tashkil topdi.

5. *Kredit*. Davlat va bank kreditlari shaklida bo'ladi.

*Davlat krediti* — bu yuridik va jismoniy shaxslar mablag'larining davlat tomonidan vaqtincha ishlatib turilishidir. Bunday hollarda, ko'pincha, davlat ichki qarzlari vujudga keladi. Ko'p holatlarda davlat aholining banklarga qo'yilmalaridan ham foydalanadi. Davlat krediti boshqa shakllarda bo'lishi mumkin. Bu, ayniqsa, hozirgi davrda juda keng tarqalgan iqtisodiy hodisa bo'lib qoldi.

*Bank krediti* — aholining, yuridik va jismoniy shaxslarning bo'sh turgan mablag'laridan shakllantiriladi va ma'lum foizlar bilan qaytarib berish tamoyili asosida ishlatiladi.

6. *Nodavlat notijorat tashkilotlar moliyasi* — ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy faoliyat bilan shug'ullanuvchilar (siyosiy partiyalar, kasaba va ijodiy uyushmalar, yoshlar, xotin-qizlar, faxriylar tashkiloti kabilar)ning mablag'lari.

7. *Maxsus maqsadli fondlar* («Umid», «Ustoz», «Mahalla», «Ekosan» jamg'armalari, Mirzo Ulug'bek nomli, Bobur nomli, «Orolni qutqarish» kabi fondlar);

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan moliya tizimi o'zining xususiyatlari bilan mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Moliya tizimining ko'p bo'g'inliligi, uning birmuncha egiluvchan va samarali harakat qilishiga imkon beradi. Moliya tizimining faoliyati naqd pul hamda naqd pulsiz to'lov va hisob-kitoblarning amalga oshirilishida namoyon bo'ladi.

Moliya tizimi mamlakat iqtisodiyoti uchun zarur bo'lgan quyidagi vazifalarni bajaradi:

1) *Jamg'arish vazifasi* — bunda moliya muassasalari tizimi aholiga, korxonalariga foizli va foizsiz omonatlar, qimmatli qog'ozlar, depozit sertifikatlar, obligatsiya va aksiyalar shaklidagi pul jamg'armalarining xilma-xil usullarini taklif qiladi. Moliya muassasalari korxonalar va uy xo'jaliklari «vaqtinchalik bo'sh turgan pullari»ning xarid qobiliyatini saqlash va ko'paytirish majburiyatini oladi.

2) *Kreditlash vazifasi* — bu moliya tizimining faol vazifasi bo'lib, u jamg'arish vazifasi bilan chambarchas bog'lanib ketgan, chunki moliya muassasalarining, xususan, banklarning kredit berish salohiyati mamlakat iqtisodiyotida jamg'arilayotgan moliya mablag'lari hajmiga bevosita bog'liq.

3) *To'lovlarga xizmat ko'rsatish vazifasi* — har qanday mamlakat iqtisodiyotida tovar, moliya operatsiyalari bilan bog'liq bo'lgan to'lovlar doimo va katta hajmda amalga oshiriladi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar (korxonalar) o'z xodimlariga ish haqi va mukofotlar beradi, xomashyo va tovar yetkazib beruvchilarga haq to'laydi, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash kabi ishlarni bajaradi. Bu hisob-kitoblarning barchasi turli-tuman moliya vositalari, jumladan, to'lov topshiriqnomalari, talabnomalar, akkreditivlar, cheklar, veksellar, kredit kartochkalari va hokazolar yordamida bajariladi.

4) *Iqtisodiy siyosatni shakllantirish va amalga oshirilishini ta'minlash vazifasi* — bu vazifani Moliya vazirligi, Markaziy bank, hukumat moliya tizimining pul-kredit va fiskal dastaklariga ta'sir ko'rsatib, zarur bo'lgan yo'nalishda davlat iqtisodiy siyosatini amalga oshiradi.

#### **15.4. Davlat bilan korxonalar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar**

Moliyaviy munosabatlar iqtisodiy munosabatlarning muhim tarkibiy qismi sifatida keng qamrovli munosabatlarni o'z ichiga oladi. Moliyaviy munosabatlarning kelib chiqishi, eng avvalo, davlatning mavjudligi bilan bog'liqdir. Moliyaviy munosabatlar orqali davlat ma'lum bir maqsadga, ya'ni mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan maxsus pul fondlarini vujudga keltiradi. Bu fondlar iqtisodiy rivojlanishning uzluksiz davom etishini va uning kengaytirilgan holda takrorlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Moliyaviy munosabatlar yalpi milliy mahsulotni yaratish, taqsimlash va undan foydalanish jarayonida turli xo'jalik yurituvchi subyektlar va davlatning pul mablag'lari fondini tashkil etishi bilan bog'liq ravishda vujudga keladi. Pul fondlari hosil bo'lish manbalari va amal qilish xususiyati, maqsadlari va foydalanish usullariga qarab moliyaviy munosabatlar turli shakllarda namoyon bo'ladi. Jumladan, moliyaning taqsimlash funksiyasi orqali moddiy ishlab chiqarish sohaslarida yaratilgan yalpi milliy mahsulotni, ayniqsa, uning milliy daromadni tashkil qiluvchi qismini davlat va mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar, iqtisodiyot tarmoqlari, moddiy ishlab chiqarish sohalari, mamlakat hududlari o'rtasida taqsimlash va qayta taqsimlashda namoyon bo'ladi.

Bundan milliy daromadning bir qismi korxonalar va aholi daromadlaridan turli xil soliqlar olish, renta va bojxona to'lovlari, aksiz yig'imlari kabilar orqali davlat qo'lida to'planadi. O'z qo'lida to'plangan milliy daromadning katta qismini davlat moliya vositasida aholining ijtimoiy-madaniy, ma'rifiy va boshqa ehtiyojlariga, milliy mudofaaga, atrof-muhitni muhofaza qilish kabi ishlarga sarflaydi.

#### **15.5. Moliyaning takror ishlab chiqarish, taqsimot, rag'batlantirish, nazorat qilish vazifalari**

Moliya jamiyatdagi iqtisodiy resurslarning bir ko'rinishi sifatida ishlab chiqarish va iste'molni ta'minlovchi pul mablag'lari hisoblanadi. U turli xo'jalik yurituvchi subyektlar va davlatning pul daromadlari, soliqlar va boshqa to'lovlar asosida shakllantiriladi va iqtisodiyotning kengaytirilgan miqyosda takrorlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Moliya jamiyatda yaratilgan mahsulot qiymatini taqsimlash jarayonida, pul fondlarini tashkil qilish va sarflash mexanizmi vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Shu jarayonda moliya

o'zining rag'batlantiruvchilik vazifasini amalga oshiradi. Moliya ushbu o'z funksiyalari orqali ishlab chiqarishning uzluksiz hamda kengaytirilgan holda takrorlanib turishiga, samaradorligiga, yaratilayotgan mahsulotlar, ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatiga, uning pirovard natijasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilganlardan tashqari, moliya jamiyatdagi ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol jarayonlari ustidan nazorat qilish vositasi hamdir. Moliyaviy nazorat orqali davlat va jamiyat, korxonalar, umuman, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya intizomiga rioya qilishlari, moddiy javobgar bo'lishlari, turli soliqlar va to'lovlarni o'z vaqtida to'lashlari kabi masalalarni boshqarib borishni amalga oshiradi.

#### **15.6. O'zbekistonda moliya bozorini shakllantirish jarayoni**

Bozor munosabatlari rivojlanib, uning unsurlari tobora ko'proq tatbiq etilayotgan iqtisodiyot isloh etilib, tadbirkorlar, hissadorlik jamiyatlari soni tez o'sib borayotgan, bank ishi har tomonlama rivojlanib, takomillashib kelayotgan, xalqaro aloqalar kengayib, mamlakat jahon iqtisodiyoti tizimiga faol kirib borayotgan hozirgi sharoitda moliyaviy aktivlar tobora ko'proq ahamiyat kasb etib boradi.

Iqtisodiyotda shunday sohalar bo'ladiki, ularda ma'lum paytlarda pul mablag'lari yetishmay turgani holda iqtisodiyotning boshqa ayrim sohalarida mablag'lar bo'sh turadi. Shu bilan birga mablag'larning yetishmasligi yoki ortiqcha bo'lib turishi vaqt o'tishi bilan navbatlashib boradi. Ya'ni pul mablag'lari yetishmasligidan qiynalayotgan soha yoki korxonalar muayyan vaqtdan keyin ortiqcha miqdordagi pul mablag'lariga ega bo'lib qolishi mumkin va aksincha.

Shu munosabat bilan ortiqcha pul mablag'larining egalari ana shu mablag'larga muhtoj bo'lib turganlarga uchrashtirib qo'yishga yordam bera oladigan mexanizm bo'lishi kerak. Ortiqcha pul mablag'larining egalari va shu mablag'larning iste'molchilari alohida bir bozorda — pul bozori, moliya bozorida uchrashadilar. Bu bozor juda murakkab tuzilishga va yuqori-past pog'onalarga ega bo'lgan maxsus bozor bo'lib, unda juda katta miqdordagi pullar bir vaqtning o'zida turli yo'nalishlarga o'tib boradi va o'tish harakatlari iqtisodiyotning mikrodarajadan tortib makrodarajagacha bo'lgan ahvoliga ta'sir ko'rsatadi.

Moliya bozorini o'rganishni turli tomonlardan — institutsional jihatdan, bozor subyektlaridagi investorlar va emitentlar, vositachilarning, turli moliyaviy dastaklarning turlari nuqtayi nazaridan

boshlash mumkin. Moliya bozorining eng muhim tomoni shuki, u bozor sarmoyalar safarbar etilishini rag'batlantirib, bo'sh turgan pul mablag'larini iqtisodiyotdagi turli sohalar o'rtasida qayta taqsimlashni, taqsimlanganida va rivojlanib borayotgan istiqbolli sohalar foydasiga qayta taqsimlanishini ta'minlab beradi.

Rivojlangan moliya bozori ishlab chiqarishni rivojlantirishni, umuman, iqtisodiy taraqqiyotni rag'batlantiradigan kuchli manbadir. Bo'sh turgan pul mablag'larining egasi (investor) o'zidagi pullarni daromad olish maqsadida beradi. Shunday qilib, moliya bozori rentabel korxonalariga mablag' berib turish orqali samarali, jo'shqin iqtisodiyotning shakllanib borishiga yo'l ochadi.

Moliya bozorida pul mablag'larining muomalada bo'lishi, ya'ni aylanib borish muddatlari har xil, shunga ko'ra moliya bozorini shu muddatlarning qanday bo'lishiga qarab pul bozori, sarmoyalar bozori va qimmatli qog'ozlar bozoriga bo'lib o'rganish mumkin.

*Qimmatli qog'ozlar* — bu qonunda belgilangan tartibda chiqarilgan va nominal qiymatga ega bo'lgan pulli hujjatdir. Ular mulkchilik munosabatlarini ifodalaydi va qandaydir mulk yoki pul miqdoriga egalik qilish huquqini tasdiqlaydi. Qimmatli qog'ozlar dividend yoki foizlar ko'rinishida daromad to'plashni hamda mazkur hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga berish imkoniyatini nazarda tutadi. Ular blanklar, sertifikatlar shaklida yoki schotlardagi yozuvlar ko'rinishida bo'lishi mumkin. Ulardan hisob-kitob qilishda, shuningdek, kreditlar bo'yicha garov sifatida foydalaniladi. Qimmatli qog'ozlar yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida ixtiyoriylik asosida tarqatiladi.

O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar to'g'risida»gi va «Fond birjasi to'g'risida»gi Qonunlarida ko'rsatilganidek, mamlakatimiz hududida qimmatli qog'ozlarning quyidagi turlari amal qiladi:

- aksiya — qimmatli qog'oz bo'lib, harakat muddati cheklanmagan yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan aksiyadorlik jamiyati ustav fondiga muayyan hissa qo'shgan ulushini va mazkur jamiyat mulkidagi ishtirokini guvohlovchi;
- dividend ko'rinishida foyda olish huquqini beruvchi;
- aksiyadorning shu jamiyatni boshqarish ishiga qatnasha olishini tasdiqlovchi yuridik hujjatdir.

Aksiyalarning oddiy va imtiyozli turlari mavjud.

*Oddiy aksiya* shunday aksiyaki, unga tegadigan dividend foydaga qarab har xil bo'ladi. Uning miqdori qat'iy kafolatlan-

maydi, ammo u egasiga aksiyadorlik jamiyati yig'inida ovoz berish huquqini beradi.

*Imtiyozli aksiya* shunday aksiyaki, unga tegadigan dividend foydaga qarab emas, balki zayomga to'langani kabi, oldindan belgilangan qat'iy foizlarda beriladi. Agar joriy yilda daromad tegmay qolsa, u holda uning kelajakda olinishi kafolatlanadi. Ammo imtiyozli aksiya egalari aksiyadorlar majlisida ovoz berish huquqiga ega bo'lmaydilar.

*Veksellar.* Veksellar — bu muayyan summadagi qarzni belgilangan muddatda to'lash majburiyati qat'iy yuklangan, qonun bilan tasdiqlangan holatda to'ldirib rasmiylashtirilgan qarzdorlik tilxati, qimmatli qog'ozning bir turi. U tijorat-savdo operatsiyalarida ayirboshlash va muomala vositalari o'rnida qo'llaniladigan kredit hujjatidir. Demak, veksel bu bir shaxs tomonidan ikkinchisiga yozib berilgan qarz majburiyatini ifodalovchi qimmatli qog'ozning bir turidir.

Vekselning quyidagi turlari mavjud: davlat, ya'ni xazina vekseli, oddiy veksellar, o'tkazma veksellar.

*Xazina veksellari* — bu Markaziy bank vositachiligida davlat tomonidan chiqariladigan qisqa muddatli qarz majburiyatlari bo'lib, ular kafolatlanmaydi va garov bilan ta'minlanmaydi. Odatda, bunday veksellar bir necha haftadan to bir necha oygacha (90 kundan 120 kungacha) chiqariladi.

*Oddiy veksellar* — bir tashkilotning (veksel beruvchining) boshqa bir tashkilotga (dastlabki oluvchiga) yoki uning buyrug'i bilan so'zsiz ravishda belgilangan muddatda yoki talab qilingan vaqtda ma'lum pul mablag'ini to'lash majburiyatini o'zida aks ettirgan yozma hujjatdir. Bu veksel qarzdor tomonidan to'ldiriladi.

*O'tkazma veksel* — tovar oldi-sotdisida yozilgan veksel beruvchining tovar pulining veksel qabul qilib oluvchiga (ya'ni tovar egasiga) uchinchi bir shaxs tomonidan to'lanishi lozimligini (veksel beruvchining buyrug'ini) ifodalovchi yozma hujjatdir. U qarz beruvchining qarzini qachon va kimga qaytarish haqidagi yozma buyruqdir. O'tkazma veksellar (tratta) muomalasida 3 ta tomon qatnashadi.

*Obligatsiyalar va ularning turlari.* Obligatsiya — bu o'z qiymatiga nisbatan (egasiga yutuq chiqish imkoniyati bilan) qat'iy belgilangan foiz shaklida daromad keltiruvchi qimmatli qog'ozdir. U aholi, korxonalar, tashkilot qo'lidagi pul mablag'larini to'plash, joriy yildagi budjet kamomadini qoplash, aksiyadorlik jamiyati faoliyatini moliyalashtirish uchun qo'shimcha mablag' yaratish, mijozlarning mazkur qimmatli qog'ozdan daromad olishga bo'lgan ehtiyojini qondirish kabi maqsadlarda chiqariladi.

Obligatsiyani quyidagi emitentlar muomalaga chiqarishlari mumkin:

- davlat tashkilotlari (respublika hukumati va viloyat hokimliklari);
- korxonalar, tashkilotlar va aksiyadorlik jamiyatlari.

Obligatsiyalarning quyidagi turlari mavjud:

- qisqa muddatli obligatsiyalar (amal qilish muddati 1 yilgacha);
- oʻrta muddatli obligatsiyalar (amal qilish muddati 1 yildan 5 yilgacha);
- uzoq muddatli obligatsiyalar (amal qilish muddati 5 yildan 30 yilgacha).

*Xazina majburiyatlar* mijozlarning budjetga pul mablagʻlari berganliklarini tasdiqlovchi, mazkur qimmatli qogʻozlarga egalik qilishning butun muddati davomida belgilangan daromadni olish huquqini beruvchi hujjatdir. U taqdim etuvchiga tegishli qimmatli qogʻozdir.

Xazina majburiyatlari davlat budjeti kassa rejasining bajarilishini taʼminlash, budjet kamomadini toʻldirish va moliyaviy barqarorlikni taʼminlash maqsadlarida chiqariladi.

Xazina majburiyatlarining quyidagi turlari chiqariladi:

- a) uzoq muddatli — besh yil va undan koʻproq muddatga;
- b) oʻrta muddatli — bir yildan besh yilgacha;
- d) qisqa muddatli — bir yilgacha boʻlgan muddatga (3, 6 va 12 oyga) moʻljallab chiqarilgan.

*Bank sertifikat* — bu emitent bank tomonidan uning nomiga mijozning pul mablagʻlari qoʻyilganligi toʻgʻrisida berilgan yozma guvohnoma boʻlib, u oʻzining egasiga belgilangan muddat oʻtishi bilan bankka qoʻygan pul summasini (yoki depozit summasini) va bu qoʻyilgan pul summasi boʻyicha foiz daromadi olish huquqi borligi toʻgʻrisida guvohlik beradi.

Bank sertifikatlari ikki turda chiqariladi:

1. Depozit sertifikat;
2. Jamgʻarma (omonat) sertifikat.

*Depozit sertifikat* — bu pul mablagʻlari boʻlib, omonat qoʻyilgani toʻgʻrisidagi, omonatchining belgilangan muddat tugagandan soʻng omonat summasi va unga tegishli foizlarni olishga boʻlgan huquqini tasdiqlovchi bank guvohnomasidir.

Depozit sertifikatining egasi yuridik shaxs hisoblanadi. Jamgʻarma sertifikat ham pul mablagʻlari boʻlib, omonat qoʻyilgani toʻgʻrisidagi bankning guvohnomasidir. Jamgʻarma sertifikatining egasi jismoniy shaxs hisoblanadi.

*Hosilaviy qimmatli qog'ozlar* — bu birlamchi qimmatli qog'oz (aksiya, obligatsiya va h.k.)larning shu bozorda amal qilinishi natijasida hosil bo'lgan ikkilamchi qimmatli qog'ozlardir. Hosilaviy qimmatli qog'ozlar o'z egasiga birlamchi qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish huquqini beradi.

Hosilaviy qimmatli qog'ozlarning quyidagi turlari mavjud:

*Opsion* — bu muayyan qimmatli qog'ozni kelishilgan baho va muddatda sotib olish yoki sotish huquqini beruvchi ikki tomonlama shartnoma.

*Fyuchers* — bu qimmatli qog'ozlarni yoki tovarlarni kelishilgan muddatda, shartnoma tuzilgan kunda o'rnatilgan narxda kelgusida ma'lum bir sanada sotish yoki sotib olish majburiyiligi to'g'risidagi shartnoma.

*Depozit tilxatlari* — bu chet el emitentlarining qimmatli qog'ozlarining milliy valuta denomillashtirilgan ekvivalentini o'zida aks ettiruvchi qimmatli qog'ozlardir.

*Varrant* — bu egasiga muayyan vaqt uchun yoki muddatsiz shart bilan shartnomada ko'rsatilgan narxda qimmatli qog'ozni sotib olish huquqini beruvchi guvohnomadir.

Varrant nomi yozilmagan va yozilgan (taqdim etuvchiga tegishli) ko'rinishlarda bo'ladi. U qimmatli qog'oz bozorlarida xuddi aksiyaga o'xshab muomalada bo'ladi.

*Xalqaro qimmatli qog'ozlar* qimmatli qog'oz bozorining xalqaro moliyaviy markazlari orqali baynalmilallashish natijasida yuzaga keladi.

*Privatizatsiya cheki* — bu qimmatli qog'ozlarning maxsus bir turi bo'lib, uni aksiyadorlik jamiyatlari emas, balki faqat davlat muomalaga chiqaradi. Ular o'z egasida davlat tasarrufidan chiqarilgan korxonalarining maxsus auksionlar (kimoshdi savdosi) orqali sotuvga qo'yilgan aksiyalariga yoki maxsus investitsiya fondlarining aksiyalariga almashtirib olish huquqini beradi.

Xalqaro qimmatli qog'ozlar qimmatli qog'oz bozorlarining xalqaro moliyaviy markazlari orqali baynalmilallashishi natijasida yuzaga keladi. Ularning nominal va bozor narxi chet el valutasida belgilanadi.

Xalqaro qimmatli qog'ozlarning quyidagi turlari mavjud:

*Yevronota* — bu o'zgaruvchan stavkada 3 oydan 6 oygacha muddat bilan chiqariladigan korporatsiyalarning qimmatli qog'ozlaridir.

*Yevroobligatsiyalar* — bu xalqaro qimmatli qog'ozning turi bo'lib, milliy bozorlar uchun chiqarilgan chet el zayomlari, xalqaro



bozorga joylashtirish maqsadida chiqarilgan yevrozayom (yevro-obligatsiya)lardan iborat.

Yevroobligatsiyalar uzoq muddatlarda: 4, 7, 15, 30 va 40 yillik muddat bilan chiqariladi. Emitent sifatida, asosan:

- hukumat;
- xalqaro tashkilot;
- transmilliy korporatsiyalar;
- mahalliy hukumatlar;
- ayrim davlat va davlatlararo tashkilotlar bo'lishi mumkin.

*Fond birjasi.* Fond birjasi mas'uliyati cheklangan jamiyat bo'lib, qimmatli qog'ozlar savdosini o'tkazadigan, ular bozor bahosini belgilaydigan hamda qimmatli qog'ozlar to'g'risida axborotlar tarqatadigan maxsus muassasadir. Fond birjasi O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida»gi, «Birja va birja faoliyati to'g'risida»gi Qonunlariga muvofiq ish yuritadi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi fond birjasining faoliyat yuritishi uchun ruxsatnoma beradi.

Fond birjasining ta'sischilari bo'lib qimmatli qog'ozlar bilan ishlash uchun ruxsatnomasi bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin. Davlat organlari xodimlari, sud, prokuratura xodimlari, birja ta'sischilari va a'zosi bo'lishi mumkin emas. Hozirgi vaqtda dunyoda 200 dan ortiq fond birjasi faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekistonda yagona «Toshkent» fond birjasi mavjud. Fond birjasi ustav fondlarida cheklashlar bor, ya'ni fond birjasi bajarayotgan operatsiya hajmi ustav fondidan ortib ketmasligi kerak. Fond birjasi savdoni o'tkazish qoidalarini o'zi ishlab chiqadi.

Fond birjasining moliyaviy faoliyati quyidagicha:

- aksiyalar sotuvidan foiz daromadlari;
- brokerlik joylarini sotishdan tushgan daromad;
- a'zolik badallaridan tushgan daromad;
- birja savdosini rasmiylashtirishdan tushgan daromad;
- birja yig'implari va ma'lumotlarni sotishdan tushgan daromad;
- birja ustavida ko'rsatilgan har xil ishlarni qilishdan keladigan daromad.

Mablag'larni joylashtirishning samarali yo'llarini qidirish va qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisini amalga oshirishda korxonalar vositachilarga murojaat qiladilar. Fond birjalari tovar birjalarining fond bo'limlari, investitsion institutlar, banklar vositachi bo'lib maydonga chiqishlari mumkin.

Zamonaviy birjalarda dallollar kamdan kam hollarda yolg'iz ish olib boradilar. Ular brokerlik, dilerlik ishlarini amalga oshiradigan kuchli firmalarga birlashadilar. Hozir jahonda 60 dan ortiq mamlakatlarda 200 ga yaqin fond birjalari bor. Shulardan 15 tasi, jumladan, 5 tasi Kanada birjasi, 100 dan ortig'i Yevropada, 20 tasi Janubiy Amerikadadir. Afrika, Osiyo, Avstraliyada ham birjalar bor. 30 dan ortiqroq birja Parijda joylashgan va qimmatli qog'ozlar strukturasi muvofiqlashtirib, aksiyadorlarning teng huquqlarini ta'minlash bilan shug'ullanadigan Fond birjalari xalqaro federatsiyasi (FBXF)ga kiradi. FBXF qo'mitalarining yillik kengashlarida qonunchilik va qimmatli qog'ozlar savdosini tartibga solish, iqtisodiy siyosatning fondlar bozoriga ta'siri, birja ish texnikasi va texnologiyasini rivojlantirish singari masalalar ko'rib chiqiladi.

Fond birjasi faoliyatining ayni muddaosi qimmatli qog'ozlar bilan bo'ladigan ishlarni bitkazishdir. Fond birjalarida savdo quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- birjada qimmatli qog'ozlar bilan oldi-sotdini faqat vositachilar bajaradi. Ularga jismoniy shaxslar yoki bankning yuridik shaxslari, investitsiya kompaniyalari, brokerlik firmalari kiradi;

- fond birjasiga qimmatli qog'ozlar olib kelinmaydi. Uning mavjudligi soni va sifatini sotuvchining qo'lidagi hujjat—sertifikat tasdiqlaydi;

- fond birjasida qimmatli qog'ozlar istalgan miqdorda sotilmaydi. Savdo bu yerda lot (to'p)lar, ya'ni birjadagi bir kontrakt yoki miqdor va sifat jihatdan standart tipi bo'yicha amalga oshiriladi. Fond birjasi bu ulgurji savdo shaklidir;

- fond birjasida faqatgina kotirovka ro'yxatida qayd qilingan qimmatli qog'ozlarga sotiladi. Qimmatli qog'ozlarni mazkur ro'yxatga kiritish, ya'ni birjaga qo'yish listing deb ataladi;

- fond birjasida baho ochiqdan ochiq o'rnatiladi. Ular to'g'risidagi axborot zallardagi tablolarida e'lon qilib turiladi.

Shunday qilib, birjada uch tomon qatnashadi, bir tomonda birjada o'zining qimmatli qog'ozlari bilan savdo qilishga vaqti yo'q yoki umuman bu ish bilan shug'ullanish istagi bo'lmaganlar (emitent va tadbirkorlar), ikkinchi tomonda esa muayyan haq evaziga shu qimmatli qog'ozlarni sotishni o'z zimmasiga oluvchi brokerlar. Uchinchi tomonda qimmatli qog'ozlarga xaridor kompaniyalar va xususiy shaxslar. Har uchala tomonning manfaatini birlashtiruvchi joy — fond birjasidir.

### 15.7. Davlat budjetining xususiyatlari

Har qanday davlat o'z oldidagi vazifalarini muvaffaqiyatli hal etishi, funksiyalarining samarali bajarilishi uchun moddiy-moliyaviy negizga, zaminga ega bo'lishi kerak. Ushbu mablag'larning maqsadlarini ko'zda tutuvchi huquqiy hujjat — davlat budjetidir. Inglizcha *budget* atamasi pul solingan chemodan, qop ma'nosini anglatadi va davlat ehtiyojlari uchun zarur mablag'larni ifodalaydi.

*Davlat budjeti* — davlat moliyaviy tizimidagi asosiy bo'g'in, yetakchi moliyaviy kategoriyadir. Budjet orqali moliyaviy resurslar safarbar etiladi va sarf-xarajat qilinadi hamda u asosiy moliyaviy tushunchalar (soliqlar, davlat krediti, davlat xarajatlari)ni o'zaro birlashtiradi.

Davlat budjeti qonun kuchiga ega bo'lgan, qonun chiqaruvchi organ — Parlament tomonidan qabul qilinadigan, kelgusi yil uchun mo'ljallangan asosiy moliyaviy rejadan iborat. Davlat budjeti o'z iqtisodiy-moddiy mazmuniga ko'ra, davlatning markazlashtirilgan pul mablag'lari tashkil topishi va foydalanilishi shaklidan, ijtimoiy mohiyati jihatidan esa milliy daromadni taqsimlash vositasidan iborat.

Davlat budjetida — davlat pul mablag'lari (shu jumladan, davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari)ning markazlashtirilgan jamg'armasi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Davlat budjeti mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi, davlat va jamiyat taraqqiyotini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi ikki bo'g'inli bo'lib, respublika budjeti va mahalliy budjetlardan tashkil topadi. Respublika budjeti va budjetdan tashqari davlat fondlari budjetlari respublika qonuni tarzida Oliy Majlis tomonidan, mahalliy budjetlar esa tegishli mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tasdiqlanadi. O'zbekiston Respublikasi budjeti hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari budjetlari yig'indisidan O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan (yig'indi) budjeti yuzaga keladi.

*Budjet tizimi amal qilishi umumiy tamoyillarga* asoslanadi. Ana shunday umumiy tamoyillar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- budjet tizimlarining yagonaligi;
- budjetlar mustaqilligi;
- turli darajadagi budjetlar daromadlari hamda xarajatlarining o'zaro ajratilganligi;

- budjetda daromadlar va xarajatlarning to'liq aks ettirilishi;
  - budjet mablag'laridan samarali va tejimli foydalanilishi;
  - budjet ko'rsatkichlarining ishonchliligi;
  - oshkoralikning ta'minlanishi;
  - budjet mablag'larining maqsadli va aniq yo'naltirilganligi kabilar.
- Demokratik, huquqiy davlatlarda budjetning muvozanatlanganligi, undagi ko'rsatkichlarning ishonchliligi, oshkoralikning ta'minlanishi eng muhim tamoyillardan sanaladi.

### **15.8. Davlat budjetining taqsimlash va nazorat funksiyalari**

Davlat budjeti moliyaviy mexanizm, iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash vositasi sifatida ma'lum funksiyalarni bajaradi. Bunday funksiyalar qatoriga:

- a) milliy daromadni qayta taqsimlash;
- b) iqtisodiyotni davlat yo'li bilan boshqarish va rag'batlantirish;
- d) davlat ijtimoiy siyosatini moliyaviy jihatdan ta'minlash;
- e) pul mablag'larining markazlashgan fondlari tashkil topishi va ulardan foydalanilishi ustidan nazorat qilish hamda tartiblash-tirishga ko'maklashish kabilar kiradi.

*Budjet tasnifi* — bu budjet daromadlari va xarajatlarini muayyan xususiyatlariga ko'ra guruhlashdan iborat bo'lib, uni tuzish va ijro etish, turli darajadagi budjet ko'rsatkichlarini o'zaro taqqoslash, moliyaviy manbalarni, budjet taqchilligini qoplash manbalarini belgilash imkonini beradi. Davlat budjeti tuzilmasiga kiruvchi budjetlar daromadlari va xarajatlarini, shuningdek, uning taqchilligini moliyalashtirish manbalarini guruhlashdan iborat.

Budjet tasnifidan davlat budjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish hamda ijro etish maqsadida foydalaniladi va u budjet ma'lumotlari xalqaro tasnif tizimlarining aynan shunday ma'lumotlari bilan qiyoslanishini ta'minlaydi.

Budjet tasnifi:

- davlat budjeti daromadlarining tasnifi;
- davlat budjeti xarajatlarining funksional, tashkiliy va iqtisodiy tasnifi;
- davlat budjeti taqchilligini moliyalashtirish manbalari tasnifini o'z ichiga oladi.

Davlat budjeti daromadlarining tasnifi qonun hujjatlariga muvofiq, ularning turlari va manbalari bo'yicha guruhlashdan iborat bo'ladi. Davlat budjeti xarajatlarining vazifa jihatidan tasnifi davlat

boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek, boshqa budjet tashkilotlari tomonidan ijro etiladigan asosiy vazifalar bo'yicha xarajatlarni guruhlashdan iborat bo'ladi. Davlat budjeti xarajatlarining tashkiliy tasnifi budjetdan ajratiladigan mablag'lar ularning bevosita oluvchilar o'rtasida taqsimlanishini aks ettiruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar va tadbirlar turlari bo'yicha xarajatlarni guruhlashdan iborat bo'ladi.

Davlat budjeti xarajatlarining iqtisodiy tasnifi to'lovlarning iqtisodiy vazifasi va turlari bo'yicha xarajatlarni guruhlashdan iborat bo'ladi. Davlat budjeti taqchilligini moliyalashtirish manbalari tasnifi taqchillikni moliyalashtirishning ichki va tashqi manbalari bo'yicha guruhlashdan iborat bo'ladi. Budjet tasnifi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

### **15.9. Davlat budjetining shakllanishi. Budjet daromadlari**

Davlat budjeti daromadlari qatoriga quyidagilar kiritiladi:

- soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlar;
- davlatning moliyaviy va boshqa aktivlarining joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotilishidan olingan daromadlar;
- meros olish, hadya etish huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari;
- yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmagan pul tushumlari;
- rezident — yuridik shaxslarga va xorijiy davlatlarga berilgan budjet ssudalarini qaytarish hisobiga tushadigan to'lovlar;
- boshqa daromadlar hisobiga shakllantiriladi.

Budjet daromad qismining umumlashtiruvchi manbayi bo'lib, jamiyatning milliy daromadi hisoblanadi. Budjet tizimi daromad qismining tarkibi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan turli darajadagi budjetlarga to'lanadigan to'lovlarda ifodalanadi. Turli darajadagi budjetlarga kelib tushadigan daromadlarning ijtimoiy-iqtisodiy belgilari, to'lanish tartibi va shartlari quyidagicha tasniflanishi mumkin.

Ijtimoiy-iqtisodiy belgilariga ko'ra daromadlar:

- tashkilotlar xo'jalik faoliyatidan olinadigan;
- tashqi iqtisodiy faoliyatdan olinuvchi;
- aksizlar;
- tashkilotlar tomonidan brokerlik va boshqa vositachilik xizmatlaridan olinadigan;
- davlat bojlari;

- bank va sug'urta faoliyatidan olinadigan;
- xususiylashtirishdan olinadigan;
- resurslar uchun to'lovlardan;
- fuqarolar daromadlaridan;
- boshqa daromadlardan olinadigan budjet daromadlariga bo'linadi.

To'lanish tartibi va o'tkazilish shartlariga ko'ra daromadlar mustahkamlangan, boshqariladigan, dotatsiya, subvensiya, o'z mablag'lari va qarzga olinadigan mablag'larga bo'linadi. Mustahkamlangan daromadlar foizlar yoki boshqa qat'iy belgilangan miqdorlarda budjetga kelib tushadi. Boshqariladigan daromadlar yuqori turuvchi davlat yoki mahalliy hokimiyat organi qarori bilan quyi organ ixtiyoriga o'tkaziladi.

Budjetning daromad qismi, shuningdek, dotatsiyalar va subvensiyalar hisobiga, ya'ni yuqori turuvchi budjet tomonidan quyi turuvchi budjetga mablag' ajratilishidan iborat. Yuridik shakllariga ko'ra, budjet daromadlari soliq va nosoliq to'lovlarga bo'linadi.

#### **15.10. Davlat budjeti xarajatlari**

Davlat budjeti xarajatlari o'zining tarkibida quyidagilarni nazarda tutadi. Davlat budjeti xarajatlari tasdiqlangan budjetdan mablag' ajratish doirasida quyidagicha amalga oshiriladi:

- budjet mablag'lari oluvchilarning joriy xarajatlari shaklida;
- joriy budjet transfertlari shaklida;
- kapital xarajatlar shaklida: asosiy fondlar va vositalarni (ular bilan bog'liq ishlar va xizmatlar ham shular jumlasiga kiradi) davlat ehtiyojlari uchun olish va takror ishlab chiqarishga;
- chet elda davlat ehtiyojlari uchun yer va boshqa mol-mulk olishga va boshqa maqsadlarga sarflanadi.

Budjet tizimlarining xarajatlari davlat va mahalliy xarajatlarning asosiy qismini tashkil qiladi. Davlat budjeti xarajatlarning tarkibi va nisbati muayyan davrda davlat oldida turgan vazifalar bilan belgilanadi. Budjet xarajatlari daromad tarkibi, hajmiga bog'liq bo'lib, ularga o'z ta'sirini o'tkazib turadi.

Budjet tizimlari xarajatlari tarkibi quyidagi yo'nalishlarda sarf-xarajatlarni o'z ichiga oladi:

- xalq xo'jaligini moliyalashtirish xarajatlari;
- ijtimoiy-madaniy tadbirlarni moliyalashtirish xarajatlari;
- davlat va mahalliy dasturlar va investitsiya loyihalarini moliyalashtirish;

- fundamental ilmiy-texnikaviy tadqiqotlar, davlat va mahalliy ilmiy-texnikaviy dasturlarni moliyaviy ta'minlash;
- mudofaa xarajatlari;
- davlat va mahalliy hokimiyat hamda idora organlarini, huquqni muhofaza qilish, sud, prokuratura organlarini saqlash xarajatlari;
- tashqi iqtisodiy faoliyat xarajatlari;
- fuqarolarga turli nafaqalar va tovonlar to'lash xarajatlari;
- dotatsiya va subvensiyalar to'lash xarajatlari va boshqalar.

#### **15.11. Budjet taqchilligi va uni bartaraf etish yo'llari**

Qoidaga ko'ra, davlat budjetining daromadlari va xarajatlari muvozanatda bo'lishi zarur hisoblanadi. Ammo budjet xarajatlariga va uning tarkibiga ichki, tashqi, iqtisodiy, siyosiy va boshqa omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin. Omillarning ta'sir ko'rsatishi natijasida ayrim hollarda budjetlarda belgilangan xarajatlarga mablag'larning yetishmay qolishi kelib chiqadi. Bunday holat iqtisodiyot nazariyasida budjet taqchilligi deb aytiladi.

Budjet taqchilligining kelib chiqishiga ta'sir etuvchi omillardan biri bu davlatning jamiyat hayotining barcha sohalaridagi rolining uzluksiz o'sib borishi, uning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarining kengayishi deb qaralmoqda. Bundan tashqari, budjet taqchilligiga iqtisodiy hayotdagi tebranishlar, ishlab chiqarishdagi davriy inqiroz va yuksalishlar ham ta'sir etadi. Jumladan, jahonning ayrim mamlakatlaridagi iqtisodiy-ijtimoiy inqirozlar davrida davlat budjet mablag'lari hisobidan iqtisodiyotning ma'lum sohalarini ushlab turishga, umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan tarmoqlarga katta investitsiyalar qilishga majbur bo'ladi.

Budjet taqchilligini bartaraf etishning asosiy yo'li bu davlat krediti hisoblanadi. Davlat krediti deganda, davlat tomonidan o'z aholisidan, boshqa davlatlardan qarz olishi tushuniladi. Davlat qarz olishning asosiy shakli — bu davlat zayomlarini chiqarish hisoblanadi. Ularni joylashtirish jarayonida davlat aholi, banklar va boshqa xo'jalik subyektlarining vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini qarz sifatida oladi.

Bundan tashqari, davlat o'z mamlakati markaziy bankidan ham qarz olishi mumkin. Bunday holatda markaziy bank bozordagi tovar hajmining ko'payishi bilan bog'liq bo'lmagan qo'shimcha pulni muomalaga chiqaradi. Bu bilan davlat budjetining taqchilligi moliyalashtiriladi. Lekin bozordagi tovar massasi bilan bog'lanmagan muomalaga chiqarilgan pul inflatsiyani kuchaytirishga ta'sir ko'rsatadi.

Budjet taqchilligini bartaraf etish uchun zarur bo'lgan moliyaviy mablag'larini davlat boshqa mamlakatlardan yoki turli moliyaviy institutlardan, jumladan, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki kabilardan olishi mumkin. Buning natijasida davlatning tashqi qarzi kelib chiqadi. Agar davlat qarzlari ko'payib borsa, milliy daromadning foiz to'lovlari shaklida, qayta taqsimlanishiga to'g'ri keladi. Buning uchun davlat turli usullardan foydalanishi mumkin. Jumladan, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar joriy etishi, yanada uzoq muddatli zayomlar chiqarishi mumkin.

Budjet taqchilligini bartaraf etishning asosiy va muhim yo'llari, bu budjetlarning xarajat qismini ijro etish, budjet hisobidan muayyan mablag'larning ajratilishi bilan bog'liqdir. Budjetni ijro etish jarayonida uning hisobidan u yoki bu xarajatlarni qoplash maqsadida mablag' ajratilishi budjet krediti deb yuritiladi. Barcha kredit taqsimlovchilar o'zlariga ajratilgan mablag'lardan maqsadga muvofiq va tasdiqlangan smeta doirasida foydalanishlari lozim. Budjet mablag'laridan foydalanish paytida xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilmasligi va barcha darajadagi budjetlar ijrosi davlat hokimiyat organlarining muntazam nazorati ostida bo'lishi juda muhimdir.

#### **15.12. O'zbekistonda budjet tizimini takomillashtirish**

O'zbekistonda budjetlar umumrespublika va muayyan hudud ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti istiqbolini belgilash ko'rsatkichlari hamda dasturlariga muvofiq ravishda amalga oshirilib, budjet loyihasi tayyorlanguniga qadar tegishli milliy-davlat hamda ma'muriy-hududiy birliklar taraqqiyoti rejalari, taxminlari ishlab chiqiladi. Ular asosida hokimiyatning ijroiya organlari tegishli budjetning daromadlari: xarajatlari, jamlama budjet, quyi hududiy organlarning minimal budjet ko'rsatkichlari to'g'risida hokimiyatning vakillik organlariga takliflar hamda axborotlar taqdim etadi. Bunday axborotlarning taqdim etilish muddatlari va tartiblari qonunlar bilan belgilab qo'yilgan bo'lib, ular mamlakatimiz barcha hududlarining iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi, aholi farovonligini oshirishning ta'minlanishini nazarda tutadi.

Barcha darajadagi, bo'g'inlardagi budjetlarni tayyorlash, muhokama qilish, tasdiqlash va ularni ijro etish tartib-qoidalari budjet jarayoni deb ataladi. Budjet jarayoni doimiy ravishda takrorlanadigan, yangilanib turadigan bosqichlar yig'indisini o'z ichiga oladi. U yoki bu bo'g'inga oid bo'lgan, budjet bilan bog'liq holda chiqariladigan huquqiy akt (budjet haqidagi qonun, qaror) muayyan



davr davomida (budget yili) amal qiladi va ushbu davr yakunlangach, u yangidan ishlab chiqilishi va qabul qilinishi lozim bo'ladi.

*Budjetning shakllantirilishi to'rt davrdan:* budget loyihagini tuzish, loyihani muhokama qilish, uning vakolatli organ tomonidan qabul qilinishi — tasdiqlanishi va ularning belgilangan davr davomida ijro etilishini ta'minlash bosqichlaridan iborat bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida budget jarayonining barcha bosqichlari uch yildan ortiq davrni o'z ichiga oladi. Tasdiqlangan budget esa moliya yili deb atalib, 1-yanvardan 31-dekabrgacha bo'lgan bir kalendar yildan iborat bo'ladi.

Budget loyihasi tayyorlanayotgan paytda quyidagilar asos qilib olinadi:

- tartibga solinadigan daromadlardan ajratiladigan normativ (foiz)lar loyihasi va bu daromadlar kontingenti;
- tegishli yuqori turuvchi budget hisobiga amalga oshirilishi mo'ljallanayotgan dotatsiya va subvensiyalar ko'rsatkichlari;
- tegishli hududiy budget daromadlari ro'yxati va bu daromadlarning qayd etilgan daromadlar hissasi (foizda);
- yuqori turuvchi budget birligi tomonidan berilgan xarajatlar ro'yxati;
- hokimiyatning ijroiya organlari o'zlariga yuqori organlar tomonidan berilgan budget ko'rsatkichlarini chuqur va har tomonlama tahlil qiladi, ularga aniqlik hamda tuzatishlar kiritish haqida o'z taklif-mulohazalarini bildirishlari mumkin bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida budgetning ijro etilishi budget jarayonining muhim tarkibiy qismi va bosqichi sanaladi. Ijroiya hokimiyati organlari budget ijrosini tashkil qiladi va ijro etadi.

Davlat budgetining ijrosi va uning ta'minlanishi bilan bog'liq bo'lgan qoidalar O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 26-avgustdagi «Davlat budgetining g'azna ijrosi to'g'risida»gi Qonunida nazarda tutilgan<sup>1</sup>. Qonunning maqsadi O'zbekiston Respublikasi davlat budgeti (shu jumladan, davlat maqsadli jamg'armalari)ning va budget tashkilotlarining budgetdan tashqari mablag'larining g'azna ijrosi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Davlat budgeti g'azna ijrosining asosiy prinsiplari kassaning yagonaligi hamda buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishning yagonaligidan iborat. Davlat budgetining g'azna ijrosi davlat budgetining barcha daromadlarini yagona g'azna hisobvarag'iga

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. T., 2004, № 9, 164-bet.

kiritishdan, shuningdek, davlat budjetining xarajatlarini shu hisobvaraqdan to'lashdan iborat.

Davlat budjetining g'azna ijrosi moliya yili mobaynida va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan qo'shimcha vaqt davrida amalga oshiriladi. Davlat budjetining g'azna ijrosi qonun hujjatlarida belgilab qo'yiladigan maxsus vakolatli moliya organi va uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlardagi hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

G'aznachilikning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Davlat budjetining kassa ijrosi;
- Davlat budjeti mablag'larining tushumi va sarfi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- Davlat budjeti mablag'larini boshqarish, yagona g'azna hisobvarag'ini va hududiy g'azna hisobvaraqlarini yuritish;
- budjet mablag'lari oluvchining tovar yetkazib beruvchi (ish bajaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi) bilan tuzilgan shartnomasini, shuningdek, buyurtmachining davlat budjeti mablag'lari hisobidan kapital qurilish uchun tuzilgan shartnomasini majburiy ro'yxatdan o'tkazish;
- Davlat budjetida qaysi yuridik yoki jismoniy shaxslar uchun mablag'lar nazarda tutilgan bo'lsa, o'sha yuridik yoki jismoniy shaxslar nomidan va ularning topshirig'iga binoan to'lovlarni amalga oshirish;
- Davlat budjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobini yuritish;
- Davlat budjetining ijrosi to'g'risidagi axborotni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va hisobotni tuzish;
- O'zbekiston Respublikasining davlat ichki va tashqi qarzlariga xizmat ko'rsatish, O'zbekiston Respublikasining kafolatlarini ijro etish.

Budjet kassa ijrosi deganda har bir budjetning daromadlari mazkur budjetni ijro etuvchi tegishli kassada jamg'arilishi tushuniladi. Shuningdek, ushbu budjetdan mablag' bilan ta'minlanuvchi barcha tashkilotlarga pul mablag'lari ushbu kassa orqali beriladi.

Budjetlar ijrosini ta'minlashda asosiy hujjat bo'lib, budjet taqsimoti sanaladi. U tegishli davlat hokimiyati vakillik organi tomonidan tasdiqlanadi hamda unda budjet daromad va xarajatlari batafsil ko'rsatiladi.

Budjet daromad qismini ijro etish yuridik va jismoniy shaxslardan soliq va nosoliq to'lovlar undirish hisobiga amalga oshiriladi. Bunda yuridik shaxslar tegishli to'lovlarni qonunda belgilangan

muddatlar hamda tartiblarda mustaqil ravishda hisoblaydilar va budjetga to'laydilar. Jismoniy shaxslardan esa ularning ish haqlaridan ushlab qolish yoki ular tomonidan bevosita kassaga pul to'lash orqali ijro etiladi. Muayyan budjet hisobiga mablag'larni o'tkazish moliya organi topshirig'i bilan amaldagi qonunlarga muvofiq amalga oshiriladi.

### **15.13. Soliq tizimining vujudga kelishi. Soliqlarning mohiyati**

Soliqlar davlat budjetining asosiy daromad manbai sanaladi. *Soliq iqtisodiy kategoriya* sifatida milliy boylikning muayyan qismining davlat ehtiyojlari uchun jalb etilishi bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni o'zida ifodalaydi. Soliqlar jamiyatdagi mavjud taqsimotga oid munosabatlarning tarkibiy qismi sifatida bozor munosabatlariga asoslangan ijtimoiy ishlab chiqarishning obyektiv iqtisodiy qonuniyatlardan kelib chiqadi va shu tufayli ijtimoiy-iqtisodiy xarakterga egadir.

Soliqlar ijtimoiy mazmunga ega ekanligi tufayli uning davlat tomonidan qabul qilinadigan qonunlar bilan belgilanishi unga *yuridik ma'no-mohiyat* kashf etadi. Shuning uchun yuridik ma'noda soliqlar deganda qonun bilan belgilangan, majburiy, tekinga, haq to'lanmasdan hamda qaytarilmaslik sharti bilan jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan davlat foydasiga amalga oshiriladigan to'lovlar nazarda tutiladi.

Bundan tashqari, soliqlar moddiy mohiyatga ham ega bo'lib, davlat ehtiyojlariga ajratilayotgan aniq pul summasini o'zida aks ettiradi. Bu esa soliqlarning moliyaviy kategoriyasi sifatida o'ziga xos funksiyalarni ado etishi bilan bog'liq namoyon bo'ladi.

#### *Soliqlarning funksiyalari*

*Fiskal (xazina to'plash) funksiyasi.* Uning yordamida davlatning normal va bir maromda faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan davlat pul jamg'armalari vujudga keltiriladi. Milliy daromadning muayyan qismini ijtimoiy zaif qatlamlar foydasiga qayta taqsimlash imkonini beradi. Davlat iqtisodiy munosabatlarda soliqlarning fiskal funksiyasi orqali ishtirok etadi.

*Tartibga solish funksiyasi.* Soliqlar vositasida davlat takror ishlab chiqarish jarayoniga faol ta'sir o'tkazadi, uning sur'atlarini jadal-lashtiradi yoki sekinlashtiradi, kapital jamg'arilishini tezlashtiradi yoki sekinlashtiradi, aholining to'lovga qobiliyatini kengaytiradi yoki toraytiradi, mamlakat mintaqalari taraqqiyotida muvozanatni

ta'minlaydi. Tartibga solish funksiyasi fiskal funksiya bilan bog'liq bo'ladi.

Soliq mexanizmi deganda soliq solishning tashkiliy-huquqiy me'yorlari va soliqqa tortishning boshqarish usullari yig'indisi nazarda tutiladi. Davlat soliq qonunchiligi orqali soliq mexanizmiga yuridik shakl beriladi. Soliq siyosati va soliq mexanizmi soliqlarning jamiyatdagi o'rnini aks ettiradi.

*Qayta taqsimlash funksiyasi.* Jamiyat tomonidan yaratilgan moddiy boyliklar ishlab chiqaruvchilar (tadbirkorlar va xodimlar), davlat va jamiyat o'rtasida qayta taqsimlanadi, ular davlat va jamiyat taraqqiyoti maqsadlari va xalq moddiy turmush farovonligining yuksaltirilishiga yo'naltiriladi. Soliqlar vositasida davlat iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlari, mamlakat mintaqalari, kichik va xususiy biznesning jadal rivojlanishini ta'minlaydi.

*Ijtimoiy funksiya.* Soliqlar va majburiy yig'imlar tarzida to'plangan moliyaviy mablag'lar ijtimoiy vazifalar hal etilishiga, aholi muhtoj qatlamlarining davlat tomonidan ijtimoiy himoya qilinishiga, ijtimoiy infratuzilma faoliyati samarali tashkil etilishiga imkon beradi.

#### **15.14. Soliqqa tortish tamoyillari**

Soliqqa tortish tamoyillari, odatda, har bir davlatning oliy organlari tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlangan qonunlarda ko'rsatiladi. O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida soliqqa tortishning to'rt tamoyili ko'rsatilgan:

1. Manbalaridan qat'i nazar, hamma daromadlarni soliqqa tortish majburiydir;

2. Umumiy davlat soliq siyosati atrofida hamma darajadagi ma'muriy hududlarning soliq faoliyatidagi mustaqilligini hisobga olib yagona umumdavlat soliqqa tortish siyosatini yuritish;

3. Faoliyati muhim ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik muammolarga hamda xo'jalik yuritishning ilg'or shakllariga qaratilgan faol ishlovchi korxonalar imtiyozlar tizimi orqali soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini ta'minlash;

4. Soliq to'lovlari bo'yicha deklaratsiyalar, tekshirishlar va reviziyalar o'tkazish qonunchiligini buzganlarga iqtisodiy jazolar qo'llash bilan moliyaviy nazorat o'rnatishdan iborat.

Lekin jahon soliq qonunchiligida iqtisodchi va huquqshunos olimlar soliqqa tortishning quyidagi besh tamoyili bo'lishini ko'rsatib o'tishgan:

1. Tenglik va samaradorlik.
2. Soliqqa tortishda aniqlik va osonlik.
3. Soliqqa tortishning arzonligi.
4. Soliqqa tortishning xazinaviy samaradorligi va egiluvchanlik.
5. Soliqqa tortishda ijtimoiy adolat.

O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimi o‘z tamoyillariga ega bo‘lib, ular:

- har bir shaxs (yuridik va jismoniy shaxs) qonunlarda belgilangan soliqlarni to‘lashga majbur ekanligi;
- soliqlar davlat va jamiyat faoliyatini moliyaviy ta‘minlash uchun joriy etilishi;
- soliqlar siyosiy, diniy, g‘oyaviy, etnik yoki boshqa shunga o‘xshash mulohazalarga ko‘ra, joriy etilishi mumkin emasligi;
- qonunda ko‘zda tutilmagan soliqlarning joriy etilishiga yo‘l qo‘yilmasligi kabilardan iborat.

### **15.15. Soliq turlari**

O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 25-dekabrda qabul qilingan Soliq kodeksida nazarda tutilgan bo‘lib<sup>1</sup>, umumdavlat soliqlaridan hamda mahalliy soliqlar va yig‘imlardan iborat.

Umuman olganda, soliq tizimining tarkibi va tuzilishi jahon amaliyotida keng qo‘llanib kelinayotgan soliq tizimlariga mos keladi. Hozirgi paytda O‘zbekistonda turli ko‘rinishdagi soliqlar hamda majburiy yig‘imlar olinadi va ular muayyan vazifalarni bajarishga xizmat qiladi. Soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari soliq solishning majburiyligi, aniqligi, adolatliligi, soliq tizimining yagonaligi, soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining oshkoraligi va soliq to‘lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsiplariga asoslanadi.

*Soliqlar* deganda qonunda belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg‘araz xususiyatga ega bo‘lgan, budjetga yo‘naltiriladigan majburiy pul to‘lovlari tushuniladi.

*Boshqa majburiy to‘lovlar* deganda Soliq kodeksida belgilangan davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy pul to‘lovlari, bojxona to‘lovlari, shuningdek, vakolatli organlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan yuridik ahamiyatga molik harakatlarni to‘lovchilarga nisbatan amalga oshirish uchun, shu jumladan, muayyan huquq-

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. T., 2009, № 52 (1).

larni yoki litsenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni berish uchun to‘lanishi lozim bo‘lgan yig‘imlar hamda davlat boji tushuniladi. O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimi quyidagicha tasniflanishi mumkin:

*Soliq obyekt*i, soliq to‘lovchi va davlat o‘rtasidagi munosabatlari ko‘ra, to‘g‘ri soliqlar va egri soliqlar mavjud.

*To‘g‘ri soliqlar* shaxslarning daromadlaridan, mol-mulklaridan olinadi.

*Egri soliqlar* tovar yoki xizmat narxiga qo‘shiladi va soliq to‘lovchi bu soliqli iste‘molchi (xaridor, buyurtmachi)dan tovarni sotgan paytida uning bahosiga qo‘shib qaytarib oladi. Egri soliqlarning to‘lovchilari aslida xaridorlar, ya‘ni iste‘molchilar hisoblanadilar. Bunday soliqlar qatoriga aksiz, qo‘shilgan qiymat solig‘i, bojxona to‘lovlari kiradi.

*Foydalanish maqsadiga ko‘ra*, soliqlar umumiy soliqlar (masalan, daromad solig‘i, aksiz, QQS) va maxsus soliqlarga (masalan, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i, jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq va boshq.) bo‘linadi.

Soliq oluvchilar bo‘lgan davlat organlari turiga ko‘ra, respublika soliqlari va mahalliy soliqlarga bo‘linadi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga ko‘ra, soliqlarga quyidagilar kiradi:

- 1) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i;
- 2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;
- 3) qo‘shilgan qiymat solig‘i;
- 4) aksiz solig‘i;
- 5) yer qo‘lidan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to‘lovlar;
- 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- 7) mol-mulk solig‘i;
- 8) yer solig‘i;
- 9) obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i;
- 10) jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq.

Boshqa majburiy to‘lovlarga quyidagilar kiradi:

- 1) ijtimoiy jamg‘armalarga majburiy to‘lovlar:
  - yagona ijtimoiy to‘lov;
  - fuqarolarning budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari;

- budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar;
- 2) Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar:
  - Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar;
  - Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar;
- 3) davlat boji;
- 4) bojxona to'lovlari;
- 5) ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im.

Qonunda belgilangan hollarda va tartibda soliq solishning soddalashtirilgan tartibida to'lanadigan quyidagi soliqlar qo'llanilishi mumkin:

- yagona soliq to'lovi;
- yagona yer solig'i;
- tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq.

Davlat umummilliy dasturlarini amalga oshirish davrida tegishli jamg'armalar tashkil etilishi mumkin bo'lib, ularga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda majburiy to'lovlar belgilanadi.

Soliqlar joriy etilishi paytida soliq to'lovchilar doirasi belgilanadi. Yuridik va jismoniy shaxslar soliq to'lovchilar hisoblanishadi. Korxonalarining filiallari va boshqa alohida bo'laklari faoliyat yuritayotgan hududda o'z korxonalari nomidan soliq to'lovchi vazifasini bajaradi.

### **15.16. Soliq stavkasi**

Soliq obyektining har bir soliq birligi uchun davlat tomonidan belgilab qo'yilgan me'yori soliq stavkasi deb yuritiladi. Bu stavka qat'iy summalarda yoki foizlarda obyektga nisbatan qo'llaniladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul inflatsiyaga uchrab turganligi uchun qat'iy summalardagi soliq stavkalarini qo'llash ancha qiyinlashib boradi. Shuning uchun ham soliq stavkalarining aksariyati foizlarda belgilangan.

Proporsional soliq stavkasi usulida foyda yoki oborotga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar bir xil proporsiyada (ulushda) soliq to'laydilar. Bu yerda soliq stavkasi qat'iy o'rnatilgan bo'lib, proporsional ravishda olinadi. Agar daromad yoki foyda ortib borishi bilan soliq stavkasi ham ortib borishi ko'zda tutilgan bo'lsa, bunday soliq stavkasi progressiv soliq stavkasi deyiladi.

Regressiv soliq stavkalari biror faoliyat yoki sohada mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish yoki o'z foydasidan biror turdagi xarajatni (masalan, investitsiyani) ko'paytirishni rag'batlantirish

maqsadida qo'llaniladi. Ya'ni regressiv soliq stavkasi usulida daromad ortib borishi bilan mahsulot ishlab chiqarish hajmi ko'payishi yoki eksportga mahsulot ishlab chiqarish ko'payishi bilan soliq stavkasi ham kamayib boradi.

*Soliq obyekt.* Nimaga soliq solinsa, shu soliq obyektini hisoblanadi. Soliq obyektini uch guruhga bo'linadi: oborot, daromad va mulk. Ya'ni sotilayotgan mahsulot oboroti, olingan foyda (yoki daromad), yer maydoni, transport vositalarining quvvati va boshqalar soliq obyektini bo'lib hisoblanadi. Obyekt qancha ko'p, keng va katta bo'lsa, bir xil soliq stavkasi sharoitida mamlakat soliq yuki soliq to'lovchilar o'rtasida shuncha pasayadi. Soliqqa tortilgan obyekt, asosan, soliq nomini ifoda etadi va ko'p hollarda soliq manbayiga mos keladi. Masalan, korxonada foydasiga soliq solishda soliq obyektini ham, manbayi ham foydadir. Fuqarolar daromadi soliqning ham, soliq obyektini ham manbayi fuqaro olgan yalpi daromaddir. Soliq obyektini xilma-xil bo'lib, u bevosita davlatning iqtisodiy siyosatiga bog'liq.

#### **15.17. Soliq nazorati va soliq tizimini boshqarish**

Soliq nazorati va soliq tizimini faoliyatini boshqarish O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va unga bog'liq bo'lgan organlar tomonidan olib boriladi. Ularning faoliyati Soliq kodeksi, «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonun va boshqa qonun hujjatlari<sup>1</sup> bilan tartibga solinadi.

Davlat soliq organlari quyidagi shakllarda soliq nazoratini amalga oshiradilar:

- soliq to'lovchilarni hisobga olish;
- soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni hisobga olish;
- budjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushayotgan tushumlarni hisobga olish;
- kameral nazorat;
- naqd pul tushumlari kelib tushishining xronometraji;
- soliq tekshiruvlari;
- fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini qo'llash;
- aksiz to'lanadigan ayrim turdagi tovarlarni markalash, shuningdek, ayrim korxonalarda moliya inspektori lavozimini joriy etish;

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan yo'riqnomalar.



- davlat daromadiga qaratilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushadigan pul mablag'lari davlat daromadiga o'z vaqtida va to'liq tushishini nazorat qilish;
- boshqa majburiy to'lovlarni undirish vazifasini amalga oshiradigan davlat organlari va tashkilotlar ustidan nazorat qilish.

### 15.18. Soliq imtiyozlari

Soliq to'lovchilarni soliqdan ozod etish, ular to'laydigan soliq miqdorini kamaytirish kabilar soliq qonunchiligida soliq imtiyozi deb yuritiladi. Soliq imtiyozlari ko'p hollarda biror ishlab chiqarish sohasini, faoliyat turini rag'batlantirishga qaratilgan bo'ladi. Soliqlar davlatning moliya resurslari miqdoriga ta'sir qiladi. Shuning uchun agar davlatning moliya resurslarini oshirishga zaruriyat bo'lsa, soliq imtiyozlari kamaytiriladi.

Agar korxonalar va tashkilotlar faolligini oshirish zarur bo'lsa, soliq imtiyozlari kengaytiriladi. Lekin makroiqtisodiyot darajasida soliq imtiyozlarining ko'p berib yuborilishi soliq to'lovchilarda boqimandachilikka moyillikni keltirib chiqaradi. Qo'shnisi soliqdan ozod bo'lgan korxonalar yoki fuqaro shunday imtiyozlarni olish uchun hamma ochiq va taqiqlangan usullarni ishga solishi mumkin. Soliq siyosatida davlat xilma-xil imtiyoz turlarini qo'llaydi. Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlarga soliqlardan beriladigan imtiyozlarni uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Soliqdan batamom ozod etiluvchilar.
2. Soliqdan qisman va vaqtincha ozod etiluvchilar.
3. Soliqqa tortiladigan foyda (daromad) bazasini kamaytirish.

Masalan, korxonada ishlovchi xodimlar tarkibida 50 % dan ortig'i nogironlar bo'lsa, bunday korxonalar soliqdan tamomila ozod etiladilar.

Agar korxonaning eksportga sotgan tovarlari korxonalar ishlab chiqargan mahsulot hajmining 30 % idan kam bo'lmasa, bunday korxonalar foyda (daromad) soliq stavkasi 2 marta kamaytirilgan holda soliq to'laydilar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar (birja, tayyorlov ulgurji, vositachi, savdo-tijorat korxonalaridan tashqari) birinchi tuzilgan yili 25 % va ikkinchi yili 50 % belgilangan soliq stavkasidan soliq to'laydilar. Uchinchi yili 100 % soliq to'lashga to'g'ri keladi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda, soliq yoki boshqa majburiy to'lov belgilanayotganda soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida soliq imtiyozlari, shuningdek, ularning soliq to'lovchi tomonidan qo'llanilishi uchun asoslar nazarda tutilishi mumkin.

## ASOSIY TAYANCH IBORALAR

- Moliya iqtisodiy kategoriya;
- makromoliya;
- mikromoliya;
- moliya tizimi.



### TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Moliya va moliyaviy munosabatlarning kelib chiqish sabablari va zarurligi nimalardan iborat?
2. Moliya tushunchasi haqida nimalarni bilasiz?
3. Nima uchun moliya iqtisodiy kategoriya hisoblanadi?
4. Moliya munosabatlarining o'ziga xos xususiyati nimada?
5. Moliyaning funksiyalari nimalardan iborat?
6. Moliya tizimi haqida so'zlab bering.
7. Davlat moliyasi, korxonalar moliyasi tushunchalari qanday farqlanadi?
8. Davlat moliyaviy faoliyati tushunchasining mazmuni nimani anglatadi?
9. Moliyaviy mablag'larni to'plash usullari qanday?
10. Moliya bozori qanday bozor?
11. Moliya bozori qaysi bozorlarni o'z ichiga oladi?
12. Aksiyalarning qanday turlari mavjud?
13. Veksel qanday maqsadlarda chiqariladi?
14. Obligatsiyaning qanday turlari mavjud?
15. Obligatsiyaning aksiyadan farqi nimada?
16. Xazina majburiyatlarini kimlar muomalaga chiqaradi?
17. Hosilaviy qimmatli qog'ozlar egasiga qanday huquqlarni beradi?
18. Fyuchers deganda nimani tushunasiz?
19. Fond birjasida qanday savdo o'tkaziladi?
20. Soliqlarning zarurligi nimada?
21. Soliqlar qanday vazifalarni bajaradi?
22. Soliqlarning qanday turlari mavjud?
23. Soliq obyektini deganda nimani tushunasiz?
24. Soliq imtiyozlari nima?
25. Proporsional, regressiv va progressiv soliq stavkalarining bir-biridan farqi nimada?
26. Budjetning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni nimada?
27. Budjetning vazifasi nima?
28. Budjetning tasnifini aytib bering.
29. Budjet tamoyillari nimalardan iborat?
30. Budjet tizimi tushunchasi nima?
31. Budjet daromadlari deganda nimalarni tushunasiz?
32. Dotatsiya va subvensiya tushunchalarini aytib bering.
33. Budjet jarayoni tushunchasini ayting.
34. Budjet jarayoni qanday bosqichlardan iborat?
35. Budjet loyihasi tayyorlanishida nimalar asos qilib olinadi?
36. Budjetlar ijrosi deganda nimani tushunasiz?
37. Budjet ijrosini nazorat qilish qanday amalga oshiriladi?
38. Davlat budjetining kassa ijrosi tushunchasini aytib bering.
39. Budjet krediti nima?

---

**16-bob. KREDIT, SUG‘URTA VA BANK TIZIMI.  
PUL MUOMALASI**

**16.1. Kreditning mohiyati, vazifalari**

Ma'lum muddatga haq to'lash va qaytarib berish sharti bilan beriladigan bo'sh turgan pul mablag'lari kredit deb yuritiladi. Kreditning mohiyati shundaki, iqtisodiyotning ayrim subyektlari faoliyati uchun pulga muhtoj bo'lib turgan vaqtda ayrimlarining qo'lida ma'lum miqdordagi pul mablag'lari ishlatilmay bo'sh turgan bo'ladi. Iqtisodiyot nazariyasida shu pul shaklidagi kapital ssuda kapitali deb atalib uning harakati kredit tarzida namoyon bo'ladi. Kredit o'z mohiyatiga ko'ra, iqtisodiyotdagi mavjud resurslardan samarali foydalanishni va uning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladigan iqtisodiy kategoriya. Iqtisodiy kategoriya sifatida kredit, kredit oluvchilar va kredit beruvchilar o'rtasida kelib chiqadigan iqtisodiy munosabatlarni o'zida ifoda etadi.

*Kredit munosabatlarining obyektlari va subyektlari.* Kredit munosabatlari ishtirokchilari kredit subyektlari deb ataladi va ular turli-tuman bo'ladi. Kredit subyektlari kredit oluvchilar va kredit beruvchilar hisoblanadi. Ya'ni korxonalar, firmalar, davlat, turli tashkilotlar, transmilliy va xususiy korporatsiyalar, tadbirkor va sohibkorlar hamda aholining boshqa turli toifalaridir.

*Kredit obyekt* — vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'laridir. Ma'lumki, iqtisodiyot g'oyat murakkab jarayondir, uning subyektlari esa yana ham turli-tumandir. Ularning iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlari, to'lov qobiliyatlari bir xil emas. Shuning uchun kredit obyektlari bo'lib vaqtincha bo'sh pullar emas, shu bilan birga tovarlar, qimmatli qog'ozlar, turli shakldagi xizmatlar ham bo'lishi mumkin. Kredit munosabatlari xuddi ana shu bo'sh pul va tovarlarni qarzga olib ishlatish va vaqti kelganda uni ma'lum haq to'lash orqali qaytarish borasidagi munosabatlardir.

*Kredit berish tamoyillari va muddatlari.* Kredit berish ma'lum tamoyillar asosida amalga oshiriladi. Ular, asosan, quyidagilardan iborat: qaytarib berish; muddatlilik; haq to'lash (foiz to'lash); moddiy ta'minlanganlik; ma'lum maqsad (ishlatish obyekti)ni ko'rsatish.

Bu tamoyillar kreditning barcha shakllari uchun umumiydir. Kredit ma'lum ma'noda sotiladigan moddiy tovar yoki xizmatlar kabilardir. Demak, u go'yo sotiladi va sotib olinadi. Sotuvchi tovarni sotganda ma'lum foydani ko'zlaganidek, kredit muassasasi ham bundan mustasno emas.

Kreditlar quyidagi muddatlarga berilishi mumkin:

1) qisqa muddatli kreditlar — bir yilga qadar (asosan, olti oygacha, uch oygacha, bir oyga, bir haftaga) beriladi;

2) o'rta muddatli kreditlar — bir yildan besh yilgacha muddatga beriladi;

3) uzoq muddatli kreditlar — besh yil va undan ortiqroq muddatga beriladi.

*Kreditning vazifalari.* Kreditning vazifasi kredit munosabatlari-rining xo'jalik faoliyatidagi ko'rinishi yoki uning harakat ifodasidir. Kredit quyidagi vazifalarni bajaradi:

- birinchi vazifasi — pulga tenglashtirilgan to'lov vositalari bo'lgan veksell, chek, sertifikat kabilarni iqtisodiyot sohasiga jalb qilib, ularning xo'jalik faoliyatida real harakatini yo'lga qo'yadi;

- ikkinchi vazifasi — turli xo'jalik subyektlari va aholi qo'lidagi bo'sh pullarni kapitalga aylantiradi, ya'ni pulning o'z kuchi asosida ko'payishiga, pulga pul qo'shilishiga xizmat qiladi;

- uchinchi vazifasi — kreditlash orqali pul mablag'lari turli xo'jalik subyektlari va xalq xo'jaligi tarmoqlari o'rtasida qayta taqsimlanadi. Ya'ni ishlab chiqarish omillarining samara beruvchi sohalarga tezroq yetib borishiga turtki beradi;

- to'rtinchi vazifasi — pulga muhtoj mijozlarga qarz berilishi va berilgan qarzlarni vaqtida undirib olish orqali ijtimoiy ishlab chiqarishni rag'batlantiradi, ya'ni ishlab chiqarish va muomala jarayonida samaradorlikka erishilishi uchun dastak bo'ladi.

Shuni aytish kerakki, kredit o'z vazifalarini to'g'ri bajargan holdagina ijobiy natijalarga olib keladi, aksincha, kreditdan foydalanish maqsadga muvofiq kechmasa, kredit salbiy natijalarga olib keladi. Bunga xo'jalik hayotidan ko'plab misollar keltirish mumkin. Eng muhim vazifa shuki, kredit berishda undan kelishi mumkin bo'lgan oqibatlar (natijalar)ni oldindan sarhisob qilish lozimdir.

## **16.2. Kredit turlari**

Kredit iqtisodiy kategoriyadir, u qarz oluvchilar bilan qarz beruvchilar o'rtasidagi qarz pulga, undan foydalanishga (iste'mol qilishga), undan foydalanish asosida olingan natijalarga nisbatan

bo'ladigan munosabatlarni ifodalaydi. Kredit shakllari xuddi ana shu munosabatlarning real iqtisodiyot tajribasida namoyon bo'lishidir. Kredit munosabatlari esa bir tomondan, uning subyektlari o'rtasida vosita aloqalarini, ikkinchi tomondan, kredit subyektlari o'rtasidagi vositachilik qiluvchi maxsus kishilar o'rtasida amalga oshadi.

Kredit shakllari quyidagilar: bank krediti, tijorat krediti, davlat krediti, iste'mol krediti, xalqaro kredit.

*Bank krediti.* Kreditning eng qulay va keng tarqalgan shakllaridan biridir. Bank krediti «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonun talablari asosida tashkil etiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, banklar kredit muassasalari sifatida faoliyat yurituvchi tijorat tashkilotlari deyiladi. Ular xo'jalik subyektlari hamda aholining bo'sh pul mablag'larini ma'lum foizlarda beriladigan haq evaziga o'zlariga jalb qilib foyda olish uchun aholining va korxonalar hamda tashkilotlarning pulga bo'lgan talablarini qondirish maqsadida ularga kredit shaklida beradilar. Albatta, banklar kredit pullarini har qanday ehtiyojmandlarga beravermaydi, ular kreditni xo'jalik va tijorat faoliyatida samarali ishlatib foyda olib biladigan mijozlargaгина taklif etishadi. Boshqacha aytganda, banklardan kredit oluvchi subyektlar ma'lum iqtisodiy salohiyatga ega, kreditning kafolatini ta'minlay oladigan, ustiga haq qo'yib qaytarib to'lay oladigan mijozlar bo'lishlari kerak.

Bank krediti boshqa kredit shakllaridan keskin farq qiladi. Bu farq shundaki, bank kreditlari nisbatan cheklanmaydi, katta hajmlarda, uzoq muddatlarga, ma'lum tartib va qoidalar bazasiga asoslangan holda beriladi. Bank kreditlari ishonarli va kafolatlidir. Shuning uchun kredit munosabatlari tizimida bank krediti keng tarqalgan va rivojlanib bormoqda.

*Davlat krediti.* Kredit shakllaridan biri sifatida davlat krediti davlat bilan aholi va mikroiqtisodiy tuzilmalar o'rtasida iqtisodiy munosabatni vujudga keltiradi. Davlatning kredit munosabatlari subyektiga aylanishi shu bilan izohlanadiki, u bozor iqtisodiyoti sharoitida, ayniqsa, bozor munosabatlariga o'tish davrida, iqtisodiy markaz sifatida rol o'ynaydi. Davlat milliy iqtisodiyotining taqdiri va istiqboliga mas'ul tuzilma sifatida ham qarz beradi, ham qarz oladi. U qarzni aholidan, korxonalaridan, tashkilotdan, xorijiy davlatlar va kompaniyalardan olib, uni milliy iqtisodiyotda chuqur strukturaviy o'zgarishlar qilish, iqtisodiyotni bozor talablariga moslashtirish maqsadlarida safarbar qiladi.

Davlat qarzni zayom shaklida, naqd pul jamg'armalari va boshqa shakllarda oladi. Bunday kredit munosabatlari iqtisodiyotda

davlatning ichki qarzi deb yuritiladi. Shuni aytish kerakki, davlat olgan ichki qarzni hamda uning foizini budjet daromadlari hisobidan qaytaradi. Ayni chog'da davlat o'z budjetidan korxonalarni iqtisodiy nochor ahvoldan chiqarish, ularning iqtisodiyotini sog'lomlashtirish maqsadlarida kredit beradi. Odatda, bunday maqsadlarda beriladigan kreditlar imtiyozli kredit bo'ladi, ya'ni undan naf ko'rish ko'zda tutilmaydi. Shunday qilib, kredit iqtisodiyotni sog'lomlashtirish jarayonida ham qatnashuvchi iqtisodiy dastakdir.

Mamlakatimizning bozor iqtisodiyotiga o'tib borishi hamda xalqaro iqtisodiy munosabatlarning subyekti (ishtirokchisi)ga aylanishi kreditning xalqaro shaklidan keng foydalanish zarurligini ko'rsatmoqda.

*Xalqaro kredit* — ssuda kapitalining xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasida harakat shaklidir. Bunda kredit beruvchi va kredit oluvchilar sifatida davlat muassasalari, banklar, firmalar, xalqaro valuta-kredit va moliya tashkiloti qatnashadi. Xalqaro kredit ham «kredit» kategoriyasining bir turidir va u bir qator iqtisodiy kategoriyalar (foyda, baho, pul, valuta kursi, to'lov balansi, savdo balansi kabilar) bilan bog'liqdir.

Xalqaro kredit o'z yo'lida bir qancha ko'rinishlarda bo'ladi. Masalan, ichki, tashqi, aralash kreditlash, tashqi savdoni moliyalash, tijorat krediti, investitsiya obyektlarini kreditlash, qimmatli qog'ozlarni sotib olish, tashqi qarzni uzish, tovar shaklida va valuta shaklida kreditlash, xalqaro pul birliklarida (SDR, ECU) kredit berish kabi shakllarda bo'ladi.

*Tijorat krediti* — bu sotuvchilarning xaridorlarga tovar shaklida beriladigan kreditdir. Bunda tovarlar ma'lum muddatda pulini to'lash sharti bilan nasiyaga beriladi. Tijorat kreditini nasiyaga oluvchi uning egasiga veksel (qarzning majburiyatnomasi)ni beradi. Tijorat kreditida foiz nasiyaga sotiladigan tovar narxiga ustama shaklini oladi, shu sababli tovar nasiyaga, shu davrdagi narxdan yuqoriroq narxda beriladi. Bevosita kreditning ommaviy ko'rinishlaridan biri qimmatbaho tovarlarning (avtomashina, uy, televizor, kompyuter, yaxta, videomagnitofon) aholiga nasiyaga sotilishidir. Bunday kredit tovarlarni bo'lg'usi daromad hisobiga sotish uchun qo'llaniladi. U to'yingan tovarlar yetarli, binobarin, taqchilik yo'q bozorda qo'llaniladi.

*Iste'mol krediti* — tijorat banklari tadbirkorlik uchun firmalarga qarz bersa, iste'molchilarga tovar sotib olish uchun qarz beradi. Buning natijasida iste'mol krediti paydo bo'ladi. Bunda bank

iste'molchilarga kredit kartochkalari beradi, ularga ma'lum summaga qadar tovarlar xarid etadilar, xarid puli banklar magazinlar bergan schotga qarab to'lanadi. Bunday kredit g'oyat imtiyozli bo'ladi, hatto foizsiz ham bo'lishi mumkin. Iste'mol krediti aholining iste'mol ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan.

*Ipoteka krediti.* Yakka tartibda uy-joy qurish maqsadlariga beriladigan uzoq muddatli kreditlar ipoteka krediti deyiladi.

### **16.3. Sug'urta tushunchasi, sug'urta turlari**

Sug'urta moliya munosabatlarining o'ziga xos alohida shakli bo'lib, u yuz beradigan turli tabiiy ofatlar, favqulodda holatlar, oldindan ko'rib bo'lmaydigan hodisa va voqealar natijasida yetkazilgan zarar va talafotlarni bartaraf etishga qaratilgan maxsus pul resurslaridir.

«Sug'urta» tushunchasiga O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 6-mayda qabul qilingan «Sug'urta to'g'risida»gi Qonunida quyidagicha ta'rif berilgan: «Sug'urta — inson faoliyatining turli sohalarida sodir bo'ladigan tabiiy ofatlar, favqulodda hodisa va boshqa voqealar natijasida yetkazilgan zarar hamda talafotlarni jismoniy va yuridik shaxslar to'lagan sug'urta badallari (sug'urta puli)dan hosil qilinadigan pul fondlari hisobidan to'liq va qisman qoplash yo'li bilan jismoniy va yuridik shaxslar manfaatlari sug'urtalanishini ta'minlashga doir munosabatlar demakdir».

Ko'plab adabiyotlarda sug'urta so'zi xavf-xatar, dahshat, vahima ma'nosida ishlatiladi, chunki ko'rilgan tabiiy ofatlar va baxtsiz hodisalar natijasida jamiyat hayotiga moddiy zararlar yetkaziladi. Lekin sug'urta deganda ana shu ruhiy holatlar emas, balki ular orasida vujudga keladigan va paydo bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda zararlar, ularning kuchini qirqishga qaratilgan tadbirlar, zarar natijasida vujudga kelgan kamomadning o'rnini to'ldirish, bu yo'nalishda yuzaga keladigan sug'urtalovchi tashkilotlar va sug'urtalanuvchilar o'rtasidagi munosabatlar ko'zda tutiladi. Bu munosabatlarning barcha yig'indisi sug'urta tushunchasini hosil qiladi.

*Sug'urtaning zarurligi.* Inson yashashi uchun moddiy ne'matlarni uzluksiz yaratib borishi lozim. Lekin ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishiga tabiiy ofatlar, ko'zda tutilmagan favqulodda hodisalar salbiy ta'sir ko'rsatadi, uning hajmini kamaytirib, mahsulotning son-sifati darajasini pasaytirib yuboradi. Ishlab chiqarishning doimiyligini ta'minlash uchun yetkazilgan talafot o'rnini tezda to'ldirish, korxonalar va fuqarolarga zarar oqibatlarini tugatishda

yordam berish kerak. Buning uchun tashqaridan, birinchi navbatda, pulli yordam uyushtirish zarur. Zararlar esa turli xil bo'ladi. Katta miqdordagi zararlarni qoplash uchun shunga yetarli miqdorda jamg'arma (fond) shakllantirish talab etiladi. Bu jamg'arma, asosan, sug'urtalanuvchining badallari asosida shakllanib, to'planib, uning hisobidan qoplanadi.

Sug'urta uzoq tarixga ega bo'lib, miloddan ancha oldin hukmronlik qilib, Bobil podsholigi davrida ishlab chiqilgan va Hammurabi joriy qilgan qoidada o'z ifodasini topgan. Unda yirik savdo karvonlari jamoasi uzoq safarga chiqqanda talafot ko'rsa, zararni jamoa a'zolari o'rtasida barobar taqsimlash yo'li bilan kamomadni qoplash ko'zda tutilgan va shu orqali hamkorlikda yordam uyushtirilgan. Ko'zda tutilgan bu qoida sug'urta fondi tashkil qilingunga qadar kelib chiqqan. To'satdan yuz bergan hodisalar — qaroqchilar hujumi, betob bo'lib qolish kabilar natijasida kelib chiqqan zararni qoplash usuli bir mamlakatda o'rganilib, ikkinchi mamlakat savdogarlari o'rtasida ham qo'llanila boshlangan va Markaziy Osiyo shaharlari bo'ylab keng tarqalgan. Keyinchalik bu qoida rivojlanib, karvonlar safarga otlana boshlaganlarida «sug'urta fondi»ni shakllantirish rusum bo'la boshlagan. Sug'urtalash hayotiy, tarixiy zarurat tufayli kelib chiqqan deyish mumkin.

Bu borada O'zbekistonda bir qancha ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 1993-yilda «Sug'urta to'g'risida»gi Qonun va 1997-yilda Prezident Farmoni asosida «O'zagrosug'urta», «Kafolat», «O'zbek-invest» sug'urta kompaniyalari vujudga keldi.

*Sug'urtaning maqsadlari.* O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1993-yil 6-mayda qabul qilingan «Sug'urta to'g'risida»gi Qonunda sug'urtaga berilgan ta'rifda ko'rsatilishicha, sug'urtadan maqsad tabiiy ofatlar va ko'ngilsiz hodisalardan keltirilgan zararlarni qoplash uchun pul fondlar hosil qilishdir. Jismoniy va yuridik shaxslar hisobidan shakllanadigan bu fondlarni hosil qilishda sug'urta tashkilotlari bilan sug'urtalanuvchilar o'rtasida munosabat yuzaga keladi. O'zbekiston sharoitida bu munosabat yuzlab sug'urta tashkilotlari bilan minglab korxonalar va tashkilotlar, millionlab fuqarolar o'rtasida shakllanadi.

Ko'rsatilgan jismoniy va huquqiy shaxslar to'lagan badallaridan yuzaga keladigan pul fondlari ulkan miqdorni tashkil qiladi. Fond paydo bo'lgandan keyin uning hisobidan ko'rilgan zararlar qoplanadi. Sug'urta tashkiloti zarar miqdoriga qarab mablag' ajratadi. Sug'urtalanuvchi bu mablag'lar hisobidan zararlarni va ularning oqibatlarini tugatishga harakat qiladi.



*Sug'urta vazifalari.* Ma'lumki, sug'urtaning iqtisodiy mazmuni uning vazifalarida ifodalanadi. Sug'urtaning vazifalari bu iqtisodiy dastak bajaradigan ishlardir. Vazifani bajarish esa vaqtinchalik xarakterga ega bo'lib, u bajarilganidan keyin boshqasini bajarishga o'tiladi. Funksiya deganda esa doimiy takrorlanib turadigan vazifalar tushuniladi. Sug'urta tushunchasi moliya va kredit tushunchalari bilan bog'langanligi tufayli ularning taqsimlash va nazorat funksiyalari sug'urtaning ham funksiyalari qatoriga kiradi. Shu bilan birga sug'urtaning o'ziga xos quyidagi funksiyalari bor:

1. Xavf-xatar funksiyasi;
2. Ogohlantirish funksiyasi;
3. Investitsiya funksiyasi;
4. Omonat funksiyasi;
5. Axborot funksiyasi.

*Sug'urtaning xavf-xatar oqibatlarini bartaraf etish funksiyasi* — bu funksiyaning zaruriyligi shundaki, qadim zamonlardan buyon insoniyat tabiiy ofatlarni favqulodda vayronagarchilik va ulkan zararlar keltirishni hamda ularni ishlab chiqarishga ko'rsatgan ta'sirini boshidan kechirishgan. Mahsulot, mablag', urug'lik, yoqilg'i va moddiy ne'matlardan zaxira hosil qilganlar va ular hisobidan ofat oqibatlarini tugatish uchun muhtojlarga yordam berishgan. Zilzila, toshqin, yong'in oqibatlari sug'urtaning ana shu funksiyasi amal qilishi natijasida hosil qilingan fondlar asosida tugatilgan.

*Sug'urtaning ogohlantirish funksiyasi* — sug'urtaning bu funksiyasi xavf-xatar funksiyasi bilan bog'langan. Ma'lumki, irrigatsiya va tabiatni muhofaza qilish kabi tadbirlar ko'p mablag' talab qilgani uchun budjet hisobidan ta'minlanadi. Mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan ogohlantirish xavfining oldini olish tadbirlari sug'urta to'lovlarining tushumidan ajratma sifatida beriladigan mablag'lar hisobiga qoplanadi. Bu mablag'lardan, asosan, uch yo'nalishda foydalaniladi:

1. Yong'indan ogohlantirish va yong'inga qarshi kurash tadbirlariga.
2. Qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi kamayishiga qarshi tadbirlarga.
3. Chorva mollarida uchraydigan kasalliklarning oldini olish va ularning qirilib ketmasligi tadbirlarini bajarishga.

Sug'urtaning ogohlantirish tadbirlariga sarflash uchun ajratiladigan mablag'lar favqulodda zararlarni va uning oqibatlarini kamaytirishda katta ahamiyatga egadir.

*Sug'urtaning investitsiya funksiyasi* — sug'urtaning bu funksiyasi shundan iboratki, sug'urta badallarining yig'ilishi va ular hisobidan

zararning qoplanishi bir vaqtda emas, balki turli muddatlarda sodir bo'lganligi uchun ishlatilmay bo'sh turgan mablag'lar hisobidan zaxira fondlari tashkil etiladi va ularning ma'lum qismidan sug'urta tashkilotlari tijorat maqsadlari uchun foydalanishadi. Ya'ni bo'sh turgan mablag'lardan aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlar sotib olib, ular hisobidan qo'shimcha daromad olishadi. Sug'urtaning investitsiya funksiyasi bo'sh turgan mablag'lardan samarali foydalanib, sug'urta tashkilotining moliyaviy ahvolini yaxshilashga yordam beradi.

*Sug'urtaning omonat funksiyasi.* Sug'urtaning omonat funksiyasining omonat kassalarining funksiyasidan farqini quyidagilardan ko'rish mumkin: omonat kassalarida omonatlarga ma'lum muddatlarda saqlangan davrga nisbatan shaxsiy sug'urta va uning boshqa xillarida, ma'lumki, foiz olish huquqi beriladi, mulk sug'urtasida esa sug'urtalangan ma'lum muddatga badallarni to'laydi va bu badallar sug'urta tashkiloti ixtiyorida bo'ladi. Agar sug'urta davrida biror sug'urta hodisasi ro'y bersa, sug'urta tashkiloti yetkazilgan zararni o'z hisobidan qoplaydi, omonat kassalarida esa bunday xususiyatlar mavjud emas.

*Sug'urtaning axborot funksiyasi* — bu sug'urtaning yangi funksiyasidir. Ilgari sug'urta monopoliyasi borligida bunday funktsiya mavjud bo'lmagan, chunki u davrda sug'urtalashda faqat davlat sug'urta tashkiloti hukmronlik qilgan. Sug'urtaning bu funksiyasi vujudga kelishiga sabab shuki, O'zbekiston mustaqillikka erishib, o'z hududida o'zining iqtisodiy siyosatini yurita boshlagach, O'zbekiston sug'urta hududida o'nlab yangi sug'urta kompaniyalari, agentliklari, firmalari vujudga keldi hamda ularning har biri o'ziga xos sug'urta obyektlari va shartlariga ega bo'ldi. Ularning ko'pchiligi mol-mulkni sug'urta qilish bilan shug'ullanadi. Bundan tashqari, tibbiyot transporti va boshqa sug'urta kompaniyalari mavjud bo'lib, ularning ko'pchiligi xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda ish olib borishmoqda. Sug'urta faoliyatini rivojlantirish sug'urtalanuvchilarga har bir tashkilot haqida axborot berishni talab qiladi. Buning uchun ma'lumotnomalarni shakllantirishi, o'zlariga ajratilgan hollarda sug'urta tashkilotlari birgalikda sug'urta bozorini tashkil qilishi lozim.

*Sug'urta summasi.* Sug'urta summasi bu obyektning qancha miqdorda (summaga) sug'urta qilinganligidir. Majburiy sug'urtada summa obyektning hajmi va ta'rifi asosida hisoblab chiqiladi. Ixtiyoriy shaxsiy sug'urtada esa sug'urta summasi sug'urta tashkiloti tomonidan belgilanib, chipta bahosi tarkibiga kiritiladi.

*Sug'urta fondi.* Sug'urta fondi shunday pul fondiki, u kutilmagan holatlardan ko'rilgan zararni jismoniy va yuridik shaxs-

larga to'la yoki qisman qoplash imkonini beradi. Sug'urta fondi, asosan, sug'urta badallari hisobidan shakllanadi. Sug'urtalanish uchun sug'urta badali to'lanishi kerak. Sug'urta badali milliy daromadini taqsimlash va qayta taqsimlash asosida ajralib chiqib, maxsus fond bo'lib shakllanadi. Yuridik shaxslar, fuqarolar o'z daromadlarining bor qismini sug'urta to'lovi sifatida sug'urta tashkilotlari ixtiyoriga o'tkazadilar. Sug'urtalanganlar qancha ko'p bo'lsa, sug'urta fondiga tushadigan mablag'larning umumiy miqdori shuncha oshadi.

Yuridik va jismoniy shaxslar to'lagan badallardan sug'urta fondi paydo bo'ladi, so'ng bu fondlar hisobidan ko'rilgan zararlar qoplanadi. Ya'ni sug'urta tashkilotlari zarar miqdoriga qarab mablag' ajratadi. Sug'urtalanuvchi bu mablag'lar hisobidan zararlarni va uning oqibatlarini tugatishga harakat qiladi. Undan tashqari, sug'urta fondi faqat zarar oqibatini tugatish emas, balki ularning oldini olish, aniqrog'i ogohlantirish tadbirlariga ham sarflanadi. Buning uchun sug'urta badallari tushumlaridan ma'lum foizi ogohlantirish fondini tashkil qilishga ajratiladi va bu fond hisobidan har yili qator tadbirlar amalga oshiriladi.

Respublika hududida har yili majburiy va ixtiyoriy sug'urta badallari hisobidan ulkan sug'urta fondlari shakllanadi. Bu fondlarning sarflanishi, avvalo, xavf-xatarga bog'liq. Agar sug'urta hodisasi ro'y bermasa, zararni qoplashga sarflanadigan mablag' kam miqdorni tashkil qiladi. Yirik miqyosda sug'urta hodisasi sodir bo'lsa, yetkazilgan zararni qoplash uchun sug'urta fondidan mablag' sarflashga to'g'ri keladi.

*Sug'urta bozori.* Sug'urta bozori bir necha sug'urta tashkiloti tashabbusi bilan shakllanadi. Undagi har bir sug'urta tashkilotining vakili o'z ish xonasining faoliyati taklif qiladigan sug'urta xillari va shartlari haqida bo'lajak sug'urtalanuvchilarni tanishtiradi va shulardan birortasini tanlashga yordam beradi, lozim bo'lib qolsa, shu yerning o'zida sug'urta shartnomasini rasmiylashtiradi. Sug'urta bozori bir shahar, mamlakat miqyosidagina emas, balki bir necha mamlakat doirasida xalqaro sug'urta bozori sifatida shakllanadi va qayta sug'urtalash tadbirlarini amalga oshirishga yordam beradi.

Mustaqillikka erishganimizga qadar O'zbekistonda sug'urta bozori bir tomonlama rivojlanib keldi, chunki u davrda inson hayoti va alohida shaxslarning mol-mulki sug'urta qilinardi, xolos. Undan tashqari, sug'urta ishida davlat sug'urta tashkilotlari monopolist bo'lganligi tufayli bu sohada raqobat umuman bo'lmagan. Respublikamiz mustaqillikka erishib, jahon xo'jaligiga integra-

tsiyalashib borganligi tufayli mamlakatimiz bozoriga kirib kelgan chet el kompaniya va firmalariga turli-tuman sug'urta xizmatlari zarur bo'lib qoldi va bunday xizmatlar rivojlangan g'arb mamlakatlari darajasiga muvofiq kelishi kerak edi. Shu niyatda 1993-yil 6-mayda Oliy Majlis tomonidan «Sug'urta to'g'risida»gi Qonun qabul qilinganligi O'zbekistonda sug'urta bozorini jonlantirish uchun qo'yilgan birinchi qadam bo'ldi, 1997-yilda sug'urta qonunchiligidagi muhim o'zgarishlar tufayli davlat, hissadorlik va xususiy sug'urta tashkilotlari vujudga keldi. Bu esa O'zbekistonda sug'urta bozori jonlanib ketishiga asos bo'ldi. Hozirda esa yuqorida keltirilgan tarkibiy o'zgarishlar sababli O'zbekiston sug'urta bozorida «O'zagrosug'urta», «Kafolat», «O'zbekinvest» sug'urta kompaniyalari, «Madad» sug'urta agentligi hamda turli qo'shma sug'urta tashkilotlari va xususiy sug'urta tashkilotlari faoliyat olib bormoqda.

*Sug'urta bozorining subyektlari.* Har qanday bozor kabi bu bozor ham o'z subyektlariga ega. Ular, *birinchidan*, o'z manfaatlaridan kelib chiqib, sug'urta himoyasi bo'yicha xizmatlarni sotib oluvchilar (sug'urtalanuvchilar), *ikkinchidan*, bunday xizmatlarni ishlab chiqaruvchi va sotuvchilardir (sug'urtalovchilar), *uchinchidan*, mazkur shaxslar o'rtasidagi vositachilar (sug'urta agentlari va brokerlari), *to'rtinchidan*, sug'urtalangan shaxslar, *beshinchidan*, manfaatdor shaxslar (naf oluvchilar), *oltinchidan*, uchinchi shaxslar.

Ichki sug'urta bozori moliyaviy tarkibini sug'urta tashkilotlarining moddiy va moliyaviy resurslari tashkil qiladi. Sug'urta bozorining asosiy vazifasi sug'urta xizmatchilariga talabni shakllantirish (marketing, reklama), shartnomalar tuzish va sug'urta polislarini sotish maqsadga muvofiq va egiluvchan siyosatni olib borish, o'z infratuzilmasini tartibga solish tushuniladi.

Sug'urta bozori subyektlari xilma-xil bo'lganligi tufayli ular ma'lum tizim va tamoyillarga rioya qilish asosida faoliyatlarini yo'lga qo'yish sug'urta munosabatlaridagi eng muhim ishlardan biridir.

### *Sug'urta turlari*

*Aholi hayotini aralash sug'urtalash.* Hayotni aralash sug'urtalash deb atalishiga sabab shuki, bunda uch xil sug'urta javobgarligi mujassamlashtirilgan. Ularga ma'lum yoshga yetgunga qadar sug'urta hodisalaridan, baxtsizlik hodisalaridan, vafot hodisalaridan sug'urtalash kiradi. Aholi hayotini aralash, bolalar va nikoh to'yi sug'urta turlari bo'yicha sug'urtalash «O'zagrosug'urta» davlat

hissadorlik sug'urta kompaniyasi tasdiqlagan 11-qoida shartlariga asoslangan holda olib boriladi.

Mazkur qoida shartlari asosida «O'zagrosug'urta» sug'urta kompaniyasining tarkibiy bo'limlari O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan yoki O'zbekistonda doimiy yashovchi xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bilan hayotni aralash, bolalar va nikoh to'yi sug'urta turlari bo'yicha shartnoma tuzadilar.

Hayotni aralash sug'urtalash bo'yicha shartnoma 16 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan fuqarolar bilan 1 oydan 6 oygacha, 1 yilga, 3, 5, 10, 15, 20 yil muddatga tuziladi. Bolalar sug'urtasi bo'yicha sug'urtalash muddatining chegarasi 18 yoshgacha etib belgilangan. Nikoh to'yining sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta puli uning muddati to'lganda, sug'urtalangan shaxs nikohdan o'tganda to'lanadi. Kasalligi bo'yicha I guruh nogironlari bilan sug'urta shartnomalari tuzilmaydi.

*Fuqarolarni qo'shimcha nafaqaga sug'urtalash.* Fuqarolarni qo'shimcha nafaqaga sug'urtalash shartnomasi sug'urta tashkiloti bilan sug'urtalanuvchi o'rtasida sug'urtalanuvchining belgilangan shakldagi yozma arizasi asosida tuziladi. Bunday shartnomalar 25 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar va 20 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan ayollar bilan tuziladi. Sug'urtalanuvchining xohishi bilan sug'urta muddati davomida bir necha marta shartnoma tuzilishi mumkin. Qo'shimcha nafaqaga sug'urtalangan fuqaro sug'urta muddati davomida va qo'shimcha nafaqa olish davrida baxtsiz hodisalardan ham sug'urtalangan hisoblanadi.

Nafaqaga chiqqungacha o'tgan davr sug'urta muddati deb aytiladi. Bu muddat tugagach, agar sug'urta shartnomasi bo'yicha hamma badallar to'langan bo'lsa, sug'urtalanuvchiga nafaqa yoshiga to'lgandan so'ng umrining oxirigacha qo'shimcha nafaqa to'lanadi. Nafaqa miqdori respublikada belgilangan eng kam nafaqa miqdorida belgilanadi. Sug'urta badali sug'urtalanuvchining yoshiga va nafaqa miqdoriga qarab belgilanadi.

Agar sug'urtalanuvchi navbatdagi uch oy uchun badallarni to'lamasa, sug'urta shartnomasi bekor qilinadi va to'langan badallardan 15 % sug'urta xarajatlari chegirilgan holda qaytarib beriladi. Sug'urta badali naqd pul yoki pul o'tkazish yo'li bilan to'lanishi mumkin.

*O'quvchilar hayotini ko'ngilsiz hodisalardan sug'urtalash.* Sug'urtaning bir turi bo'yicha sug'urta shartnomasi kunduzgi maktab o'quvchilarini ko'ngilsiz hodisalardan sug'urtalash maqsadida o'quvchining ota-onasi, qarindoshlari va ayrim yuridik shaxslar bilan tuziladi. Sug'urta badallarini to'lashda ota-onalar bilan birga,

korxonalar va tashkilotlar hamda maktablar o'z mablag'lari hisobidan naqd pulsiz hisob-kitob yo'li bilan ishtirok etishlari mumkin. Sug'urta badali sug'urta pulidan 0,5 % miqdorida belgilanadi. Kasalligi tufayli vafot hodisasidan sug'urta qildirsang, 2 % miqdorida badal to'lanadi. O'quvchilar sug'urtasi yil mobaynida o'tkaziladi va sug'urta shartnomasi 1 yil muddatga tuziladi. Sug'urta puli miqdori jihatidan chegaralanmaydi. Sug'urta hodisalari yuz berganda davolash bilan bog'liq bo'lmagan tashxis qo'yish, davolash va oldini olish chora-tadbirlarining yomon oqibatlarini uchun sug'urta qoplamasi to'lanmaydi. Sug'urta qildirilgan shaxsning vafoti munosabati bilan sug'urta qoplamasi to'lash Fuqarolik kodeksi me'yorlari asosida amalga oshiriladi.

*Tibbiyot sug'urtasi.* Ma'lumki, insonning eng asosiy boyligi uning salomatligidir, biroq, inson hayoti, uning doimo sog'-omon yurishi tabiiy kafolatlanmagan, ya'ni u turli kasalliklar tufayli og'ir ijtimoiy-iqtisodiy ahvolga tushib qolishi mumkin. Shuning uchun inson o'z salomatligini saqlashi, kasallikka chalinganda davolanish imkoniyatiga ega bo'lishi, boshqalarga muhtoj bo'lmalik chora-tadbirlarini ko'rib qo'yishi lozim. Uni amalga oshirishda tibbiyot sug'urtasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Boshqa sug'urta qilish turlari kabi tibbiyot sug'urtasi ham sug'urta idorasi bilan sug'urtalanuvchi o'rtasida shartnoma tuzish orqali amalga oshiriladi. Tibbiyot sug'urtasi sug'urtalanayotgan shaxsning o'z hisobidan, ishlayotgan korxonasi yoki boshqa moliyaviy imkoniyatlar tomonidan tuzilishi mumkin.

*Tadbirkorlik faoliyatini sug'urtalash.* Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyatini sug'urtalash alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda tadbirkor foydani kam olishi yoki umuman ololmay qolishdan, zarar ko'rishdan, tuzilgan shartnomalarning turli sabablarga ko'ra buzilishidan, keladigan pulning vaqtida tushmasligidan, savdosotiqning uzilib qolishidan, yo'l hodisasidan keladigan zararlardan sug'urtalanadi. Tadbirkorlik sug'urtasi tadbirkorlarning bozor raqobati va turli baxtsiz hodisalar keltiradigan zararlar oqibatida xonavayron bo'lib ketmasligi uchun himoya vositasidir.

*Qishloq xo'jaligi ekinlari hosilini sug'urta qilish.* Qishloq xo'jaligi ekinlari hosilini sug'urtalash sug'urta to'lovini hisoblashdan boshlanadi. Buning uchun dastlab uch ko'rsatkichni aniqlash talab etiladi:

1. Joriy yil uchun bir gektar ekin maydonidan olinishi rejalashtirilgan hosil. Bunda hosildorlik miqdori keyingi uch yil ichida olingan haqiqiy hosildorlikdan yuqori bo'lmashligi kerak.

2. Mahsulot sotish narxi.

3. Ekin maydoni hajmi.

Bunda har bir ekin hosilining qiymati alohida hisoblanadi. Agar mazkur yilda rejalashtirilgan hosil so'nggi uch yilda haqiqiy o'rtacha hosildorlikdan ortiq bo'lsa, sug'urta to'lovlari o'rtacha uch yillik hosildorlik bo'yicha hisoblanadi. Ko'rsatilgan uch ko'rsatkich aniqlanganidan keyin sug'urta to'lovlari «O'zagrosug'urta» sug'urta kompaniyasi tomonidan belgilangan stavkalar asosida aniqlanadi. Bu stavkalar viloyatlar bo'yicha tarmoqlashtiriladi. Masalan, Farg'ona viloyatida stavka sug'urta puliga nisbatan paxta 8—12 %, yem-xashak 3—5 %, silos ekinlari 15—25 % va texnika ekinlari 20—30 % belgilangan.

Shartnomada ko'rsatilganidek, sug'urta to'lovi kelib tushgan kuni sug'urta polisi beriladi. Polis olingan kundan boshlab ekinlar sug'urtalangan hisoblanadi.

*Qishloq xo'jaligi hayvonlarini sug'urtalash.* Qishloq xo'jaligi hayvonlarini yuqumli kasalliklar natijasida nobud bo'lishdan, o'latdan, majburiy so'yishdan ixtiyoriy sug'urta qilinadi. Bu sug'urtaga:

a) qoramollar, qo'y-echkilar (6 oylikdan boshlab), uy parrandalari;

b) otlar, tuyalar, eshaklar va xachirlar 1 yoshdan boshlab;

d) asalari oilalari qutida;

e) cho'chqalar va quyonlar 4 oylikdan boshlab sug'urtalanadi.

Asosiy chorva mollari sifatida qishloq xo'jaligi korxonasi balansida turuvchi (01 hisob) hayvonlarining sug'urta puli ularning joriy yil 1-yanvardagi qiymati bo'yicha belgilanadi. Sug'urta to'lovlari stavkalari «O'zagrosug'urta» sug'urta kompaniyasi tomonidan mollarning har bir turiga ko'ra tasdiqlangan foizlarda belgilanadi. Sug'urta qilingan hayvonlar nobud bo'lganda sug'urta qoplamasining miqdori shartnomada ko'rsatilganidan ortiq bo'lmasligi kerak.

#### **16.4. Sug'urta kompaniyasi**

Sug'urta kompaniyasi quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Sug'urtaning majburiy va ixtiyoriy turini amalga oshirish, sug'urtalanuvchilarning manfaatlarini to'laroq qondira oladigan sug'urtaning yangi xillarini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etib borish;

2. Ogohlantirish vazifasini bajargan holda sug'urta obyektlarini zararlanishi va nobud bo'lishdan asrash tadbirlarini amalga oshirish;

3. O'z mablag'larini investitsiya va tijorat faoliyatining muhim tarmoqlariga joylashtirishga harakat qilish va shu bilan birga kredit berish asosida o'ziga tegishli qoidalarini to'ldirib borish;

4. O'z faoliyatini amalga oshirishda respublika vazirliklari, idoralari va boshqa sug'urta tashkilotlari bilan hamkorlikda ish olib borish;

5. Sug'urtaning axborot funksiyasi asosida reklama va maslahat xizmatlarini ko'rsatish.

Kompaniya, asosan, quyidagi sug'urta turlarini amalga oshiradi:

1. Qishloq xo'jaligi korxonalarini va aholisini majburiy sug'urtalash, ya'ni:

a) tijorat banklari tomonidan qishloq xo'jaligi korxonalariga ajratiladigan kreditlarning qaytarilishi uchun qishloq xo'jaligi korxonalarining javobgarligini sug'urta qilish;

b) mahsulotlarni yetirish uchun avans tariqasida beriladigan va fyuchers kontraktlari bo'yicha mablag'lar qaytarilishini sug'urta qilish;

d) qishloq aholisiga tegishli mol-mulklarni sug'urta qilish;

e) garovga qarzga qo'yilgan mol-mulknini sug'urta qilish;

f) transport egalari uchun fuqarolik javobgarliklarini sug'urta qilish.

2. Qishloq xo'jaligi korxonalarini ixtiyoriy sug'urta qilish, ya'ni:

a) ekinlar hosilini sug'urta qilish;

b) ekinlarni qayta ekishni va ola chiqqan ekinlarni butlashni sug'urta qilish;

d) chorva mollari sug'urta qilish;

e) asosiy vositalarni sug'urta qilish;

f) tabiiy pichanzorni, yaylovlarni va tut bargini sug'urta qilish;

g) pillani sug'urta qilish;

h) bog'lar va uzumzorlar hosilini do'l urishidan sug'urta qilish;

i) korxonalar, dehqon, fermer va ijara xo'jaliklarining mol-mulkini sug'urta qilish;

j) qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan jo'natiladigan yuklarni sug'urta qilish.

Sug'urta kompaniyalari naqd pulsiz shakllardan oddiy va egasi yozilmagan aksiya chiqaradigan cheklanmagan miqdorda sug'urta fondlari tashkil qilish huquqiga ega. Nizom fondining 25 % i zaxira fondlari daromadi hisobidan tashkil qilinadi. Bundan tashqari, kompaniya o'z faoliyatini amalga oshirish uchun boshqa fondlar ham tashkil qiladi.

O'zbekistonda shunday kompaniyalardan biri — bu «Kafolat» davlat hissadorlik sug'urta kompaniyasidir. Bu sug'urta kompaniyasi 1997-yil 14-martda tashkil etilgan bo'lib, dastlabki ustav kapitali 500 mln so'm qilib belgilangan. Asosan, shahardagi yuridik va jismoniy shaxslarga majburiy va ixtiyoriy sug'urta xizmati ko'rsatadi.



Kompaniya vazifalari quyidagilardan iborat:

- a) shaharlarda aholi hayotini, salomatligini va mol-mulkini sug'urta qilish;
- b) korxonalar, tashkilotlar va muassasalar mol-mulkini sug'urta qilish;
- d) yuridik va jismoniy shaxslarning moliyaviy va tadbirkorlik tavakkalchiliklarini sug'urta qilish;
- e) qonunda ko'zda tutilgan sug'urtaning majburiy turlarini amalga oshirish;
- f) qo'shimcha sug'urtalash va qayta sug'urta operatsiyalarini amalga oshirish, sug'urtaviy maslahat xizmatini ko'rsatish;
- g) mahalliy sharoitni hisobga olib sug'urtaning yangi turlarini joriy qilish.

1. Korxonalar javobgarligi va mol-mulkini ixtiyoriy sug'urta qilish. Shaharlarda joylashgan davlat, xususiy, qo'shma va kichik korxonalar hamda tashkilotlarning javobgarligi va mol-mulkini sug'urta qilish.

2. Sug'urtaning qonunchilik hujjatlarida va hukumat qarorlarida nazarda tutilgan majburiy turlarini sug'urta qilish.

«O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi 1997-yil fevraldan buyon faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Bu kompaniya 1994-yil 21-yanvarda «O'zbekinvest» milliy sug'urta kompaniyasining mulkiy va nomulkiy huquq hamda majburiyatlari bo'yicha haqiqiy vorisidir. Dastlabki ustav kapitali 60 mln AQSH dollari etib belgilangan. Uning asosiy vazifasi respublikada eksport o'sishini yanada rag'batlantirish, o'zbekistonlik eksportchilarni sug'urtaviy himoyalash, xorijiy mamlakat investorlari bilan aloqa qiluvchi o'zbek investorlarining faoliyatini kuchaytirish, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga jalb etilayotgan chet el investorlarini kompleks sug'urtaviy himoya qilish. Ushbu kompaniyaning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, u investorlarni faqat iqtisodiy xatardangina emas, balki siyosiy xavf-xatardan ham himoya qiladi.

«Madad» sug'urta agentligi. «Madad» sug'urta tashkiloti ixtisoslashgan sug'urta tashkiloti bo'lib, uning asosiy maqsadi xususiy tartibda ish olib boruvchi kichik va xususiy biznesni qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlarga imtiyozli kredit berish bilan aloqador va sug'urtaning boshqa xillarini amalga oshirishdan iboratdir. Agentlik faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash;
2. Fermer xo'jaligini rivojlantirish;
3. Binokorlik va binokorlik industriyasi, mahalliy sanoat, turizm, xizmat ko'rsatish doiralari taqdim qilinadigan investitsiya

loyihalarini baholash va ekspertizadan o'tkazib, biznes fond hisobidan xususiy tadbirkorlarga va kichik biznesga yengil shartlar bilan kredit berishga tavsiya qilish kabilar.

Shu bilan birga bu agentlik yengil shartlar asosida tadbirkorlikni sug'urta qiladi, o'z vaqtida qaytarilmaydigan kreditlarni undirishga yordam beradi. Xorijiy investorlarni sug'urta jihatidan himoya qilishni va boshqa xizmatlarni amalga oshiradi. «Madad» sug'urta agentligi taqdim qilingan loyihalarni ko'rib chiqish va xaridorlarga qulay shart-sharoit yaratish maqsadida 10 dan ortiq konsalting firmalari bilan hamkorlikda ish olib boradi. Agentlik respublikada 13 ta firmasiga egadir.

*Xususiy sug'urta tizimi.* Jahon sug'urta tizimida faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta tashkilotlariga e'tibor bersak, ularni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

- 1) barcha tabaqadagi fuqarolarga xizmat qiluvchi, aksiyalari birja va boshqa yo'llar bilan sotiladigan erkin sug'urta kompaniyalari;
- 2) xususiy hissadorlik sug'urta kompaniyalari;
- 3) davlat sug'urta kompaniyalari;
- 4) o'zaro sug'urtalash jamiyatlari;
- 5) ayrim sanoat va savdo tarmoqlariga xizmat qiluvchi ixtisoslashgan sug'urta tashkilotlari.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan O'zbekistonda davlat sug'urta tashkilotlari bilan birga qator xususiy hissadorlik sug'urta tashkilotlari ish boshladi. Ularning faoliyati sug'urtalash shartlari va sug'urtani tashkil qilish yo'llari bo'yicha davlat sug'urta tashkilotlaridan farq qiladi. Ularning bu yo'nalishlari va xususiyatlari bozor iqtisodiyoti talablariga ko'proq javob beradi.

Bunday xususiy sug'urta tashkilotlarini barpo qilish uchun ta'sischilar ixtiyorida bir necha o'n million so'm mablag' bo'lishi va bu haqda alohida ruxsatnoma olinishi kerak. Ular davlat sug'urta tashkilotlaridan alohida xususiyatlari bilan ajralib turadi. Masalan, agar davlat sug'urta tashkilotlari sug'urta obyektlari asosida chegaralangan bo'lsa, xususiy sug'urta tashkilotlari o'z sug'urta obyektlarini o'zida belgilaydilar va uni o'z nizomlarida ko'rsatadilar.

Undan tashqari, sug'urta mablag'larining manbalari faqat sug'urtalanuvchilar badallaridan iborat bo'lib qolmay, ta'sischilarning mablag'lari bo'lishi yoki sug'urta tashkiloti ixtiyorida bo'sh turgan mablag'lardan xo'jalik ishlarida ishlatish asosida olingan foyda, aksiyalarini sotishdan daromad va boshqa sug'urta tashkilotlarining qayta sug'urtalash bo'yicha to'planadigan mablag'laridan iborat bo'lishi mumkin.

boshqalar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar va qarz majburiyatlariga joylashtiradilar. Bu esa banklarni moliya bozorida o'zining qarz majburiyatlarini chiqarmay faoliyat yurgizuvchi moliyaviy brokerlar va dilerlardan ajratib turadi.

*Ikkinchidan*, banklar yuridik va jismoniy shaxslar oldida qarzni belgilangan summasiga doir majburiyatlarni o'z zimmasiga oladilar. Masalan, mijozlar mablag'larni hisob raqamlariga va boshqa qo'yilmalariga joylashtirayotganda, depozit sertifikatlarini chiqarayotganda va boshqa hollarda shunday qiladilar. Bu bilan banklar o'z aksiyalarini chiqarish orqali resurslarini joylashtiradigan turli investitsiya fondlaridan farqlanib turadi. Qarz summasi bo'yicha belgilangan majburiyatlar vositachilar (banklar) uchun yuqori darajali tavakkalchilikni ifodalaydi. Chunki bozor konyunkturasi-dan qat'i nazar, summalar to'raligicha qaytarilishi kerak. Investitsiya fondlari esa aktivlar va passivlar qiymatining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan barcha tavakkalchiliklarni o'zining aksiyadorlari orasida taqsimlaydi.

Banklar sho'ba kredit muassasalarini tashkil etish huquqiga ega. Sho'ba bank (kredit muassasasi) bo'lib, bosh bankning nizomiy jamg'armasining 50 % idan oshig'ini o'z foydasi hisobidan ta'minlab beradigan bank hisoblanadi. Bosh bank bilan o'zaro munosabatlar ta'sis shartnomasi va sho'ba bankning ustavi bilan tartibga solinadi. Shu bilan birga sho'ba bank yuridik shaxs hisoblanib, mustaqil tijorat tashkiloti sifatida faoliyat yurgizadi. U o'z mulkiga, jumladan, o'z kapitaliga ega, o'z majburiyatlari bo'yicha mas'uliyatlidir va Markaziy bankda o'zining korrespondent hisob raqamlariga egadir.

Nizom jamg'armasini shakllantirish usuliga ko'ra, banklar aksiyador (ochiq va yopiq turdagi) va paychilik banklariga bo'linadi.

Hissadorlik banklarda kapital egasi bo'lib jamiyatning o'zi, ya'ni bank namoyon bo'ladi. Payli tijorat banklarida esa bank kapital egasi bo'la olmaydi. Chunki har bir paychi kapitaldagi o'z ulushiga egalik qilish huquqini bankka bermaydi, o'zida saqlab qoladi. Paychi tijorat banklari mas'uliyati cheklangan jamiyat tamoyillari asosida tashkil qilinadi. Bunda har bir ishtirokchi (paychi)ning mas'uliyati bankning umumiy kapitaliga qo'shgan hissasi bilan belgilanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida tuzilgan banklar qoidaga ko'ra, aksiya va obligatsiyalar chiqarish huquqiga ega emaslar.

Hissadorlik jamiyati sifatida faoliyat yurgizayotgan banklarda nizom jamg'armasi ma'lum miqdordagi aksiyalarga bo'lingan bo'ladi. Hissadorlik banklari ochiq va yopiq turda bo'lishi mumkin. Tijorat

banki faoliyatini «boshqarma» boshqaradi. Boshqarma hissadorlar umumiy yig'ilishi va bank kengashi oldida javobgar hisoblanadi.

*Bank daromadi va uni joylashtirish.* Bank daromadlari berilgan kreditlar uchun undirilgan foizlardan, valuta bozorida operatsiyalardan olingan daromadlardan, hisob-kitob xizmati ko'rsatish daromadlaridan va boshqa turdagi daromadlardan tashkil topadi. Foiz darajasi va xizmatlar baholari mijozlar va xaridorlar bilan kelishilgan holda belgilanadi.

Bank daromadlaridan xarajatlar chegirib tashlangan bankning balans foydasi hosil bo'ladi. Barcha soliq to'lovlari bajarilgach, qoladigan sof foydaning taqsimoti tartibi bank ustavida belgilab beriladi. Odatda, bank ixtiyorida qolayotgan foydaning bir qismi aksiyalarga dividend sifatida to'lanib, qolgan qismi iqtisodiy rag'batlantirish fondlariga yo'naltiriladi (ishlab chiqarish va ijtimoiy taraqqiyot fondi hamda moddiy rag'batlantirish fondi, zaxira fondi).

*Tijorat banklarining faoliyati tamoyillari.* Tijorat banklari faoliyatining birinchi va asosiy tamoyili bo'lib, real mavjud resurslar chegarasida ish yuritish hisoblanadi. Tijorat banklari boshqa banklar foydasi uchun naqd pulsiz to'lovlarni amalga oshirishi, boshqa banklarga kredit berishi va naqd pullarni qabul qilishi mumkin. Bu operatsiyalarni bank o'z korrespondent schotida qoldiq mablag'lar chegarasida amalga oshiradi.

Real mavjud resurslar chegarasida ish olib borish deganda, tijorat banki nafaqat o'z resurslari va kredit qo'yilmalar orasida muvozanatni ta'minlashi, balki bank aktivlari xarakteri jalb qilingan resurslarning o'ziga xos xususiyatiga mos kelishiga erishmog'i kerak. Bu, birinchi navbatda, kredit berish va olish muddatiga tegishlidir. Agar bank mablag'larni qisqa muddatga jalb qila turib, ularni uzoq muddatli ssudalarga joylashtiradigan bo'lsa, u holda uning majburiyatlari bo'yicha to'lov qobiliyati xavf ostida bo'lib qolishi mumkin.

Tijorat banklari faoliyatining *ikkinchi tamoyili* bo'lib, to'la iqtisodiy mustaqillik hisoblanadi. Bunday iqtisodiy mustaqillik o'z mablag'lari va jalb qilingan resurslarning erkin ishlatilishida, mijozlarni tanlashda, soliqlar to'langandan so'ng qoladigan daromaddan o'z ixtiyoricha foydalanishda ifodalanadi.

Amal qilayotgan bank qonunchiligi barcha tijorat banklariga o'z fondlari va daromadlarini o'zlari tasarruf etishda iqtisodiy erkinlik yaratib berdi. Soliqlar to'langandan so'ng qoladigan daromadlar hissadorlar umumiy majlisining qarori bilan taqsimlanadi. U bankning turli fondlariga ajratmalar me'yorlari va hajmini,

shuningdek, aksiyalar bo'yicha dividendlar miqdorini belgilaydi. Tijorat banki o'z majburiyatlari bo'yicha unga tegishli bo'lgan barcha mablag'lar va mulklar bilan javob beradi. U olib borayotgan moliyaviy operatsiyalarda tavakkalchilikni o'z zimmasiga oladi.

*Uchinchi tamoyil* shundan iboratki, tijorat bankining mijozlari bilan o'zaro aloqasi oddiy bozor munosabatlari sifatida o'rnatiladi. Ssudalarni bera turib, tijorat banki, birinchi navbatda, foydalilikning, tavakkalchilikning va aylanuvchanlikning bozor mezonlariga asoslanadi.

Tijorat banklari faoliyatining *to'rtinchi tamoyili* bu uning faoliyatini tartibga solishda ifodalanadi, buni u faqat bilvosita iqtisodiy uslublar orqali amalga oshiradi. Davlat tijorat banklari uchun «o'yin qoidalari»ni aniqlab beradi, lekin ularga buyruq bera olmaydi.

#### **16.6. Markaziy bank va uning vazifalari**

O'zbekiston Respublikasida ikki pog'onali bank tizimi mavjud:

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki — birinchi pog'onasi;
- O'zbekiston Respublikasidagi hissadorlik tijorat banklari —

ikkinchi pog'ona hisoblanadi.

Markaziy bank iqtisodiyotni boshqarish va bank tizimini nazorat qilishda juda katta ahamiyatga ega. Shu sababli uning faoliyati maxsus qonun bilan tartibga solinadi.

Markaziy bankning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- monetar siyosat va valutani tartibga solish sohasidagi siyosatni shakllantirish, qabul qilish va amalga oshirish;
- O'zbekiston Respublikasida hisob-kitoblarni samarali tashkil etish va ta'minlash;
- O'zbekiston Respublikasining rasmiy oltin valuta zaxiralarini, shuningdek, hukumat zaxiralarini kelishuvga ko'ra saqlash va boshqarish;
- Moliya vazirligi bilan birgalikda davlat budjetining kassa ijrosini tashkil etish;
- emissiya faoliyati bilan shug'ullanish, bu eng qadimgi va eng muhim vazifalardan biridir;
- tijorat banklari kassa zaxiralarini joylashtirish va saqlab berish;
- rasmiy oltin, valutilarni saqlash;
- hisob-kitoblarni va pul o'tkazish operatsiyalarini amalga oshirish;
- nazorat qilish vazifasi.

Demak, Markaziy bank mamlakat moliya-kredit tizimining barqaror ishlashini ta'minlovchi, davlat iqtisodiy siyosatining moliya-pul sohasi bo'yicha mas'ul moliyaviy muassasadir.

### **16.7. O‘zbekiston Respublikasida bank tizimini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari**

Bozor iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta‘minlashda banklarning roli beqiyosdir. Chunki banklarning iqtisodiyot barcha subyektlari o‘rtasidagi vositachilik vazifasi alohida ahamiyatlidir. Iqtisodiyot subyektlari faoliyatlari bozor munosabatlari sharoitida tavakkalchilik va noaniqliklar darajalarining yuqoriligi bilan bog‘liq. Shundan kelib chiqqan holda mamlakatimiz banklarining muhim vazifalaridan biri kreditda vositachilik qilishdir. Bu vazifani banklar korxonalar fondlarining aylanishi jarayonida vaqtincha bo‘sh qolgan mablag‘larni taqsimlash yo‘li orqali bajaradi.

Banklarning ikkinchi muhim vazifasi — xo‘jalikda jamg‘armalarni rag‘batlantirishdir. Banklar moliya bozorlarida kreditlarga talab bilan chiqish orqali xo‘jalikda mavjud bo‘lgan jamg‘armalarni yuqori darajada joylashtirib qolmay, balki joriy iste‘molni chegaralash asosida mablag‘larni jamg‘arishga samarali rag‘batlar yaratadi. Jamg‘armalarga bo‘lgan rag‘batlar tijorat banklarining izchil depozit siyosati asosida jamlanadi. Jamg‘armalarga yuqori foizlardan tashqari bank yana o‘z kreditorlariga bankka qo‘ygan mablag‘larni ishonchli kafolatlash uchun xizmat qiladi. Depozitlarni sug‘urtalash bilan birga mijozlar uchun bank faoliyati va u bera oladigan kafolatlar haqida axborotlarga ega bo‘lish muhim ahamiyat kasb etadi.

Banklarning yana bir muhim vazifasi alohida mustaqil subyektlar o‘rtasidagi to‘lovlarda vositachilik qilishdir. Xalq mulkiga davlat monopoliyasi sharoitida barcha subyektlar o‘rtasidagi hisob-kitoblar faqat yagona davlat banki orqali amalga oshiriladi.

Fond bozorining shakllanishi munosabati bilan tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalarida vositachilik qilish vazifasi rivojlanib bormoqda. Banklar qimmatli qog‘ozlar bozorida vositachi sifatida faoliyat yurgizadigan investitsiya institutlari sifatida, investitsiya maslahatchisi, investitsiya kompaniyasi va investitsiya fondi sifatida ishtirok etishi mumkin. Banklar moliyaviy broker sifatida faoliyat qilish orqali qimmatli qog‘ozlarni sotish va sotib olishda vositachi vazifalarni bajaradi.

Investitsiya maslahatchisi sifatida bank o‘z mijozlariga qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va muomalada bo‘lishi yuzasidan maslahat xizmatlarini ko‘rsatadi. Agar bank investitsiya kompaniyasi rolini bajarsa, u holda bank qimmatli qog‘ozlar chiqarishni tashkil etish va uchinchi shaxs foydasiga ularni joylashtirish bo‘yicha kafolatlar

berish, qimmatli qog'ozlarni o'z nomidan va o'z hisobidan sotish va sotib olishni amalga oshiradi. Agar bank o'z resurslarini o'z nomidan qimmatli qog'ozlarga joylashtirsa va bu bilan bog'liq holda kelib chiqadigan daromadlar va zararlarni bank hissadorlari hisobiga yuklatsa, u holda investitsiya fondi sifatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, banklar xalq xo'jaligi bo'g'inlarining takror ishlab chiqarish jarayoni bir maromda borishi uchun moliyaviy shart-sharoitlar yaratadilar. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida banklarning faoliyati, ayniqsa, kuchayishi, takomillashib borishi darkor.

O'zbekistonda bank faoliyati rivojlanishining hozirgi kundagi holati Prezident I. A. Karimovning «Iqtisodiyotni erkinlashtirish — farovonlik poydevori» ma'ruzasida tahlil etilgan, unda ta'kidlanadiki, bozor iqtisodiyotining samarali faoliyatini zamonaviy keng tarmoqli, texnik jihatdan mukammal bank-moliya tizimisiz tasavvur qilish mumkin emas.

Bugungi kunda respublikamiz bank tizimini isloh qilish, ularga yanada ko'proq mustaqillik berish, banklarning o'z aktivlarini va ustav fondini ko'paytirish, sarmoyalash imkoniyatlarini oshirish muammolariga katta e'tibor berilyapti. Tijorat banklari kapitalini yanada oshirish va aholining bo'sh pul mablag'larini jalb qilish jarayoni faollashdi.

Mamlakatimizda chet el sarmoyalari ishtirokidagi qo'shma banklar tarmog'i keng faoliyat ko'rsatmoqda. Shuningdek, yurtimizda Osiyo taraqqiyoti banki, «Doychebank», «Cheyzmanxettenbank», «Kredit servis» kabi 16 ta xalqaro va xorijiy banklarning vakolatxonalari ochilib, respublikamiz bank tizimi bilan mustahkam hamkorlik asosida ish olib borilmoqda.

## **16.8. Pul muomalasi**

Iqtisodiyot nazariyasi pulning uch asosiy vazifasi borligini asoslab beradi:

1. *Pul qiymat o'lchovi* vazifasini bajarganda tovarlar va xizmatlarga sarflangan mehnatning qiymatini o'lchaydi va u narxda ifodalanadi. Demak, pul tovarlar va xizmatlarning qiymatini umumlashgan holda ifoda etadi.

2. *Pul muomala vositasi* vazifasini bajaradi. Bunda pul tovarlar va xizmatlar oldi-sotdi jarayonida vositachilik qiladi. Bunda odamlarga muomalaga kirishlarida vositachilik qilganini ko'ramiz.

3. *Pul jamg'arish vositasi* vazifasini bajarganda odamlarga boylik to'plashiga xizmat qiladi. Chunki pul boylikning asosiy shakli hisoblanadi.

Yuqorida aytilganlardan ko'rinib turibdiki, pul va u bilan bog'liq munosabatlarni tahlil qilish iqtisodiyot nazariyasi fanining eng muhim sohasi hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul to'xtovsiz harakatda bo'lib, tovarlar va xizmatlarni oldi-sotdi qilish jarayonida ular uchun to'lovlarni amalga oshirishda, ish haqi hamda boshqa majburiyatlarni to'lashda pul muomala vositasi sifatida harakat qilib aylanib turadi. Bu pul muomalasi deyiladi.

Pul muomalasi naqd va naqd bo'lmagan pullar yordamida amalga oshiriladi. Naqd pul muomalasiga banknotlar va metall tangalar davlat markaziy banki tomonidan kiritiladi. Naqd pulsiz hisob-kitoblar plastik kartochkalar, cheklar, kredit kartochkalari, veksellar, akkreditivlar, to'lov talabnomalari kabi turli pul agregatlari orqali amalga oshiriladi.

Muomalaga chiqariladigan pulning miqdori har bir mamlakat iqtisodiyotining holatiga bog'liq bo'ladi. Masalan, taraqqiy etgan mamlakatlarda, jumladan, AQSH va Yaponiyada katta, iqtisodiyoti kichik mamlakatlarda kam miqdorda pul talab qilinadi. Ammo pul muomalasi qonuniga ko'ra, iqtisodiyotning talabi aniq ilmiy asoslangan hisob-kitoblar formulasiga tayangan holda tashkil qilinishi kerak. Pul emissiyasi bilan davlat shug'ullanadi. Pul emissiyasini mamlakat iqtisodiyotining pulga bo'lgan talabi belgilaydi. Iqtisodiyot uchun zarur pul miqdori ikki holatga bog'liq:

1. Sotish uchun bozorga chiqarilgan tovar va xizmatlarning pulga chaqilgan miqdori.

2. Pulning aylanish tezligi. Bu pul birligining yil davomida necha marta oldi-sotdiga xizmat qilganini va «qo'ldan qo'lga» o'tib banklarga tushib qaytib yana aholiga chiqarilganligini bildiradi. Iqtisodiyotga kerakli pul miqdori ma'lum omillar ta'sirida bo'lib, uni maxsus iqtisodiy qonun, ya'ni pul muomalasi qonuni belgilaydi.

*Pul muomalasi qonuniga* ko'ra, muomalada bo'lgan pul miqdori sotiladigan tovarlar va xizmatlar narxining jami summasiga to'g'ri mutanosib, pul harakatining tezligiga esa teskari mutanosibdir. Boshqacha aytganda, tovarlar qanchalik ko'p bo'lsa va ularning narxi yuqori bo'lsa, shunchalik ko'p pul talab qilinadi va, aksincha, qanchalik pul tez harakat qilsa, tovarlar ko'paygan chog'da ham, ular narxi past bo'lsa, shunchalik pul kam talab qilinadi, chunki



oz miqdordagi pul bilan ham ko'p ishni bajarish mumkin bo'ladi. Bunday bog'liqlikni quyidagi formulada ifoda etish mumkin:

$$Z = \frac{V \cdot Q}{O},$$

bu yerda,  $Z$  — muomala uchun zarur pul miqdori;  $V$  — tovarlar va xizmatlarning o'rtacha narxi;  $Q$  — sotiladigan barcha tovarlar va xizmatlar miqdori;  $O$  — pulning aylanib turish tezligi.

Pul aylanishini tezlatish pul operatsiyalarini o'tkazish texnikasiga bog'liq. Bu operatsiyalar banklarda amalga oshiriladi. Shuning uchun respublikamizda plastik kartochkalarning joriy etilishi juda muhim ahamiyat kasb etadi.

### 16.9. Inflatsiya va uning sabablari

Iqtisodchi olimlar iqtisodiyotni xuddi odam organizmiga o'xshatadilar. Pul shu organizm, ya'ni iqtisodiyotning qoni sifatida uning hamma hujayralariga oziqa berib, hayot baxsh etib yuradi. Iqtisodiyot sog'lom bo'lishi, rivojlanib borishi uchun sog'lom, yetarli miqdorda pul bo'lishi zarur. Sog'lom pul deganda, bu qadri barqaror, keragidan ortiq ham, kam ham bo'lmagan pul tushuniladi. Agar shunday bo'lmasa, bu mamlakatda pul sog'lom emas, ya'ni inflatsiyaga uchragan deyiladi.

Inflatsiya deganda pulning keragidan ortiq muomalaga chiqarilishi natijasida narxlarning to'xtovsiz o'sishi va pul qadrining pasayib borishi tushuniladi. Inflatsiya davrida mamlakatda pul miqdori sotiladigan tovarlar va xizmatlarga nisbatan ortib ketadi.

Inflatsiyani bir qator sabablar keltirib chiqaradi:

1) iqtisodiyot subyektlarining o'z xarajatlarini iqtisodiy imkoniyatlariga nisbatan oshirib yuborishlari. Bu degani davlat, firma va korxonalar, oilalar mavjud daromadlariga qarab sarf-xarajatlarni qilishlari kerak. Agar davlat xarajatlari ko'payib kamomadni muomalaga qo'shimcha pul chiqarish hisobidan qoplaydigan bo'lsa, bu pul tovarlar bilan ta'minlanmagan bo'ladi va shu sababli pul ko'paygan holda tovar yetishmaydi va narx oshadi, natijada bozorda narxlar o'sib ketadi, pul qadri pasayadi;

2) ishlab chiqarishning qisqarishi. Ishlab chiqarish qisqarganda, odatda, muomaladagi mavjud pul miqdori ko'paymaydi, ammo unga nisbatan mamlakatda tovarlar miqdori kamayadi, narx oshadi, pul qadri pasayadi;

3) mamlakatga import qilingan tovarlar narxining ko'tarilishi. Bu mamlakat ichidagi o'xshash va o'rinbosar tovarlar narxini oshiradi.

Inflatsiyaning ikki turi bor:

1. *Talab inflatsiyasi*. Bu holat aholi qo'lidagi pulning ko'pligidan kelib chiqadi. Natijada odamlar tovarlarni ko'proq xarid qilishga harakat qilishadi.

2. *Taklif inflatsiyasi*. Bunda bozorlarda resurslar qimmatlashadi, xarajatlar oshib, foyda kamayadi. Ishlab chiqaruvchilarning tovar ishlab chiqarishni ko'paytirishga intilishi pasayadi, qiziqmay qo'yadilar. Natijada tovarlar taklifi kamayadi, narxlar esa o'sib ketadi.

Inflatsiyaning uzoq davom etishi iqtisodiyotning inqirozga uchrashiga olib kelishi mumkin. Buning oldini olish uchun inflatsiya darajasini aniqlash zarur bo'ladi. Inflatsiya darajasi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$J = \frac{V_1}{V_2} \cdot 100.$$

Inflatsiya darajasi ko'rsatkichi ( $J$ ) oldingi davrdagi narx o'sishini ( $V_1$ ) keyingi davrdagi narx o'sishi ( $V_2$ )ga bo'lish yo'li bilan topiladi. Agar  $V_1=30$ ,  $V_2=120$  bo'lsa, bunda  $J = 25 \%$  bo'ladi.

*Giperinflatsiya*. Bu holat kuchli inflatsiya deyiladi va u chuqur iqtisodiy inqirozlar davrida kelib chiqadi. Bu holatda inflatsiya darajasi oyiga 50 % va undan ortiq ham bo'lishi mumkin.

#### **16.10. Inflatsiyaning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari**

Inflatsiya vaqtida pul qadrsizlanganligi uchun kishilarda qo'rquv va sarosima paydo bo'ladi. Ishlab chiqaruvchilar xavotirlanganidan ishlab chiqarishni kengaytirishdan manfaatdor bo'lmaydilar, chunki ular sarflagan pullarning qaytib kelgunicha o'z qadriini yo'qotib qo'yishi mumkin bo'ladi. Bu inflatsiyaning iqtisodiy oqibati deyilishi mumkin.

Inflatsiya sharoitida ma'lum miqdordagina qat'iy daromadga ega bo'lgan nafaqaxo'rlar, stipendiya, qat'iy belgilangan ish haqi oluvchilar turmushi yomonlashadi, ular kambag'allashib ketadilar. Inflatsiya davrida narxlarning oshib borishi, odamlarning pul daromadining oshmasligi yoki narxga nisbatan sekinroq oshib borishi odamlar tomonidan tovarlarni oldingidan kam sotib olishi va oz iste'mol qilishiga olib keladi. Bu holat inflatsiyaning ijtimoiy oqibati sifatida qaraladi.

Inflatsiyani bartaraf etish yo'llari «Iqtisodiyot nazariyasi» fani tomonidan o'rganiladi. Inflatsiyani bartaraf etish uchun davlat tomonidan bir qator chora-tadbirlar qo'llaniladi:

1. Pul emissiyasi to'xtatiladi. Natijada pul miqdori tovarlar va xizmatlar narxining miqdoriga moslasha boradi, narxlar sekin o'sadi va so'ngra o'sishdan to'xtaydi.

2. Ishlab chiqarishning o'sishi rag'batlantiriladi. Ishlab chiqarishni jonlantirish uchun davlat uni rag'batlantirishga e'tibor beradi. Davlat tadbirkorlarga, korxonalar va firmalarga past foiz bilan qarz beradi, soliqlar kamaytiriladi, eksport-import ishlari bo'yicha imtiyozlar joriy etiladi, natijada ishlab chiqarish rivojlanadi, tovarlar ko'payadi, pul qadri barqarorlashadi.

3. Aholining puli banklarga jalb etiladi. Inflatsiyani bartaraf etishda bu tadbir ham yaxshi samara beradi. Buning uchun aholining pulini uyida saqlamay, bankka qo'yishi uchun omonatlarning foiz stavkalari oshirilishi zarur bo'ladi. Buning natijasida uyda saqlanayotgan pulni aylanmaga kiritish hisobidan ortiqcha pul chiqarmay turib, davlat xo'jalik yurituvchi subyektlarni to'lov vositasi bilan ta'minlashga erishadi.

*Muomalada pulning yetishmasligi va uning oqibatlari.* Pulning yetishmay qolishi xo'jalikdagi to'lov operatsiyalarini sekinlashtirib, hatto to'xtatib qo'yishi mumkin. Firmalar tovarlarini o'z vaqtida sota olmaydilar, kerakli resurslarni ololmay qoladilar, ish haqini, soliqlarni vaqtida to'lay olmaydilar. Pul yetishmasligi xo'jalikni izdan chiqaradi.

Pul taklifining qisqarishini quyidagilar yuzaga chiqaradi, birinchidan, narxlar oshib ketgan sharoitda mavjud pullar oldiberdi uchun kamlik qiladi. Hatto tovarlar miqdori kamaygan vaqtda ham narxlarning o'sishi pulga talabni kuchaytirib yuboradi. O'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun pulning yetishmay qolishi to'lov inqirozi deyiladi.

Korxonalar va firmalar sotgan tovarlari haqini undira olmaydilar. Bunday paytda debitorlik qarzi kelib chiqadi. Firmalar sotib olgan tovarlari uchun boshqalarga pul to'lay olmay qolishadi. Bu kreditorlik qarzi deyiladi. To'lov inqirozi yuz berganda firmalarda ham debitorlik, ham kreditorlik qarzi paydo bo'ladi. Shunday vaziyatdan chiqish uchun qo'shimcha to'lov vositasi bo'lmish veksellar chiqariladi, ular pul o'rniga beriladi.

Shunday inqiroz holati O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgan davrining dastlabki yillarida sodir bo'lgan edi. Shunda respublikamizda bank veksellari chiqarilib, amalga kiritilishi debitorlik va kreditorlik qarzlarning tubdan kamaytirilishiga va inqirozdan chiqib ketish imkonini bergan edi.

### **16.11. O‘zbekistonda milliy pul tizimini shakllantirish va uni mustahkamlash bosqichlari**

Pul har qanday davlat va jamiyat hayotida, uning taraqqiy topishida juda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

*Pul* — insoniyat tomonidan yaratilgan eng buyuk kashfiyotlardan biri sifatida ming yillardan buyon insonlar, davlatlar, mintaqalarni bir-biri bilan bog‘lab kelmoqda, ular o‘rtasida nafaqat iqtisodiy munosabatlar, balki madaniy-ijtimoiy aloqalarning avj olishiga xizmat qilmoqda. Tarixda dastlabki pulning uch ming yilga yaqin avval Xitoyda muomalaga kiritilgani haqida ma’lumotlar mavjud, qadimgi Hindistonda esa VIII asrlarda pul muomalaga kiritilgan<sup>1</sup>.

Sohibqiron Amir Temur davrida pul muomalasi davlat tomonidan muntazam tarzda tartibga solingan. Bu davrda puldan davlatni boshqarishdagi siyosiy murvat, xalqaro savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish vositasi, davlatni moliyaviy ta’minlash manbayi sifatida foydalanilgan, pul zarb qilish tizimlari keng rivojlangan holda bo‘lgan<sup>2</sup>.

Hozirgi zamonda uning mavqeyi tobora mustahkamlanib bormoqda. Jahondagi barcha davlatlar o‘z iqtisodiy vaziyati, oldiga qo‘yilgan vazifalarga mos keluvchi pul tizimini tashkil etishga harakat qiladi. Zero, faqat ilmiy asoslangan, davlat va jamiyat manfaatlarini yetarli hisobga oladigan pul tizimigina mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qilishi, aholi turmush darajasining yuksalishiga ko‘maklashuvi, moliyaviy jarayonlardagi salbiy holatlarning oldini olishi mumkin bo‘ladi. Shuning uchun O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 122-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi o‘z moliya va pul-kredit tizimiga egadir deyilgan.

O‘zbekiston Respublikasida milliy valutani joriy etish va muomalaga kiritish bir necha yilni o‘z ichiga oldi hamda bosqichma-bosqich amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi e’lon qilingan dastlabki yillarda mamlakat hududida sobiq SSSRning 1961-yilgi pul birliklari hamda 1992-yildan boshlab, Rossiya Federatsiyasi tomonidan joriy etilgan rubl va uning modifikatsiyalari muomalada bo‘lib keldi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 12-noyabrdagi «O‘zbekiston

<sup>1</sup> Серебро ограниченной конвертации. НТВ, 2001, № 31.

<sup>2</sup> Финансовая и монетарная система империи Темура. НТВ, 2001, № 28.

Respublikasi hududida parallel to'lov vositasi sifatida so'm-kuponlarni joriy etish haqida»gi 550-qarori bilan O'zbekistonning dastlabki pul birligi «so'm-kupon» muomalaga kiritildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 11-apreldagi 195-qarori bilan esa O'zbekiston hududida Rossiya banki banknotlari bilan muomala qilish taqiqlandi. Ushbu qarorga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi pul birligining chet el valutasiga nisbati valuta birjalaridagi savdo paytidagi narx-navoga asosan belgilanishi ko'zda tutildi va bu tadbir respublikada pul muomalasi barqarorligining ta'minlanishida muayyan ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 16-iyundagi «O'zbekiston Respublikasining milliy valutasini muomalaga kiritish to'g'risida»gi Farmoniga ko'ra, 1994-yil 1-iyuldan boshlab 100 so'm-kuponga 1 so'm nisbati bilan O'zbekiston Respublikasining milliy valutasini «so'm» muomalaga kiritildi. So'm dastavval 1, 3, 5, 10, 25, 50 va 100 so'mlik qog'oz pullar hamda 1, 3, 5, 10, 20, 50 tiyinlik tanga chaqalar shaklida muomalaga chiqarilgan bo'lsa, keyinchalik 200, 500, 1000 va 2013-yilga kelib, 5000 so'mlik qog'oz pul va 1, 5, 10, 25, 50, 100 so'mlik tanga pullar shaklida to'ldirildi. O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan milliy valuta — «so'm» xarid quvvatini va barqarorligini saqlab turish maqsadida qator tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Pul-kredit siyosati sohasida tuzilgan doimiy hukumat komissiyasi pul emissiyasini cheklash, naqd pul massasining banklarga qaytib kelishini ta'minlash, pul muomalasini izdan chiqarishi mumkin bo'lgan omillarni bartaraf etish sohalarida izchil tadbirlarni amalga oshirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini pul-kredit vositalari orqali tartibga solish O'zbekiston Markaziy banki zimmasiga yuklangan. Ana shu maqsadda tijorat banklari uchun majburiy zaxira fondlari, hisob stavkalari miqdorini belgilash, iqtisodiy normativlar joriy etish, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish kabi ishlarni bajaradi.

«O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi Qonunning 3-moddasiga muvofiq, Markaziy bankning bosh maqsadi milliy valuta so'mning barqarorligini ta'minlashdan iborat deyilgan. Qonunning 33-moddasiga muvofiq pul emissiyasi bilan mutlaq tarzda Markaziy bank shug'ullanishi, yangi banknotlar uning tomonidan muomalaga kiritilishi va chiqarib olinishi belgilab qo'yilgan.

Naqd pul tushumlarini nazorat qilish va ularning o'z vaqtida bank muassasalariga topshirilishini ta'minlash yuzasidan bir qator

zarur choralar ko‘rilgan bo‘lib, ularning asosiy maqsadi naqd pul emissiyasini cheklash, muomaladagi naqd pul massasi hajmini kamaytirish va shu orqali pul qadrsizlanishi jarayonlarini sekinlashtirishdan iborat. Shu maqsadda 1998-yil 10-dekabrda 564-tartib raqami bilan «O‘zbekiston Respublikasi bank muassasalarida pul muomalasi yuzasidan ishlarni tashkil qilish yo‘riqnomasi» O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro‘yxatga olingan bo‘lib, naqd pul bilan bog‘liq bank operatsiyalarining amalga oshirilish asoslari, shartlari, tartiblari ushbu yo‘riqnomada belgilab qo‘yilgan (2000-yil 31-iyulda 564-2-tartib raqami bilan ro‘yxatga olingan № 7; 2000-yil 30-dekabrda 564-3-tartib raqami bilan ro‘yxatga olingan № 3; 2001-yil 27-oktabrda 564-4-tartib raqami bilan ro‘yxatga olingan № 4 qo‘shimchalari bilan).

Korxonalar va tashkilotlarda pul muomalasining tartibga solinishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 30-martdagi «Pul massasi o‘shirishni cheklash chora-tadbirlari va moliya intizomiga rioya etilishi uchun mas’uliyatni oshirish to‘g‘risida»gi Farmoni muhim ahamiyat kasb etdi.

Hozirgi paytda mamlakatimizda mahsulot, ish, xizmat uchun haq to‘lashning rivojlangan mamlakatlarda keng rusum bo‘lgan va fuqarolar o‘rtasida keng qo‘llaniladigan shakli — plastik kartochkalar orqali hisob-kitob qilish keng targ‘ib qilinmoqda hamda tobora ko‘proq qo‘llanilmoqda. Uning mohiyati tijorat banklari tomonidan emissiya qilinadigan elektron magnit kartochkalarga kodlangan bank mijozi mablag‘lari hisobiga naqd pulsiz hisob-kitobni yo‘lga qo‘yishdan iborat va maqsad-mohiyati bilan muomaladagi naqd («tirik») pul massasini kamaytirish, shu yo‘l bilan emissiyani, pul qadrsizlanishining oldini olish, pul muomalasi barqarorligini ta‘minlashdan iborat.

Pul tizimlarining bir maromda ishlashini ta‘minlashga qaratilgan moliyaviy-texnik mazmundagi masalalar (pul belgilarini tayyorlash, tashish, saqlash, inkassatsiya qilish, pul birliklari zaxira fondlarini tashkil etish, zararlangan va yaroqsiz holga kelib qolgan pul birliklarini almashtirish, yo‘qotib yuborish va boshq.) O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan qonunchilik aktlari asosida chiqariladigan me‘yoriy hujjatlar vositasida tartibga solinadi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 1995-yil 25-yanvarda «Bank muassasalarida pul tushumlarini inkassatsiyalash yuzasidan emissiyakassa ishlarini amalga oshirish va qimmatbaho buyumlarni tashish tartibi to‘g‘risida yo‘riqnoma» tasdiqlangan.

### ASOSIY TAYANCH IBORALAR

- Kredit;
- kredit berish tamoyillari;
- kredit berish muddatlari;
- qisqa muddatli kreditlar;
- o'rtta muddatli kreditlar;
- uzoq muddatli kreditlar;
- sug'urta;
- sug'urta summasi;
- sug'urta fondi;
- pul qiymat o'lchovi;
- pul muomala vositasi;
- pul jamg'arish vositasi;
- pul muomalasi qonuni.



### TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Bo'sh pullar va ularning qanday manbalarini bilasiz?
2. Kreditning qanday turlari bor?
4. Kreditning vazifalarini sanab o'ting.
5. Bank nima?
6. Banklarning vazifalari nimalardan iborat?
7. Markaziy bankning funksiyalarini ayting.
8. Bank faoliyatining huquqiy asoslarini bayon eting.
9. Tibbiyot sug'urtasi nima maqsadda tuziladi?
10. Qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'urtalashda, avvalo, qaysi ko'rsatkichlarni aniqlash talab etiladi?
11. Qishloq xo'jaligi hayvonlarini qaysi sug'urta kompaniyasi sug'urtalaydi?
12. Sug'urta shartnomasi tuzilgandan so'ng qaysi vaqtdan boshlab amalga kiradi?
13. Iqtisodiyotda pul qanday vazifalarni bajaradi?
14. Pul agregati deganda nimani tushunasiz?
15. Pul muomalasi qonuni qanday aloqadorlikni bildiradi?
16. Pulning qadri nimalar bilan belgilanadi?
17. Inflatsiyaning qanday sabablarini bilasiz?
18. Inflatsiyaning salbiy oqibatlari nimalardan iborat?
19. Pul muomalasining davlat tomonidan tashkil etilishining zarurligi va huquqiy asoslarini aytib bering.
20. Pulning funksiyalarini sanab o'ting.
21. Pul muomalasini tashkil etishda Markaziy bankning vakolatlari nimalardan iborat?

---

## **17-bob. JAHON BOZORI VA XALQARO SAVDO**

### **17.1. Xalqaro tovarlar va xizmatlar savdosi**

Bozor iqtisodiyoti o'z tabiatiga ko'ra, ochiq iqtisodiyotdir. Shuning uchun u butun jahon mamlakatlari miqyosida tovarlar va xizmatlar bilan savdo-sotiq, umuman, keng iqtisodiy hamkorlikni talab qiladi. Bunday hamkorlikning asosiy shaklini xalqaro tovarlar va xizmatlar savdosi tashkil etadi.

Iqtisodiyot nazariyasi klassik namoyandalarining, jumladan, Adam Smit ta'limotiga ko'ra, butun dunyo mamlakatlari iqtisodiyoti, eng avvalo, shu mamlakatlardagi mavjud tabiiy resurslarga asoslangan holda rivojlanadi. Bu, o'z navbatida, turli mamlakatlar xo'jalik faoliyatining ixtisoslashuviga olib keladi va bu shu mamlakat uchun mutlaq ustunlik imkoniyatini beradi, natijada xalqaro mehnat taqsimoti qonuni degan obyektiv iqtisodiy qonun mavjud ekanligini bildiradi. Bunday holat ularning o'zlarida ishlab chiqarilmaydigan tovarlar va xizmatlarning o'zaro almashuvi zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Hozirgi vaqtda xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishi ayrim mamlakatlarning ma'lum turdagi tovarlarni, butlovchi qismlar va detallarni ishlab chiqarishga chuqur ixtisoslashib ketishiga olib kelgan. Bunday ixtisoslashuv mamlakatlarning tabiiy sharoiti, ishlab chiqarish tajribasi va taraqqiyot darajasi bilan bog'liq bo'ladi. Qaysi bir mamlakatda qaysi bir tovarlarni kam xarajat bilan sifatli ishlab chiqara olish imkoniyati bo'lsa, shu soha rivojlanib boradi. Masalan, o'rmonzorlari ko'p bo'lgan mamlakatda yog'ochsozlik sanoati rivojlangan bo'lsa, paxta yetishtirishga mos bo'lgan iqlimga ega mamlakatlarda paxta sanoati rivojlangan. Shu sababli xalqaro mehnat taqsimoti iqtisodiy qonun sifatida o'rganiladi.

Xalqaro mehnat taqsimoti iqtisodiy qonuni talabiga ko'ra, har bir mamlakatda qaysi mahsulotni ishlab chiqarish va eksport qilish qulay bo'lsa, shu mahsulotni boshqalarga sotadi. Qaysi mahsulotni



ishlab chiqarishda mehnat unumdorligi yuqori, xarajatlar past bo'lsa, shu tovar eksport qilinadi.

Muayyan tovarning nisbatan arzon yoki qimmatga tushishi uni eksport yoki import qilishga olib keladi, tovari arzonga tushgan mamlakat nisbiy afzallikka ega deyiladi. Nisbiy afzallikni turli omillar yuzaga keltiradi, ular qatoriga quyidagilar kiradi:

- *birinchidan*, tabiiy resursga boy mamlakat undan olingan tovarlarni arzonga tushirib, afzallikka ega bo'ladi. Masalan, O'zbekiston paxta, meva-sabzavot, Qozog'iston bug'doy, chorva mahsulotlari, Gruzziya va Hindiston choy yetishtirishda katta afzallikka ega, chunki bunga qulay tabiiy hamda iqlim sharoitlari mavjud;

- *ikkinchidan*, mamlakatning ilmiy-texnikaviy salohiyatining yuqori bo'lishi iqtisodiy afzallikni ta'minlaydi. Masalan, AQSH, Xitoy, Yaponiya kabilar;

- *uchinchidan*, turli mamlakatlarda to'plangan tarixiy tajriba ustunlik beradi. Masalan, Angliya jun matolar, Xitoy ipak matolari to'qish bo'yicha uzoq yillik tarixiy tajribaga egadirlar;

- *to'rtinchidan*, resurslarning, eng avvalo, ish kuchining mamlakatda arzonligi ham afzallik beradi. Bular jumlasiga Xitoy, O'zbekiston, Vyetnam va boshqalar kiradi.

Lekin shuni aytish kerakki, bu afzallik doimiy bo'lmay, o'zgarib turadi, afzallikka ega bo'lmagan mamlakatlar asta-sekin muayyan sohalarida imtiyozga erishadi. Masalan, hozirgi vaqtda ayrim yangi rivojlanib kelayotgan mamlakatlar bo'lmish Singapur, Malayziya, Koreya Respublikasi so'nggi yillarda sanoatning muhim sohalarida afzallikni qo'lga kiritib, ular sifatli va arzon tovarlarni ishlab chiqarib, jahon bozorlarini egallashmoqda.

Afzallik eksportchilarga ham, importchilarga ham qulay imkoniyatlar yaratib, katta foyda olishni ta'minlaydi. Natijada muayyan tovarni ishlab chiqarish imkoniyatiga ega mamlakatlar uni import qilishlari mumkin. Iqtisodiy afzallik katta foyda keltirib, shu mamlakatda ishlab chiqarishning o'sishini rag'batlantiradi.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston jahon bozorining faol ishtirokchisi sifatida, o'zining eksport-import tarkibini ko'proq sanoat mahsulotlari eksportini ko'paytirish evaziga o'zgartirib borishga erishmoqda.

**O‘zbekistonning jahon bozorida eksport-importi  
tarkibining o‘zgarishi**

Tovarlarni	1995-yil	2013-yil
	% hisobida	% hisobida
Eksport, jami	100,0	100,0
Paxta tolasi	57,9	7,7
Mineral va kimyo mahsulotlari	17,1	4,0
Mashina va uskunalarni	2,4	5,5
Energiya tashuvchi va neft mahsulotlari	—	31,1
Qora va rangli metall	5,6	6,3
Oziq-ovqat mahsulotlari	—	9,8
Xizmatlarni	9,3	16,2
Boshqalarni	7,7	19,4
Import, jami	100,0	100,0
Oziq-ovqatlar	18,2	9,7
Mashina va uskunalarni	47,9	44,2
Mineral va kimyo mahsulotlari	9,5	14,3
Energiya tashuvchi va neft mahsulotlari	—	7,2
Qora va rangli metallarni	5,7	7,9
Boshqa mahsulotlar	13,7	10,9
Xizmatlarni	5,0	5,8

M a n b a : O‘zbekiston Respublikasi statistik axborotnomasi.

Ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston eksportida xomashyo, ayniqsa, paxta tolasi qisqarib, importida esa mashina-uskunalar ko‘payib, salmoqli o‘rin egallab bormoqda. O‘zbekistonning xalqaro savdodagi ishtiroki sezilarli darajada o‘sib, eksportida tayyor mahsulotlarning, importida esa zamonaviy texnika va texnologiyalarning salmog‘i ko‘payib borishiga harakat qilinmoqda.

## 17.2. To'lov balansi

Dunyoning har bir mamlakati jahon bozorida faol qatnashib, tovar va xizmatlar savdosi bilan shug'ullanar ekan, ular, albatta, savdoning hisob-kitob ishlarini mukammal olib borishlari zarur hisoblanadi. «Iqtisodiyot nazariyasi» fani shu hisob-kitob yozuvi ishlarini to'lov balansi deb o'rganadi.

*To'lov balansi* — bu ma'lum mamlakat iqtisodiyoti subyektlari (rezidentlari): davlat, korxonalar, firmalar, uy xo'jaliklari, tadbirkorlar bilan chet ellik rezidentlar o'rtasida tuzilgan shartnomalar asosida ma'lum vaqt oralig'ida amalga oshirilgan barcha oldi-sotdi va xizmat ko'rsatish kabi ishlar natijasining tartibga solingan yozuvidir.

Hozirgi davrda xalqaro iqtisodiy aloqalar, ya'ni tovarlar savdosi, ko'rsatilgan xizmatlar yoki boshqa moliyaviy aktivlarning bir davlat rezidentlaridan boshqa davlat rezidentlariga o'tishi bo'yicha o'zaro kelishuvlar ikki tomonlama xarakterga ega bo'lganligi sababli to'lov balansida ikki tomonlama yozuv tartibida o'z ifodasini topadi. Har bir shartnoma to'lov balansining debet va kredit qismlarida aniq ko'rsatiladi.

To'lov balansining kredit qismida — sotilgan tovarning yoki amalga oshirilgan xizmatning mamlakatdan chiqib ketishi va uning hisobiga mazkur mamlakat rezidentlari chet el valutalarida uning uchun haq olishi aks etadi. Debet qismida — tovar va xizmatning mazkur mamlakatga kirib kelishi va uning hisobiga rezidentlar chet el valutalarida to'lovlar amalga oshirilishi ko'rsatiladi. To'lov balansida kreditlarning umumiy summasi debetlarning umumiy summasiga teng bo'lishi, ya'ni balans berishi kerak, shuning uchun to'lov balansi deyiladi.

To'lov balansi uch tarkibiy qismdan iborat bo'ladi. Unda barcha kelishuvlar bo'yicha joriy va kapital operatsiyalar hisobi o'z aksini topadi. Ya'ni:

1. Joriy operatsiyalar hisobi;
2. Kapital harakati hisobi;
3. Rasmiy zaxiralarning o'zgarishi.

**To'lov balansining namunaviy tuzilishi**

I. Joriy operatsiyalar hisobi	
1. Tovar eksporti	2. Tovar importi
Tashqi savdo balans qoldig'i	
3. Xizmatlar eksporti (chet el turizmidan daromadlar va h.k. — kreditli xizmatlar)	4. Xizmatlar importi (turizm uchun chet elga to'lovlar va h.k. — kreditli xizmatlar)
5. Investitsiyalardan sof daromadlar (kreditli xizmatlardan sof daromadlar)	
6. Sof transfertlar	
Joriy operatsiyalar bo'yicha balans qoldig'i	
II. Kapital harakati hisobi	
7. Kapital kirishi	8. Kapital oqib chiqishi
Kapital harakati balans qoldig'i	
Joriy operatsiyalar va kapital harakati balans qoldig'i	
III. Rasmiy zaxiralarning o'zgarishi	

**17.3. Savdo balans**

Savdo balans muayyan davlatning xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi ishtirokining holatini ifodalab, uning pul-kredit, valuta, budjet-soliq, tashqi savdo siyosatini amalga oshirishi va davlat qarzlarini tartibga solishi uchun indikator sifatida xizmat qiladi. Ayrim iqtisodiy adabiyotlarda u tashqi savdo balans deb yuritiladi. Savdo balansidagi joriy operatsiyalar hisobi o'z ichiga tovar va xizmatlar eksporti («+» belgisi bilan), import («-» belgisi bilan), investitsiyalardan sof daromad va sof transfertlarni oladi. Tovarlar eksporti va importi o'rtasidagi farq savdo balansini tashkil qiladi.

Tovar eksporti kredit sifatida chiqib, milliy bankda chet el valutilari zaxiralarini vujudga keltiradi. Import esa («debet» ustunida «-» belgisi bilan) mamlakatdagi chet el valutilari zaxirasini qisqartiradi.

Investitsiyalardan sof daromadlar kreditli xizmatlardan olinadigan sof daromad hisoblanib, u chet ellarga qo'yilgan milliy pul kapitali hisobiga keladi. Agar chet elga qo'yilgan milliy kapital mazkur mamlakatga qo'yilgan chet el kapitaliga qaraganda foiz va dividendlarning ko'proq hajmini keltirsa, bunda investitsiyalardan olinadigan sof daromad ijobiy, aks holda esa salbiy bo'ladi.

Sof transfertlar xususiy va davlat mablag'larining boshqa mamlakatlarga o'tkazilgan summasini bildiradi (pensiya, sovg'a, chet elga pul o'tkazishlar yoki chet mamlakatlarga insonparvarlik yordamlari). Bunday to'lovlar mamlakatda mavjud chet el valutalari zaxirasini kamaytiradi.

Importga to'lovlar eksportdan olingan daromaddan ortiqcha bo'lsa, bu mamlakatning joriy operatsiyalar bo'yicha balansi taqchilligini bildiradi. Bu taqchillik chet el qarzlari yordamida yoki aktivlarning bir qismini chet elliklarga sotish yo'li bilan moliyalashtiriladi va bu kapital harakati hisobida aks etadi.

Eksportdan olinadigan daromad importga sarflardan ortiq bo'lsa, joriy operatsiyalar hisobi ijobiy qoldiqqa ega bo'ladi.

Kapital harakati hisobida aktivlar bilan amalga oshiriladigan barcha xalqaro bitimlar o'z ifodasini topadi. Bular chet elliklarga aksiyalar, obligatsiyalar, ko'chmas mulk va h.k. sotishdan olinadigan daromadlar hamda chet eldan aktivlar sotib olish natijasida vujudga keladigan sarf-xarajatlardan iborat bo'ladi.

Kapital	=	Aktivlar	—	Chetdan aktivlar
harakati		sotishdan		sotib olishga
balansi		tushumlar		sarflar

Chet el aktivlarini sotish chet el valutalari zaxiralarini ko'paytiradi, ularni sotib olish esa kamaytiradi. Kapital harakati hisobi taqchillikka va ijobiy qoldiqqa ega bo'ladi.

To'lov balansining taqchilligi Markaziy bank rasmiy zaxiralarini qisqartirish hisobiga moliyalashtirilishi mumkin. Rasmiy zaxiralarning asosiylari quyidagilar:

- chet el valutalari;
- oltin;
- mamlakatning Xalqaro valuta fondidagi kredit ulushi;
- qarz olishning maxsus huquqi (SDR) va h.k.

Balans taqchilligi rasmiy zaxiralar hisobiga moliyalashtirilganda, ichki bozorda chet el valutalari taklifi ortadi, milliy valutar taklifi esa nisbatan kamayadi va uning ayirboshlash kursi nisbatan o'sib, milliy iqtisodiyotga inqirozli ta'sir ko'rsatadi.

Aksincha, to'lov balansining aktiv qoldig'i MB rasmiy valuta zaxiralarining o'sishi bilan birga borganda ichki bozorda chet el valutalari taklifini kamaytiradi, milliy valuta taklifi esa nisbatan ortadi va uning ayirboshlash kursi pasayib, iqtisodiyotga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

MB tomonidan chet el valutarining bunday sotilishi va sotib olinishi rasmiy zaxiralar bilan operatsiyalar deyiladi. Rasmiy zaxiralar bilan operatsiyalar natijasida joriy hisobdagi qoldiq summasi, kapital harakati hisobi va zaxiralar miqdorining o'zgarishi «nol»ni tashkil qilishi zarur.

O'zbekistonning tashqi savdo balansi so'nggi yillarda ijobiy xususiyatga ega bo'lib, tashqi savdo aylanmasida ijobiy saldogga erishilmoqda. Jumladan, 2013-yil 28886,0 mln AQSH dollari miqdorida, ya'ni 2012-yilga nisbatan 109,4 % ni tashkil etgan. Shundan eksport 15087,2 mln AQSH dollari, ya'ni 110,9 % ni, import esa 13798,8 mln AQSH dollari, ya'ni 107,7 % ni tashkil etgan<sup>1</sup>. Bu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, mamlakatimiz eksporti yildan yilga ko'payib bormoqda.

#### **17.4. Xalqaro valuta tizimi va valuta munosabatlari**

Hozirgi zamon jahon xo'jaligining amal qilishi, rivojlanishi, turli mamlakatlarning xalqaro iqtisodiy aloqalarining tashkil qilinishi va barqaror rivojlanishiga bog'liqdir. Aloqalarning barqarorligi esa mustahkam va mukammal tashkil qilingan xalqaro valuta tizimining amal qilishiga bog'liq. Chunki hozirgi kunda jahon bozoridagi savdo, ishchi kuchi va kapital migratsiyasi, daromadlar, qarzlilar va subsidiyalar oqimi, texnik va texnologik ayirboshlash, turizm xizmati va boshqalar bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar — xalqaro valuta-kredit munosabatlarining yanada mukammal tashkil qilinishi va takomillashtirib borilishini talab qilmoqda. Shu munosabat bilan turli mamlakatlar pul birligi, masalan, dollar, iyena, yuan, funt sterling, so'm va boshqalardan birining xalqaro miqyosda tan olingan ekvivalent sifatida rol o'ynashi zaruriyati paydo bo'lgan.

Ma'lumki, har bir mamlakat o'zining milliy valuta (pul birligi) tizimiga ega. Milliy valuta tizimi shu mamlakat milliy qonunchiligi bilan belgilanadi. Xalqaro valuta tizimi — xalqaro valuta munosabatlarining davlatlararo bitimlarda huquqiy jihatdan mustahkamlangan shakli hisoblanadi va u quyidagi tarkibiy elementlarga ega bo'ladi: asosiy xalqaro to'lov vositalari (milliy valutarlar, oltin, xalqaro valuta birliklari — SDR, Yevro), valuta kurslarini belgilash va ushlab turish mexanizmi, xalqaro to'lovlarini balanslashtirish

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi statistik axborotnomasi. T., 2014.

tartibi, valutaning qaytaruvchanlik sharoiti, xalqaro valuta bozori va oltin bozori tartibi, valuta munosabatlarini tartibga soluvchi davlatlararo muassasalar tizimi kabilar.

Xalqaro valuta tizimining kelib chiqishi va rivojlanishi uch asosiy bosqichdan iborat davrni bosib o'tgan.

*Birinchi bosqich* 1879—1934-yillar davrini o'z ichiga olib, buni iqtisodiy manbalarda ayrimlar oltin andoza davri deb ham atashadi. Chunki bu davrda jahon pul tizimi sifatida oltin ustunlikka ega bo'lgan. Oltin andoza tizimi qayd qilingan valuta kursining mavjud bo'lishini ko'zda tutadi. Banklar o'zlari chiqargan banknotlarni oltinga almashtirgan. Xalqaro to'lovlarni muvofiqlashtirish vositasi bo'lib, oltinni erkin chiqarish va kiritish xizmat qilgan. Mamlakat uch shartni bajarsa, oltin andoza qabul qilingan deb hisoblangan:

a) o'z pul birligining ma'lum oltin mazmunini o'rnatadi;

b) o'zining oltin zaxirasi va pulning ichki taklifi o'rtasidagi qattiq nisbatni ushlab turadi;

d) oltinning erkin eksport va importiga to'sqinlik qilmaydi. Oltin andoza pul birligining oltin mazmuni nisbatiga asoslanadi. Oltin andoza sharoitida, turli mamlakatlar pul birligining nisbati ularning rasmiy oltin mazmuni bo'yicha o'rnatiladi.

*Ikkinchi bosqich.* Ikkinchi jahon urushi oxiri (1944-yil)dan 1971-yilgacha davom etgan va bu davrda jahon puli vazifasini oltin-devizli, ya'ni Bretton-Vuds tizimi deb nomlanuvchi tizim asosida xalqaro hisob-kitoblar amalga oshirgan. Bu ikki tizim qayd qilinadigan valuta kurslariga asoslangan. Oltin andoza barbod bo'lgandan keyin, xalqaro valuta tizimini tartibga solishning o'zaro maqbul yo'lini topishga harakat qilindi. Yangi jahon valuta tizimi asoslarini ishlab chiqish maqsadida, 1944-yil Bretton-Vudsda (AQSH) ittifoqchi davlatlarning xalqaro konferensiyasi chaqirildi. Bu konferensiyada o'zaro bog'liq valuta kurslarini tartibga solish tizimini yaratish haqidagi kelishuvga erishildi va bu, ko'pincha, Bretton-Vuds tizimi deb ataladi. Mazkur tizim oldingi oltin andozadan keskin farq qilmaydi. Uning asosida oltin-valuta andoza (AQSH dollari) yotadi va bu yerda rezervlar sifatida oltin va dollar chiqadi.

*Uchinchi bosqich.* 1971-yilda tashkil topgan bo'lib, hozirgi kunda ham amal qilib kelayotgan jahon valuta tizimidir. Bu tizimni boshqariladigan suzib yuruvchi valuta tizimi deb atashadi<sup>1</sup>. Chunki

---

<sup>1</sup> I.A. Karimov. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. «Xalq so'zi» gazetasi, 2000-yil 17-fevral.

bunga iqtisodiy taraqqiy etgan davlatlar, ko'pincha, o'z valutarining xalqaro qiymatini o'zgartirish uchun valuta bozorining faoliyatiga aralashadi.

Dollarning oltinga almashinishi rasman to'xtagandan keyin, valutaning qayd qilingan kursi bilan almashtirildi. Xalqaro valuta tizimidagi bu o'zgarish 1976-yil Kingston (Yamayka)dagi kelishuvga binoan, huquqiy jihatdan mustahkamlanadi. Qog'oz pul tizimiga o'tish bilan qog'oz pullar oltinga almashtirilmaydi. Beqaror kurslar sharoitida valuta kursi har qanday boshqa baholar kabi talab va taklif asosida belgilanadi.

Valuta tizimining eng muhim jihati bu valuta kursi hisoblanadi. Valuta kursi deganda bir mamlakat valutasining boshqa mamlakat valutasidagi bahosi tushuniladi. Valuta kurslariga quyidagi asosiy omillar bevosita ta'sir ko'rsatadi:

- milliy daromad va ishlab chiqarish xarajatlari darajasi;
- milliy iste'molchilarning real xarid qilish layoqati va mamlakatdagi inflatsiya darajasi;
- mamlakat to'lov balansining holati;
- mamlakatdagi foiz stavkasi darajasi;
- valuta jahon bozoridagi ishonch kabilar.

«Iqtisodiyot nazariyasi» fani jahon bozoridagi valuta kurslarining tebranishini xarid qilish qobiliyatining paritet (turli mamlakatlarda pul birliklari qiymatining bir-biriga nisbati) nazariyasi yordamida tushuntiradi. Bu nazariyaga ko'ra, kurslar nisbatlarini aniqlash uchun ikki mamlakat iste'mol tovarlari «savati» narxlarini taqqoslash talab qilinadi. Masalan, agar O'zbekistonda bunday «savat», aytaylik 25 ming so'm, AQSHda esa 100 dollar tursa, 25 mingni yuzga bo'lib, 1 dollarning bahosini hosil qilamiz, bu 250 so'mga teng.

Agar O'zbekistonda muomaladagi pul massasining ko'payishi oqibatida, tovarlar bahosi ikki marta oshsa, barcha sharoitlar teng bo'lganda dollarning so'mga ayirboshlash kursi ikki marta oshadi. Har bir davlat xorijiy valuta kursiga ta'sir ko'rsatishga harakat qiladi. Bu ishni u ikki yo'l bilan olib boradi:

- *birinchidan*, davlat o'z pulini kredit bozoriga tashlab yoki kredit bozoriga chiqarib foiz stavkasiga ta'sir etadi. Agar foiz oshsa, kredit kam olinadi, kredit puliga kamroq valuta xarid etiladi. Natijada xorij valutasini narxi pasayib, milliy valuta kursi oshadi. Agar foiz stavkasi kamaysa, buning aksi yuz beradi;



• *ikkinchidan*, davlat valuta intervensiyasini amalga oshiradi, ya'ni o'z valutasini kursini barqaror saqlash yoki oshirishni ko'zlasa, o'z ixtiyoridagi chet el valutasini bozorga tashlaydi, natijada xorij valutasini kursi pasayadi, milliy valuta kursi oshadi. Valuta ko'paysa, uning narxi arzonlashadi.

Valuta kurslarining barqaror bo'lishi xalqaro aloqalar uchun muhim hisoblanadi. Shuning uchun valuta kursini tartibga solish orqali rivojlangan mamlakatlarda uning keskin o'zgarishiga yo'l berilmaydi. Bu mamlakatlarda «suzib yuruvchi», «sirg'aluvchan» valuta kursi o'rnatiladi. Bunda valuta kursining yuqori va quyi chegarasi belgilanib, kurs shu oraliqda va me'yorda o'zgaradi.

#### ASOSIY TAYANCH IBORALAR

- Xalqaro mehnat taqsimoti iqtisodiy qonuni;
- nisbiy afzallik qonuni;
- nisbiy afzallik;
- to'lov balansining kredit qismi;
- to'lov balansining debet qismi;
- to'lov balansi;
- eksport;
- import;
- xalqaro valuta tizimi;
- valuta kursi.



#### TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Xalqaro mehnat taqsimoti nima?
2. Nisbiy afzallik qonuni nimani izohlaydi?
3. Mutlaq afzallik nima?
4. O'zbekiston eksport-importining qanday xususiyatlari bor?
5. Valuta munosabatlari deganda nimani tushunasiz?
6. Xalqaro miqyosda valutarlar qanday turlarga bo'linadi?
7. O'zbekiston so'mi qanday valuta turiga kiradi?
8. Valuta kursi nega o'zgaradi?
9. Xalqaro savdo qanday ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi?
10. Xalqaro valuta tizimi va uning turlarini tushuntiring.
11. Davlat valuta kurslarini barqarorlashtirish uchun qanday usullardan foydalanadi?
12. Chet el valutarlariga talab va taklifga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

---

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

### *I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari*

1. *I.A. Karimov*. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T., «O'zbekiston», 1992.
2. *I.A. Karimov*. O'zbekiston — bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. T., «O'zbekiston», 1993.
3. *I.A. Karimov*. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T., «O'zbekiston», 1995.
4. *I.A. Karimov*. Maqsadimiz tinchlik, barqarorlik, hamkorlik. T., «O'zbekiston», 1995.
5. *I.A. Karimov*. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild, T., «O'zbekiston», 1996.
6. *I.A. Karimov*. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. T., «O'zbekiston», 1996.
7. *I.A. Karimov*. Yangicha fikrlash va ishlash — davr talabi. 5-jild. T., «O'zbekiston», 1997.
8. *I.A. Karimov*. Xavfsizlik va barqarorlik taraqqiyoti yo'lida. 6-jild. T., «O'zbekiston», 1998.
9. *I.A. Karimov*. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T., «O'zbekiston», 1998.
10. *I.A. Karimov*. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., «O'zbekiston», 1999.
11. *I.A. Karimov*. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot — pirovard maqsadimiz. T., «O'zbekiston», 2000.
12. *I.A. Karimov*. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish — eng muhim vazifamiz. «Xalq so'zi» gazetasi, 2001-yil 15-fevral.
13. *I.A. Karimov*. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. «Xalq so'zi» gazetasi, 2001-yil 17-fevral.
14. *I.A. Karimov*. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T., «O'zbekiston», 2009.

### *II. Asosiy adabiyotlar*

1. *Р. Дорнбуш, С. Фишер*. Макроэкономика. М., 1997.
2. *О'. Yo'ldoshev, Q. Mamatqulov, Q. Muftaydinov*. Iqtisodiyot asoslari. T., «Sharq», 2002.
3. *Н. Грегорн Менкю*. Принципы экономики. М., 1999.
4. *А. O'lmasov, А. Vahobov*. Iqtisodiyot nazariyasi. T., «Sharq», 2006.
5. *А. Маршалл*. Принципы экономической науки. Пер. с англ. М., изд. группа «Прогресс», «Универс», 1993.
6. *А. O'lmasov*. Iqtisodiyot asoslari. T., «Mehnat», 1997.
7. *D. Tojiboyeva*. Iqtisodiyot nazariyasi. T., «O'qituvchi», 2002.
8. *D. Tojiboyeva*. Iqtisodiyot nazariyasi. T., 2003.
9. *Sh. Shodmonov, R. Alimov, T. Jo'rayev*. Iqtisodiyot nazariyasi. T., «Moliya», 2002.

### *III. Qo'shimcha adabiyotlar*

1. *Л. Атkinson, Д. Стиглиц.* Теория государственного сектора экономики. М., 1996.
2. Большой экономический словарь. М., 2002.
3. *Р. Барр.* Политическая экономия. Т. 1. М., 1994.
4. *А. Войтов.* Фундаментальная экономика. М., 1998.
5. *Майкл Портер.* Конкуренция. М., 2000.
6. *А.И. Попов.* Экономическая теория. СПб, 2001.
7. *П. Самуэльсон, В. Нордхаус.* Экономика. М., 1999.
8. *Дж.Ф. Сакс.* Макроэкономика. Глобальный подход. М., 1996.
9. Теоретическая экономика. Политэкономия. М., 1997.
10. Финансы, деньги и кредит. М., 2000.
11. *К. Макконелл, С.Л. Брю.* Экономикс. Т. 1, 2. М., «Республика», 1992.
12. Экономическая теория. Учебник для вузов. Третье издание. Под ред. А.И. Добрынина и Л.С. Тарасевича. СПб, «Питер», 2000.
13. Статистическое обозрение Республики Узбекистан за 2013 год. Т., 2014.

### *IV. Internet saytlari*

1. [www.Econommir.ru](http://www.Econommir.ru)
2. [www.Econ\\_msu.ru](http://www.Econ_msu.ru)
3. [www.finance.com](http://www.finance.com)
4. [www.parliament.gov.uz](http://www.parliament.gov.uz)
5. [www.qonun.uz](http://www.qonun.uz)
6. [www.uwed.uz](http://www.uwed.uz)

---

## MUNDARIJA

Kirish .....	3
<i>1-bob. «IQTISODIYOT NAZARIYASI» FANINING PREDMETI VA O'RGANISH METODLARI</i>	
1.1. Jamiyat hayotida yuz beradigan iqtisodiy jarayonlar va iqtisodiy hodisalar .....	5
1.2. Moddiy ne'matlar ishlab chiqarish — jamiyat hayotining asosi .....	5
1.3. Iqtisodiy qonunlar va qonuniyatlar .....	9
1.4. Iqtisodiy kategoriyalar .....	12
1.5. Asosiy iqtisodiy tushunchalar va iqtisodiy ko'rsatkichlar .....	14
1.6. «Iqtisodiyot nazariyasi» fanining metodologik asoslari .....	18
1.7. Iqtisodiy jarayonlarni bilishda matematik va grafik usullardan foydalanish .....	23
1.8. «Iqtisodiyot nazariyasi»ning fan sifatida funksiyalari .....	24
1.9. «Iqtisodiyot nazariyasi» fanining tarkibi .....	25
1.10. «Iqtisodiyot nazariyasi» fani va zamonaviy yangicha iqtisodiy ong, tafakkurning rivojlanishi .....	26
<i>2-bob. BOZOR TUSHUNCHASI, UNING MOHIYATI VA VAZIFALARI</i>	
2.1. Bozor tushunchasi .....	29
2.2. Bozorning iqtisodiyot uchun ahamiyati .....	32
2.3. Bevosita va bilvosita bozor aloqalari. Bozor obyektlari va subyektlari .....	34
2.4. Tartibsiz va tartiblangan bozor belgilari .....	36
2.5. Bozor orqali ishlab chiqarish va iste'molning bog'lanishi, qiymatning tovar shaklidan pul shakliga o'tishi .....	37
2.6. Erkin, monopol raqobatli, oligopolistik va sof monopoliya bozorlari ...	38
2.7. Bozor segmenti va uning mezonlari .....	40
2.8. Bozorning obyektini jihatidan turlanishi .....	40
2.9. Bozor infratuzilmasi .....	44
2.10. O'zbekiston milliy bozorini shakllantirish yo'llari .....	45
<i>3-bob. BOZOR IQTISODIYOTIGA O'TISH DAVRI VA UNING O'ZBEKISTONDAGI XUSUSIYATI</i>	
3.1. Bozor iqtisodiyotining umumiy va muhim belgilari .....	47
3.2. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrining jahon tajribasida sinalgan yo'llari .....	50
3.3. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish konsepsiyasi va islohotlar strategiyasi — «o'zbek modeli» .....	54

#### **4-bob. TALAB VA TAKLIF, BOZOR MUVOZANATI**

4.1. Talab tushunchasi .....	62
4.2. Talabning turlari. Individual va bozor talabi .....	62
4.3. Talabning o'zgaruvchanligi (elastikligi) .....	64
4.4. Talab qonuni .....	65
4.5. Talabning tabaqalashuvi. Talabga ta'sir etuvchi omillar .....	66
4.6. Taklif tushunchasi. Taklif qonuni .....	72
4.7. Bozor muvozanati va uning iqtisodiyotga ta'siri .....	78

#### **5-bob. TADBIRKORLIK FAOLIYATI VA KICHIK BIZNES TUSHUNCHASI, ULARNING MOHIYATI**

5.1. Tadbirkorlik faoliyati va kichik biznesning nazariy asoslari .....	82
5.2. Tadbirkorlikka xos xususiyatlar .....	84
5.3. Tadbirkorlik turlari .....	86
5.4. Tadbirkorlik faoliyati shakllari .....	88
5.5. Tadbirkorlik kapitali va uning harakati .....	97
5.6. O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirish .....	104

#### **6-bob. IQTISODIY FAOLIYAT VA UNING SAMARADORLIGI. SARF-XARAJATLAR VA FOYDA**

6.1. Iqtisodiy faoliyat, uning mazmuni va turlari .....	110
6.2. Ishlab chiqarish jarayonining mazmuni va uning o'ziga xosligi. Ishlab chiqarish sohalari .....	110
6.3. Ishlab chiqarish omillari va uning tarkibi .....	114
6.4. Ishlab chiqarishning umumiy va pirovard natijasi .....	118
6.5. Mehnat unumdorligi va unga ta'sir etuvchi omillar .....	119
6.6. Iqtisodiy xarajatlar tushunchasi .....	121
6.7. Xarajatlarning tarkibi, qisqa davrdagi ishlab chiqarish xarajatlari .....	123
6.8. Me'yoriy xarajatlar .....	125
6.9. Foyda mazmuni, foyda me'yori va massasi .....	126
6.10. Foydaning taqsimlanishi va ishlatilishi .....	131
6.11. Zarar ko'ruvchi korxonalar, zarar ko'rishning me'yori, korxonalarning bankrot bo'lishi .....	132

#### **7-bob. ISH HAQI. AHOLI DAROMADLARI VA TURMUSH DARAJASI**

7.1. Ish haqi — taqsimotning natijasi .....	135
7.2. Ish haqini tashkil etish shakllari .....	137
7.3. Ish haqi tizimlari .....	140
7.4. Nominal va real ish haqi .....	142
7.5. Ish haqi darajasining tabaqalashuvi .....	142
7.6. Ish kuchi (mehnat) bozorida raqobat va ish haqi .....	143
7.7. Kasaba uyushmalarining tadbirkorlar va davlat bilan o'zaro aloqasi. Mehnat shartnomalari tizimi .....	144

7.8. Ish haqi va mehnat unumdorligining aloqadorligi. Mehnat natijasiga qarab daromadlarning tabaqalashuvi .....	146
7.9. Daromadlar, uning mohiyati va turlari. Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlar tengsizligining vujudga kelish sabablari .....	147
7.10. Aholi daromadlarining tabaqalashuvi .....	153
7.11. Aholining turmush darajasi va uning ko'rsatkichlari .....	153
7.12. O'zbekistonda ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlari .....	157

#### **8-bob. RAQOBAT NAZARIYASI**

8.1. Raqobatning mohiyati. Raqobatning iqtisodiy asoslari va maqsadi ....	161
8.2. Raqobat strategiyasi .....	162
8.3. Raqobat kurashi shakllari .....	163
8.4. Raqobat usullari: nohalol va halol raqobat .....	164
8.5. Mukammal raqobat va uning afzalliklari .....	165
8.6. O'zbekistonda monopoliyaga qarshi qonunchilik va sog'lom raqobat uchun shart-sharoitning yaratilishi .....	167

#### **9-bob. NARX VA UNING SHAKLLANISH MEXANIZMI**

9.1. Narxning iqtisodiy mazmuni .....	170
9.2. Narxning funksiya va vazifalari .....	172
9.3. Erkin bozorda narxning shakllanishi .....	174
9.4. Narxning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar .....	178
9.5. O'zbekistonda amaldagi narx tizimi va turlari .....	181
9.6. Narx belgilashda foydani maksimallashtirish .....	185

#### **10-bob. BOZOR IQTISODIYOTINING TARTIBLANISHI**

10.1. Iqtisodiyotni tartiblashning bozor mexanizmi .....	187
10.2. Iqtisodiyotni tartiblashning davlat mexanizmi .....	190
10.3. Davlatning iqtisodiy roli va vazifalari .....	193
10.4. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning monetar va yangi klassik modellari .....	199
10.5. Iqtisodiyotni tartibga solishda fiskal siyosat .....	201
10.6. Iqtisodiyotni tartibga solishning Keynscha modeli .....	203
10.7. Iqtisodiyotni tartibga solishning monetar modeli .....	205

#### **11-bob. AGRAR MUNOSABATLAR**

11.1. Agrar munosabatlar va ularning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi xususiyatlari .....	210
11.2. Yerning resurs sifatida alohida xususiyatlari .....	211
11.3. Yer — mulk va xo'jalik yuritish obyekti sifatida .....	214
11.4. Ijara munosabatlari .....	215
11.5. Yer rentasi tushunchasi .....	216
11.6. Yer narxi va uni belgilovchi omillar .....	221
11.7. Agrofirkalar va agrosanoat birlashmalari, fermerlar uyushmasi .....	221
11.8. Fermer xo'jaligini qo'llab-quvvatlashning davlat dasturlari .....	222

### **12-bob. YALPI MILLIY MAHSULOT**

12.1. Milliy iqtisodiyot va uning tarkibiy tuzilishi .....	225
12.2. Milliy mahsulotning iqtisodiy mazmuni .....	228
12.3. Yalpi ijtimoiy mahsulotning tarkibiy qismlari va harakat shakllari .....	230
12.4. Milliy iqtisodiyot va iqtisodiy mustaqillik .....	233

### **13-bob. ISTE'MOL, JAMG'ARISH VA INVESTITSİYALAR**

13.1. Iste'mol va jamg'arishning iqtisodiy mazmuni .....	235
13.2. Iste'mol va jamg'arish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, ularni belgilovchi omillar .....	237
13.3. Jamg'arishning mohiyati va omillari .....	238
13.4. Jamg'arish bilan iste'mol o'rtasidagi optimal nisbat .....	240
13.5. Iste'mol qilish va jamg'arma qilishga bo'lgan o'rtacha va maksimal moyillik .....	240
13.6. Investitsiyaning iqtisodiy mazmuni va uning darajasini belgilovchi omillar .....	241
13.7. Investitsiyaning o'zgaruvchanligi, investitsion faollik, investitsion muhit, investitsiyaning xavf-xatarini hisobga olish .....	244
13.8. Loyiha risklari va ularning tasnifi .....	248
13.9. O'zbekistonda investitsiya faolligini ta'minlash .....	251

### **14-bob. ISHCHI KUCHI VA UNING BANDLIGI**

14.1. Ishchi kuchining takror yaratilishi .....	254
14.2. Ishchi kuchining miqdori va sifat jihatlari .....	255
14.3. Aholi o'sishining ishchi kuchi taklifiga ta'siri .....	257
14.4. Ishchi kuchiga talab va taklif. Ishsizlikning mazmuni, kelib chiqish sabablari .....	258
14.5. Ishsizlik turlari va ularning farqlari .....	259
14.6. Ishsizlikning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari. Ouken qonuni .....	260
14.7. Inflatsiya va ishsizlikning o'zaro bog'liqligi. Fillips egri chizig'i .....	263
14.8. Ishchi kuchini qayta taqsimlashning bozor mexanizmi. Ish bilan bandlikni ta'minlashda davlatning roli .....	264
14.9. O'zbekistonda demografik vaziyatning bandlikka ta'siri. Ishsizlarni ijtimoiy himoyalash .....	266

### **15-bob. MOLIYA TIZIMI**

15.1. Moliya munosabatlarining mohiyati va vazifalari .....	271
15.2. Moliya, uning funktsiya va vazifalari .....	272
15.3. Moliya tizimi va uning bo'g'inlari tavsifi .....	275
15.4. Davlat bilan korxonalar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar .....	279
15.5. Moliyaning takror ishlab chiqarish, taqsimot, rag'batlantirish, nazorat qilish vazifalari .....	279
15.6. O'zbekistonda moliya bozorini shakllantirish jarayoni .....	280
15.7. Davlat budjetining xususiyatlari .....	287

15.8. Davlat budjetining taqsimlash va nazorat funksiyalari .....	288
15.9. Davlat budjetining shakllanishi. Budjet daromadlari .....	289
15.10. Davlat budjeti xarajatlari .....	290
15.11. Budjet taqchilligi va uni bartaraf etish yo'llari .....	291
15.12. O'zbekistonda budjet tizimini takomillashtirish .....	292
15.13. Soliq tizimining vujudga kelishi. Soliqlarning mohiyati .....	295
15.14. Soliqqa tortish tamoyillari .....	296
15.15. Soliq turlari .....	297
15.16. Soliq stavkasi .....	299
15.17. Soliq nazorati va soliq tizimini boshqarish .....	300
15.18. Soliq imtiyozlari .....	301

*16-bob. KREDIT, SUG'URTA VA BANK TIZIMI.  
PUL MUOMALASI*

16.1. Kreditning mohiyati, vazifalari .....	303
16.2. Kredit turlari .....	304
16.3. Sug'urta tushunchasi, sug'urta turlari .....	307
16.4. Sug'urta kompaniyasi .....	315
16.5. Bank tizimi .....	319
16.6. Markaziy bank va uning vazifalari .....	322
16.7. O'zbekiston Respublikasida bank tizimini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari .....	323
16.8. Pul muomalasi .....	324
16.9. Inflatsiya va uning sabablari .....	326
16.10. Inflatsiyaning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari .....	327
16.11. O'zbekistonda milliy pul tizimini shakllantirish va uni mustahkamlash bosqichlari .....	329

*17-bob. JAHON BOZORI VA XALQARO SAVDO*

17.1. Xalqaro tovarlar va xizmatlar savdosi .....	333
17.2. To'lov balansi .....	337
17.3. Savdo balansi .....	338
17.4. Xalqaro valuta tizimi va valuta munosabatlari .....	340
Foydalanilgan adabiyotlar .....	344



MUTALIBJON YO'LDOSHEV,  
SHUKURJON MAMATQULOV,  
FARHOD YO'LDOSHEV

## **IQTISODIYOT NAZARIYASI**

*Kasb-hunar kollejlari uchun darslik*

2-nashr

Toshkent — «ILM ZIYO» — 2016

Muharrir *I. Usmonov*  
Badiiy muharrir *M. Burhonov*  
Texnik muharrir *F. Samadov*  
Musahhah *T. Mirzayev*

Noshirlik litsenziyasi AI № 275, 15.07.2015-yil.

2016-yil 29-avgustda chop etishga ruxsat berildi. Bichimi 60×90<sup>1/16</sup>.  
«Tayms» harfida terilib, ofset usulida chop etildi. Bosma tabog'i 22,0.  
Nashr tabog'i 20,0. 1706 nusxa. Buyurtma № 50.

«ILM ZIYO» nashriyot uyi, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Shartnoma № 25–2016.

«PAPER MAX» xususiy korxonasida chop etildi.  
Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Y73 **Yoʻldoshev M. va boshq. IQTISODIYOT NAZARIYASI**  
(Kasb-hunar kollejlari uchun darslik) (2-nashr). T.:  
«ILM ZIYO», 2016. — 352 b.

UOʻK 330.8 (075)  
KBK 65.01ya722

ISBN 978-9943-16-300-3